

## HAMKORLARIMIZ:

TURKIYA RESPUBLIKASI BASHKENT  
UNIVERSITETI

OZARBAYJON RESPUBLIKASI MILLIY ILMLAR  
AKADEMIYASI FOLKLOR INSTITUTI

NASIMIY NOMIDAGI TILSHUNOSLIK INSTITUTI

NIZOMIY GANJAVIY NOMIDAGI ADABIYOT INSTITUTI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT

O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



## FILOLOGIYA VA SAN'ATSHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI

I JILD



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI  
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

KOMIL XORAZMIY TAVALLUDINING  
**200** YILLIGI VA MUHAMMAD RAHIMXON FERUZ  
TAVALLUDINING **180** YILLIGI MUNOSABATI  
BILAN O'TKAZILADIGAN

**FILOLOGIYA VA SAN'ATSHUNOSLIKNING  
DOLZARB MASALALARI**  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman  
MATERIALLARI



2025-YIL 3/4-IYUN, URGANCH SHAHRI



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**TURKIYA RESPUBLIKASI BASHKENT UNIVERSITETI  
OZARBAYJON RESPUBLIKASI MILLIY ILMALAR AKADEMIYASI  
FOLKLOR INSTITUTI**

**NASIMIY NOMIDAGI TILSHUNOSLIK INSTITUTI  
NIZOMIY GANJAVIY NOMIDAGI ADABIYOT INSTITUTI  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**FILOLOGIYA VA SAN‘ATSHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman  
MATERIALLARI**

**3/4-iyun, 2025-yil  
I jild**

**URGANCH - 2025**

**UO‘K: 80:7.01(575.171)(09)(06)**

**KBK: 80+85ya43**

**F 60**

Filologiya va san’atshunoslikning dolzarb masalalari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari [Matn] I Jild. – Xorazm: Khwarezm publication, 2025. – 452 b.

*Mazkur to‘plamda “Filologiya va san’atshunoslikning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari jamlangan. To‘plamda xorij hamda respublikamizning atoqli filolog olimlari, yosh tadqiqotchilar va talabalarining maqolalari o‘rin olgan. To‘plam filolog olimlar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar va barcha qiziquvchi kitobxonlarga mo‘ljallangan.*

### **HAMKORLARIMIZ:**

**TURKIYA RESPUBLIKASI BASHKENT UNIVERSITETI  
OZARBAYJON RESPUBLIKASI MILLIY ILMLAR AKADEMIYASI  
FOLKLOR INSTITUTI  
NASIMIY NOMIDAGI TILSHUNOSLIK INSTITUTI  
NIZOMIY GANJAVIY NOMIDAGI ADABIYOT INSTITUTI  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

### **MAS’UL MUHARRIR:**

**Dilshod G‘AYIPOV** – *UrDU Filologiya va san’at fakulteti dekani, filologiya fanlari doktori(DSc), professor.*

### **TAQRIZCHILAR:**

**Salomat MATKARIMOVA** – *UrDU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.*

**Nasiba SABIROVA** – *Xorazm viloyati PMM “Tillarni o‘qitish metodikasi” kafedrasida mudiri, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.*

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Filologiya va san’at fakulteti. Komil Xorazmiy tavalludining 200 yilligi va Muhammad Rahimxon Feruz tavalludining 180 yilligi munosabati bilan **“Filologiya va san’atshunoslikning dolzarb masalalari”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari (3/4-iyun, 2025-yil, Urganch).

### **Tashkiliy qo‘mita raisi:**

**S.Xodjaniyazov** – *UrDU rektori v.v.b., pedagogika fanlari doktori, professor.*

### **Tashkiliy qo‘mita raisi o‘rinbosarlari:**

**Z.Ibragimov** – *UrDU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), dotsent.*

**G‘.O‘razboyev** – *UrDU Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektori.*

### **Tashkiliy qo‘mita a‘zolari:**

**D.G‘ayipov** – *Filologiya va san‘at fakulteti dekani, f.f.d., prof.*

**S.Atajanov** – *Ilmiy ishlar va xalqaro hamkorlik bo‘yicha dekan o‘rinbosari, PhD, dotsent.*

**A.Primov** – *O‘zbek tilshunosligi kafedrasini mudiri, f.f.d., prof.*

**B.Rahimova** – *O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, f.f.n., dots.*

**S.Ruzmetov** – *Rus tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, PhD, dots.*

**K.Abdirimov** – *San‘at kafedrasini mudiri, katta o‘qituvchi.*

**S.Matkarimova** – *O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, f.f.n.*

**Sh.Alimova** – *O‘zbek tilshunosligi kafedrasini dotsenti, PhD.*

**M.Otamuratova** – *O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini o‘qituvchisi.*

**S.Matnazarova** – *O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini o‘qituvchisi.*

**R.Ganjayeva** – *O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini o‘qituvchisi.*

**Sh.Katayeva** – *Rus tili va adabiyoti kafedrasini o‘qituvchisi.*

**D.Obidov** – *San‘at kafedrasini o‘qituvchisi.*

**To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning ilmiy va uslubiy jihatlariga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.**

**ISBN: 978-9910-565-01-4**

**©“Khwarezm publication” MChJ nashriyoti, 2025 y.**

© Filologiya va san‘atshunoslikning dolzarb masalalari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari I jild.

## XORAZM ADABIY MUHITINING SOHIRNAFAS IKKI SHOIRI

**Sardor Xodjaniyazov,**  
*pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.*

Ko‘plab iste’dodli so‘z san’atkorlari kamol topgan ma’rifat maskani – Xorazm adabiy muhiti XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib o‘zining yuksak taraqqiyot bosqichiga ko‘tarildi. Munis, Ogahiy, Komil, Feruz, Rojiiy, So‘fi, Bayoniy, Tabibiy, Niyoziy, Devoniy, Ojiz, Haqiriy, Avaz va boshqa shoirlarni uyushtirgan adabiy muhit adabiyot olamida o‘ziga xos mavqe qozondi. Davr adabiy hayotining rang-barangligi, an’analar va yangiliklar uyg‘unligi bu davrda ijod qilgan qalam sohibi Komil Xorazmiy faoliyatida ham aks etdi.

XIX asrning yirik shoiri, tarjimoni, sozandasi, musiqashunos va tarixchi olimi, xattoti va davlat arbobi Pahlavon Muhammad Niyoz - Komil Xorazmiy o‘zining jonbaxsh, o‘ynoqi, shirali g‘azallari, qasida, muxammas, musaddas, musabba’, murabba’, muammo, masnaviylari bilan adabiyot olamida chuqur iz qoldirgan ulkan lirik shoirdir. Zullisonayn sifatida 2 tilda – ona tili va fors tilida ijod qilgan shoirning go‘zal badiiy yaratmalari o‘z zamonasidayoq yuksak e’tirof topdi va xalq orasida shuhrat tutdi. Doimo adolat va taraqqiyot, yangilik tarafdori bo‘lib, el-yurt manfaatlarini kuylagan Komil Xorazmiyning g‘azallari, muxammaslari asosida yaratilgan qo‘shiqlar san’at durdonalari sifatida asrlar bo‘yi kuylanib kelinadi. U asarlarida zulm va jaholatni qoraladi, xalqining farovon hayot kechirishini, go‘zallik va yangilikka intilib yashashini, shaharlarning dunyo shaharlari bilan bo‘ylashishini, har jihatdan yuksalib, dunyoga yuz tutishini istadi.

Xorazmdagi jo‘shqin va sermahsul adabiy muhitning gullab yashnashida, so‘zsiz, Xiva xoni Muhammad Rahimxon Soniy – Feruzning xizmatlari katta bo‘ldi. Bayoniy o‘zining ”Shajarai Xorazmshohiy” nomli asarida Muhammad Rahimxon Soniyning har haftada ikki kun saroyda mushoira o‘tkazganligini, shoirlik qobiliyati bo‘lganlarni moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlab, nazm ahliga shart-sharoitlar yaratganligini, o‘zi ham ijod bilan jiddiy shug‘ullanganligini yozadi. Ayni davrda adabiy muhitda ellikdan ortiq shoirning

ijod qilganligi ana shu e'tiboru rag'batning samarasi deyish mumkin. Ayniqsa, uning tashabbusi bilan Xivada toshbosmaning tashkil etilishi madaniy hayotdagi o'ziga xos o'sish bo'ldi. Adabiy muhitda ko'plab shoirlarning devon tartib berishlari, tarixiy asarlar, tazkiralar yozishlari, tarjima ishi rivoji ham bevosita Feruzning tashabbusi bilan bo'lganligi kitoblarda qayd qilingan. Shu bilan birga Feruz dilbar g'azallar yozdi, ayni paytda tatabbu'navislik, muxammaschilikning yuksak darajada rivoj topishiga hissa qo'shdi.

Komil Xorazmiy va Feruzning mumtoz she'riyatning g'azal, muxammas, musaddas, ruboiy va boshqa janrlarida yozilgan asarlari o'z mavzusi, badiiyati bilan adabiyot muhiblarini o'ziga maftun etib keladi. O'ylaymizki, bunday talqinlar konferensiya davomida yetuk olimlar, tadqiqotchilar tomonidan ham e'tirof etiladi.

Konferensiyamizga xorijdan va respublikamizning turli hududlaridan tashrif buyurgan tadbir ishtirokchilariga samimiy minnatdorchiligimizni bildiraman.

Konferensiya ishiga omad tilayman!

# 1-SHO‘BA: KOMIL XORAZMIY HAYOTI VA IJODINI O‘RGANISH MASALALARI

## IJODIY TAFAKKUR TAKOMILINING XIVA ADABIY MUHITIGA XOS MEZONLARI

**Nurboy Jabborov**  
**filologiya fanlari doktori, professor,**  
**Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti**

### **Annotatsiya**

Maqolada Xiva adabiy muhitiga xos usul – g‘azalning matla’dan maqta’gacha yagona badiiy san’at asosiga qurilishi yuzasidan tahliliy fikrlar bildirilgan. Ushbu usul poetik shakl yangilanishi hamda irfoniy mazmun va badiiy talqin uyg‘unlashuvi orqali ijodiy tafakkur yuksalishiga xizmat qilgani asoslangan.

**Tayanch so‘zlar:** adabiy muhit, usul, badiiy san’at, irfoniy mazmun, shakl yangilanishi.

### **Аннотация**

В статье приводятся аналитические рассуждения о специфическом для хивинской литературной среды методе – построения газели на основе единого художественного искусства от матла до макта. Этот метод основан на обновлении поэтической формы и на том факте, что он послужил развитию творческого мышления за счет сочетания мистического содержания и художественной интерпретации.

**Ключевые слова:** литературная среда, метод, художественное искусство, мистическое содержание, обновление формы.

### **Annotation**

The article presents an analytical discussion on a stylistic method specific to the literary environment of Khiva — the construction of a ghazal based on a single artistic device from the matla (opening part) to the maqta (closing couplet). It is substantiated that this method contributed to the elevation of creative thinking through the renewal of poetic form and the harmonious integration of spiritual (gnostic) content and artistic interpretation.

**Keywords:** literary environment, method, artistic device, spiritual content, renewal of form.

Adabiy muhit qanday ijtimoiy-siyosiy va adabiy-estetik omillar natijasida yuzaga keladi? U adabiy muhit sifatida e’tirof etilishi uchun qaysi mezonlarga javob berishi taqozo etiladi? Uning takomillashuvi uchun nimalar talab qilinadi?

Muayyan adabiy muhitning o‘ziga xosligini belgilovchi mezonlar nimalardan iborat? Bu adabiy maktab umummilliy adabiyotga qanday badiiy kashfiyotlarni bergan? Adabiyotshunoslikda, garchi adabiy muhitlar bo‘yicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa ham, bu kabi savollar ustida chuqur ilmiy-nazariy xulosalar bildirilgan emas. Bu masalalar sotsio-psixologik hamda adabiy-estetik yondashuvlar asosidagi ilmiy-nazariy tahlili va yechimini kutayotir. Yurtimiz hududida Xiva, Qo‘qon, Buxoro, Samarqand va Toshkent hududida o‘ziga xos ijodiy an‘analarga ega adabiy muhitlar yuzaga kelgani, ular muazzam milliy adabiyotimiz taraqqiysiga, millat estetik tafakkurining yuksalishiga xizmat qilgani ayon. Ushbi maqolada Komil Xorazmiy va Muhammad Rahimxon Feruz ijodi misolida Xiva adabiy muhitining o‘ziga xosligi, ikki ulug‘ shoirning badiiy kashfiyotlari, o‘zbek adabiyoti tarixida tutgan o‘rni haqida mulohaza yuritiladi.

Xiva adabiy muhiti namoyandalari asarlaridagi yondosh adabiy maktablar vakillari ijodiyotidan alohida ajralib turadigan badiiy kashfiyotlar poetik shakl yangilanishida, ayniqsa, yaqqol kuzatiladi. She’rni matla’dan maqta’gacha yagona badiiy san’at asosiga qurish – faqat mazkur adabiy muhit ijodkorlari asarlaridagina kuzatiladigan usul. Komil Xorazmiyning boshdan-oxir kitobat san’ati asosiga qurilgan g‘azali mazkur usulning nodir namunasi. G‘azal quyidagi baytlar bilan boshlangan:

“Ayn”-u “shin”-u “qof”inga to bo‘ldi ko‘nglum muftalo,

“Dol”-u “ro”-u “dol”-u hajringdin damu erman judo.

“Mim”-u “jim”-u “mim”u “vov”-u “nun” kibi ko‘nglum mudom,

Hajr aro sargashtadur, ey “lom”-u “yo”-u “lom”-u “yo” [5, 5<sup>6</sup>-6<sup>a</sup>].

Ishqiy mazmundagi ushbu g‘azalda shoir poetik mazmuni so‘zlar orqali emas, ular tarkibidagi harflarning arabiy nomlari vositasida ifodalaydi. Ushbu tajribani Komilgacha biror ijodkor qo‘llagani ma’lum emas. Matla’ va undan keyingi baytda “ishq”, “dard” so‘zlari hamda “Majnun”, “Layli” ismlari mazkur usulda darj etilgan. Mumtoz she’riyatda ishq – yetakchi mavzu. O‘z navbatida, ishq dardni taqozo etadi. Hazrat Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida:

*“Bo‘lurdin dahr bo‘stonida mavjud, Emasdur g‘ayri so‘zu dard maqsud [1, 432], deb yozgan edi. Bu o‘rinda “so‘z” – yonmoq ma’nosida. Demak, buyuk mutafakkir fikricha, ishq yo‘lida dard chekmoq va yonmoq – inson hayotining asl mazmuni shunda. Bu hol Komil Xorazmiyning matla‘da “ishq” va “dard”ni, keyingi baytda ana shu tushunchalar timsoli bo‘lgan Majnun va Laylini zikr etishi zamirida teran mohiyat mujassam ekanidan dalolat beradi.*

“Xo”-u “alf”-u “lom”-u zulfung ko‘rgali ko‘nglum qushi,  
Bo‘ldi bandi “g‘ayn”-u “mim”-u bastai domi balo.

Istaram Laylivashimdin majlis ichra “lom”-u “bo”,  
Dedi: ey Majnun, magar ichmishdurursan “mim”-u “yo”.

Ushbu baytlarda “xol”, “g‘am”, “lab”, “may” singari irfoniy ramzlar tilga olingan. Chunki Komil Xorazmiy faqat shaklgagina e’tibor qaratmagan. Har bir baytga o‘zaro uyg‘un, bir-birini taqozo etadigan istilohlarni jamlagan. Yana bir muhim jihati, g‘azalning avvaldan-oxir yagona san’at asosiga qurilgani unda boshqa san’atlar ham ishtirok etishi imkoniyatini istisno etmaydi. Ushbu ikki baytda “ko‘nglum qushi”, “domi balo” birikmalari orqali istiora, Layli va Majnun timsolida talmeh san’atidan mahorat bilan foydalanilgani buning isbotidir.

“Kof”-u “vov”-u “zo”larimdin to yuzung bo‘ldi nihon,  
“To”-u “yo”-u “ro”-u “ho” bo‘lmish manga subh-u maso.

“Ayn”-u “ro”-u “zod”ima solg‘il quloq, ey sangdil,  
Tokay aylarsen manga hijronda “jim”-u “vov”-u “ro”.

Yor yuzi ko‘zdan nihon bo‘lgani, ya’ni hajr bois oshiq uchun kun-u tunning tiyra bo‘lishi – shakl uchun mazmun boy berilmagani dalili. “Ko‘z”, “tiyra”, “arz”, “javr” kabi irfoniy tushunchalar zamirida teran ma’no ifodalangani, “subh-u maso” so‘zlari orqali tazod “sangdil” so‘zi vositasida sifatlash kabi san’atlar badiiyatni kuchaytirgani ham yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi.

“Vov”-u “alf”-u “lom”-u “ho” bo‘ldi ko‘ngul ruxsoringa,  
“Bo”-u “lom”-u “bo”-u “lomo”so qilur doim navo.

Har kishi bo‘lsa sango gar “ayn”-u “alf”-u “shin”-u “qof”,

Hajr aro ish ango oh-u “nun”-u “alf”-u “lom”-u “ho”.

“Qof”-u “alf”-u “nun” yutar ko‘b “kof”-u “alf”-u “mim”-u “lom”,

“Ro”-u “ho”-u “mim” qil holig‘a, ey shirinliqo.

Yor ruxsoriga vola – maftun bo‘lgan ko‘ngilning bulbuloso navo qilishi ishq taqozosi bo‘lgan holdir. Kimki oshiq bo‘lsa, ishi hajr aro oh-u nola ekani talqini shoirning zohiran asosiy e‘tibor shaklga qaratilgandek tuyulgan g‘azalda poetik mazmuni ham kuchli badiiy mantiq asosida ifodalaganidan darak beradi. Maqta‘-baytda “kof”-u “alf”-u “mim”-u “lom” – Komilning “qof”-u “alf”-u “nun”, ya‘ni qon yutishi ta‘kidlanib, shirinliqo yordan rahm so‘rab iltijo qilishi obrazli suvratlangan. Ushbu g‘azal, birinchidan, Komil Xorazmiygacha va undan keyingi biror ijodkor asarida uchramaydigan yangi shaklda bitilgani, ikkinchidan matla‘dan maqta‘ga qadar yagona – kitobat san‘ati asosiga qurilib, parallel ravishda, boshqa san‘atlar ham mahorat bilan qo‘llangani, uchinchidan, poetik shakl va irfoniy mazmun kuchli badiiy mantiq negizida uyg‘un ifodalangani, to‘rtinchidan, falsafiy mohiyat va obrazli tasvir mutanosib ekani jihatidan mumtoz she‘riyatimizning nodir namunalaridandir.

Xiva adabiy muhitiga xos ushbu usulda boshqa badiiy san‘atlar misolida ham durdona asarlar yaratilgan. Jumladan, takrir san‘ati vositasida ham yuksak saviyadagi she‘rlar ijod etilgani kuzatiladi. G‘azalni boshdan-oxirigacha yagona san‘at asosida bitish usuliga Muhammad Rizo Ogahiy she‘riyatidan, ayniqsa, ko‘plab misollar keltirish mumkin. Mana, buyuk shoirning takrir san‘ati ohorli qo‘llangan g‘azalidan ayrim baytlar:

Nozaninlardur sanga, ey sarvinoz,

Ishqiboz-u ishqiboz-u ishqiboz.

Rahm qil hajring o‘ti keldi, base

Jongudoz-u jongudoz-u jongudoz.

Iltifoting aylagil ahvolima

Chorasoz-u chorasoz-u chorasoz.

Lutf etib ushshoq aro qilg'il meni

Sarfarozi sarfarozi sarfarozi...

Ko'r niyozin Ogahiyning, rahm qil,

Qilma nozi qilma nozi qilma nozi.

G'azalning ushbu baytlarida *ishqiboz*, *jongudoz*, *chorasoz*, *sarfarozi* va *qilma nozi* so'z hamda jumalari uch martadan takrorlangan. Aslida, buyuk iste'dod egalari takrordan saqlangan. O'rinsiz takroni, ayniqsa, ma'qul sanamagan. Lekin Ogahiyning mazkur g'azalida takror ayb emas, balki san'at maqomida irfoniy mazmuni kuchaytirishga, badiiyatni yuksaltirishga, shoir ijodiy niyatini ohangdor va ta'sirli ifodalashga xizmat qilgan. Atulloh Husayniy fikricha, ushbu badiiy san'at: "...ma'noning takriri, ya'ni ani muqarrar-u muhaqqaq qilmoq yanglig' nukta uchun lafzni takrorlamoq" [9, 172] ekani e'tiborga olinsa, ulug' ijodkor davomchilari bo'lgan Komil Xorazmiy, Muhammad Rahimxon Feruz va Ahmad Tabibiy singari shoirlar ana shu usulni ustozlarini takrorlamagan holda ohorli qo'llagani sabablari oydinlashadi. Komil Xorazmiyning quyidagi g'azali ham ushbu fikrni tasdiqlaydi:

Mango qilma, ey mohi olijanob,

Itob-u itob-u itob-u itob.

Erur ishqing o'tig'a ko'nglum mudom,

Kabob-u kabob-u kabob-u kabob.

Komil "...ijodiy merosining serqirraligi va adabiy-estetik ko'lami kengligi jihatidan mumtoz adabiyotimizda Alisher Navoiyga eng yaqin mavqeda turuvchi ijodkor – Muhammad Rizo Ogahiy"ga [3, 28] shogird ekanini e'tirof etgan. Ijodda ulug' ustozni an'analarini munosib davom ettirgan. Lekin ustozining taqlidchisi bo'lib qolmagan, mudom yangilikka intilgan. Yuqoridagi g'azalda Ogahiy qofiyadosh so'zni uch marta takrorlagan bo'lsa, Komil to'rt marta takror etmoqda. Shoir mohi olijanobga iltijo qilib, ishq o'tida ko'ngli mudom kabob bo'lgan oshiqqa itob – g'azab qilmaslikni so'rar ekan, fikrni takrirdan tashqari nido (ey mohi olijanob) va istiora (ishqing o'ti) san'atlari bilan ham ziynatlaydi. Ogahiy

ramali musaddasi mahzuf vaznini tanlagan bo'lsa, Komil mutaqoribi musammani maqsumni afzal ko'radi. Ogahiy g'azalida ifoda anchayin mayin, Komil she'rida esa tuyg'u shiddat bilan, jangovar talqin etiladi. "Mutaqorib" bahri shohnoma, jangnoma ruhidagi asarlar uchun tanlangani hisobga olinsa, lirik qahramonning yorga murojaatidagi shijoat sabablari oydinlashadi. Bu kabi tafovutlar Komilning mudom yangilikka intilgani va o'ziga xos badiiyat durdonalarini yaratishga erishgani isbotidir.

Chu kelding, ketarman debon qilma ko'b,  
Shitob-u shitob-u shitob-u shitob.

Jamolingg'a boqg'onda solma onga,  
Niqob-u niqob-u niqob-u niqob.

Ayonki, g'azal baytlardan tarkib topadi. Bayt g'azalning ajralmas tarkibiy qismi bo'lsa ham, nodir iste'dod egalari she'riyatida bayt lirik kechinma, irfoniy mazmun va badiiy g'oya birligini ta'minlashi jihatidan alohida ahamiyatga ega. Negaki: "...semantik va sintaktik jihatdan mustaqil baytlar o'rtasida mantiqiy aloqadorlik fikriy ko'chuv vositasida emas, balki muayyan poetik motivni kuchaytirish, boshqa motivlardagi sabablarni sanash, izohlash, oqibatidan ogoh etish kabi yo'llar orqali amalga oshirilishi zarur" [4, 15]. Komil g'azalidagi baytlar ayni xususiyatiga ko'ra muayyan irfoniy-estetik vazifa bajaradi. Huzuriga tashrif buyurgan yordan ketishga shitob etmaslik, oshiq nazar solganda jamoliga niqob solmaslik haqidagi iltijo ifodasi baytlararo mantiqiy bog'lanish nechog'liq kuchli ekanini ko'rsatadi. Visol motiv quvvatli talqin etilganidan dalolat beradi.

Yuzung mus'hafi sharhi o'lg'ay necha,  
Kitob-u kitob-u kitob-u kitob.

Mug'anniy, cholib ayla ko'nglummi shod,  
Rubob-u rubob-u rubob-u rubob.

"Yuzung mus'hafi" istiorasi chuqur islomiy-irfoniy mohiyatga ega. S.Uludag'ning "Tasavvuf atamaları lug'ati"da yozilishicha: "Qur'on – a) hazrati Payg'ambar alayhissalomga yuborilgan so'nggi samoviy kitob; v) jam va ijmol

maqomi, muqobili esa Furqon va tafsil maqomi; s) inson, olamda yoyilgan holda mavjud bo‘lgan narsalar insonda jamlangan holda mavjudligi uchun unga, xususan, komil insonga va hazrati Rasululloh alayhissalomga Qur‘on deyiladi” [8, 322]. Ushbu baytda ana shu uch turdali ma‘no uyg‘un ifodalangan, deyish mumkin. Zero, solik muhabbati Alloh taologa bo‘lgani kabi kamolot timsoli bo‘lgan hazrati Payg‘ambar alayhissalomga ham bo‘lishi mumkin va zarur. Bu muhabbat ul zotning yuzida nuri zohir bo‘lgan Muhammad alayhissalomning eng ulug‘ mo‘jizasi saalgan Mus‘haf – Qur‘oni karim vositasida ifodalanishi tabiiy holdir.

Oshiq mug‘anniyga ko‘nglini shod etmoq uchun rubob chalishini o‘tinishi zamirida ham Sharq tasavvuf falsafasi turadi. “Mahbub ul-qulub”da Alisher Navoiy mana bunday yozadi: “Mutribi tarabafzo, mug‘anniyi g‘amzudo – ikalasiga dard-u hol ahli jon qilurlar fido. Ulki ko‘rguzgay muloyim tarona-u nag‘am, agar eshitguvchining hayoti naqdi anga fido bo‘lsa ne g‘am. Ko‘ngul quvvati – xushnavozdin, ruh quti – xushovozdin. Xushxon mug‘anniydin dard ahlining o‘ti tezdur, agar malohati bo‘lsa, hol ahlig‘a rustoxezdur” [2, 468]. Ya‘ni shodlik ulashuvchi sozanda va g‘amni arituvchi mug‘anniyga dard-u hol ahli – haqiqat ahli jon fido etadilar. Muloyim tarona va nag‘ma chaluvchiga tinglovchi hayotini fido qilsa, ajablanmaslik kerak. Xush navo – ko‘ngil quvvati va yoqimli ovoz – ruh tetikligi boisi. Xushohang sozanda dard ahli qalbidagi o‘tni kuchaytiradi va agar husni ham bo‘lsa, hol ahlining g‘avg‘osiga sabab bo‘ladi. Shoirning mug‘anniyga murojaati ana shunday teran irfoniy mazmunga ega. Mumtoz she‘riyatimizda talqin etilgan ishq hazrati Rasululloh alayhissalom timsolida yoki o‘zga mazhar misolida majozdan haqiqatga o‘sib boradi. Irfoniy mazmuni badiiy talqin etar ekan, Komil Xorazmiy ishq va oshiqlikning ana shu xususiyatini nazarda tutadi. Alisher Navoiy lirik asarlari tahlili natijasida Yoqubjon Is‘hoqov kelgan xulosa ham shunga uyg‘undir: “Navoiyning ishq masalasidagi konsepsiyasining asosiy mohiyati shundan iboratki, majoziy ishq haqiqiy ishqdan alohida olinib, unga qarama-qarshi qo‘yilmaydi. Balki, majoziy ishq ishq haqiqiyning bir ko‘rinishi yoki haqiqiy ishq yo‘lidagi o‘ziga xos bosqich

sifatida baholanadi. Ruhan pok, ma'naviy komil inson uchun majozning o'zi ayni haqiqatdir" [6, 25]. Komil Xorazmiy baytlarida ham ayni shu xususiyat o'z ifodasini topgani kuzatiladi.

Keyingi baytlar esa yuqorida zukur etilgan asl mohiyatdan uzoqlashmaslik, dunyo va undagi ne'matlarga ko'ngil qo'ymaslik zarurati ifodalangani jihatidan alohida ahamiyatga ega:

Binoyi jahon bordurur suv uza,  
Hubob-u hubob-u hubob-u hubob.

Onga ko'b ko'ngul qo'ymakim, bo'lg'ay o'q,  
Xarob-u xarob-u xarob-u xarob.

Sango bo'lsa ham oyu kun – qilma faxr,  
Rikob-u rikob-u rikob-u rikob.

Shoir "binoi jahon"ni, ya'ni bu dunyoni suv yuzidagi hubob – ko'pikka tashbeh etadi. Dunyo va undagi ne'matlarga ko'ngil qo'yib bo'lmasligiga urg'u beradi. Negaki, u xarob bo'lishga mahkum. Ushbu baytdagi "Xarob-u xarob-u xarob-u xarob" takrori umuman, takrir san'atining barcha baytlardagi namunalari teran irfoniy-estetik mazmunni aks ettiradi. Agar oy-u kunga sohib bo'lsang-u kun va tunni yoritish sengagina bog'liq bo'lib qolsa ham faxr qilmaginki, bu Yaratganning irodasidandir – mana, shoir nima demoqchi.

Erur jiyfa dunyo, oning tolibi  
Kilob-u kilob-u kilob-u kilob.

Ushbu baytda ba'zi manbalarda qudsiy hadis, ayrimlarida hazrat Alining hikmati ekani aytilgan:

الدنيا جيفة، وطلابها كلاب

ya'ni "Dunyo – o'laksadir va uning toliblari esa – itlardir" mazmuni iqtibos san'ati vositasida betakror ifodalangan. "Kilob" (itlar) so'zining takrori ma'noning ta'sir kuchini bir necha baravar oshirgan. Ma'lumki, hadislar ikki xil bo'ladi: nabaviy va qudsiy hadislar. Nabaviy hadislar – Payg'ambarimiz alauhissalomning siyratlari, ul zotning hayotlarida ro'y bergan voqealar, muborak odatlari ifodasi. Qudsiy

hadislar esa Alloh taolodan nozil bo‘lgan. Shuning uchun ular “Alloh taolo aytadiki” tarzida boshlanadi. Yuqoridagi baytda ifodalangan qudsiy hadis dunyoparastlik, dunyoga hirs qo‘yish, nafsga qul bo‘lishdan saqlanishga undashi jihatidan qimmatlidir.

Labing hajrida ichmagay Komiling,  
Sharob-u sharob-u sharob-u sharob.

Maqta‘da Yor labi hajridagi oshiqning ilohiy zavq timsoli bo‘lgan sharobni ichishdan o‘zini man’ etishi talqin etilgan. Demak muddao aniq: yor labi – mahbubi haqiqiy visoli. Ushbu yakun yuqoridagi baytlar tahlilidan kelib chiqadigan ahamiyatli badiy-irfoniy xulosani ifoda qiladi.

Takrir san’atining shu va shunga monand usullarda qo‘llanishi shoirning: *“Qilma arsh o‘lsa yering, oting Buroq, Tumtaroq-u tumtaroq-u tumtaroq”*, *“Loladek ishqingda ko‘nglum, ey nigor, Dog‘dor-u dog‘dor-u dog‘dor”*, bundan tashqari, *“Ko‘rmamish sendek jahonda hech bir gulzor gul, Kim sanga bordur badan gul, jabha gul, ruxsor gul”* matla‘li g‘azallarida ham kuzatiladi. Bu esa, Xiva adabiy muhitigagina xos ushbu usul Komil Xorazmiy she‘riyatida ijodiy tamoyil darajasiga ko‘tarilganini ko‘rsatadi.

Ogahiy va Komil singari ulug‘ shoirlarni ustoz deb bilgan Xiva hukmdori va salohiyatli ijodkor Muhammad Rahimxon Feruz devonida ham takrir san’ati matla‘dan maqta‘ga qadar har bir baytda qo‘llangan bir nechta g‘azallar borligi ayni usul ushbu adabiy muhitning alohida xususiyati ekanidan dalolat beradi. Shoirning:

Oftoboso jamoling ko‘rgach o‘ldum, ey, nigor,  
Beqaror-u beqaror-u beqaror-u beqaror –

matla‘li g‘azali takrirning nodir namunalaridandir. Feruz ustozlari an’anasini davom ettirish bilangina cheklanmaydi. Balki ushbu usulni yangi ifoda tarzi bilan boyitadi, takomilga yetkazadi. Har bir baytda asosiy sanalgan takrirdan tashqari boshqa bir qancha san’atlarni ham mahorat bilan qo‘llaydi. Bu orqali g‘azalda ishqiy-irfoniy mazmun va badiiy shakl uyg‘unligini ta’minlaydi.

Tig‘i ishq i xanjari nozingdin o‘ldum subh-u shom

Dilfigor-u dilfigor-u dilfigor-u dilfigor.

Shoir “dilfigor” soʻzini toʻrt bora takrorlash vositasida lirik kechinma va badiiy tasvirning yuksak darajadagi mutanosibligiga erishadi. Natijada poetik mazmunning taʻsir quvvati baland boʻlgan. Ushbu baytda, shuningdek, *tigʻi ishq*, *xanjari noz* birikmalari hosil etgan istiora, *subh* va *shom* soʻzlari ifodalagan qarama-qarshi maʼno orqali tazod sanʼatlari ham mahorat bilan qoʻllangani sheʼr badiiyati mukammal boʻlishida alohida oʻrin tutgan. “Takrirning mazmuni kuchaytirish, taʻkidlash maqsadlariga xizmat qilishi, badiiy soʻzning taʻsir kuchini oshirishi eʼtiborga olinsa, Feruzning ushbu sanʼatdan samarali istifoda etgani sabablari oydinlashadi” [7, 83]. Ishqiy-irfoniy gʻazalda oshiq lirik kechinmasini, uning ruhiyatida kechgan tuygʻularni butun koʻlami bilan ifodalash shoirning ijodiy salohiyatiga bogʻliq. Mana bu kabi mubolagʻali talqinlar Feruzning nazmiy iqtidori nechogʻliq baland boʻlganini koʻrsatishiga koʻra ham ahamiyatidir:

Oh-u nolam ayladi ishqingni oxir dahr aro

Oshkor-u oshkor-u oshkor-u oshkor.

Takrir sanʼati, avvalo, shoir ijodiy niyatini muayyan ohang orqali taʻsirli ifodalash imkonini yaratishi, ikkinchidan, poetik mazmunning taʻsir kuchini oshirishi, uchinchidan esa, gʻazal badiiyatini yuksaltirishi jihatidan qimmatlidir.

Mumtoz sheʼriyat anʼanasiga koʻra, oshiq ishi – javr-u zulm tortmoq, maʼshuqa yumushi esa – oshiqning hazin koʻnglidagi gʻamni orttirmoq. Navbatdagi baytda “beshumor” soʻzining toʻrt marta takrori ushbu anʼanaviy talqinga yangi ruh bagʻishlagan.

Javr-u zulming boʻlgʻondur man hazingʻa dam-badam,

Beshumor-u beshumor-u beshumor-u beshumor.

Feruz – oshiq ahvoli ruhiyasini xalq ogʻzaki ijodiga xos jonli, taʼirchan iboralar vositasida oʻquvchi koʻz oʻngida yorqin namoyon etishning hadisini olgan sanʼatkor shoir. “Koʻrgali yoʻlingda koʻz” – folklorga oid ushbu ibora ijodkor badiiy niyatini oʻquvchi qalbi va ruhiga joylashdek badiiy-estetik vazifani ado etishda alohida ahamiyatga ega. Takrir sanʼati “intizor” soʻziga asoslanishi ushbu mazmuni oʻquvchi qalbiga titroq soladigan darajaga yetkazgan:

Oy kibi farrux jamoling ko'rgali yo'lingda ko'z

Intizor-u intizor-u intizor-u intizor.

Feruz har bir baytda takrir yonida o'zga badiiy san'atlarni ham marjon kabi tizadi. "Oy kibi" tashbihi, yor jamolining "farrux" sifatlovchisi vositasida tasvirlanishi buning yorqin misolidir. Poetik mazmunning baytlararo badiiy-mantiqiy izchillikdagi talqini shoir ijodiga xos usul maqomiga ko'tarilgani e'tiborga molikdir. Keyingi bayt mutolaasi shunday to'xtamga kelish uchun yetarli asos beradi:

Noz ila so'rsang samanding sakratib yo'q sen kibi,

Shahsuvor-u shahsuvor-u shahsuvor-u shahsuvor.

Oshiq qachon baxtiyor bo'ladi? Qay vaziyatda u o'zini javr-u zulmdan ozod his etadi? Qachonki, hijron azoblari yakuniga yetsa. Qachonki, yor vasliga muyassar bo'lsa. E'tibor berilsa, mumtoz she'riyatimizda visol talqini kamdan-kam uchraydi. Qaysi janrda bitilmasin, aksar she'rlarda hijron dard-u iztiroblari tasviri yetakchilik qiladi. Feruzning ushbu g'azali maqta'i, salaflari va zamondoshlaridan farqli ravishda, visol talqini berilganiga ko'ra ham ahamiyatlidir:

Vaslinga yo'l topsa har kim bo'lg'ay ul Feruzdek

Baxtiyor-u baxtiyor-u baxtiyor-u baxtiyor.

Takrirning bunday usulda qo'llanishi Feruz qalamiga mansub boshqa g'azalarda ham uchraydi. Jumladan, "*Qilurman yutub shavqi la'lingda qon, Fig'on-u fig'on-u fig'on-u fig'on*" matla'li g'azali buning dalilidir.

Talmeh – mumtoz she'riyatimizdagi eng faol badiiy san'atlardan. Ijodida ulug' tarixiy siymolar, mashhur adabiy qahramonlar ismlari vositasida yuzaga keluvchi ushbu san'atni qo'llamagan shoir topilmasligi ayon. Biroq butun boshli g'azalni talmih san'ati asosiga qurish – o'zbek mumtoz adabiyotidagi noyob badiiy hodisa. Feruz devonida ana shunday g'azal bor. Bo'lganda ham, Sharq she'riyatining ulug' namoyandalari nomlari keltirilgan ushbu g'azal shoir o'rgangan nazm darg'alari ko'lami nechog'liq keng bo'lganini ko'rsatishi jihatidan qimmatlidir:

La'li shiriningni ta'rif aylab o'lmish shahdkom,  
Anvari-yu Fazli-yu, Xoqoni-yu Masnad mudom.

Chashmi fattoniga nargisni nechuk tashbeh etar,  
Soyib-u Bedil, Hiloliy, Hofizi shirinkalom.

Vah, ne yanglig' sharh qilg'ay orazing tavsifini,  
Unsuri-yu Asjadi-yu Farru-xu Sa'diy, Humom.  
Ko'rsa husnung Layli-yu Shirinni vasf etmas edi  
Xusravi-yu ham Navoiy, Jomi-yu Shayx Nizom.

O'xshatib bo'lmas yangi oyg'a muqavvas qoshlaring,  
Sayyido-yu Nozim-u Lutfiy, Kiromi-yu Xisom.

Sarvoso qomating vasfin qilurda lol o'lur,  
Andalib-u Ravnaq-u Ziyrak masihiy xush kalom.

Ogahi-yu Komil-u Feruz, Xolis, Chokaring,  
Roji-yu Mirzo-yu Akmal, Munis-u Xokiy, G'ulom.

Shoir buyuk salaflari nomlarini zikr etar ekan, ularni ijodining xususiyatidan kelib chiqib, muayyan guruhlarga ajratadi: 1) yor la'li shirinini ta'rif aylab shahdkom bo'lganlar; 2) ma'shuqa chashmi fattoniga nargisni tashbeh etganlar; 3) mahbuba orazi tavsifini sharh qilganlar; 4) Layli-yu Shirinni vasf etgan xamsanavis ijodkorlar – Xusraviy-u ham Navoiy, Jomiy-u Shayx Nizom. Shoir talqiniga ko'ra, agar ular Yor husniini ko'rganda, Layli-yu Shirin vasfidan tin olgan bo'lar edilar; 5) yorning muqavvas qoshlarini yangi oyga o'xshatib bo'lmasligi haqida nazm bitganlar; 6) ma'shuqaning sarvoso qomati vasfin qilurda lol bo'luvchilar; 7) shoirning Ogahiy, Komil, Xolis, Chokar, Rojiiy-u Mirzo-yu Akmal, Munis-u Xokiy, G'ulom singari zamondoshlari. Feruzning boshdan-oyoq talmehga asoslangan g'azali noyob badiiy-estetik hodisa bo'lishi barobarida shoirning Sharq adabiyoti darg'alari ijodini nechog'liq chuqur o'rganganini, bilim doirasi naqadar keng ekanini anglatishi jihatidan ham muhimdir.

Feruz hukmdor bo‘lish barobarida novator shoir hamdir. Uning nazmiy merosi orasida *“Dedim: “Ko‘zumni ravshan et mehri jamoling ko‘rsatib!” Dedi: “Uzorim o‘tig‘a joning netarsan o‘rtatib?!”* deb boshlanuvchi hamda *“Kulub dedi manga bu kecha dildor: “Bo‘lubmusan manga asru giriftor?”* matla‘li avvaldan to oxir savol-u javob san‘ati zaminida yaratilgan g‘azallari ham borligi ushbu fikrni tasdiqlaydi. Bir qancha san‘atlar misolida bunday g‘azallar uchrashi ushbu nodir usul shoir ijodining va o‘z navbatida, Xiva adabiy muhitining o‘ziga xos ijodiy tamoyili mavqeyiga ko‘tarilgani isbotidir. Eng muhimi, shoir lirik asarlarida ushbu usul g‘azalning zohiriy bezagigina emas, islomiy-irfoniy mazmun va adabiy-estetik mezon uyg‘unligini ta‘minlovchi omil vazifasini bajarib kelgan.

She‘riyatda shakl yangilanishi, o‘z navbatida, mazmunga ham yangi ruh beradi, ijodkor badiiy niyati ravshan va ta‘sirli ifodalanishini ta‘minlaydi. O‘zbek mumtoz she‘riyati, ma‘lumki, asrlar davomida an‘ana negizida yangilanib, takomillashib borgan. Ijodiy salohiyati baland shoirlargina shakl va u orqali mazmunni yangilay olgan, badiiy kashfiyotlari bilan poetik tafakkur takomiliga xizmat qilgan. Ushbu hodisaning Xiva adabiy muhitigagina xos ijodiy usul darajasiga ko‘tarilgani uning kanonik belgilari hamda adabiy-estetik ahamiyatini yanada chuqurroq o‘rganish masalasini kun tartibiga qo‘yadi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. /Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик: 6-жилд. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги НМИУ, 2011.
2. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-кулуб. /Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик: 9-жилд. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги НМИУ, 2011.
3. Жабборов Н. Огаҳийнинг адабий-эстетик ва маънавий-ахлоқий мезони. / Огаҳий шоир, муаррих, таржимон. – Урганч, 2019.
4. Жўраева Н. Ўзбек мумтоз адабиётида байт ва унинг поэтикаси: фил. фан. номз..... дисс. - Тошкент, 2004.
5. Комил Хоразмий. Девон. Ўзбекистон ФА ШИ, инв. № 1949.
6. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. –Тошкент: Фан, 1983.

7. Маҳаммадиева Ю. Ферузнинг бадиий маҳорати: филол. фан. фалс. д-ри дисс., Тошкент, 2021.

8. Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul: Marifet, 1995.

9. Феруз, Муҳаммад Раҳимхон. Элга шоҳу ишққа қул. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1994.

Хусайний А. Бадойиъу-с-санойиъ. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981.

## **KOMIL XORAZMIY LIRIK MEROSINI O‘RGANISHDA QO‘LYOZMA BAYOZLARNING AHAMIYATI**

*Shahobiddin Nuriddinov,  
filologiya fanlari doktori,  
Qarshi davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Maqolada Komil Xorazmiyning turli lirik janrlardagi she’rlari o‘rin olgan qo‘lyozma bayozlar tavsifi keltirildi. She’rlarning matniy xususiyatlari atroflicha tahlil qilindi.

**Annotation.** The article describes the manuscripts of Kamil Khorezmi's poems in various lyric genres. The textual features of the poems are analyzed in detail.

**Аннотация.** В статье описаны рукописи стихотворений Камила Хорезми в различных лирических жанрах. Подробно проанализированы текстовые особенности стихотворений.

**Kalit so‘zlar:** *bayoz, qo‘lyozma, lirik janr, tahrir, kotib.*

**Ключевые слова:** *антология, рукопись, лирический жанр, редактировать, переписчик.*

**Key words:** *anthology, manuscript, lyric genre, edit, scribe.*

Qo‘lyozma manbalar mumtoz adabiy merosimizni tadqiq qilishning asosiy manbasi hisoblanadi. O‘zbek mumtoz she’riyatining atoqli namoyandasi Komil Xorazmiy lirik merosini ham ilmiy va adabiy iste’molga kiritishda shoir devonining bir necha nusxalari bilan birga o‘nlab qo‘lyozma bayozlar qimmatli

manba bo‘lib xizmat qiladi. Negaki, “bayozlar o‘z davrida kitobxonning adabiyotga bo‘lgan ma’naviy ehtiyojini qondira oladigan ommaviy asarlardan biri bo‘lgan” [2.: 12.]. Qolaversa, XVIII asrdan XX asr boshlariga qadar ko‘chirilgan yuzlab bayozlar bugungi kunda ham mumtoz adabiyotimiz tadqiqi uchun o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Xorazmda tartib berilgan qo‘lyozma bayozlar bu borada alohida qimmatga ega. Matnshunos M.Hamidova e’tirof etganidek, “bayozlar ichida xorazmlik shoirlar tomonidan tuzilgan qo‘lyozma bayozlar o‘zining kompozitsiyasi, she’rlarning g‘oyaviy mazmuni, kitobat uslubi hamda savodli yozilgan go‘zal xati bilan alohida ajralib turadi” [2.: 32.].

Quyida Komil Xorazmiy ijodiy merosi o‘rin olgan O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan ayrim e’tiborli manbalar xususida to‘xtalamiz.

Komil Xorazmiyning nazmiy asarlari o‘rin olgan mazkur fondagi qo‘lyozmalar:

**6977 raqamli qo‘lyozma.** Bayozda yigirmadan ortiq shoirning g‘azal, muxammas, musaddas, musabba’ va ruboiylari jamlangan. Kotibi: Muhammad Komil devon ibn Ismoil devon Xorazmiy. Hijriy 1324 (1906/1907) yilda Xorazmda ko‘chirilgan. Hajmi: 177 varaq. Qo‘lyozma o‘lchami: 11,5x18,5sm. Matn o‘lchami: 8x12sm. Yashil rangli qattiq muqovada. Matn oddiy fabrika qog‘oziga qora siyohda yozilgan. She’rlar avvalida sarlavha va mualliflar nomi qizil rangda mayda nasta’liq xati bilan har bir sahifada ikki ustun shaklida ko‘chirilgan. Ushbu bayozdan Komil Xorazmiyning “Ey durri nob ishqinga jonlar xazinalar” (117<sup>a-b</sup> sahifalar), “Ey pari, nihon jilvang gah-gahi ayon etgil” (129<sup>a-b</sup> sahifalar), “Sanamlar manga ko‘b sitam qildilo” (139<sup>a-b</sup>-sahifalar) misralari bilan boshlanuvchi uch g‘azali, ikkita (tab’i xud) muxammas (157<sup>a</sup>-160<sup>b</sup>-sahifalar), ikkita musaddas (162<sup>b</sup>-166<sup>b</sup> sahifalar) va bir musabba’si (166<sup>b</sup>-168<sup>a</sup> sahifalar) o‘rin olgan. Qo‘lyozmadagi g‘azallarning barchasi boshqa manbalarda 11 baytli bo‘lib, ushbu bayozda ularning har biri yetti bayt hajmida ko‘chirilgan, ya’ni to‘rt baytdan qisqartirilgan.

**1132 raqamli qo'lyozma.** Bayozi muxammasot. Kolofonda qo'lyozmaning Muhammad Rahimxon Feruz farmoni bilan tuzilgani va 1323 yil jumodul avvalning 23ida (1905-yil 26-iyul) ko'chirib tugallangani to'g'risida kotib Mulla Boltaniyoz bin usta Qurbonniyoz Xarrotning qaydi mavjud. Hajmi: 140 varaq. Qo'lyozma o'lchami: 13,5x21,5sm. Qo'lyozma marmar naqshli sariq fabrika qog'oziga nasta'liq xatida bitilgan. Har bir sahifaga muxammaslarning uchtadan bandi joylashtirilgan. Matn hoshiyaga olinib, mualliflar ismi qizil siyohda ajratib ko'rsatilgan. Teridan ishlangan qora rangli qattiq muqovada. Bayozda Komilning 9 ta muxammasi bor.

Ushbu qo'lyozmada muxammaslar bandlarining o'рни almashgan, qisqartirilgan, ko'plab so'zlar o'zgartirilgan holatlar mavjud. Xususan, Navoiy va Ogahiyning "Bo'ldi tut" radifli, Ogahiyning "Istasang uqbo nishotin xotiri xurram bila", Rojiyning "Ul sanamkim, ko'zlarig'a shevadur jallodlig'" misralari bilan boshlanuvchi g'azallariga taxmislarida bandlar o'рни almashgan. Shuningdek, Navoiyning "Baqo dashti nechuk qat' o'lmasun, aylab murur ayyom" deb boshlanuvchi g'azaliga yetti bandli taxmisining to'rt bandi qisqartirilgan.

**1133 raqamli qo'lyozma.** Musaddasot. Feruz topshirig'iga binoan tuzilgan musaddaslar to'plami. Bayozda Navoiy, Munis, Ogahiy, Feruz, Rojiy, Komil, Bayoniy, Tabibiy, Fuzuliy, Amir, Nishotiy singari qirqdan ortiq shoirlarning o'zbek va fors tillarida yaratilgan musaddaslari mavjud. Qo'lyozma yashil rangli fabrika qog'oziga chiroyli nasta'liq xatida ko'chirilgan. Matn har bir sahifada to'rt ustun ko'rinishida ko'chirilgan bo'lib, oltinrang va qizil hoshiyaga olingan. Saqlanishi yaxshi. To'plovchi va kotibi – Muhammad YA'qub devon – Xarrot. Ko'chirilgan yili – hijriy 1327 (m.1909). 155 varaq. O'lchami 14X25,5. Bayozning 33-44 sahifalarida Komilning o'zbek tilidagi oltita musaddasi o'rin olgan.

**1135/V raqamli qo'lyozma.** Muxammasot. Ogahiy, Munis, Rojiy, Xolis, Komil, Navoiy muxammaslari, Umar Xayyom Shayx Sa'diy, Xoja Hofiz, Jomiy, Sulaymon Sovajiy, Navoiy ruboiylari o'rin olgan. Muxammas va ruboiylar alohida ramkalarga olingan. Hoshiyada she'r janri va muallifi ko'rsatilgan. Matn oltinrang

va ko'k ramkaga olingan, sahifa to'laligicha umumiy ramkaga ham olingan. Kotib tomonidan qo'lyozmaning har bir sahifasi alohida raqamlangan, keyinchalik institut ilmiy xodimlar tomonidan varaqlar qalamda alohida tartiblangan. Bayoz qo'lyozmasi boshqa manbalarga qaraganda o'zining xushxatligi, shoir muxammaslari sonining ko'pligi bilan ajralib turadi. Kotib Xudoybergan devon. Ko'chirilgan yili hijriy 1319 (m. 1901). 30 varaq. O'lchami 18X28,8.

Komilning 32 ta muxammasi berilgan.

**1155 raqamli qo'lyozma.** Kolofonda qo'lyozmaning Muhammad Rahimxon Feruz farmoni bilan tuzilgani va 1321 yil sha'bon oyi (1903 yil oktabr-noyabr)da ko'chirib tugallangani to'g'risida kotib Muhammad Sharif devon bin Ollohbergan devonning qaydi bor. Qo'lyozma marmar naqshli sariq fabrika qog'oziga nasta'liq xatida bitilgan. 233 varaq. O'lchami 12,5X21. Har bir sahifaga muxammaslarning uchtdan bandi joylashtirilgan. Matn ramkaga olingan. Muxammaslarning mualliflar qizil siyohda ajratib ko'rsatilgan. Muqovasi qora rangli teridan, qattiq muqovada.

Bayozda Komilning 33 ta muxammasi mavjud. Qo'lyozma shoir muxammaslarining katta qismi va nisbatan mukammal matnlari o'rin olgan manba ekani bilan e'tiborli.

**3326 raqamli qo'lyozma.** Majmuai g'azaliyot. Bayozdan uch yuzga yaqin shoirning g'azallari o'rin olgan. Ko'chirilgan yili 1298 (m.1881 yil), Kotib va muqovasoz Mulla Abdurahmon. Qo'lyozma Qo'qon (1<sup>a</sup>-64<sup>b</sup>) va fabrika (65<sup>a</sup>-100<sup>b</sup>) qog'oziga ko'chirilgan. Muqovasi uringan. Hajmi 100 sahifa. O'lchami 13X17,5.

Bayozdan Komilning "Bihamdillah maro shud tole'u iqbol rom imshab" (64<sup>a-b</sup>) misrasi bilan boshlanuvchi forsiy g'azali o'rin olgan.

**5058 raqamli qo'lyozma.** Muxammasot. To'plamga Navoiy, Munis, Ogahiy, Rojiiy, Munshiy, Komil va Xojalarning muxammaslari kiritilgan. Muxammas bandlari har bir sahifaga uch ustunda joylashtirilgan. Qo'qon qog'oziga yirik nasta'liq yozuvida bitilgan. Kotibi noma'lum. Qo'lyozmaning 156-sahifasida 1278 (m. 1861/1862) yili ko'chirilgani to'g'risida qayd mavjud. Bayoz qattiq karton muqovaga olingan bo'lib, keyingi davrda yuzaga kelgan tipografiyada ishlangan.

(Bizningcha, qo‘lyozma keyingi davrlarda muqovalangan.) Hajmi 158 varaq. O‘lchami 12X20.

Qo‘lyozmadan Komilning Navoiy, Ogahiy, Rojiiy va G‘oziiy g‘azallariga bog‘langan 10 ta taxmisi o‘rin olgan.

*7050 raqamli qo‘lyozma.* To‘plamdan Navoiy, Munis, Ogahiy, Rojiiy, Munshiiy, Komil va Xojalarning muxammaslari o‘rin olgan. Muxammas bandlari har bir sahifaga uch ustunda joylashtirilgan. Qo‘qon qog‘oziga yirik nasta‘liq yozuvida bitilgan. Kotibi noma‘lum. Yozuv unchalik chiroyli emas. Paleografik belgilariniga ko‘ra XIX asr so‘ngida ko‘chirilgan. Hajmi 146 varaq. O‘lchami 12,5X20,5. Muqova yashil, qattiq karton ustidan teri qoplangan.

Qo‘lyozmadan Komilning Navoiy, Ogahiy, Rojiiy va G‘oziiy g‘azallariga bog‘langan 7 ta taxmisi o‘rin olgan. Kotib qo‘lyozmani ko‘chirishda ancha erkin yondashgan. Ayrim o‘rinlarda turli darajadagi noo‘rin tahrirlar uchraydi. Masalan, Navoiyning “Taxtu johing kishvari mulki Sikandar bo‘ldi tut” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azaliga taxmisning ikkinchi bandi quyidagicha:

*Ilmi hikmatda agar o‘lsun Bu Ali Sino qulung,  
Davlatu hashmatda Afridun ila davron qulung,  
Arsai olamda hech kim bo‘lmasun, illo qulung,  
Bo‘yla hashmat topmog‘ingdin so‘ngra har adno qulung,  
Joh ila hashmatda Qoruncha tavongar bo‘ldi tut.*

Birinchi misradagi “gar” so‘zining “agar”, ikkinchi misradagi “Doro” so‘zining “davron” tarzida ishlatilishi vazn buzilishiga olib kelgan. Qolaversa, “davron” so‘zi bandning qofiyalanish tartibiga ham tushmaydi. Shuningdek, so‘nggi misradagi “hashmatda” so‘zi g‘azal matnida “muknatda” (“Badoye‘u-l-vasat” 69-g‘azal) tarzida berilgan.

Bundan tashqari, Sharqshunoslik institutida yana bir fond mavjud bo‘lib, bu Hamid Sulaymonov nomidagi (sobiq) Qo‘lyozmalar instituti fondidir. Hozirda Hamid Sulaymonov fondi deb yuritiladigan ushbu bo‘limda ham Komil Xorazmiy asarlari o‘rin olgan bir qancha qo‘lyozmalar mavjud. Quyida ularning eng e‘tiborlilari to‘g‘risida ma‘lumot beramiz.

**797/II raqamli qo‘lyozma.** Bayoz. “Muxammasot” nomli ushbu to‘plamda Ogahiy, Munis, Rojiy, Komil, Xoja kabi shoirlarining muxammaslari, shu bilan birga, g‘azal va qasida janrlaridagi she‘rlari ham keltirilgan. Qo‘lyozmada Komilning Muhammad Rahimxon soniyga bag‘ishlangan bir ta‘rixi(79<sup>a-b</sup> sahifalar), bir qasidasi (596<sup>a</sup>-97<sup>b</sup>-sahifalar), Navoiy g‘azaliga bir taxmisi (101<sup>a</sup>-102<sup>a</sup>-sahifalar) o‘rin olgan.

Bayoz Muhammad Rahim Said Bahodirxon buyrug‘iga ko‘ra 1896-yilda saroy kutubxonasi uchun ko‘chirilgan. Tuzuvchi Muhammad Ya‘qubxoja ibn Ibrohimxoja. Bayoz Qo‘qon qog‘oziga nasta‘liq xatida bitilgan. Hajmi 115 varaq. O‘lchami 11X20.

Qo‘lyozma ikki kitobdan iborat bo‘lib birinchi kitob Umar Xayyom va Xo‘ja Hofiz Sheroziy ruboiylari kiritilgan to‘plam. Ogahiy, Munshiy, Rojiy, Komil, Xojalarning she‘rlari ikkinchi kitobdan o‘rin olgan. Matnlar qizil va oltinrang hoshiyaga olingan. Jildan o‘rin olgan har ikki kitob so‘ngida Muhammad Rahimxonning muhri mavjud. Bayozda she‘rlari o‘rin olgan shoirlarning har biriga Ahmad Tabibiy “Majmua”sidan olingan qisqa bag‘ishlovlar mavjud. Xususan, Komil Xorazmiy shaxsiyati va ijodi to‘g‘risida quyidagicha ta‘rif berilgan:

*Balog‘at riyozida topg‘on kamol,  
Ado fahm, xushtab‘u nozik xayol.  
Laqab Komil erdi el ichra anga,  
Bo‘lub kasbu fazlu hunar borho.  
Bu dilkash qasida o‘shul xo‘rdadon,  
Masofa zamiridin o‘lmish ayon.*

**1569/VI raqamli qo‘lyozma.** “Ash‘ori Komil”. Qo‘lyozma turli ko‘rinishdagi(chiziqli, chiziqsiz, katakli) fabrika qog‘oziga chiroyli nasta‘liq xatida ko‘chirilgan. Muqovasi va ayrim sahifalari uringan. Barcha sahifalar hoshiyaga olingan. To‘plovchi va kotibi, ko‘chirilgan yili to‘g‘risida ma‘lumot yo‘q. O‘lchami 12X17.

Nuqsoni: Sahifalarni raqamlashda kotib tomonidan xatoga yo‘l qo‘yilgan: 559-sahifadan so‘ng 561-sahifa kelgan. Shuningdek, 565-sahifadan so‘ng 567-sahifa kelgan. Qo‘lyozma to‘liq emas. So‘nggi sahifadagi Fuzuliyning “Subh solib mehri ruxingdin niqob” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azali tugallanmay qolgan.

Ushbu to‘plamdan shoirning g‘azallari (553-554, 582<sup>b</sup> sahifalar), muxammas (554-555, 563, 568, 576-580-sahifalar), musaddas (556-562<sup>b</sup> sahifalar), musamman (561-563 sahifalar), murabba‘ (572-574 sahifalar), ruboiy (581-582 sahifalar) janrlaridagi she‘rlari va bahri tavil (569-572 sahifalar) o‘rin olgan.

Qo‘lyozmadagi she‘rlar boshqa manbalar bilan qiyoslanganda bir qancha tafovutlar kuzatiladi. Masalan, “Falak bedodidin maskan manga ko‘yi mazallatdur” deb boshlanuvchi murabba‘ning (birinchi va to‘qqizinchi bandlaridan tashqari) yetti bandi o‘rni almashgan. Shuningdek, ayrim so‘z va jumlar matn mazmuniga ta‘sir qiladigan darajada tahrir qilingan. Bu kabi “tahrir”lar g‘azallar matniga ham xos. Masalan, “Bir soat” radifli g‘azalning to‘rtinchi va beshinchi baytlari devon va bayozlarda quyidagicha:

*Kima bir xizmat etsam, aylag‘ay o‘rnig‘a yuz tuhmat,  
Asalg‘a, zahru gul o‘rnig‘a, sonchar xor bir soat.*

*Bo‘lub begonavash yillar yamonlig‘ oshkor etti,  
Kimakim oshnolig‘ ayladim izhor bir soat.*

Ushbu qo‘lyozmada ikki bayt birlashtirib yuborilgan, ya‘ni avvalgi baytning birinchi misrasi bilan keyingi baytning ikkinchi misrasi qo‘shilib “ulama bayt” hosil bo‘lgan:

*Kima bir xizmat etsam, aylag‘ay o‘rnig‘a yuz tuhmat,  
Kimakim oshnolig‘ ayladim izhor bir soat.*

Bayozlardan o‘rin olgan she‘rlar matnini o‘zaro qiyoslash natijasida quyidagi holatlar ko‘zga tashlanadi:

1. Matnlararo tahlilda ayrim so‘z, birikma va jumlar orasida jiddiy tafovutlar kuzatiladi. Ushbu o‘zgarishlar ayrim hollarda poetik mazmunga ta‘sir qilgan bo‘lsa, ba‘zan qofiya tizimining buzilishi yoki vazn saktaligiga olib kelgan.

2. Bayozlardagi she'rlar matnida ba'zan misralar, baytlar va bandlarning (hatto bir necha bayt va bandning) turli sabablarga ko'ra qisqartirilishi kuzatiladi. Bu esa o'z navbatida, matnda ijodkor badiiy niyati, maqsad va rejalarining ro'yobga chiqishiga xalal beradi.

Yuqorida keltirilgan bayozlar Komil Xorazmiy she'rlari o'rin olgan manbalarning eng e'tiborlilaridir. Devonlar bilan bir qatorda ushbu bayozlar shoir adabiy merosini tadqiq qilishda qimmatli manbalar sifatida xizmat qiladi. "Yuksak iste'dodli shoir, o'zbek ziyolilarining eng barkamol va mo'tabar vakillaridan biri Komil Xorazmiyning ijodiy merosi xalqimizning qimmatli boyligidir. Uni asrab-avaylash, undan yosh avlodni bahramand etmoq esa bizning sharafligimizdir" [3.: 109-110.].

Bayozlarning turli bilim va tajribaga ega kotiblar tomonidan har hil manbalardan ko'chirilgani ularning barchasini mukammal deb da'vo qilishga mone'lik qiladi. Bayozlardagi she'rlar matnini shoir devonining qo'lyozma va toshbasmalaridan o'rin olgan matnlar bilan qiyoslash bu borada izchil tadqiqotlar zaruratini ko'rsatadi. Ularni saralash, o'zaro qiyosiy o'rganish hamda mukammal matnlarini shakllantirish matnshunoslik va adabiyotshunoslikning galdagi vazifalaridandir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Komil. Devon. Nashrga tayyorlovchilar: A.Hayitmetov, V.Mo'minova. – Toshkent, 1975.
2. Hamidova M. Qo'lyozma bayozlar – adabiy manba. – Toshkent: "Fan", 1981.
3. Qayumov A. Adib va arbob. Asarlar. 8-jild. – Toshkent: "Mumtoz so'z", 2009.

## KOMIL XORAZMIY SHE'RIYATI TILIDA OSMON JISMLARI NOMLARINING LINGVOSTILISTIK XUSUSIYATLARIGA DOIR

*Primov Azamat Iskandarovich,*

*filologiya fanlari doktori, dotsent,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

*Berdimuratova Ro'za Raxmonovna,*

*tayanch doktorant,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Komil Xorazmiy ijodiy merosida osmon jismlari nomlarining qo'llanishi ilmiy tahlil qilinadi. Unda shoir asarlari tilida uchraydigan *Mehr, Xurshid, Quyosh, Oy, Moh, Qamar* kabi kosmonimlarning stilistik xususiyatlari va badiiy ifoda imkoniyatlari ochib beriladi. Tadqiqot Komil Xorazmiy merosini yanada chuqur o'rganish hamda uning eski o'zbek adabiy tili rivojlanishidagi o'rini belgilashga qaratilgan.

**Аннотация.** В статье научно анализируется использование названий небесных тел в творческом наследии Комила Хорезмий. Рассматриваются стилистические особенности и художественные выразительные средства космонимов, таких как *Мехр, Хуршид, Куёш, Ой, Мох, Камар*, встречающихся в языке произведений поэта. Исследование направлено на более глубокое изучение наследия Комила Хорезмий и определение его роли в развитии древнеузбекского литературного языка.

**Annotation.** This article provides a scholarly analysis of the use of celestial body names in the creative legacy of Komil Khorezmi. It examines the stylistic features and artistic expressive functions of cosmonyms such as *Mehr, Khurshid, Quyosh, Oy, Moh, and Qamar* as they appear in the language of the poet's works. The research aims to deepen the study of Komil Khorezmi's legacy and to define its role in the development of the Old Uzbek literary language.

**Kalit so'zlar:** Komil Xorazmiy, ijodiy meros, osmon jismlari, kosmonimlar, stilistika, eski o'zbek adabiy tili, poetik ifoda

**Ключевые слова:** Комил Хорезмий, творческое наследие, небесные тела, космонимы, стилистика, древнеузбекский литературный язык, поэтическое выражение

**Keywords:** Komil Khorezmi, creative legacy, celestial bodies, cosmonyms, stylistics, Old Uzbek literary language, poetic expression

Badiiy adabiyot, xususan, she'riyat tili doimo obrazlilik, poetik ifoda va ramziylik bilan ajralib turadi. Shu bois, she'riyatda tabiat hodisalari va osmon jismlariga oid leksik birliklar ham oddiy atama sifatida emas, balki estetik va semantik yuk oluvchi vositalar sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu maqolamizda Komil Xorazmiy ijodida uchraydigan osmon jismlarining nomlari va ularning lingvostilistik xususiyatlari haqida so'z yuritamiz.

She'riyat tilida qo'llaniladigan osmon jismlarining nomlari nafaqat nominative vazifa bajaradi, balki timsol, ramz va poetik vosita sifatida xizmat qiladi.

Komil Xorazmiy she'riyatida Quyosh, Oy, Zuhra, Mirrix kabi nomlar ko'pincha inson hayoti, muhabbat, vaqt, baxt va taqdir kabi mavzular bilan bog'lanadi. Masalan, Quyosh va Oy orqali sevgi tarannumi, ma'shuqa jamoli, orzu va umidlar ifodalanadi.

Komil Xorazmiy asarlarida Quyosh, Oy va boshqa osmon jismlari nomlari orqali ko'pincha muhabbat, sadoqat va abadiylik timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, shoir o'z g'azallarida Oy va yulduzlarning nomlarini keltirish orqali mahbubaning go'zalligini tasvirlaydi, quyosh orqali esa yor sevgisining qudratini ifodalaydi. Ushbu jihatlarni muayyan misollar vositasida ko'rib chiqamiz.

“Aylama” radifli g'azalida:

*Meni soyadek xoksor aylabon,*

*Oni sarbaland **oftob** aylama.”*

Oshiq o'zini sevgilisi tomonidan past nazar bilan qaralganidan (*soyadek xoksor ko'rilganidan*) iztirob chekadi, lekin raqibni yuksak, Oftobdek baland deb munosabatda bo'lmasin, deya yolvoradi. Bu o'rinda Oftob – soya zidlanishi mavjud.

“Lola” radifli g‘azalida oshiq shunday deydi: “Kun-u tun aylanib yurib, dashtu gulshanda (cho‘lda va bog‘da) sening yuzingga o‘xshash (go‘zal, porloq) bir narsa — na osmon, na yetti sayyora, na lola ham topilmadi”.

Tunu kun davr etib, hech ko‘rmdilar dashtu gulshanda,

Yuzingdek sab‘ai sayyora birla osmon, lola.

Bunda oshiq sevgilining go‘zalligini osmon va sayyoralardan ham yuqori qo‘ymoqda. Osmon, yulduzlar, sayyoralar va lolalar – tabiatdagi eng chiroyli, yorqin narsalar sifatida tasvirlangan. Ammo ularning hech biri sevgilining yuzi bilan tenglasha olmaydi.

“Sab‘ayi sayyora” – yetti sayyora qadimdan insoniyatda ma‘lum bo‘lgan osmon jismlaridir (Quyosh, Oy, Merkuriy, Zuhra, Mars, Mushtariy, Zuhal). She‘rda yuzni yeti sayyora qiyoslash orqali tashbeh yaratilgan, bu o‘rinda bo‘rttirish (mubolag‘a) ham mavjud bo‘lib, hatto butun osmon va sayyoralar aylanib yurib ham bunday go‘zallik topa olmagan tasvirlangan. She‘rda osmon jismlarining go‘zallik va ulug‘lik ramzi sifatidagi qadimiy timsoli kuchli aks etgan.

“Tanbur” radifli g‘azalining quyidagi baytida “moh” (oy) deb sevgili nazarda tutilgan:

Gar olsa ilkiga ul moh tanbur,

Chekar o‘tlug‘ ko‘nguldek oh tanbur.

Ya‘ni agar u oychehra (moh) qo‘liga tanbur olsa, , tanbur undan shunday nola, shunday kuy chiqaradiki, go‘yo kuylayotgan tanbur emas, balki oshiqning azobga to‘la, o‘t ichida qovrilayotgan yuragi oh tortayotgandek.

“*Men Majnun bo‘lubman*” deb boshlanuvchi g‘azalida lirik oshiq sevgilisidan hech qachon ajralmasligini, undan bir lahza ham uzoqlashmasligini ta‘kidlash uchun osmon jismi nomidan foydalanadi:

Agar bor et, va gar yo‘q, Kamil ayrilmas dame sendin,

Kim uldur zarra, sen *Xurshid*, san sham‘u u parvona.

Ya'ni: "Sendan ket, deysanmi? Qol, deysanmi? Baribir men sendan bir lahza ham ajralmayman." Sababi: "Sen *Xurshid* (Quyosh), men zarra (Quyosh nuri ichidagi zarracha)man." "Sen sham', men parvona (chiroq atrofida o'ralgan kapalak)man".

"Kog'az" radifli she'rida

Falak mehri jamoling vasfini tahrir qilmoqg'a,

*Shahobin* xomayi *anjumdin* aylar zarfishon kog'az.

Ya'ni, *falak* (osmon) – sevgilining jamolini (go'zalligini) vashf etmoqchi bo'ldi, ya'ni uni ta'riflab yozmoqchi bo'ldi. Bu uchun "shahob" (meteor, osmondan otilgan to'q qizil, qirmizi yog'du sochuvchi yulduz) qalam bo'ldi; *anjum* (yulduzlar) – moy, siyoh qildi, *osmonning* o'zi esa qog'oz bo'ldi. Umuman ushbu baytda falak ma'shuqaning go'zalligini yozishga intildi, buning uchun eng yuqori, eng ulug' vositalarni – shahob qalam, yulduz siyoh, osmon qog'oz qilib ishlatmoqchi bo'ldi.

Poetik vositalar sifatida o'xshatish (shahob – qalam, anjum – siyoh, falak – yozuvchi, osmon – qog'oz), tasviriylik va mubolag'a (sevgilining jamolini tasvirlash uchun butun koinot vositalari ishlatilishi) mavjud bo'lib, oshiq sevgilining go'zalligini tasvirlash uchun oddiy insoniy vositalar yetmaydi, balki butun osmon harakatga kelib, koinotning o'zi yozuv vositasiga aylanadi degan fikr o'ta go'zal va falsafiy bir tarzda ifodalangan.

"Ko'zgu" radifli g'azalning to'rtta baytida osmon jismlari nomi orqali poetik vazifa bajargan.

*Yuzung Xurshidi* zulf ostida jabhangdin namoyondur,

*Quyosh ruxsorig'a* bo'lg'on kabi shom-u sahar ko'zgu.

Ushbu baytda ma'shuqaning yuzi *Xurshid* (Quyosh)ga qiyos qilinmoqda. U yuz soch (zulf) soyasidan yarim yashirin, yarim ko'rinib turgan *Xurshid*ga o'xshaydi.

Ruxing nazzorasi fikridin o'zga yo'q menga maqsud,

Ko'zimg'a jilvagar bo'lg'onda gar *Xurshid*, gar ko'zgu.

Yuqoridagi baytda lirik oshiq aytmoqda: “Mening maqsadim sevgilining yuzini tomosha qilishdan boshqa narsa emas. Ko‘zim oldida Quyosh jilvalansa ham, ko‘zguda o‘zing aks etganingda ham, men uchun faqat o‘sha bir go‘zal yuzni ko‘rish kifoya”. Bu yerda sevgilining go‘zalligi quyosh va ko‘zgudan ustun qo‘yilmoqda.

Bu vajh ila alar nazzorasi bordur manga matlub,

Jamoli bezavolingg‘a erur *Shams-u Qamar* ko‘zgu.

Ushbu baytda “Demak, mening istagim sevgilimning go‘zalligini ko‘rishdir. *Shams-u Qamar* (Quyosh va Oy) esa uning go‘zalligini aks ettiruvchi ko‘zgudir, xolos”. Ko‘rinib turibdiki, koinotning yuksak jismlari ham sevgilining go‘zalligini aks ettiruvchi vosita sifatida tasvirlanadi. Bu g‘azalda shoir sevgilining go‘zalligini tabiatdagi eng yorqin timsollar orqali tasvirlaydi va shu go‘zallikning yuksakligi oldida tabiat va san‘at vositalari ham ojiz qolishini ifoda qiladi. Shoirga quyosh, oy, ko‘zgularning o‘zi emas, balki ularda aks etgan sevgilining chehrasi kerak. She‘rda yuz Quyoshga o‘xshatilishi (o‘xshatish), yuz nurlari quyosh va oy ekani (istiora) mavjud.

“Erur” radifli g‘azalida

Bordur chu xo‘blar aro mumtoz, go‘yyo,

Husn avjining najumi alar, bu *Mahi* erur.

Go‘zallar orasida bir o‘zgacha mumtoz (ajralib turgan, yuksak, betakror) go‘zal bor. U go‘zallik cho‘qqisidagi najum (yulduzlar) orasida porlagan Mah (Oy)ga o‘xshaydi. Ya‘ni, boshqa go‘zallar (yulduzlar) orasida o‘sha bir go‘zal Oy kabi ajralib turadi. Bu juda qadimiy va mashhur klassik obraz (oy va yulduzlar o‘xshatishi) bo‘lib, ko‘plab Sharq va G‘arb she‘riyatida uchraydi. Poetik vositalar sifatida tashbeh (o‘xshatish): ma‘shuqa – Oy; boshqa go‘zallar – yulduzlar; mubolag‘a: sevgilining barchadan ustunligi; istiora: go‘zallik osmoni va uning yulduzlari timsolida tasvirlanishi kabilar mavjud.

“Oshiq bo‘lmisham” radifli g‘azalida:

Yoruta olmas shabistonim *Quyoshing*, ey sipehr,

Ul yuzi *xurshidi puranvora* oshiq bo‘lmisham.

Bu she’rda *quyoshing* va *yuzi xurshid* kabi birliklar vositasida poetik tasvir ifodalanadi.

*Quyoshing*. Bu yerda *quyosh* (*quyoshing*) ifodasi ishlatilgan. Quyosh osmonning eng yorqin va eng qudratli jismi sifatida ishlatilgan. U yorug‘lik, iliqlik va hayot manbasi sifatida ham tasvirlanadi. She’rda esa, koinotning Quyoshi shabistonni (qorong‘ulik, ichki iztirob) yoritmaydi, bu esa uning ichki dunyosidagi tushkunlikni va ruhiy bo‘shliqlarni anglatadi. *Yuzi xurshidi puranvor* ifodasi, yuzidan xurshid (*Quyosh*)dek nur yog‘ilib turgan mahbuba bo‘lib, u oshiq uchun koinotning quyoshidan ham yuksakdir.

“Kimni sevar yorisan” she’rining “Qaysi falak burjining mehri puranvorisan” misrasida *falak burji* (yulduzlar va zodiak burjlari) osmonning turli qismlarini ifodalaydi. *Mehri puranvorisan* esa, oshiqning go‘zalligi va nurini tasvirlash uchun ishlatilgan. *Mehri puranvor* – “nur sochuvchi Quyosh”. Yuqorida sharhlangan *yuzi xurshidi puranvor* birikmasi mazmuni bilan bir xil.

Oy yuzi – husn-u jamol bog‘ining ahmar guli,  
Jon ila ko‘nglum erur ushbu guling bulbuli,  
Qumrii nolon erur sarv qadingning quli,  
Yo‘q esa nechun ani bo‘ynida bordur g‘uli,  
So‘yla menga, ey sanam, kimni sevar yorisan.

Ushbu parchadagi *oy yuzi* birikmasi orqali mahbubaning go‘zalligini tasvirlashda Oyni yorqinligi va sirli tabiatidan foydalanilgan. “Oy yuzi — husnu jamol bog‘ining ahmar guli” misrasidagi *Oy yuzi* ifodasi sevgilining mukammal go‘zalligini ifodalaydi. *Oy* obek xalqida ko‘pincha mukammallik va go‘zallikning ramzi sifatida ishlatiladi, chunki *Oy* yuzasi *Quyoshning* yorug‘igini akslantiradi, tabiiy va sirli go‘zallikka ega. Bu misrada esa, *husnu jamol bog‘ining ahmar guli* ifodasi orqali sevgan insonning yuzining go‘zalligi bunga qiyoslanadi. Ahmar gul, o‘zining ajoyib ranglari va xushbo‘yligi bilan bog‘ bilan taqqoslanadi, bu yerda sevgan insonning go‘zalligi juda yuqori darajada ulug‘langan. Umuman, *Oy yuzi* she’rda mahbuba yuzining go‘zalligi bilan bog‘liq holda ishlatilgan ramzdir. *Oy*

*yuzi* ma'shuqaning faqat tashqi go'zalligini emas, balki uning ichki yuksakligini, jozibasini va osmoniy mukammallikni tasvirlashda ishlatiladi.

Umuman, Komil Xorazmiy she'riyati tilida osmon jismlarining nomlari oddiy astronomik atamalar bo'lib qolmay, poetik obraz, ramz va lingvostilistik vosita sifatida faol ishlatiladi. Ular poetik matnga estetik boylik, ma'no teranligi va emotsional kuch bag'ishlaydi. Komil Xorazmiy she'riyatida osmon jismlari inson his-tuyg'ulari, muhabbat va hayot falsafasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular nomining lingvostilistik qo'llanilishi shoirning badiiy mahoratini namoyon etadi.

## **KOMIL XORAZMIY DAVLAT ARBOBI, SHOIR, BASTAKOR, MUSIQASHUNOS**

**Raximov Botir Matyakubovich,**

San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,

Urganch davlat universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Komil Xorazmiy ijodiy merosi, Xiva xoni Muhammad Rahimxon II Feruz davridagi musiqiy voqeliklar, Komil Xorazmiy zamonasining yetuk davlat arbobi, shoir, bastakor va musiqashunosi bo'lganligi, u yaratgan nota yozuvi haqida fikrlar yuritiladi.

**Abstract:** This article examines the creative heritage of Kamil Khorezmi, the musical realities of the Khiva Khan Muhammad Rahim Khan II of the Feruz period, the fact that Kamil Khorezmi was a mature statesman, poet, composer and musicologist of that time, as well as the notes he created.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается творческое наследие Камиля Хорезми, музыкальные реалии Хивинского хана Мухаммад Рахим-хана II Ферузского периода, тот факт, что Камиль Хорезми был зрелым государственным деятелем, поэтом, композитором и музыковедом того времени, а также созданные им ноты.

**Kalit so'zlar:** shoir, bastakor, musiqashunos, tanbur, Feruz.

**Keywords:** poet, composer, musicologist, tanbur, Feruz.

**Ключевые слова:** поэт, композитор, музыковед, танбур, Феруз.

O‘zbek adabiyoti va musiqa san’atining yirik namoyandalaridan biri Komil Xorazmiy o‘zbek musiqashunosligi tarixi, ustoz ijodkorlar an’analarini saqlash borasida xizmat qilgan shoir, musiqashunos va bastakor bo‘lgan.

Komil Xorazmiy 1825-yilda Xiva shahrida madrasada mudarris bo‘lgan Abdulla Ohund oilasida tug‘ilgan. Xivadagi maktab va madrasalarda o‘qib, yaxshi ilm olgan. Yoshlik chog‘idayoq o‘zi yozgan she’rlari bilan shoir sifatida yaxshi nom qozonib, xon saroyiga Mirza lavozimiga ishga qabul qilinadi. Xiva xonlaridan Said Muhammad (1856-1865) xon saroyida xattot bo‘lib ishlab, turli ma’muriy ishlarda ham qatnashgan. Muhammad Rahim II – Feruz (1865-1910) davrida esa mirzaboshi va devonbegilik lavozimlarida xizmat qiladi.

Muhammad Rahimxon II Feruz xonlik qilgan davrda saroy atrofiga adabiyot va san’at arboblari to‘plab, she’riyat va musiqa kechalari muntazam o‘tkazgan. Xonning sa’y-harakatlari tufayli saroyda o‘ziga xos “Ijod maktabi” yuzaga keldi. Bu maktab ustoz va unga ergashgan shogirdlardan tashkil topgan.

“Ijod maktabi”da asosan she’riyat (ustoz Ogahiy), musiqa (ustozlar Komil Xorazmiy va Muhammad Rasul Mirza) va boshqa ilmlar yetakchi ahamiyat kasb etgan. Bu maktabda ilm olgan Xudoybergan Muhrkan, Muhammad Yusuf Bayoniy, Matyoqub Xarrot va boshqalar Xivaning atoqli olim-u fozillari va maqomdon-musiqashunoslari bo‘lib kamol topganlar.

Bobojon Tarrohning “Xorazm navozandalari” tazkirasida “Feruz va uning atrofidagi saroy shoirlari haqida so‘z yuritiladi. Tazkira o‘ziga xos shaklda tuzilgan bo‘lib, unda Feruz boshchiligidagi har bir saroy shoirining musiqaga bo‘lgan munosabati alohida band bilan qayd qilinadi. 31 shoirdan 11 tasi, eng avvalo, xonning o‘zi musiqa ilmini puxta egallaganligi e’tirof etiladi” [1. 96].

Xorazmda deyarli yarim asr davom etgan “ijod maktabi”ning faoliyati tufayli madaniy jarayon o‘zidan ulkan samara qoldirgan. Bu maktab she’riyat sohasida Ogahiy, musiqa sohasida Komil Xorazmiy va uning o‘g‘li Muhammad Rasullarning Feruz bilan ijodiy hamkorligi va rahnamoligida ijod maktabining yirik vakillaridan biri bo‘lgan “Komil Xorazmiy tabulatura ning tanburga

moslangan maxsus navini yaratdi” [2. 75]. Yaratilgan bu nota yozuv vositasi mo‘tabar musiqiy meros Xorazm Olti yarim maqomi saqlash va rivojlantirish borasida Komil Xorazmiy tomonidan amalga oshirilgan jahonshumul ishlardan biri bo‘lgan. Olti yarim maqomni tartiblashtirib qog‘ozga darj qilish, ularga g‘azal tanlashda Xon Feruz ulug‘ ustozlar Navoiy, Munis, Ogahiy va Komil Xorazmiy she‘riyatini oldingi qatorga qo‘yib, o‘zini ularning soyasiga oladi. Bu esa uning ustozlar oldidagi adiblik odobiga ibratli misoldir.

O‘tgan asr o‘rtalariga kelib “Tanbur notasi” orqali yozib olingan bu ishlar sho‘ro siyosatining ehtiyojlariga ko‘ra bo‘lmag‘ir so‘zlar bilan ko‘rsatila boshlangan. “O‘zbek xalq musiqasi”ning Xorazm maqomlariga bag‘ishlangan VI jildiga I.Akbarov va Y.Konlar tomonidan yozilgan kirish maqolada Komil Xorazmiy 1881-yilda Peterburgda bo‘lgan paytda rus sozandalarining notaga qarab chalishidan ta’sirlanib o‘zi ham milliy kuylarni yozish uchun maxsus nota yaratishga shaylangan va shundan keyin “Tanbur notasini” ixtiro qilingan, degan mazmundagi ma’lumotlar kiritilgan” [4.11]. Bu davrda respublikada dabdaba bilan chop qilingan o‘zbek xalq musiqasi (zamonaviy) nota to‘plamlarining nashr etilishi munosabati bilan “Tanbur chizg‘ilari” yozuvlari masalasiga g‘ayri ilmiy baho berilgan. Zamon talabiga bo‘ysungan holda rusiya madaniyatining amali deb qarashlik siyosati kuchaygan paytda Xon Feruz tomonidan tashkil qilingan “Ijod maktabi” vakillarining ijodiy ishlari buzib ko‘rsatilgan.

Komil Xorazmiy asos solgan va uning shogirdlari tomonidan ijod qilingan tanbur chizg‘ilarining yigirmaga yaqin nusxalari bugungi kunda O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San’atshunoslik instituti, Davlat arxivi, O‘zbekiston Davlat konservatoriyasi, “Yunus Rajabiy” uy-muzeyi va boshqa shaxsiy kutubxonalarda saqlanmoqda.

Bu muhim hujjatlarni maqom amaliyotiga tadbiiq qilish maqsadida 2002-yilda musiqashunos olim O.Matyoqubov rahbarligida Xorazm Ma’mun akademiyasi, Urganch davlat universiteti olimlari (Rustam Boltayev, Botir Raximov va Hamidullo Aminovlar) bilan tashkil etilgan ijodiy guruhda uzoq yillar davomidagi

izlanishlar evaziga tanbur chizg'ilari yozuvlarini o'rganish borasida birmuncha muvaffaqiyatlarga erishildi.

Bu masalaga doir ma'lumotlar bo'yicha bir qancha maqola, monografiyalar, ikkita dissertatsiya himoya qilindi. Qilingan izlanishlar va tadqiqotlar natijasida Komil Xorazmiyning "Tanbur chizg'ilari" atrofida buzib ko'rsatilgan faoliyatiga ham ravshanlik kiritiladi.

Eng muhimi Komil Xorazmiy zamonasining yetuk musiqashunosi, bastakori va shoiri ekanligi dalillar asosida ko'rsatib berildi. U asos solgan nota yozuvi mazmun mohiyatiga ko'ra mintaqada so'nggi asrlarda yaratilgan Abdulqodir Marog'iy, Abdurahmon Jomiy, Najmiddin Kavkabiy va Darvish Ali Changiy risolalari qatoridan o'rin oluvchi musiqiy manba ekanligi ilmiy asoslandi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Бобожон Тарроҳ Азизов – Ходим. Хоразм навозандалари. – Тошкент: Ғ.Ғулом, 1994.
2. Матёқубов О. Мақомот. – Тошкент: Муסיқа, 2004.
3. Муҳаммад Юсуф Баёний. Шажараи Хоразмшоҳий. – Тошкент: Ғ.Ғулом, 1994.
4. Юсупов М. Ўзбек халқ музикаси. VI том. Хоразм мақомлари – Тошкент, 1958
5. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 1-12 жилдлар. – Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2001-2005.
6. Қурбанов Р. Санъатнинг сирли олами. – Тошкент: 2011.

#### **KOMIL XORAZMIY LIRIKASINING VAZN KO'RSATKICHLARI**

*Ismailov Is'haqjon Otabayevich,*

*filologiya fanlari nomzodi, dotsent,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Komil Xorazmiy lirikasining vazn ko'rsatkichlari haqida gap boradi.

**Абстрактный.** В данной статье рассматриваются весовые показатели лирики Камиля Хорезма.

**Abstract.** This article discusses the weight indicators of Kamil Khorezm's lyrics.

**Kalit soʻzlar:** *sodda bahr, aralash bahr, gʻazal, muxammas.*

**Ключевые слова:** *простое море, смешанное море, газель, мухаммед.*

**Keywords:** *simple bahr, mixed bahr, ghazal, muhammas.*

**Kirish.** Komil Xorazmiy Xorazm adabiy muhitining koʻzga tashlangan namoyandalaridan sanaladi. Ogahiy nazariga tushgan Komil ijod borasida ham ismiga monand ravishda mukammallikka erishgan. Bunga shoir lirikasini tahlil qilish orqali guvoh boʻlishimiz mumkin.

**Mavzuning dolzarbligi.** Komil Xorazmiy lirikasini filologik aspektda tahlil qilar ekanmiz, uning mumtoz poetika qoidalariga qay darajada amal qilgani, bu sohani chuqur oʻrganib, ijodida ham saktaliklarga yoʻl qoʻymaganini koʻrish mumkin. Shu oʻrinda shoir lirikasining vazn koʻrsatkichlarini belgilash dolzarblik kasb etadi.

**Tajriba qismi.** Komil Xorazmiy aruz ilmini chuqur anglab yetgan holda sodda bahrlar bilan birga murakkab bahrlardan ham foydalangan. Ularni devonda joylashish ketma-ketligi boʻyicha koʻrib chiqamiz.

### **Gʻazallar.**

1. Buxl eliga demagil, ey zubbai davron, soʻzing,

Hayf etar, qadrini bilmas, siflai nodon, soʻzing.

– V – – / – V – – / – V – – / – V –

*Ramali musammani mahzuf.*

2. Boʻlmasa garduni sufladoʻst gar dun, ey koʻngul,

Nega dunni shod etar, dononi mahzun, ey koʻngul.

– V – – / – V – – / – V – – / – V ~

*Ramali musammani maqsur.*

3. Boʻlmadimkim bir dame anduhi davrondin xalos,

Andin istarman tanimning boʻlgʻonin jondin xalos.

– V – – / – V – – / – V – – / – V ~

*Ramali musammani maqsur.*

4. Manga, ey pari, ko‘b itob aylama,

G‘am o‘tig‘a bag‘rim kabob aylama.

V – – / V – – / V – – / V –

*Mutaqoribi musammani mahzuf.*

5. Mandin o‘lmishtur bukunlar ohkim jonon malul,

Bu jihatdan aylamish chiqmay tanimdin jon, malul.

– V – – / – V – – / – V – – / – V ~

*Ramali musammani maqsur.*

6. Ne sud ochilsa gul, o‘lsa bahor g‘urbat aro,

Mengaki bo‘lmasa yoru diyor g‘urbat aro.

V – V – / V V – – / V – V – / V V –

*Mujtassi musammani maxbuni maxbuni maxbuni maxbuni mahzuf.*

7. Emas kishiga bu dunyoda mulku mol kamol,

Husuli ilmu hunar keldi bezavol kamol.

V – V – / V V – – / V – V – / V V ~

*Mujtassi musammani maxbuni maxbuni maxbuni maxbuni maqsur.*

8. Tafa‘ul aylar eding, ey ko‘ngul, qilib niyat,

Ki raf‘ bo‘lg‘usi deb toza yilda nahsiyat.

V – V – / V V – – / V – V – / – –

*Mujtassi musammani maxbuni maxbuni maxbuni maqtu‘.*

9. Har necha aylabon izhor fasohat shuaro,

Sochar elga duri daryoi balog‘at shuaro.

– V – – / V V – – / V V – – / V V –

*Ramali musammani maxbuni maxbuni maxbuni mahzuf.*

10. Yutubon bu zamonda qon fuzalo,

Kulfat o‘qig‘adur nishon fuzalo.

– V – – / V – V – / V V –

*Xafifi musaddasi maxbuni maxbuni mahzuf.*

11. Bo‘lubon jolisi avrangi jaholat juhalo,

Urdilar olam aro ko‘si hukumat juhalo.

– V – – / V – V – / V V –

*Xafifi musaddasi maxbuni maxbuni mahzuf.*

12. Ey ko‘ngul, zinhor qilma ahli davrondin tama’,

Bor esa bu xasta jismingg‘a agar jondin tama’.

– V – – / – V – – / – V – – / – V –

*Ramali musammani mahzuf.*

13. Iyd o‘ldi olam ahlig‘a yuzlandi ibtihoj,

Shah toraki muborakidin qadr tobti toj.

– – V / – V – V / V – – V / – V ~

*Muzori‘i musammani axrabi makfufi makfufi maqsur.*

14. Menga zulmin kam etmas gunbazi davvor har soat,

To‘kar g‘am xirmanin boshingg‘a yuz xirvor har soat.

V – – – / V – – – / V – – – / V – – –

*Hazaji musammani solim.*

15. Yuzu xoling g‘amidin gar emastur notavon lola,

Nedin bo‘lmish hamisha sina dog‘u, bag‘ri qon lola.

V – – – / V – – – / V – – – / V – – –

*Hazaji musammani solim.*

16. Kulmading bir, to mani yuz qatla giryon qilmading

Tutmading bir jom, to ko‘nglum to‘la qon qilmading.

– V – – / – V – – / – V – – / – V –

*Ramali musammani mahzuf.*

17. Jonbaxsh la‘ling ustida ul xol hindularmudur,

Yo chashmayi hayzon uza zog‘i siyah mo‘larmudur?

– – V – / – – V – / – – V – / – – V ~

*Rajazi musammani muzol.*

18. Gar olsa ilkiga ul moh tanbur,

Chekar o‘tlug‘ ko‘nguldek oh tanbur.

V – – – / V – – – / V – ~

*Hazaji musaddasi maqsur.*

19. Vahki, ko‘zlarim giryon qildi la’li xandonlar,  
Jam’ qo‘ymadi ko‘nglum kokuli parishonlar.

– V – / V – – – / – V – / V – – –

*Hazaji musammani ashtar.*

20. To sayri gulshan noz ila ul sarvi ozod aylamish,  
Sarv o‘zni aylab bandayu, gul barg barbod aylamish,

– – V – / – – V – / – – V – / – – V –

*Rajazi musammani solim.*

21. Ko‘rmamish sandek jahonda hech bir gulzor, gul  
Kim sanga bordur badan gul, jabha gul, ruxsor, gul.

– V – – / – V – – / – V – – / – V –

*Ramali musammani mahzuf.*

22. Sensizin, ey dilrabo, jannatda g‘ilmon bo‘lmasun,  
Demayin g‘ilmonki, bal jismim aro jon bo‘lmasun.

– V – – / – V – – / – V – – / – V –

*Ramali musammani mahzuf.*

23. Ko‘zim giryonliqig‘a ul labi xandon erur bois,  
Ko‘ngul mahzunliqig‘a kulfati hijron erur bois.

V – – – / V – – – / V – – – / V – – –

*Hazaji musammani solim.*

24. Meni Majnun bo‘lubman bir pari ishqida devona,  
Ki yodidin bo‘lubdur ko‘nglum andoqkim parixona.

V – – – / V – – – / V – – – / V – – –

*Hazaji musammani solim.*

25. Savodi xattinga gar istamas bo‘lmaq makon kog‘az,  
Bayoz ichra nedin daftar bo‘lub ochmish do‘kon kog‘az.

V – – – / V – – – / V – – – / V – – –

*Hazaji musammani solim.*

26. Xabar topmish bu mahfilida jamolingdan magar ko‘zgu  
Kamoli hayrat ila o‘zdin o‘lmish bexabar ko‘zgu.

V --- / V --- / V --- / V ---

*Hazaji musammani solim.*

27. Yorim uzori avji saodat mahi erur,  
Bu vajah birla husn eli shohanshahi erur.

-- V / - V - V / V -- V / V V ~

*Muzori'i musammani axrabi makfufi makfufi maxbuni maqsur.*

28. Ohkim bir sarvi gulruxsora oshiq bo'lmisham,  
Bemuruvvat qotili xunxora oshiq bo'lmisham.

- V -- / - V -- / - V -- / - V -

*Ramali musammani mahzuf.*

29. Manzilim chun bo'ldi ushbu yil diyori Toshkand,  
Jonu ko'nglum doim istar xor-xori Toshkand.

- V -- / - V -- / - V -- / - V - ~

*Ramali musammani musabbag'.*

### **Muxammaslar**

1. Qaysi falak burjining mehri puranvorisan,  
Qaysi sadaf durjining gavhari shahvorisan,  
Kaysi Xo'tan ohusi nofai totorisan,  
Qaysi chamanzorning lolai gulnorisan,  
So'yla menga, ey sanam, kimni sevar yorisan.

- V V - / - V - / - V V - / - V -

*Munsarihi musammani matviyi matviyi makshuf.*

2. Zinhor el ixtiloti birla xurram bo'lmangiz,  
Mehnati har dam fuzunu rohati kam bo'lmangiz,  
Men kabi bori nadomatdin qadi xam bo'lmangiz,  
Do'stlar, olam elig'a yoru hamdam bo'lmangiz,  
Yor ila hamdam demaykim, oshio ham bo'lmangiz.

- V -- / - V -- / - V -- / - V -

*Ramali musammani mahzuf.*

3. Dardoki, yo‘q jahon elida sharmsorlig‘,  
Ko‘rganlar, izzatimni, manga berdi xorlig‘,  
Erkan abas zamon elidin do‘stdorlig‘,  
Yaxshi kunimda har kishikim berdi yorlig‘,  
Do‘ngach zamona, ayladi dushmanshiorlig‘.

-- V / - V - V / V -- V / - V ~

*Muzori‘i musammani axrabi makfufi makfufi maqsur.*

4. So‘z duri noyob erur, oni qilur izhor til,  
Husnidin foida gar bo‘lmasa durbor til,  
O‘zga so‘zlar degach, o‘ldi mujibi ozor til,  
Bazm aro mundoq takallumg‘a chu ochti yor til,  
Huqqai yoqutdin sochdi durya shahvor til.

- V -- / - V -- / - V -- / - V -

*Ramali musammani mahzuf.*

### **Masnaviy**

1. She‘r ko‘b vaqt kambaho erdi,  
Shuaro baxti ham qaro erdi,

- V -- / V - V - / --

*Xafifi musaddasi maxbuni maqtu‘.*

### **Ruboiy**

1. Har necha/ balo yetsa/ chekib bosh buk/ma,

-- V / V -- V / V ---- / -

Ta‘jil /yaqosig‘a/ boshingni suq/ma,

-- V / V -- V / V ---- / -

Amrozu,/ alam shidda/tidin hovliq/ma,

-- V / V -- V / V ---- / -

Topg‘ung ya/na, Komilo,/ shifo oshuq/ma,

-- V / V -V - / V ---- / -

Bunda 1-, 2-, 3-misralar *hazaji musammani axrabi makfufi solimi abtar* bo‘lsa, 4-misra *hazaji musammani axrabi maqbuzi solimi abtar* sanaladi.

## **Fard**

1. Har kimsaki aylasa oshuqmasin xayol,  
Yafrog‘ni yifak qilur, chechak bargini bol.

-- V / V - V - / V - V - / V ~

*Hazaji musammani axrabi maqbuzi maqbuzi axtam.*

**Kutilayotgan natija.** Komil Xorazmiy she‘rlari tahlil maydoniga tortilar ekan, ijodkorning har bir vaznga mohirlik bilan yondashganiga guvoh bo‘lamiz.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/komil-xorazmiy-tanlangan-sheerlar-devon.html>

## **KOMIL XORAZMIY – KITOBAT ILMI FIDOYISI**

*Saidjanova Zebo Kamilovna,*

*PhD, dotsent,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya** Maqolada Komil Xorazmiyning Xiva xonligida matbaa ishlaridagi faoliyati tahlil qilinadi.

**Аннотация** В статье анализируется деятельность Камиля Хорезми в сфере книгопечатания в Хивинском ханстве.

**Annotation** The article analyzes the activities of Kamil Khorezmi in printing in the Khiva Khanate.

**Kalit so‘zlar:** *toshbosma, kutubxona, kitob, nashr*

**Ключевые слова:** *литография, библиотека, книга, публикация*

**Key words:** *lithography, library, book, publication*

Insoniyat tamaddunining markazlaridan biri bo‘lmish Xorazm o‘zining madaniy hayotida uzoq o‘tmishga borib taqaladigan kitob va kutubxonolari tarixiga ega. Xorazmda eramizdan oldingi IV- III asrga oid Qo‘yqirilgan qal‘a shahri vayronalarini qazish vaqtida qadimgi Xorazm yozuvining namunasi

topilgan. Unda rasadxona mavjudligi o'lkada taraqqiy topgan yozma madaniyat bo'lgani bilan bog'liqdir.

XVI asrda yangi tashkil topgan Xiva xonligi saroyi kutubxonalarida xattotlik, husnixat maktabi shakllandi. Abulg'ozir Bahodirxon (1643-1663) tomonidan ham qimmatli tarixiy qo'lyozmalar to'plangan. Uning o'zi qayd qilishicha, "Eron bilan Turonda o'tgan Chingizxon o'g'illarining otalarini aytilgan tarixlardan ushbu zamon faqirning oldinda o'n sakkiz mujallad hozir turar". Demak, u o'z kutubxonasini kitoblar bilan doim boyitib borishga harakat qilgan. Muhammadamin Inoq (1763-1790), Muhammad Rahimxon I (1806-1825), Allohqulixon (1825-1842), Sayid Muhammadxon (1856-1864) kabi Xiva xonlarining muhrlari bosilgan qo'lyozmalar borki, ular orqali biz o'sha davrlardagi kitobxonlik madaniyati, qanday kitoblar ko'proq mutolaa qilinganligini, xonlarning ma'rifat darajasini anglashimiz mumkin. Ma'rifatparvarlik, madaniyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shish Xiva xonlarining aksariyatiga xos bo'lgan. Xonlar o'z saroylaridan tashqari o'zlari qurdirgan madrasalar qoshida ham kutubxonalar barpo etishga, ularni kitoblar bilan boyitishga ahamiyat berib kelganlar. Ularning madrasalarga qilgan vaqf kitoblarini qo'lyozma kitoblardagi muhrlari orqali aniqlab olishimiz mumkin.

A.N.Samoylovich ma'lumot berganidek, "uning umuman kitobga, undan nusxa ko'chirishga bo'lgan ishtiyoqi junun darajasida" bo'lgan Muhammad Rahimxon Feruz ba'zida davlat ishlaridan toliqib, kutubxonaga kirar, o'z buyrug'iga ko'ra xattotlar ko'chirgan yangi kitoblarni varaqlab o'tirardi. Xonning ota-bobolaridan to'planib kelinayotgan, xon amri bilan ko'paytirilayotgan juda boy kutubxonasi bor edi. Xiva kutubxonalarida qo'lyozma matnni husnixat va go'zal naqshlar bilan bezash maqsadida musavvirlar hamda mohir xattotlar uzoq, qunt bilan ishlar edilar. Kutubxonadagi bunday ishlar Muhammad Rahimxon Feruz hukmdorligi yillarida sezilarli ravishda kengaydi. Muhammad Rahimxon II o'z saroyida kutubxona qoshidagi ustaxonaga katta e'tibor bilan qarab, tez-tez buyurtmalar berar edi. Muhammad Rahimxonning ikkita kutubxonasi bo'lib, biri qishki qarorgoh – Ark ichkarisida, yana biri yozgi qarorgoh – shahar

tashqarisidagi Tozabog‘ saroyida joylashgan edi. Bu kutubxonalarda ixcham kataloglar tuzilgan, kitoblarning muqovalariga ularning nomlari bitilgan yorliqlar yopishtirilgan edi.

Xivaning Chor Rossiyasi tomonidan zabt etilishi oqibatida O‘rta Osiyo xalqlarining erki, insoniy huquqlari poymol qilindi. Ular moddiy boyliklarini o‘z tasarrufiga tortish bilan qanoatlanmay, ma’naviy mulkini ham talon-taroj etdi. Xorazm xazinasidan juda katta boylik, qimmatbaho narsalar bilan birgalikda, xon alohida saqlaydigan 300 jilddan ortiq nodir qo‘lyozma kitob ham Peterburgga jo‘natilgandi. Bayoniy bu ma’lumotlarni ichki bir taassuf, norozilik ohangi bilan yozgan edi: “Yana bir uyda uch yuz mujallad yozma muzayyan kitoblar bor erdi, ...Peterburgga yuborildi”. Feruzga shunday ajoyib va nodir kitoblarning Chor Rossiyasi tomonidan musodara qilinishi va Peterburgga yuborilishi juda qattiq ta’sir qilgan. Chor Rossiyasi kelganidan keyin davlatning bir qismi yo‘qolgani, shuningdek, ularning ma’naviyat va madaniyatga qilgan tajovuzi xalqni hamda Feruzni juda tang ahvolga solib qo‘ydi. Bunday tanglik va karaxtlik holatidan chiqib ketish uchun, xalqning ko‘nglini ko‘tarish, yana madaniyat va iqtisodiyotni rivojlantirish lozim edi. Feruz saroyga olimlarni, sozanda va xattotlarni yana to‘play boshladi, ularga o‘zi homiylik qildi. Aftondil Erkinov hamda Shodmon Vohidovlarning aniqlashlariga qaraganda, Muhammad Rahimxon Feruzning hukmronlik yillarining oxirgi davrlariga kelib, saroy kutubxonasidagi jami qo‘lyozma va toshbosma kitoblar 914 ta (shulardan 604 tasi qo‘lyozma, 310 tasi toshbosma asarlar)ni tashkil etgan.

Davlat va jamoat arbobi Komil Xorazmiy 1891-yilda Toshkentga borib S.Laxtin tipolitografiyasi faoliyati bilan tanishib, Xiva matbaachilik ishlari rivoji uchun harakatlarini boshlaydi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivida 1891-yili safari chog‘ida Komil Xivada maxsus tipolitografiya tashkil etish maqsadida Toshkentdagi bosmaxona mutaxassislari, harf teruvchilari bilan shartnomalar tuzganligi xususida ma’lumotlar saqlanib qolgan. Komil Toshkent tipolitografiyasi, teatr, gimnaziya, kasalxona, gazetalar muharririyati ishi bilan tanishib qaytgach, Xivada ham bu sohalarda ishlarni rivojlantirish chora-

tadbirlarini so‘rab, Feruzga murojaat etdi. Komil faoliyati Feruz tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Jumladan, saroyda tashkil topgan toshbosma rivojida ham Komil Xorazmiy faol tashabbuskorlardan biri bo‘ldi. “Podshohi zamon matbaasi” deb nomlangan bu tipolitografiyaning ilk mahsuloti sifatida 1874-yildan boshlab ba’zi hujjatlar toshbosma usulida chop etila boshlaydi. 1876-yilda Abu Nasr Farobiyning “Nisob as-sibyon” (Bolalar nasibasi) nomli falsafiy asari toshbosmada chop etilgan. 1880-yilda Alisher Navoiyning “Hayratul abror” dostoni nashr etildi. “Xamsa”ni shoir Komil Xorazmiy nashrga tayyorlaydi va “Hayrat ul-abror” dostoni kitobiga o‘zi uch sahifalik muqaddima ham yozadi. O‘rta Osiyo madaniyati tarixida bu muhim voqea edi. “Turkiston viloyatining gazetasi” bu voqeaga atab bir necha maqolalar chop etdi. Vaholanki, Komil Xorazmiy toshbosma nashrning amalga oshishida matn sifatini to‘liq kuzatuvga olgan va mas’uliyat bilan ishga yondashgan. Shuning uchun ham 640 sahifalik bu “Xamsa” asari nashri Navoiy asarlarining Turkistonda bosilgan birinchi mukammal toshbosma nusxasi hisoblanadi. Shuningdek, Porso Shamsiev Alisher Navoiy “Xamsa” asari ilmiy-tanqidiy matnini tuzishda olti asos qo‘lyozmadan tashqari asarning 1880-yildagi Xiva litografik nusxasiga ham murojaat etganligini yozadi. 1882-yilda esa Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti Komil Xorazmiyning so‘zboshisi bilan nashr etiladi. 1897-yili Muhammad Rahimxon Soniy qalamiga mansub “Devoni Feruz” hamda “Devoni Xolis” va boshqa kitoblar Komil Xorazmiyning puxta so‘zboshisi bilan nashr etiladi. Qisqa vaqt ichida Xiva adabiy muhitida ishtirok etib kelayotgan ijodkorlar Ogahiy, Bayoniy, Purkomil, Mirzo, Rojiy, Tabibiy, Komil Devoniy, G‘ulomiy, Sultoniy, Asad, Murodiy, Farrux, Shinosiy kabi shoirlarning she‘rlari, tarjima asarlari ham nashr etildi. Xivada toshbosma va harf terish yo‘li bilan chop etilgan kitoblar orasida Komil Xorazmiyning besh devoni bo‘lganligi ham manbalardan ma’lum. Bu bilan xattotlarning kitoblar ustida oylab va yillab bajaradigan mashaqqatli ishlariga chek qo‘yildi. Ijodkorlar asarlarini kengroq tashviq etish uchun yetarli shart-sharoit vujudga keldi.

Ma'lumki, Komil Xorazmiy XIX asrning ikkinchi yarmida Xivada davom etgan adabiy harakatda salmoqli o'rin egallagan shoirlaridan biri va usta xattot, atoqli naqqosh ham edi. U ko'pgina badiiy asarlarni va devonlarni chiroyli qilib ko'chirdi. Ko'plab xattotlar yetishtirib chiqardi. Ustod Muhammad Panoh, Xudoybergan Muhrkan, Muhammad Sharif Tarroh devon, Muhammadyoqub Xarrot devonlar shular jumlasidandir. Komil Xorazmiy va uning shogirdlari tomonidan ko'chirilgan devonlar hozirda jahonning bir qancha mamlakatlari kutubxonalari fondlarida ko'z qorachig'idek saqlanmoqda.

Xiva matbaasida XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida chop etilgan tarixiy, adabiy-ilmiy asarlar Xiva xonligidagi maorif va fan rivojiga katta hissa qo'shgan. Feruz kitobat san'atiga katta ahamiyat berib, kutubxonalar tashkil etdi. Bu haqida Bayoniy: "Xon hazratlari haftada ikki kun: juma va dushanba oqshomlarida ulamo bila suhbat tuzub, kitobxonliq etdurur erdilar... sipohiylar va to'ralarni ham kitobxonliq etarga targib etar erdilar. Bas, hamma kitobxon bo'ldilar... tamomi viloyat xalqi kitobxon bo'ldilar", - deb yozadi. Muhammad Rahimxon Feruz xattotlarning mehnatini g'oyat qadrlab, ular uchun maxsus sharoit yaratib bergan. Feruz saroyida xattotlar mehnati qadrlanar va ularga nodir asarlarni ko'chirish vazifasi muntazam topshirib turilardi. Tadqiqotchi A.Murodov XIX asrda Xivada yashab o'tgan 87 xattot haqida ma'lumot beradi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, Komil Xorazmiyning ham shaxsiy kutubxonasi bo'lgan. Bu kutubxonada 500ga yaqin kitoblar jamlangan va xalq undan uzoq yillar davomida foydalangan. Afsuski, 1916-yil turkman yovmut johillari hujumi tufayli bu kutubxona yoqib yuboriladi.

Xulosa qilib aytganda, XIX asr oxiri XX asr boshida Xiva xonligida an'anaviylikka ergashgan va ayni paytda yangi davr bilan bo'ylashishga qaratilgan madaniy hayot mavjud bo'lgan. Xiva xonligi an'anaviy Sharq adabiyoti va san'ati qadriyatlarini ham, yangilanish bilan bog'liq jihatlarni ham o'ziga xos tarzda turmushga tatbiq qilish yo'lidan borgan. Bularning barchasida Muhammad Rahimxon II ning o'rni katta bo'lgan. Komil Xorazmiy esa fidoyi arbob sifatida bu ishlarda jonbozlik ko'rsatgan. Vatandoshimiz Komil Xorazmiyning o'zbek

matbaasi, kitobat ilmi rivojidadagi fidoyi xizmatlari ham beqiyosdir, uning ijodiy faoliyatini chuqur o'rganish orqali yangidan-yangi jihatlarini ham kashf etib boraveramiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Davlatyor Rahim Shixnazar Matrasul. Feruz: shoh va shoir qismati. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1991, 103 b.
2. Bayoniy Muhammadyusuf. Shajarayi Xorazmshohiy. 257 b.
3. Ernazarov F. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Xiva xonligidagi madaniy hayot. Tarix fan.nom. diss.. Toshkent, 2005, 56 b..
4. Ismoilova E. Qo'lyozma kitobat san'ati // Xiva ming gumbaz shahri. Toshkent: "Sharq", 1997, 90-bet.

### **KOMIL XORAZMIY – MAHORATLI QASIDANAVIS**

*Xudayarova Dilnoza Shavkatovna,*

*o'qituvchi,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Komil Xorazmiy qasidalarining mavzu va g'oyaviy yo'nalishi, bu janr takomilidagi shoir mahorati xususida so'z boradi. Komilning qasidanavislikdagi o'rni tadqiq etiladi. Shoirning ba'zi qasidalari ilk marta tahlilga tortiladi.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается вопрос о тематике и идейной направленности од Камиля Хорезми, о вкладе поэта в совершенствование данного жанра. Исследуется одическое творчество Камиля Хорезми. Впервые к анализу привлекаются некоторые оды поэта.

**Annotation:** This article discusses the theme and ideological direction of the odes of Kamil Khorezmii, the poet's skill in the development of this genre. The role of Kamil in ode writing is studied. Some of the poet's odes are analyzed for the first time.

**Kalit so'zlar:** Komil, qasida, mavzu, g'oya, an'ana, mahorat, o'ziga xoslik.

**Ключевые слова:** Камиль, ода, тема, идея, традиция, мастерство, своеобразие.

**Keywords:** Kamil, ode, theme, idea, tradition, skill, self.

Adabiyotshunos Sh.Nuriddinov Komil devoni manbalarida 6 ta qasidasi mavjudligini qayd qilib, ulardan Muhammad Rahimxon soniyga bag‘ishlangan 4 ta qasida devonning barcha qo‘lyozma va toshbosma nusxalarida uchrashini ta’kidlaydi. Shoir qasidalari xususida adabiyotshunoslardan Ayyomiy, G‘. Karimov, N.Qobulov, B.Qosimov asarlarida Toshkent haqida yozilgan qasidasi borasida bir xil mulohazalar uchraydi. Olimlarning ayrimlari “Dar bayoni ta’rifi va tavsifi Toshkent” asarini “Qasidayi navro‘z” deb ham yuritiladi, deydilar. [1] Keyingi tadqiqotlar esa bu fikrning noto‘g‘ri ekanligini ko‘rsatdi. Matnshunos Sh.Nuriddinovning fikricha, Komil devoni qo‘lyozma va toshbosmalarida keltirilgan “Qasidayi navro‘z” butunlay boshqa asar. U Muhammad Rahimxon soniyga bag‘ishlangan.

Komil qasidalari boshqa lirik janrlardan o‘ziga xos kompozitsion tuzilishiga, janriy talablarga javob beruvchi lirik dostonlarga o‘xshaydi. Komil qasidalari tariximizning ayrim sahifalarini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. [2]

XIX asrga kelib qasidaning takomiliga hissa qo‘shgan shoir Komil ijodida bu janrning yetuk namunalarini yaratildi.

Sharq she’riyatida bu janrning o‘ziga xos sifatlari haqida turli manbalarda ma’lumotlar keltiriladi. Shulardan shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziyning “Fununu-l-balog‘a” asarida: “Qasidaning aqalli yigirma yetti bo‘lur yo andin o‘ksukrak va aksari muayyan ermas. Har necha qofiya dast bersa ayturlar. Va har ne maqsud bo‘lsa bayong‘a keltururlar”. [3] Taroziy qasidaning hajmi va qofiyalanishi haqidagi fikrlarini boyitib, Abdurauf Fitrat “Adabiyot qoidalari” asarida shunday ta’rif beradi: “G‘azal yo‘sinida tuzulib, o‘n ikki baytdan ortiq bo‘lgan tizmalarga qasida deyiladi”. [4] Demak, qasida g‘azal singari qofiyalanuvchi, hajmi chegaralanmagan, o‘ziga xos kompozitsion qurilishga, mazmun mohiyatga ega janr. Ma’lumki, qasidada ta’rif-u tavsif qilish yetakchi xususiyatlardan biri sanaladi. Ya’ni mamduh (amaldor, podshohning)ning adl-u-

insofini, shijoatini, saxovatini madh qilishga qaratiladi. Shuningdek, falsafiy, ijtimoiy, axloqiy masalalarga bag'ishlangan qasidalar ham adabiyotimiz tarixida uchraydi.

Ma'lumki, Komil saroy muhitining vakili. Hayotining ko'p davri shu muhit bilan bog'landi. Shu sababli uning 4 ta qasidasi Xorazm hukmdori Muhammad Raximxon soniy ta'rif-tavsifiga bag'ishlanadi. Shulardan "Qasidayi Navro'z deb sarlavhalangan qasidasi tashrif, gurezgoh, madh, talab va duodan tashkil topuvchi tarkibiy qismlarga ega. Ushbu qasida 134 misra, 67 baytdan iborat bo'lib, muqaddimada diniy tasavvufiy qarashlari o'z ifodasini topgan. Avvalo, Allohni tanish va uni sevishga, uning yagonaligiga ishonishga da'vat etadi. Har bir inson bu dunyodan izsiz ketmasligini, qilgan yaxshi va yomon amallari uchun oxiratda javob borligini eslatadi:

Ki, mulkingga yo'qtur shariku digar,

Sanga qilsa kim shirk izhorini

Oning manzili keldi qa'ri saqar.

Degan vahdau lo shariyk lah.

Topar jannati adan ichra maqar. [5]

Iymon, e'tiqoddan saboq berishga qaratilgan qasida nasib bilan gurezgoh (44 -bayt) qismdan tashkil topgan. Madh bilan duo 23 baytdan iborat.

Qasidaning gurezgoh qismida she'r ahlining shoh madhiga she'r aytib, uning ehsonidan bahramand bo'lganini o'zi ham elga taqlid qilib xon madhiga she'r bitganini aytadi. Shu bilan shoh madhiga o'tiladi. Sulton Sayyid Muhammad Rahimxonni azm-u shijoatda Iskandarga tenglashtirib, har bir qilgan ishida Hizr-u Ilyos madadkorligini aytib ulug'laydi. Zulmga qarshi kurashib, yurtda adolat o'rnatganligini ta'kidlaydi.

Qasidaning duo qismida, dunyodagi barcha mamlakatlarni Xitoy-u Xo'tan, Rumdan to Koshg'argacha uning hikmida bo'lishini istaydi.

"Qasidayi Sayyid Muhammad Rahimxon soniy" sarlavhali qasidasi ham takrorlanmas san'at asaridir. U 26 misra 13 baytdan iborat. Unig asosiy qismini

bahor vasfi tashkil qiladi. Bahorona ohang bilan boshlanuvchi nasib qasidaning mezon va talablari asosida yozilgan.

Madh qasida turkumiga kiruvchi ushbu qasidada xuddi vasfiy qasidalardagi singari boshdan-oyoq bahor madh qilinadi. Shoir bahor vasfini ham o'zgacha madh qiladi, ya'ni tabiatdagi jonlanishlar, chamanning gulga burkanishi-yu, bulbullarning nola chekishiga, nabototning uyg'onishiga aslida bahor sababchi ekanligini ta'kidlaydi. Boshdan oyoq mubolag'alar, tashbeh-u istioralar berilgan qasidada bahor aslida shoir idealidagi obraz sifatida gavdalanadi. Shoir maqsadi ham muddaosi ham shunda. Shuning uchun bu obrazni mukammal tasvirini beradi. Shoir maqsadiga xizmat qiluvchi bahor bu – shunchaki tabiat manzarasi emas, u ulusga jon beruvchi ayn-ul hayotdir.

Har bir baytda shoir bahorning tarovati va uning mo'jizaviy qudratiga urg'u beradi. Bahorning bu ajib sifatlari ulusga nabot berdi, bulbulning vujudiga o't soldi, hatto chaman sahifasini naqsh-u nigor qildi. Shoir qasidada bahorni o'ziga xos uslubda tasvirlashining boisini gurezgohda bayon etadi.

Bu qismda shoir yuqorida sanab o'tgan bahoriy sifatlardan voz kechadi. Bahorning bu tarovati, kuchiga sabab aslida jahonning sultoni Muhammad Rahimxon soniy deb ko'rsatiladi:

Bahordin demagil bu sifat tarovatlar,  
Qachon bu yilg'idek o'ldi hamisha bor bahor.  
Chu sokin o'ldi zumurrad sarir uza guldek  
Jahonni ayladi sultoni nomdor bahor.  
Shahi yagona Muhammad Rahim soniy deb,  
Nigini davlat uza berdi ishtihor bahor. [5]

Qasida Komil Xorazmiy iste'dodining tabiat tasvirini chizishdagi yangi bir qirrasini namoyon etgan. Qasida tabiatning bahor faslidagi o'ziga xos o'zgarishlarning mohiyatini ochib berishga qaratilgan. Asarning kirish qismi o'xshatishlar, mubolag'alar va istioralarga boy. "Aynu-l-hayot" – hayot bulog'i, "rohi xushguvor" – xushta'm may kabi istioralar misralar ohangiga o'zgacha ruh

baxsh etgan. Shuningdek, “zilol oyna” lolafom jom”, “hayotbaxsh suv” kabi tashbehlar ham she’rning mazmuniga o‘zgacha ohang bergan.

Qasidaning talab qismida ishlatilgan uchta istiora Muhammad Rahimxon soniyning ma’naviy qiyofasini tasvirlashga qaratilgan. “Sultoni nomdor”, “shahi yagona”, “nigini davlat” kabi istioralar orqali Muhammad Rahimxon soniyning sifatlarini gavdalantiradi. Qasida tantanovar va ko‘tarinki ruh, bahoriy kayfiyat bilan tugaydi.

Komilning uchinchi qasidasi ham Sayyid Muhammad Rahimxon soniyga bag‘ishlanadi. “Ayzan qasidayi Sayyid Muhammad Rahimxon soniy” sarlavhasi bilan berilgan ushbu qasidasi 38 misra 19 baytdan iborat. Qasidaning boshqa qasidalaridan farqli jihati shundaki, shoir bahor fasli bilan shohning taxtga chiqishidan tortib hukmdorlik qilgan davr manzarasini bir-biriga bog‘laydi. Qasida to‘g‘ridan to‘g‘ri madhdan boshlanadi. Shoir nazdida xonning taxtga o‘tirishini elga oshkor qilgan ham bahor. Uning taxtga kelishini xuddi gulning xushboy hidlari yoyilishiga qiyoslanadi. Bu qiyosiy baytlar silsilasi yanada kuchliroq mubolag‘a-u tashbehlar bilan davom etadi. Bahoriy iliqlik, gullar tarovati orqali yangicha manzara tasvirini beradi. Bu manzara kitobxon tasavvurida 2 xil taassurotni beradi. Birinchi bahoriy go‘zallik tarovati bo‘lsa, ikkinchidan esa hayotiy lavha manzarasi namoyon bo‘ladi. Shoir hukmdorni ana shu hayotiy lavhada madh qiladi. Bu madh gul uzra jola tasviri bilan boshlanadi. Shoirona o‘ylab topilgan tashbeh, ya’ni gul ustidagi shabnam aslida qizib tabaqqa terilgan dur, gulning tabaqqa qiyoslanishi ham betakror o‘xshatish. Shoir bu o‘xshatish orqali saroydagi o‘ziga xos tarzda nishonlanadigan marosimni eslatadi. Hukmdorning taxtga o‘tirishi marosimida butun saroy ahli qo‘llaridagi tabaqdan dur-u gavharlarni uning qadami-poyiga nisor qilganlar. Shoirning istagi shundaki, poyi-qadamiga durri gavharlar nisor bo‘layotgan hukmdorning taxtga kelishi bahor ayyomidek qutlug‘ qadam bo‘lishini istaydi. Shuning uchun butun borliq, tabiat, hatto, yelning harakatlarida ham hukmdorga tobelikni ko‘radi. Yel gulning barglarini har tarafga emas, shohning boshi uzra oq diram kabi sochadi.

Shukufa barglarin aylamas parishon yel,

Qilur boshingg‘a saning oq diram nisor bahor. [5]

Shoir qasidada Muhammad Rahimxon saltanatining maqtashga loyiq o‘rinlarini konkretlashtirib berib o‘tadi. Uning davrida g‘ani-yu faqir barobar, aziz xalq guldek e‘tiborda bo‘lganligini ta’kidlaydi.

Shunday qilib madh tugagach, duoda hukmdorning saltanati gulshani doim yashashini, xazon shamoli bu bog‘ni payhon qilmasligini istaydi. Shoirning ushbu qasidasi boshqa qasidalarda uchramaydigan maqsad bilan yakunlanadi. Bahor ayyomiga tashbeh qilinayotgan hukmdor va uning saltanatidan jahon eli shod, lekin lirik qahramongina bu inoyatdan bebahra qolgan. Shu sabab shoir qasidaning so‘nggi baytida to‘g‘ridan-to‘g‘ri shohga iltijo qiladi:

O‘zung gar aylamasang, Komiling zamirin shod,

Bu ko ‘zgudin ko‘tara olmag‘ay g‘ubor bahor. [5]

“Qasidayi adolatpanoh Sayyid Muhammadxoni soniy” sarlavhali qasidasida adolatli shoh Sayyid Muhammad Raximxoni soniy qiyofasi gavdalanadi.

Shoir qasidada hukmdorning odilona harakatlariga urg‘u beradi. Qasidaning dastlabki misrasi ham hukmdorning, maxti adolat bilan zeb berilganligi ta’kidlanadi. U shunday saltanat barpo qilganki, adl-u mehri ila nur sochadi, el g‘amini ravshan etadi.

Shu sababdan qasidani bitganligini aytib, jahon mulkida sultonliq rusumi bor ekan, Haq seni Iskandardek shoh qilsin deydi.

Shoir qasidada fikrini kuchaytirib ifodalash maqsadida iqtibos san‘atiga murojaat qiladi. Nazmda ifoda va bayonni quvvatlashga xizmat qiluvchi bu she‘riy san‘at turidan mahorat bilan foydalanishi shoirning Qur‘oni karim oyatlaridan boxabarligini bildirsa, ikkinchidan hukmdorni ham shariat qoidalari asosida davlatni idora qilishga undayapdi:

Royati fath oyat ila aylasang har sori azm,

Nusrat o‘lg‘oy ham‘inonu hamrikob o‘lg‘oy zafar. [5]

Qur‘oni Karimning “Fath” surasi oyatida “Va Alloh senga izzatli nusrat berishi uchun (“izzatli” deganimiz ustidan hech kim g‘olib kela olmaydigan, degani). Ya’ni Alloh payg‘ambar alayhissalomga shunday izzatli yordam beradiki,

undan hech kim va hech narsa g‘olib kela olmaydi”, deya marhamat qiladilar. Shoir Muhammad Rahimxon soniyga ham Alloh senga izzatli nusrat berishini istasang muqaddas oyatda keltirilganlarga amal qilishini chin dildan istaydi. Shoir qasidaning maqsad va duo qismini boshqa qasidalaridan farqli ravishda iltijo qilish ohangi bilan yakunlaydi. Komil fazl ahlig‘a e‘tiboridan so‘z ochib, o‘zining ham qalbiga nazar solishini xohlaydi. Hatto “shoir kamtarlik qilib “avsofi hamidang”ni aytishga haqqi yo‘qligini ta’kidlaydi. “Al-ma’muru ma’zurun” hadisini keltirib shohdan uzr ham so‘raydi.

Manki avsofi hamidang derga haddim yo‘q edi.

Chunki “al-ma’muru ma’zurun” dedi xayru-l-bashar. [5]

Komil XIX asr o‘zbek adabiyotini qasida janri bilan boyitdi. Uning qasidalari bu janrning talab va qoidalariga mos ravishda yozilgan noyob asarlaridir. Qasidalar biz uchun shoir badiiy mahoratini ochib berish bilan bir qatorda, saroy muhiti, hukmdor shoh va shoir qiyofasini yorqin tasavvur qilish imkoniyatini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Karimov G‘. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1987. 179 b.
2. Ayyomiy. O‘t chaqnagan satrlar. – Toshkent, 1983. 111 b.
3. Boltaboyev H. Sharq mumtoz poetikasi. I kitob. – Toshkent, 2008. 116 b.
4. Fitrat. Adabiyot qoidalari. –Toshkent: “O‘qituvchi”, 1995. 50 b.
5. Komil Xorazmiy. Devon. Sh.Nuriddinov tabdili. Hali e‘lon qilinmagan.

## KOMIL XORAZMIY DEVONIDAGI AYRIM LUG‘AVIY BIRLIKLARNING LINGVOPOETIK IMKONIYATLARI

*Yuldashev Elyor Muxammedovich,*

*mustaqil tadqiqotchi,*

*Urganch innovatsiyalar universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Komil Xorazmiy ijodida qo‘llangan omonim, omograf, omofon, paronim, polisemantik so‘zlarning lingvopoetik vazifalari, ularning badiiy san‘at va uslubiy figuralar hosil qilishdagi ishtiroki hamda matn badiiy-estetik butunligini ta‘minlashdagi ahamiyati xususida so‘z boradi.

**Аннотация.** В данной статье говорится о лингвопоэтических функциях омонимов, омографов, омофонов, паронимов, многозначных слов, используемых в творчестве Камиля Хорезми, их участии в создании художественно-стилистических фигур, их значении в обеспечении художественно-эстетической целостности текста.

**Abstract.** This article discusses the linguapoetic functions of homonyms, homographs, homophones, paronyms, polysemantic words used in the works of Kamil Khorezmi, their participation in the creation of artistic and stylistic figures, their significance in ensuring the artistic and aesthetic integrity of the text.

**Kalit so‘zlar:** Komil Xorazmiy, lingvopoetika, omonim, omofon, omograf, paronim, tajnis, badiiy san‘atlar.

**Ключевые слова:** Камил Хорезмий, лингвопоэтика, омоним, омофон, омограф, пароним, тажнис, художественное искусство.

**Key words:** Kamil Khorazmiy, linguoetics, homonym, homophone, homograph, paronym, tajnis, stylistic figures.

Har bir tilda, jumladan, o‘zbek milliy tilimizda ham omonim qo‘shimchalar, so‘zlar va iboralar mavjud. Tilshunoslikda omonim so‘zlarning 3 xil ko‘rinishi: omoleksema, omograf va omofonlar qayd qilinadi. Jumladan, “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida “Omoleksemalarni belgilashda talaffuz jihatidan bo‘ladigan bir xillik ham, harfiy (grafik) ifoda jihatidan bo‘ladigan bir xillik ham hisobga olinadi [10.: 45.]” deyiladi. Masalan, Komil Xorazmiy g‘azalidan olingan

quyidagi baytdagi “*taxt*” – sifat (foydalanish yoki ishlatish uchun tayyor, shay; muhayyo) va “*taxt*” – ot (forscha – podshoh marosimlarda o‘tiradigan maxsus o‘rindig‘i [11.: 16-17.] omonimlari asimmetrik takror holatida shakldoshlik hosil qilgan:

*Qudumingg‘a ham taxt erur taxti po,*

*Oningdekki boshingg‘a afsar fido... [12.: 21.]*

Omograflar esa harfiy tomondan bir xil bo‘lib, ularning talaffuzida farqlanish kuzatiladi. Masalan, shoir g‘azallarida qo‘llangan “*o‘lturmoq*” (o‘tirmoq) – “*o‘lturmoq*” (o‘ldirmoq) so‘zlarini bemalol omograf sifatida baholash mumkin:

*“Raqib oldida, ey sho‘x, o‘lturub o‘lturma bu zoring”, –*

*Dedim har necha yig‘lab, deganimni qilmay o‘lturdi... [12.: 68.]* Ushbu baytda shoir “*o‘ltur*” omografini ravishdosh, mustaqil fe‘l va shevamizga xos yordamchi fe‘l shaklida qo‘llab, o‘ziga xos ifoda bo‘yog‘ini, ohangdorlikni va so‘z o‘yinini yuzaga keltira olgan.

Aytish mumkinki, omonimlar va omograf (omofoma)lar til va nutqda o‘ziga xos uslubiy vositalar rolini bajaradi: misralarning qofiyalanishini, tuyuq va askiya janrlariga xos hamda turli xil so‘z o‘yinlarini (asosan, tajnisni) ta‘minlaydi, shu asosda badiiy asarga alohida ohang, husn bag‘ishlaydi. Omofonlar esa harfiy jihatdan emas, balki talaffuz jihatidan teng kelish hodisasidir. Bunday so‘zlar bugungi aksatiyat manbalarda paronimlar sifatida izohlanadi [8.: 148.]. H.A.Jamolxonov omofon va paronimlarning farqini quyidagicha izohlaydi: “Omofonlarda ham talaffuz bir xildir: *tub* va *tup* (yozuvda) – *tup* va *tup* (talaffuzda). Paronimlarda esa talaffuz teng emas, o‘xshash bo‘ladi: *ganj* va *ganch* kabi. Shuningdek, omofonlarda fonemalar miqdori teng bo‘ladi, paronimlarda esa ular teng bo‘lishi ham, teng bo‘lmasligi ham mumkin. Qiyos qiling: *to‘n* – “kiyim” (3 ta fonema) – ton “tovush toni” (3 ta fonema) – omofonlar; *asr* (3 ta fonema) – *asir* (4 ta fonema) – paronimlar kabi [8.: 149.]. Demak, Komil g‘azallarida qo‘llangan “*ham*” – “*xam*”, “*rom*” – “*ram*” kabi so‘zlarini omofon sifatida tahlilga tortish mumkin:

*Chun nasibam etding ko‘p ranj ila alam, yorab,*

*Chekkali alarni ber manga sabr **ham**, yorab... (“ham” – yuklama)*  
*Sam’ birla ibsorim tiyra-u kar-u po – lang,*  
*Bu balolar ostida qaddim o’ldi **xam**, yorab... [12.: 27] (“xam” – egik).*  
*Bo’lub **rom** ag’yorg’a chun g’izol,*  
*Bu bekasni ko’rganda **ram** qildilo... [12.: 156.]*

Ushbu baytdagi “rom” lug’atda “farmonbardor, mute” tarzida, “rom aylamoq, rom qilmoq, rom bo’lmoq” esa “mute’ bo’lmoq, itoatkor bo’lmoq” tarzida [2.: 629.]; keyingi baytdagi “ram” so’zi esa “cho’chish, hurkib qochish”, “ram qilmoq” – “cho’chib qochmoq” tarzida [2.: 601.] izohlangan. Shoir “rom bo’lmoq” va “ram qilmoq” qo’shma fe’llari orqali “ag’yor” – “bekas” kontrastini kuchaytirishga erishgan. Demak, ushbu so’zlar paronimligi yordamida shoir ohang yaqinligi va mazmun bog’liqligini ta’minlagan.

Komilning quyidagi Ibrohim ismiga muammo tarzida yaratilgan baytining birinchi misrasida qo’llangan “yuz” so’zi (ot turkumiga oid) “inson tana a’zosi” ma’nosini ifodalagan bo’lsa, ikkinchi misrasidagi “yuz” raqam – “miqdor” [9.: 166.], ya’ni son so’z turkumini ifodalagan:

*Anjum ermas ko’rmasam har kecha to mohim **yuzin**,*  
*Barqi ohim **yuz** sharar har dam sochar aflokg’a... [12.: 218.]*

Natijada ushbu omonimlar matn tarkibida ifoda kengligi va ohangdorlikni yuzaga keltirgan. “Bunday munosabatlarni belgilashda til birliklarining har ikki tomoni – ifoda ham, mazmun ham hisobga olinadi. Sinonimiya va antonimiyada til birliklarining mazmun tomoni asosga olinsa, omonimiyada, aksincha, ifoda yetakchi hisoblanadi [9.: 5.].

Lingvopoetik tadqiqotlarda shakl va mazmun birligi mumtoz matnlar leksik imkoniyatlarida ahamiyatli sanaladi. Jumladan, shakl va mazmun birligiga asoslanuvchi tajnis san’ati mumtoz matnlarda alohida ahamiyatga ega.

Tajnis – baytda shaklan bir xil yoki bir-biriga yaqin so’zlarni qo’llashga asoslangan she’riy san’at, ba’zan nasrda ham istifoda etiladi. Ilmi bade’ga doir manbalarda, xususan, Umar Roduyoniyning “Tarjumon ul-balog’a”da tajnisning 4 turi, Rashididdin Votvotning “Hadoyiq us-sehr”, Shams Qays Roziyning “Al-

mo‘jam” va Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a”sida 7 turi keltirilib o‘tilgan [6.: 10.]. Atoullloh Husayniy “Badoyi‘u-s-sanoyi”da 8 ta tajnis turini dastlab lafziy tajnis va g‘ayri lafziy tajnis tarzida ikki katta guruhga ajratadi [7.: 35-51]. Komil Xorazmiy she‘riyatida tajnisning asosan quyidagi turlari qo‘llanilgan:

1. Tajnisi tom (tajnisi mutlaq) – to‘liq shakldoshlikka asoslanuvchi tajnis bo‘lib, Komil ijodida bunday tajnis so‘zlar ba‘zan radifda, ba‘zan qofiyada, ba‘zan bayt va misralarning boshqa o‘rinlarida uchraydi. Jumladan, shoir quyidagi misralarda “*xor*” (tikan) – “*xor*” (xor va tuban) [3.: 414-415.] shakldosh so‘zlari asosida yuzaga keladigan ohangdoshlikdan alohida uslubiy vosita sifatida foydalana olgan va “bu dunyoda ayrim kimsalar qilgan yaxshiliging, xizmatig o‘rniga senga yomonlik qaytarishadi, shuning uchun bu dunyoda xaqir-u xor, rasvo bo‘lmay desang, jahon shohi (Alloh)dan o‘zgadan tama qilma, ey banda (Komil)” degan fikrni tajnis bilan birga tashbeh-u tazod, tabosib-u iyhom orqali o‘quvchiga go‘zal tarzda yetkaza olgan:

*Kima bir xizmat etsam aylagay o‘rnig‘a yuz tuhmat,*

*Asalg‘a zahr-u, gul o‘rnig‘a sonchar **xor** bir soat...*

*Hamesha uz tama’ shohi jahondin o‘zgin Komil,*

*Desang bo‘lmay jahon ichra zalil-u **xor** bir soat... [12.: 35.]*

Quyidagi baytida shoir “qaytmoq” fe‘lining Xorazm shevasiga xos fonetik variantini qo‘llagan bo‘lsa, keyingi misrada ushbu fe‘lga shakldosh bo‘lgan dialektal “*qoytib*” (hech, sira, yana, hech vaqt) ravishini ishlatadi va ham radif, ham tajnisning go‘zal ko‘rinishini hosil qiladi:

*Qadingni ayla xiromon, parivasho, **qoytib**...*

*Firoq ranjin ango ko‘rmayin ravo **qoytib**... [12.: 196.]*

Antroponimni apellyativ bilan tajnis yoki ittifoq qilish Komilning bir qancha g‘azallarida uchraydi. Jumladan, quyidagi baytda **Komil** onomasi faqat taxallusnigina emas, balki ism apellyativi bo‘lgan *komil* (sifat) tushunchasiga ham ishora qiladi. Bu usul mumtoz adabiyotda “*ittifoq*” deb yuritiladi [5.: 224.]:

*Top emdi Xevaqla Pahlavonni, **Komil** esong,*

*Dema Buxori sharifu Mazor g'urbat aro... [12.: 23.]*

Komil Xorazmiy mumtoz adabiyotda faol qo'llanuvchi polisemantik so'zlardan shakliy tenglik va mazmuniy uyg'unlikni ta'minlash uchun so'z o'yinlari yordamida chiroyli, xotiraga tez o'rnashadigan misralar yaratgan. Masalan, bunday qo'llanishlarni “*hamrah*”, “*qaro*”, “*qalam*”, “*xat*”, “*ofat*”, “*zo'r*” polisemantik so'zlaridan so'z o'yini yaratilgan baytlar [12.: 67, 74, 84, 132, 144.] orqali ham kuzatish mumkin.

2. Tajnisi zoyid (orttirilgan tajnis) – shaklan yaqin, lekin bir yoki ikki harfning ortiqchaligiga asoslanuvchi tajnis. Shoir tajnisning bu ko'rinishidan, asosan, bir qancha g'azallarining qofiyasida samarali foydalangan va ham qofiya talabining, ham mazmun yaxlitligining uyg'unligini ta'minlagan:

*Ilohi, necha ko'b **jinoyat** mango,*

*Karam ayla afv-u **inoyat** mango... [12.: 19.]*

3. Tajnisi muzori' – bir yoki ikki undosh bilan farqlanuvchi shaklan yaqin so'zlarga asoslanuvchi tajnis. Komil devonida bunday tajnis ko'rinishiga anchagina misollar mavjud:

*Buzuq ko'ngulni gar obod istasang chek ranj,*

*Ki bu xarobada beranj hosil o'lmas **ganj**.*

*Desangki g'amdin o'lay fard, bo'lma hargiz juft,*

*Jahon arusig'a kim ko'rgazur dalol ila **g'anj**... [12.: 42.]* Ushbu misralardagi mazmun ifodasida irsoli masal (Beranj ganj hosil bo'lmas) va tazod – kontrast (fard – juft) qanchalik ahamiyatli bo'lsa, shakl, mazmun, ohang uyg'unligida tajnisi muzori'ni yuzaga keltirgan va qofiya sifatida kelgan “*ganj – g'anj* (noz-karashma, ishva [4.: 105.])” birliklari ham shunchalik ahamiyatli sanaladi.

4. Tajnisi xat – arab yozuvidagi so'zlarning faqat nuqtalar bilan farqlanishiga asoslanuvchi tajnis turi. Bunday tajnisni Komil bir qancha g'azal va muxammaslarida qo'llagan. Jumladan, hazaji musammani solim vaznida bitilgan “Bo'lubdur qomatim...” deb boshlanuvchi g'azalida hamda A.Navoiy g'azaliga bitilgan muxammasida “*xam*” (“xam bo'lmoq” qo'shma fe'li tarkibi – egik) va

“ham” (bog‘lovchi yoki yuklama) so‘zlarining xattiy tajnisidan o‘rinli foydalangan:

*Bo‘lubdur qomatim **xam** zulm-u bedod ostida qolib,*

*Madori paykarim **ham** nuri chashmim, jism aro jonim...* [12.: 172.]

5. Tajnisi murakkab – shakldosh so‘zlardan biri yaxlit bir so‘zdan, ikkinchisi ikki so‘zdan iborat bo‘lishiga asoslanuvchi san‘at bo‘lib, Komil bu nazmiy imkoniyatdan ham unumli va o‘rinli foydalana olgan va o‘zining “Tokay yuray yo‘lingda...” deb boshlanuvchi g‘azalining matla’sida tajnisi zoyid (*oqturub – boqturub*) hosil qilgan bo‘lsa, “*oqturub*” va “*oq turub*” birliklari orqali tajnisi murakkab yarata olgan. Bunday holatni shoir ko‘plab g‘azallarida, jumladan, “Ey labing hasratidin...” matla’li g‘azalida tanlagan qofiyalar orqali tajnisi murakkab ko‘rinishida chiroyli so‘z o‘yini yaratgan. Ya’ni 1-baytda “qon g‘uncha” predikativ birikmasini hosil qilgan bo‘lsa, 5-baytda “qonguncha” ravishdoshini va 9-baytda qofiyani “hashosi qong‘uncha” [12.: 147.] iborasi tarkibida qo‘llab, shakl va ma’no uyg‘unligini yaratgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. 1-жилд. – Тошкент: “Фан”, 1983.
2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. 2-жилд. – Тошкент: “Фан”, 1983.
3. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. 3-жилд. – Тошкент: “Фан”, 1983.
4. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. 4-жилд. – Тошкент: “Фан”, 1983.
5. Alisher Navoiy. Qomusiy lug‘at. 1-jild. – Toshkent: “Sharq”, 2016.
6. Alisher Navoiy. Qomusiy lug‘at. 2-jild. – Toshkent: “Sharq”, 2016.
7. Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъу-с-санойиъ. – Тошкент: Фафур Фулом, 1981.
8. Жамолхонов Ҳ.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 2002.

9. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1984.
10. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: “Университет”, 2007.
11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎЗМЭ, 2008.
12. Комил. Девон. – Тошкент: Фафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975.

## **KOMIL XORAZMIY HAYOTI VA IJODIDA O‘QUVCHILARNING MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYASIDAGI O‘RNI**

*Xabibullayeva Mavluda Adambayevna,*

*tayanch doktoranti,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Komil Xorazmiyning hayoti, ijodi va asarlarida aks etgan axloqiy-ma’naviy qadriyatlarning o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasidagi o‘rni ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Uning she’riyati, nota yozuvi va xattotlik san’ati namunalarida mujassam qadriyatlar pedagogik jarayonda qanday qo‘llanishi ko‘rib chiqiladi.

**Абстрактный.** В статье анализируется влияние жизни и творчества Комила Хоразмий на духовно-нравственное воспитание учащихся. Исследуется, как этические и моральные ценности, отраженные в его поэзии, нотной записи и каллиграфии, могут быть использованы в образовательном процессе.

**Abstrakt.** This article examines the role of Komil Khorezmi’s life and works in the moral and spiritual education of students. It investigates how the ethical and spiritual values embodied in his poetry, musical notation, and calligraphy can be integrated into pedagogical practice.

**Kalit so‘zlar:** Komil Xorazmiy, ma’naviyat, axloq, tarbiya, musiqashunoslik, xattotlik, pedagogik qarash, o‘zbek adabiyoti.

**Ключевые слова:** Комил Хоразмий, духовность, нравственность, воспитание, музыкознание, каллиграфия, педагогическая концепция, узбекская литература.

**Keywords:** Komil Khorezmi, spirituality, ethics, education, musicology, calligraphy, pedagogical perspective, uzbek literature.

Komil Xorazmiy (asl ismi Pahlavon Muhammadniyoz Abdulla Oxund o'g'li) 1825-yilda Xiva shahrida tug'ilib, 1899-yilda shu shaharda vafot etgan – o'zbek adabiyoti, musiqashunosligi va xattotlik san'atining yetakchi namoyandasi. U Xiva madrasasida arab va fors tillarini o'rgangan, so'ngra Xiva xoni saroyida mirzaboshi bo'lib ishlagan. Shoir ijodida insonparvarlik, adolat, vatanparvarlik va ma'rifatparvarlik g'oyalari alohida o'rin tutadi.

Komil Xorazmiy 25–30 yoshlarida shoir sifatida tanilgan. U Ogahiy tomonidan “Gulshani davlat” asarida tilga olinib, madrasada kotiblik va mirzaboshi lavozimlarida xizmat qilgan. Shoirning “Devoni Komil”i 1975-yilda Toshkentda nashr qilinib, unda 150 dan ortiq she'riy asarlar jamlangan.

Komil Xorazmiy Xorazm maqomlarini “Tanbur chizig'i” deb nomlangan nota yozuvi orqali saqlab qoldirgan. Ushbu nota tizimi 18 gorizontaal chiziq va nuqtalarga asoslangan bo'lib, “Rost” maqomining bosh qismini yozib qoldiradi. U o'g'li Mirzo Muhammadrasul bilan birgalikda Shashmaqomning qolgan qismlarini ham notaga ko'chirgan.

Shoir xattotlik mahoratini madrasada o'rgangan va o'z asarlarida arab-fors xattotlik uslubini namoyish qilgan. Uning chiroyli yozuv namunalarida sabr, aniqlik va estetik go'zallikning uyg'unligi aks etadi.

Komil Xorazmiy she'riy merosida insonning olijanob fazilatlari – mehr-oqibat, sabr-toqat, bag'rikenglik va adolatga chaqiruvchi g'oyalar yetakchi o'rin oladi. U “Iyd o'ldi” g'azalida boy va kambag'al qatlamlar orasidagi tafovutlarni ochib berib, adolatli jamiyat zarurligini ta'kidlaydi. Shoirning onomastik birliklar tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlar bu g'oyalarni badiiy-estetik uslubda ifodalashga xizmat qilganini ko'rsatadi.

Pedagogik ahamiyati: o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida roli

*Axloqiy tarbiya* – Komil Xorazmiy asarlaridan iqtibos olingan dars ishlanmalarida “Zulmga qarshi tur, mehr-oqibatga da’vat et” shiori o‘quvchilarda adolatparvarlik ruhini shakllantiradi.

*Intizom va sabr-toqat* – Xattotlik mashqlarida aniqlik va sabr talab etilishi talabalarni injiqlikdan uzoqlashtiradi hamda o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

*Madaniy-ma’rifiy g‘oyalari* – Shoirning ilm-ma’rifatga chaqiruvchi g‘oyalari talabalarda izlanish va ilmga muhabbat tuyg‘ularini uyg‘otadi.

*Estetik tarbiya* – “Tanbur chizig‘i” nota yozuvi va chiroyli xattotlik namunalarini tahlil qilish san’atga bo‘lgan hurmatni oshiradi.

*Ijtimoiy mas’uliyat* – Shoirning ijtimoiy-falsafiy g‘oyalari o‘quvchilarni jamiyatdagi muammolarga faol munosabat bildirishga undaydi.

Respublikamizda Komil Xorazmiy ijodining turli jihatlarini R.Boltayev, D.Xudayarova, E.Yuldashev, Sh.Nuriddinov, M.Alimqulova kabi olimlar tadqiq qilishyapdi.

Jumladan, D.Xudayarova “Komil Xorazmiy she’riyatida ijtimoiy masalalar talqini” tadqiqot ishida shoirning ijtimoiy-falsafiy mazmundagi g‘azallari orqali jamiyat voqealariga munosabatini o‘rganadi.

E.Yuldashev “Linguopoetic possibilities of onomastic units in Komil Khorezmi’s poetry” tadqiqot ishida onomastika tahlili va uning badiiy-estetik xususiyatlarini tahlil qiladi

Sh.Nuriddinov “Komil Xorazmiy devonining janriy tarkibi to‘g‘risida” tadqiqot ishida devondagi asarlarning janr bo‘yicha tasnifi va qiyosiy tahlilini taqdim etadi.

M.Alimqulova “Komil Xorazmiy g‘azalnavisligining adabiy-estetik omillari” tadqiqot ishida g‘azallaridagi badiiy-estetik elementlarni o‘rganadi.

Sh.Nuriddinov “Devon manbalari genealogiyasi va matn tanqidi” tadqiqot ishida devonning turli qo‘lyozma manbalarini solishtiradi.

Ushbu turkumli tadqiqotlar nafaqat shoir ijodining nazariy-tahliliy asoslarini yuzaga chiqaradi, balki yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida uning merosidan foydalanish imkoniyatlarini ham ko'rsatib beradi.

Xulosa qilib, Komil Xorazmiyning hayoti va ijodi o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Uning she'riyati axloqiy-intellektual g'oyalarga boy, nota yozuvi va xattotlik san'ati esa pedagogik mashqlarda intizom, sabr-toqat va estetik mahoratni shakllantiradi. Tadqiqotlar Komil Xorazmiy merosining badiiy-estetik va ma'naviy-ma'rifiy jihatlarini ochib beradi hamda uning g'oyalari zamonaviy ta'lim jarayonida qo'llanilishi ahamiyatini tasdiqlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Xudayarova, D. (2023). "Komil Xorazmiy she'riyatida ijtimoiy masalalar talqini borasida ba'zi mulohazalar." 2(2), 23 – 26. LLC "Innovative Academy RSC."

2. Yuldashev, E. (2024, September). "Komil Xorazmiy she'riyatida onomastik birliklar lingvopoetikasi xususida" Tamaddun Nuri: The Light of Civilization, 9(60), 58 – 60. Innovative Academy RSC.

3. Nuriddinov, Sh. (2022). Komil Xorazmiy devoni manbalari genealogiyasi va matn tanqidi muammosi (Avtoreferat). Qarshi davlat universiteti.

4. Alimqulova, M. (2023). "Komil Xorazmiy g'azalnavisligining adabiy-estetik omillari." Academic Research in Educational Sciences, 7, 787 – 791. Universal Publishings.

5. CyberLeninka. (n.d.). "Umumjahon e'tirof etgan mashhur xattotlar" [World-Recognized Famous Calligraphers]. CyberLeninka. Retrieved April 24, 2025, from <https://cyberleninka.ru/article/n/umumjahon-e-tirof-etgan-mashhur-xattotlar>.

6. ResearchGate. (2023). "Komil Xorazmiy she'riyatida adolatli jamiyat tasviri" [Depiction of a Just Society in Komil Khorezmi's Poetry]. Retrieved April 24, 2025.

7. Xorazmiy.uz. (2017, January 2). “Komil Xorazmiy va uning avlodlari” [Komil Khorezmi and His Descendants]. Xorazmiy.uz. Retrieved April 24, 2025.
8. “Xorazm maqomlari.” Xorazmiy.uz. (n.d.). Retrieved April 24, 2025.
9. Ogahiy M. R. (1865). Gulshani davlat (“Davlat gulshani”). Xiva. (Reprint: Toshkent: Meros, 2000).

## **KOMIL XORAZMIY G‘AZALLARIDA TALMEH SHE‘RIY SAN‘ATINING QO‘LLANILISHI**

*Atadjanova Roziyajon Xudaybergenovna,  
magistrant,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlar universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada so‘z ma‘nosi bilan bog‘liq bo‘lgan talmeh she‘riy san‘atining Komil Xorazmiy ijodi asosida o‘rganilgan. Devondan misollar olingan va tahlil qilingan. Talmeh she‘riy san‘atining fikrni ifodalashdagi o‘rni ham izohlangan.

**Kalit so‘z.** talmeh, bayt, Yusuf, mumtoz adabiyot, obraz, g‘azal, misra.

**Abstract.** In this article, the talmeh related to the meaning of the word is studied based on the work of Kamil Khorezmi. Examples from the Devonian were collected and analyzed. The role of Talmeh's poetic art in expressing thoughts is also explained

**Keyword.** Talmeh, Yusuf, classical literature, image, ghazal.

**Аннотация.** В данной статье тальме, связанный со значением слова, изучается на основе произведения Камиля Хорезми. Были собраны и проанализированы образцы из девона. Также объясняется роль поэтического искусства Тальме в выражении мыслей.

**Ключевое слово.** Тальме, стих, Юсуф, классическая литература, образ, газал, стих.

**Kirish.** Ming yillik tarixga ega bo‘lgan mumtoz adabiyotimizda badiiyat masalasi hamisha she‘r ahlining diqqat markazida bo‘lib kelgan. U yoki bu ijodkor salohiyati haqida gap borganda, uning nimalarni tasvirlagani emas, asosan, qanday

tasvirlaganiga e'tibor qaratilgan. Jumladan, adabiy asarlarda she'riy san'atlardan foydalanish mahorati barcha davrda badiiy san'atkorlikning asosiy qirralaridan biri sifatida baholangan. Ma'lumki, she'riy san'atlar badiiy asar mazmunini hayotiyroq, ta'sirchanroq ifodalanishga, lirik va epik timsollarning yorqinroq gavdalanirishiga, misralar, baytlar, bandlarning lafziy nazokati, musiqiyliigi, jozibadorligini ta'minlashga xizmat qilgan. U yoki bu shoir ijodiga, u yoki bu badiiy asarga baho berilar ekan, ijodkor ifodalayotgan iz aksini topgan ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy, ma'rifiy-tarbiyaviy muammolar mohiyati va ko'lami, badiiy timsollar jilosi bilan bir vaqtda qo'llangan she'riy san'atlarning rang-barangligi, mantiqiy asoslanishi, asar mazmunini ochishdagi o'rni va ahamiyati kabi masalalarga ham alohida diqqat qilingan. Adabiyotimiz tarixi yana shundan dalolat beradiki, she'riy san'atlar shoir badiiy salohiyatini ko'z-ko'z qilish, uning xilma-xil san'atlardan mohirona foydalanish usullarini namoyish etish emas, balki ijodkor badiiy tafakkur dahosining ko'lami, yuksak ijtimoiy-axloqiy g'oyalarni jilolantirish san'atkorligi ifodasi bo'lib kelgan. She'riy san'atlar muayyan badiiy tamoyillarga asoslangan. Bulardan eng muhimi she'riy san'atlarning asar mazmuni bilan uzviy bog'liqligi sanaladi.

Ona diyorumiz qadimdan buyuk ijodkorlar va qomusiy allomalarni, san'at ahllarini yetishtirib, ilm-fan va madaniyatning ko'plab sohalari rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Xalqimiz qoldirgan boy ijodiy xazinasini haqida gap ketganda ijodkorlar yashagan davr va muhitni alohida ta'kidlash kerakki, bu kabi xazinalarning boyib borishiga asosan yirik amaldorlar-u davlat rahbarlari va diniy ulamolar rahnamolik qilishgan. Xalqimizning XVI-XIX asrning birinchi yarmida xonliklar va Buxoro amirligining xalq ta'limi va madaniyati haqida fikr yuritar ekanmiz, ijtimoiy-siyosiy hayotning hamma sohalarida va birinchi navbatda madaniyat va mafkurada islom dini g'oyasi markaziy o'rinni egallar edi.

**Asosiy qism.** Komil Xorazmiyning adabiy merosi bizgacha bir necha qo'lyozma va toshbosma variantlardan iborat bitta devoni yetib kelgan. Bu variantlar bir biridan farq qiladi. M. Yunusov o'zining Komil Xorazmiy hayoti va ijodiga bag'ishlangan tadqiqotida "Devoni Komil"ning tuzilishi va toshbosma

variantlarini o‘rganar ekan: “Komil devonlarining variantlari ichida shoirning hamma asarlarini o‘z ichiga olgani, mukammal deb hisoblash mumkin bo‘lgani, O‘zSSR FA. Sharqshunoslik institutida 1025 va 1949 inventar raqamlari ostida saqlanayotgan devonlardir... Bizning taxminiy hisobga ko‘ra mazkur nusxadagi she‘rlar 3680 baytni tashkil qiladi deyish, haqiqatga to‘g‘ri keladi.”[1] Shoirning bizga qoldirgan adabiy merosining asosiy qismi g‘azallar, muxammas, musaddas, musabba, murabba, muammo, ruboiy, qasida va masnaviylardan iborat bo‘lib, bular orasida asosiy o‘rinni g‘azallar tashkil qiladi.

Komil Xorazmiy ijodi bilan yaqindan tanishganimizda ham uning g‘azallarining aksariyatida payg‘ambarlar va tarixiy shaxslar obrazi ya‘ni: Layli, Majnun, Farhod, Shirin, Iskandar Bahrom, Sulaymon, Vomiq, Uzro, Jamshid, Yaqub Yusuf Iso Masih kabilarni uchratamiz. An‘anaviy doston qahramonlari bo‘lgan ishq-muhabbat timsollari Komil Xorazmiy ijodida ham alohida o‘rniga ega.

Shirin ila Layli sanga Farhod ila Majnun,

Uzrou Zulayho sango qurboni malohat [2.: 31.].

Yuqoridagi baytda talmeh she‘riy san‘ati qo‘llanilib, shoir o‘zining yorga muhtoj holatini ifoda etib, uning go‘zalligi-yu shirin so‘zi oldida Farhod va Shirin ham Layli va Majnunni ham qurbon qilajagini aytadi. Komil Xorazmiy nafaqat Navoiy ijodining bilimdoni balki u Qur‘oni Karim va Hadisi sharif bilimlaridan ham xabardor ekanligini shoirning quyidagi baytlaridan ham bilib olishimiz mumkin. Turkiy adabiyotda Yusuf mavzusiga bag‘ishlangan asarlar talaygina bo‘lib: Durbekning “Yusuf va Zulayho” dostoni, A.Jomiy asari, Rabg‘uziy qissasi, Andalib dostoni, Navoiy tarixini hamda mumtoz she‘riyatdagi Yusuf obrazining ko‘plab poetik manzarasini misol qilib olishimiz mumkin. Yusufning ishq, hijron, tuhmat, razolat, kibr, zalolat kabi qiyinchiliklar oldidagi matonati va saboti uni adabiyotda xususan she‘riyatda oshiq timsoliga aylantirdi.

Necha Shirinu Layli kokiling ag‘loliga mag‘lul

Zanaxdoning zahi ichra base Yusuf erur masjun [2.: 62.].

Layli-yu Shirinlar husning oldida sochin halqasi bilan mashg‘uldir, go‘zallik timsoli bo‘lgan Yusuf ham dudog‘i husningga bog‘langan ya’ni tobedir deya mashuqa go‘zalligini haddi a’losiga qo‘yib tasvirlaydi.

Netong, giryon esa o‘z kulbasida Komil, ey Yusuf,

Hamisha sensiz ul Yaqub erur, baytul hazandur bu [2.: 75.].

Ushbu baytda esa shoir yorga to‘g‘ridan to‘g‘ri Yusuf deb murojaat qilib, yorsiz o‘zining holi Yoqub singari g‘amgin bo‘lib qolishini anglatmoqda. Mumtoz adabiyotimiz na’munalarida Yusuf payg‘ambar va uning otasi ko‘pincha yonma yon qo‘llanib o‘ziga xos ramziylikni ifoda etadi. Komil Xorazmiy ham ayni shu kompozitsiyadan oqilona foydalana bilgan. Shoirning yana boshqa g‘azalida esa Yaqubning hijroni Kanon ahlining mahzunligi shunday tasvirlanadi:

Ro‘z shab zindoni g‘amda yig‘laram Yoqubdek,

Bo‘lg‘ali man xastasidin ul mahi Kan’on malul [2.: 84.].

Bundan tashqari Komil Xorazmiy “Xamsa” dostonlari va ularga tegishli bo‘lgan qahramonlar shaxsiyati, xarakteri va qobiliyatlaridan ham g‘azallarida mahorat bilan foydalanib o‘zining naqadar bilimdon ekanini namoyish eta olgan. Xususan, quyidagi g‘azalda “Farhod va Shirin” dostoni tarkibida uchrovchi Ahriman dev timsolini keltirib o‘ziga xos talmeh yaratgan.

Erursan sen parizodu chu devi Ahrimandur bu.

Netong, giryon esa o‘z kulbasida Komil, ey Yusuf.

Komil Xorazmiy nafaqat Navoiy balki qolgan xamsanavis ijodkorlar, xususan Jomiy dostonlarining qahramonlaridan ham o‘z g‘azallarida badiiy obraz sifatida foydalangan.

Komil Xorazmiy an’anaviy bilim, donishmandlik timsoli bo‘lib kelgan Luqmon va

Aflotun obrazlarini ham o‘z g‘azallarida keltirib o‘tadi va o‘ziga xos ohoriy yor tavsifini yaratadi.

Hirad ishqingda bo‘ldi ul sifat devonai Majnun

Ki, bilmaslar ilojin emdi yuz Luqmon , ming Aflotun. [2.: 176.]

Xususan, yuqordagi bayt mazmuniga e'tibor qaratadigan bo'lsak, "hirad" so'zi izohli lug'atlarda "aql" ma'nosini anglatadi. Bayt esa quyidagicha ma'no kasb etadi: aql sening ishqingda devonasifat bo'lib qoldi, endi esa uni ilojini yuzta Luqmon hakim ham, mingta Aflotun ham topa olmayapti. G'azalda Komilning, oshiqning, aqldan ozib Majnun holiga kelib qolgani e'tirof etiladi. Quyidagi baytda ham Iskandar, Doro, Bahrom, Jamshid podshohlar keltirilib, talmeh san'ati yaratilgan va o'z navbatida birinchi misradagi dunyo o'tkinchiligi va hech kim unda abadiy qola olmasligi, xoh shoh, xoh gado bo'lsin baribir bir kun bu dunyodan ko'z yumishini aytib misol tariqasida o'z zamoning yuksak kuchga ega bo'lgan podshohlarini ham abadiy yashamaganing misol tariqasida keltirib o'tadi va o'z navbatida tazod san'atidan ham foydalanadi.

Borurda dahri fonidin barobardir gadovu shoh,

Qani Iskandaru Doro qani Bahromu Jam, ahbob. [1.: 128.]

Bundan tashqari Komil Xorazmiy ijodida Sulaymon payg'ambar obrazi ham alohida ahamiyatga ega. Chunonchi, shoir g'azallarida Sulaymon payg'ambar boshqara olish qobiliyatini yor go'zalligiga o'zgacha usulda bog'lay olgan.

Xusn eli bo'lsa sango borcha musaxxar, ne ajab,

Ul parivashlarga sendursan Sulaymon, ey pari. [1.: 172.]

Ya'nikim, yor go'zallik borasida yagona, husn elining shohi bo'lgani holda barcha go'zallar unga bo'ysunadi, xuddi Sulaymonga jonzotllar bo'ysungani kabi deya ohoriy o'xshatishlar yaratadi. Bayt tarkibida Sulaymoon Payg'ambar nomini keltirish orqali shoir talmeh san'atini "husn eli" birikmasini qo'llash orqali tashbeh san'atini yuzaga keltirgan. Shoirning yana bir g'azalida esa Sulaymon payg'ambar va chumoli obrazini o'zgacha talqinda ko'rishimiz mumkin:

Mo'rdek ojiz etdi hijroning

Holima rahm et, ey Sulaymonim. [1.: 129.]

Sulaymon va mo'rcha haqidagi hikoyaga asosan, chumoli aqli donishda Sulaymondan ustun chiqadi. Yuqoridagi baytlarda esa chumolining aql qobiliyati emas balki jismoniy tarafdin zaifligiga urg'u berilib shoir o'zini chumoliga o'xshatib, go'zal yorini qudratli Sulaymonga mengzaydi.

**Xulosa.** Yuqoridagi mulohazalardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin: badiiy san’atlar har tomonlama mukammal, o‘zining badiiy nafasati bilan, xilm-xil ifoda usullari bilan berilgani o‘zbek tilimizning g‘oyatda boyligi va go‘zalligini, shuningdek, nozik va teranligini yorqin hamda jonli lavhalarda ifodalashini ko‘rsatib turibdi. She’riyatda talmeh san’atining qo‘llanilishi unga yashirin ma’nolardan mohirona foydalanish orqali chuqur g‘oya va tuyg‘ularni yetkazish imkonini berdi, she’riyatini ham jozibali, ham aqliy jozibador qildi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Yunusov M. Komil Xorazmiy. – Toshkent. 1960.
2. Komil. Devon. – Toshkent: “Adabiyot va san’at”, 1975.
3. <https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/talmeh/>
4. Adabiy tur va janrlar. Uch jildlik. 2-jild. Lirik. – Toshkent: “Fan”, 1992.
5. Boltaboyev H. Sharq mumtoz poetikasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.

### **XORAZMLIK SHOIRLAR IJODIDA NAVOIY AN’ANALARI**

*Jumayeva Nozima Nurxon qizi,*

*magistrant,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotasiya.** Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodida ma’rifat, ta’lim, tarbiya masalasi hamda ushbu mavzularning an’anaviy ravishda xorazmlik shoirlar she’riyatida davom etgan namunalari tahlil qilinadi.

**Аннотация.** В статье анализируются вопросы просвещения, образования и воспитания в творчестве Алишера Навои, а также примеры продолжения этих тем в поэзии традиционных хорезмийских поэтов.

**Abstract.** This article analyzes the issues of enlightenment, education, and upbringing in the work of Alisher Navoi, as well as examples of the continuation of these themes in the poetry of Khorezm poets.

**Kalit so‘zlar:** *an’anaviylik, Komil Xorazmiy, Avaz O‘tar, Muxammas janri.*

*Ключевые слова: традиционализм, Камиль Хорезмий, Аваз Отар, жанр Мухаммаса.*

*Keywords: traditionalism, Kamil Khorezmi, Avaz Otar, Mukhammas genre.*

Alisher Navoiy ijodiyoti shunday ulkan meroski, undagi har bir g'oya va mavzu asrlar osha o'zining umrboqiyliigi va ahamiyatini yo'qotmagan. Ko'plab ijodkorlar Navoiy asarlaridan, uning g'oyalaridan ilhomlanib, uning ijodini an'anaviy tarzda davom ettirganlar. Sharq adabiyotida, umuman olganda, sharq xalqlarida ustoz-shogird an'anasi juda katta ahamiyatga ega. An'anaviylik esa, bir xil mavzu, qolip va usulni saqlab qolgan holda davom ettirishdir. Ko'pincha, shogirdlar ustozlari yo'lidan borib ularning ishlarini davom ettiradi va an'anaviylikni saqlab qoladi. Alisher Navoiy ham o'ziga ustoz deb bilgan Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy ijodini mukammal o'rganib, ular yaratgan xamsachilik an'anasini davom ettiradi. Ustozlariga ulkan ehtirom ko'rsatib o'z asarlarida, xususan, "Majolis un-nafois" asarida eslab hurmat ko'rsatadi. O'z davrining malik ul-kalomi hisoblangan Mavlono Lutfiy Navoiy she'rlariga yuksak baho berib, unga o'zini ustoz maqomida ko'rgan. "Farhod va Shirin" dostonida ustozlariga bag'ishlab quyidagi misralarni ham yozadi:

Emas oson bu maydon ichra turmoq,

Nizomiy panjasiga panja urmoq.

Kerak sher ollida ham sheri jangi,

Agar sher o'lmasa, bore palangi.

Haqiqatan ham, Nizomiy kabi buyuk ijodkorlar bilan bir safda turmoq, ular singari asarlar yozmoq uchun Navoiyda yuksak mas'uliyat va ustozlarga munosiblik hissi bo'ladi. Ushbu baytlar orqali Navoiy "Xamsa" asarini yaratishdagi ustozlarning yo'lini davom etayotgani haqida fikr yuritiladi.

Alisher Navoiy ijodida turli-tuman mavzulardagi g'azal, qit'a, ruboiy, fard va boshqalarni ko'rishimiz mumkin. Bugun tahlilga olganimiz esa, Navoiy ijodida pand-nasihati, ilm-ma'rifat masalasi hamda shu kabi mavzularning xorazmlik shoirlar ijodida davom ettirilishini ko'rib chiqamiz.

Avvalo, Alisher Navoiy ilm-ma'rifat homiysi edi. U davlat lavozimlarida ishlagan paytlarida mamlakatda ilm ahliga keng imkoniyatlar yaratib beradi. Ayniqsa, "Farhod va Shirin" dostonining bosh obrazi, komil inson sifatida tasvirlangan Farhod juda zehni, ilmi bo'ladi. U shunday qobiliyat egasi ediki, bir kitobni bir marta o'qib chiqsa, yodlab olardi. Uning shiori "O'qub o'tmak, uqub o'tmak", – deb yozadi Navoiy. Farhodning shunday darajaga yetishishida uning ustozlari Moniy, Boniy, Qoran va Mulkorolarning xizmatlari beqiyos edi. Shu o'rinda Navoiy quyidagi hozirgi kunga qadar hikmat darajasiga aylangan baytlarni keltiradi:

Haq yo'linda kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,

Aylamak bo'lmas ado, oning haqin yuz ganj ila.

Ushbu baytlardagi asosiy g'oya shundaki, inson hayoti davomida ustoz shunchalik ulug' zotki, kishiga birgina harf o'rgatgan bo'lsa-da, uning haqqini dunyoning eng qimmat boyliklari bilan ham ado qilib bo'lmaydi. Shu o'rinda, Navoiy ustozning qadri, uning mehnati buyukligi, qolaversa, har bir muvaffaqiyatga erishgan inson ortida unga ta'lim bergan qanchadan-qancha ustozlari borligi, ularning o'rni hamisha muhim ekanligini ta'kidlaydi. Ammo zamonlar o'tishi bilan mashhur xorazmlik shoir Komil Xorazmiyning "Yutubon bu zamonda qon fuzalo" deb boshlanuvchi g'azalida ilm ahliga e'tibor yo'qligi, ularning faoliyati hamisha ta'qiq ostiga olinayotgani, jamiyatda olimlar qiynalib o'zlarining ilmlarini yosh avlodlarga o'rgatolmay kulfat o'tiga tushib qolayotgani haqida yozadi..

Yutubon bu zamonda qon fuzalo,

Kulfat o'qig'adur nishon fuzalo.

Bu bilan Komil Xorazmiy Navoiy kabi ilm-m'rifatni yoyish, ustozga, olim-ulamolarga hurmat ko'rsatish kerakligini g'azal mazmunida aks ettiradi.

Shuningdek, Komil Xorazmiy Navoiyning "Bo'lsangiz" radifli g'azaliga quyidagi Muhammasni yozadi.

Zinhor el ixtiloti birla xurram bo'lmangiz,

Mehnati har dam fuzunu rohati kam bo'lmangiz,

Men kabi bori nadomatdin qadi xam bo‘lmangiz,  
Do‘stlar, olam elig‘a yoru hamdam bo‘lmangiz,  
Yor ila hamdam demaykim, oshino ham bo‘lmangiz.  
Olam ahlidin vafo osorini qilmang gumon,  
Naqd umrim sarf etib qildim alarni imtihon,  
Uzlat istab ahli olamdin qoching boricha jon,  
Oshnolig‘ aylabon, o‘z joningizg‘a har zamon,  
Boisi yuz ming balo-yu mehnat-u g‘am bo‘lmangiz.

Alisher Navoiyning ko‘plab ruboiy, fard va boshqa asarlaridan olingan parchalar hikmat darajasiga ko‘tarilgan. Masalan, quyidagi baytda:

Bo‘lsa kerak fikr ila shohi zamon,

Yaxshiga yaxshiyu, yomonga yomon.

Ushbu baytda Navoiy insonlar orasidagi, jamiyatdagi asosiy fikr yaxshiga yaxshilik bilan, yomonga esa yomonlik bilan javob qaytarish kerak deb o‘ylashadi, deydi. Ammo aslida haqiqiy komil inson yaxshiga ham yomonga ham yaxshilik bilan javob qaytaradi.

XIX asrda Xorazm adabiy muhitida ijod qilgan Avaz O‘tar o‘zining ruboiylaridan birida yaxshilikning fazilati va uning ahamiyati haqida yozadi.

Naf‘ing agar xalqqa beshakdurur

Bilki, bu naf‘ o‘zungga ko‘prakdurur.

Ushbu misralar orqali ijodkor agar insonning xalqiga nisbatan foydasi ko‘p bo‘lsa, bu naf‘ xalqqa ham, o‘ziga ham manfaatli bo‘lishi, ya‘ni inson bu dunyoda qancha ko‘p yaxshiliklar qilsa, hayoti davomida o‘ziga ortig‘i bilan qaytishi haqida fikr yuritadi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy va uning izdoshlari yaratgan jamiyatda insonlar fikri va dunyoqarashini o‘zgartirishga, ularni yaxshilikka chorlovchi, qolaversa, barcha ijtimoiy ruhdagi asarlar umrboqiydir. Ular davrlar osha o‘qiladi va muhim tarbiya vositasi sifatida xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. XX jildlik. 6-жилд. – Тошкент. “Фан”, 1988.
2. Алишер Навоий. Фарход ва Ширин. Мукаммал асарлар тўплами. 8-жилд. – Тошкент. “Фан”, 1988.
3. Навоий асарлари луғати. Тузувчилар: П.Шамсиев ва С. Иброҳимов. Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1973.
4. <https://tafakkur.net/>

**2- SHO‘BA: FERUZ DAVRI XORAZM ADABIY  
MUHITI: AN’ANA, MAHORAT, O‘ZIGA XOSLIK  
OGAHİY ADABIY AN’ANALARINING FERUZ IJODIGA TA’SIRI  
XUSUSIDA BA’ZI MULOHAZALAR**

**G‘ayipov Dilshod Qadambayevich,**  
*filologiya fanlari doktori, professor,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Muhammad Rizo Ogahiy adabiy an’alarining Muhammad Rahimxon Feruz ijodiga ta’siri xususida qisqacha fikr yuritiladi. Feruz badiiy mahoratining rivojlanishidagi Ogahiyning o‘rni tadqiq va tahlil etiladi. Shuningdek, har ikkala shoir o‘rtasidagi ustoz-shogirdlik munosabatlarining natijasi borasida so‘z boradi.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается вопрос о влиянии литературных традиций Мухаммада Риза Агахи на творчество Мухаммада Рахимхана Феруза. Исследуется роль Агахи в совершенствовании художественного мастерства Феруза. Внимание также акцентируется на отношениях наставничества-ученичества между двумя поэтами.

**Annotation.** This article briefly discusses the influence of Muhammad Riza Agahi's literary traditions on the work of Muhammad Rahimkhan Feruz. The role of Agahi in the development of Feruz's artistic skill is studied and analyzed. The results of the mentor-disciple relationship between the two poets are also discussed.

**Kalit so‘zlar:** Ogahiy, Feruz, an’ana, o‘ziga xoslik, badiiy mahorat, janr, g‘azal, muxammas

**Ключевые слова:** Агахи, Феруз, традиция, своеобразие, художественное мастерство, жанр, газель, мухаммас.

**Keywords:** Agahi, Feruz, tradition, originality, artistic skill, genre, ghazal, mukhammas.

Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy (1809-1874) ijodi o'zidan keyin yashagan shoirlar uchun ilhom manbayi vazifasini bajargan. Bu borada adabiyotshunosligimizda bir qancha fikr-mulohazalar bildirilgan. Jumladan, Ogahiy va Feruzning ustoz-shogirdlik munosabatlari borasida ham kichik-kichik tadqiqotlar olib borilgan. Ayniqsa, bu xususda adabiyotshunos Nusratulla Jumaxo'janing izlanishlari e'tiborli. U "Feruz-madaniyat va san'at homiysi" kitobida "Ogahiy – ustodim mening", "Ijodiy hamkorlik jarayonlari" maqolalarida to'xtalib o'tgan [1.]. Shuningdek, adabiyotshunos G.Ismoilova [2]. Y. Muhammadiyevlar [3.] ham bu borada qisman to'xtalganlar. Darhaqiqat, Muhammad Rahimxon Feruzning iste'dodli shoir bo'lib yetishishida Ogahiyning o'rni katta edi. Bu holatni Feruzning o'zi ham e'tirof etgandi:

Komil ersam nazm aro Feruzdek, ermas ajab,

Ogahiydur she'r mashq aylarda ustodim mening [4.].

Ta'kidlash o'rinliki, Feruzning she'riyatda yetuklikka erishishida, "Ishqiy g'azallar piri" sifatida e'tirof qozonishida Ogahiyning ustoz sifatidagi mavqeyi baland edi.

Ma'lumki, Feruzning bizga ma'lum bo'lgan ijodiy merosi u qadar ko'p emas. 98 g'azal, 7 muxammas, 2 musaddas, 4 masnaviy, 7 ruboiydan iborat. Jami 2534 misrani tashkil qiladi. Biroq hali Feruz she'rlari kiritilgan bayozlar to'liq o'rganilgan emas. Mazkur bayozlardagi asarlar to'la tabdil etilsa, shoir she'riy merosining hajmi yana oshgan bo'lardi, albatta. To'g'ri, Feruzning ko'pgina vaqti davlat ishlari bilan o'tgan. U ma'rifatparvar xon sifatida o'z ijodi ravnaqidan ham ko'ra o'zi rahnamolik qilgan adabiy muhitning rivojini istagan va bunga erishgan ham.

Feruz she'riyatida ishq-muhabbat mavzusi yetakchilik qiladi. Shu bois ham oshiq-ma'shuqa-raqib uchligi shoir she'riyatida asosiy obrazlardir. Ushbu mavzu ifodasida ham Feruz Ogahiyga izdoshlik qiladi. Ogahiy g'azallariga bir qancha payrav g'azallar bitgan. Muhammad Rizo Ogahiyning "Ta'vizu-l-oshiqin"devonida "Sizmusiz?" radifli g'azal bor. Ushbu g'azal shoirning yuksak iqtidori mahsuli bo'lib, badiiyat jihatdan ancha mukammaldir. Xorazm adabiy

muhitida Ogahiyning ushbu gʻazaliga bir nechta shoir oʻxshatma gʻazal bitganlar. Feruz Ogahiyning shogirdi sifatida uztoziga hamohang misralar bita olgan. Ogahiy yozadi:

Noz-u karashma bogʻining sarvi ravoni sizmusiz?

Oshiqi xasta jismining rohati joni sizmusiz?

Qullugʻingizga faxr etar koʻyingiz ichra xoʻblar,

Kishvari husn taxtining shohi zamoni sizmusiz? [5].

Yuqoridagi misralardan koʻrinadiki, maʼshuqa shoir tomonidan ulugʻlanadi. Gʻazalda noz-u karashma bogʻining sarvi ravoni, xasta jismining rohati joni sizmusiz, deya soʻrash bilan shoir tajohuli orifona sanʼatidan foydalanadi. Yaʼni bilib-bilmaslikka oladi. Keyingi baytda esa maʼshuqaga xoʻblar, goʻzallar qulluq qilishdan faxr etishini lirik qahramon olqishlaydi va uni husn taxtining shohi zamoni, deya ataydi. Feruz esa quyidagicha oʻxshatma qiladi:

Aylagan holim xarob, ey sarvinozim, sizmusiz?

Koʻrubon qilgʻon sitam ajz-u niyozim, sizmusiz?

Koʻrguzub noz-u ado dilbarlik oyini bila,

Jon qushini sayd qilgʻon shohbozim sizmusiz? [4].

Ogahiy va Feruzning tahlilga tortilayotgan gʻazallari mavzu jihatdan oʻxshash. Bandlar soni ham turlicha. Ogahiy gʻazali 9 bayt, Feruzning “Sizmusiz?” radifli gʻazali 7 bayt. Har ikkala shoir qoʻllagan qofiyalar ham turlicha. Ogahiy qofiyalari uchinchi shaxsdagi soʻzlar: sarvi ravoni, rohati joni, shohi zamoni, necha yaroni, noz-u adoni, dardi nihoni, javr-u jafoni, lutf-u atoni, dard-u baloni, oʻrtagan oni; Feruz qoʻllagan qofiyalar birinchi shaxsdagi soʻzlardan iborat: sarvinozim, niyozim, shohbozim, shamʼi tirozim, sarfarozim, lutfi ozim, rozim, Ayozim. Koʻrinadiki, Feruz Ogahiy qoʻllagan qofiyalarni qoʻllamaydi, ustoz fikrlarini deyarli takrorlamaydi, yor sifatlarining yangi qirralarini topadi, yangi tasvirlar yaratadi. Har ikkala gʻazalning radifi bir xil, ohangdorlikda oʻxshashlik yaqqol koʻzga tashlanadi.

Ogahiyning “Sallamno” radifli g‘azali bilan Feruzning shunday radifli g‘azali ham nihoyatda o‘xshash. To‘g‘ri, “Sallamno” radifli g‘azal ko‘pchilik shoirlar she‘riyatida uchraydi. Biz “Sallamno” radifli g‘azal: an‘ana va o‘ziga xoslik” nomli maqolamizda Umarxon Amiriy va Muhammad Rizo Ogahiy she‘riyatidagi shu radifli g‘azallarni qiyoslaganmiz. Ogahiy qisman Amiriy g‘azalidan ta’sirlangani haqida yozganmiz. Shuningdek, Ogahiyning Amiriy g‘azalidan farqli jihatlariga to‘xtalganmiz. Biroq Feruz ham Amiriyga o‘xshatma qilgan, deyish unchalik ham to‘g‘ri emas. Sababi, “Sallamno” radifli g‘azalda Amiriydan ham ko‘ra Ogahiy g‘azaliga hamohanglik juda kuchli. Ogahiy yozadi:

Olur har lahza yuz jon chashmi fattoningg‘a sallamno,  
To‘kar har damda ming qon tig‘i mujgoningg‘a sallamno.

Jahon bozorida sindurdi yoqut-u guhar qadrin,  
Durafshon nukta birla la‘li xandoningg‘a sallamno [5.: 50.].

Ogahiy ushbu g‘azalida yorning ko‘zlari, kipriklari, lablari, sochi, yuzi, qaddi qomati, jamoli, so‘zlari ta‘rif-u tavsifini shu qadar go‘zal tasvirlaydiki, beixtiyor shoir mahoratiga ham tasanno aytasiz. G‘azalning begona baytlarida riyokor zohid obraziga ham murojaat qiladi. Feruz esa nigoroning tarzi raftori, mehri ruxsori, chashmi xunxori, jonbaxsh guftori, zulfi - zunnori, javr-u ozori, atvorini o‘ziga xos tarzda qalamga oladi. Shoir begona bayt imkoniyatidan foydalanmaydi. G‘azalning oxirida esa o‘z-o‘ziga tahsin aytadi, ash‘origa sallamno o‘qiydi:

Nigoro, oldi hushim, tarzi raftoringg‘a sallamno,  
Yorutti tiyra kulbam, mehri ruxsoringg‘a sallamno.

Ishim qotil ko‘zung bedodidin bo‘lmish base mushkul,  
Ichib qonimni to‘ymas, chashmi xunxoringg‘a sallamno...

Feruz o‘lub baxt, etding, ul oy qaddi, zulfin vasf,  
Bu yanglig‘ tab‘i nozik birla ash‘oringg‘a sallamno [4.: 20.].

Yana shuni alohida ta‘kidlash o‘rinliki, Feruz g‘azalning maqta‘sida ham Ogahiyga ergashgan. Ogahiy g‘azal nihoyasida tun-u kun ul oy jabr-u jafosini chekib, qattiq mehnat ichida o‘zining chiqmagan joniga olqish aytadi. Feruz esa

bu o‘z-o‘ziga tahsin aytishni boshqacharoq yo‘sinda keltiradi. U ham “Ul oy” ifodasidan foydalanadi. Ma’shuqaning qaddi, zulfini vasf etishni, maqtashni baxtiyorlik sanaydi. Nozik tab’ bilan bitilgan ash’orlariga maqtov aytadi. Garchi Ogahiy o‘zining chiqmagan joniga, Feruz o‘zining ash’origa sallamno aytsa-da baribir yaqinlik bor. To‘g‘rirog‘i, Feruz ustozining an‘anasini munosib davom ettirgan.

Feruzning “Ohista-ohista” radifli g‘azalida ham Ogahiy she’rlariga o‘xshashlik seziladi. Garchi baytlar sonida farq bo‘lsa-da, ba’zi fikrlar ifodasida yaqinlik bor. Bir so‘z bilan aytganda, Feruzning “Ohista-ohista” radifli g‘azali ham Ogahiyning shu radifli she’ri asosida bitilgan, desak xato bo‘lmaydi. Ogahiy yozadi:

Manga zulm aylar, ul qotil ayon ohista-ohista,  
Chekib tig‘ini aylar qasdi jon ohista-ohista [5.: 266.].

Feruz g‘azalining ilk bayti quyidagicha:

Manga rahm aylab ul shirinzabon ohista-ohista,  
Yetushti boshim uzra nogahon ohista-ohista [4.: 17.].

O‘z navbatida Feruzning bu g‘azaliga Ogahiy muxammas bog‘lagan. Mazkur muxammasni tahlilga tortgan N.Jumaxo‘ja quyidagi fikrlarni yozgan: “Feruzning Ogahiy muxammasiga asos bo‘lgan eng yetuk asarlaridan biri “Ohista-ohista” radifli g‘azalidir. Ushbu g‘azal ham mazmunan, ham shaklan yangi badiiy mazmun-mundarijasi, badiiy timsollar tizimi, hajm e’tibori bilan go‘zaldir. G‘azal, badiiy qurilishiga ko‘ra, voqeaband g‘azallar turkumiga mansub... G‘azal o‘ziga xos nafosati bilan ulug‘ ustoz Ogahiy lutfiga sazovor bo‘lgan, natijada mumtoz muxammas yuzaga kelgan” [1.].Ko‘rinadiki, Ogahiy dastlab ilhombaxsh g‘azal yozdi. O‘z she’rining ta’sirida bitilgan g‘azalni e’tirof etgan holda unga muxammas ham bog‘lagan. Bu, bizningcha, ustozning shogirdi iqtidorini tan olishining, unga rag‘bat berishning namunasidir.

Yuqoridagi kabi ijodiy izdoshlik, ta’sirlanish Feruzning “Ustina”, “Bilmadim”, “Hadis”, “Muborak” kabi o‘nlagan g‘azallarida, boshqa janrdagi asarlarida ko‘rinadi. Feruz Ogahiyning she’riyatdagi an‘analarini payrav g‘azallar

bitish, bir-biriga yaqin obrazlardan foydalanish orqali davom ettirdi. Shuningdek, mavzu va g'oya o'xshashligida ham ustoz qarashlarining uzviyligini ta'minladi. Biroq an'ana ta'sirida qolib ketmadi. O'ziga xoslikka ham erishdi. "Ishqiy g'azallar piri" e'tiroziga sazovor bo'ldi. Eng muhimi shuki, Ogahiyning Feruzga bevosita bergan saboqlari, o'g'itlari ta'sirida u ma'rifatparvar xon darajasiga ko'tarildi, Xorazm adabiy muhitini yangi yuksalish bosqichiga olib chiqdi. Xalqning turmush darajasi oshdi, yangicha taraqqiyparvarlik harakatlari boshlandi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Jumaxo'ja N. Feruz – madaniyat va san'at homiysi. –Toshkent: "Fan", 1995. 49 - 71-betlar.

2. Ismoilova G. Feruz davri Xorazm adabiy muhiti. Filol.fanl. nomz...dissertatsiyasi, 1995. Ismoilova G.Chaqmoqli orzular ijodkorlari. – Toshkent: "Istiqlol nuri", 2014.

3. Muhammadiyeva Y. Feruzning badiiy mahorati. Filol.fanlari falsafa doktori...dissertatsiyasi, 2021.

4. Muhammad Rahimxon Feruz. Ne bo'ldi, yorim kelmadi. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991. (Feruz qalamiga mansub she'riy parchalar ushbu kitobdan olingan va qavs ichida sahifasi ko'rsatgan).

5. Ogahiy. Ta'vizu-l-oshiqin. –Toshkent: "Mumtoz so'z". (Ogahiy qalamiga mansub she'riy parchalar ushbu kitobdan olingan va qavs ichida sahifasi ko'rsatilgan).

## MAQOM SAN'ATIDA UNUTILGAN CHOLG'U KUYLARI

**Boltayev Rustam Kurbonboyevich,**

*San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsenti,  
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola o'zbek xalqining qadimdan ma'lum bo'lgan maqom ijrochiligida unitilgan cholg'u kuylari haqida yozilgan. Xorazm "Tanbur chizg'ilari" asosida yozilgan Xorazm olti yarim maqomlaridan Rost maqomi chertim yo'li ayrim kuylari ustoz-shogird an'anasida unitilganligi va ular qo'lyozmada ya'ni "Tanbur chizg'ilari" nusxalarida saqlanib qolganligi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

**Abstract.** This article is dedicated to the forgotten instrumental melodies in the Uzbek tradition of maqom performance, known since ancient times. It focuses on specific pieces from the performance path of the Rost maqom in the Khorezm school of "six and a half maqoms", based on the "Tanbur diagrams". It is noted that some of these melodies were forgotten in the master-apprentice tradition but have been preserved in manuscript form, particularly in the "Tanbur diagrams".

**Абстрактный.** Данная статья посвящена забытым инструментальным мелодиям в узбекском музыкальном наследии, связанным с древним искусством исполнения макамов. В ней рассматриваются отдельные произведения из исполнения макама Рост в Хорезмской школе «шестиполутных» макамов, основанной на «Танбурных чертежах». Указывается, что некоторые из этих мелодий были забыты в традиции учитель-ученик, но сохранились в рукописях, в частности в манускрипте «Танбурные чертежи».

**Kalit so'zlar:** mansur, peshravi rost va peshravi gardun, murabb'a, musaddas, musabb'a, saqil, iyfor.

**Keywords:** mansur, peshrawi rost and peshrawi gardun, murabba, musaddas, musabba, saqil, iyfor.

**Ключевые слова:** мансур, пешрави рост и пешрави гардун, мурабба, мусаддас, мусабба, сакыл, иффор.

O‘zbek xalqi qadimdan o‘zining boy milliy-madaniy qadriyatlari, urf-odatlari, jahon madaniyatiga qo‘shgan ulkan xissasi bilan alohida o‘rin egallaydi. Jahon madaniyati va san‘ati rivojida o‘zbek xalqi tomonidan yaratilgan boy musiqiy merosni butun dunyo tan olishining o‘zi ham xalqimizning uzoq o‘tmish tarixi, buguniga berilgan munosib bahodir. So‘nggi yillarda yurtimizda musiqiy qadriyatlarimizning tarixiy va nazariy asoslarini o‘rganish, ularni saqlab qolish borasida qator farmon va qarorlar qabul qilindi [1].

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyayevning “Ayni vaqtda biz Xorazmning mana shunday bebaho madaniy merosini, ayniqsa, Xorazm maqomlarini yanada chuqur o‘rganish va targ‘ib qilish, ularni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish, katta bilim va fidoyilikni talab qiladigan bu sohaga yosh san‘atshunoslarni jalb etish, buning uchun tashkiliy, moddiy va ma‘naviy tomonidan tegishli sharoitlarni yaratib berish bo‘yicha hali ko‘p ish qilishimiz zarur[2.: 245.].

Maqom ijrochiligi borasidi musiqashunos olimlar olib borgan izlanishlari va tadqiqotlari diqqatga sazovordir. Otanazar Matyokubov o‘zining “Maqomot”, Is‘hoq Rajabov Maqomlar kitobida o‘zbek maqomlarining ilmiy-nazariy tomonlari keng yoritilgan. O.Matyakubov, R.Boltayev, X.Aminov hamkorlikda Xorazm olti yarim maqomlari bitilgan qo‘lyozmalar nusxalari asosida tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Ushbu maqolada Xorazm olti yarim maqomlaridan Rost maqomi cholg‘u yo‘llarini tahlili nazariy tomonlariga e‘tibor qaratdik. Ijrochilik masalalari aynan xalq orasida ustoz-shogird an‘anaviy uslubi bilan bog‘liq va farqli tomonlarini ko‘rib chiqdik va tikladik. Buning uchun musiqashunos olimlar va ustoz ijrochilar fikrlarini o‘rganib tahlil qildiq. Ma‘lumotlarni asoslashda bir qancha manbalarga asoslandik va tayandik. Mavzuni ochib berishda ilmiy, nazariy va amaliy tomonlarga e‘tibor berdik. Ustoz ijrochilardan Olanazar Xasanov hamda Ozod Ibragimov ijro yo‘llarini ko‘rib chiqdik va tiklashga harakat qildik.

Xorazm “Tanbur chizg‘ilari” asosida yozilgan Tanbur va Dutor maqomlari o‘z davrining olamshumul kashfiyoti bo‘lib, hozirgi musiqashunoslikda ham

ahamiyati yuksakdir. Uning ijrolari qisman xalq orasida ustoz-shogird an'anaviy uslubida hozirgacha saqlanib kelmoqda. Xorazm "Tanbur chizg'ilari" nusxalari mukammal o'rganilib, ular to'liq ilmiy muomalaga kiritilsa, Xorazm maqomlarini o'rganish ishida ishonchli manba bo'lib xizmat qiladi[5.: 129.].

XIX asrning ikkinchi yarmida Muhammad Rahimxon Soniy (Feruz) rahnamoligida yaratilgan Xorazm tanbur chizg'ilari kitobotiga muhrlangan Olti yarim maqom cholg'u kuylaridan ayrimlari XX asr tazyiqlari, mustabit sho'ro davrida unutilganligi hech kimga sir emas.

Muhammad Rahimxon Soniyning davrida Niyozjon xo'ja tartibga solib ketgan Xorazm maqomlari yanada tartiblashdi, jamlandi. Muhammad Rahimxon Soniyning o'zi Xorazm maqomlari asosida 13 ta yirik kuy yaratgan va bular: Muhammasi jadidi Feruzi Rost, Musaddasi jadidi Feruzi Rost, Sakili Feruzshoxi Navo, Sakili Feruzshoxi Segoh, Sa usuli Feruzshoxi, Chor usuli Feruz, Sakili Feruzshoxi Dugoh, Muhammasi Feruzi Buzruk, Birinchi Muhammasi Feruzshoxi Irok;, Ikkinchi Muhammasi Feruzshoxi Iroq, Se usuli Feruzi Iroq, Sakili Feruzshoxi Panjgoh, Muhammasi Feruzshoxi Panjgoh kabi cholg'u yullarini maqomlar turkumiga kiritgan[3.].

O'sha davr tarixchilari yozadilar: *"...Burundan xalq orasinda ozroq istanulgan musiqiy ishlari ortiqmoch bir suratda tarqoladur va milliy nag'malarni vujudga chiqmoqina imkoniyat chiqodur. Xususiy mutaxassis musiqiyshunoslar durab, Shashmaqom nag'malarining mushkulot, tasnif qismlari ayrucha ahamiyat kasb etub, mushkulot bila tasnif qismlarina mutaalluq Shashmaqom nag'malari burung'i holidan hiylichha o'zgarub, necha qo'shimchalar qo'shulib, yamaladur"* [4.].

Madaniyat va san'at gullab yashnagan Feruz davrida ancha ahamiyatga ega ilmiy, amaliyotga ancha yaqinroq risolalar barpo etish zaruriyati tug'ildi. Bunday risola yaratish fikri eng avval madaniyat homiysining xayoliga keldi: "Xonning ishtiyoq va orzusi shul darajaga yetadurkim, o'rta yerda oylanub, butun Shashmaqom va olarg'a bog'long'on qo'shumchalar va milliy nag'malarni qulay

va yengil bir holda har kimlar tarafidan tushunulub chertmoq va o‘granulmak yo‘llarini oxtarmoq va tofmoq chorasini o‘ylaydur”.

“Xorazm musiqiy tarixchasi” mualliflari guvohlik berishiga qaraganda, ushbu zaruriyatni erta anglagan xon Pahlavonniyoz Mirzoboshi – Komil Xorazmiyga qay tariqa bo‘lmasin “...tanburning iste‘moli va nag‘malarini har kimlar tarafidan cherta bilurlik bir tadbir topilsin” deb amr qiladi[4.: 12].

Olim va musiqiyini chuqur tushungan Komil Xorazmiy yetakchiligida Xorazm musiqashunos xonanda va sozandalari hozirda Xorazm “Tanbur chizg‘ilari” deb ataladigan tabulatura shaklidagi notani kashf etadilar va kuchli say-harakatlar tufayli Xorazm maqomlari to‘liq va mukammal ravishda ana shu o‘ziga xos notaga ko‘chiriladi. Eng avval Komil Xorazmiy: “Muhammad Rahimxonning buyruqini o‘rnina gatirmak uchun bu yo‘l bila ixtiro etkan chiziqni isbot etmoqqa boshlab, ilk “Rost” maqomini supurdisiniki, muning birla “Rost” maqomi tamom bo‘lib, peshravi boshlanadur” [4.:13.].

*Xorazm “Tanbur chizg‘ilari”ning rivojlanishi, uning taraqqiyoti uchun uning boshida Feruz va Komil Xorazmiylar turgan bo‘lsalar, “Tanbur chizg‘ilari”ning yuzaga kelishida ikkita yirik guruh – maktab faoliyat yuritgan.[5.: 121]*

- |                         |                        |
|-------------------------|------------------------|
| 1. Muhammad Rasul Mirzo | 2. Xudoybergan Muhrkan |
| Muhammad Yusuf Bayoniy  | Ismoil Devon           |
| Muhammad Yusuf Chokar   | Komil Devoniy          |

*Ushbu ikkita guruh a‘zolari tanbur chizg‘ilarini taxminan XIX asrning 30-yillari boshigacha ishlagan bo‘lib, u shu davr oralig‘ida amalda ham bo‘lgan[5.: 122.].*

Sho‘rolar davri 70 yil davomida ushbu tanbur chizg‘ilarida muhirlangan Xorazm olti yarim maqomi to‘la-to‘kis o‘rganilmaganligi natijasida ba‘zi kuylar nomi ham unutilganligining guvohi bo‘lmoqdamiz.

Ustozdan shogirdga og‘zaki an’anada o‘tib kelayotgan maqom cholg‘ulariga nazar tashlasak quyidagilar saqlanganligini ko‘ramiz:

### *Rost (Chertim)*

<b>Xorazm olti yarim maqomi</b>	<b>M.Yusupov “Xorazm maqomlari” VI tom</b>
1 Maqomi Rost	1 Maqomi Rost
2. Tarje’ Rost	2. Tarje’ Rost
3. Peshravi Rost va Peshravi Gardun	3. Peshravi Gardun
4. Murabb’ ai Komil	4. Muxammasi I
5. Muxammasi Rost	5. Muxammasi II
6. Muxammasi jadidi Feruzi Rost	6. Muxammasi Ushshoq
7. Musaddasi Feruz shoxiy	7. Saqili Vazmin
8. Musabb’ ai Rost	8. Ufor
9. Saqili Rost	
10. Saqili Xudaybergan devon Muhrkon	
11. Iyfori Rost	

Ushbu tartibda kelgan ba’zi kuylarning usulini sharxlab o‘tsak. Murabb’a usulning nomi Komil muallifi ya’ni Murabb’a uslubida yaratilgan kuy. To‘rtlik ma’nosida ya’ni A,B,B,B jumalardan tashkil topganligini ko‘ramiz.

Musaddas oltilik; A,B,S,D,E,E usulida yaratilgan kuy.

Musabb’a yettilik; A,B,B,S,S,D,D usulida yaratilgan kuy.

Tadqiqotimiz natijasida nomlari tilga olingan ushbu ohanglar bugungi kunda zamonaviy nota tizimida ijro qilinib uning beg‘ubor ohanglari sadolanishini xalqimiz tomonidan iliq kutib olinganidan benihoyat mamnunmiz.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyayev “Milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori”da - *mumtoz musiqa merosimiz namunalarini notaga olish, mavjud yozuvlarni takomillashtirish va amaliyotga joriy etish, maqom san’atining ijtimoiy-tarixiy ildizlari, ilmiy-nazariy negizlari, milliy va umumbashariy qadriyatlar bilan bog‘liq jihatlarini yurtimiz olimlari va chet ellik mutaxassislar ishtirokida chuqur o‘rganib, yangi ilmiy tadqiqotlar yaratish;*[1.: 2.] degan bandiga bizning javobimiz deb bilaman.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalariga ko'ra, Xorazm olti yarim maqomining Rost maqomi, uning cholg'u yo'llari, kuy va usullari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lindi. Maqomlar ilmiy-nazariy jihatdan musiqashunoslar asarlarida ko'rsatilgan qoidalar bilan uyg'un ekani isbotlandi. Biroq ayrim manbalarda, xususan, M.Yusupovning VI jildida ba'zi kuylarning Rost maqomiga noto'g'ri kiritilgani aniqlandi. Xudaybergan Muhirkon qo'lyozmasi asosida Rost maqomi chertim yo'li 10 ta kuydan iborat ekani belgilandi. Hozirda maqom san'atini o'rganish va rivojlantirish yo'lida katta ishlar qilinmoqda. Xorazm maqomlari hozirgi globallashuv davrida ham san'atkorlarimiz ijrosida saqlanib qolayotgan an'anaviy meros sifatida dolzarbligini saqlab qolmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabr PK 3391-sonli qarori.
2. Mirziyayev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O'zbekiston, 2017
3. Xudaybergan Muhirkon. Xorazm tanbur chizg'ilari. Qo'lyozma. O'zR FASHI inv. № 7406.
4. Mullo Bekchon Raxmon o'g'li, Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqa tarixchasi. –Toshkent. 1992
5. Aminov H. Tanbur chizig'i nusxalari. Shashmaqom saboqlari (maqola va ma'ruzalar to'plami). –Toshkent 2005
6. Boltayev R. Raximov B Tanbur chizg'ilarining ilmiy-amaliy asoslari. Yangi asr avlodi nashriyoti. –Toshkent. 2020
7. Matyakubov O. Maqomot. Musiqa nashriyoti. –Toshkent. 2004.

## XORAZM OLTI YARIM MAQOMI CHERTIM YO‘LLARI

**Baltayeva Gulbahor Igamovna,**

*“San’at” kafedrasi o‘qituvchisi,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada XIX asr ikkinchi yarmida K. Xorazmiy tomonidan kashf qilingan Xorazm tanbur chizg‘ilari yozuviga asoslanib, Xudaybergan Muhirkon tomonidan qog‘ozga tushirilgan Xorazm olti yarim maqom cholg‘u kuylari, musiqashunos E.E.Romanovskaya muallifligida 1939-yilda chop qilingan “Xorazm klassik musiqasi” monografiyasida zamonaviy nota tizimida yozilgan Xorazm olti yarim maqomi chertim yo‘llarining musiqiy - qiyosiy tahlili haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Abstract:** This article tells about how in the second half of the 19th century with unique open created musicologist K. Khorezmiy, Khorezm tambour tablature and in it was written according to the manuscript of Khudaybergan Mukhirkan instrumental melodies of Khorezm six and a half maqoms, provides a musical comparative analysis of the instrumental melodies of the Khorezm six and a half maqoms published in 1939 by the author E.E. Romanovsky in the monograph “Classical music of Khorezm”.

**Абстрактный.** В этой статье рассказывается о том, как во второй половине XIX века с уникальными открытыми создал музыковед К. Хорезмий, Хорезмского тамбурного табулатуру и внем было написано по рукописи Худайбергана Мухиркана инструментальные мелодии Хорезмских шести половины макомов, приводятся музыкальный сравнительный анализ инструментальных мелодиях хорезмийского шести с половиной макомов опубликованной 1939 году автора Е.Е. Романовского в монографии “Классической музыке Хорезма”.

**Kalit so‘zlar:** Maqomi Buzruk, san’atshunoslik, Xorazm klassik musiqasi, gramafon, qo‘lyozma, ekspedisiya, Xorazm olti yarim maqomi, “Mansur” chertim yo‘li, , Se usuli Buzruk, Muxammas, Nim Saqil, Zarafshon (Durafshon),vazn, o‘lchov.

**Key words:** Makami Buzruk, art criticism, Khorezm classical music, gramophone, manuscript, expedition, Khorezm six half maqom, "Mansur" instrumental part, Se usuli Buzruk, Mukhammas, nim Sakil, Zarafshan (Durafshan), rhythm, size.

**Ключевые слова:** Маками Бузрук, искусствоведение, Хорезмская классическая музыка, граммофон, рукопись, экспедиция, Хорезмский шести половины маком, “Мансур” инструментальная часть, Се усули Бузрук, Мухаммас, ним Сакил, Зарафшан (Дурафшан), ритм, размер.

Yurtimizda milliy maqom san'atining tarixiy an'analari, o'ziga xos uslublari, qadriyatlarini qayta tiklash, yanada rivojlantirish, innovasion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish borasida bir qancha muvoffaqiyatli ishlar amalga oshirilmoqda. “Agar biz asl, haqiqiy san'atni bilmoqchi, o'rganmoqchi bo'lsak, avvalo mumtoz maqom san'atini bilishimiz, o'rganishimiz kerak. Agar biz san'atni, madaniyatni ko'tarmoqchi bo'lsak, avvalo, mumtoz maqom san'atini ko'tarishimiz kerak.[1.: 1.].

Maqom ohanglari, maqom ruhi va falsafasi har bir inson qalbidan, avvalo, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizning ongi va yuragidan chuqur joy olishi uchun bor imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur”. Xorazm maqomoti o'rganishda asosiy manba bo'lgan “Xorazm tanbur chizg'ilari” uslubida yaratilgan musiqiy namunalarni tahlil qilish, parda va usul xususiyatlarini tadqiq etish hamda zamonaviy musiqa amaliyotiga tatbiq etish bugunki kunda o'zbek musiqashunosligining dolzarb masalalaridan biri bo'lib kelmoqda.

Tarixdan ma'lum XIX asrning 70- yillarida Xorazm xoni Muhammad Rahimxon soniy (Feruz) davrida Xorazm olti yarim maqomi aytim va chertim yo'llari Xorazm tanbur chizg'ilariga yozilib, kitobat qilingan. Sho'rolar davrida eskilik sarqiti deb bu manba amaliyotdan olib tashlangan.

1934-yilda O'zbekiston BANing San'atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti xodimlari Xorazm zaminiga xalq qo'shiqlari va mumtoz musiqasini yozib olish maqsadida E.E. Romanovskaya rahbarligi musiqashunos I.Akbarov bilan tashrif

buyurishgan. Ekspedisiya jarayonida maqomdon ustoz Matyaqub Xarratovdan Xorazm olti yarim maqomining cholgʻu qismlari gramafonga yozib olingan. Bu yozuvlar 1939-yilda E.E. Romanovskaya tomonidan “Xorazm klassik musiqasi” monografiyasida chop qilingan. [12.:40.]. Monografiyaga kiritilgan katta hajmdagi musiqa materiallari hozirgi davrda Xorazm olti yarim maqomi cholgʻu qismlarini oʻrganish uchun qimmatli manba hisoblanadi. Monografiyani oʻrganish jarayonida uning 40-betida keltirilgan “Sa usuli Buzruk” kuyining usul tizilmasi yozuvlari meni qiziqtirdi. Monografiyada ushbu kuy C (4/4) oʻlchovida yozilgan. Qizigʻi shundaki, ushbu “Sa usuli Buzruk” usuli, uchta boʻlakdan tashkil topadi. 1-Muxammas, 2-Nim Saqil, 3-Zarafshon (Durafshon).

Ustozlar taʼrifiga koʻra maqom taʼlmotida 1-Parda, 2- Usul yetakchi xisoblanadi. Professor O. Matyakubov tadqiqotlarida “Maqomni otasi usul, onasi parda” degan iborani ishlatganlar. Xudaybergan Muhirkonning Xorazm tanbur chizgʻilari qoʻlyozmasida “Se usuli Buzruk” quyidagi tartibda berilgan:

1. Muxammas usuli C (4/4) oʻlchovida 8 takt
2. Nim Saqil usuli 6 takt,
3. Zarafshon(Durafshon) usuli esa 5 takti tashkil qiladi.

Jami: 19 takt boʻladi. A. Fitratning “Oʻzbek klassik musiqasi tarixi” risolasida ham bu usul xuddi shunday tuzilgan.[5.-14]

E.E.Romanovskayaning “Xorazmning klassik musiqasi” keltirilgan nota matnlarida berilgan vazn oʻlchovlari, notalarining guruhlanishlarini tanbur cholgʻu asbobi registri va lad tuzilishlari bilan qiyoslab tahlil qiladigan boʻlsak, bir qancha bahs talab savollar paydo boʻladi. Bu jumboqli savollarga javob berishga harakat qilamiz.

Maqomot tizimida kuy ohanglari oʻz usuliga boʻysunib shu asosda yangraydi. Ushbu jarayon “Navbati murattab”, yaʼni qonunlashtirilgan tizim deb nomlanadi. E. Romanovskayaning “Xorazmning klassik musiqasi” monografiyasida keltirilgan “Sa usuli Buzruk” “Navbati murattab” tuzilmasiga javob bermaydi. Bu erda keltirilgan “Sa usul Buzruk” ohanglari C (4/4) oʻlchovida, shunda bitta usulning davomiyligi 19 takti oʻz ichiga oladi. 20-taktda 2/4 oʻlchovi keladi, 21-

taktdan yana C (4/4) o'lchoviga o'tiladi. 8 taktdan keyin yana bir takt 2/4 o'lchoviga o'tilgan. 5 takt C (4/4) o'lchovida, bir takt 2/4 o'lchovida. 62 takt C (4/4) o'lchovida va oxirgi takt 2/4 o'lchovida kelgan.

Bu tizilmani xonalarga bo'ladigan bo'lsak, 1-xonasi to'liq keladi. 2-xonasi 14,5 takt, 3 xonasi esa 62 taktni hosil qiladi. Jami hisoblaganda  $19 \times 3 = 57$ , 5takt qoldiq bo'lib qoladi. Ushbu manbada keltirilgan maqom ohanglarini amaliyotda ijrochi sozandalar qo'llay olmaganlar.

“Xorazmning klassik musiqasi”dagi “Sa usuli Buzruk” deya tushunarsiz ma'nodagi ibora berilgan. Aslida bu manbalarda “Se usul” deb yuritilgan bo'lib, uning ko'rinishi quyidagicha:

E. Romanovskayaning “Xorazmning klassik musiqasi” asarida nota matnlaridagi kuylarning usuli yozib ko'rsatilmaganligi uchun, kuy simmetriyasini aniqlash qiyin.

M.M. ♩ = 88



O‘zFASHI inv №7406 saqlanayotgan Xiva xoni Muhammad Rahimxon soniy (Feruz) ga tuhfa qilingan Xudaybergan Muhirkon nusxasi asosida qayta tiklab Buzruk maqomidan “Se usuli Buzruk” ohanglarini zamonaviy nota yozuviga o‘tkazdim. Tahlil jarayonida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, qo‘lyozmada va E.E. Romanovskayaning “Xorazmning klassik musiqasi”da keltirilgan ohanglarning bir-biriga yaqinligi ma’lum bo‘ldi.

E. Romanovskayaning monografiyasida Xorazm olti yarim maqomlarining “Mansur” (Chertim) yo‘lidan 58 ta kuy kiritilgan. Bular “Rost”dan 7ta, “Buzruk”dan 10ta, “Dugoh” dan 14ta, “Segoh” dan 8ta, “Navo” dan 8ta, “Iroq”dan 9ta, “Panjgoh”dan maqomidan 4ta. Ushbu mundarija asosida shunday xulosaga keldikki, XIX asrning ikkinchi yarmida yaratilgan “Xorazm tanbur chizg‘ilari” chertim yo‘liga yozilgan Xorazm xoni Muhammad Rahimxon soniy (Feruz), Komil Xorazmiy va boshqa musiqashunoslar yaratgan ayrim cholg‘u kuylari davr mafkurasiga ko‘ra monografiyaga kiritilmagan bo‘lishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan bu ikkala manba asosida Xorazm olti yarim maqomining hozirda amaliyotda yo‘qolgan cholg‘u qismlari ohanglarini qayta tiklay olsak, ustozlardan meros bo‘lib qolgan ishlarni o‘rganib qayta, amaliyotga joriy qilsak, bu boradagi o‘z vazifamizni ado qilgan bo‘lar edik.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mirziyoev Sh. Dillarni dillarga, ellarni ellarga payvand etadigan san'at. Xalqaro maqom san'ati anjumanining ochilish marosimidagi nutqi. // Xalq so‘zi, 2018. 7 sentyabr. №185 (7143) – B.1.

2. Mullo Bekchon Raxmon o‘g‘li “O‘zbek notasi” Alanga jurnali 1928. 3-4 soni

3. Xudaybergan Muhirkon. Xorazm tanbur chizg'ilari. Qo'lyozma. O'zR FASHI inv. № 7406.
4. Mullo Bekchon Raxmon o'g'li, Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqa tarixchasi. T.: 1998
5. A. Fitrat "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" T.: 1993
6. Aminov H. Tanbur chizig'i nusxalari. Shashmaqom saboqlari (maqola va ma'ruzalar to'plami). T.: 2005
7. Boltaev R. Raximov B Tanbur chizg'ilarining ilmiy-amaliy asoslari. Yangi asr avlodi nashriyoti. T.: 2020
8. Matyakubov O. Maqomot. Musiqa nashriyoti. T.: 2004
9. Matyakubov O. Boltaev R. Aminov X. "Xorazm tanbur chizig'i" T.: 2010
9. Matyakubov O. Xorazm Dutor maqomlari va Olti yarim maqomi. T.: 2018
10. Matyakubov. O. O'zbek musiqasi tarixi. 1,2,3,4 kitoblar T.:2024
11. Rajabov I. Maqomlar. T.: 2006
12. Romanovskaya E. "Xorazm klassik musiqasi" T.: 1939.

## **SHOH VA SHOIR FERUZ IJODIDA SAVOL-U JAVOB SAN'ATINING QO'LLANILISHI XUSUSIDA**

**Atajanov Sarvar Samandarovich,**

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent,

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada savol-u javob san'ati asosiga qurilgan g'azal, muxammas va masnaviyarlari tahlili misolida shoh va shoir Feruzning badiiy san'atdan foydalanish mahorati hamda o'ziga xos qirralari ochib berilgan.

**Аннотация.** В данной статье на примере анализа газелей, мухаммасов и месневи, построенных на основе искусства вопросов и ответов, раскрывается мастерство и своеобразие использования художественного искусства шаха и поэта Феруза.

**Annotation:** This article examines the poetic artistry of Feruz, both a king and a poet, through a detailed analysis of his ghazals, mukhammas, and masnavis,

which are structured around the art of question-and-answer. The study highlights Feruz's mastery in employing literary devices and unveils the distinctive features of his artistic expression within classical poetic traditions.

**Kalit so'zlar:** g'azal, bayt, muxammas, masnaviy, savol-u javob san'ati, mahorat oshiq, an'ana, Feruz.

**Ключевые слова:** газель, бейт, мухаммас, месневи, искусство вопросов и ответов, мастерство, влюбленный, традиция, Феруз.

**Keywords:** ghazal, bayt, mukhammas, masnavi, the art of question-and-answer, poetic mastery, tradition, Feruz.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Xorazm adabiy muhitida faoliyat ko'rsatgan sermahsul ijod sohiblari ancha. Ular an'anani davom ettirgan holda badiiy adabiyotning deyarli barcha turlarida ijod qilib, betakror asarlar yaratishgan. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri yuksak iste'dod sohibi, shoh va shoir Sayyid Muhammad Rahimxon soniy – Feruzdir. Xorazm san'atining sayqal topishida, abadiylikka yuz tutishida, bugungi avlodlarga boy va tunganmas xazina sifatida yetib kelishida bevosita Muhammad Rahimxon Feruzning xizmatlari taxsinga sazovordir. Feruz shoir, tarixnavis, tarjimon, xattot, sozanda, zamonasining madaniyat arboblari o'zining atrofiga to'pladi va fan-madaniyat rivojiga katta xissa qo'shdi. "San'atni sevgan, uning sirlaridan xabardor bo'lgan kishigina adabiyot va san'atga homiylik qilishi mumkin. Feruz xuddi shunday san'atsevar hukmdor edi. Uning saroyida adabiy munozaralar, mushoiralar, haftaning maxsus kunlari kitobxonlik oqshomlari o'tkazilardi. Xonning shaxsan o'zi katta-kichik mansabdorlar – hammasini kitobxon bo'lishga da'vat etardi" [1.: 75.].

Adabiyot ixlosmandi bo'lgan Feruz Alisher Navoiy, Fuzuliy, Munis, Ogahiy va Komil Xorazmiy singari shoirlarning ijodini qunt bilan o'rganib, ularga ergashib she'rlar yozdi. Yozgan she'rlariga "Feruz" taxallusini qo'yib, go'zal misralar bitdi. Adibning ijodiga nazar tashlar ekanmiz, g'azal janri shoir she'rlarining asosiy qismini tashkil etadi. Biz bilamizki, g'azallar turli xil

mavzularda bo‘ladi. Feruz g‘azaliyotining juda ko‘p qismi ishq-muhabbat mavzusiga bag‘ishlanganligining guvohi bo‘lamiz.

Ishq elin shohiman, vale oshiqining qatorida

Ushbu hazining ul pari ko‘ziga ilmadi, netay.

Shoir insonning insonga bo‘lgan muhabbatini ulug‘laydi. Inson va hayotni, sevgi va sadoqatni o‘z ijodining asosi qilib olgan Feruz sevgini sadoqatsiz, mehrni oqibatsiz tasavvur qila olmaydi. Bular shoir lirikasining yetakchi g‘oyaviy asosini tashkil qiladi. “Feruz nazmida sevgidan zavqlanish, olijanob insoniy g‘urur, jo‘shqinli ruhiy g‘alayon, e‘tiqod, iymon, kamtarlik, ilm, kamolotga intilish va kishilarga yaxshilik qilish kabi muhim hayotiy-ijtmoy muammolarning badiiy yechimini topish mumkin” [2.: 64.]. Feruzning o‘zi she‘riyatining bosh qahramon hisoblanadi. Shoir she‘rlarini hayot, muhabbat va go‘zallik madhi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Mohir so‘z san‘atkori sifatida Feruz she‘rlarining jozibadorligi va ta‘sirchanligini ta‘minlash maqsadida ko‘plab badiiy san‘atlardan mahorat bilan foydalangan. Tazod, tashbeh, talmeh, istiora, husni ta‘lil, savol-u javob san‘atlarini shoir ijodida kuzatamiz. “Savol-u javob san‘ati she‘r misralaida ikki shaxs, ko‘pincha oshiq bilan mahbuba o‘rtasidagi savol va javobni aks ettirish usuli” [4.: 61]. She‘riy san‘atning qimmatini baytda yaratilgan badiiy lavhalar, timsollarning yangiligi, o‘ziga xosligi va betakrorligi bilan ham belgilanadi. “Buyuk ijodkorlar qo‘llagan har qaysi she‘riy san‘at g‘oyani badiiy ifodalash, lirik va epik timsollarni yorqin gavdalantirish asarga joziba, jilo, ta‘sirchanlik bag‘ishlash vazifasini bajaradi” [3.: 5.].

Shoir she‘rlarida an‘anaviy tasvirlarni mutlaqo yangi badiiy timsol va lavhalar vositasida mujassamlashtirish yo‘lidan borgan. Masalan, Sharq she‘riyatida yor labining shirinligini tasvirlash orqali uning go‘zalligi-yu nazokatini ta‘kidlash an‘ana bo‘lib kelgan. Ammo ana shu badiiy o‘xshatishni har qaysi ijodkor yangicha ifodalash yo‘lidan boradi. Feruz o‘zining bir g‘azalida savol-u javob san‘atiga asoslanib, mahbubaga (uning la‘liga) qarata murojaat qilib, quyidagi misralarni keltiradi.

Ul parivashga dedim: “La’ling mayidin boda tut”.

Noz ila derkim: “Sanga yetkaymu la’limdin sharob”.

Man dedim yoring’a: “La’lingdin ato qil bo’saye!”

Dedi: “Ey Feruz, sabr et, muncha ko’rguzma shitob!”

Savol-u javob goh bayt goh misra doirasida boradi. Oshiq go’zal parivash la’lining mayidan boda ichishni istaydi, ammo ul go’zal la’limdagi ul sharob senga yetarmu, deb noz etadi. Shunda ham oshiq yordan umidini uzmaydi, unga rahm qilishini aytadi. Yor unga sabr qilishni va shoshmaslikka da’vat etadi. Shoirning mahorati shundaki, mahbubaning labiga o’xshatish qilmay, savolu javob orqali uning go’zalligini, latofatini va muhabbatini ushbu misralarda tarannum qiladi.

Mumtoz adabiyotda lirik va liro-epik she’riyatda savol-u javob usuliga keng murojaat qilingan. Barchamizga ma’lum bo’lgan Alisher Navoiy asarlarining gultoji hisoblangan “Xamsa” asarini aytish mumkin. Sevgi-muhabbat ruhida bitilgan, komil inson g’oyasi bilan sug’orilgan “Farhod va Shirin” dostonidagi Farhod va Hisrav munozarasi bunga yaqqol misol bo’la oladi. Ko’plagan ijodkorlar ijodida bu usuldan unumli foydalanib go’zal misralar bitganlar. “Biror maqsad-muammoni ikki tomonning savolu javobi tarzida ifodalsh she’riyatdagi badiiy san’atlar sirasiga kiradi. Bu san’atning amaliyot doirasi ancha keng: bir bayt doirasidan tortib, yaxlit g’azal va ruboiyning boshidan oxiriga qadar [4.: 65.].

Ikki shaxsning o’zaro muloqoti asosiga qurilgan bayt-u she’rlar o’zining tabiiyligi, hayotiyliigi va qiziqarliligi bilan alohida ta’sirchanlikka ega bo’ladi. Savol-u javob san’atiga asoslangan she’rlar o’z tabiatiga ko’ra hayotiy va xalqona bo’ladi. Bunda shoirning topqirligi, hozirjabligi va mahorati yorqin namoyon bo’ladi. Chunki oshiq va ma’shuqning o’zaro suhbatini bir-biridan qolishmaydigan darajada go’zal va ta’sirchan bo’lishi talab qilinadi. Har bir savol ma’noli va har bir javob ham unga munosib bo’lishini taqozo qiladi. Savol-u javobda oshiq hamisha andisha bilan savol beradi, mahbuba esa doimo mardanovor va keskin

javob qaytaradi. Feruz gʻazallarida savol-u javob sanʼati bir bayt, ikki bayt yoki gʻazalning boshidan oxirigacha qoʻllanganligini koʻrishimiz mumkin.

Dedim: “Koʻzumni ravshan et mehri jamoling koʻrsatib!”

Dedi: “Uzorim oʻtigʻa joning netarsan oʻrtatib?!”

Dedim: “Tarahhum aylabon holimgʻa qil nazzora”.

Dedi: “Koʻzum joning figor etgusi noz oʻqin otib”.

Dedim: “Visol ichra labing shaxdi mening komim erur”.

Dedi: “Sanga bergum ani zahri firoq ichra qotib”.

Dedim: “Labingning sharbati shirinmu yo kavsar suyi?”

Dedi: “Boʻlurmu har suyi obi baqogʻa oʻxshatib?!”

Dedim: “Nedin erkan bugun olam muattar boʻlmogʻi?”

Dedi: “Sochimni tong yeli yuz uzra solmish butratib”.

Dedim: “Koʻzung bedor qil noz uyqusidin, ey pari”.

Dedi: “Bu lahza fitnayi noyimni netkung uygʻotib?!”

Dedim: “Koʻzungdin oʻrgilay, bir boʻsa ber Feruzgʻa”

Dedi: “Yuzumni ogʻritur har yon xating nishi botib”.

Ushbu gʻazalda oshiqning savollarida taʼrif-u tavsif va iltimosni koʻrsak, mahbuba javoblarida nazokat, nozkarashma bilan birgalikda qahr-u itobni koʻramiz. Yuqorida taʼkidlaganimizdek, oshiq Feruzning oʻzidir. Oshiq yorning ishqida kuyib, yomon ahvolga tushgani, savollari orqali maʼshuqaning jamolini koʻrgach, koʻzlari ravshanlanishini va uning holidan xabar olishini maʼshuqadan iltimos qiladi. Maʼshuqa javob tariqasida oshiqqa qarata ruxsorimni koʻrish uchun joningi oʻrtab nima qilasan?, deya savolga savol qaytaradi va koʻz qarashlarim joninga oʻq boʻlib tegishi mumkin deb oshiqni ogohlantiradi. Savol-u javob sanʼati koʻpincha tashbeh, tazod, mubolagʻa, tanosub, iyhom, tajohuli orifona kabi boshqa sanʼatlar bilan birga keladi. Oshiq oʻzini bilib turib bilmaslikka olib, maʼshuqaning jamoliga, labiga, sochi va koʻzlariga qarata savollari bilan murojaat qiladi va mashuqadan goh qaygʻuli, goh sevinchli javoblar oladi.

Shoir ushbu gʻazalda tajohuli orif sanʼatini qoʻllab, mashuqaning labi sharbatinig shirinligini kavsar suyiga oʻxshatish qiladi.

Dedim: “Labingning sharbati shirinmu yo kavsar suyi?”

Dedi: “Bo‘lurmu har suyi obi baqog‘a o‘xshatib?!”

Kavsar suvi “diniy ishonchga ko‘ra jannatdagi suvi tiniq, oppoq, asalday shirin bo‘lgan buloq” hisoblanadi [5.: 196.]. Kavsar suyi haqida Imom Termiziy shunday deydi: “Kavsar jannatdagi daryo bo‘lib, uning ikki qirg‘og‘i oltindan, o‘zani dur-u yoqutdan; tuprog‘i miskdan xushbo‘y, suvi asaldan shirin, qordan oqdir. Kim undan bir ichsa, keyin abadiy chanqamaydi”. O‘qirman g‘azalni mutolaa qilar ekan shoir fikricha, yorning beqiyos go‘zalligi oldida jamiki yaratiq borki, hammasi xijolatda bo‘lgandek tuyuladi.

Feruz mahoratli ijodkor. Uning yuqorida keltirib o‘tilgan yetti baytli g‘azalning har bir baytini yetti banddan iborat muxammasining har bir bandida savolu javob tarzda mahorat bilan qo‘llagan. Har bir band uchun mos misralarni keltirib, badiiylikni yana-da yuksaltirgan.

Ta‘m ichra la‘lidan emas jannatfizo kavsar suyi,

Yetkurmas elga nutqidek fayz-u safo kavsar suni,

Bir kun bo‘lub mazkur ul on bazmi aro kavsar suyi,

Dedim: — Labingning sharbati shirinmuyo kavsar suni?

Dedi: — Bo‘lurmu har suyi obi baqog‘a o‘xshotib?!

Ishq tuyg‘usi o‘zgacha olam. Barcha shoirlar ijodida ham u go‘zal tuyg‘u sifatida tasvirlangan. Uning suhbatigina oshiq dardiga taskin beradi. Haqiqiy oshiqqina yorning barcha iztiroblariga va noz-u karashmalariga sabrlik bilan chidaydi va o‘zining sof muhabbatiga erishadi. Feruz ana shunday oshiqlardan. Oshiqda ishq o‘ti shunchalik kuchliki, hattoki Jannatdagi kavsar suyi ham mashuqaning labi sharbati shirinligining ta‘miga yetamolmasligini aytib qalblarni larzaga keltiradi. “Feruzning lirik qahramoni oddiylardan-da oddiy, kamtarin bir oshiq. Bu oshiqning siyratida shoh-shoirning darveshona xokisorligi mujassam. Ishq ko‘yiga tushgan shoh muhabbat bandasiga, parilar sarvarining quliga aylanadi” [6.: 189.].

Feruz ijodida savol-u javob san‘atining turli ko‘rinishlariga duch kelamiz. Matladan maqtagacha savol-u javob san‘ati asosiga qurilgan g‘azallar, savol-u

javob mazmuni qatiga singdirilgan bayt-u misralar, bir tomonning soʻvoli-yu ikkinchi tomonning sukuti yoki savol yoʻsinidagi gapning mazmunidan kelib chiqadigan javobni oʻzi ham uchraydi.

Shoirning “Soʻqiy, tut manga karam jomin...” misralari bilan boshlanadigan masnaviyi savol-u javob sanʼatining beqiyos durdonalari sirasiga kiradi. Masnaviyda yorning goʻzalligi-yu nafosatini, oʻzining his-tugʻyonlarini va dardli muhabbatini ifodalash uchun savol-u javob sanʼatidan unumli foydalangan. Ishqiy mavzudagi bu masnaviy oshiqning sogʻinch iztiroblari va shikoyati bilan boshlanib, soʻng ularning oʻzaro savol hamda javobi bilan davom etadi va oxirida bu suhbatga yakun yasaydi. Bu jihatdan masnaviy voqeabandlik kasb etib, hayotiy hikoyaga oʻxshab ketadi.

Der edim:—Paykaring erur siymin!

Der edi: —Bu soʻzung emastur chin!

Der edim:—Bordurur labing chun qand!

Der edi: — Kilma qandgʻa momand!

Der edim: — Orazingmu yoki quyosh?

Der edi: — Kunda bormudur koʻzu qosh?

Der edim:—Koʻzlaringmu ohuni Chin?

Der edi:—Onda bormu zulm ila kin.

Der edim: — Qomatingmu sarvi ravon?

Der edi: — Sendadurmu jilva ayon?

Der edim: — Kokilingmudur pechon?

Der edi: —Ganji husnum uzra ilon!

Der edim:—Yuz uzra tushubmu nuqat?

Der edi:—Xol erur soʻz etma gʻalat!

Der edim:—Qoshlaring erurmu hilol?

Der edi:—Ul boʻlurmu zebi jamol?

Der edim:—Tishlaringmudur inju?

Der edi: — Oncha sof emas loʻlu!

Der edim:—Lablaring erur kavsar!

Der edi:—Onda yo‘q safodin asar!

Der edim:—San parimusan, ey jon?

Der edi:—Man parisifat inson!

Der edim:—Hurdek erursan xo‘b!

Der edi:—Mancha ul emas margub!

Aylar erdim man ondin oncha savol,

Berur erdi javobin ul filhol.

Der edi:—Sansan oshiqi zorim,

Dahr aro sandin o‘zga yo‘q yorim.

Shoir oshiq tomonidan yorning sifatlarini aytish orqali go‘zal tashbehlarni yuzaga keltirgan. Jumladan, labini qandga, yuzini quyoshga, ko‘zlarini ohu ko‘zlariga, qoshlarini hilolga, tishlarini injuga, qomatini sarv daraxtiga va yakunida jannatdagi hur qizga o‘xshatadi. Bunday o‘xshatishlarni o‘quvchi oldingi shoirlar ijodida ham uchratishi mumkin. Ammo Feruz ushbu masnaviysida savollari orqali mashuqadagi chiroyni birma bir sanab, uning go‘zalligini ta’riflaydi. Oshiq o‘z otashin muhabbati sehri bilan yor qalbini zabt etishga ishonada. Yana masnaviyda unga ancha savol berar edim, u ham darhol javob berar edi deydi. Yorning so‘zga chechan ekanligi, zukkoligi, savollarga mos javoblar yo‘llashi oshiqni iztirobga qo‘yadi va unga bo‘lgan muhabbatini yana-da olovlantiradi. Savolu javob yakunida mashuqa ham oshiqqa qarata sansan oshiqi zorim, dunyoda sandan o‘zga yorim yo‘q degan quvonchli javobni aytib, oshiqni sabr-toqatli bo‘lishga chaqiradi. “Feruz oshiq va ma’shuqaning turli holatlarini, oshiqning sadoqati-yu mashuqaning zulmkorligini, hijron mashaqqati-yu visol xursandchiligini badiiyat qonunlari darajasida tasvirlashga harakat qildi” [6.: 204.].

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Feruz ushbu she’riy namunalarida savol-u javob san’atini mahorat bilan istifoda etish orqali bir tomondan oshiqning his-tug‘yonlari, sog‘inch iztiroblari va yorga bo‘lgan sof muhabbatini ko‘rsatib bergan bo‘lsa, ikkinchi tomondan o‘zining topqirlik, hozirjavoblik va diolog yaratish san’atini ham namoyon etgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U., Rizayev Sh., Ahmedov S. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. // – Toshkent. “Ma’naviyat” nashriyoti, 2004. – B. 461.
2. Davlatyor Rahim, Shixnazar Matrasul. Shoh va shoir qismati. // – Urganch. 2002. – B. 125.
3. Hojiahmedov A. She’riy san’atlar va mumtoz qofiya. // – Toshkent. “Sharq” nashriyoti, 1998. – B. 158.
4. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. // – Toshkent. “Sharq” nashriyoti, 1999. – B. 238.
5. Is’hoqov Y. So‘z san’ati so‘zligi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2014, B.158.
6. Berdak Yusuf. Mumtoz adabiy asarlar lug‘ati. – Toshkent: “Sharq”, 2010, B.527.
7. Davlatyor Rahim, Shixnazar Matrasul. Feruz. // Toshkent. “Extremum press” nashriyoti. 2011. B. (189). 353.

## **FERUZ DAVRI XORAZM ADABIY MUHITIDA**

### **MUSADDAS JANRI**

**(umumiy mulohazalar)**

**Yusupov Hikmat Sultonovich,**

*filologiya va san’at fakulteti o‘qituvchisi,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Maqolada Feruz davri Xorazm adabiy muhitida muxammasdan keyin faol janrga aylangan musaddas janriga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlar tadqiq qilingan.

**Astract.** The article examines the main features of the musaddas genre, which became an active genre after muhammas in the literary environment of Khorezm during the Feruz era

**Абстрактный.** В статье рассматриваются основные черты жанра мусаддас, который стал активно развиваться после мухаммаса в литературной среде Хорезма в эпоху Феруза.

**Kalit so‘zlar:** muxammas, musaddas, bayoz, qofiya, tasdis, tazmin.

**Keywords:** muhammas, musaddas, bayaz, rhyfme, tasdis, tazmin.

**Ключевые слова:** muxammas, musaddas, bayaz, rilm, tasdis, tazmin.

Musaddas janri Feruz davri (1864-1910) Xorazm adabiy muhitida salmoqli o‘rin egallaydi. Bu davr she‘riyatida musaddas musammatning muxammasdan keyingi faol turiga aylandi. Feruzning maxsus topshiriqlari asosida musaddaslardan tuzilgan bayozlar yuzaga keldi. Bundan tashqari Tabibiy tomonidan nashrga tayyorlangan “Muxammasoti majmuat ush-shuroyi Feruzshohiy” to‘plamidan ham 60 ta musaddas o‘rin oldi [1.: 29.].

Dastlab bu davrda yaratilgan musaddaslarning qofiyalanish tarzini ko‘rib chiqsak. Ma‘lumki, musaddaslar qofiyalanishiga ko‘ra 2 xil bo‘ladi:

1. Birinchi band o‘zaro, qolgan bandlarning besh misrasi bir-biri bilan va oltinchi misralari birinchi bandga qofiyadosh bo‘lib keladi: **a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-a, d-d-d-d-d-a** kabi. Komilning «Manga bo‘lding ul vaqtkim oshno» [2.: 211-212.], Feruzning “Subhkim, ul sarvi gulrux sayri gulzor ayladi” [5.: 145-146.], Said G‘ozi to‘raning “Ko‘rmagay erdim yuzin ko‘rgach giriftor ayladi” [3.: 389.], misralari bilan boshlanuvchi musaddaslari shu tarzda qofiyalanadi. Musaddasning mana shunday qofiyalanish sistemasiga ega bo‘lgan turi kam uchraydi.

2. Birinchi band o‘zaro, qolgan bandlarning to‘rt misrasi bir xil qofiyalanadi, oxirgi ikki misra esa birinchi bandga qofiyadosh bo‘lib keladi: **a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-a-a, d-d-d-d-a-a** kabi. Mazkur qofiyalanish shakliga mansub musaddaslar o‘zbek mumtoz adabiyotida faol o‘rin egallaydi. Xorazm adabiy muhiti vakillarining aksar musaddaslari ham shu tarzda qofiyalangan. Xususan, Feruzning “Ul pari egnida gulrang libosini ko‘rung” [5.: 147-148.], Komil Xorazmiyning “Toki bir sho‘xg‘a men oshiqi diydor o‘ldum” [2.: 209-210.],

Tabibiyning “Zor-u rasvoyi jahon etgali jonona mani” [12.: 14.], musaddaslari shunday qofiyalanish tizimiga ega.

Biz So‘fi devonida musaddasning an‘anaviy qofiyalanish tizimidan biroz chekinilgan ko‘rinishini uchratdik. Shoirning “Nokom g‘arib-u zoram asru” misrasi bilan boshlanuvchi musaddasida birinchi bandning to‘rt misrasi alohida, qolgan ikki misrasi alohida qofiyalanadi, ya‘ni: **a-a-a-a-b-b, d-d-d-d-b-b, e-e-e-e-b-b** kabi. O‘zaro qofiyalangan ikki misra har band oxirida naqarot bo‘lib keladi [4.: 46-47.].

Feruz davri Xorazm adabiy muhitida musaddaslarning qanday yaratilishiga ko‘ra, asosan, 3 xil turi farqlanadi:

**1. Mustaqil musaddaslar.**

**2. Tasdislar.**

**3. Tazmin musaddaslar.**

Mustaqil musaddaslar shoirning o‘z ijod mahsuli sifatida yuzaga keladi, ya‘ni ular biror g‘azal, misra yoki bayt asosida yaratilmasligi bilan farqlanadi. Bunday musaddaslar tashqi jihatdan janrning boshqa turlaridan deyarli farqlanmaydi. Feruzning “Subhkim, ul sarvi gulrux sayri gulzor ayladi”, “Ul pari egnida gulrang libosini ko‘rung” [5.: 145-148.] Komil Xorazmiyning “Toki bir sho‘xg‘a men oshiqi diydor o‘ldum”, Mango bo‘ldung ul vaqt kim oshno” [2.: 209-212.] misralari bilan boshlanuvchi musaddaslarini bunga misol qilib keltirish mumkin.

Musaddasning biror g‘azal asosida yaratiladigan tasdis turi o‘zbek adabiyoti tarixida kam miqdorda uchraydi. Alisher Navoiyning Husayn Boyqaro va Lutfiy g‘azallari asosida yuzaga kelgan tasdislari bunga misol bo‘la oladi. Musaddasning bu turida Tabibiy 11 ta she‘r yaratgan bo‘lib, ulardan 4 tasi o‘z g‘azallari, 7 tasi o‘zga shoirlar (Navoiy, Munis, Ogahiy, Rojiy, Feruz, G‘ulomiy) g‘azallariga bog‘langan tasdislardir [11.: 209.]. Garchi bu davrda tasdislar ham yaratilgan bo‘lsa-da, ular taxmislari darajasida ko‘p emas. Musaddasning mazkur turi adabiy hayotda u darajada ommalashmaganiga sabab shoirlarning g‘azallar asosida muxammaslar yaratishga ixtisoslashib qolishgani bilan izohlanadi.

Tazmin musaddaslar misra yoki bayt asosida yaratiladi. Feruz davri Xorazm adabiy muhitida musaddasning tazmin asosida yaratiladigan xili yetakchi darajaga ko'tarildi. Bu bevosita Feruzning shoirlarga bergan adabiy topshiriqlari hamda shoirlarning xonga bo'lgan hurmat-ehtiromlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Tazmin musaddaslarning asosiy qismi Feruz musaddaslaridagi naqarot misra va baytlar zaminida yuzaga keldi. Ularda tazmin sifatida olingan misra yoki baytning vazni, qofiyasi va radifiga, shuningdek, mazmuniga amal qilinadi.

Feruzning mavjud ikki musaddasidagi naqarot misra va baytni ushbu o'rinda keltiramiz.

**Do'stlar, ul dilrabo ishqini mani zor ayladi**

**Vahki, ul mehrlig qoz-u adosini ko'rung,**

**Jonima har nafas ozor-u jafosini ko'rung [5.: 147.].**

Said G'ozini to'raning bir musaddasida yuqoridagi misrani tazmin bo'lib kelganligiga guvoh bo'lamiz. Musaddasning boshlama bandi:

**Ko'rmagay erdim yuzin ko'rgach giriftor ayladi,**

**Chun giriftor aylagach ko'nglumga ozor ayladi,**

**Muncha ozor aylabon aqlimni bekor ayladi,**

**Chunki bekor ayladi hushum to bakor ayladi,**

**Hijronda muncha baliyatlarga duchor ayladi,**

**Do'stlar, ul dilrabo ishqini mani zor ayladi [3.: 389.].**

Chokar Feruzning "Do'stlar, ul dilrabo ishqini mani zor ayladi" naqarotli musaddasining birinchi bandidagi oxirgi ikki misrani tazmin sifatida olgan. Chokar musaddasidan bir band keltiramiz:

**Bazmima kelmakdin ushbu kecha to or ayladi,**

**Yog'du olamni ko'zumga tiyra-vu tor ayladi,**

**Intizor aylab base jonimni bemor ayladi,**

**Bilkull o'ziga jafu-vu javrni kor ayladi,**

**Do'stlar, ul dilrabo ishqini mani zor ayladi.**

**Rashk tig'i jon ila ko'nglumni afgor ayladi [6.: 74.].**

Feruz musaddasidagi birinchi bandning oxirgi misralari Chokar tazminida o‘rin almashib kelgan.

Feruz musaddasidagi yuqoridagi naqarat bayt Komil Devoniyning bir musaddasida tazmin sifatida olingan. Boshlama band:

**Avval ul sho‘x yuzi nur-u ziyosini ko‘rung,  
So‘ngra el qatli uchun qoshlari yosini ko‘rung,  
Jonig‘a etgan g‘amida dard-u balosini ko‘rung,  
Javrig‘a oshiqini sabr-u vafosini ko‘rung,  
Vahki, ul mehrliqo noz-u adosini ko‘rung,  
Jonima har nafas ozor-u jafosini ko‘rung [7.: 77].**

Keltirilgan dalillardan ko‘rinadiki, tazmin musaddaslarda asos sifatida olingan misra yoki bayt har bandning oxirida refren vazifasini bajaradi.

Shoir tazmin sifatida o‘zini to‘lqinlantirgan va hayajonga solgan istagan bir misra yoki baytni asos qilib olishi mumkin. Masalan, Komil Xorazmiyning bir musaddasida Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarining 3-qismi 54-tanbehidagi quyidagi bayt tazmin sifatida tanlangan:

**Har kimsaki aylamas oshuqmoqni xayol,  
Yafrog‘ni ipak qilur, chechak bargini bol [8.: 105].**

Mazkur baytda ipak qurti va asalari faoliyati natijasini namuna sifatida ko‘rsatish orqali insonlarni sabr-qanoatli bo‘lishga da’vat etiladi. Endi Komil musaddasidan bir band keltirsak:

**Ham qasring asosin aylagil gar fo‘lod,  
V-ar kohingga nasib qil sutun shamshod,  
Qistog‘ ila bo‘lg‘on ish bo‘lur sust nihod,  
Oshuqma bu qasringni qilurda obod,  
Har kimsaki aylamas oshuqmoqni xayol,  
Yafrog‘ni yifak qilur, chechak bargini bol [9.: 24].**

Shoirning e’tirof etishicha, qurilajak qasringning poydevorini po‘latdan, uning ustunlarini shamshod daraxti og‘ochidan qilsang ham, agar u shoshma-shosharlik asosida barpo qilingan bo‘lsa, tez orada vayron bo‘lish ehtimolidan

emin bo‘la olmaydi. Shuning uchun ham biror faoliyat bilan shug‘ullanganda oshiqmasdan chuqur mulohaza asosida ish olib borish zarurligi ta’kidlanadi.

Faqiriyning “Xomushlig‘ zikrida” deb sarlavhalangan musaddasida tazmin sifatida “Qulul xayra va illo faskut ahbob”, ya’ni “Gapirsang yaxshi gapir, bo‘lmasa indama” mazmunidagi qadimgi arab podsholaridan bo‘lgan Nu‘monning muhriga o‘yib yozilgan mashhur hikmat olingan [10.: 78.]. Didaktik mazmundagi mazkur misra musaddasning har bandida naqarot tarzida keladi.

Xorazm adabiy muhitida yaratilgan musaddaslarda an’anaviy ishq mavzusi talqini yetakchi o‘rinda turadi. Bunday musaddaslarda oshiqona she’riyatga xos motivlar, obrazlar va badiiy tasvir usullari asosiy o‘rin egallaydi.

**Subhkim, ul sarvi gulrux sayri gulzor ayladi,  
Sarv-u gulga qadd-u ruxsorin namudor ayladi,  
Sarv qaddig‘a egib bosh qulluq izhor ayladi,  
Gul yuzun surtub oyoqiga o‘zin xor ayladi,  
Rashk tig‘i jon ila ko‘ngilni afgor ayladi,  
Do‘stlar, ul dilrabo ishqi mani zor ayladi [5.: 145.].**

Feruz qalamiga mansub mazkur badda muayyan lirik voqelik qalamga olingan. Tong chog‘i gul yuzli sarv, ya’ni mahbuba gulzor sayriga chiqadi. Uning qomatini ko‘rgan sarv daraxti bosh egib qulluq qiladi, gul esa yuzini uning oyog‘iga surtib poyandoz bo‘ladi. Bu badda shoir mahbubaning qomati va jamolini sarv daraxti va guldan ustun qo‘yish orqali betakror jozibaga ega yorni vasf etadi. Oshiqni esa mahbubasini hatto daraxt va gullardan ham rashk qilishi orqali nozik ko‘ngil egasi ekanligiga ishora qiladi.

Badda tashxis, istiora, tavze’, tanosub kabi badiiy san’atlar estetik ta’sirchanlikni yuzaga keltirishga xizmat qildirilgan. Sarvning bosh egib qulluq qilishi, gulning mahbuba oyog‘iga poyandoz bo‘lishi tashxis, “sarvi gulrux”, “rashk tig‘i” birikmalari istiora, birinchi misrada «s» tovushining uyg‘unlashib kelishi tavze’, “gulzor”, “sarv”, “gul” so‘zlari esa tanosub san’atini yuzaga keltirgan.

**Mehrdek yuzlarining nur-u ziyosini ko‘rung,  
Jabhasi uzra boqib turgan lutf-u safosini ko‘rung,  
Jonfizo la’li aro obi baqosini ko‘rung,  
Kirpigi o‘qlari ham qoshlari yosini ko‘rung,  
Oraz-u xoli bila ko‘zi qarosini ko‘rung,  
Joniga ahbob oning jabr-u jafosini ko‘rung [3.: 382.].**

Sultoniy musaddasidan olingan mazkur bandda mahbubaning jamoli, labi, kiprigi, qoshlari, yuzidagi xoli va ko‘zlari an’anaviy tasvir asosida tavsiflanadi. Mahbubaning porlab turgan yuzini quyoshga, labini tiriklik suviga, qoshlarini kamonga, kipriklarini o‘qqa qiyoslash asrlar davomida she’riyatda an’anaga aylangan tashbehlar sirasiga kiradi. Garchi bu bandda shoir takroriylikka yo‘l qo‘yganday tuyulsa ham, aslida betakror lavha yarata olgan.

Said G‘ozi to‘ra musaddasidan olingan quyidagi bandda ishq dostonlaridagi qahramonlarning nomlarini keltirish orqali talmeh san’ati yuzaga kelgan:

**Chu eshitdim bu jahonda Layli, Majnun bor ekan,  
Ham ki Farhod ila Shirin oshiqi diydor ekan,  
Vomiq Uzro ishqida mehnatga ko‘p duchor ekan,  
Chun Dilorom o‘lmasa, Bahromga olam tor ekan,  
Tong ermas, gar ayg‘osiz bu ham alarga yor ekan,  
Do‘stlar, ul dilrabo ishqini meni zor ayladi [3.: 389.].**

Shoir Majnun, Farhod, Vomiq va Bahrom kabi tarixiy-adabiy qahramonlarga qismatdosh lirik qahramon timsoli orqali mahbubasiz umr kechira olmaydigan haqiqiy oshiq holatini juda yorqin ifodalaydi va uning ishq yo‘lidagi o‘rtanishlarini qalamga oladi.

Xullas, Feruz davri Xorazm adabiy muhitida musaddas janri an’ana va novatorlik asosida taraqqiy qildirildi va uning o‘ziga xos namunalari yaratildi. Bu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yuzaga kelgan musaddaslarning asosiy xususiyatlariga e’tibor qaratdik. Ularni batafsil tahlil va talqin qilish galdagi izlanishlarga chorlab qoladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Matkarimova S. Tabibiyning "Muxammasoti majmuat ush-shuaroyi Firuzshohiy" tazkirasini // Badiiy tafakkur va adabiy jarayon. – 2003.
2. Komil. Devon. – T.: Adabiyot va san'at, 1975.
3. Muxammasoti majmuat ush-shuaroyi Firuzshohiy. O'zRFASHI qo'lyozmalar fondi, inv. №1134.
4. So'fi. G'azallar, muxammas va musaddaslar. – T.: Xalq merosi, 2002.
5. Feruz. Elga shoh-u ishqqa qul. – T.: Adabiyot va san'at, 1994.
6. Chokar. She'rlar. – T.: Adabiyot va san'at, 1974.
7. Komil Devoni. She'rlar. – T., 1971.
8. Navoiy. Mahbub ul-qulub. – T.: Adabiyot va san'at, 1983.
9. Devoni Komil. O'zRFASHI qo'lyozmalar fondi, inv.№ 1949.
10. Faqiriy. She'rlar. – T.: Adabiyot va san'at, 1972.
11. Shermuxammad Amonov. Ahmad Tabibiy turkiy devonlari qo'lyozmalarining qiyosiy-matniy tadqiqi. Monografiya. – T.: Bookmany print, 2023.
12. Tabibiy. Tanlangan asarlar (nashrga tayyorlovchi Fathulla G'anixo'jayev). – T.: Badiiy adabiyot, 1968.

### **MUHAMMAD RAHIMXON FERUZ OBRAZINING QISSALARDAGI TALQINI BO'YICHA BA'ZI MULOHAZALAR**

**Jumaniyazova Ro'zagul Saparbayevna,**

*tayanch doktorant,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Erkin Zohidovning "Xorazm fojiasi" va Sotim Avazning "Temurg'ozini to'ra" qissalarida tasvirlangan shoh va shoir Muhammad Rahimxon Feruz obrazining badiiy talqinlari, mualliflarning ushbu obrazni yaratishdagi mahoratining o'ziga xosliklari tahlilga tortiladi.

**Abstract.** This article discusses the socio-political situation of the Khiva Khanate, the place of Muhammad Rahimkhan Feruz in its literary environment.

Also, the image of Feruz in the stories “Xorazm fojiasi” and “Temurg‘ozi to‘ra” is artistically interpreted, and the peculiarities of the authors' skill in using this image are analyzed.

**Абстрактный.** В статье рассматривается общественно-политическое положение Хивинского ханства и место Мухаммад Рахимхана Феруза в его литературной среде. Также художественно осмыслен образ Феруза в повестях “Xorazm fojiasi” и “Temurg‘ozi to‘ra”, проанализированы особенности мастерства авторов в использовании этого образа.

**Kalit so‘zlar:** badiiy talqin, qissa, tarixiy obraz, tarixiy haqiqat, sujet, badiiy to‘qima, Xiva adabiy muhiti.

**Keywords:** literary interpretation, essay, historical obscurity, historical fact, sujet, artistic texture, literary environment of Khiva.

**Ключевые слова:** художественная интерпретация, сюжет, исторический образ, историческая правда, сюжет, художественная фактура, хивинская литературная среда.

Muhammad Rahimxon Feruz – yetuk davlat arbobi, san‘at va madaniyat homiysi, mohir g‘azalnavis shoir, tarix zarvaraqlarida o‘ziga xos o‘rniga ega bo‘lgan, ilm-fan, san‘at, adabiyotni rivojlantirishga rahnamolik qilgan tarixiy shaxslardan biri.

Muhammad Rahimxon II (1864-1910) – Feruz juda murakkab tarixiy vaziyatda taxtga ko‘tariladi. U ba‘zi xonlar kabi saltanat uchun talashib, xunrezlik yo‘li bilan taxtga ko‘tarilgani yo‘q. Uning xon mansabiga ko‘tarilishi manzarasi nihoyatda qiziqarli va ibratli bo‘lgan. Ya‘ni u demokratik asosda saylangan xonlardan [1.]. Haqiqatan ham Feruz aynan o‘sha davr siyosiy vaziyatda kamdan kam uchraydigan holatda davlat arboblari ovozi bilan taxtga o‘tiradi.

Xiva xonligidagi amir-u amaldorlar, mashhur kishilar, shoirlar haqida muhim ma‘lumotlar mavjud bo‘lgan tarixiy asarlardan biri bo‘lgan Muhammad Yusuf Bayoniyning “Shajarayi Xorazmshohiy” asarida Feruz haqida juda ko‘plab ma‘lumotlarni uchratishimiz mumkin. Ushbu asarda uning shoh, shoir va o‘ta murakkab inson sifatidagi qiyofasini tasavvur qila olamiz. “Xon hazratlari

bag‘oyat mushfiq fuqaro va bag‘oyat hayrdo‘st kishi erdilar. Ko‘p madrasalar-u masjidlar bino qildilar” [2.] – deb yozadi Bayoniy xonning fazilatlarini tasvirlar ekan. Chindan ham uning ilm-fan taraqqiyoti borasidagi ishlari, ayniqsa, madrasa-masjidlar, kutubxonalar barpo qilish ishlari tahsinga loyiqdir. Umuman olganda, xonlikning rivoji uchun arxitektura borasida qilgan say‘i-harakatlari, jadid maktablariga asos solgani, barkamol shoirlar davrasini kengaytirish maqsadida ularga rahnamolik qilib, qo‘llab quvvatlagani Feruzning tarixiy sharoitda muhim dastak vazifasini bajarganini ko‘rsatadi.

Feruz tarixiy shaxs sifatida bir qancha badiiy asarlarda gavdalangan bo‘lib, Erkin Zohidovning “Xorazm fojiasi” va Sotim Avazning “Temurg‘ozi to‘ra” qissalarida shoh va shoir Muhammad Rahimxon Feruzning hayoti, uning xonlik davridagi ayrim voqealar qalamga olingan. “Xorazm fojiasi” qissasi o‘ziga xos kompozitsion qurilishga ega bo‘lib, alohida qismlarga ajratilgan, har bir qismga sarlavhalar qo‘yilib, voqealar bayon qilingan.

Qissaning “Ustoz” sarlavhali qismida Feruzning sozanda va ashulachilarni bevosita o‘zi imtihon qilishi va ularga marosimlar uchun ruxsat pattasini berishi tasvirlangan bo‘lib, muallif Feruzning Ismoilboyning o‘g‘li Boyjon, Yusup misgarining o‘g‘li Solay va Komil Xorazmiy kabi epizodik obrazlar bilan suhbatlari orqali uning nihoyatda yetuk san’atkor ekanligini ochib beradi. “Xon Boyjonga qarata shunday deydi: “O‘zing ayt, sozandalik pattasiga loyiqmisan? Shoir yoki san’atkor tug‘ma bo‘ladi, keyin bu kasblar fidoyilikni, kecha-yu kunduz tinmasdan qilingan mehnatni talab qiladi. Bir yoki ikki kuyni qiyomiga yetkazib ijro qilgan bilan odam sozanda bo‘lavermaydi.” Solayni esa olqishlab, sozandalarning piri Komil Xorazmiyga topshiradi. O‘sha kuni yetti kishidan faqat bir kishi ya‘ni Solaygina pattani qo‘lga kiritadi. Shu imtihonda Komil Xorazmiyning “...Biz san’atga kirib kelayotgan yoshlarga qattiqqo‘llik qilmayotibmizmi?” degan murojaatiga nisbatan Feruz quyidagicha javob beradi.” Sizningcha, qo‘lida tayoq ushlaganlarning hammasiga yoki “avjiga chiq”,– desangiz ho‘kizdek bo‘kirganlargayam patta beraveraylikmi? Unda san’atkorning, san’atning pokligi nima bo‘ladi? Xorazmning yo‘qolib ketgan o‘n ikki maqomidan zo‘rg‘a olti

yarmini topdinglar...Axir bu maqomlar bizga ota-bobolarimizdan qolgan qaytarib bo'lmaz bebaho meros-ku! Bu masalada ko'ngil bo'shlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi!" [3.]

Bundan tashqari ushbu qism davomida Ovrupo va O'rusiyaga borib kelgan Yusuf savdogardan musiqani ham xat yozgandek qog'ozga tushirish mumkinligini eshitgan xon rus tilini yaxshi biluvchi Komil Xorazmiyga ushbu yozuvni Xorazm diyoriga keltirishini buyuradi. Ushbu yuqorida keltirilgan tasvirlardan ko'rinadiki, muallif Feruzning haqiqiy jonkuyar san'atkor ekanligini yaqqol badiiy to'qimalarsiz ochib bera olgan.

Ushbu fikrlarning tarixiy isboti sifatida Begali Qosimov va b.larning "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti" darsligida Feruzga to'xtalgan o'rinda uning yetuk musiqashunos, bastakorligi va yosh sozandalarga homiyligiga quyidagicha to'xtalib o'tiladi:...Muhammad Rahimxon Feruz o'z davrining nihoyatda peshqadam ziyolisi edi. U musiqashunos, bastakor, musiqa sirlaridan xabardor san'atkordir. U Xorazm maqomlarini asrab avaylash, kelgusi avlodlarga to'laligicha yetkazishda buyuk mutafakkir Komil Xorazmiy va uning o'g'li bastakor, musiqashunos Muhammad Rasul bilan katta ishlarni amalga oshirdi....san'atkorlarga sozandalik, go'yandalik shahodatnomasini shaxsan o'zi topshirgan. Xalq maqomlarini buzib ijro etganlarni hatto jazolagan ham. Bu haqda hijriy 1299-yilning jumod ul -avval oyida maxsus farmon ham qabul qilgan" [4.]

Asarning "Ovda", "Qul bozori", "Rus elchisi", "Arzxonada", "Maxfiy kengash" kabi qismlarida Feruzning xonlikni boshqarishdagi donoligi, aql va iqtidor sohibi ekanligi badiiy talqin etiladi. Qissaning so'nggi qismlarida esa Sovet davri siyosati uchqunlari ko'rinib turadi. Rus bosqinchilarga qarshi biron qarshilik qilolmagan xon sifatida tasvirlanadi. Biroq, xonlik kuchlarga nisbatan teng emas, harbiy jihatdan qoloq edi. Buni tarixiy faktlardan ham anglashimiz mumkin. Feruz aynan shunday tarixiy vaziyatda og'ir ahvolda qolgan edi.

Sotim Avazning "Temurg'oz to'ra" qissasida esa Feruz obrazi muallif tomondan o'zgacha yo'sinda talqin qilinadi. Ushbu asar Feruzning nabirasi Temurg'oz to'raning hayoti haqida hikoya qiluvchi qissa bo'lib, XIX asr

boshlarida Xiva xonligida yuz bergan voqealar aks etgan. Qissada Feruzning so‘nggi kunlari bayon etilgan, obraz ko‘pincha o‘ylar girdobida tasvirlanadi. “So‘nggi ilinj” qismida og‘ir kasalga chalingan xon ichikib yig‘laydi, ruhiyatidagi besaranjomlik yaqinlashib kelayotgan o‘limidan darak beradi. “...Xudo uni farzanddan ham qismagan. Arslondek olti o‘g‘li bor. Asqar to‘ra, Mehdiyor to‘ra, Sayyid Abdullo to‘ra, Sayyid Isfandiyorxon to‘ra, Ubaydullo to‘ra, Muhammad Yusuf to‘ra... Har birida bir qusur, bir nokomillik nuqsi bor. Eng yomoni adolat bilan ish ko‘rish to‘ralarning hech biriga xos emas”[5]. Ko‘rinadiki, Feruz o‘g‘illarning hech birini taxtga ravo ko‘rmagan. Uning so‘nggi ilinji Temurg‘ozi to‘ra edi. Nabirasining zakosi, tarbiyasi uni lol qoldirardi. Feruzning adolati qanchalik yuqori ekanligi, so‘nggi lahzalarida ham yurtni qayg‘urib oh chekishi kitobxon ko‘z ongida adolatparvar xonni gavdalantiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, muallif “Xorazm fojiasi” qissasida ba‘zi o‘rinlarda Feruz obraziga sotsialistik ruhda yondashgan bo‘lsa, “Temurg‘ozi to‘ra” qissasida esa obraz badiiylikka yo‘g‘rilgan tarzda, adolatli xon sifatida talqin qilingan. Ma‘lumki, adabiyotshunosligimizda muallif obrazning hayotida ro‘y bergan voqealar o‘zining real tasviri bilan birga badiiylik nafosati bilan yo‘g‘riladi, goho muallifning o‘z fikr-mulohazalari ustunlik qilsa, goho tarixiy asarlardagi ma‘lumotlar e‘tiborni tortadi. Bularning barchasi haqiqatdan iboratligi bilan o‘quvchi tahsiniga sazovor bo‘ladi. Feruz qiyofasi mualliflar izlanishlari o‘laro q sayqal topib, o‘quvchi ko‘z o‘ngida ma‘rifatparvar va adolatli xon, san‘at va adabiyot homiysi, ulkan qalb egasi sifatida gavdalana boradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Худойберганов К. Хоразм хонлари. – Т., “Академнашр”, 2019 – Б.166.
2. Муҳаммад Юсуф Баёний. Шажарайи Хоразмшоҳий – Тошкент. 1994 – Б.89.
3. Зоҳидов.Э. Хоразм фожиаси. – Тошкент. “Ўзбекистон”,1992. – Б.44.
4. Қосимов.Б ва б. Миллий уйғониш даври адабиёти. – Тошкент. “Маънавият”, 2004. – Б.47-48.
5. Sotim Avaz. Temurg‘ozi to‘ra. Qissa. – Toshkent. “Sharq”, 2006. – B.12.

## **FERUZ DAVRI XORAZM ADABIY MUHITINING MUTRIB XONAXAROBIIY IJODI TAKOMILIDAGI O‘RNI**

**Allaberganova Adolat Otabek qizi,**

*filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,*

**Allaberganova Dilbarjon Otabek qizi,**

*filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Feruz davri Xorazm adabiy muhiti va bu muhitning Mutrib Xonaxarobiy ijodi takomilidagi o‘rni ko‘rsatib berilgan.

**Abstract.** This article presents the literary environment of Khorezm during the Feruz era and the role of this environment in the development of Mutrib Khanakharaby's work.

**Абстрактный.** В данной статье показана литературная среда Хорезма периода Феруз и роль этой среды в развитии творчества Мутриба Хонахароби.

**Kalit so‘zlar:** Xorazm adabiy muhiti, eski o‘zbek adabiy tili, lingvopoetika, lirika, g‘azal, muxammas.

**Key words:** Khorezm literary environment, old Uzbek literary language, linguopoetics, lyrics, ghazal, muhammas.

**Ключевые слова:** Хорезмская литературная среда, староузбекский литературный язык, лингвопоэтика, лирика, газель, мухаммас.

XIX asr oxiri XX asr boshlariga tegishli adabiy manbalar tilini lingvistik tahlil qilish, oldingi va keyingi davr til xususiyatlari bilan solishtirish, o‘ziga xos belgilarni aniqlash tilning takomillashishi hamda soha rivoji uchun ahamiyatli. Eski o‘zbek adabiy tilini o‘zida aks ettiruvchi manbalar tilini lingvistik tadqiq qilish dolzarb vazifalardandir. Shu qatorda, Mutrib Xonaxarobiy ijodi o‘zbek tili taraqqiyotini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorazm adabiy muhiti, bu muhitning yorqin vakillari hayoti va ijodini yoritishda, asarlari tiliga xos xususiyatlarni belgilashda xonliklar davridagi ijtimoiy vaziyat ham alohida ahamiyatga ega. “Hozirgi zamon o‘zbek tili o‘z

taraqqiyoti protsessida uzoq va murakkab yo'lni bosib o'tdi. O'zbek adabiy tilining qaysi bir rivojlanish etapi haqida fikr yuritmaylik, uni tilning egasi bo'lgan o'zbek xalqi tarixi bilan bog'liq holdagina o'rganishimiz mumkin". [1.: 13.]. Shunday ekan, Mutrib Xonaxarobiy ijodidan anglashiladigan mavzu va g'oya, badiiy poetik tasvirlar, shoir she'riyati tiliga xos lingvistik xususiyatlarni yoritishda Mutrib Xonaxarobiy yashagan davr va muhitning tarixiy hamda ijtimoiy ahvolini ko'zdan kechirish dastlabki vazifalardan biri hisoblanadi.

Xiva xonlari ichida uzoq davr hukmronlik qilgan Muhammad Rahimxon soniy – Feruz (1844 – 1910) davrida xalq hayoti yangi qiyofa kasb etganligi tarixiy manbalar orqali ma'lum. Bu xon o'zbek xalqi tarixida, o'zbek adabiyotida muhim o'rin tutgan yetuk shaxs, davlat arbobi, sermahsul shoir, madaniyat homiysi sifatida tarixda qayd etiladi. Muhammad Rahimxon soniy 20 yoshida 1864-yili taxtga chiqqan va 47 yil hukmronlik qilgan. Ko'pchilik tadqiqotchilar fikricha, Markaziy Osiyo xonlari orasida aql-u tafakkuri boy, hamda ziyarak bo'lganligi e'tirof qilinadi. U hukmronlik qilgan paytda davlatning iqtisodiy ahvoli yomonlashgan, xalqning turmush tarzi qiyinlashgan davr bo'lishiga qaramay, adabiyot va san'atning rivojlanishiga, Xiva adabiy muhitining gullab yashnashiga alohida e'tibor qaratdi. XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi Xorazm ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotining taraqqiyotida Muhammad Rahimxon soniy – Feruzning xizmatlari nihoyatda ko'pligi, bu xon davriga va shaxsiyatiga xos tarixiy lavhalar adabiyot o'qituvchisi va tarix muzeyi xodimi Davlatyor Rahim va Shixnazar Matrasul qalamiga mansub “Feruz (Shoh va shoir qismati)” nomli kitobda o'z aksini topgan. Fikrimizni mualliflarning quyidagi qaydlari orqali izohlashimiz mumkin: “U Xeva xonlari tarixida eng uzoq davr, qirq yetti yil mamlakatni idora etib, elining obodonchiligi va mustaqilligi uchun kurashdi, mamlakat ichidagi o'zaro urushlarning oldini olishga harakat qildi. U o'z saroyida qirqqa yaqin shoir, sozanda, tarixchi, xattot va tarjimonlarni to'plab, ularga homiylik qildi”. [2.: 6.]. Muhammad Hasan Hoji tabib o'g'li Mutrib Xonaxarobiy yashagan davr Muhammad Rahimxon soniy va uning 1918-yilda Xiva taxtiga o'tkazilgan o'g'li Sayid Abdullaxon davriga to'g'ri keladi. Xorazm vohasida

yashab ijod qilgan, boy meros qoldirgan buyuk ajdodlar ruhini e'zozlash va qoldirilgan ijod namunalarini tahlil qilish, o'rganish zaruriyatini his qilgan holda, Shermuhammad Munis, Ogahiy, Feruz, Komil Xorazmiy, Bayoniy, Laffasiy va Mutrib Xonaxarobiylar ijodi o'zbek adabiyoti, shuningdek, o'zbek tili rivojida alohida ahamiyat kasb etadi, deb o'ylaymiz. XIX asr oxiri va XX asr boshlari Xorazmda yashab ijod qilgan shoir Muhammad Hasan Hoji Tabib o'g'li el orasida Mutrib Xonaxarobiy nomi bilan shuhrat topgan. Bu jihatdan uning ijodiy faoliyati H.Niyoziy va S.Ayniy, A.Avloniy va So'fizoda, Faqiriy va Bayoniy, shuningdek, M.Ordubodiy va H.Jovid, A.Shirvonzoda va S.Sayfullin singari o'tmish adabiyot bilan yangi tipdagi adabiyotni tutashtirgan adiblar faoliyatiga hamohang ekanligi va 1860-yillarning birinchi yarmida Xiva shahrining Eski Bolhovuz bo'yida "Mahramlar" ko'chasi yaqinida tug'ilganligi adabiyotshunos M.Pirnazarov tadqiqotlarida aytib o'tilgan. [3.: 1.] .Laffasiy esa o'z tazkirasida "Muhammad Hasan Mutrib 1853-yili Xiva shahrining tashqari qal'asida, ya'ni Qalli Oqsoqol qavmida tug'ilgan deb ma'lumot beradi".[4.: 73.]. Ko'pchilik manbalarda Mutribning 70 yosh yashagani qayd qilinadi. "Mutrib Xonaxarobiy" risola-majmuasida hamda havolalarda berilgan tazkiralarda shoir 1923-yilda vafot etgani haqida ma'lumot keltirilgan. Tazkiralarda berilgan tarixiy ma'lumotlarga asoslangan holda Mutrib Xonaxarobiy 1853 – 1923-yillar oralig'ida yashab ijod etgani ma'lum bo'ladi. Demak, Feruz davri Xorazm adabiy muhitining Mutrib Xonaxarobiy hayoti va ijodiga bevosita ta'siri ko'zga yaqqol tashlanadi. Muhammad Hasan Hoji Tabib o'g'lining "Mutrib" taxallusi bevosita uning sozandaligi, musiqa ohanglariga oshuftaligi bilan bog'liq. "Xonaxarob" yoki "Xonaxarobiy" taxallusi esa biroz munozarali. M.Pirnazarov Xiva xoni Muhammmad Rahim II Feruz Mutribning g'aribona kulbasi oldidan o'tayotib, undan: "*Sening uying mana shu bo'ladimi?*" – deb so'rab, shoirdan tasdiq javobini olgach: "*Xonang xarob ekan-ku*", – deya o'tib ketganligi, shu-shu adibning "*Mutrib*" deyilgan taxallusi yoniga "*Xonaxarobiy*" atamasi ham qo'shilib qolganligi haqida xalq orasidagi ma'lumotlarga tayanib izoh beradi. Yuqoridagi Mutrib taxallusi bilan bog'liq ma'lumot Muhammmad Rahim II Feruzning shoir

hayoti va ijodiga bo‘lgan e’tiborni ko‘rsatib bera oladi. Bundan tashqari, Laffasiy va Bobojon Tarroh Xodim shoirning xushchaqchaq tabiati, barchaning dilini ravshan qilishi, hamda hajviy she’rlari sabab “Mutrib Xonaxarobiy” taxallusini olganligini qayd qiladilar. Bizning nazarimizda, Muhammad Hasan Hoji Tabib o‘g‘lining “Xonaxarobiy” taxallusi *ilohiy tuyg‘u – ishqda telba bo‘lgan oshiq-shoir ahvoliga* ishora. Mutrib Xonaxarobiy she’riyati tilini lingvopoetik o‘rganish jarayonida ushbu xulosa anglashildi. Shoir she’rlarida hijron sabab *ko‘ngil uyi – qalbini xona, uy*, juda ko‘p o‘rinda o‘z uyini *kulba*, bu kulbasi va holini *xarob* yoki *vayron* deb ataydi:

Yig‘larman har dam holima topmay dilimga shodlig‘,

G‘am tig‘idin *ko‘nglum uyi* har lahza *vayrondur* mango.

Quyidagi bayt ham “Xonaxarobiy” taxallusi aynan oshiq-shoir ahvoliga ishora ekanligini anglatadi:

Sham’i vaslingdin ko‘zumning tiyrasini ravshan et,

Partavi husningga aylay *kulbayi xarobim* fido.

Bayt mazmunidan oshiq yorning yorug‘ va nurli (*partav – yog‘du, nur, shu‘la; yorug‘lik*) husniga *kulbayi xarob – xona xarobini* fido (qurbon, nisor; fido qilish, bag‘ishlash) qiladi. Nazarimizda, shoir yor husniga o‘zining ko‘ngil uyi, ya’ni ishqda xarob, junun bo‘lgan *qalbini* fido qilmoqchi. Chunki *xarob kulba* birikmasini o‘z ma’nosida tushunsak, biroz mazmuniy g‘alizlik yuzaga chiqadi.

Feruz saroy ijodkorlariga, adabiy muhit vakillarining iqtidoriga katta ahamiyat qaratgan. Ijod va ilmni yuksak qadrlagan. Ayni mana shu ilmga e’tibor shu muhit vakili Mutrib ijodini ham chetlab o‘tmagan. Shoirning she’riy satrlarida Mutrib shaxsiyati borasidagi tasavvurlarimiz ham shakllana boradi. U she’rlarida nafsi – donolik ekanini, kimki ilm ahlida bo‘lsa, o‘zi kabi *rohat* topishini yozadi:

Topar ilm ahlida bo‘lsa har kim Mutrib kabi *rohat*,

Oning nafsidadur *donolig‘* ondin g‘ofil o‘lmanglar. [5.: № 31.].

Ushbu she’rida ham o‘z tabiatiga ishora seziladi:

Qiling johillik etmay Mutriboso e’tiqod emdi,

Bihamdillah, hama ahli musulmon, ey xaloyiqlar. [5.: №26]. Mutrib Xonaxarobiy o‘z davrida o‘zining o‘tkir zehni, ijodga bo‘lgan qiziqishi bilan ijodiy davralarda faol bo‘lgan. Ma’lumki, Avaz O‘tarning otasi Polvonniyoz O‘tar Gadoyniyoz o‘g‘li o‘z davrining ma’rifatparvar kishilaridan hisoblangan. U so‘zga boy, qiziqarli, askiyaboz, shuningdek, adabiyotga qiziquvchi, ijodiy davralarga yaqin inson bo‘lganligi va Polvonniyoz O‘tar uyida tez-tez adabiy suhbatlar o‘tkazilishi, bu davralarda Mutribning ham o‘ziga xos o‘ringa egaligi haqida ma’lumotlar bor: “Usta O‘tar adabiyotga bo‘lgan katta qiziqishi bilan davr peshqadam ijodkorlari davralariga yaqin edi. Uning uyida Ogahiy, Komil, Mutrib Xonaxarobiy kabi shoirlar to‘planib, adabiy temalarda qizg‘in suhbatlar o‘tkazar edilar. Tez-tez bo‘lib turadigan bunday suhbatlarda zavq bilan qatnashgan yosh Avazda adabiyotga bo‘lgan havas kundan-kunga jo‘sh uradi”. [6.: 6.]. Saylanmada yosh Avaz maktabda Navoiy, Fuzuliy, Hofiz va Bedil kabi sharq allomalari merosi bilan yaqindan tanishgani haqida ma’lumot beriladi. Unga zamondosh Mutib ijodida ham Navoiy, Fuzuliy ohanglari seziladi. Muhammad Rahimxon II Avazning aql-idroki va qobiliyatidan xabar topib saroyga chaqiradi. Avaz O‘tar ijodkorlar bilan yaqin aloqa o‘rnata boshlaydi. Bular orasida Mutrib Xonaxarobiy nomi ham bor: “*Hunarmand Qalandar Qurbonov, Matyoqub Otajonov, Matfano Xudayberganov, shoir Chokar, Mutribi Xonaxarobiy, temirchi Abdurahim, usta Rahmonberganlar Avazning samimiy do‘stlari edi*”. [6.: 6.]. Yuqorida nomlari keltirilgan ijodkorlar o‘z ijodlarida xalqchillik va ma’rifatparvarlik g‘oyalarini ilgari surganlar. Shu bilan birga, bu ijodkorlar ijodi va uslubi orasidagi yaqinlikni M.Pirnazarov turli to‘plam va bayozlarda ijod namunalari yonma-yon kelishi bilan ham izohlaydi: “G‘azal bayozlariga Mutrib va unga zamondosh shoirlarning, asosan, 7 baytli she‘rlari kiritilgan. Bunday g‘azallar formati 15,5 x 18 yoki 12 x 18 sm bo‘lgan, bejirim, ixcham va chiroyli qilib tayyorlangan Xiva bayozlari uchun juda mosdir. Mutrib she‘rlari aksariyat hollarda qo‘lyozma bayozlarning o‘rta qismlaridan joy olgan. Xarakterli tomoni shundaki, shoir g‘azal va muxammaslari, asosan, Avaz O‘tar o‘g‘li, Rog‘ib, Xayoliy, Devoniy, Tabibiy she‘rlari bilan yonma-yon keladi”. [3.: 14.]. Binobarin, Mutrib Xonaxarobiy ijodi

turkiy she'riyatda yuksak qimmatga ega bo'lib, shoir qalamiga mansub lirika namunalari voqeiylik asosida qalblarga to'liqinli tuyg'ular bag'ishlash bilan ajralib turadi. Bu adabiy muhitda Mutrib va unga zamondosh Xorazm shoirlari olg'a surgan chuqur insonparvar g'oyalar, rang-barang mavzu va mazmun xilma-xil janrlarda ifodalandi. Serqirra va sermashaqqat hayot va ijod yo'lini bosib o'tgan yetuk san'atkor sifatida Muhammad Hasan Mutribning ijodiy yo'li va adabiy merosi avlodlar uchun boylik bo'lib qolgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Турдиалиев Б. Ҳамза ва ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан, 1981. – Б.13.
2. Давлатёр Раҳим, Шихназар Матрасул. Феруз. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. – Б. 6.
3. Пирназаров М. Мутриб Хонахаробий. Рисола-мажмуа. – Тош., 2001. – Б. 1
4. Лаффасий, Ҳасанмурод. Хива шоир ва адабиётчиларининг таржимаи ҳоллари. Тазкира. ЎзРФАШИ Қўлғезмалар фонди, инв. № 12561 – Б. 73
5. Хоразм хабарлари, 1921 йил 7 ноябрь, № 31.
6. Аваз. Сайланма. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984. – Б. 6.

### **XIVA XONLIGI DAVRIDA MUSIQA SAN'ATINING YUKSALISHI**

**Matyakubova Umida G'ayibayevna,**

*“San'at” kafedrasi katta o'qituvchisi,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotasiya.** Ushbu maqolada Xiva xonligi davrida Xorazm musiqa madaniyatining rivojlanishi, shuningdek, Muhammad Rahimxon Feruz va boshqa xonlarning maqom san'atini taraqqiy ettirishdagi o'rni yoritilgan.

**Abstract.** This article explores the development of musical culture in Khorezm during the Khiva Khanate period, as well as the role of Muhammad Rahimkhan Feruz and other khans in advancing the art of maqom.

**Аннотация.** В данной статье освещается развитие музыкальной культуры Хорезма в период Хивинского ханства, а также роль Мухаммада Рахимхана Феруза и других ханов в развитии искусства макома.

**Kalit so‘zlar:** Xorazm musiqa madaniyati, maqom san’ati, Xiva xonligi, Muhammad Rahimxon Feruz, Komil Xorazmiy, saroy sozandalari, tanbur chizig‘i, Xorazm maqomlari, mumtoz musiqa.

**Keywords:** Khorezm musical culture, maqom art, Khiva Khanate, Muhammad Rahimkhan Feruz, Komil Khorezmi, court musicians, tanbur notation, Khorezm maqoms, classical music.

**Ключевые слова:** Музыкальная культура Хорезма, искусство макома, Хивинское ханство, Мухаммад Рахимхон Феруз, Камил Хорезми, придворные музыканты, танбурная нотация, хорезмские макомы, классическая музыка.

Xorazm xalqining qadimiy va boy musiqa madaniyati asrlar davomida qudratli ma’naviyat manbai bo‘lib kelgani tarix sahifalaridan ma’lum. Milliy qadriyatlar va betakror an’analarni o‘zida mujassam etgan an’anaviy musiqamiz xazinasi esa hanuzgacha o‘z badiiy – estetik qiymatini saqlab kelmoqda.

XVI asrda Xorazm davlati qayta tiklanganidan so‘ng, 328 yil davomida Xiva taxtida 49 xon hukmronlik qilgan. Ular orasida faqat bir hafta, uch kun, hatto bir kun hukmronlik qilganlari ham bo‘lgan. Xonlarning aksariyati ilm – fan, adabiyot va musiqaga katta qiziqish bildirgan. Shu boisdan hukmdorlar, beklar hamda ruhoniy tabaqa vakillari orasida cholg‘u asboblarni mohirlik bilan ijro etadigan, musiqaga chin dildan mehr qo‘ygan shaxslar ko‘p bo‘lgan. Ayniqsa, Muhammad Aminxon, Said Muhammadxon va Muhammad Rahimxon davrlarida maqom san’ati yuksak rivojlanib, musiqiy taraqqiyotning mislsiz qayta uyg‘onishi yuzaga kelgan.

Sayyid Muhammadxon 1856 – yilda Qutlimurodxon o‘rniga Xiva taxtiga o‘tirib, sakkiz yil davomida xonlik qiladi. Uning hukmronligi davrida Xorazm viloyatida tinchlik va osoyishtalik hukmron bo‘lib, bu holat xalq va xon o‘rtasida musiqaga bo‘lgan alohida qiziqishni kuchaytiradi. Sayyid Muhammadxonning o‘zi

dutor cholg'ʻu asboblarini chalishga qiziqib, musiqaga boʻlgan eʻtiborini namoyon etgan. U shu bilan birga, oʻz davrining mashhur musiqashunoslari bilan tez – tez musiqiy muloqotlar oʻtkazgan, musiqiy ijro va sanʻat boʻyicha suhbatlar tashkil etgan. Xonning musiqaga boʻlgan qiziqishi va uni ragʻbatlantirishi Xorazmda musiqiy anʻanalarni saqlab qolish va yangi musiqiy yoʻnalishlarning rivojlanishiga imkon yaratgan.

1864–yilda Sayyid Muhammadxon oʻrniga Xiva taxtiga oʻtirgan Muhammad Rahimxon II musiqiy ilmlarga boʻlgan katta qiziqishi va muhabbati bilan elga tanilgan. U musiqiy sanʻatni oldingi davrlarga nisbatan yuqori darajaga koʻtarish maqsadida keng qamrovli islohotlarni amalga oshirgan. Muhammad Rahimxon I zamonidan to Muhammad Rahimxon II (soniy) zamonigacha oʻtgan oltmish yil Xorazm musiqasining ikkinchi davrini tashkil qiladi. Bu davrda qadimdan davom etib kelgan umumiy turkiy sozlar qoʻllanilsa-da, yangidan davraga kirgan musiqashunoslar oʻz mahorat va iqtidorlari bilan Xorazm musiqasiga yangi uslub va yoʻllarni kiritganlar. Bu davrda Xorazmda mislsiz musiqiy qayta uygʻonish yuzaga kelgan. Muhammad Rahimxonning hukmronligi davrida Oltmi yarim maqomning rivojlanishi, saroy musiqiy anʻanalarining yana bir bor qayta tiklanishi, Xorazmning musiqiy yuksalishi uchun katta ahamiyat kasb etdi. Xon, musiqani davlat ahamiyatiga ega soha sifatida qoʻllab – quvvatlab, xalq orasida mumtoz kuy va ashulalarni, shuningdek, dator maqomlarining rivojlanishiga jiddiy eʻtibor qaratdi.

Muhammad Rahimxonning oʻzi ham musiqaga qiziqib, musiqiy ijro va ilmiy ishlarni ragʻbatlantirgan. Bu davrda dator maqomlari, doston yoʻllari va boshqa mumtoz musiqiy janrlar izchil rivojlanib, Xorazm nafaqat ichki, balki tashqi dunyoda ham musiqa xazinasini bilan tanila boshladi. Natijada, Xorazm musiqasi oʻzining ilgari oʻrnatilgan katta shuhratini qayta tiklab, dunyo musiqasi rivojiga katta hissa qoʻshgan. Muhammad Rahimxonning musiqaga boʻlgan qiziqishi va uni rivojlantirishdagi saʻy – harakatlari Xorazm musiqasini yanada boyitib, Xorazmni musiqiy markazga aylantirdi.

Muhammad Rahimxon II tarixda Feruz (Feruz – baxtli, saodatli) taxallusi bilan Devon tuzgani, o'nlab shoiru muarrix, bastakoru me'morlarga homiylik qilgani, shuningdek Xorazm adabiy muhiti taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib, unga rahbarlik qilgani tarixiy haqiqatdur. Musiqa va she'riyat kechalari o'tkazish Feruzning doimiy odatiga aylangan. Bu nafis bazmlar, sozanda va shoirlarning nazmidan bahra olish butun Xorazm viloyatining o'ziga xos manzarasiga aylanib, xalqqa ruhiy va madaniy qadriyatlar yetkazgan. Bunday tadbirlar nafaqat yuqori sinf vakillari, balki oddiy xalq orasida ham keng tarqalgan edi.

Bola Baxshining hikoya qilishicha, Xiva xonligi muzofotida 32 ta sozandalar guruhi faoliyat ko'rsatgan. Har bir guruh o'z dasturi va mahoratini namoyish etib, Xon tomonidan rasmiy imtihonlardan o'tgach, to'y-ҳashamlar va bazm ziyofatlarda ishtirok etishga ruxsat olgan. Bunday imtihonlar har yili bir marta muntazam o'tkazilgan va bu musiqiy guruhlar o'z san'atlarini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etgan.

Agar sozanda yoki ashulachi juda oddiy va soddalashgan kuylardan iborat ashulalar aytsa, ularning faoliyati bunday nufuzli davralarda man etilgan. Bu esa musiqaning yuqori ma'naviy va estetik talablariga javob bera oladigan ijrochi bo'lishga va mukammal asarlar yaratishga undagan.

She'riyat va musiqa Xorazmda o'sha davrda oshnolik, fozillik va ziyolilikning alomati sifatida qabul qilingan. Feruz II, hattoki, o'ziga yaqin bo'lgan mansabdorlar va xizmatkorlardan ham bu sohalarda bilimdonlikni talab qilgan. Naqshli va nafis san'atlarga moyil bo'lgan shaxslarni esa saroy xizmatiga jalb etish uchun alohida harakat qilgan.

Shuningdek, shoirlik yoki sozandalik bo'yicha alohida iqtidorga ega bo'lganlarni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab – quvvatlagan. Bobojon Tarrohning "Xorazm navozandalari" nomli tazkirasida Feruz II va uning atrofidagi saroy shoirlari haqida so'z yuritiladi. Tazkira o'ziga xos shaklda tuzilgan bo'lib, unda Feruz boshchiligidagi har bir saroy shoirining musiqa san'atiga bo'lgan munosabati alohida ajratib ko'rsatilgan. Bu asarda 31ta shoirdan 11 tasi, eng avvalo, xonning o'zi musiqa ilmini mukammal o'rganganligi e'tirof etiladi.

Buning natijasida, Feruzning saroyida musiqa va she'riyatning o'zaro uyg'unlashgan rivojlanishi, Xorazmda badiiy va intellektual hayotning gullab-yashnashiga olib keldi. Feruzning bu sohadagi faoliyati musiqaga bo'lgan yuqori e'tibor va qadriyatlar Xorazm madaniyatini boyitdi va uni nafaqat davlat ichida, balki tashqi dunyoda ham mashhur qildi.

Maqom san'atining rivojini izchil yo'lga qo'yish uchun Feruzning bevosita nazorati ostida saroy sozandalari guruhi tashkil etilgan. Ushbu guruhga musiqiy iste'dodga ega bo'lgan, layoqati yetadigan hofizlar va cholg'uchilar jalb qilingan. Ularning har biri saroyda o'zining mahoratini namoyish etib, maxsus maosh bilan ta'minlangan. Shuningdek, bunday guruhlar maqom san'atini yanada mukammal va tizimli ravishda rivojlantirishga xizmat qildi, saroyda tashkil etilgan musiqiy kechalar va bazmda ishtirok etib, ular Xorazmda musiqasining yuqori darajada saqlanishi va yangi avlodlarga yetkazilishida muhim rol o'ynadi.

“Saroy sozandasi” o'z vaqtida rasman tasdiqlangan tushuncha sifatida ishlatilgan. Faqat juda yuqori iste'dodga ega ashulachilar va cholg'uchilar ushbu martabaga erishishi mumkin edi. Saroy sozandalarining kasb – hunariga va xizmat doirasiga tegishli maxsus risolalar (odob va axloq qonun – qoidalari) ishlab chiqilgan bo'lib, ularda o'tirish – turish, to'y va bazmlarda o'zini tutish, xizmat haqidagi tartiblar aniq belgilangan.

Saroy sozandalarining odob dasturlariga qat'iy rioya qilish zarur edi. Xonning ruxsatisiz ular saroydan tashqarida o'z san'atlarini namoyish qilishlari man etilgan. Bu qoidaga amal qilmagan Feruzning eng yaxshi ko'rgan ashulachisi Matyoqub Pozachi ham xonning ruxsatisiz to'yga borgani uchun 50 darra jazo olgan. Bu holat saroy sozandalarining ustuvorligini, ular uchun belgilangan tartibni va musiqaning saroydagi muhim rolini ta'kidlaydi. Shu tarzda, saroy sozandasi maqomi nafaqat san'atni yuksaltirish, balki uning jamiyatdagi maqomini va ahamiyatini oshirishga qaratilgan edi. Bu tizim musiqaning nafaqat estetik, balki axloqiy va ijtimoiy jihatlarini ham jiddiy nazorat qilgan.

XIX asrning 70 – yillarida bevosita Feruz II rahnamoligida Xorazm maqomlarini xatga tushirish uchun maxsus nota yozuvi ustida katta ijodiy

izlanishlar olib borilgan. Bu muhim ishni amalga oshirishni Feruz Xivaning eng yetakchi shoir, olim va musiqashunoslaridan biri bo'lgan Polvonniyoz Mirzaboshiga (adabiy taxallusi Komil Xorazmiy) topshiradi. Komil Xorazmiy (1825–1899) — Xorazmning mashhur shoir, bastakor va musiqashunoslaridan biri bo'lib, XIX asr Xiva madaniy hayotida muhim o'rin tutgan. U nafaqat mumtoz adabiyot va musiqa sohasida katta meros qoldirgan ijodkor, balki Muhammad Rahimxon Feruz II saroyida xizmat qilgan yirik madaniyat namoyandaligidan biridir. Komil Xorazmiy 1825 – yilda Xivada tug'ilgan. Uning asl ismi Muhammadniyoz bo'lib, “Komil” taxallusi bilan she'rlar yozgan. Yoshligidan she'riyat va san'atga qiziqib, o'sha davrning mashhur olim va ijodkorlaridan tahsil olgan. U Feruz II saroyida xizmat qilib, shoir sifatida katta shuhrat qozongan.

Komil Xorazmiy o'z davrining buyuk musiqashunosi bo'lgan, tanbur chizg'ilarining yuzaga kelishida uning xizmatlari katta. Mazkur nota yozuvining o'q ildizlari Sharq musiqashunoslik ilmiga borib taqaladi. Tanbur chizg'ilari tizimini ishlash va uning vositasida butun boshli Xorazm “Olti yarim maqomini” xatga tushirish (bugungi ibora bilan aytilganda notalashtirish) ustida Muhammad Rahimxon Feruzning o'zi va peshqadam musiqashunoslar Xudoybergan Muhrkan, Komil Xorazmiyning o'g'li Muhammad Rasul Mirzo hamda shogirdi Muhammad Yoqub Xarrotdek maqom ustozlari faol qatnashgan. Bu nota yozuvi, Xorazm musiqasining o'ziga xos xususiyatlarini saqlab qolgan holda, yaratildi va Xorazmning musiqiy an'analarini tizimli ravishda jamlashga imkon berdi. O'sha davrda ushbu yozuv “Tanbur chizig'i”, ilmiy manbalarda esa “Xorazm tanbur notasi” va “Xorazm tabulaturasi” nomlari bilan atalgan.

Xulosa qilib atsak, xiva xonligi tomonidan **musiqaga davlat miqyosida e'tibor qaratilishi** — musiqa san'atining ijtimoiy maqomini oshirdi. Bu esa nafaqat ijodiy, balki ta'limiy tizimga ham ta'sir ko'rsatib, kelajak avlodlar uchun barqaror an'anaviy musiqa ta'limining shakllanishiga zamin yaratdi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Отаназар Матёкубов. Мақомот. Муסיқа нашриёти. Тошкент. 2004й

2. Otanazar Matyoqubov. Yana “Xorazm Tanbur chizg‘ilari” haqida. «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasining 2013 yil 29-soni

3. O.Matyakubov, B.Raximov, “O‘zbek musiqasi tarixi”, O‘quv qo‘llanma, Toshkent, 2016

4. Ismailov Tohirjon Xushnudbek o‘g‘li. Xiva xonligi davrida musiqa madaniyati. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7626077>

## MUHAMMAD RAHIMXON FERUZ SHE’RIYATIDA QO‘LLANGAN AYRIM KOSMONIMLARNING STILISTIK XUSUSIYATLARIGA DOIR

*Berdimuratova Ro‘za Raxmonovna,*

*tayanch doktorant,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Muhammad Rahimxon Feruz she’riyatidagi kosmonimlar – Oy, Qamar, Moh, Hilol, Badr, Quyosh, Shams, Mehr va boshqa osmon jismlarining stilistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Feruz she’rlarida bu obrazlar nafaqat tabiat hodisasi, balki ramziy va poetik ma’nolarni anglatadi. Maqolada ushbu obrazlarning sevgi, go‘zallik, ilohiylik va orzu timsoli sifatida qo‘llanilishi, ularning poetik vazifasi va estetik ahamiyati misollar orqali ochib beriladi.

**Аннотация.** В статье анализируются стилистические особенности использования космонимов – Луна, Месяц, Полумесяц, Полная Луна, Солнце, Шамс, Мехр и других небесных тел в поэзии Мухаммада Рахимхона Феруза. Эти образы в его стихах выступают не только как природные явления, но и как символические и поэтические знаки. В статье раскрывается роль этих образов как символов любви, красоты, божественности и мечты, их поэтическая функция и эстетическое значение с примерами из текстов.

**Abstract.** This article analyzes the stylistic features of the use of cosmonyms – Moon, Crescent, Full Moon, Sun, Shams, Mehr, and other celestial bodies in the poetry of Muhammad Rahimkhan Feruz. In his works, these images are not only representations of natural phenomena but also carry symbolic and poetic

meanings. The article explores how these images function as symbols of love, beauty, divinity, and aspiration, highlighting their poetic role and aesthetic significance with examples from the poems.

**Kalit soʻzlar:** *Muhammad Rahimxon Feruz, kosmonim, stilistik xususiyat, poetik obraz, Oy, Quyosh, Sharq poetikasi.*

**Ключевые слова:** *Мухаммад Рахимхон Феруз, космоним, стилистические особенности, поэтический образ, Луна, Солнце, восточная поэтика.*

**Keywords:** *Muhammad Rahimkhan Feruz, cosmonym, stylistic features, poetic image, Moon, Sun, Eastern poetics.*

Muhammad Rahimxon Feruz XIX asrning yirik adiblaridan biri boʻlib, uning sheʼriyatida Sharq poetikasining anʼanalari va oʻziga xos badiiy ifoda vositalari uygʻunlashgan. Feruz sheʼrlarida tabiat hodisalari va osmon jismlari obrazlari keng va ramziy maʼnoda qoʻllanadi. Ushbu maqolada uning sheʼriy merosida osmon jismlari nomlarining stilistik jihatlari tahlil qilinadi.

Feruz sheʼriyatida *Oy, Moh, Qamar* kosmonimlari vositasida maʼshuqaning goʻzalligini, oshiqning tuygʻularini va ilohiy nur manbayini ifodalashda muhim poetik vosita sifatida xizmat qiladi. Quyidagi sheʼriy parchalar bunga yorqin misol boʻla oladi:

Qilursan noz, agar man har necha arzi niyoz etsam,  
Sitamkor *mahvasho*, bu nav atvoringgʻa sallamno!  
Senga, Feruz, oʻlub baxt, etding *ul oy* qaddi, zulfin vasf,  
Bu yangligʻ tabʼi nozik birla ashʻoringgʻa sallamno. (12)<sup>1</sup>

Bu baytda *ul oy* birikmasi orqali maʼshuqa nazarda tutiladi.

Quyidagi baytda esa oʻxshatish hosil qilingan:

*Oy kibi* farrux jamoling koʻrgali yoʻlungda koʻz

Intizor-u intizor-u intizor-u intizor. (38)

---

<sup>1</sup>Мухаммад Рахимхон Феруз. Элга шоҳу ишққа кул. Девон. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 1994. – 160 б. Sheʼriy parchalar shu kitobdan olindi. Maqola matnida koʻchirma olingan sahifa raqami qavs ichida koʻrsatildi.

Bu baytda *Oy kibi farrux jamol* birikmasi orqali ma'shuqaning chiroyi oyga o'xshatilgan. Oy timsoli bu yerda nafaqat tashqi go'zallik, balki yorug'lik, shu'lali nur sifatida tasavvur qilinadi. Oshiq esa bu go'zallikni ko'rish umidida, *intizor* holatda, sabrsiz kutishda tasvirlangan. *Intizor-u intizor-u intizor-u intizor* takrori oshiqning chidab bo'lmas sog'inchini va ichki to'lqinlanishini yanada kuchaytiradi.

Ayb qilmang gar parishonhol esam Feruzdek,  
Ayladi ishqi *ul oyning* jon-u ko'nglum beqaror. (39)

Bu baytda *ul oy* birikmasi orqali oshiqning ma'shuqaga bo'lgan muhabbati tilga olinadi. Oy timsoli yana ma'shuqaning go'zalligini, yuksak va yetib bo'lmas obrazini bildiradi. Shoir "beqaror" holatda ekanini, qalbi va joni o'sha oyga oshuftaligini ta'kidlaydi.

Quyidagi baytga e'tibor qaramiz:

*Ul oy vasfini vird etsam zabonda,*  
*Necha yillar ado bo'lmas bayonda.* (13)

Bu baytda *ul oy vasfi* birikmasi ishlatilgan. "Ul oy" – ya'ni **o'sha oy** – sevgilining yuzi yoki go'zalligi timsolidir. Shoirning fikricha, "**oy**" tasvirini tilga olib, uni ta'riflashga kirishsa ham, "**necha yillar ado bo'lmas bayonda**", ya'ni yillar o'tsa ham, uni to'liq bayon qilib bo'lmaydi.

*Oy, Moh, Qamar, Hilol, Badr* nomlarining poetik qo'llanilishi Feruz she'riyatida quyidagi asosiy stilistik xususiyatlarga ega: ushbu obrazlar bevosita ma'shuqaning tashqi ko'rinishi bilan bog'liq bo'lib, uning qaddi, yuzi, ko'ksiga qiyos qilinadi; oy timsoli nafaqat tashqi go'zallik, balki poklik, ilohiylik va yetib bo'lmas orzu sifatida talqin qilinadi.

Feruz she'riyatida Quyosh (Shams, Kun, Oftob, Mehr) obraz sifatida ko'pincha ma'shuqaning go'zalligini ta'riflashda qo'llanadi. Masalan:

*Shams-u qamar* vasfida so'z qilsam, qalam ojizdur,  
Mahbubim chehrasi har ikki olamga nurlar sochur.

Bu baytda Shams-u Qamar (Quyosh va Oy) o'zaro birgalikda qo'llanib, ma'shuqaning chehrasi yorqinlik va go'zallikning mukammal timsoli sifatida

tasvirlangan. Quyosh nuri shunchalik kuchli ekanki, uni so‘z bilan ifodalashning iloji yo‘q degan g‘oya ilgari suriladi. Stilistik jihatdan quyosh yorug‘lik, hayot manbayi, oliy go‘zallik va shon-shuhrat ramzi sifatida ko‘riladi.

Orazining *mehrig‘a xurshidi raxshon* bandadur,  
Qomati zebosig‘a sarvi xiromon bandadur. (40)

Bu baytda *xurshid* obrazi ma‘shuqaning yuzidan taralayotgan nur (orazining *mehri*)ga osmondagi quyosh ham tan berishi tasvirlangan. Yoki boshqa bir she‘rida:

*Kun* uyotdin ayladi o‘zini shafaq ichra nihon,  
Ko‘rdi gulgun to‘p aro to otashin ruxsoringiz. (43)

Bu baytda Quyoshning shafaq ortiga yashirinishi va ma‘shuqaning otashin yuzini ko‘rib uyalgani bilan bog‘liq tasvirlanadi.

Ravshan etgan furqatidin tiyra bo‘lg‘on ko‘zlarim,  
Mehri ruxsorin ochib, sham‘i tirozim sizmusiz? (47)

Bu misrada *mehri ruxsor* ma‘shuqaning yuzidan taralayotgan issiqlik va mehr timsoli sifatida qo‘llanadi, yani issiq yuz, chiroyli yuzdir. O‘tmishda *Mehr* so‘zi asli Quyoshni ifodalagan. “Avesto”da *Quyosh* ma‘nosini ifodalovchi *Mitra* so‘zi nur va ravshanlik xudosining nomi ekanligi aytilgan. *Mitra* so‘zi «Avesto»da *Mitr* va *Mixr* shaklida berilgan. Pahlaviy tilida *Mehr* shakliga ega. *Mehr* va *Xurshid* so‘zlari hozirgi fors tilida *Quyosh* ma‘nosini anglatadi. *Mehr* va *Xurshid*ni sinonim hisoblash keyingi davrda yuzaga kelgan. Barcha eroniy miflarda ular boshqa ilohlardir.

Hozirgi tilimizga *Mitra* so‘zi fonetik o‘zgarishlarga uchragan holda (*Mitra-Mitr-Mihr-Mehr*) tarzida yetib kelgan bo‘lib, atoqli ot sifatida *Quyosh*ni va kishi ismlarini ifodalaydi. *Mehr* so‘zi orqali yasalgan bir qator o‘zakdosh so‘zlar yuzaga kelgan: *mehrli*, *mehrsiz*, *mehribon*, *mehribonlik*, *mehribonchilik*. Bularning barchasi iliq munosabatli, muhabbatli kabi ma‘nolarni ifodalaydi.

*Mehr* so‘zi Navoiy, Munis, Ogahiy kabi shoirlar asarlarida ham *Quyosh yulduzi* nomini ifodalagan [4.: 82.].

Quyidagi parchada *xurshid* va *mohi paykar* obrazlari birga qo‘llanib, ma’shuqaning go‘zalligi va oshiq ruhiy holatiga ta’siri tasvirlanadi.

Ul parimu ravshan etgan tiyra bo‘lg‘on ko‘zlarim,  
Ko‘kdin indimu va yo *xurshidi anvor*, ey rafiq.  
Zohir aylab javr-u zulm-u qahr-u kin Feruzg‘a,  
Ayladi holin xarob ul *mohi paykar*, ey rafiq. (48)

Tubandagi baytda ma’shuqaning yuzidan niqobini olib, *xurshiddek ziyo berishi* uning go‘zalligini quyosh nuri bilan tenglashtirish vositasida ifodalangan.

Olding niqob yuzdin, ey dilrabo, muborak!  
Xurshiddek jahong‘a berding ziyo, muborak! (51)

Shoirning boshqa bir shu kabi tasvirlar bor:  
Husn avjining *xurshididur*, ey *mohsiymo*, orazing,  
Balkim, latofat ichradur ondin ham a’lo orazing.  
Kun zohir aylab infiol o‘ldi shafaq ichra nihon,  
Subhi saodatdin tulu etgach musaffo orazing. (53)

Bu she’riy parchada *xurshid*, *mohsiymo* va *oraz* so‘zlari uyg‘unlikda qo‘llanib, ma’shuqaning go‘zalligi, latofati va uning o‘ziga xos nurli tabiatini ifodalashda xizmat qilmoqda.

Quyidagi parchada *Oy (Qamar)* va *Quyosh* oshiqning maftunkor ko‘z bilan qarashini va ma’shuqaning ilohiy go‘zalligini tasvirlash vositasi sifatida qo‘llanadi:

Oy-u Quyoshga qilmas nazora gar ko‘rsa ushshoq hayratlar aylab,  
Jono, Qamardek ruxsoring ila xurshid, gavhar zarrin kulohing. (54)

Muhammad Rahimxon Feruz she’riyatida osmon jismlari obrazlari faqat tabiat hodisasi emas, balki chuqur ramziy va lingvopoetik ma’nolarni o‘zida mujassam etadi. Quyosh – go‘zallik, yorug‘lik, shon-shuhrat va hayot manbayi, Oy – go‘zallik, sadoqat va hijron timsoli sifatida ishlatilgan. Bu obrazlar Feruzning badiiy mahoratini, uning poetik tafakkuri va Sharq mumtoz adabiyoti an’analariga sadoqatini ko‘rsatadi. Feruz she’riyatida Oy, Moh, Qamar, Xurshid obrazlari Sharq mumtoz adabiyotidagi an’anaviy timsollar asosida rivojlanib,

individual poetik dunyoqarash bilan boyigan. Bu obrazlar oshiqning ichki kechinmalari, orzu-umidlari va ma'naviy intilishlarini ifodalashda muhim poetik vosita bo'lib xizmat qiladi. She'riy matnlardan olingan misollar uning tilidagi poetik ifoda vositalarining boyligini, obrazlarning lingvistik va stilistik ko'lamini yoritishga xizmat qiladi. Shu tarzda, Feruz she'riyatidagi osmon jismlari inson ruhiy olami, sevgi, iztirob, orzu va ilohiylik kabi tushunchalar bilan uyg'unlashgan holda badiiy tasvirning muhim elementiga aylangan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Azizxo'jayev A. O'zbek she'riyati va poetik obrazlar. – Toshkent: O'zbekiston, 2010.
2. Sharq poetikasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2015.
3. Муҳаммад Раҳимҳон Феруз. Элга шоҳу ишққа кул. Девон. – Тошкент: Гафур Гулом номидаги НМИУ, 1994. – 160 б.
4. Примов А. Ўзбек тили космонимларининг лисоний хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. – Тошкент, 2009. – Б.82.

### **XORAZM MUMTOZ ADABIYOTIDA QASIDANAVISLIK**

**Masharipova Sanamjon Muzaffar qizi,**

*“O'zbek tili va adabiyoti” kafedrasida magistri,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Xorazm adabiy muhitida mumtoz she'riyat janrlaridan qasida yozish an'anasi haqida fikr yuritilgan, shuningdek, shoirlar ijodiy merosidan bu janr qanchalik o'rin olgani tadqiq qilingan.

**Abstract.** This article discusses the tradition of writing qasida from the classical poetry genres in Khorezm's literary environment, as well as researches the place of this genre in the creative heritage of poets.

**Абстрактный.** В данной статье рассматривается традиция написания касиды из жанров классической поэзии в литературной среде Хорезма, а также исследуется место этого жанра в творческом наследии поэтов.

**Kalit soʻzlar:** Xorazm adabiyoti, qasida, nasib, madh, qasd, gurizgoh, Feruz, Ogahiy.

**Key words:** Khorezm literature, qasida, nasib, madh, qasd, gurizgoh, Feruz, Agahi.

**Ключевые слова:** Хорезмская литература, касыда, насиб, мадх, касд, гуризгох, Феруз, Агахи.

Xorazm. Bu soʻz necha ming yillik boy anʼanalarga ega tarixni koʻz oldimizda namoyon qiladi. Darhaqiqat, Xorazm dastlabki kishilik jamiyati oʻchoqlaridan biri boʻlgan. Bu esa uning adabiyoti ham tarixi qadar qadimiy ekanligini koʻrsatib beradi.

“Xorazm adabiy muhiti hozirgi oʻzbek adabiyotining shakllanishiga juda barakali taʼsir koʻrsatgan. Nosiriddin Rabgʻuziy, Haydar Xorazmiy, Hofiz Xorazmiy kabi siymolar oʻzbek nazmi va nasrining kamol topishiga beqiyos xizmat qilishgan. Xorazm adabiy muhitisiz oʻzbek adabiyotining shakllanish davrini tasavvur qilib boʻlmaydi” [1.: 3-4.].

Shu oʻrinda, xorazmlik shoirlar mumtoz qasida janrida barakali ijod qilishganini taʼkidlash joizdir. Bular sirasida Mahmud az-Zamaxshariy, Hofiz Xorazmiy, Komil Xorazmiy, Munis Xorazmiy, Sayfi Saroyi, Ahmad Tabibiy, Ogahiy, Avaz Oʻtar, Muhammad Yusufbek Bayoniy, Rojiiy kabi shoirlar qasida janrining shakllanishi va takomiliga oʻzlarining munosib hissalarini qoʻshishgan. Buni quyidagi jadvalda yaqqol koʻrishimiz mumkin:

<b>Muallif</b>	<b>Soni</b>	<b>Til</b>	<b>Manba</b>
Ogahiy	19	turkiy	“Taʼviz ul-oshiqin”
Munis Xorazmiy	4	turkiy	“Saylanma”(1980)
Sayfi Saroyi	1 (24 bayt)	turkiy	“Sheʼrlar.Guliston” (1968)
Yusufbek Bayoniy	3	turkiy	“Shajarayi Xorazmshohiy”
Hofiz Xorazmiy	9 (439 bayt)	turkiy	Hofiz Xorazmiy devoni. Navoiy muzeyi qoʻlyozmalar

			fondi, inv. 4298[2;75]
Ahmadjon Tabibiy	13	turkiy	“Hayrat ul-oshiqin”, “Tuhfat us-sulton”, “Munis ul-ushshoq”[3;46]
Az-Zamaxshariy	noma'lum	arabiy	“Devoni az-Zamaxshariy”
Rashididdin Vatvot	223	forsiy	
Rojiy Xorazmiy	3	turkiy	“Jamoling gulshanining bulbuliman”
Komil Xorazmiy	1 (50 bayt)	turkiy	“Devon” (1975)
Beruniy	1 (37 bayt)	arabiy	noma'lum

X-XI asrlar Xorazm adabiyotida asli xorazmlik bo‘lgan, ammo taqdir taqozosi tufayli Iroq-u Shom, Sheroz-u Isfahonda yashashga majbur bo‘lgan Abu Bakr Xorazmiy ijodi alohida o‘rin egallaydi. Hamdam Abdullayevning “Xorazm adiblari” kitobida keltirilishicha, “Abu Bakr Xorazmiy she‘riyati o‘sha davr poeziyasi uchun xarakterli sanalgan qasida, g‘azal, vasf va hajviyotdan iborat bo‘lgan. Qasidalarda ko‘pincha yuqori amaldorlar madh etilsa, vasfda turli hodisalar (tabiat, yil fasllari, hunar, aql-zakovat va boshqalar) bayoni berilib, vasf alohida janr hisoblangan”[4.: 5.]. Bundan ko‘rinib turibdiki, Abu Bakr Xorazmiy qasida janri shakllanishining ilk bosqichida, ya’ni uning tarkibiy qismlari – nasib, vasf, madh, qasd to‘la shakllanmagan bir davrida ijod qilgan. “Jorulloh” (Allohning qo‘shnisi), “Xorazm faxri” kabi sharafli nomlar bilan ulug‘langan Abulqosim Mahmud az-Zamaxshariy devonidan g‘azal, noma, qit‘a janrlari qatorida qasida ham o‘rin olgan. Uning qasidaları joy olgan she‘rlar to‘plami “Devoni az-Zamaxshariy” bo‘lib, uning nodir qo‘lyozma nusxasi hozirda Misr kutubxonasida saqlanmoqda. Az-Zamaxshariy she‘rlarining asosiy qismi yetti hukmdorga bag‘ishlangan bo‘lib, ular ilm-u ma‘rifatni qadrlashlari bilan ajralib turar edi. Bular orasida saljuqiylar davlati shohi Malikshoh, vaziri Nizom-ul Mulk, xurosonlik davlat arbobi al-Ardistoniy, Ubaydulloh, Xorazm shohi Muhammad

ibn Anushtegin va boshqalar bor edi.[5.: 7.]. N.Qobulovning ko'rsatishicha, Zamaxshariy qasidalarida mamduh, ya'ni madh qilinuvchi, maqtaluvchi shaxsning ilm-u irfon, adolat va ma'rifat sohasidagi xizmatlari ulug'lanadi, fazilatlari madh etiladi.

Qasidago'y shoirlardan yana biri Rashididdin Vatvot bo'lib, manbalarda uning forsiy tilda eng ko'p va xo'b qasida yozgan shoirlardan ekanligi ta'kidlanadi. Zahiriddin Muhammad Boburga zamondosh bo'lgan, ya'ni XV asr oxiri – XVI asrning birinchi yarmida yashab ijod qilgan xorazmlik shoir Majlisiy ham qasida borasida o'z mahoratini sinab ko'rgan, ammo uning bu janrdagi asarlari bizgacha to'la yetib kelmaganligi bu haqda to'liq tasavvur qilishimizga to'sqinlik qiladi.

Qismlari (nasib, gurizgoh, madh, qasd) to'la shakllangan qasida sifatida iste'dodli shoir Sayfi Saroyi (Xorazmda tavallud topgan)ning "Muhabbatnoma" muallifi Xorazmiy qasidasiga nazira tariqasida yozgan

Oltun qanotin ochti esa subh shunqari,

Ko'k ko'lga botti jumla kavokib kabutari

bayti bilan boshlanadigan qasidasini keltirishimiz mumkin.

Ba'zi adabiyotshunoslar (prof. N.Qobulov) bu borada g'azalga yozilgan nazira, degan fikrda to'xtalishadi. Ammo bizning qasida deyishimizga sabab bor, ya'ni Sayfi Saroyining qasidasini ko'zdan kechirganimizda "Bu madhi ul qasidag'a qildim javobkim" misrasining mavjudligi buni to'la tasdiqlaydi.

Sayfi Saroyi qasidasi 24 baytdan iborat bo'lib, quyosh chiqishi tasviri bilan boshlanadi. Qasida baytlari a-a, b-a, d-a tarzida qofiyalangan bo'lib, unda 12 bayt nasib qismini, 1 bayt gurizgoh, 6 bayt madh va 5 bayt qasd qismini tashkil qiladi.

Ma'lumki, Xiva xonligida Feruz, ya'ni Muhammad Rahimxon II ( 1864-1910) davrida madaniy faoliyat sohasi gurkirab rivojlandi : ko'plab madrasalar qurildi, matbaachilik yo'lga qo'yildi, kitobxonlik avj oldi, xonning o'zi esa bularning hammasiga homiylik qilgan, ularga bosh-qosh bo'lgan. Adabiy harakat o'zi ham she'rlar yozgan, devon tuzgan ("Elga shoh-u ishqqa qul") xon atrofida ayniqsa, rivoj topdi. Bu davrda Avaz O'tar, Komil Xorazmiy, Ahmadjon Tabibiy,

Muhammad Yusufbek Bayoniy, Ilyos Mulla Muhammad o‘g‘li So‘fi, Muhammad Rizo Ogahiy, Chokar kabi o‘zbek adabiyotida o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘lgan shoirlar yashab ijod etdilar. Saroy muhiti doirasida mumtoz she‘riyat janrlaridan ko‘proq qasida yozish an‘anasi o‘zining takomiliga erishdi. Bunga dalil sifatida birgina Ogahiyning o‘zi 19 ta qasida yozganligini keltirishimiz mumkin. Uning

Ayo, xisravi ma‘dalat dastgoh

Najobat sipehrida raxshanda moh

bayti bilan boshlanadigan, adabiyotshunoslar tomonidan shartli ravishda “Qasidai nasihat” deya nomlangan qasidasi Feruz taxtga chiqishi munosabati bilan yozilgan. Ogahiy qasidalari orasida Olloqulixon (1825-1842) ga 3 ta, Rahimqulixon (1842-1845) ga 4 ta, Muhammad Amin Inoq (1845-1855) ga 1 ta, Said Muhammadxon (1856-1864) ga 1 ta, Muhammad Rahimxon Soniy (1864-1910) ga 5 ta qasidasi bag‘ishlangan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Xorazm mumtoz adabiyotida qasida janri saroy muhiti atrofida yashagan har shoir ijodida ko‘zga tashlanadi, ayniqsa, Feruz davrida qasida yozish tom ma‘noda o‘zining cho‘qqisiga erishdi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Qobulov N. Xorazm adabiy muhiti. – Urganch, 1992, 3-4-bet.
2. Xasanova M. XV asr turkiy she‘riyatida qasida janri. Monografiya. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2024, 75-bet.
3. Amonov Sh. Ahmad Tabibiy turkiy devonlari qo‘lyozmalarining qiyosiy-matniy tadqiqi. Filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2023, 40-, 45-, 46-bet.
4. Abdullayev H. Xorazm adiblari. – Urganch, 1998, 5-bet.

## FERUZ HAQIDAGI BIR TA'RIX IZIDAN

**Komiljonova Komila G'ofur qizi,**

*“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasida magistri,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya:** Maqolada Ogahiyning “Shohidi iqbol” asaridagi ta’rixlar, xususan Feruzning taxtga chiqishi bilan bog‘liq ta’rix tadqiqot obyekti sifatida qaralgan. Ta’rixning yozilish sababi, janr talablariga muvofiqligi va poetikasi tahlil qilingan. Ogahiyning ta’rix yozish mahoratiga qisman baho berilgan.

**Abstract:** The article examines the historical book “Shahidi Iqbal” by Ogakhi as an object of research, especially the tarihi associated with the accession to the throne of Feruz. The reason for writing the tarihi, its compliance with the requirements of the genre and poetics are analyzed. Ogakhi's ability to write tarihi is partially appreciated.

**Абстрактный.** В статье в качестве объекта исследования рассматривается историческая книга “Шахиди Икбала” Огахи, особенно таърихи, связанная с восшествием на престол Феруза. Анализируется причина написания таъриха, ее соответствие требованиям жанра и поэтики. Способность Огахи писать таъриха частично оценена по достоинству.

**Kalit so‘zlar:** *ta’rix, tarixiy sharoit, adabiy muhit, janr talablari, janr xususiyatlari.*

**Keywords:** *history, historical conditions, literary environment, genre requirements, genre features.*

**Ключевые слова:** *история, исторические условия, литературная среда, жанровые требования, жанровые особенности.*

Xonliklar davri o‘zbek adabiyotida she’r ahli, asosan, uchta adabiy muhit atrofida jamlanib, ijod qildi. Ayniqsa, XV asrdan keyin Xiva xonligi, Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligi hududida Xiva, Qo‘qon va Buxoro adabiy muhiti nomi ostida ulkan iste’dod egalari mumtoz adabiyotning yuksak darajaga yetishida o‘z hissalarini qo‘shish uchun zahmat chekdilar. Xususan, Xiva adabiy muhiti Muhammad Rahimxon Soniy– Feruz davrida o‘z kamolotiga yetdi. Feruz nafaqat

o‘z ijodi bilan adabiyotdan munosib o‘rin egalladi, balki xon sifatida ham shuaroni qo‘lladi, adabiy muhitning gullab-yashnashi uchun barcha imkoniyatlarni yaratdi. Feruz boshchiligidagi adabiy guruhda Komil Xorazmiy, Rojjiy, Bayoniy, Tabibiy kabi shoirlar qatorida Ogahiy alohida ajralib turdi. U nafaqat lirik she‘rlari bilan, balki tarjimalari va tarixiy asarlari bilan ham o‘zidan boy adabiy meros qoldirdi. U o‘z davrida Feruzning maslakdoshi, eng yaqin kishilaridan biri edi. Bu esa Ogahiy ijodida iz qoldirmasligi, unga ta’sir qilmasligi mumkin emasdi. Munidan keyin Xiva tarixini yozishni niyat qilgan Ogahiy “Riyoz ud davla”, “Zubdat ut tavorix”, “Gulshani davlat”, “Jome’ ul voqeoti sultoniy” tarixiy asarlari qatorida “Shohidi iqbol” asarini ham yozdiki, ushbu asarda Feruzning hukmronlik davri atroflicha yoritilgan. Shuning uchun ham asarning “Iqboli Feruziy”, “Shohidi iqboli Feruziy” deb ham atalishi hayratlanarli emas. “Shohidi iqbol” asari Feruzning taxtga chiqishi voqealari bilan boshlanadi. “...1863-yil Feruzning otasi Sayyid Muhammadxon vafot etadi, 19 yoshli Muhammad Rahim Xiva xonligi taxtiga ko‘tariladi... Yosh saltanat sohibini qutlash, bu voqeaga bag‘ishlab ta’rix hamda qasida bitish Muhammad Rizo Ogahiy zimmasiga tushdi. Chunki o‘sha davrda saroydagi eng martabali inson Ogahiy edi” [3.: 46.]. Ogahiyning bu ta’rixi ham “Shohidi iqbol” asariga kiritilgan. Ogahiy ta’rixlari soni jami 33 tani tashkil etadi va ularning aksariyati forsiy tilda; biz tahlilga tortgan ta’rix “Ta’rixi julusi Muhammad Rahimxon (doma iqbolahu)” deb nomlangan bo‘lib, u ham forsiy tilda yozilgan.

Ta’rix janrining shakllanishi forsiy adabiyotga borib taqaladi. “Ushbu janrning Sharq mumtoz adabiyotida tutgan o‘rni, uning spetsifikasi, paydo bo‘lish va rivojlanish bosqichlari haqida adabiyotshunosligimizda bir necha e’tiborli ishlar amalga oshirilgan. Ushbu janrning nazariy asoslari xususida fors tilida yaratilgan adabiyotshunoslikka oid mumtoz asarlarda qimmatli ma’lumotlarni uchratamiz<sup>2</sup>. Zabihullo Safo fors adabiyotida ushbu janr hijriy yettinchi asrdan

---

<sup>2</sup> Атоуллох Хусайний. Бадойиъу-с-санойиъ. Форс тилидан Алибек Рустамов таржимаси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981. – В. 239; Рашиддин Ватвот. Ҳадойиқус-сихр. – Москва: Издательства восточной литературы, 1981. – В. 244.

boshlab nisbatan rivojlanganini ta'kidlaydi<sup>3</sup>. Mumtoz adabiyotimizda mazkur janr o'z tipidagi muammo, lug'z kabi janrlar qatori, eng avvalo, shakliy o'ziga xoslikka ega emasligi bilan farqlanadi. Shu sababli fors adabiyotida ham, o'zbek adabiyotida g'azal-ta'rixlar, qit'a-ta'rixlar, tarkibband-ta'rixlar, masnaviy-ta'rixlar, marsiya-ta'rixlar uchraydi"<sup>4</sup>. O'zbek adabiyotida XV-XVI asrlardan boshlab keng yoyila boshlaydi. Ta'rix janr sifatida ham, usul yoki she'riy san'at sifatida ham birday istifoda etilgan. Aksar hollarda biror voqea munosabati bilan yil yoki sanani aytish niyat qilinsa, ammo sonlar qofiya va vazn talablariga to'g'ri kelmasa, ta'rixdan foydalanilgan. Bunda alohida ta'rix janri ham, biror badiiy asar ichidagi ta'rix usuli ham yaratilgan. Xususan, Atoullah Husayniy o'zining "Badoye us-sanoye" asarida ta'rixni she'riy san'at sifatida berib o'tgan. Ogahiy hazratlari, asosan, unga janr sifatida qarashni ma'qul ko'rgan deyish mumkin. Ta'rix qilingan sana biror so'z ostiga yashiringan, so'zdagi harflar abjad hisobi asosida raqamlarga aylantirilgan. Uning ko'plab turlari rivojlangan, ba'zan ta'rix moddasi to'g'ridan to'g'ri so'z sifatida berilsa, ba'zan ishoralar qilingan. Shu jihatdan muammo janriga ham o'xshab ketadi. «Ta'rix i julusi Muhammad Rahimxon (doma iqbolahu)» ta'rix i oddiy usulda bo'lib, ta'rix moddasi sifatida "Shohi adolatsarir" izofasi ko'rsatilgan. Bu izofa arab harflarida:

شاه عدالت سریر

tarzida yoziladi. Abjad hisobida harflar quyidagicha hisoblanadi:

ا-1	ی-10	ر-200
ب-2	ك-20	ش-300
ج-3	ل-30	ت-400
د-4	م-40	ث-500
ه-5	ن-50	خ-600
و-6	س-60	ذ-700
ز-7	ع-70	ض-800
ح-8	ف-80	ظ-900
ط-9	ص-90	غ-1000
	ق-100	

<sup>3</sup> Сафо Забиҳулло. Тарихи адабиёт дар Ирон. Ж. 4. – Техрон: Фирдавс, 1371 х.ш. – С. 643.

<sup>4</sup> Ismailov . Ogahiyning tarixiy-adabiy asarlari poetikasi: Filol. Fanlari dokt... diss. –Samarqand, 2024. -188 b.

$300+1+5+70+4+1+30+400+60+200+10+200=1281$  hijriy, bu 1864-milodiy yilga teng keladi. Asar yaxshi o'rganilmagani sababli Muhammad Rahimxon II ning taxtga chiqish yili 1865, 1863 va hatto 1866 yil deb ham kelingan. Lekin Ogahiyning o'zi bu haqida "sichqon yili sunbulaning oxiri va ta'rixi hijriya ming ikki yuz sakson birda, robe'ussoniy oyining yigirma birida, panjshanba kuni erdi" [1.: 4.] deb yozgan va yuqorida zikr etilgan ta'rixini ilova qilgan. Sana esa 1864-yil 10-sentabrga to'g'ri keladi. Feruzning taxtga chiqishiga bag'ishlab yana bir ta'rix ham yozilgan bo'lib, Ogahiy o'sha ta'rixni ham "Shohidi iqbol" asarida o'zinikidan oldin berib o'tadi. Ta'rix muallifi Muhammad Nazar devon bo'lib, o'z ta'rixini forsiy tilda yozgan. O'sha davrda ta'rixni forsiyda yozish odat tusiga kirgan edi, shu tufayli ko'plab ta'rixlar shu tilda. Ogahiy o'zining ta'rixidan oldin Muhammad Nazar devonnikini berar ekan, uning ta'bi nazmini va ta'rixning uslubini ham alqaydi: "to'qquz baytdur, har misra'ining hurufin hisob qililsa, bekam va beziyod bir ta'rix bo'lur. Va bu san'atga har shoirning qudrati yetmagusidurkim, kamoli diqqat bila qudrat va mahorat dodin beribdur." [1.:34.]. Darhaqiqat, ko'rishimiz mumkinki, Muhammad Nazar devonning ta'rixi oddiy usulda yozilmagan, uning yechimini topish uchun misradagi harflarning har birini hisoblash lozim. Shoirning ta'rix yozish iste'dodi kamoliga yetganini Ogahiy ham e'tirof etadi.

Muhammad Rahimxon Soniy – Feruz o'z davri adabiy muhitiga kuchli ta'sir o'tkazgan. Yuqorida ko'rib o'tganimiz Ogahiyning ta'rixi ham Feruzning taxtga chiqishi munosabati bilan yozilgan va nafaqat tili jihatidan, balki uslubi va badiiyati jihatidan ham yuksak darajaga yetgan. Ushbu ta'rix taxtga chiqishning aniq yili va sanasi oydinlashtiribgina qolmay, ta'rixiy asar o'quvchisiga estetik zavq ham beradi. Ogahiy o'zining tarixiy asarlarida nazmiy parchalarni berar ekan, har biridan biror badiiy maqsadni ko'zlaydi. Uning ta'rixlari ham batafsil o'rganilishga arziydi va adabiyotshunoslik va ta'rixshunoslik uchun nodir manba sifatida xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ogahiy. Shohidi iqbol. –T: Sharq, 2019.
2. A. Husayniy. Badoye us-sano'ye. –Toshkent: G'afur G'ulom, 1981.
3. B. Qosimov va boshqalar. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004.
4. Y.Is'hoqov. So'z san'ati so'zligi.—Toshkent:O'zbekiston, 2014.
5. O. Karimov. Mumtoz she'riyat janrlari. –Namangan: Namangan, 2015.

# 3-SHO‘BA: XORAZMLIK SHOIRLAR IJODIDA NAVOIY AN‘ANALARI

## XORAZM ADABIY MUHITIDA CHISTON JANRI RIVOJIDA

### ALISHER NAVOIY TA‘SIRI

**Matkarimova Salomat Qo‘ziyevna,**

*filologiya fanlari nomzodi, dotsent,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Xorazm shoirlari ijodida chiston janri rivojida Alisher Navoiy ta‘siri masalasi tahlilga tortilgan. Navoiy va Ogahiyning “tanga” nomli chistonlari misolida mushtaraklik va o‘ziga xoslik ko‘rsatib berilgan.

**Аннотация.** В статье анализируется влияние Навои на развитие жанра чистан в творчестве поэтов Хорезма. На примере чистан «танга» Алишер Навои и Агахи показана общность и индивидуальность.

**Abstract.** In this article analyzed the influence of Alisher Navoi on the development of the chistan genre in the works of Khorezm poets. The example of the chistans "tanga" of Navoi and Ogakhi shows the commonality and individuality.

**Kalit so‘zlar:** *Navoiy, Xorazm shoirlari, Ogahiy, chiston, o‘ziga xoslik.*

**Ключевые слова:** *Навои, поэты Хорезма, Агахи, чистан, индивидуальность.*

**Keywords:** *Navoi, poets of Khorezm, Agakhi, chistan, individuality.*

Alisher Navoiy ijodi mukammallikning yuksak namunasi, har jihatdan ibrat maktabidir. Quyida biz Navoiy va Ogahiyning “tanga” nomli chistonlari misolida Xorazm shoirlari ijodida chiston janri rivojida Alisher Navoiy ta‘siri masalasi tahlilga tortishga jazm qildik.

Alisher Navoiy nozik yumor hissi bilan yo‘g‘rilgan va asosiy g‘oya ana shu yumor orqali ifodalangan chiston janrining qator namunalarini yaratdi. “Lirikaning aslida og‘zaki xalq ijodida tug‘ilgan bu turi (chiston – S.M.) Navoiygacha ba‘zi fors shoirlari ijodiga kirgan...Navoiy ham bu lirika turining yozma adabiyotdagi o‘rnini qonuniylashtirdi va “Badoye ul-vasat”ga o‘n chiston kiritdi” [1.: 58].

Xorazm shoirlari ham Navoiyga ergashib, o'zlari tanlagan mavzu, syujet va obrazlar asosida ham Navoiyning g'oyaviy-ijodiy prinsiplariga amal qilgan holda qator chistonlar yaratganlar. Xususan, Ogahiy bu janr rivojiga katta hissa qo'shgan [2.: 3-7.]. "Tanga" chistoni Navoiyning shu nomdagi she'riy topishmog'i ta'sirida bitilgan" [3.: 25.]. Navoiy va Ogahiyning "tanga" chistoni qiyoslanganda, qator o'xshash va o'ziga xos jihatlar ko'zga tashlanadi. Ogahiy va Navoiy chistonida tanganing shakliy belgilari va insonlar hayotida tutgan o'rniga diqqat qaratiladi. Navoiy chistoni:

Ne sho'x erurki, ulus ko'ngli ichra savdosi  
Aning yuzidagi xatlar kebi muharrardur.  
Kumushdurur taniyu qimmatini aning lekin  
Un ikki o'z tanidek vajah ila muqarrardur.  
Ishida ul o'n ikki har birisidir dinor,  
Ki, adl sikkasidin yuzlarida zevardur.  
Magarki angladi xumsul muborak asrorin  
Ki, soni bu adad o'lmish, agarchi yuz mardur.  
Gadog'a xumsidin ar saltanatdurur, ne ajab,  
Qachonki bekklik aning rub'idin muyassardur [4.: 518.].

Navoiy va Ogahiyning tangani sho'x, dilbarga qiyoslashlarida, tani siymin, kumush tan, deya sifatlashlarida, tanga yozuvlarini "yuzlarida zavar", "ziynat afzoyi ruxi zebosi" tarzida talqin qilishlarida, "ulus ko'ngli ichra savdosi", "olam ahli boshida savdosi" tinmasligidan bahs etilishlarida mushtaraklik ko'zga tashlanadi. Farqli jihat, avvalambor qit'a hajmida va unda qo'yilgan masalalarga munosabatdadir. Navoiy chistonida asosiy tasvir tanganing tashqi belgilariga qaratilib, 5 baytlik lug'zning 7 misrasi shu xususda. Ogahiyning 8 baytdan iborat chistonining 5 misrasida tanganing materiali, tashqi ko'rinishi, hajmi, qiymatini bildiruvchi yozuvi haqida so'z boradi. Navoiy chistonida:

Kumushdurur taniyu qimmatini aning lekin  
O'n ikki o'z tanidek vajah ila muqarrardur.  
Ishida ul o'n ikki har birisidir dinor,

Ki, adl sikkasidin yuzlarida zevardur, –

misralarida tanga bilan bog‘liq holat – “O‘n ikki o‘z tanidek vajah ila muqarrar, o‘n ikki har birisidur dinor” alohida qayd qilinadi-ki, bu tangananing aynan Navoiy davriga xos xususiyati ifodasidir. “Amir Temur davrida tilla tangalarning 12 turi mavjud bo‘lib, ular 1379-1388-yillarda Xorazm to‘liq bosib olinganidan so‘ng zarb etila boshlangan. Ayni vaqtda, Amir Temurning oltin tangalarida ilgari oltin tangalarda zarb qilingan “dinor” so‘zi yo‘q edi. Dinor so‘zi tilla tangani emas, balki undagi kumush miqdorini, ya‘ni bu tangada o‘sha vaqtda amal qilingan tanga tizimidagi oltin-kumush nisbatiga binoan mavjud kumush miqdoriga teng edi” [5.: 120.]. Navoiy tilla tangalarning 12 turi mavjudligiga hamda “dinor” kumushni anglatishiga diqqatni qaratadi.

Ogahiyning chistoni Navoiydan farqli o‘laroq, ramali musaddasi mahzuf vaznida bitilgan bo‘lib, uning qofiyasi ham yangilangan:

Ul na dilbarkim, tani siymin o‘lub,  
Badr yanglig‘ surati siy mosidur.  
Xat butub ikki yuzida sarbasar,  
Ziynat afzoyi ruxi zebosidur.

Ogahiy tangani dilbarga qiyoslar ekan, “tani siymin” deyish bilan uning materiali kumushdan ekanligiga, surati siy mosini badr – oyga tashbeh etish orqali rangining oqligiga, ruxi zebosi sifatida talqin qilingan ikki yuzidagi xatlar vositasida tangananing ikki tomoni – aversi (old)da va reversi (orqa)da bitilgan yozuvlarga, jussasini tirnoq yuziga tenglash bilan tangananing hajmi kichikligiga ishora qiladi. Shoir chistonda yashiringan narsaning tashqi belgilarini obrazli tarzda berar ekan, o‘quvchining ko‘z o‘nggida tanga tasvirini gavdalantiradi. Tangananing tashqi belgilarini uning mol ayirboshlashga xizmat qilish vazifasi (jahon bozori), insonlarga ta’siri masalasi **jussasi kichik** va **ulug‘lar ishqini** tazod san’ati vositasida uzviy bog‘lovchi bayt bilan davom qildiriladi:

Jussasi tirnog‘ yuzi yanglig‘ kichik,  
Lek ulug‘lar ishqining rasvosidur.  
Vaslini istab jahon bozorida

Olam ahli boshida savdosidur.  
Ham faqiru ham g'ani devonasi,  
Ham qariyu ham yigit shaydosidur.  
Topsa har adno visolin nogahon,  
E'tibor ichra ulus a'losidur.  
Yetsa har a'loga gar hajri oning,  
Jumla adno xalqining adnosidur.  
Topmasa gar iltifotin har kishi,  
Xordur, garchi jahon donosidur [6.: 527.].

Ogahiy davrida tangananing 12 turi bo'lmagan. Shuning uchun uning chistonida tangaga xos bu xususiyat tilga olinmagan. Agar salafi tangananing "ulus ko'ngli ichra savdosi"dan so'zlab, faqat "gado" va "bek" obrazlarini she'rga olib kirgan bo'lsa, Ogahiy boshiga tanga savdosi tushgan ulug'lar, faqir, g'ani, qari, yosh yigit, adno, dono kabi obrazlar galareyasini tasvir maydoniga safarbar qiladi. Shoir ushbu obrazlarning tangaga munosabati va ularning hayotida tangananing tutgan o'rniga e'tiborni qaratib, ijtimoiy mazmuni yanada kuchaytiradi: tanga adnoni e'tibor ichra ulus a'losi qilsa, uning yo'qligi har a'loni adno xalqning adnosiga aylantirishi, jahon donosini xorlikka muhtalo qilishini yozadi.

Xulosa qilib aytganda, Xorazm shoirlari Navoiy ijodidan mahorat masalalarini, lirik janrlar imkoniyatidan to'laqonli foydalanishni, nazmni qanday qilib jamiyatda kurash quroli darajasiga ko'tarishni, she'rda so'zni qanday ishlatish, o'tkirlash yo'llarini kamtarlik bilan o'rgandilar. Ana shu saboqlar natijasi o'laroq chistonlarning betakror namunalarini yaratdilar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Хайитметов А. Навоий лирикаси. –Т.: ЎЗБЕКИСТОН НМИУ, 2015. – Б. 58.
2. Файипов Д. Огаҳий чистонлари бадиияти // Илм сарчашмалари. - Урганч, 2017. №5. – Б. 3-7.
3. Файипов Д. Огаҳийнинг бадий маҳорати: Филол.фан. д-ри... дисс.автореф. – Тошкент, 2021. – Б.25.

4. Алишер Навоий Мукамал асарлар тўплами. 20 томлик. Т. 5. – Тошкент: Фан, 1990. – Б. 518.

5. Огаҳий, Муҳаммад Ризо. Тўла асарлар тўплами. 1-Жилд. – Т.: МУМТОЗ СЎЗ, 2014. – Б. 527.

6. <https://azkurs.org/amir-temur-va-temuriylar-tangalari.html>

## TAZKIRANAVISLIK AN'ANASINING XORAZM ADABIY MUHITIDAGI DAVOMIYLIGI

**Do‘stova Surayyo Savronovna,**  
*filologiya fanlari bo‘yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent,  
Jizzax davlat pedagogika universiteti*

**Annotatsiya.** Xorazm adabiy muhitidagi tazkiranavislik haqida so‘z boradi. Tazkiralar muhim manba sifatida ijtimoiy hayotning turli sohalarini qamrab olgan. Adabiyotshunoslikka daxldor dastlabki tazkiralar adabiyot va yondosh sohalarga bag‘ishlangan asarlar tarkibida, uning ma’lum bir qismi o‘laroq yozilgan. Xiva adabiy muhiti ijodkorlari xususidagi alohida tazkiralar ham bunyodga kelganligi haqida ham fikr yuritamiz.

**Аннотация.** В статье рассматривается стиль письма тазкира в литературной среде Хорезма. Тазкира, являясь важным источником, охватывает различные сферы общественной жизни. Первые трактаты по литературной критике были написаны как особая часть трудов, посвященных литературе и смежным с ней областям. Мы также учитываем тот факт, что были созданы и отдельные трактаты о творцах хивинской литературной среды.

**Abstract.** The article discusses the tazkiran writing in the literary environment of Khorezm. Tazkiras, as an important source, covered various areas of social life. The first tazkiras related to literary criticism were written as a specific part of works dedicated to literature and related fields. We also consider

the fact that separate tazkiras about the creators of the Khiva literary environment were also created.

**Kalit so‘zlar:** *devon, manba, kotib, nusxa, fond, g‘azal, masnaviy, asar, xat, adabiyot, she‘r, varaq, muallif, adabiy muhit, meros, devon.*

**Ключевые слова:** *библиотека, источник, писец, копия, фонд, газель, маснави, произведение, письмо, литература, стихотворение, страница, автор, литературная среда, наследие, библиотека.*

**Keywords:** *library, source, scribe, copy, fund, ghazal, masnavi, work, letter, literature, poem, page, author, literary environment, heritage, library.*

Tazkira janrida yozilgan asarlar uzoq asrlarga borib taqaladi. Tazkira yozish an‘anasi dastlab arab va fors adabiyotlarida, keyinroq turkiy adabiyotda ham keng ommalashgan.[28.:305.]. Tazkiralalar muhim manba sifatida ijtimoiy hayotning turli sohalarini qamrab olgan bo‘lishi mumkin. Adabiyot tarixida shoirlargina emas, balki olimlar, avliyolar haqidagi tazkiralalar ham yaratilgan.

O‘zbek adabiyotidagi tazkirachilikning mumtoz namunalaridan biri Navoiyning “Majolis un-nafois”(1491, 1498) asaridir. Unda XV asrda Xurosonda yashagan jami 450 dan ortiq ijodkorning bilim darajasi, dunyoqarashi, xulq-atvori va boshqalar to‘g‘risida ma‘lumotlar berilgan, ularning ijodidan namunalar keltirilgan. Alisher Navoiy tazkirasi tazkiranavislik uchun etalon vazifasini o‘tagan. Zero, “o‘zbek tazkirachiligining to‘ng‘ich asari bo‘lgan “Majolis un-nafois” o‘zbek tilida bir qator tazkira yoki majmua hamda bayozlarning vujudga kelishiga yo‘l ochdi va bir namuna bo‘lib xizmat qildi” [13.: 515]. Keyinchalik uning ta‘sirida Hasanxoja Nisoriy, Mutribiy, Maliho Samarqandiy, Sodiqiy Kitobdor, Faxriy Hirotiy, Som Mirzo Safaviy, Mir Alisher Qone‘ Tattaviy, Vozeh singari o‘nlab mualliflarning tazkiralari yaratilgan. Bular bilan birga XX asrning birinchi yarmigacha bo‘lgan adabiyotlar tarixi, adabiy janr, ularning nazariy jihatlarini, adabiy maktablar, adabiy jarayon, uning namoyandalari haqidagi muhim ma‘lumotlar xam tazkiralalar orqali bizgacha yetib kelgan.

O‘zbek adabiyoti tarixida tazkiranavislik an‘analari Xiva xonligi davrida ham o‘ziga xos tarzda davom ettirilgan. Jumladan, shoir va ijod ahli xususida alohida tazkiralardan tashqari Munis, Ogahiy, Bayoniy, Komyob kabilarning tarixiy asarlarida zamima tarzida qimmatli ma‘lumotlar mavjud. Bu jihatdan adabiyotshunos B.Valixo‘jayev fikrlari e‘tiborga molik: “Munis Xorazmiyning bu asarida (“Firdavs ul-iqbol”) Xorazm diyoridagi tarixiy, madaniy, adabiy muhit, uning ayrim namoyandalari haqida qimmatli ma‘lumotlar keltirilgan. Xuddi shu manba tufayli adabiyot tarixi uchun Mavlono Vafo, Pahlavonquli Ravnaq, Muzaffarxoja Kiromiyga o‘xshash qalamkashlar kashf etildi” [7.: 117.]. Shuningdek, Ogahiyning “Riyozi ud-davla”, “Gulshani davlat”, “Shohidu-l- iqbol” va boshqa tarixiy asarlarida ham o‘tmishda yashagan va o‘ziga zamondosh bo‘lgan ijodkorlar to‘g‘risida muhim ma‘lumotlarni qayd etadi. Masalan, u ‘Riyozi ud-davla” asarida mashhur donishmand shoir va kurashchi Pahlavon Mahmud (1247-1326) fazilatlarini shunday ta‘riflaydi: “Firdavs bahr shahri Xivaqda qudvat ul-avliyo, murshid ul-atqiy o maxsus borogohi mulki vadud hazrati Pahlavon Mahmud quddisa sirruhu” [17.: 375.<sup>a,b</sup>]. Bundan tashqari “Riyozi ud-davla”da “Xorazm adabiy muhitining yana bir zabardast namoyandasi Dilovarxoja haqidagi ma‘lumotlar ham alohida qiziqish uyg‘otadi. Ular Munisning o‘limiga yozilgan marsiya munosabati bilan bayon etiladi. Dilovar Ogahiy talqinicha, baland martabali shaxs bo‘lib, davrning yirik ma‘naviyat arbobi, mo‘‘jizasi, shoirlar podshosi, fuzalo-bilimdonlar fozili sifatida namoyon bo‘ladi”[1.: 18.]. “Gulshani davlat” asarida esa Xivadagi adabiy jarayon va uning vakillari Muhammad Nazar, Pahlavon Niyozboy va Xolis haqida ma‘lumotlar beradi: “Fazilat va ilm egasi Muhammad Nazar munshiy va shoirdir, shirin so‘zli shoir Pahlavon Niyozboykim, taxallusi Komildir va zarif shoir Xolisdir” [18.: 102.]. “Shohidu-l-iqbol”da: “Muhammad Nazar devonning juda mukammal, betakror tarixi muallif tomonidan alohida e‘tirof etilib asarga kiritilgan. Ular Xorazm adabiy muhitining darajasini belgilashda ham ahamiyat kasb etadi” [26.: 54-55.]. Shu jihatlarga ko‘ra tazkiralarni ikki guruhga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: 1) tazkiralalar; 2) zamima tazkiralalar. Yuqoridagi zamima tazkiralalar bilan birga Xiva

adabiy muhiti ijodkorlari xususidagi alohida tazkiralalar ham bunyodga kelganligi haqida ham fikr yuritimiz. “XIX asrning yirik madaniy adabiy markazlardan biriga aylangan Xiva shahrida badiiy asarlar yaratish, to‘plamlar tuzish, mutolaa qilish va targ‘ib etish ishlari kuchayib, o‘sha asr oxiridan XX asrning boshlarigacha bo‘lgan Feruz davrida yanada keng qamrovlik kasb etdi. Zero, mumtoz tazkirachilikning xuddi shu davrda yuzaga kelishi va qisqa vaqtda turli xarakterdagi tazkiralarning tuzilishi ham ana shu omillar bilan dalillanadi.” [24.:23.]. Jumladan, Ahmadjon Tabibiy, Bobojon Tarroh Xodim va Hasanmurod Laffasiyning tazkiralari shunday asarlar qatoriga kiradi.

Tabibiyning “Majmuayi si shuaroyi payravi Feruzshohiy” [23.:29.] tazkirasi Feruz tashabbusi bilan 1908-1909 yillarda yaratilgan. 29 toshbosma nusxa 1640 betdan iborat, 11-betidan Feruzning “Zihi bordur zuhuringg‘a azal birla abad paydo...” radifli g‘azali berilgan, so‘ng boshqa shoirlarning payrav g‘azallari bilan asar davom etgan. “Tazkira debocha, g‘azallarni o‘z ichiga oluvchi asosiy qism va xotimadan iborat. Asar debochasi, shoirlar haqidagi ma’lumotlar hamda asar xotimasi she’riy tarzda berilgan bo‘lib, masnaviy yo‘lida qofiyalangan. Tazkirada Feruzning 101 g‘azali va ularga bitilgan payravlar jamlangan bo‘lib, jami 3331 fazalni tashkil etadi. Barcha namunalar to‘liq berilgan” [14.: 26.].

Bobojon Tarroh Xodimning “Xorazm shoir va navozandalari” asari 1965-1967 yillar oralig‘ida yozilgan bo‘lib, unda 31 nafar saroy shoirlari haqida ma’lumotlar berilgan. Asarning birinchi qo‘lyozma nusxasi shoirning nevarasi Anbara Otamurodova qo‘lida saqlanadi. Bu asar 2011-yil nashr qilindi va uning so‘z boshisida Ismoil Bekjonov Bobojon Tarroh Xodimning “Xorazm shoir va navozandalari” asari haqida, “muallifning qiz nevarasi adabiyotshunos va keksa jurnalist Anbara Otamurodovanning shaxsiy kutubxonasida saqlanadi. Asarning matni 20x30 o‘lchamdagi ikkita daftarga joylashgan bo‘lib, arab alifbosida goh to‘taki va goh qora siyohda Xodimning o‘z qo‘li bilan yozilgan. Ayrim o‘rinlarda Xodim tuzatishlari mavjud. Bu xususda: “...o‘z xotiralarini kelgusi avlodga yozib qoldirib, Feruzshoh vujudga keltirgan adabiy muhitning asl qiyofasini abadiylashtirish va shu bahonada o‘z yuragidagi boshqa gaplarni ham aytib

qolish»ni maqsad qilgan” [6.: 4.], deb yozgan. Bu asarning yana bir nusxasini Davlatyor Rahim 1994-yil «Xorazm navozandalari” [5.: 192.] nomi bilan nashr qilgan.

Laffasiyning “Tazkirayi shuaro” tazkirasida 58 nafar shoir haqida ma’lumot, ularning ijodidan namuna she’rlar va har bir shoir uchun atab yozilgan masnaviylar keltirilgan. Hasanmurod Laffasiyning «o’zidan yodgor» qoldirgan, “farzand hukmida” bo’lgan “Tazkirayi shuaro”sida tazkira qoidalariga to’la rioya etib, adib o’z oldiga qo’ygan maqsadiga erishgan.

Tazkirani o’rganishimiz jarayonida Laffasiy tazkirasining ahamiyati, birinchi navbatda shoirlarning yaxshi g’azallari, muxammaslaridan olingan namunalar jamlanmasini taqdim etgani bo’lsa, ikkinchidan, unda shoirlarning tarjimayi hollari va g’azallaridan namunalar beribgina qolmasdan, balki ko’plab adiblar va ularning ijodi haqida o’z fikrlarini ham ifodalagan hamda ularga atab masnaviylar ham bitganligida ko’rinadi. Shu bilan birga asarda bizga hozirgacha noma’lum bo’lgan, biroq nazmda barakali ijod qilgan o’nlab shoirlar bilan ham tanishtiradi, bu esa, shubhasiz, tazkira qimmatini yanada oshiradi.

Shu jihatdan ta’kidlash lozimki, Ahmadjon Tabibiy, Bobojon Tarroh Xodim va Hasanmurod Laffasiy tazkiralari davr adabiy muhitini yoritishda qimmatli ahamiyatga ega. Laffasiy tazkisasi haqida G.Ismoilova, “shoirlar hayotiga doir voqealarga, ular fe’l-atvoriga xos bo’lgan fazilat va nuqsonlarga ko’proq to’xtalgan. Ijodkorlarning eng muhim qirralari, o’z davrida ma’lum darajada nom qozonishiga bois bo’lgan alohida qobiliyatlari haqida gapirib o’tiladi” [10.: 30.], deb yozgan.

Keltirilgan bu ma’lumotlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, uchala asar ham tazkira qoidalarini o’zida aks ettirgan. Xodim tazkisasi xotiralar asosida tuzilgani va biografik ma’lumotlardan iborat bo’lgani sababli unda namuna she’rlar keltirilmay, har bir shoirning adabiy jarayondagi o’rni qayd etilgan. Shuningdek, Tabibiy va Laffasiy tazkiralari ham “shoirlarning shaxs va ijodkor sifatidagi qiyofasini kengroq gavdalantirgan, ular haqidagi mavjud biografik

ma'lumotlarni to'ldirish hamda yangi faktlar bilan boyitishga xizmat qiladi" [24.: 16.].

Har uchala asar ham dalil va ma'lumotlar xarakteriga ko'ra muhim va o'ziga xos hamda Xorazm adabiy muhitida yashab ijod etgan shoirlar haqida ma'lumot va ularning she'rlaridan namunalar berishi bilan ahamiyatlidir. Shu jihatga ko'ra uchalasi ham tazkiradir. Zero, tazkira adabiyot tarixini, adabiy muhitni o'rganishda, shoirlar va ularning asarlarini tadqiq etishda adabiyotshunoslikda katta o'rniga ega bo'lgan janrdir.

Hozirgi kunda XIX asr oxiri XX boshlari Xorazm adabiy muhiti tarixi va adabiyoti bo'yicha qilinayotgan barcha ilmiy tadqiqotlarda bu tazkiralalar tez-tez tilga olinadi. Ayniqsa, Laffasiy tazkirasining tilga olinishi bu asarning haqiqatdan ham ushbu muhit uchun zarur va ishonchli manba ekanligini isbotlaydi.

Ahmadjon Tabibiy, Bobojon Tarroh Xodim va Hasanmurod Laffasiy buyuk shoir, tazkiranavis Alisher Navoiyni o'zlariga ustoz deb bilgan va tazkiralardan ilhomlangan holda o'z asarlarini bitganlar. Zero, "ulug' shoirning ikkinchi shoirga ko'rsatgan ta'siri u yaratgan poeziyaning boshqa shoirida ko'rinishida emas, balki uning boshqa shoirida bo'lgan, lekin harakatsiz yotgan kuchni uyg'otishi va harakatga keltirishidadir. Quyosh nuri yerga tushishi bilan quyoshdagi kuchini yerga o'zi bilan birga olib kelmaydi, balki yerdagi kuchni harakatga keltiradi. Ulug' shoirlar ta'siri ham xuddi mana shu quyosh nuri singari mavjud, lekin harakatsiz yotgan kuchlarni uyg'otib yuboradilar" [2.: 264-165.].

"Tazkirachilik tarixi ma'lum ma'noda adabiyotshunoslik tarixi hamdirki, uni o'rganmay turib, milliy adabiyot tarixini keng ko'lamda tasavvur etish va yoritish mumkin emas" [3.: 3.]. "Tazkiralarda shoirlarning hayoti va ijodi haqida muxtasar ma'lumotlar zikr etilib, ularning asarlaridan namunalar keltiriladi va umumiy baho beriladi". Ahmadjon Tabibiy, Bobojon Tarroh Xodim va Hasanmurod Laffasiy tazkiralari adabiyotga tazkira ma'lumotlari orqali nazar solish, sulolaviy ijodkorlar hamda ularning asarlari borasida ma'lum darajada tasavvur paydo qilish, adabiyotshunoslikda hali ma'lum bo'lmagan ba'zi bir ijodkorlarning nomlari bilan

tanishtirishda muhim manba bo'lib, davr adabiyotining muhim xususiyatlarini o'rganishga imkon yaratadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Аҳмедова Г. Огаҳий – адабий танқидий қарашлари: Филол. фан. номз... дис. автореферати. – Тошкент, 2011. – Б.18.
2. Белинский В. Г. Собрание сочинений, В. 3-т. Т.1. – М.: Изд-во, АН, 1948. – 164-165 с.
3. Болтабоев Ҳ. Тазкиралар зикри. – Т.: Mumtoz so'z, 2015. – 3 б.
4. Бобожон Тарроҳ Ходим. Хоразм шоир ва навозандалари. – Т.: Tafakkur qanoti, 2011. – 4 б.
5. Бобожон Тарроҳ Ходим. Хоразм навозандалари. (Давлатер Раҳим нашрга тайёрлаган). – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. – 192 б.
6. Бобожон Тарроҳ Ходим. Хоразм шоир ва навозандалари. (нашр қилувчилар: А.Отамуродова, О.Абдурахимов). – Т.: Tafakkur qanoti, 2011. – 191 б.
7. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. X-XIX асрлар. – Т.: Ўзбекистон, 1993. – 118-175-176 б.
8. Жалилов О. Ҳасанмурод Лаффасий. – Т.: Ўзбекистон, 1983. –Б. 5.9.
9. Иброҳимова Э. Хива шоир ва адабиётчиларининг таржимаи ҳоллари // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент. 1963. № 6. – 62-64 б.
10. Исмоилова Г. Чақмоқли орзулар ижодкорлари. – Т.: Истиклол нури, 2014. – 30 б.
11. Лаффасий. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т.: ЎМЭ, 2003. – 238 б.
12. Лаффасий. Тазкираи шуаро. ЎЗР ФА Шарқшунослик институти асосий қўлёзмалар фонди 12561 рақамли қўлёзма 103<sup>а,б</sup> варақ.
13. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1965. – 515 б.
14. Маткаримова С. Табибий тазкиранавис. – Т.: Мухаррир. 2011. – 26 б.

15. Матёкубова М. XIX асрнинг иккинчи ярми XX асрнинг бошларида Хива хонлигида китобат ва кутубхона тарихи: Тарих фан. номз.... диссер. – Урганч, 2008. – 50 б.
16. Mustafо E. Tazkiradan biografiyaga. Monografiya. – T.: Mumtoz so‘z, 2012. – 38 b.
17. Огаҳий. Риёз уд-давлат. ЎзР ФА Шарқшунослик институти асосий фонди 5364 рақамли қўлёзма 374<sup>а,б</sup> варақлар.
18. Огаҳий. Гулшани давлат. ЎзР ФА Шарқшунослик институти асосий фонди 7572 рақамли қўлёзма 102<sup>б</sup> варақ.
19. Салаев Ф., Қурбонниёзов Г. Адабиётшунослик атамаларининг изоҳли сўзлиги. – Т.: Янги аср авлоди, 2010. – 241 б.
20. Самандарова С. XX аср тазкиралари: Филол. фан. номз... дис. автореферати. – Тошкент, 1996. – 6 б.
21. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. Darslik 1-kitob. – T.: Tamaddun, 2019. – 281 б
22. Сулаймонова Ҳ. Абу Мансур Саолибийнинг “Канзу-л-кутуб” тазкираси ва унинг манбашунослик тадқиқи: Филол. фан. фал. док. (PhD) дис. автореф. – Тошкент, 2020. – 12 б.
23. Табибий. Мажмуаи си шуарои пайрави Ферузшоҳий. ЎзР ФА Шарқшунослик институти фонди 29 тошбосма нусха.
24. Хажиева И. Хоразм миллий – маънавий мероси дурдоналари. –Т.: Турон замин зиё, 2016. – 23 б.
25. Шайхзода М. Тазкирачилик тарихидан. (Алишер Навоий ҳақидаги тадқиқот ва мақолалар мажмуаси) Асарлар олти томлик, тўртинчи том. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1972. – 314 б.
26. Шодмонов Н. “Шоҳиду -л- иқбол” адабий материаллари таснифи. – Хоразм Маъмун Академияси ахборотномаси // – Тошкент: Маъмун Академияси, 2007. – №3. – 54-55 б.
27. Эркинов А.С., Полвонов Н. Т., Аминов Ҳ.А. Муҳаммад Раҳимхон II-Феруз кутубхонаси феҳристи. – Т.: Янги аср авлоди, 2010.

28. Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: Akadernashr, 2013. – 305 b.

29. Ҳайитметов А. Адабий меросимиз уфқлари. – Т.: Ўқитувчи, 1997. – 194 б.

30. [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/4818](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4818)

31. [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/4819](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4819)

32. [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/4836](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4836)

33. [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/2375](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/2375)

## OMON MATJON IJODIDA NAVOIY AN’ANALARI

**Rahimova Musharraf Uktamovna,**

*tayanch doktorant,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Omon Matjon ijodida Alisher Navoiy an’analarining davom ettirilishi, shoir she’riyatida mumtoz adabiyot ta’siri, xususan, Navoiy g‘azallariga yozilgan muxammaslar tahlil qilingan. Shuningdek, Omon Matjon ijodida Navoiy hikmatlarining o‘ziga xos talqini, an’anaviy obrazlar va ramzlarning yangicha ifodasi yoritilgan.

**Аннотация.** В данной статье анализируется продолжение традиций Алишера Навои в творчестве Омона Матжона, влияние классической литературы на поэзию автора, в частности мухаммасы, написанные на газели Навои. Также рассматривается своеобразная интерпретация мудрости Навои в творчестве Омона Матжона, современное выражение традиционных образов и символов.

**Abstract.** This article analyzes the continuation of Alisher Navoi’s traditions in the works of Omon Matjon, the influence of classical literature on the poet’s poetry, particularly the mukhammas written on Navoi’s ghazals. Additionally, it explores Omon Matjon’s unique interpretation of Navoi’s wisdom, and the modern expression of traditional images and symbols.

**Kalit so‘zlar:** *Omon Matjon, Alisher Navoiy, an’ana, mumtoz adabiyot,*

*muxammas, g'azal, obrazlar tizimi, ramziylik.*

**Ключевые слова:** *Омон Матжон, Алишер Навои, традиция, классическая литература, мухаммас, газель, система образов, символизм*

**Keywords:** *Omon Matjon, Alisher Navoi, tradition, classical literature, mukhammas, ghazal, system of images, symbolism.*

O'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Omon Matjon ijodida mumtoz adabiyot, xususan, hazrat Alisher Navoiy an'alarining o'ziga xos davom ettirilishi alohida ahamiyat kasb etadi. XX asrning 60-yillari oxiri va 70-yillari boshida adabiyotga kirib kelgan Omon Matjon o'z davrining Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Rauf Parfi singari zabardast shoirlari qatorida ijod qildi. Uning she'riyatida mumtoz adabiyot an'analari, xususan, Navoiy ijodining ta'siri yaqqol ko'zga tashlanadi.

Omon Matjon she'riyatining muhim xususiyatlaridan biri shundaki, u Navoiy an'alarini shunchaki davom ettirish bilan cheklanmaydi, balki ularni yangicha talqin va mazmun bilan boyitadi. Shoir Navoiy g'azallariga bog'langan muxammaslarida, an'anaviy obrazlar va ramzlarning zamonaviy talqinida o'ziga xos ijodiy yondashuvni namoyon etadi [2.: 45.].

O'zbek adabiyotshunos olimi Ozod Sharafiddinov ta'kidlaganidek, Omon Matjon ijodining ikki asosiy manbasi mavjud: xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyot. Shoir aynan shu ikki manba ta'sirida o'zining betakror she'riy olamini yaratishga muvaffaq bo'ldi. Uning she'riyatida Navoiy hikmatlarining zamonaviy talqini, mumtoz adabiyotga xos timsollar va ramzlarning yangicha ifodasi o'ziga xos o'rin egallaydi.

Omon Matjon ijodida Navoiy an'alarining davom ettirilishi quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'lganligini tadqiqot natijalarida ko'rish mumkin:

Muxammasnavislik an'anasi tahlili shuni ko'rsatdiki, Omon Matjon Navoiy g'azallariga bog'langan muxammaslarida ustoz shoir g'oyalarini zamonaviy talqinda rivojlantirgan. Jumladan, shoirning "Dilimning rangini" nomli muxammasida [4.:11.] Navoiy g'azalidagi ma'naviy-axloqiy qarashlar yangicha

talqin etilgan:

*“Dilimning rangini gul bilsa bo‘ldi,  
Mening kimligimni el bilsa bo‘ldi.  
Olis yulduzlara sirrim aytmiram,  
Nolishimni tongi yel bilsa bo‘ldi...”*

Ushbu muxammasda shoir Navoiy g‘azalidagi tasavvufiy g‘oyalarni zamonaviy ijtimoiy-falsafiy masalalar bilan uzviy bog‘lagan [1.:156.]. Ayniqsa, insonning o‘zligini anglash, ma’naviy kamolot masalalari yangicha poetik talqin etilgan.

Omon Matjon she’riyatida Navoiy asarlaridagi ramziy obrazlar yangicha mazmun kasb etgan. Masalan, gul, bulbul, may kabi an’anaviy ramzlar zamonaviy ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-axloqiy masalalarni yoritishda badiiy vosita sifatida qo‘llanilgan [3.: 78.].

Shoir “Haqqush qichqirig‘i” dostonida Navoiy hikmatlarini zamonaviy mavzularga mohirona tatbiq etgan. Bu asarda xalq og‘zaki ijodi an‘analari bilan Navoiy falsafasi uyg‘unlashtirilgan [9.: 145.]. Dostonda qo‘llanilgan afsonalar syujeti orqali Navoiy ilgari surgan ezgulik, adolat, insonparvarlik g‘oyalari zamonaviy talqinda ifodalangan.

Janrlar sintezi masalasiga kelsak, Omon Matjon an’anaviy janrlarni zamonaviy she’riy shakllar bilan uyg‘unlashtirish orqali o‘ziga xos uslubni yaratgan [7.: 123.]. Masalan, uning “Ming bir yog‘du” to‘plamidagi she’rlarda mumtoz she’riy shakllar zamonaviy erkin she’r unsurlari bilan omuxta qilingan.

Omon Matjon ijodida Navoiy an‘analarining qo‘llanilishi quyidagi xususiyatlarga ega:

- Ramziy-majoziy ma’nolar yangicha talqin etilgan;
- Mumtoz obrazlar zamonaviy g‘oyalarni ifodalashga xizmat qilgan;
- An’anaviy janrlar yangi mazmun bilan boyitilgan;
- Navoiy hikmatlarining zamonaviy talqini yaratilgan.

Omon Matjon she’riyatida Navoiy an‘analarining davom ettirilishi masalasi adabiyotshunoslikda turlicha baholangan. Ayrim tadqiqotchilar [8.: 87.] shoirning muxammasnavislik mahoratini alohida ta’kidlagan bo‘lsa, boshqalar [2.: 45.]

uning an'anaviy obrazlarni yangilash mahoratiga e'tibor qaratgan.

Omon Matjon ijodida Navoiy an'analari shunchaki taqlid emas, balki ijodiy rivojlantirish xarakteriga ega. Shoir mumtoz adabiyot an'alarini zamonaviy she'riyat talablari asosida qayta ishlagan va yangicha poetik tafakkur bilan boyitgan.

Shoirning "Ardaxiva" to'plamidagi she'rlarida Navoiy hikmatlarining zamonaviy talqini yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu to'plamdagi she'rlarda insonning ma'naviy kamoloti, axloqiy poklanish, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash kabi mavzular Navoiy falsafasi asosida yangicha talqin etilgan. Ayniqsa, shoir ijtimoiy-falsafiy mavzudagi she'rlarida Navoiy g'oyalarini zamonaviy muammolar kontekstida mohirona talqin eta olgan. [6.: 504.]

*Ey ko'ngil rozi dil aytmag'il,  
Qaydaki so'zingning qadri yo'q, qadri yo'q.  
Bemaqsud kimsalar misli el,  
Shosharlar mazgilsiz, sabri yo'q, sabri yo'q.  
Sabr asl jon topdi iymondan,  
Farq etdi odamni hayvondan.  
Kimda til, lafzu vajh beqaror,  
Mehrobu, qiblavu dardi yo'q, dardi yo'q.*

Bilamizki, Omon Matjonning o'zbek adabiyotida muhim o'rin tutadigan asarlaridan biri "Qush yo'li" dostonidir. Shoir bu asar orqali Alisher Navoiy ijodiga va tasavvufiy an'alariga nisbatan o'z ehtiromini ko'rsatgan. Shu bilan birga, u Navoiy uslubida zamonaviy ruhni qo'shib, insonning ichki olami, uning ma'naviy sayohati va yuqori maqsadlarga intilishi haqida chuqur mulohazalar keltiradi. [6.: 360-416.]

*...Derlar, har odamga yulduzi yordir,  
Deyman, uning o'z xos qushi ham bordir.  
...Inson! o'z bo'yningda – Taqdir shodasi,  
O'z Toile qushingning sha'n ifodasi!*

Bundan tashqari, adibning "Tun afsonasi", "Ishq va Rashk", "Muallaq

to‘rg‘ay” kabi asarlarida Navoiy dostonlariga xos syujet elementlari, obrazlar tizimi va badiiy tasvir vositalari yangicha mazmun bilan boyitilgan. Bu asarlarda shoir Navoiy dostonlaridagi an‘anaviy motivlarni zamonaviy mavzular bilan ustalik bilan uyg‘unlashtirgan.

Shoirning badiiy mahorati, ayniqsa, ramziy obrazlarni qayta ishlashda yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, Navoiy ijodida keng qo‘llanilgan bulbul obrazi Omon Matjon she‘riyatida yangicha ma‘no-mazmun kasb etadi. Bulbul endi nafaqat oshiq ramzi, balki erkinlik, ozodlik va ma‘naviy poklanish timsoli sifatida ham talqin etiladi.

Ijodkor she‘riyatida tasavvufiy motivlar ham o‘ziga xos talqin etilgan. U Navoiy ijodidagi tasavvufiy g‘oyalarni zamonaviy dunyoqarash bilan uyg‘unlashtirgan. Masalan, “fano” va “baqo” tushunchalari shoirning falsafiy she‘rlarida yangicha ma‘no kasb etadi – ular inson ma‘naviy kamolotining zamonaviy talqini sifatida namoyon bo‘ladi.

Omon Matjon ijodida Navoiy an‘analari nafaqat davom ettirildi, balki yangicha talqin va mazmun kasb etib, zamonaviy o‘zbek she‘riyatining rivojiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. Shoir mumtoz adabiyot an‘analarini zamonaviy ruh bilan uyg‘unlashtirish orqali o‘ziga xos she‘riy uslubni shakllantirdi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Omon Matjon ijodida Navoiy an‘analarining davom ettirilishi, birinchidan, shoir Navoiy g‘azallariga bog‘lagan muxammaslarida ustoz shoirning g‘oyalarini zamonaviy talqinda rivojlantirdi; ikkinchidan, mumtoz adabiyotga xos an‘anaviy obrazlar va ramzlarni yangi ma‘no-mazmun bilan boyitdi; uchinchidan, Navoiy hikmatlarini zamonaviy mavzularga mohirona tatbiq etdi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Karimov B. O‘zbek adabiyotida Navoiy an‘analari. –Toshkent: Fan, 2017.
2. Qodirov P. Omon Matjon she‘riyati. –Toshkent: Adabiyot, 2018
3. Qosimov Y. Mumtoz adabiyot an‘analari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
4. Matjon O. Ming bir yog‘du. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 1989.

5. Matjon O. Ardaxiva. – Toshkent: Sharq, 2000.
6. Matjon O. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Adabiyot, 2023.
7. Rahimjonov N. XX asr o‘zbek she’riyati. – Toshkent: Fan, 2016.
8. Yo‘ldoshev Q. Adabiy aloqalar tarixi. – Toshkent: Universitet, 2019.
9. Sultonov I. Navoiy va zamonaviy she’riyat. – Toshkent: Akademnashr, 2018.

## **XORAZMDA TARIXNAVISLIK: OGAHIIY – BUYUK TARIXNAVIS**

**Atadjanova Saodat Atadjanovna,**

*tayanch doktorant,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Xorazm muarrixlik maktabining yetakchi namoyondalari xizmatlari va Muhammad Rizo Ogahiyning bu boradagi izlanishlari yoritiladi.

**Аннотация.** В статье освещаются достижения ведущих представителей хорезмийской исторической школы и исследования Мухаммада Ризы Агахи в этой области.

**Abstract.** This article highlights the achievements of leading representatives of the Khorezm school of history and the research of Muhammad Riza Agahi in this area.

**Kalit so‘zlar:** *Ogahiy, tarixnavis, Munis, Bayoniy, Quvomiddin Munirov, V.V.Bartold.*

**Ключевые слова:** *Огахий, историк, Мунис, Байоний, Кувомиддин Муниров, В.В. Бартольд.*

**Key words:** *Ogahiy, historian, Munis, Bayoniy, Quvomiddin Munirov, V.V. Bartold .*

Xorazm zaminida azaldan o‘tmish voqealarini mangukka daxldor qilib, darj qilib borish an’ana tusini olgan. Abulg‘ozi Bahodirxon boshlab bergan Xorazm muarrixlik maktabi keyinchalik Munis, Ogahiy va Bayoniylar tomonidan yuksak cho‘qqiga ko‘tarildi. Bu maktab vakillari tomonidan yaratilgan tarixiy asarlarning

voqealar ko‘lami, manbalarning ishonarliligi va ko‘pligi jihatidan boshqa xonlik tarixnavislik maktablaridan ustun turishini mashhur rus olimi V.V.Bartold haqli tarzda e‘tirof qilib o‘tgan [1.].

Muarrixlik san‘ati O‘rta Osiyo hududida qadimdan davom etib kelgani tarixdan ma‘lumdir. Xususan, Xorazm zaminida Abulg‘oziy Bahodirxon tomonidan muvaffaqiyatli boshlab berilgan tarixnavislik keyingi bosqichlarda yanada yuksak cho‘qqilarga chiqdi. Bu hol, ayniqsa, XVIII asrning oxirgi choragi va XIX asr Xorazm tarixnavisligida alohida o‘rinni egallagan. Chunki bu davrda atoqli tarixnavis olim va shoir, davlat arbobi, o‘zining butun faoliyati bilan Xorazmda madaniy yuksalishga homiylik qilgan Shermuhammad Munis ibn Amir Avazbiy mirob va uning jiyani Muhammad Rizo Ogahiy ibn Erniyozbeklar qalam tebratdilar hamda qator tarixiy-badiiy asarlar ijod etdilar.

Xorazm tarixini qadim zamonlardan to 1825-yilgacha bayon etuvchi “Firdavsul-iqbol” asari ham ana shu ikki buyuk muarrix tomonidan tartib berilgan. Shermuhammad Munis iste‘dodli shoir, mohir tarjimon, tarixnavis va davlat arbobi bo‘lgan. U mashhur Sharq tarixchilaridan hisoblangan Muhammad Mirxondning “Ravzat-us-safo” asarini fors tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilishga kirishib, 1-jildini va 2-jildining birinchi yarmini tugallashga ulguradi, xolos. Keyinchalik bu xayrli ishni Ogahiy va boshqa ijodkorlar davom ettiradilar.

O‘rta Osiyo va Xorazm tarixining bebaho asari hisoblangan “Firdavsul-iqbol” jahonning mashhur olimlari tomonidan juda yuqori baholangan. Bu asarning yaratilish tarixi haqida Ogahiy ba‘zi ma‘lumotlarni yozib qoldirgan. Jumladan, Eltuzarxon Munisni huzuriga chorlab, unga Xorazm tarixini yozishni topshiradi. Munis o‘z asarini Sherg‘ozixon davrigacha yozib yetkazganda Eltuzarxon vafot etadi. Undan so‘ng davlat tepasiga uning birodari Muhammad Rahimxon I keladi. Muhammad Rahimxon I Munisga o‘z asarini davom ettirishni buyuradi. Munis asarni davom ettirarkan, Muhammad Rahimxon I hukmronligining yettinchi yilida sodir bo‘lgan voqealarni yozib tamomlaganda, xon Munisga Mirxondning mashhur “Ravzatu-s-safo” nomli tarixiy asarini o‘zbek tiliga tarjima qilishni buyuradi. Munis bu asarning birinchi jildini o‘zbek tiliga

tarjima qilib, ikkinchisini davom ettirayotganda Muhammad Rahimxon I vafot etadi. Muhammad Rahimxonning o‘rniga o‘g‘li Olloqulixon o‘tiradi. U ham Munisga mazkur asarni tarjima qilishni buyuradi. Biroq Munis 2-kitobni oxiriga yetkaza olmay, 1244/1829- yili vafot etadi. Olloqulixon taxtga o‘tirgandan so‘ng u 1255/1839-1840-yili Munisning shogirdi va uning tarbiyasini olgan amakivachchasi Muhammad Rizo Ogahiyini chaqirib, 1813- yil voqealarini bayon etish bilan uzilib qolgan “Firdavsul-iqbol” asarini davom ettirishni buyuradi. Ogahiy 1813-yildan boshlab Xorazmda sodir bo‘lgan voqealarni yozishga kirishadi. Bu haqda u shunday yozadi: *“Bu bandayi bebizoat, Muhammad Rizo mirob, al-mutaxallis bil-Ogahiy ibn Erniyozbek birodarzodai va dastparvardai Munis mirobkim, Olloqulixon bu nusxai parishon avroqkim, tarkibidin ko‘ngul mutahayyirdur, jam’ qilib, itmomg‘a yetkurmakni buyurib, bu amrg‘a ixtisos topdim. Bo‘ysunib, qulluq qilmoqdin o‘zga chora topmadim. Ma‘lumi xotiri ashrof bo‘lsinkim, Muhammad Rahimxonning julusi humoyunining sakkizinchi yilidan to hangomayi vafotig‘acha vuqu’ topg‘on barcha futuhot va voqeotdin ba‘zining tajassus bila nusxasi topilib va ba‘zini taraddud bila noqillar tilidan eshitib, ijmol tariqasi bila raqam silkiga chekilgusidur”*[1.: 12.].

Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, Muhammad Rahimxon I hukmronligining sakkizinchi yilidan (1228/1813) keyingi davrda sodir bo‘lgan voqealar Ogahiy tarafidan yozilganligi aniqlanadi. Buni Bayoniy ham o‘zining “Shajarayi Xorazmshohiy” asarining muqaddimasida qayd qiladi.

Ogahiy tarixiy-badiiy asarlari badiiyati bo‘yicha tadqiqot olib borayotgan I.Ismailovning muarrixlik faoliyati haqida shunday fikr bildiradi: *“Muarrixlik salohiyati o‘z-o‘zidan shakllanadigan jarayon emas. Bu kasb har bir tarixnavisdan kuchli bilim, teran mushohada, har bir jarayonni belgilashda xolislik, yondosh tillarni bilish, voqealardan to‘g‘ri va aniq xulosa chiqarish, nutqni eshitimli, kitobxonni zeriktirib qo‘ymaydigan darajada bayon qilish kabi qator malakalarni talab qiladi. Ana shunday malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan muarrixgina tarixiy voqealarni yozib qoldirishda o‘z muhrini qoldira oladi”* [2.: 14.].

Xorazm tarixnavislik maktabi haqida atoqli olim Quvomiddin Munirov maxsus tadqiqotlar olib borgan [3.: 18.]. “Xorazmda tarixnavislik” asari Xorazmda yaratilgan tarixiy asarlar haqida to‘liq ma’lumot bera olishi bilan muhimdir. Muallif bu asarlarning yaratilish va o‘rganilish tarixi, qo‘lyozma nusxalarining saqlanish manbalari haqida batafsil ma’lumotlar bergan bo‘lsa-da, muarrixlik mahorati haqida to‘xtalib o‘tmagan.

Bu borada filologiya fanlari doktori, professor Nusratullo Jumaxo‘janing fikrlari ahamiyat kasb etadi. Xorazm tarixini yozib qoldirgan Abulg‘ozi Bahodirxon, Munis, Ogahiy va Bayoniy asarlarining bir-biridan uslub jihatidan farqlanishini olim juda to‘g‘ri ta’kidlab o‘tgan [3.: 24.].

Haqiqatan ham, har bir muarrix o‘ziga xos uslubga ega. Abulg‘ozi Bahodirxon – voqealarni sodda, sof turkiy tilda bayon qiladi; Munis – ko‘pincha arabcha so‘zlarga, izofali birikmalarga murojaat qilib, fikrining ilmiy va diniy tasdig‘i sifatida Qur‘on oyatlaridan yoki hadisi shariflardan namunalar keltiradi; Ogahiy – nisbatan arabiy izofalardan chekinib, sof turkiy so‘zlarni qo‘llashga e’tibor qaratadi, voqea tafsilotlarini mayda detallargacha batafsil bayon qiladi; Bayoniy – voqealarning yorqin nasriy bayoni, ya’ni ravshanbayonligi bilan ajralib turadi.

Yuqorida nomi tilga olingan muarrixlar bir zaminda, bir muhitda ijod qilgani bilan, ko‘rib o‘tganimizdek, uslub jihatidan betakrordirlar. Abulg‘ozi Bahodirxondan farqli ravishda Munis, Ogahiy va Bayoniylar muarrixlikni kasb qilib olganlar, shuning uchun ham kasb etiketi doirasida, an’anaviy tarixnavislik andozasi doirasida faoliyat ko‘rsatganlar [3.: 26.].

O‘zbek adabiyotshunosligida Shermuhammad Munis va Muhammad Rizo Ogahiy tarixiy asarlari adabiy turi va janri masalasiga oid bir necha qarashlar mavjud. Hatto ularni tarixiy asar emas, tarix asari, ya’ni tarix bayon qilingan asar deb nomlash to‘g‘ri bo‘ladi (S.Ashirboyev), degan fikrlar o‘rtaga tashlanmoqda. Mulohazalarning hech biri Ogahiy (“Firdavs ul-iqbol”ning katta qismi Munisga tegishli ekani ma’lumligi bois alohida ta’kidga hojat yo‘q) qalamiga mansub asarlarga beriladigan baho, olingan va olinadigan xulosa, ma’lumot va

hokazolarga hech qanday ta'siri yo'q bo'lgani sababli bir qadar besamardek tuyulsa ham, ilmiy haqiqat nuqtayi nazaridan masalaga oydinlik kiritish zarurati bor. Shuning uchun prof. N.Shodmonov "Shohidu-l-iqbol"ga yozgan so'zboshining katta qismini asar adabiy turi va janri masalasiga bag'ishlab, bu borada bildirilgan fikrlarni umumlashtirilib tahlil qilgan [3.: 35.]. Muallif tomonidan bildirilgan mulohazalar, chiqarilgan xulosalar Ogahiyning barcha tarixiy asarlariga tegishli, deb hisoblash to'g'ri bo'ladi.

Ta'kidlab o'tganimizdek, Ogahiyning muarrixlik mahorati boshqalardan uslub jihatidan farq qiladi. Bu, asosan, quyidagilarda ko'rinadi:

1. Ogahiy, birinchi navbatda, lirik shoir hisoblanadi. Bu hol esa uning voqealar bayonida vaziyatga qarab nazmiy parchalarni ilova qilib ketishiga sabab bo'lgan. Maqsad – o'quvchi kitobxon asar mutolaasida bir xillikdan zerikib qolmasligi, voqealarning, ayniqsa, jang lavhalari, ov jarayoni, ma'muriy va obodonchilik ishlari bayonining yanada ta'sirchanligini oshirishdir;

2. Ogahiy islom ma'naviyatini teran anglagan ijodkor sifatida ustoz Munis kabi voqealar bayonida Qur'on oyatlari, hadisi sharif va diniy hikmatlarga ko'plab murojaat qilgan. Iqtibos san'atidan mohirona foydalish, har bir oyatning tub mazmunini anglash muarrixdan katta mas'uliyat talab qiladi. Bu borada Ogahiy o'z maqsadiga to'la erisha olgan;

3. Voqealar bayonida oddiy detallarning, hodisalarning ham o'z o'rniga e'tibor qaratish Ogahiyning ziyrak kuzatuvchanligidan darak beradi;

4. Xolislik – bu har bir muarrixning kasbiga sodiqligi bilan belgilanadi. Ogahiy tarixiy voqealarning xolis kuzatuvchisi sifatida o'z fikrini mustaqil bayon qila olgan. Hukmdorga xush keluvchi maddohlik bayonidan chekinib, u qilgan ishlarni ro'y-rost qayd qiladi. Bu hol ko'pincha qo'shni davlatlarga qilingan yurishlar, besabab qon to'kilishlar, beayov qirg'in tafsilotida kuzatiladi.

Tarixni o'rganmoqdan murod – saboq. Hazrat Navoiy ta'biri bilan aytganda, "*Ne ishdin mamlakat obod, qay-u ishdin ulus barbod bo'lgan*"ini tafakkur ko'zgisida ko'rib, ibrat olingandagina bu murod hosil bo'ladi. Ogahiyning barcha tarixiy asarlarining ahamiyati bu jihatdan ham katta. Ijodkor asarlaridagi aksar

fikrlar Qur'oni karim oyatlari va payg'ambar alayhissalom hadisleri bilan dalillangan. Iymonsizlik, fosiqlik, e'tiqodsizlikning oqibati xorlik ekani tarixiy voqelikning badiiy talqini orqali aks ettirilgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана // Сочинения. – Т. II. – Москва, 1963. – 1020 с.
2. Исмаилов И.О., Сапаева Г. Огахийнинг муаррихлик маҳорати. // – Илм сарчашмалари. –№5, Урганч, 2012. – 60 б.
3. Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2002. 191 б.
4. “Фирдавс ул-иқбол”. Нашрга тайёрловчилар: Н.Жумахўжа, С.Рўзимбоев, А.Аҳмедов. – Тошкент: Ўқитувчи, 2010. – 384 б. 5. Munis va Ogahiy. Firdavs ul- iqbol. – Т. 2010. – 467 б.

## **4-SHO‘BA: O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGI: TALQIN VA** **TAHLIL MUAMMOLARI**

### **BABÜRLÜ KUZEY HİNDİSTANINDA ALİ ŞİR NEVÂYİ TESİRİ**

Prof. Dr. Abdurrahman GÜZEL

Prof. Dr. Ali Fuat BİLKAN

Tarih boyunca Türk devletlerinin akınlarıyla ilgi odağı haline gelen Hindistan, bilhassa **Gazneliler, Timurlular ve Babürlüler** tarafından **Kuzey Hindistan**'a yapılan seferler sonucunda, yoğun bir Türk nüfusa sahip olmuştur. Gazneli Mahmud'un seferleri sırasında, Türk nüfusun yerleştiği Kuzey Hindistan'daki **Muradâbâd, Sambhal ve Rampur** gibi bölgelerde bugün bile soyadı **Türkî** olan pekçok aileye rastlanır. **Gaznelilerden sonra Timur'un Kabil, Pencap, Sind ve Delhi** gibi bölgelere düzenlediği seferlerde de buraya önemli bir Türk nüfusun yerleştiği bilinmektedir. Nitekim **Kuzey Hindistan**'da 13. yüzyıldan itibaren hüküm süren **Kutbîler** (1206-1266), **Balabanlar** (1266-1290), **Kalaç Sultanlığı** (1290-1320), **Tuğluklular** (1320-1414), **Seyyidîler** (1414-1451) ve **Lodîler** (1451-1526) gibi sultanlıklar, daha önce buraya yerleşen Türk nüfusun gücünden yararlanarak hakimiyet sağlayabilmiştir. **Babür'ün 1526'da Lûdîler'i** yenmesi ve **Kuzey Hindistan fethi**, diğer seferlerden farklı olarak bu bölgede kalıcı bir hâkimiyetin başlaması anlamına gelmektedir.

**Babür'ün bura beş yıla** yakın bir süre hükümdarlık tahtına oturduğu dönemlerde, *Farsça, Hintçe'nin yanında* bu coğrafyada **Türkçe**'ye verdiği önem, **sarayda Türkçe** konuşulmasını ve **Türkçe'nin şiir dili** olarak gelişmesini sağlamıştır. Bu yönüyle **Çağatay Türkçesi, Kuzey Hindistan'da Timurlu edebî geleneğinin devam ettiği "yeni bir saha"**<sup>5</sup> kazanmakla, aynı zamanda kültürel hâkimiyet sembolünü de temsil etmektedir.

---

<sup>5</sup> Ord. Prof. M. Fuad Köprülü, Edebiyat Araştırmaları, C.2, Ötüken Yay., İstanbul, 1989, s. 165.

Babür'ün, eserlerini Çağatay Türkçesi'yle kaleme alması ve daha önemlisi oğlu **Kâm râ n Mirzâ**<sup>6</sup> ile emirlerinden **Hoca Kâlân ile Mirzâ İbrahim Cânı** gibi aristokratların **Çağatay Türkçesiyle** şiirler yazmaları ve divan tertip etmeleri, Timurlu sanat ve edebiyat geleneğinin bu bölgede devam ettiğini göstermektedir. Bu süreçte, **Bedahşan hükümdarı Ebû Sa'îd**'in torunlarından *Şah Mirzâ ve oğlu İbrahim Mirzâ, Sind hükümdarı Sultan Hüseyin Argun, Bayram Hân, Abdürrahîm Hân, Kelb-i Alî Beg, Bahârlu Hemedanlı Siyânî, Derviş Mislî, Mîr Yûnus Muhammed Han* gibi bey, yönetici ve askerlerin **Türkçe** şiir yazmış olması, **Çağatayca şiirin Babür**'den sonra da ilgi gördüğünü ortaya koymaktadır.

Bilindiği gibi, **Gazneliler ve Dehli Türk Sultanlıkları** döneminde, resmî dil olarak kullanılan Farsça, aynı zamanda kültür ve sanat alanında da öne çıkmıştır.<sup>7</sup> Fars edebiyatının “altın çağı” olarak kabul edilen bu dönemde Farsça, Gazneli hükümdarlarının ve saray çevresinin himayesiyle geniş bir alana yayılmıştır. Gazne'den Lahor'a<sup>8</sup> ve Kuzey Hindistan'a kadar geniş bir bölgede etkili olan Farsça, 13. yüzyıldan itibaren Delhi Türk Sultanlıkları'nın himayesinde gelişmiştir.<sup>9</sup>

Bâbür'ün Kuzey Hindistan'ı fethinden sonra, Timurlu sanat geleneğinin bu bölgeye taşınması, Farsça'nın hâkimiyetine rağmen **Çağatay Türkçesine** yeni bir alan açmıştır. **M. Fuad Köprülü**, bu süreci klâsik dönemin devamı olarak değerlendirir:

*“XV. asrın ikinci yarısında Nevâyî ile başlayan devre, artık klâsik Çağatay devridir. XVI. asırda Bâbur ve çocukları zamanında Hind saraylarında yüksek aristokrasi edebiyatı şeklinde devam eden ve Şeybanîler devrinde Türkistan'da*

<sup>6</sup> Mahfuzul Haq (ed), *Divân-ı Kâm râ n*, A'zamgarh, 1929; Ali Alparslan-Kemal Eraslan, “Kâm râ n Mirzâ'nın Divânı I, TDED, c. XXIII, İstanbul, 1981, s. 37-137.

<sup>7</sup> Sunil Sharma, *Persian Poetry at the Indian Frontier*, Permanent Black, Delhi, 2000, s. 39.

Bu dönemde ilk kez Gazneli Mahmud tarafından oluşturulan Melikü's-Şu'arâ makamına şair Unsûrî seçilmiştir. (Sharma, age., s. 40).

<sup>8</sup> Gazneli hükümdarı Sultan Mes'ûd döneminde, Hindistan doğumlu olup Lahor'da ilk Farsça şiir yazan sanatçının Ebu Abdullah Nukâtî olduğu bilinmektedir. Aynı dönemde, Lahor'da doğan Mes'ûd-i Sa'd-i Salmân (öl.1121-22) da Hindistan'da ilk Farsça eser kaleme alan sanatçılardandır. (Jan Marek, “*Persian Literature in India*”, Jan Rypka, *History of Iranian Literature*, edited by. Karl Jahn, D. Reidel Publishing Comp., Dordrecht, 1968, s. 714). Mes'ûd-i Sa'd-i Salmân hakkında daha fazla bilgi için bkz.: Sunil Sharma, *Persian Poetry at the Indian Frontier*, Permanent Black, Delhi, 2000.

<sup>9</sup> Muzaffar Alam, *The Languages of Political Islam, India 1200-1800*, Hust&Company, London, 2004, s. 116-117.

tekâmülünü takip eyleyen **Çağatay edebiyatı** için, XVI. asır, klâsik devrin devamı asrıdır.”<sup>10</sup>

Hindistan’daki kütüphanelerde yaptığımız araştırmada tespit ettiğimiz Nevâyî yazmaları, bu bölgede Çağatay Türkçesiyle birlikte, **Alî Şîr Nevâyî** etkisini de göstermektedir.<sup>11</sup>

Hindistan kütüphanelerindeki **Türkçe Divânlar** arasında *Hâfız Harezmi Divânı*<sup>12</sup>, *Hüveydâ Divânı*<sup>13</sup>, *Semînî Divânı*<sup>14</sup> ve *Ubeydî Divânı*<sup>15</sup> gibi **Çağatay şairlerinin** eserlerinin yer alması, bu bölgedeki şiir geleneğinin mahiyetini de yansıtmaktadır. Bu şairlere, Osmanlı tezkirelerinin “*Nevâyî üslubuna yakın*”<sup>16</sup> olarak tanımladıkları **Fuzûlî**’yi de katmak gerekir.<sup>17</sup>

**Babürlü Devleti**’nin kurucusu **Babür Şah** ile saray elitlerinin **Çağatay Türkçesiyle** şiir yazmaları, Farsça’nın kültürel hâkimiyetindeki Kuzey Hindistan’da Türkçe’nin şiir dili olarak gelişmesine zemin hazırlamıştır.

Çağatay Türkçesiyle bir Divân<sup>18</sup> tertip eden **Babür**’ün üslubu, **Alî Şîr Nevâyî**’nin temsil ettiği klasik şiirin genel özelliklerini yansıtır. İki şair arasındaki üslup benzerliğine bazı örnekler verelim:

<sup>10</sup> Köprülü, Edebiyat Araştırmaları, c.2, s. 83.

<sup>11</sup> Kuzey Hindistan’da Türkçe şiirin Ali Şîr Nevâyî etkisinde gelişmesi, bu bölgedeki kütüphanelerde yer alan Nevâyî yazmalarından da anlaşılmaktadır. (Bkz. **Divân-ı Ali Şîr Nevâyî**, Salarceng Museum, Haydarâbâd, nu: 4473, L.T. 22; National Library, Kalküta, nu: 946; Asiatic Society, Kalküta, nu: 136; National Library, Kalküta, nu: 929; Salarceng Museum, Haydarâbâd, nu: 4474, L.T. 23; Oriental Manuscripts Library, Haydarâbâd, nu: 182; Oriental Manuscripts Library, Haydarâbâd, nu: 99; Hudâbahş Library, Patna, nu: 6; Osmania University, Haydarâbâd, nu: 1273; **Mahbûbü’l-Kulûb**, Kalküta, 941. Bu eserler arasında Ali Şîr Nevâyî adına kaydedilmiş “**Yusûf u Züleyhâ**” (Salarceng Museum, Haydarâbâd, nu: L.T. 6) yazmasının yer alması, oldukça önemlidir. Zira, bazı kaynaklarda Nevâyî’nin böyle bir eseri zikredilmekle birlikte, bu eserin başka bir nüshasına raslanmamıştır.

<sup>12</sup> Divân-ı Hâfız Harezmi, Salarceng Museum, Haydarâbâd, nu: 4472, L.T. 7.

<sup>13</sup> Divân-ı Hüveydâ, Asiatic Society, Kalküta, nu: 135.

<sup>14</sup> Divân-ı Semînî, Hudâbahş Library, Patna, nu: 23.

<sup>15</sup> Divân-ı ‘Ubeydî, Raza Library, Rampur, nu. 107. Bu eserin zahriyyesinde, “*Akvâl-i Manzûme-i ‘Ubeydî*” ifadesi yer almaktadır. Bu nâdir eserde, Şeybânilerin dördüncü hükümdarı Ubeydullah Hân (öl.1539)’ın Hoca Ahmed Yesevî etkisinde kaleme almış olduğu 14 hikmet yer almaktadır.

<sup>16</sup> Latîfi Tezkiresi’nde Fuzûlî hakkında yer alan “*Nevâyî tarzına karîb bir tarz-ı dil-firibi ve üslûb-ı ‘acibi vardur*” ifadesi, Nevâyî’nin geniş bir coğrafyada etkili olduğunu göstermektedir. (Latîfi, Tezkiretü’ş-şu’arâ ve Tabsiratü’n-Nuzamâ (İnceleme-Metin), haz. Rıdvan Canım, AKM Yayınları, Ankara, 2000, s. 523).

<sup>17</sup> Hindistan kütüphanelerinde yer alan Fuzûlî’nin eserleri, bu görüşümüzü destekler mahiyettedir: Külliyyât-ı Fuzûlî, Salarceng Museum, Haydarâbâd, nu: L.T. 26; Divân-ı Fuzûlî, Oriental Manuscripts Library and Research Institute, Bombay, nu: R.VII-47; Divân-ı Fuzûlî, Raza Library, Rampur, nu: 157; Divân-ı Fuzûlî, Raza Library, Rampur, nu: 15; Divân-ı Fuzûlî, Raza Library, nu: 16; Divân-ı Fuzûlî, Oriental Manuscripts Library, Haydarâbâd, nu: 1571; Divân-ı Fuzûlî, Lucknow University Library, Lucknow, nu: F 98 D; Arz-daşt-ı Fuzûlî, Hudâbahş Library, Patna, nu: 2310; Hadîkatü’s-Sü’edâ, Asiatic Society, Kalküta, nu: 134; Leylî ü Mecnûn, Oriental Manuscripts Library, Haydarâbâd, nu: 1927; Hadîkatü’s-Süedâ, Salarceng Museum, Haydarâbâd, nu: 20; Zâhid ü Rind, Salarceng Museum, Haydarâbâd, nu: L.T.27.

<sup>18</sup> Bâbürlü Divânı’nın Hindistan kütüphanelerinde üç yazma nüshasını tespit ettik: Divân-ı Bâbürlü (Risâle-i Vâlidîyye Tercümesi), Raza Library, Rampur, nu: 19; Divân-ı Bâbürlü, Salarceng Museum, Haydarâbâd, nu: 4478, L.T. 4; Divân-ı Bâbürlü, Salarceng Museum, Haydarâbâd, nu: 4479, L.T. 18.

Eserin tenkitli neşri hakkında bkz.: Bilâl Yücel, Bâbürlü Divânı, Gramer-Metin-Sözlük-Tıpkıbasım, AKM Yay., Ankara, 1995. (*Divân’da, 119 gazel, 18 mesnevi, 210 rubâ’î, 57 mu’ammâ, 19 kıt’a, 15 tuyuğ, 79 matla’, 7 masnû’ şiir, 16 nâ-tamam gazel, 3*

<p><b>Nevâyî:</b>  <i>Kim ki 'âşık bolsa zâr u hasta-hâl  olmak kirek</i>  <i>Reşkdin 'âlem iliğe bed-hayâl olmak  kirek</i></p>	<p><b>Babür:</b>  <i>Yâr yüzümni körüp derd ü gamım  bilse kirek</i>  <i>Yüz körüp derd ü gamım çâresini kılrsa  kirek<sup>22</sup></i></p>
<p><b>Nevâyî:</b>  <i>Cevr-i zulmüng gerçi ölmeklik  nişânıdur manga</i>  <i>Çünkü sindindür hayât-ı câvidânîdür  manga</i>    <i>Ol perî-veş 'ışkıdın nâsîh mini men'  itme kim</i>  <i>Tilbelik vakti vü 'âşıklığ zamnânıdur  manga<sup>19</sup></i></p>	<p><b>Babür:</b>  <i>Kiltürse yüz belânı uşal bî-vefâ  manga</i>    <i>Kilsün eger yüzümni ivürsem belâ  manga</i>    .....  <i>Bigâne bolsa 'akl min-i tilbedin ni  tang</i>    <i>Çün boldı ol perî-sıfatım âşinâ  manga<sup>23</sup></i></p>
<p><b>Nevâyî:</b>  <i>Hatting içre leb-i handan körünür</i>  <i>Hızr ile çeşme-i hayvân körünür</i>    .....  <i>Lâf-ı zühd urma Nevâyî her dem  Ki anıng ekseri yalğan körünür<sup>20</sup></i></p>	<p><b>Babür:</b>  <i>Yüzide ol bel-i handân körünür</i>  <i>Sütke köp baksa belî kan körünür</i>    .....  <i>Serv boyluk sanemin giy Bâbür  Râst aytay sözi yalğan körünür<sup>24</sup></i></p>
<p><b>Nevâyî</b>  <i>Ol ay ki mihr ile 'âlemni muhterem</i></p>	

nazm, 16 musarra' beyit, 5 müfred, 4 mensur metin ile birlikte, Farsça yazılmış 2 gazel, 12 rubâ'î, 8 kit'a, 17 matla', 1 mensur bulunmaktadır.)

<sup>19</sup> Agâh Sırı Levend, Ali Şir Nevaî, II. Cilt, s.37.

<sup>20</sup> Agâh Sırı Levend, Ali Şir Nevaî, II. Cilt, s.164.

<sup>22</sup> Bilâl Yücel, Bâbür Divânı, s. 122.

<sup>23</sup> Bilâl Yücel, Bâbür Divânı, s. 130.

<sup>24</sup> Bilâl Yücel, Bâbür Divânı, s. 157.

<p><i>kıldı</i></p> <p><i>Bu tilbege nidin âyâ nazarnı kem</i></p> <p><i>kıldı<sup>21</sup></i></p>	<p><b>Babür:</b></p> <p><i>Zühd kitti ise kerem kıldı</i></p> <p><i>‘İşk kildi vü muhterem kıldı</i></p> <p>.....</p> <p><i>Kaşı yalar cefâsıdın bu çerh</i></p> <p><i>Mining atınga ok rakam kıldı<sup>25</sup></i></p>
---	--

Onun, Türk edebiyatının önemli otobiyografik eserlerinden olan *Vakâyi’ (Babürnâme)* adlı **Türkçe** hatıratı, Babür’ün şahsî hayatıyla birlikte, Hindistan coğrafyasındaki adetler, *inançlar, bitkiler ve hayvanlar* hakkında da bilgiler içerir. Çok sayıda Çağatayca ve Farsça şiirin de yer aldığı bu eser, Timurluların hatırat yazma geleneğinin devamı bakımından da önem taşır.<sup>26</sup>

**Babür**, tıpkı **Alî Şîr Nevâyî** gibi, sadece şiir yazmamış, *Aruz Risâlesi* adlı eseriyle, edebiyat ilmiyle de yakından ilgilenmiştir. **Babür**,

“*Nevâyî’nin Mîzânü’l-Evzân’ında yirmi dört rubâi vezninden dördünde yanıldığını (Vekâyi: 186) yakalayacak kadar şiir tekniğine hâkimdir.*”<sup>27</sup> Onun *Hatt-ı Babürî* adıyla bilinen yazı çeşidiyle,

“*Uygur harfleri ve stili ile Arap harflerini birleştirerek yeni bir yazı çeşidi ortaya çıkarma*”<sup>28</sup> teşebbüsü, icâd ve ibdâ yeteneğini de ortaya koymaktadır.

**Babür**’ün bir diğer özelliği de *Münâcât, Çihil Hadîs, Nazmu’l-Cevâhir, Lisânu’t-Tayr, Sirâcü’l-Müslimîn ve Mahbûbu’l-kulûb* gibi **dinî ve tasavvufî eserler kaleme alan Nevâyî**’nin geleneğini devam ettirmesidir. **Hanefî fikhına**

<sup>21</sup> Agâh Sırı Levend, *Ali Şîr Nevaî*, II. Cilt, s.46.

<sup>25</sup> Bilâl Yücel, *Bâbü’r Divânı*, s. 162.

<sup>26</sup> Bir kısmı *Divân*’da da yer alan *Babürnâme*’deki Çağatayca şiir örnekleri için bkz.: Gazi Zahîreddin Muhammed Bâbü’r, *Bâbü’rname*, s. 427, 433, 434, 455, 510, 524, 557, 580, 584, 590, 609,.

<sup>27</sup> Babür, *Vekâyi’ (Babürnâme)* adlı eserinde, *Ali Şîr Nevâyî*’den “*Ali Şîr Bey emsalsiz bir adamdı. Türk diliyle o kadar çok şiir söylemiştir ki, kimse o kadar çok güzel söylememiştir*” şeklinde övgüyle bahsettikten sonra, onun aruzla ilgili eserini tenkit eder: “*Bir de Mîzânü’l-Evzân adlı bir arüz risâlesi yazmışsa da eleştirecek tarafı çoktur. Yirmi dört rubâi vezninden dört tanesinde yanılmıştır. Bazı bahirlerin vezinlerinde de yanılmıştır ve bunlar arüz ile uğraşanlarca malûmdur.*” (Gazi Zahîreddin Muhammed Babur, *Babürnâme (Vekayi)*, Doğu Türkçesinden çeviri: Reşit Rahmeti Arat, Önsöz ve Tarihî Özet: Y. Hikmet Baydur, Kabalıcı Yay., İstanbul. 2006, s. 341-342). İngilizce neşir için bkz.: Babur, *The Baburnama, Memoirs of Babur, Prince and Emperor*, Translated, edited, and annotated by Wheeler M.Thackston, The Modern Library, New York, 2002.

<sup>28</sup> Yücel, *Bâbü’r Divânı*, s. 15; Ali Alparslan, “*Bâbü’r’ün İcat Ettiği Bâbü’rî Yazısı*”, *Türkiyat Mecmuası*, XIX, (1977-79), İstanbul, 1980, s. 207-211.

dair *Mübeyyen* adlı manzum fıkıh kitabıyla, Farsça'dan Türkçe'ye tercüme ettiği Hoca Ubeydullah Ahrâr'ın *Risâle-i Vâlidîyye*'si, onun bu yönünü ortaya koyar.<sup>29</sup>

Esasen, dönemin kaynaklarında yer alan bazı bilgiler, Babür'den sonra da bir süre **Çağatay Türkçesiyle** şiir yazmanın sürdürüldüğünü göstermektedir. Bu konuda önemli bilgiler taşıyan **Seydi Ali Reis**'in *Mir'âtü'l-Memâlik* adlı eseri, Hümayun döneminde de **saray dilinin Türkçe olduğunu** göstermektedir. Hümayun'un bir süre Hindistan'da kalan **Seydi Ali Reis'e** sorduğu

“*Vilâyet-i Rûm mı köpdür, yoksa Hindûstan mı köpdür?*” sorusu, Babürlülerin bu dönemdeki “*cihan imparatorluğu*” iddiasını yansıttığı gibi, Hümayun'un *Seydi Ali Reis*'le **Türkçe konuştuğunu** da göstermektedir. Nitekim, **Kanûnî Sultan Süleyman** tarafından Mısır Kaptanlığı'na getirilen **Seydi Ali Reis'in** Basra'daki donanmayı Mısır'a götürürken Portekizlilerin saldırıları ve kötü hava şartları sebebiyle Hindistan sahillerine sürüklenmesi ve **28 Eylül 1554'te Surat'ta karaya çıkararak Delhi'de Hümayun'un** huzuruna kabulünden sonra şahit olduğu saray hayatında, **Çağatay Türkçesi** önemli bir yer tutmaktadır. Hümayun'un huzuruna çıkıncaya kadar, **Kâtibî** mahlasıyla yazdığı manzumeleri Osmanlı Türkçesiyle kaleme alan Seydi Ali Reis, padişahın huzuruna çıkma talebini, Babürlü beylerinden Sultan Mahmud'a sunduğu **iki Çağatayca gazel**<sup>30</sup> ile arz eder. Bir süre sonra Delhi'de Hümayun'un huzuruna çıkan **Seydi Ali Reis**, padişah ile sohbet eder ve Hindistan'ın fethine dair yazdığı **Çağatayca şiiri** sunar.<sup>31</sup> Hümayun'un okunan gazellerden “*hayli zevk aldığı*”nı belirten Seydi Ali Reis, sık sık padişahın huzurunda **Türkçe gazeller** okur, padişahın kendisine **Mir 'Alî Şîr-i Sâni** diye hitap ettiğini ve “*bir yıl böyle giderse, sen Çağatay taifesine Mîr 'Ali Şîr'i unutturursun*” dediğini de nakleder.<sup>32</sup> Seydi Ali Reis, Hümayun'la şiir sohbetlerinde padişahın kendisine kâfiye ve redifler vererek sonraki gün bu kalıplarda Çağatay Türkçesi'yle şiirler yazmasını talep ettiğini söyler.<sup>33</sup>

<sup>29</sup>

<sup>30</sup> Mehmet Kiremit, Seydi Ali Reis, *Mir'âtü'l-Memâlik*, İnceleme-Metin-İndeks, TDK, Ankara, 1999, s. 103-104.

<sup>31</sup> Kiremit, a. g. e., s. 107.

<sup>32</sup> Kiremit, a. g. e., s. 113.

<sup>33</sup> Onun Hindistan'da meşhur olduğunu söylediği bu şiirlerin matla'ları,

*Ruhtarı keyfiyyet-i meydın kaçan kim aldur  
Sâkiyâ tanır min ol gül-çehreni hoş-hâldür  
Çin durur zülfinge câdûlîg atı yalğan imes*

Hümayun'un “Çağatay taifesi”nin Mîr ‘Ali Şîr’e verdiği değeri yansıtan bu anekdot, Hindistan’da *Timurlu sanat geleneğini sürdüren Babürlülerin* mensubiyetlerini açıkça ifade etmesi bakımından da önem taşımaktadır.

**Gürkanlı Devleti’nde Babür’den sonra en çok Türkçe şiir yazan şairlerin başında Bayram Han gelmektedir.**<sup>34</sup> Babür tarafından Hümayun’un refakatçisi olarak görevlendirilen Bayram Han, Ekber’in atalığını da yapmıştır.

**Bayram Han’ın şiirlerinde Ali Şîr Nevâyî üslubu açık bir biçimde kendisini hissettirir:**

*Hoş ol kim serv-i nâzım rahm kılgay bî-nevâlarga*

*Neçük kim pâdişehler merhamet eyler gedâlarga*<sup>35</sup>

.....

*Yene közi gamudın nâ-tüvân durur könlüm*

*Refik u hem-dem-i âh u figân durur könlüm*<sup>36</sup>

.....

*Mençe hicrân ibtilâsı hîç mahzûn körmedi*

*Ança kördüm belâ deştinde Mecnûn körmedi*<sup>37</sup>

**Bâbür sarayında şehzadelere Türkçe öğretildiği** ve Bâbür’den sonra Hümayun (öl.1556), **Ekber Şah** (öl. 1605), **Cihangir** (öl.1627), **Şah Cihan** (öl.1658), **Evrengzîb** (öl.1707) ve **I. Bahadır Şah** (öl.1712)’ın **Türkçe konuştuğu** bilinmektedir.<sup>38</sup>

Kuzey Hindistan’da kurduğu devletin Timurlu kimliğini korumak için **Çağatay Türkçesini** bir hâkimiyet sembolü olarak bu bölgeye taşıyan **Babür**, Hint dilleri ile Farsça’nın baskın karakterine rağmen, saltanatı boyunca bu politikasını sürdürmeyi başarmıştır. Hümayun dönemindeki İranlılaşma eğilimine rağmen, başta Bayram Han gibi önemli devlet adamları olmak üzere, Ekber döneminin ortalarına kadar **birçok Türk asıllı sanatçı, Çağatayca şiir yazmaya**

---

*Küfr isnâdı hattınge ay sanem bühtân imes* (Kiremit, s. 113-114.).

<sup>34</sup> Denison Ross (ed), *The Persian and Turkî Divâns of Bayram Khân, Khân-Khânân*, Asiatic Society, Calcutta, 1910; S. Hussamuddin Rashdi-Muhammed Sabir (Edited by), *Diwan of Bayram Khan*, The Institute of Central and West Asian Studies, Karachi, 1971.

<sup>35</sup> Tekcan, *Bayram Han’ın Türkçe Divanı*, s.112.

<sup>36</sup> Tekcan, *Bayram Han’ın Türkçe Divanı*, s. 77.

<sup>37</sup> Tekcan, *Bayram Han’ın Türkçe Divanı*, s. 156.

<sup>38</sup> Peri Benedek, “*Bâbür İmparatorluğu’nda Türkçe*”, Çeviren: Gökçen Sert, *Türkler, Yeni Türkiye Yayınları*, 2002, c. 8, s. 814.

devam etmiştir. Nitekim **Âlemgîr ünvanıyla** bilinen **Evrengzîb** (öl.1707)'in beylerinden **Navvâb Ağır Hân'ın Türkçe şiirler** yazmış olması, **Bâbürlü sarayında Türkçe şiir yazma** geleneğinin 18. yüzyılın sonlarına kadar zayıf da olsa sürdürüldüğünü göstermektedir.

1589'da, *Baburnâme*'nin **Türkçe'den Farsça'ya** tercüme edilmesiyle başlayan süreç, artık **Çağatay Türkçesi'nin etkisini kaybettiği** ve Farsça'nın yeniden hem saray çevresinde hem de edebiyat alanında hâkim bir dil haline geldiğini göstermektedir. Bu eserin Ekber'in emriyle, Bayram Han'ın torunlarından Abdurrahim Mirza Han tarafından Farsça'ya tercüme ettirilmesi,<sup>39</sup> **Türkçe'den Farsça'ya geçiş sürecinin de önemli göstergelerindendir.**<sup>40</sup>

Sonuç olarak Timurlu hâkimiyetinde klasik dönemini yaşayan ve siyasî dengelerin değişmesiyle birlikte, edebiyat alanındaki gücünü kaybeden **Çağatay Türkçesi**, Kuzey Hindistan'da kısa süreli de olsa varlığını devam ettirmiş ve bilhassa Babür'ün kültürel hâkimiyet oluşturma gayretlerinin neticesinde saray mensupları ve yöneticilerin kaleme aldıkları edebî eserlerle gelişimini sürdürmüştür. Böylece **Alî Şîr Nevâyî** üslubunun bu bölgeye kadar yayılması, **Çağatay şiirine yeni bir alan** açtığı gibi, Farsça'nın kültürel etkisinin kırılmasını da sağlamıştır.

---

<sup>39</sup> Muzaffar Alam, Hindistan'da İslam, Siyasi Dil ve Kültürün İnşası 1200-1800, s.168.

<sup>40</sup> Zahiruddin Muhammed Bâbü Mirza, Bâbürnâme, Edited by Şinasi Tekin, Gönül Alpay Tekin, Chaghatay Turkish Text with Abdul-Rahim Kkankhanan's Persian Translation by W. M. Thackston, Jr., Published at The Department of Near Eastern Languages and Civilizations Harvard University, 1993.

**LİRİK – ROMANTİK HEKAYƏTLƏRİN POETİKASI**  
**(XARƏZMLİ YAZIÇI MƏHƏBBƏT SƏFANIN YARADICILIĞINA NƏZƏR)**

**Almaz ÜLVİ BİNNATOVA,**  
*filologiya elmləri doktoru, professor*  
*AMEA Nizami Gəncəvi adına Ədəbiyyat İnstitutunun*  
*“Azərbaycan-Türkmənistan-Özbəkistan ədəbi*  
*əlaqələr” şöbəsinin müdiri, Azərbaycan, Bakı,*

**Xülasə.** Məhəbbət Səfanın “Ömür hekayətləri” kitabı müəllifin həyatdan topladığı hissləri, xatirələri və sevgi dolu düşüncələrini özündə ehtiva edir. Kitabdakı nəsr və poeziya nümunələri bir qadının həyat hekayətlərini, onun duyğusal dünyasını və iç dünyasının dərinliklərini oxucuya çatdırır. “Yasəmən gülləri” və “Qızılgül” hekayələri insan hisslərinin zərifliyini, gözləntilərin və gerçəkliyin toqquşmasını, sevginin dərinliyini təsvir edir. Şeirlər isə məhəbbətin insan ruhundakı təsirini və yaşamış hissləri poetik dillə ifadə edir. Bu kitab oxucunu duyğusal və fəlsəfi düşüncələrə aparır.

**Xulosa.** Maxabbat Safoning “Ömür hikoyatlari” kitobi muallifning hayotdan olgan tuyg‘ulari, xotiralari va sevgi bilan to‘la fikrlarini o‘z ichiga oladi. Kitobdagi nasr va she’riyat namunalari bir ayolning hayot hikoyatlarini, uning hissiy olamini va ichki dunyosining chuqurliklarini o‘quvchiga yetkazadi. “Yasemin gullari” va “Qizilgul” hikoyalari inson tuyg‘ularining nozikligini, kutishlar va haqiqatning to‘qnashuvini, muhabbatning chuqurligini tasvirlaydi. She’rlar esa muhabbatning inson qalbiga ta’sirini va yashangan tuyg‘ularni poetik tilda ifodalaydi. Ushbu kitob o‘quvchini hissiy va falsafiy mulohazalarga chorlaydi.

**Резюме.** Книга Махаббат Сафа “Ömür hekayətləri” (“Жизненные истории”) отражает чувства, воспоминания и наполненные любовью размышления автора о жизни. Прозаические и поэтические произведения книги передают читателю жизненные истории женщины, её эмоциональный

мир и глубины её внутреннего “я”. Рассказы “Ясамановые цветы” и “Роза” описывают хрупкость человеческих чувств, столкновение ожиданий и реальности, а также глубину любви. Стихи передают влияние любви на душу человека и пережитые эмоции через поэтический язык. Эта книга погружает читателя в эмоциональные и философские размышления.

**Abstract.** Məhəbbət Səfa’s book “Ömür hekayətləri” (“Tales of Life”) captures the author’s emotions, memories, and reflections on life filled with love. The prose and poetry in the book narrate the life stories of a woman, revealing her emotional world and inner depths. The stories Yasemen Flowers and Rose depict the fragility of human emotions, the contrast between expectations and reality, and the profound depth of love. The poems poetically express the impact of love on the human soul and lived experiences. This book invites the reader into a journey of deep emotions and philosophical contemplation.

**Açar sözlər:** *Məhəbbət Səfa, Ömür hekayətləri, nəsr, poeziya, sevgi, xatirə, həyat, məhəbbət*

**Kalit so‘zlar:** *Maxabbat Safo, “Ömür hikoyatlari”, nasr, she’riyat, sevgi, xotira, hayot, muhabbat.*

**Ключевые слова:** *Мухаббат Сафо, “Ömür hekayətləri”, проза, поэзия, любовь, воспоминания, жизнь*

**Keywords:** *Məhəbbət Səfa, “Ömür hekayətləri”, prose, poetry, love, memory, life*

## GİRİŞ

Axşamüstü otelə qayıdanda Məhəbbət xanımı xatırladım və çox pərişan oldum ki, bir o qədər məsafəni qət edib gəlib, amma onunla iki kəlmə kəsə bilmədim. Elə bu düşüncənin narahatçılığında idim ki, zəng edib bir neçə xanımın məni otelin foyesində gözlədiklərini xəbər verdilər. Tələsik foyeyə endim. Bəli, onlardan biri Məhəbbət Səfa idi. Onu görəndə dərinədən nəfəs aldım. Yenidən görüşdük, bir az əvvəl yaşadığım narahatçılığımı bildirdim və nə yaxşı edib gəlmisən, yoxsa içimdəki narahatçılıqla birgə Bakıya dönəcəkdim. Xeyli söhbət

etdik. Digər xanımlarla da tanış oldum. Başqa bir universitetin professor-müəllimləri idilər – mənimlə tanışlığa və söhbətə gəlmişdilər. Əhvalım çox yaxşı idi.

Ötən ilin dekabrında Erkin Vahidovun “Söz lətafəti” kitabının təqdimatı üçün Əlişir Nəvai adına Daşkənd Dövlət Özbək dili və ədəbiyyatı Universitetinə dəvət olunmuşdum. Bu haqda sosial şəbəkələrdə də informasiya yayımlanmışdı. Tədbir başlar-başlamaz hörmətli dostum-həmkarım, Urgənc Dövlət Universiteti filologiya fakültəsinin dekanı, professor Dilşad bəy Qayıbovdan e-məktub aldım: “... Almaz xanım, bizim xarəzmli Məhəbbət Səfa deyilən bir şairəmiz var. Gözəl qələmi var və istedadlıdır. Urgəncdən Daşkəndə məhz sizinlə görüşmək üçün gedib. Onunla görüşsəniz yaxşı olar, deyə xahiş edirəm”. “Erkin Vahidovun ədəbi irsi və türk ədəbiyyatı məsələləri” adlı unudulmaz xalq şairinin 88 illiyinə həsr olunmuş beynəlxalq elmi konfransda bir çox dostlar da görüşmə gəlmişdilər və bundan çox məmnun idim. Məhəbbət xanımla da həmin məclisdə görüşüb tanış olduq və elə oradaca qeyd etdi ki, “Almaz xanım, Urgəncdən məhz sizinlə görüşmək üçün gəlmişəm”.

Məhəbbət xanım kitabını mənə hədiyyə etdi. Bakıya dönər-dönməz ondan məktub aldım. O, Bakıda bir kitabının nəşr olmasını arzulayırdı. Amma bunun üçün gərək o əsərləri – nəsr və nəzmə aid əsərləri Azərbaycan dilinə çevrilsin, sonra nəşr haqqında düşünmək olar. Tərcüməçi də tapdıq, amma tərcümələr mənə qane etmədi, bütün yazılara başdan-başa redaktə etdim, bu da olmadı və sonda hamısını yenidən özüm Azərbaycan dilinə uyğunlaşdırdım. Xarəzm dili oğuz şivəsinə və Azərbaycan dilinə çox-çox yaxındır. İndiki özbək ədəbi dili kontekstində nə yazıq ki, Xarəzm şivəsi deyilən bir şey qalmayıb. Buna çox üzüldüm. Hətta ötən il Urgənc Dövlət Universitetində iki həftəlik dərs dediyim vaxt da narahatçılığımı müəllimlərə və tələbələrə bildirmişdim. Doğrudur, ədəbi dilə riayət etmək hər bir ziyalının məcburi borcudur. Amma bu o demək deyil ki, sən öz əski şivəni, hətta dilini belə unudasan. Məhəbbət xanımın nəsrində Xarəzm şivəsinə gördüm, əslində sanki Azərbaycan dilində yazılmış kimi hiss etdim. Bu səbəbdən “tərcümə etdik” deyə yazmağa könlüm razı olmadı. Budur, Məhəbbət

xanım Səfanın “Ömür hekayətləri” adlı hekayə və şeirlərindən ibarət kitabı qarşınızdadır:

### **Əsas hissə**

Məhəbbət xanımın xüsusən nəsrinə mənə valeh etdi. Mənə elə gəldi ki, bu əsərlərin hamısı bir qızın, bir qadının həyat hekayətlərindən ibarətdir. O körpə qızın – valideynləri tərəfindən nənəsinin himayəsinə verilmiş bir qızcığızın həyat hekayətləridir. Kitabın adı da məhz buradan yaranmışdır. Nənəsinin qucağında, ətəyində, yan-yörəsində böyüyən qızcığız əslində həyatın tam içində böyüyürdü. Olar-olmazı dərk edərək böyüyürdü. Gecələr də nənəsinə sığınıb yatan elə nənəsinin hikmətli nağıllarının qəhrəmanlarından birinə çevrilmişdi. Lirik “mən” əslində memuar xatirələrini hekayətlər – kiçik-kiçik hekayətlər şəklində ortaya qoymuşdu. Böyük düşüncələr kontekstində kiçik adam obrazı romantik olduğu qədər də, cizgilərini real həyat lövhələrindən götürmüşdür.

Lirik “mən” yaşadıklarını daxili dünyasına yerləşdirə bilmədiyindən gündəliklərə köçürür, gələcək hekayətlərin yaddaş notları olaraq.

İnsan ömrü adı və taleyi ilə baş-başa yol gedir. Məhəbbət Səfanın daxili məhəbbətlə, eşqlə, sevgi ilə doludur. Qəlb dünyasının saflığı qələmi ilə ağ vərəqlərə tökülüb: yaz yağışı kimi, dağ çeşməsi kimi, qumlu-çınqıllı qaynayan bulaq suyu kimi. Belə insanın könlü əlbəttə məhəbbətlə aşır-daşır. Bu məhəbbət – eşq iki şəxsin qarşılıqlı münasibətindən daha çox təbiətə, həyata, yaşantılara, qucağında böyüdüüyü nənəyə, ailəyə, övladlarına qarşıdır.

Məhəbbət Səfanın bir neçə yaradıcılıq nümunəsini şərh edərək bir də onun sətiraltı dünyasını vərəqləyək. İlk olaraq iki hekayəsinə “Yasəmən gülləri” və “Qızılgül”-ə nəzər salaq

“*Yasəmən gülləri*” – baş qəhrəmanın gözləntiləri, arzuları və reallıq arasındakı kəskin ziddiyyəti əks etdirən qısa, lakin təsirli bir mətn kimi görünür. Yasəmən çiçəkləri burada saflığın, ümidin və gözəlliyin rəmzidir. Hekayənin qəhrəmanı qız hər il bu çiçəklərin açılmasını həsrətlə gözləyir. Bu, onun həyatında mühüm bir günün olduğunu göstərir. Lakin hekayənin sonunda yasəmənlərin su üzərində bir damla ləkəyə çevrilməsi onun təmiz arzularının çirkləndiyini,

ümidlərinin boşa çıxdığını bildirir. Qız həyəcan içindədir, nəfəsini nizamlamağa çalışır. Buradan onun bu görüş üçün çoxdan hazırlaşdığı görünür. Ancaq içəridə kişilərin qəhqəhəsi və dedikləri sözlər onun gözləntilərini yerlə bir edir. “Tavanı yıxacaq kimi gülüslərdən dayandığı yer titrəyir” cümləsi onun yaşadığı dərin sarsıntıyı vurğulayır. O, artıq reallıqla əlaqəsini itirir, sanki ayaqları yerə dəymir. Lirik “mən” romantik və saf duyğularla doludur. Lakin içəridə danışılanlar onun gözləntilərinin tam əksidir. Onun dəyər verdiyi hisslər başqaları üçün əyləncəyə, gülüş obyektinə çevrilib. Bu, həm də onun məsumluğunun, sevgisinin istismar edildiyini göstərir.

Hekayədə müəllif simvolika və məcazlardan istifadə edilmişdir: Ağ yasəmənələr – saflıq, sevgi və gözəllik rəmzidir. Qapı – keçid və qərar məqamıdır. O, bu qapını açmağa həmişə həyəcanla hazırlaşdı, lakin reallıq gözlədiyindən fərqli oldu. Suyun üzərində üzən yasəmənələr – ümitsizlik və xəyal qırıqlığıdır. Qızın göz yaşları və duyğuları axıb gedir. Hekayə xəyal qırıqlığı və saflığın istismar edilməsini göstərir. Baş qəhrəman sevdiyi insana saf duyğularla yaxınlaşsa da, qarşı tərəf onun hisslərini lağ obyektinə çevirir. Bu, həm də cəmiyyətin bəzən saf sevgiyə laqeyd və amansız yanaşmasını əks etdirir. Bəlkə də bu hekayə, sevginin və etibarın yanlış yerlərə yönəldildiyi zaman insan ruhunda buraxdığı dərin yaraları təsvir edir. Qızın sonda sanki dubsiz uçuruma düşməsi, onun yaşadığı psixoloji şokun gücünü göstərir.

“*Qızılgül*” – hekayəsi ana və qız arasındakı dərin sevgini, bir insanın itkisini və bu itkinin yaratdığı kədəri təsvir edən emosional və təsirli bir mətn kimi görünür. “*Qızılgül*” simvolik mənaları ilə yüklənmiş, oxucunu sarsıdan və düşündürən bir əsərdir. Bildiyimiz kimi, qırmızı qızılgül sevgi, ehtiram və xatirə rəmzidir. Anarənin anasına hədiyyə etdiyi qızılgül, onun sonsuz məhəbbətinin ifadəsidir. Qız “əgər bir gün ölsəm, bunlar məndən sənə xatirə olar” deyəndə, bu sözlər bir zarafat kimi səslənsə də, ironiya ondadır ki, bu, sonradan gerçəyə çevrilir. Həlimə xalanın qızının ölümündən sonra qızılgülün dibində oturması, qızının bir izini yaşatmaq istəyindən xəbər verir.

Hekayənin məzmunundan görünür ki, Həlimə xala və Anarə arasında səmimi, mehriban və sevgi dolu bir əlaqə var. Onlar birlikdə gülüb zarafat edir, biri digərini sevindirmək üçün kiçik sürprizlər hazırlayır. Lakin həyat qəfil və gözlənilməzdir – sevgi dolu bir qız, anasını xoşbəxt etmək üçün aldığı qızılgüllə bir gün sonra həyatını itirir. Bu, oxucuya sevdiklərini itirmədən onların dəyərini bilməyin vacibliyini xatırladır. Anarənin ölümü birdən-birə baş verir. Həlimə xala səhər adi bir gün kimi işinə davam edirdi, axşamsa qızının adını haraylayaraq çökür. Ölümün qəfil gəldiyi vurğulanır: səhər həyatda olan biri, günorta artıq yoxdur. Həlimə xala bu gerçəyi qəbul edə bilmir və yeməkdən, içməkdən kəsilir, sadəcə qızılgülün dibində oturur – sanki qızına daha yaxın olmaq istəyir. Anarənin zarafatı (“əgər bir gün ölsəm, bunlar məndən sənə xatirə olar”) onun ölümünün öncə görməsi kimi səslənir. Qızılgül sevginin simvolu olsa da, burada həm də ağrılı bir xatirəyə çevrilir. Həyatın gözlənilməzliyini göstərən bu ironiya oxucunu dərin düşüncələrə dalmağa məcbur edir. Yazıçının demək istədiyi belədir: Sevginin və xatirələrin önəmi – İnsanlar ölür, amma onlardan qalan sevgi və xatirələr yaşamağa davam edir.

Qəfil itkinin acısı – Sevdiklərini itirən insan üçün dünya eyni olmur. Həlimə xala qızının yoxluğunu qəbul edə bilmir, çünki onun bütün həyatı qızına bağlı idi. Həyatın gözlənilməzliyi – İnsan heç vaxt başına nə gələcəyini bilmir, buna görə də hər anın qədrini bilmək lazımdır. Analar üçün övlad itkisi ən ağır dərddir – bu hekayə, ananın ovladını itirməsinin yaratdığı tükənməz ağrını göstərir. Qızılgül həqiqətən sevginin simvolu olaraq qalır, yoxsa burada həm də bir kədər rəmzinə çevrilir? Hekayə incə psixoloji məqamlarla dolu və simvolik elementlərlə zəngindir.

Bir anlıq gözümün qabağına Bakının qırmızı qərənfilləri gəldi. Bir zamanlar hər kəs sevgilisinə qırmızı qərənfil alardı. Qərənfil eşq, məhəbbət, sevgi rəmzi idi. 1990-cı ilin 20 yanvar Bakı qırğınlarından sonra qərənfillər yas, kədər, matəm gülünə çevrildi. Bakının bütün qərənfilləri 20 Yanvar Şəhidlərinin məzarı üstünə töküldü. O zamandan kimsə Qərənfil sevinc, sevgi rəmzi olaraq əlinə almır. Qərənfillər də sanki şəhid oldu. Qərənfillər də bir gecənin qurbanı oldu.

Məhəbbət Səfanın kitaba daxil edilmiş bir neçə şeirinə də nəzər salmaq, nəsrədə olduğu kimi poetik düşüncəsinin yükünün də fəlsəfəsini – dərinliyini bilmək maraqlıdır.

*Hər şeyini geri qaytararam,  
Qaytarmağım gərək hər şeyini.  
İçimdə gizlətdiyim dünyanı  
Azad buraxmağım lazım.  
Bilirəm, Sizi də yordum,  
Qayıtmaq üçün güc tapdığım gün,  
Yolları addım-addım keçib,  
Haraya getdi izlərim?!  
Niyə tərpənmirəm?!  
Hətta yerimdən belə tərpənmədim.*

Şair içindəki duyğuların, düşüncələrin və keçmişin ağırlığının gətirdiyi bir qapanmışlıq və çıxılmazlıq hissi vurğulanır. Şair həm öz içindəki sıxıntıları həll etmək, həm də insanlara qarşı olan məsuliyyətini yerinə yetirmək istədiyini ifadə edir. Yaxud başqa misralara nəzər salmaq:

*Niyə bu qədər hikmətlisən,  
Soyuqluğunu görmürəm,  
Qış. Öfkəni içimə tökməyi  
Öyrəndinmi, ya sən də məndən?!*

Hisslərin və düşüncələrin dondurulmuş vəziyyətinin təsvirini görürük. Qışın soyuqluğu ilə müqayisə olunan bu hissiyat, həm özünü, həm də qarşı tərəfi içindəki narahatlıq və öfkəni basdırmağa çalışmaqla əlaqələndirir. Şair daxili duyğularını sıxışdıran və bu sıxıntıları başqalarına göstərməməyə çalışan bir vəziyyətini təsvir edir.

*Gözlədim,  
Gözlədim,  
Bir ömür ilhama doğru.  
Ümidlərdən qızarmış*

*Ufüqlər şahiddir.  
Səni indi tapdım dediyim anda,  
Yenə itirmək,  
Necə böyük əzabdır.  
Ağrılar ürəyin dərinliklərindən çıxıb,  
Zəlzələ oyadır yerdə və dünyada.*

Bu sətirlərdə bir ömrün ümidi və gözləməsi ilə bağlı sıxıntı və qorxu hissi ifadə olunur. Sevgi və ya arzuların həqiqətə çevrilməsini gözləyən bir insan, nəhayət tapdığı şeyi yenidən itirmə qorxusu ilə üzləşir. Ağrılar və daxili zəlzələlər təbii olaraq qarşısına çıxan yoldakı çətinlikləri və

yenidən tapmaq üçün verdiyi mübarizəni simvollaşdırır.

*Darıxmışam, de, söylə.  
Yoluna gözlərim zillənib, de.  
Yasəmənələr çiçək açan bir vaxt,  
Astananı qucaqlayıb gələrəm!  
Əgər bütlənsəm, kaş ki, yığıla bilsəm  
Dörd bir yana dağılan canım.  
Üzlərinə baxmaq üçün,  
Sağ qalsam, kaş ki, İlahi!  
Ürəyimin dərinliklərində  
Yaşa, nəfəs alaraq qal!  
Var olduğunu söylə, pıçıldayaraq,  
“Gəldim”, de.  
“Getdik”, de.  
Gəl!!!*

Məhəbbət Səfanın bu şeiri, dərin duyğular və məhəbbətin təcəssümüdür. Şairin ifadə etmək istədiyi fikirləri belə şərh etmək olar: şeirin ilk misralarında müəllif sevgiyə və ya sevdiyi birinə duyduğu dərin həsrəti dilə gətirir. “Darıxmışam, de” və “yoluna gözlərim zillənib, de” ifadələri sevgiyə çatmaq arzusunu və bu arzu ilə dolu gözləntiləri ifadə edir. “Astananı qucaqlayıb

gələrəm!” – məhəbbət yolunda hər cür çətinliyə sinə gərməyə hazır olan bir insanın qərarlılığını göstərir. Burada sevgi vüsala çatmaq üçün bütün sərhədləri aşmağa məcbur edir. “Dörd bir yana dağılan canım” ifadəsi, insanın hisslərinin və düşüncələrinin sevgidən ayrı qalmaq səbəbilə parçalanmasını təsvir edir. Bu, məhəbbətin insana verdiyi dərin təsiri və mənəvi narahatlığı göstərir. “Sağ qalsam, kaş ki, İlahi!” duası, sevgini yaşamaq üçün Allaha üz tutmasını, ilahi ümidi ifadə edir. Bu, sevgini ilahi bir məqam kimi görməkdən irəli gəlir. Şeir sonunda “Yaşa, nəfəs alaraq qal!” ifadəsi, sevginin yalnız duyğularda yox, həm də insanın ruhunda, nəfəsində və varlığında yaşamasını arzulayır. “Gəldim, de” və “Getdik, de” çağırışları, sevgilinin qarşılıqlı duyğularını ifadə etməsi üçün həsrət dolu bir istəyin təcəssümüdür. Bəli, insan ruhunun məhəbbət qarşısında necə kövrək və eyni zamanda necə güclü olduğu ortadadır. Məhəbbət həm narahatlıq və itki qorxusu, həm də ümid və həyat eşqi ilə doludur. Bu şeir, məhəbbət mövzusunda çox incə və hissiyatlı bir poeziya nümunəsidir.

Hər hekayəti, hər şeiri şərh etməli olsaq, oxucunun haqqına girmiş oluruq. Çünki şərhlər də, düşünmə qabiliyyəti, dərk etmə müxtəlif ola bilər, zövqə və duyğulara görə odur ki, əziz oxucular özünüz kitabı vərəqləyib oxuyun. Səmimi deyim ki, mən hekayətləri bir dəfə, amma nəzm bölməsini iki dəfə oxuduqdan sonra fikrin dərinliyinə enə bilmişəm.

### **Nəticə**

Məhəbbət Səfanın “Ömür hekayətləri” kitabı müəllifin həyatdan topladığı hissləri, xatirələri və sevgi dolu düşüncələrini özündə ehtiva edir. Kitabdakı nəsr və poeziya nümunələri bir qadının həyat hekayətlərini, onun duyğusal dünyasını və iç dünyasının dərinliklərini oxucuya çatdırır. “Yasəmən gülləri” və “Qızılgül” hekayələri insan hisslərinin zərifliyini, gözləntilərin və gerçəkliyin toqquşmasını, sevginin dərinliyini təsvir edir. Şeirlər isə məhəbbətin insan ruhundakı təsirini və yaşanmış hissləri poetik dillə ifadə edir. Bu kitab oxucunu duyğusal və fəlsəfi düşüncələrə aparır.

## ӘДӘБИYYAT:

1. Мухаббат (Мухаббат Сафоева). Исимсиз ришталар / хотира-эссе, хикоялар, шеърлар. – Урганч: “Хоразм”, 2016.
2. Мухаббат Сафоева. Ой ифори / Шеърлар маколалар. – Тошкент, “Академнашр”, 2019. – 128 б.
3. Мухаббат Сафоева. Опа (Сийрат сари сафар). – Тошкент, “Muharrir”, 2019. – 92 б.
4. Мухаббат Сафоева. Мухаррир мактублари / публисистик маколалар. – Урганч, “Огахий” НМУ, 2022. – 120 б.
5. Мухаббат Сафо. Қуёшга йўл / Наср ва назм. – Урганч, “Хоразм yoshlari” НМУ, 2024. – 116 б.

## HAREZM'DEN ANADOLU'YA, ANADOLU'DAN DÜNYAYA, HZ.

### MEVLÂNÂ

**Kemal Yavuz Ataman,**

*Sosyal Siyaset Doktoru,*

*Müstakil Akademisyen Danışмент Danışmanlık Ltd. (Türkiye)*

Mevlânâ Celaleddin Rûmî, tarihin altın sahifelerinde yer alan muhteşem bir şahsiyettir. Bir ney, nefes, ses ve sözlerle başlayan yolculuğu asırlardır devam etmektedir. Neyin sırrı, kalplere ulaşmış, hitabı yetmiş iki milleti ihata etmiş, semaya yükselmiştir. İlmi, irfanı, hikmeti deryalara taşmış, sevenleri, hayranları kıtaları aşmıştır. Kuran'ın bendesi, Hz. Muhammed'in yolunun toprağı, zahidlerin hası, mürşidlerin altın halkasıdır. Eserleri, şiirleri zahiri sanatın zirvesi, batınî feyzin menbaıdır. Edep ve tevazu timsali hayatı, ibretler manzumesidir. Devletlerin müessisi, cemiyetlerin mimarı, insanların refikidir. Hz. Mevlânâ fitratın, hilkatın merkezinde Hakk'ın kulu, ilmin ve irfanın nuru, İlahi aşkın kandili, insani sözün sultanı, tefekkürün mihveri, dertlilerin rehberidir. Okudukça, dinledikçe parlayan bir yıldızdır. Halis bir Müslüman, kâmil bir mümindir. O'nun lisanı, Hak, hakikat sevdasının, insan, mahlukat sevgisinin İlahi ve Rahmani tezahürüdür. Mevlânâ beşeriyetin mürşidi olarak halen insanlığı aydınlatmaktadır.

Belh'te doğan ziyası, Anadolu'da parlamış, dünyayı aydınlatmıştır. Tebliğimizde Hz. Mevlânâ'nın Harezmden başlayan mübarek yolculuğu ve tesirleri incelenmeye çalışılacaktır.

**Anahtar Kelimeler:** Mevlânâ, Harezmden, Anadolu, Dünya, Sefer, İlim, Tasavvuf

## **XORAZMDAN ANADOLİYAGA, ANADOLİYADAN BUTUN DUNYOĞA, HAZRAT MAWLONO**

Hazrat Mawlono Jaloliddin Rumi tarixning oltin sahifalarida o'rin olgan ulug' siymolardan biridir. Bir nay, nafas, ovoz va so'zlar bilan boshlangan bu safar asrlar davomida davom etib kelmoqda. Nayning siri qalblarga yetib borgan, uning so'zlari yetmish ikki millatni o'z ichiga olgan, semoga ko'tarilgan. Uning ilmi, irfoni va hikmati ummonlarga sig'magan, muxlislari va shaydolari qit'alarni oshib o'tgan. U Qur'onning quli, Hazrat Muhammad (s.a.v.) yo'lining tuprog'i, zahidlarning eng ulug'i, murshidlarning oltin halqasidir. Asarlari va she'rlari – zohiriy san'atning cho'qqisi, botiniy fayzning manbai. Adab va kamtarlik timsoli bo'lmish hayoti esa ibratga to'la. U davlatlarning asoschisi, jamiyatlarning me'mori, insonlarning do'stidir. Hazrat Mawlono fitrat va hilqatning markazida – Haqning quli, ilm va irfon nuri, ilohiy ishqning chirog'i, insoniy so'zning sultoni, tafakkurning markazi, dardlilarning yo'lboshchisidir. U qanchalik ko'p o'qilsa va tinglansa, shunchalik porlaydigan yulduz kabidir. U halis musulmon, komil mo'mindir. Uning tili Haq va haqiqatga muhabbatning, inson va butun mavjudotga bo'lgan ilohiy va rahmoniy mehr-muhabbatning yorqin namunasidir. Mawlono bashariyatning murshidi sifatida hamon insoniyatni nurga chulg'ab turibdi. Balxda tug'ilgan ziyo Anadolida porlab, butun dunyoni yoritgan. Ushbu maqolada Hazrat Mawlono Xorazmdan boshlangan muborak safarlari va uning ta'siri yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Mawlono, Xorazmdan, Anadolu, Dunyo, Safar, Ilm, Tasavvuf

**Из Хорезма в Анатолию, из Анатолии – во весь мир. Хазрат Мевляна**

Хазрат Мевляна Джалаладдин Руми – это великая личность, запечатленная на золотых страницах истории. Его путешествие, начавшееся с звука нея, дыхания, голоса и слов, продолжается уже веками. Тайна нея проникла в сердца, его речь охватила семьдесят две нации и вознеслась к небесам. Его знания, мудрость и прозорливость разлились, как море, а его почитатели и последователи распространились по всему миру. Он – слуга Корана, прах на пути Пророка Мухаммеда (мир ему), величайший из подвижников, золотое звено в цепи духовных наставников. Его труды и стихи – вершина внешнего искусства и источник внутреннего благодатного света. Его жизнь, являющаяся воплощением скромности и благонравия, представляет собой бесценное собрание назидательных уроков. Он – основатель государств, архитектор общества, спутник человека. Хазрат Мевляна – в центре природы и мироздания: он – слуга Всевышнего, свет знаний и мудрости, светильник божественной любви, владыка человеческого слова, ось размышлений, путеводитель для страждущих. Чем больше его читают и слушают, тем ярче он сияет, словно звезда. Он – истинный мусульманин, совершенный верующий. Его язык – это отражение любви к Истине и правде, божественного и милосердного чувства к человеку и всему сущему. Мевляна, будучи наставником человечества, и сегодня продолжает освещать его путь. Свет, родившийся в Балхе, засиял в Анатолии и озарил весь мир. В этом исследовании будет рассмотрено благословенное путешествие Хазрата Мевляны, начавшееся в Хорезме, и его влияние.

**Ключевые слова:** Мевляна, Хорезм, Анатолия, мир, путешествие, знания, суфизм.

### **FROM KHWAREZM TO ANATOLIA, FROM ANATOLIA TO THE WORLD, RUMI**

Mevlânâ Jalaluddin Rumi is a magnificent figure who occupies a golden page in history. His journey, which began with a reed, breath, sound, and words, has continued for centuries. The secret of the reed has touched hearts, his discourse has encompassed seventy-two nations, and his words have ascended to the

heavens. His knowledge, wisdom, and enlightenment have spread like oceans, and his admirers and devotees have crossed continents. He is a servant of the Qur'an, devoted to the path of the Prophet Muhammad, the purest of ascetics, and the golden link in the chain of spiritual guides. His works and poetry stand at the pinnacle of outward art, and serve as a source of inner grace. His life, a model of humility and modesty, is a masterpiece of lessons to be learned. He is the founder of states, the architect of societies, and a companion to humanity. At the center of nature and creation, Rumi is the servant of God, the light of knowledge and wisdom, the lamp of divine love, the sultan of human speech, the axis of contemplation, and the guide for the afflicted. He is a star that shines brighter the more he is read and listened to. A pure Muslim, a perfect believer. His language is the divine and merciful manifestation of the love for truth, justice, and all creation. As a guide for humanity, Rumi continues to enlighten mankind. His light, which was born in Balkh, shone in Anatolia, and illuminated the world. In this paper, we aim to explore the sacred journey and lasting impact of Mevlânâ, which began in Khwarezm and radiated to the world.

**Keywords:** Rumi, Khwarezm, Anatolia, World, Journey, Knowledge, Sufism

### **Giriş**

Mevlânâ Cellaeddin Rûmî, tasavvufun deryası, sufilerin havzası Harezmi'den Anadolu'ya gelen müstesna bir zat-ı muhterem, alim, arif, edip, şair, mütefekkir, manevi bir mimardır. Alim ailenin ve babanın ilimle, irfanla mücehhez evladıdır. Manevi işaretlerle başlayan tarihi ve ulvi seferiyle Selçuklu topraklarına uzanmış, önce Larende'ye (Karaman'a) yerleşmiş, daha sonra Selçuklu Sultanı Alaeddin Keykubad'ın daveti üzerine Konya'ya varmış, ömrü boyunca orada ikamet etmiştir (Bilgin, 2008: 31). Selçuklu Sultanının şehrin girişinde karşıladığı Hazreti Mevlânâ, yaşadığı sürece toplumun her kesiminden, her dinden insanın sevgisini, saygısını kazanmıştır. Hakkı söylemiş, halkla beraber olmuş, Sultanlara bazen kapısını kapamış, bazen açmış, nasihat etmiş, sert de olsa ikaz etmekten çekinmemiştir. Hazreti Mevlânâ İslam ve Türk tarihinin en son devleti olan muhteşem, kuvvetli ve kudretli Osmanlı Devleti'nin manevi kurucusu, mimarıdır.

Mevlânâ'nın tarihe, insanlığa, Müslümanlara en büyük mirası, eseri Mesnevi'dir. Mesnevi, Anadolu'dan Hindistan'a, Balkanlara, Kuzey Afrika'ya, İspanya'ya, Kafkasya'ya feyz, aşk, şevk kaynağı olmuştur. Mesnevi sufi, edip, birçok farklı dinden mütefekkir ve şairlere ilham vermiştir. Doğu'dan Batı'ya alimler, emirler, sultanlar, devlet adamları, tüccarlar, halk ve çok çeşitli insanlar Mevlânâ'nın hayranıdır. Mevlânâ, her renk, ırk, din, mezhep, cins, kültür ve meşrepten, her coğrafyadan nice insanların sığınağıdır. Dünyanın birçok yerinde Mevlevihaneler kurulmuş, huzurun ve huşunun merkezi olmuşlardır. Birçok farklı tarikatlara ait dergâh ve tekkelerde, muhtelif medrese ve üniversitelerde yüzyıllarca Mesnevi okunmuştur. Sultanların saraylarında, devlet ricalinin masalarında, ilim, irfan meclislerinde, halkın hanelerinde Mesnevi baş tacı edilmiştir. Avrupa ve Amerika'da en çok okunan ve müracaat edilen eserler arasında yer alan Mesnevi'nin sayısız tercümeleri yapılmıştır. Hz. Mevlânâ'nın, Mesnevi ve diğer eserleri üzerine Müslüman, gayri müslim, Doğulu ve Batılı uzmanlar tarafından şerhler, şiirler ve kitaplar yazılmış, ilmi araştırmalar yapılmıştır. Mesnevi birçok dile tercüme edilmiştir. Hazreti Mevlânâ tevazunun, güzel ahlakın zirvesindedir. Olduğu gibi görünen, görüldüğü gibi olan bir insandır. Kuran'a ve Sünnet'e son derece vâkîf, İlahi sırlara aşina, ferd, cemiyet, devlet, medeniyet ve insanlık tasavvuruna haiz, maziye ve istikbale nazar eden bir mürşid-i kamildir. Küreselleşme asrında eserleri, beyitleri, sözleri Asya'dan Avrupa'ya, Amerika'ya ulaşmış ve insanlara tesir etmektedir. Çağımızın iletişim araçlarında, dijital mecralarda kendisinden en çok söz, beyit nakledilen mümtaz şahsiyetlerdendir. Her insana hitap eden mesajları, hikmet, iksir, esrar yüklüdür. Şüphesiz, O'na verilenler İlahi bir lutüfdür. Mevlânâ'nın yetmiş iki milleti ihata eden seferi eserleriyle sürmekte ve sadası cihana yayılmaktadır.

### **Harezm'den Anadolu'ya**

Mevlânâ 6 Rebûlevvel 604'te (30 Eylül 1207) Horasan'ın Belh şehrinde dünyaya geldi. Necmeddin-i Kübra, Yusuf Hemedani gibi tasavvuf önderlerinin yaşadığı mübarek topraklardan neşet etmiştir. Adı Muhammed b. Muhammed b. Hüseyin el-Belhî, lakabı Celâleddin'dir. "Efendimiz" anlamındaki "Mevlânâ"

unvanı onu yüceltmek maksadıyla söylenmiştir. “Sultan” mânasına gelen Farsça “Hudâvendigâr” unvanı ise babası tarafından verilmiştir. Doğduğu şehirden dolayı “Belhî”, yaşadığı Anadolu’ya nisbetle “Rûmî, Mevlânâ-i Rûm, Mevlânâ-i Rûmî” ve müderrisliği sebebiyle “Molla Hünkâr, Mollâ-yı Rûm” gibi unvanlarla zikredilmektedir (Öngören , 2004: 441-448). Alim bir aileye mensuptur. Babası Bahaeddin için “Sultânü’l-ulemâ, alimlerin sultanı” denilmiş, “Mevlânâ-yı Büzürg”, Mevlânâ’nın babası olduğundan dolayı büyük molla diye anılmıştır. Babası Kübreviye tarikatına bağlıdır. Farsça bir tabir vardır: “*Gurgzâde âkıbet gurgşevd...*” Aslanın oğlu aslan, kurdun oğlu kurt olur. Mevlânâ, alim ailenin, alim babanın, alim oğludur. Soylarının Hz. Ebubekir Sıddîk Efendimize ulaştığı ve seyyid oldukları belirtilmiştir. Babasından sonra Burhaneddin Muhakkik-i Tirmizî’nin tedris ve terbiyesine girmiş, Şam’a ve Halebe gitmiş, meşhur şahsiyetlerle görüşmüştür. Daha sonra, Karaman ve Konya’ya gelmiştir. Konya’da müderris olarak çok sevilmiş, neşr-i ulûm, feyz-i bâtın ile çok sayıda talebe ile meşgul olmuştur. Sezai Karakoç’a göre Mevlânâ’nın Harezmi’den Anadolu’ya yolculuğuyla birlikte “Sahabenin Maveraünnehir’e taşıdığı, zamanla bir hazine haline gelen sırlar yükü, tasavvuf kervanı Anadolu’ya taşınmıştır (Karakoç, 2012: 8).

Mevlânâ’nın talebeleri, sevenleri arasında Müslüman Türklerle beraber Konya’da yaşayan Rumlar da vardır. Mevlânâ vaazlarını Farsça vermiş, az da olsa Türkçe, Rumca ve Arapça da yazmıştır (Bilgin, 2008:32). Mevlânâ’nın yaşadığı 13.cü asırda Anadolu halkı farklı bir atmosferde, endişe içindedir. Çaresiz ve karamsar toplumun manevi çıkışı, yükselişi Mevlânâ sayesinde gerçekleşmiştir. Endülüs’te yaşanan karışıklıklardan, Moğol istilasından kaçıp gelenler birikimlerini, kazanımlarını Anadolu’ya taşımışlardır (Araza, 1991: 41). Mevlânâ, farklı kültür ve medeniyetlerin akan zenginlikleri değerlendirmiştir. Anadolu’nun varlıklarını, Kuran, Hadis, Fıkıh ve Tasavvuf birikimiyle, muhteşem karışım ve ahenk içerisinde, irfani zeka ve maharetini kullanarak, yeni bir cemiyete, devlete ve medeniyete kaynak haline getirmiş, dönüştürmüştür. Mevlânâ, Konya’da 17 Aralık 1273 tarihinde vefat etmiştir. Defin merasimine Müslümanlar, Hıristiyanlar

ve Yahudiler de iştirak etmişler ve mezarının başında birlikte büyük bir semâ icra etmişlerdir (Schimmel, 2007: 273).

### **Anadolu'dan Dünyaya**

Mahmud Esad Coşan'a göre, cihan devleti Osmanlı'nın gerçek ve manevi kurucusu Hazreti Mevlânâ'dır. Zira, Osmanlılarda halk, devlet erkanı, alimler, sufiler, arifler, askerler, tüccarlar Mevlânâ'nın Mesnevisi ile hemhal olmuşlardır (Coşan,1992: 3). Osmanlı döneminde Mevlevi dergahları, Mevlevihaneler Osmanlı paşaları tarafından devlet eliyle Balkanlar, Ortadoğu, Kuzey Afrika, Kafkasya gibi Osmanlı coğrafyasının muhtelif şehirlerinde kurulmuştur. Mevlevilik ve Mesnevi çok geniş bir alana ulaşmıştır (Tanrıkorur, 1 Mart 2020). İstanbul'da ve Osmanlı coğrafyasında çeşitli tarikatlara mensup dergahlarda Mesnevi dersleri yapılmıştır (Öngören R., 2004). Mevlâna Batılıların İslam'ı öğrenmek için eşiğinden geçtiği önemli kapıdır. Mevlânâ, Mesnevi ve Mevlevilik üzerine, yüzyıllarca İngilizce, Fransızca, Almanca tercümelemler, ilmi, edebi çalışmalar yapılmıştır (Güzel, 2007:183). Osmanlı'nın Avrupa ve Amerika'yı etkileyen farklılıkları yönetim sisteminin kaynağı Mesnevi'dir. Osmanlı Devleti'nin manevi kurucusu gösterilen Mevlânâ'ya ait Mesnevi farklılıkların birlikte yaşamasına, zihniyet inşâsına ilham kaynağı olmuştur (Öngören, R., 2007: 50). Mevlânâ'nın düşünceleri pergel metaforu ile dünyaya yayılmıştır. O, şöyle söylemiştir: "Pergel gibiyim, bir ayağımla şeriat üstünde sağlamca durduğum halde, öbür ayağımla yetmiş iki milleti dolaşıyorum. Yetmiş iki millet sırrını bizden dinler. Biz iki yüz millet ve mezhebi tek perdede birleştiren ney gibiyiz" (Hüseyin Kurt, 2007: 168, Koçkuzu, 2006: 27).

Mevlânâ, Harezmi'nin zengin ilim, irfan, kültür, medeniyet, tasavvuf müktesabına vakıftır. Anadolu'ya gelirken bir çok ilim, irfan merkezlerine, ailesi uğramışlar, alim ve ariflerle sohbet etmişlerdir. Nişabur'da Feridüddün Attar, Bağdat'ta Sühreverdi tarikatının Piri Şeyh Sühreverdi ile görüşmüşlerdir. Hac dönüşü Şam'a gelmişlerdir. Mevlânâ Şam'da Hint-İran felsefesini, Yunan-Roma mitolojisini müşahede etmiştir (Bilgin, 2008: 31). Bir taraftan Harezmi'nin, diğer taraftan İran, Şam, Bağdat'ın, öbür taraftan Anadolu'ya akın edenlerin bilgi ve

tecrübeleri, Bizans kültürünün varlığı üzerine Mevlânâ, Kuran ve Sünnet merkezli, muhteşem bir zihniyet inşâ etmiş, gönülleri kazanmıştır. O, bir nevi yetmiş iki milletin nüvesine intikal etmiştir. Mevlânâ'nın sadece Anadolu değil Hindistan, Arabistan, İran, Türkistan'dan birçok müntesibi olmuştur (Güzel, 2007:175-182). Mesnevi, Hind alt kıtasından Avrupa'ya birçok münevverin feyz ve ilham kaynağı haline gelmiştir.

Mevlânâ, Doğulu, Batılı birçok münevveri, alimi etkilemiştir. Birçok Batılı alim, şair, edip Farsça öğrenmiş, Mesnevi okuyarak Mevlânâ hayranı ve bazıları ise müslüman olmuşlardır. Mevlânâ ve Mesnevi hakkında birçok eser ve şiirler yazılmıştır. Pakistan'ın meşhur şairi Muhammed İkbal, yazdığı şiirlerle Çağın Mevlânâ'sı (Rûmî-Asır) olarak tanınmıştır (Schimmel, 22: 2001). Alman Goethe, Fransız Eva de Vitray-Meyerovitch, Mevlânâ ve Tasavvuf üzerinde uzun yıllar çalışmış, Mevlânâ aşığı olmuştur (*İslam'ın Gülüyüzü*, 2000: 32). (Eva Hanım müslüman olmuş, Havva ismini, almış, vefatından on yıl sonra vasiyeti gereğince kabri Mevlânâ türbesinin karşısındaki mezarlığa taşınmıştır.) Eva Hanım, Mevlânâ'nın ve İkbal'in eserlerini Fransızca'ya çevirmiştir (Atay, 2009: 92). Batılı müsteşriklerden Mevlânâ'yı en iyi anlayan ve anlatanlardan Alman Anne Marie Schimmel mükemmel Farsçası ile Mevlânâ'yı Batı'ya tanıtmış, Hindistan, Pakistan, İran ve Türkiye'de konferanslar, dersler vermiştir. Mevlânâ hakkında şu sözleri çarpıcıdır: “Benim için hakikat olan şu ki, her ne zaman onunla ilgili sohbet ve açıklamalarda bulunmak istediğimde, ondan ancak bir Kur'ân müfessiri olarak söz edebildiğimdir. O, bütün varlık sahasındaki her şeyi Allah'ın varlığının delaleti olarak bilen ve dünyayı O'nun varlığının yansıması olarak telakki eden bir kişidir (Schimmel, 2007: 279). Nitekim meşhur beytinde halini ifade etmiştir:

Men bende-i Kur'anem eğer can darem,  
Men hak-i reh-i Muhammed muhtarem.

Eğer nakl kuned cüz in kes es güftarem,  
Bizarem ez u vez an suhen bizarem.

“Ben yaşadığım müddetçe Kur’an’ın bendesiyim. Ben Muhammed Mustafa’nın (s.a.v.) yolunun toprağıyım. Biri benden bundan başkasını naklederse ondan da şikâyetçiyim, o sözden de şikâyetçiyim.” Molla Camii, Mesnevi’nin ilk iki beytini 433 sahifede şerh etmiştir. Mesneviyi, Kuran-ı Kerim’in pehlevicesi olarak nitelendirmiş, “Ben Mevlânâ için ne diyebilirim? Kitabı var ama Peygamber değildir.” demiştir (Bilgin, 2008: 33). Şu bir hakikattir ki, Mevlânâ’nın Kur’ân-ı okumak ve anlamaktan amacı, Kur’ân-ı ile amel etmek, ebedi saadeti ve Allah’ın rızasını kazanmaktır (Temizel, 2023: 274-283).

### **Sonuç**

Mevlânâ’nın Harezm’den başlayan yolculuğu Hakk’a vasıl olmak, insanlığı Hakk’a ve hakikate çağırmaktır. Yaşadığı dönemde Konya çevresinde, Anadolu’da, Selçuklu coğrafyasında cemiyetin her kademesinden insanlar onun talebesi, müridi, müntesibi olmuşlardır. Devlet ricali, sultanlar, vezirler, müderrisler, şeyhler, tüccarlar ona bağlanmışlardır. Mevlânâ’nın takipçileri Anadolu’dan Doğu’ya ve Batı’ya, uzanmıştır. Dünyada asırlardır birçok alim, münevver, entellektüel, şair, edip başta Mesnevi olmak üzere eserlerinin tesirinde kalmış, aydınlanmışlardır, onun için medh-ü senalar söylemişlerdir. Asırlardan beri onun irşadı dünyanın her yerinde devam etmektedir. Beşeriyetin mürşidi sayılabilecek olan Mevlânâ, globalleşme devrinde insanları ve dünyayı aydınlatmaya, sesini duyurmaya, sözlerini dinletmeye devam etmektedir, diyebiliriz.

### **Kaynakça:**

1. Atay, R. (2009). Bir arada yaşama tecrübesi olarak Mevlevilik: Eva De Vitray-Meyerovitch’le tekerleğin poyrasına yolculuk. *Milel ve Nihal*, 6(2), 87-101.
2. Bilgin, B. (2008). Mevlânâ ve dünya kültürüne etkisi. *Erdem*, 50, 27-50.
3. Coşan, M. E. (1992). Şahsen de milletçe de en büyük düşman: Nefs-i emmâre. *Panzehir*, 24, 1-2.
4. Coşan, M. E. (2008). *Tarihî ve tasavvufî şahsiyetler*. Server İletişim.
5. Güzel, A. (2007). Mevlâna’nın çağına ve çağımıza tesirleri. *İstem*, 10, 169-190.

6. Karakoç, S. (2012). *Mevlânâ*. Diriliş Yayınları.
7. Meyerovitch, E. D. (2000). *İslam'ın gülüryüzü* (C. Aydın, Çev.). Şule Yayınları.
8. Öngören, R. (2004). *Mevlâna'nın Osmanlı'ya etkileri*. *İstanbul Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi*, 16, 49-57.
9. Öngören, R. (2004). *Mevleviyye*. *Türkiye Diyanet Vakfı İslam Ansiklopedisi*, 29, 441-448.
10. Schimmel, A. (2007). *Mevlânâ'nın şark ve garptaki tesirleri* (A. İstem, Çev.). *Dokuz Eylül Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi*, 5(10), 271-279.
- Schimmel, A. (2001). *Çağın Mevlânâ'sı: Muhammed İkbal* (S. Özkan, Çev.). Kırkambar Kitaplığı.
11. Tanrıkorur, B. (2004). *Mevleviyye*. *Diyanet İslam Ansiklopedisi*.
12. Temizel, A. (2023). *Dârülmülk Konya Dergisi*, 2023, 274-283.

## **İBROHİM G'AFUROV MANSURALARIDA VATAN MAVZUSI**

**Ahmedov Hoshimjon,**

*filologiya fanlari nomzodi, dotsent,*

*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada taniqli adabiyotshunos olim Ibrohim G'afurov qalamiga mansub "İltijo" nomli kitobidagi mansuralar tahlil qilinadi. Ulardagi Vatan mavzusi badiiy talqinlari haqida mulohazalar bildirib o'tiladi. Adibning poetik mahorati qirralari ochib beriladi. Ushbu janrda bitilgan mansuralarning badiiy saviyasi haqida xulosalar keltiriladi.

**Абстрактный.** В данной статье анализируются мансуры в книге "Илтижо", написанной известным литературоведом Ибрагимом Гафуровым. В них комментируются художественные интерпретации темы Родины. Раскрываются грани поэтического мастерства поэта. Делаются выводы о художественном уровне мансуров, написанных в этом жанре.

**Abstract.** This article analyzes the mansurs in the book "İltijo" written by the famous literary scholar Ibrahim Gafurov. They comment on the artistic

interpretations of the theme of the Motherland. The facets of the poet's poetic mastery are revealed. Conclusions are made about the artistic level of the mansurs written in this genre.

**Kalit so‘zlar:** *Ibrohim G‘afurov, mansuralar, badiiy tahlil.*

**Ключевые слова:** *Ибрагим Гафуров, мансура, художественный анализ.*

**Keywords:** *Ibrahim Gafurov, mansur, artistic analysis.*

**Kirish.** Adabiyotshunos Suvon Meli Ibrohim G‘afurovni yetuk olim, adabiy jarayonning zukko tadqiqotchisi sifatida ta’kidlaydi [1.:414]. Shu bilan birga I. G‘afurov yaxshigina ixodkor ham. Ayniqsa uning nasriy she’rlari o‘z davrida yangilik sifatida e’tirof etilgan. Mansuralar – bu poetik hikoyalar, ya’ni, nasriy she’rlar. Nisbatan kam murojaat qilinadigan bu janrda ham badiiyati yuksak asarlar yaratish mumkin. Buni Ibrohim G‘afurovning mansuralari misolida ko‘rib chiqamiz.

**Tahlillar, mulohazalar.** Vatan mavzusi – she’riyatda eng kshp istifoda etiladigan sermaxsul mavzu. Bu tuyg‘u bilan oshno bo‘lmagan, yurakdan xis qilmagan ijodkorni topish qiyin. Vatan tuyg‘usi bitilgan ajoyib misralar juda ko‘p. Bu sira eskirmaydigan tuyg‘u. Ibrohim G‘afurov ana shu xissiyotlarni misralarga ko‘chirishda qonunni detal (tafsil) sifatida oladi. Uning “Turkiston” nomli mansurasida ana shu oddiy bir voqea orqali Vatanga e’tiqod, yurtparvarliki tarannum etiladi. Sevguvchi insonga, Oybek so‘zlari bilan aytganda, Vatanning cho‘llaridagi quruq cho‘p ham aziz. Adib sayoxatga chiqarkan, Turkiston qovunidan olvoladi. Va uni Ovrupo ko‘chalari, otellari bo‘ylab olib yuradi: “Otellar to‘lib ketdi, Turkiston qovunining ifor isiga. Turkistonning isi taralsinda olamga”[2]. Vatandan uzoqda har bir narsaning mantiqiy, mohiyati o‘ta tushunarli bo‘ladi. E’tiborga loyiq joyi shuki, adib qovun tufayli kechgan taassurotlarini uzoq o‘tmish bilan, xususan Yassaviy xikmatlari bilan bog‘laydi. Qovun Yassaviydek “Turkiston mulkining shayxul-mashoyixi” (Navoiy) yotgan maskanda yetishganidan go‘yoki ana shu xikmatlar mag‘zini – umr mantiqini, hayot sururini shimgan “mikti zurabor”. Ulug‘ shayxning asrlar osha amal qilib kelayotgan

yashamoq dasturi shoir shuurini doimo nurlantirib turadi. Ana shu ziyodan baxramand ko'ngil uchun nainki "Yevropaning mantiqi" usuli shukuhi", balki olam – jahonning azaliy va abadiy yashash tarzi, muammolari tushunarliroq bo'ladi. Yashamoqlikning saodati, umri – fano mazmuni "nafsni tepib, dargohiga loyiq bo'lish"da. [3.: 81.]. Nafsni mag'lub etgan inson – komillik sari yuksalib borayotgan, bebaxo ochunni teran anglab borayotgan inson. Har kimga ham nasib etsa-chi shundoq kamolot! Adib yozganidek:

Yassaviy bobom bilan yursam

Yevropa ko'chalarida

Ko'nglim to'q

Ko'zim to'q

Yurar ekanman [3.: 51.].

Adibning "O'tgan asrga maktublar" mansurasida Vatan tuyg'usini kengroq, jonkuyarlik, xassoslik, vatanparvarlik ruxida istifoda etilganining guvohi bo'lamiz. Bu yerda endi Vatan va e'tiqod tuyg'u – tushunchalari yonma-yon talqin etiladi. Adib qadimda yashab o'tgan, yurtimiz bilan qiziqqan olim – muarrix Xoroshxinning "yuz yil osha yetib kelgan" nomalariga g'oyibdan javob yozishga jazm etadi: "axir indamaslar diyori emas-ku bu yer!" Ul janob javobsizlikni ojizlik deb hisoblagan ekan. Ana shunga nisbatan adib milliy g'urur va e'tiqod bizning yurtlarda mo'tabar tuyg'ular ekanini uqtirardi. G'ururi bor inson, millat o'z mavqei, sha'n – shavkati, qadriyatlarini oyoq osti qilishlariga aslo yo'l qo'ymaydi. G'urur ojizlikka qarama-qarshi xissiyotdir. Mag'rur insonlarni, vatansevarlarni ko'zda tutib "dor ostida tizzang qaltiramasin", deb o'rgatgan ekan Dostoyevskiy.

Vatan, imkon – e'tiqod tushunchalari milliy qadriyatlarimiz ila chambarchasdir. Oliy moziydan ma'lumki, e'tiqodi ulug' yurtni maxv etmoq maxol. O'sha Xoroshxin xam xalqning sodda, ammo kuchli – metin e'tiqodidan tang qolgan: "Ex-xa! Ota-boboshlaring so'zlariga qanchalar ishonar bular! Ilm bilan yengib bo'lmas ularning afsonalarga e'tiqodlarin!" (76 bet). Ishonchu e'tiqodda sobit insonlarni hamisha makr tuzog'i-la aldaydilar xoroshzinsifatlar! Bundaylardan qadim ajdodlarimiz ham ozor tortgan va avlodlarini ham ogoh

etgan: “ey turk xalqi, to‘kis ishonuvchansan. Samimiy, nosamimiyni ajratmaysan, kim qattiq gapirsa, samimiyni ham tanimaysan”. [4.: 24.]

Xoroshxin esa Chordaxum qubbasini oltin deb kelgan samarqandliklarni ishontirmoqchi bo‘lib, uni temir deydi. Ular bosh chayqaydilar. U yana va yana ishontirmoqchi bo‘ladi: “– Mana shohlaring ham chiamadiku tirilib biz kelganda! – deydi nihoyat qizishib, ishora qilib Shoxi Zindaga”. O, ishonch! Inson yuragidagi ustivor ishonch-la o‘ktam yashaydi. Agar ana shu ishonchga shubha aralashsa, yoxud darz ketsa, albatta o‘sha odam ruhiyati uchun bu katta zarba. Lekin bizning qavm bardoshi baquvvatlardan. Xoroshxin ustomonligini qo‘ymaydi. “Qur’on” ustiga oqposhshoning salobatli so‘mini qo‘yib, birdan 54 Surani va kalimai shaxodatni o‘qir u. Va ana shu hiylasi evaziga “mashhur Shoxi Zinda baliqlarini” ko‘rishga musharraf bo‘ladi.

Pulga “satrlarni... istagancha odamni sotib olsa bo‘lur!” deb o‘ylagan ekan Xoroshxin. Lekin o‘sha “sartlar” “oq poshshoning so‘mi”ga emas, muqaddas va mukarram kalomlar sexriga tushishgan xolos. Illo e‘tiqod taftish qilinmaydi, u gumondon xoli! Adib ta‘kidlaganidek: “axir makr qilmasalar-ku Xudo qoshida!” Axir ayonku unga har qanday makr!”.

**XULOSA.** “Hayot, adabiyot, odamlar haqida o‘qish, yozish, fikrlashni yaxshi ko‘raman. Buni ijodgina emas, ijtimoiy amaliyot, yurtimga xizmatim deb bilaman. Ijtimoiy fikrning harakatchanligi, faolligi ijodkorlarga bog‘liq emasmi?”- deydi adib. [5]. Demak doimiy izlanishda bo‘lgan ijodkor albatta yangichalikka, o‘zgachalikka intiladi. Shoir uchun, qaysi shaklni tanlamasin eng avvalo o‘zining xis-tuyg‘u, kechinmasini bera olishi muhimdir. Chunki fikr – faylasufga xos tuyg‘u, hissiyot, ehtiros – shoir, ijodkorga xos. Lekin chinakam iste‘dodning asarlarida unisi ham, bunisi ham va yana mussavirona zukkolik ham aks etadi. Faqat yurakdan sizib chiqqan, ustidan ruxning betakror jilolari qandaydir ilohiy yog‘dudek miltillab turgan so‘zlargina fusunkor, hayajonli bo‘ladi, mehriyosi bo‘ladi.

Poeziya uchun eng zarur bo‘lgan – obraz, kayfiyat, yashirin ma‘no, uslubiy-tasviriy o‘ziga xosliklar nasriy bayonda ham saqlanib qoladi. Ko‘rayapmizki,

nasriy she'rlarda ham yuksak poeziya talablari aks etadi. Nasr va nazmni o'zaro bog'lovchi, oraliq janr bo'lmish – nasriy she'rlarda ham ijodkorlar uchun imkoniyatlar bor.

Ibrohim G'afurovning mansuralari misolida sochmaning sifat va miqdor jihatdan o'zgargan yangicha shaklini ko'rdik. Ammo adabiy hayotda eski shaklga jon kirgiza olish, o'sha shaklni ijodkorning o'y-kechinmalari, badiiy estetik qarashlarini ifoda etishga xizmat ettira bilish – shoirning iste'dodiga, maxoratiga va boshqa omillarga bog'liqdir. Lekin adabiy jamoatchilik Ibrohim G'afurovning tajribalarini iliq kutib oldi va ijobiy baholadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Suvon Meli. So'z-u so'z. Maqolalar. – T.: “SHARQ”. 2020. – 528 b.
2. G'afurov Ibrohim. Iltijo. Mansuralar. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991. – 178 b.
3. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991. – 256 b.
4. Qadimiy hikmatlar. Tuzuvchi: N. Rahmonov. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987. – 432 b.
5. [darakchi.uz/uz/75859](http://darakchi.uz/uz/75859)

## **BADIIY TASVIR VOSITALARINING SHE'RLARDA QO'LLANILISHI**

**Pirnazarova Manzura Matnazarovna,**

*filologiya fanlari doktori, dotsent,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Omon Matjon she'rlarida metaforaning qo'llanilishi masalasi xususida so'z boradi. Shoir she'rlari tahlili orqali fikrlar dalillab ko'rsatilgan.

**Аннотация.** В данной статье речь пойдет о применении метафоры в стихах Омона Матжона. Посредством анализа стихотворений поэта мысли аргументированы.

**Annotation.** This article deals with the use of metaphors in the poems of Omon Matjon. Thoughts are proved by the analysis of the poet's poems.

Omon Matjonning lisoniy birliklardan foydalanish mahoratining badiiy matnda aks etish darajasini aniqlash, badiiy matn va uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish o'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligi oldidagi vazifalardan biridir.

Ma'lumki, metaforalar o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra xalq tilining o'ziga xos xususiyatlarini o'zida qamrab oladi. Metaforaga xos ana shunday xususiyatlarni biz Omon Matjon ijodida uchratamiz. Metafora poetik matnlarda muallif munosabatini ifodalashdan tashqari nutq obyektini ijobiylik yoki salbiylik nuqtayi nazaridan baholaydi.

O.Matjon she'rlarida badiiy matn tavsifi, badiiy matnning boshqa matnlardan farqi, badiiy nutq uslubi, badiiy matnning kompozitsion butunligi, butunlikni ta'minlovchi badiiy tasvir vositalari haqida so'z yuritish lozim.

Badiiy tasvir vositasining bir ko'rinishi: kishi, narsa, hodisaga xos belgi hamda xususiyatni ifodalovchi sifatlash ma'lum so'z birikmasi tarkibida o'z mohiyati o'z belgilarini unga ko'chirgan holda kelishidir. Inson umri davomida hayotda bo'layotgan har bir yangilikni nazardan qochirmaydi. Tevarak atrofda yuzaga kelgan hodisalar, o'z sezgi a'zolari orqali idrok qilgan narsalarga xos xususiyatlarni o'rganib boradi. Ularni bir-biriga taqqoslash, o'xshatish, tahlil qilish natijasida o'z bilimlarini boyitib boradi. Shu tariqa inson tasavvurida obrazga aylangan tushunchalar ko'chma ma'no kasb etib, nozik his-tuyg'ularning yorqin ifodasi bo'lgan poetik matnlarda ham o'z aksini topishi tabiiy holdir.

”Metaforasiz, – deb yozadi N.D.Arutyunova, – “ko'rinmas olam” (insonning ichki hayoti ) leksikasi mavjud bo'lmas edi. [1.: 5.] Shoirning quyidagi misrasida oshiqning o'z sevgilisiga munosabati metafora vositasida ifodalangan. U sevgilisiga so'zlaganda uning nomini tilga olmaydi, balki uni “gulim” deb ataydi. Murojaatning bu shaklida muhabbat, hurmat, erkalash ma'nolari ko'rinib turadi:

*Gulim, “o‘sha”larga o‘chma-o‘ch ochil,  
Sening uchun bugun bog‘lar bo‘sh, ochil!  
Ularni qo‘yaver, ular qolmaslar,  
Chunki bizlar kabi seva olmaslar! [2.: 144.]*

Lirik qahramon uchun mahbuba va gul o‘zaro yaqin tushunchalardir. Ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. U shuning uchun boshqa qizlarni ham gul sifatida ko‘radi. Quyidagi misolda shu holat kuzatiladi:

*Ochil, ey gul, gul vaqting bo‘ldi,  
Uyg‘on, ey dil, dil vaqting bo‘ldi. [3.: 6.]*

Lirik qahramonning o‘z sevgilisiga murojaatidan ham anglashiladiki, metaforada voqelikdagi jonli va jonsiz predmetlar, narsa yoki tushunchalar o‘rtasida o‘xshashlik mavjudligiga asoslanib, bir narsaga xos belgi-xususiyatlarni boshqa bir narsaga ko‘chiradi va bu o‘z navbatida nom ko‘chish hodisasini yuzaga keltiradi. Yuqorida tahlilga tortilgan misolda ishtirok etgan “gulim” so‘zi lingvopoetik vosita sifatida metaforik ma’no kasb etgan. Metafora gul va qizni o‘zaro bog‘lab turuvchi xususiyatlar, ya’ni ularning go‘zalligi, nozikligi, kuzatuvchiga estetik zavq bag‘ishlashi kabilar asosida yuzaga kelgan. Gul so‘zining metafora sifatida qo‘llanishi bevosita matnga bog‘liq. Uning biz yuqorida ko‘rib o‘tgan “go‘zal yor” ma’nosi adabiy tilimizda doimiy metafora sifatida qaralmaydi. Shuning uchun gul so‘zi matndan tashqarida o‘simlik ma’nosini ifodalash bilan cheklanadi. U yakka holda nominativ xarakterda bo‘lib, emotsional-ekspressivlikdan xoli bo‘ladi. Boshqa bir o‘rinda shoir gul leksemasi o‘rnida shunga yaqin bo‘lgan “g‘uncha” so‘zini qo‘llash bilan yangi metafora hosil qilgan:

*Labingdan shakl oldi bichiqchi bahor,  
Bu qirmizi g‘uncha bo‘stondan emas.*

Metaforalar Omon Matjon ijodida ko‘p uchraydi. Shoir tomonidan metafora sifatida tanlangan poetik obraz real voqelikni badiiy bo‘yoqlarda aks ettiradi, kitobxonga badiiy-estetik ta’sir ko‘rsatadi. Adabiyotshunoslika doir manbalarda metaforalar metaforik sifatlash, metoforik epitet ham deyiladi. Tilshunos

B.Umurqulovning ko'rsatishicha, "til metaforasi badiiy metaforadan o'xshashlikning formasiga ko'ra farqlanadi: til metaforasi ikki predmet orasidagi bevosita yoki ochiq o'xshashlikka asoslangan ko'chimdir. Masalan: bosh so'zining asosiy leksik ma'nosi "bosh qism" bo'lib, tog'ning boshi, yo'lning boshi, ish boshi, jo'raboshi kabi ko'chma ma'nolarga yega. Badiiy metaforada predmetlar orasidagi o'xshashlik asosida badiiy bo'yoq, obrazlilik yotadi. Demak, badiiy metafora til metaforasidan, dastlab, fikrni obrazli ifodalashi bilan ajralib turadi. Badiiy metaforada o'xshashlik yashiringan holda bo'ladi". [5.: 109.]

Metaforalar Omon Matjon she'riyatida turli ko'rinishda namoyon bo'ladiki, bu ijodkorning tafakkuri doirasi keng ekanligi, xalqimizning urf-odatlarini, qadriyatlaridan yaxshigina xabardor ekanligidan dalolat beradi. Xalqimiz azaldan sherni kuch-qudrat, lochin, burgut, qarchig'ayni yuksaklik, musichani beozorlik, kaptarni beg'uborlik timsoli sifatida ulug'lab keladi. Shoirning "burgut" so'zini metafora sifatida qo'llashida bu holat sezilib turadi:

*Qashqir* metaforasida bu yirtqichning o'laksaxo'rliigi nazarda tutilgan:

*G'iybat qashqirlari, hasad itlari*

*Endi ochdan o'ling, keting, bas endi...*

Omon Matjon she'riyatida qo'llanilgan metaforalar tanlanishiga ko'ra matn mazmuniga to'la mos keladi, obrazlilik, jozibadorlik, ta'sirchanlik va ohangdorlik kabi xususiyatlarini namoyon qiladi. Ayniqsa, shoirning sevimli yorga nisbatan gul, oqqush metaforalarini qo'llashi matn mazmunini yanada kuchaytiradi. Bilamizki, metafora bir predmetning nomini boshqa predmetga biror tomondan o'xshashligini e'tiborga olib ko'chirish. Metafora so'zning yangi ma'nolari hosil bo'lishida qatnashadigan omillardan biridir. Omon Matjon ijodida qo'llanilgan metaforalar badiiy pardozi bo'lib qolmay shoirning ijodiy tafakkuri, til birliklaridan foydalanish mahorati to'g'risida ham ma'lumot beradi. Shoir tilimizdagi mavjud metaforalardan foydalanish bilan birga yangi metaforalar ham yaratadi. Bunday individual metaforalar o'ziga xosligi bilan ajralib turadi:

O'zbekiston! Sening *o'ktam* oyoqlaringni

Yuz yil shundog' qo'yvormadi *Shimol muzlari*.

Yuking – og‘ir, shamollar – *och*...

Va shoxlaringda

*Jon qushlarim* ming jovdirab boqar ko‘zlari. [4.: 6.]

Shoirning quyidagi satrlarida ko‘zga tashlangan metaforali tarzda ifodalangan fikrlar ham e‘tiborga molik:

Bu nechuk manzildir, tog‘lar *soqchidir*,

Na beshik – ko‘k-yashil bayroq *yopinchiq*?!

Bu qandoq go‘dakdir, allasi – *bo‘ron*,

Yulduzlar – *o‘yinchoq*, *yashin* – ovunchi?!

Kim u, *bulutlarni yirtgan* bir qarab,

Bu – Mashrab, Mashrab! [4.: 13.]

Ma‘lumki, poetik matnda Omon Matjon tomonidan nazarda tutilgan ma‘noning voqelikdagi ma‘lum bir o‘xshashlik asosida ko‘chishi metaforaning asosiy, muhim belgilaridandir. Metaforani hosil qilishda obrazlilik hosil qilishdan tashqari matnda bo‘yoqdorlik va ta‘sirchanlikni yuzaga keltirish ko‘zda tutiladi.

Adabiyotshunos olim B. Sarimsoqovning yozishicha, metafora hamma vaqt o‘xshashlik asosida yuzaga kelsa ham, biroq u o‘xshatishdan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi: O‘xshatishda o‘xshatiluvchi ham, o‘xshatilmish ham ma‘lum grammatik vositalar bilan birgalikda o‘z ma‘nolari bilan qatnashadilar. Metaforada o‘xshatiluvchi narsa o‘rnida o‘xshatilmishning o‘zi ko‘chma ma‘noda keladi. [6.: 179.]

Poetik matnning ifodali va ta‘sirchan bo‘lishi, lingvopoetik vositalarga, emotsional-ekspressiv so‘z va iboralarga boy bo‘lishi ijodkorning lisoniy zahirasiga, ona tilimiz qonuniyatlaridan qay darajada xabardor ekanligiga bog‘liq. Shunga ko‘ra badiiy matnlarda turli so‘z turkumlariga oid metaforalar uchraydi. Xullas, Omon Matjon she‘rlarida qo‘llanilgan metaforalar she‘rning mavzu mohiyatini ochib berishda, shoir tomonidan tasvirga olingan nutq obyektini ta‘riflash va kitobxon tasavvurida muallif istaganday gavdalanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Арутюнова Н. Д. Метафора и дискурс // Теория метафоры. М., 1990. – С. 51.
2. Жумабоева Жумагул. Омон Матжон. Тошкент. “Фан” нашриёти, 1993. – 144 б.
3. Омон Матжон. Ўртамизда биргина олма. Тошкент. “Ёш гвардия нашриёти” 1990. – 93 б.
4. Омон Матжон. Иймон ёғдуси. Фафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1995. – 382 б.
5. Умуркулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. Тошкент, 1990. – Б.109.
6. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. Тошкент. “Ўқитувчи” 1979. – 179 б.

### **MATNAZAR ABDULHAKIM SHE’RIYATIDA TUYG‘ULAR TASVIRI**

**Rahimova Bekposhsha Bahodirovna,**

*filologiya fanlari nomzodi, dotsent,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada taniqli shoir Matnazar Abdulhakimning yuksak umuminsoniy tuyg‘ular aks ettirilgan bir qator she’rlari tahlilga tortiladi. Ijodkor uslubiga xos badiiy-uslubiy jihatlar talqin qilinadi.

**Аннотация.** В статье анализируется ряд стихотворений известного поэта Матназара Абдулхакима, в которых отражены высокие общечеловеческие чувства. Интерпретируются художественные и стилистические аспекты, характерные для данного творческого стиля.

**Abstract.** This article analyzes a number of poems by the famous poet Matnazar Abdulhakim, which reflect high universal human feelings. The artistic and stylistic aspects characteristic of the creative style are interpreted.

**Kalit so‘zlar:** tahlil, uslub, adabiy meros, ijod, tamoyil, badiiyat.

**Ключевые слова:** анализ, стиль, литературное наследие, творчество, принцип, художественность.

**Keywords:** analysis, style, literary heritage, creativity, principle, artistry.

Matnazar Abdulhakim lirikasining mavzu doirasi nihoyatda keng va ko‘lamli, shakl jihatdan rang-barang bo‘lib, aruz va an’anaviy barmoq vaznida yozilgan she’rlardan iboratdir. Shoir asarlarida milliy adabiy an’analarni novatorona o‘zlashtirish bilan birga, jahon she’riyati tajribalaridan, ayniqsa, rus she’riyatidan bahramand bo‘lish, ularni ijodiy qo‘llash barobarida lirik qahramon talqini, tasvir shakli, ifoda vositalari, badiiyati va janriy o‘ziga xoslik xususiyatlari ajralib turadi. Matnazar Abdulhakim she’rlarini mutoala qilar ekansiz, uning badiiy mahorati yuksak, tafakkur ufqlari keng ekanligi tobora yorqin namoyon bo‘la boradi. Shoir she’rlarida o‘ziga xos betakror lirizm va falsafiy fikr teranligini ta’sirchan ifodalab, badiiy yuksaklikka erisha olgan. Biroq shoir shaxsiyatida kamtarlik, ijod va so‘zga mas’uliyatlilik hamisha juda yuqori bo‘lganligi bois ham “Men yaxshi bilaman qo‘shiqlarim jo‘n, Bilaman, bular bir oddiy mashqlar”, – deydi.

She’riyat oddiy so‘zlar yoki tizimli qoliplardan iborat bo‘lgan ohangdosh satrlar san’atigina emas, balki shoir qalbidan sizib chiqadigan tiniq tuyg‘ular tajallisidir. Bu tuyg‘ular jarangi ijodkor qalb torlaridan taraladi. O‘zining diltortar satrlari bilan kitobxon qalbini larzaga solgan ijodkor Matnazar Abdulhakim she’riyati yuksak estetik tafakkur va iste’dod orqali maydonga kelgan ijod namunalari o‘zida mujassamlashtirgan. Shoir ijodida muhabbat mavzusi keng yoritiladi.

“Yonma-yonlik – olis,

Yonma-yonlik – oz.

Bizlar bir-birovda bo‘lmog‘imiz shart.

Faqat shu.

Boshqasi – judolik xolos.

Boshqasi davolab bo‘lmaydigan dard”.

Yuqoridagi misralar shoirning “Visol qo‘shig‘i” sarlavhali she‘ridan olingan bo‘lib, bunda shoir lirik qaramon – oshiq tilidan yonma-yonlik ya’ni vaslning nechog‘liq olis va oz ekanligini yonib so‘zlaydi. Ikki dil faqat bir-biri bilan halovat topishini anglagan holda, ularning hamisha birga yashamoqlari joizligini, bundan boshqasi ular uchun judolik azobi va bedavo dard bo‘lmog‘ini bayon etadi. “She‘r ko‘pincha dard ifodasidir. Kamdan-kam hollarda quvonchdan she‘r tug‘iladi. Shu sabab she‘rni qayg‘uning o‘z farzandi, quvonchning o‘gay bolasi deyish mumkin”. [1.: 655.] Shoir o‘z she‘rida inson qalbidan kechayotgan iztirobni ta’sirli tasvirlaydi.

“Iltijo emas,

Yo‘q,

Afsun qilaman:

Sen menda,

Men senda bo‘lamiz.

Boshqasi bedavo dard. Men bilaman.

Bu dardni bir cheksak,

O‘lamiz”.

She‘rning keyingi bandida ijodkor qismat bitigidan qocha olmasdan, iltijodan naf yo‘qligini anglagan holda oshiqona afsun qilishini ta’kidlaydi. Oshiqalar uchun lahzalik ayriliqning ham o‘lim bilan tengligini aks ettiradi. She‘rdagi fikrlar ijodkorning poetik mahorati asosida muhabbat va iztirobning izchil tasvirini ifodalaydi.

Matnazar Abdulhakim ijodida ishq tasviri bilan barobar judolik va sog‘inch motivi yoritilgan sh‘erlar ham juda ko‘pchilikni tashkil qiladi. Ijodkor ayriliqni o‘ziga xos tarzda betakror misralar bilan ta’riflaydi. Uning “Og‘riq” sarlavhali she‘rida lirik qahramon tilidan ayriliqdagi oshiqning ruhiy holati nozik ma’no qirralari orqali aks ettiriladi:

Deylik qo‘li kesib tashlangan odam

Yo‘q qo‘l zirqirashin his qilar emish.

Sevgilim men seni sog‘indim qattiq,

Azob chekmakdaman og'riyapsanmi

Ma'lumki, insonga hamisha uning yo'qotganlari azob beradi. Qalb o'zidagi bo'shliq va jarohatni aslo unutmaydi. Shoir ana shu yo'qotish, ya'ni ayriliq og'rig'ini go'yo qo'li kesib tashlangan odamning o'z vujudida aynan o'sha qo'lning zirqirashini mudom his qilishiga mengzaydi. O'zini tanaga qiyoslasa, yorini ana shu tananing ajralmas qismi bo'lgan qo'lga tashbeh qiladi. Bu o'rinda shoir inson o'zi uchun qadrdon bo'lgan vujudining bir parchasidagi og'riqni har lahza ichdan his qilgani kabi qalban juft yaralgan ikki insonning biri sog'inchdan iztirob chekayotgan mahalda ikkinchisi ham ana shu dardni ko'nglidan o'tkazishini falsafiy tarzda go'zal dalillaydi. Mazkur she'rni taniqli o'zbek shoiri Asqad Muxtorning quyidagi ijod misralari bilan mazmun jihatdan qiyoslab tahlil qilish maqsadga muvofiqdir:

Sen yo'qsan, rishtalar parkand-parkand,

Og'rig'idan tunlar sassiz dodlayman,

Bir askar so'zlarin yodlayman:

Yo'q oyog'i og'rib qiynarkan...

Keltirilgan misralarda ham xuddi yuqorida tahlilga tortilgan she'rdagi kabi ikki yorning hijron kunlaridagi holati manzarasi tasvirlanadi. Ma'shuqasi uni tark etganidan so'ng o'z qalbida muqim o'rnashgan dardning har lahza zirqirab og'riq beruvchi yaraga aylanganidan azoblanayotgan oshiq o'zini urushda oyog'ini yo'qotib, o'sha ayrilgan oyog'ining zirqirashidan qiynalayotgan askarga qiyoslaydi. "She'r – shoirning dilidagi gapi, oshkor qilayotgan dardi, izhor etayotgan muhabbati. Ma'lumki, har bir insonning ko'nglidagi gapi, uni bezovta qilgan dard va izhor etilgan sevgisi faqat o'ziga tegishli va boshqa hech kimda takrorlanmaydigan bo'ladi. Zero, taqdir qaytarilmasdir". [1.: 258.] Anglaganimizdek, har ikkala asar ham donishmand ijodkorlarning mahorati tufayli mazmunan uyg'unlik hosil qilsa-da, ayrim jihatlari bilan bir-biridan farqlidir. Matnazar Abdulhakim qalamiga mansub she'r erkin vaznda yozilgan bo'lib, shoir bu she'rda inson ruhiy holati aks ettirishda chuqur hissiy ifoda yo'sinini ilgari suradi. Asqad Muxtor tomonidan yaratilgan she'rda ham bu jihatlar mavjud bo'lsa-

da, ijodkor ko‘proq reallikka urg‘u beradi. Ya’ni o‘z tuyg‘ularini askar kechmishi bilan dalillash orqali namoyonetadi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, har ikkala ijodkor ham qalb og‘rig‘ini o‘z qarashlari va estetik idealidan kelib chiqqan holda teran falsafiy fikrlar vositasida go‘zal tarzda bayon etgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Qozoqboy Yo‘ldoshev. Ochqich so‘z. – Toshkent: “Tafakkur”, 2019. –688 b.
2. Абдуллаев Х. Мангуликка мухтасар назар. Урганч. “Хоразм нашриёти”. 2018. – 57 б.
3. Абдулҳаким М. Мангулик жамоли. – Хива: Хоразм Маъмун академияси, 2009. – 16 б.
4. Матназар Абдулҳаким.Эътиқоднинг заъфарон малҳамлари// Хоразм ҳақиқати.1998, 25 март.
5. Ғайипова Х. Теран тафаккур ва тиниқ туйғулар куйчиси. Урганч. 2019. – 76 б.

## **DAVR SINOVIDAN O‘TGAN, ABADIYATGA YUZ TUTGAN ASAR**

**Sayyora Samandar**

**O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi,  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent.**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada 20-asr o‘zbek adabiyotining yorqin namoyandasi Erkin Samandarning ijodiy faoliyatida muhim o‘rin tutgan durdona asari tadqiq qilinadi. Shoirning madhiyaga tenglashtirilgan “Xorazm farzandiman” she’rining yaratilishi, bunga sabab bo‘lgan omillar yoritib beriladi. She’r va shoirning abadiyatga daxldorligi, asarning adabiy merosga aylanganlik darajasi tahlil etilgan.

**Аннотация:** В статье рассматривается шедевр, сыгравший ключевую роль в творчестве Эркина Самандара, выдающегося представителя узбекской литературы XX века. Объясняется создание поэтом стихотворения

гимнового уровня «Я сын Хорезма» и факторы, обусловившие ее возникновение.

**Abstract:** This article examines the masterpiece that played the most important role in the creative activity of Erkin Samandar, a bright representative of 20th-century Uzbek literature. The creation of the poet's hymn-level poem "I am a son of Khorezm" and the factors that led to it are discussed.

**Kalit soʻzlar:** Xorazm, tarix, adabiyot, sheʼr, shoir, shaxs, durdona, fenomen, adabiy meros.

**Ключевые слова:** Хорезм, история, литература, поэзия, поэт, личность, шедевр, явление, литературное наследие.

**Keywords:** Khorezm, history, literature, poem, poet, person, masterpiece, phenomenon, literary heritage.

20-asr oʻzbek adabiyoti, xususan Xorazm adabiy muhitida Erkin Samandar (1935–2024)ning oʻziga xos va oʻziga mos nufuzi boʻlganligi adabiyotshunoslar tomonidan tadqiq qilingan va bu jarayon bugungi kunda ham davom etmoqda. Bu haqda dissertatsiyalar yoqlanib, monografiyalar, risolalar, maqolalar yozilgan.

Yaʼni xalq, adabiyot muxlislari, ijod va ilm ahli tomonidan Erkin Samandarning hayoti, ijodiy faoliyati, 1990–93 yillardagi Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Raisining oʻrinbosari sifatidagi davlatchilikdagi mavqei, qilgan ezgu ishlari eʼtirof etilib kelmoqda. Faxru iftixorlik jihati shundaki, Erkin Samandar mening ham otam, ham ustozimdir.

Otam haqida, ularning serqirra va sermahsul ijodi, boy adabiy merosi haqida gapirganda, albatta, “Xorazm farzandiman” nomli barcha xorazmliklarning qalbidan birday joy olgan mashhur sheʼrlari tilga olinadi. Bu sheʼrni akademik Baxtiyor Nazarov “Humoyun sheʼr” deb atagan edilar. Adabiyotshunos olim oʻz fikrlarini jumladan, shunday bayon qiladi: “Humoyun” soʻzi qutlugʻ, baxtli, saodatli, Yaratuvchining mehr-muhabbatiga erishgan, el-yurt duosi-yu sharafiga munosib degan maʼnolarni anglatadi. Afsanaviy humo qushi tasviri hatto davlat ramzida ifodalanishi ham bejiz emas. Demak, humo va humoyun soʻzlariga jo

bo'lgan ma'no boshqa ko'plab go'zal va porloq ma'nolardan tashqari Vatan tushunchasidagi javhar fikrga ham daxldor bo'la oladi.

Taniqli shoir, yozuvchi, dramaturg Erkin Samandarning "Xorazm farzandiman" she'ri yaratilganiga qirq yil bo'ldi. Bu vaqt mobaynida nechog'li zamonlar o'tdi, orzular so'ndi, olamni tutmoqchi bo'lgan asarlar kitob javonlaridan yo'qoldi. Lekin bu asar ko'pgina salmoqli she'rlar qatorida hamon yashamoqda. Yashaganda ham yildan-yilga umriga umr, kuchiga kuch, quvvatiga quvvat, go'zalligiga go'zallik qo'shilib, ixlosmandlarining davrasi kengayib yashashni davom ettirmoqda. Vatan haqidagi yaxshi, jozibali she'rning dunyoga kelish sanasi bor, lekin ketish sanasi yo'q. Bunday asarlar o'z o'quvchilari bilan ularning bag'rida doimo yashab qoladi.

Shukrona aytmoqchimanki, biz Vatanni sevishni, unga sodiq bo'lishni, kerak bo'lsa, unga jon fido qilishni Erkin Vohidovning "O'zbekim"idan, Abdulla Oripovning "Men nechun sevaman O'zbekistonni" she'ridan, Erkin Samandarning xuddi mana shu "Xorazm farzandiman" singari asarlaridan o'rganamiz.

Yuqori saviyadagi badiiy asarlarning o'ziga xos fazilati bo'ladi. Bunday asarlar qaysi zamonda bitilgan bo'lishiga qaramay, gohida bugun yozilganday jaranglab turadi. "Xorazm farzandiman" she'riga ham ana shunday xususiyat xosdir. Xususan, mustaqillikdan deyarli yigirma yil oldin yaratilgan bo'lishiga qaramay, she'rning ayrim manzaralaridan go'yo istiqloлга erishgan yurt taronalarini tuygandek bo'lamiz:

*Gullari ranglarini ko'z ichiga joyladim,*

*Ming jilo, ming rang sochib kulgan diyor farzandiman.*

Bu bilan kifoyalanmay, shoir asar yozilgan paytda, sho'ro mafkurasi hukmron bo'lgan sharoitdayoq o'z asariga ma'lum darajada istiqloл g'oyalarini singdirishga harakat qilgan:

*Mard Jaloliddin yiqildi jangda shu tuproq uchun,*

*Men shu tuproq vorisiman, men, shu el farzandiman,*

misralari, nazarimda, shunday deyishga asos beradi... (2010 yil).

Mazkur she'rning yaratilish tarixi haqida Otam shunday yozganlar:

“Toshkentda turib Xorazmni juda sog‘ingan edim. Amudaryoni (qish qattiq kelib, suv muzlagan yillari bu qirg‘og‘idan u qirg‘og‘iga muz ustidan aravada, mashinada o‘tganmiz), Qoraqumni, Xivani, Sulton Uvays tog‘ tizmalariyu, Qadimiy Urganch qadamjolarini bir ko‘rsam, ota-onam, do‘stu-jo‘ralarim diydoriga to‘ysam, Xorazm qo‘shiqlarini Xorazm hofizlari tilidan Xorazmda tinglasam, deyman.

Orzuyim ushalib, 1970-yilning 31-dekabr kuni kechqurun oilam bilan Urganchga yetib bordik. Samolyotdan tushishim hamono ruhiyatim qushday yengil tortib, qandaydir kuch go‘yo meni uchishga chorlaganday, men esa endigina Ona Yerga tekkani qadamimning undan uzilishini istamaganday, vazmin yurishga harakat qilaman, ammo oyog‘im yerga bir tegib, bir tegmay boradi.

Tug‘ishganlar davrasida yangi yilni kutib olish, ertasi Urganch, Xiva va boshqa joylarda do‘stlar bilan bo‘lgan hangomalar, bolalik, yoshlik yillari kechgan shahru-qishloqlar ziyorati – mana shularning hammasi yuragimda mislsiz bir ilhom, zavq-shavq uyg‘otgan ediki, agar hayqirib uni qog‘ozga to‘kib-solmasam, ko‘krak qafasimni yorib yuborsa ajab emas, derdim.

Ikki kun davomida yog‘gan qor sog‘inib kelganim Xorazmni boshdan-oyoq oppoq libosga chulg‘agan. Yaproqlarini to‘kib, kumush rangga aylangan gujumlar, yahlab, ustiga oq ko‘rpa solib olgan Amudaryo, oqar Qoraqum barxanlari, uzoqlardan yaltirab ko‘rinuvchi Sulton Uvays tog‘lari, Xiva gumbazu minoralari xayolni o‘tmishga olib qochsa, qora cho‘girma, sariq po‘stin kiygan oqsoqollar, sher oyi popoq kiygan yoshi ulug‘lar, mahsi-kavush, baland poshnali qora etik, jun ro‘mol, suvoriy yoqali palto kiygan ayollar, chana mingan, sirpanchiq uchayotgan sho‘x bolalar o‘tmish qa‘riga botgan xayollarni bugungi lahzalarga qaytaradi.

O‘zining mardona tarixiga ega, o‘z ovozig, o‘z sozig‘a ega, qadimiy-yu navqiron yurt – Xorazm! Men uning farzandiman!

O‘z nomi bilan (“Xorazm farzandiman”) tug‘ildi she’r! U bir o‘tirishda, bir damda yozildi (ayrim bandlarini bir hafta-o‘n kun ichida qo‘shib to‘ldirganman).

Oltin topgan quldek shoshilib-quvnab she’rni o‘sha kuni “Xorazm haqiqati” tahririyatiga olib bordim. Keyingi sonida bosilib chiqdi.

U jurnallar, to‘plamlarda, kitoblarda chop etildi. Betakror ovoz sohibi, hofiz inimg Ortiq Otajonov uni kuyga solib, maromiga yetkazib ijro etdi. She‘r ixlosmandlari uni yod olib, davralarda, to‘ylarda aytishdi.

She‘r el ichiga kirib ketdi!”

Bugun barcha yurtdoshlarimiz qalb tubidan joy olgan ushbu she‘r yaratilganida men 3 yoshli qizaloq edim. Va behisob shukrki, men mana shu she‘rga hamnafas bo‘lib ulg‘aydim. Mazkur she‘r Otamning 36 yoshli navqiron yigitlik paytida yaratilgan. “Dong‘ini men ham jahon bo‘ylab bonga urib aytgim kelar” degan misra – bu o‘ktam yigitning, she‘riyat maydoniga, adabiyot olamiga dadil kirib kelgan va o‘zining So‘ziga, ovozigaga ega bo‘lgan ijodkorning yurakdan aytgan So‘zi bo‘lib yuraklarga muhrlandi. Hech ikkilanmasdan ayta olamanki, bu she‘r Otamning tashrif qog‘ozi bo‘ldi, she‘riyat ixlosmandlarining, xorazmliklarning diliga mangu muhrlangan dastxat bo‘lib qoldi.

Uyimizda tez-tez olimlar, shoir va yozuvchilar, san‘atkorlar mehmon bo‘lishardi. Bunday davralar she‘riyat bayramiga, So‘z va Soz bayramiga aylanib ketardi. Ovqatlar tortilgandan keyin, davraning nazm va navo qismi boshlanardi. Shunda biz, hammamiz Onam bilan birga jam bo‘lib olib, “ana, boshlandi” derdik (bu mehmondorchiliklarning menga eng yoqadigan joyi aynan shu qismi edi). Vujudimiz quloqqa aylanib, ichkarida avjiga chiqayotgan she‘rxonlikni huzurlanib tinglardik. Har safar esa davraning yakunida Otamdan “Xorazm farzandiman” she‘rini o‘qib berishlarini so‘rashardi. Otam o‘zining o‘ktam, vazmin ovozi bilan she‘rni o‘qiy boshlardilar. O‘sha ohang mening ruhimga singib qolgan. Hozir ham agar men uni aytadigan bo‘lsam, beixtiyor aynan Otamning ohangida aytaman. Uni boshqacha aytishning iloji ham yo‘q. Nazarimda, bu she‘r o‘zining ohangi bilan, o‘zining navosi, nolasi bilan dunyoga kelgan.

Xorazmning o‘tmishi, boshidan kechirgan azobli davrlari bilan bog‘liq bandlarni Otam boshqacha bir dard, og‘riq bilan o‘qirdilar. Ayniqsa:

*Goh bulut ostida qoldi, goh kuldi yulduzi,*

*Qirdi bu yurtni necha yov, bosdi Jo‘ji, Chingizi,*

*Suv bo‘lib qon oqkanini so‘ylasin Jayhun o‘zi,*

*So 'ylasam men, shu jabrdiida Vatan farzandiman,*  
misralarini Otam o'kinch bilan, hasratu alam qorishiq ohangda aytardilar.  
Buni men o'sha paytdagi bolalik shu'urim bilan his qilganman. O'z o'rnida,  
Xorazmning bugungi kuni, porloq istiqboli haqidagi misralarni esa ko'tarinkilik,  
g'urur, faxr bilan aytardilar:

*Ne ajab tovlansa xil-xil, bog 'u bo 'ston bu axir,*  
*Yangilik kashf etmadim men, tilda doston bu axir.*  
*O 'zbekiston bu, yoronlar, O 'zbekiston bu axir,*  
*Ne uchun faxr etmagayman, men axir farzandiman!*

Mazkur she'rni o'qish jarayonida Otam go'yoki uning ichida yashardilar.

Adabiyotda "shedevr asar" degan tushuncha bor. Men hech ikkilanmasdan "Xorazm farzandiman" she'rini Otamning durdona asari deb atayman. Shu uchun ham bu she'r minglagan yuraklardan joy oldi, o'z-o'zidan yod bo'lib ketdi. Taqdir taqozosi bilan o'z yurtidan chetda bo'lgan eldoshlarmizga vatandan ayri damlardagi sog'inchni bosishda malham bo'ldi. Bu esa she'rning ham, shoirning ham juda katta baxtidir! Bu Otamning baxtli she'ridir! Uning oxirgi bandi shunday yakunlanadi:

*Kim bilan oshno tutinmay, kim-la suhbat qurmayin,*  
*Xivami, Urganchmi yo Toshkentda yashab turmayin,*  
*Qaysi elga bormayin, qay goshalarda yurmayin,*  
*Xorazm farzandiman men, Xorazm farzandiman!*

Aynan mana shu band bilan Otam o'zlarining hayot tamoyillarini ifoda etganlar. Taqdir bo'lib, ular uzoq yillar poytaxtda yashab, ijod qildilar. Ammo hamisha Xorazmga intiqlik, Ona tuproq sog'inchi ular bilan birga yashadi. Mazkur she'rning yaratilganiga bu yil 54 yil bo'ldi. U davrning sinovidan, imtihonidan o'tib bo'ldi. Men bu she'rning mangulikka daxldor bo'lganidan, abadiyatga yuz tutganidan faxrlanaman!

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Matyoqub Qo'shjonov, "Shoir, dramaturg, romannavis", Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2005 yil.

2. Erkin Samandar, “Men shu el farzandiman”, “Xorazm nashriyoti”, Urganch – 2015 yil.

3. Baxtiyor Nazarov, “Humoyun she’r”, “Xorazm” nashriyoti, Urganch – 2015 yil.

**BADIIY PUBLITSISTIKADA ZAMONDOSHLARIMIZ MA’NAVIIY-  
INTELLEKTUAL QIYOFASI (O‘.HOSHIMOV BADIIY  
PUBLITSISTIKASI MISOLIDA)**

**Kurbanova Saida Bekchanovna,**

*Filologiya fanlari nomzodi, dotsent,*

**Bakturdiyeva Nilufar,**

*magistrant,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Maqolada O‘tkir Hoshimov badiiy publitsistikasida zamondoshlarimiz ma’naviy-intellektual qiyofasining badiiy-publitsistik talqini masalasi tahlil etiladi.

**Аннотация.** В статье анализируется вопрос художественно-публицистической интерпретации духовно-интеллектуального образа современников в художественной публицистике У.Хашимова.

**Abstract.** The article analyzes the issue of artistic and journalistic interpretation of the spiritual and intellectual image of contemporaries in the artistic journalism of U.Hashimov.

**Kalit so‘zlar:** badiiy publitsistika, ma’naviy-intellektual qiyofa, badiiy-publitsistik talqin, shaxs, jamiyat va shaxs psixologiyasi

**Ключевые слова:** художественная публицистика, духовно-интеллектуальный образ, художественно-публицистическая интерпретация, личность, психология общества и личности

**Keywords:** artistic journalism, spiritual and intellectual image, artistic and journalistic interpretation, personality, psychology of society and personality.

Jamiyatimizda ro‘y berayotgan iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ma’naviy o‘zgarishlar badiiy-publitsistik mushohadakorlikning yuksalishiga olib keldi. Bugungi kunda shaxs va jamiyat masalasini mustaqillik mafkurasi, ma’naviy-axloqiy yo‘nalish asosida o‘rganish badiiy publitsistikaning bosh yo‘nalishiga aylandi. Publitsist yozuvchilarimiz o‘z asarlarida jamiyat psixologiyasini, zamondoshlarimizning yuksak ma’naviyati va shaxsiyatini hissiy va mantiqiy tafakkur uyg‘unligida aks ettira boshladilar. Demak, badiiy publitsistika zamondoshlarimizning ma’naviy-intellektual qiyofasini, ularning ruhiyati manzarasini tasvirlash orqali voqelikda kechayotgan hodisalarga, jarayonlarga o‘z munosabatini bildira boshladi. Hozirgi zamon yozuvchi publitsistikasida zamondoshlarimizning ma’naviy-intellektual qiyofasi haqidagi mulohazalar asosan kichik, ixcham hayotiy manzaralarda ifodalanadi. O‘tkir Hoshimovning “Alloma” badiiy-publitsistik maqolasi adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinovga bag‘ishlangan. Maqolada publitsist talabalik yillari, shu davrdagi O.Sharafidinov bilan bog‘liq xotiralarini esga oladi. Xususan, Cho‘lpon kabi millatparvar shoir va adiblarning ijodi tazyiq ostiga olingan davrda ham Ozod Sharafidinov talabalarga Cho‘lpon she‘rlaridan yoddan o‘qib berganini, 80-yillar oxirida “Sharq yulduzi” jurnalida “Kecha va kunduz” romanining qayta nashr etilishi, unga domla teran so‘zboshi yozganliklarini ham xotirlaydi. 1991-yildan keyin Cho‘lponning “Yana oldim sozimni” kitobi, uch jildlik asarlarining chop etilishida O.Sharafiddinovning xizmatlarini tilga oladi. Maqolada Ozod Sharafiddinov avvalo haqiqiy zahmatkash olim, xolis munaqqid sifatida gavdalanadi: “Ozod Sharafiddinov chinakkam san`at asaridan zavqlanish baxtiga muyassar olim. Yaxshi asar haqida to‘lib-toshib, quvonib, hayajonlanib yozadi... Bu olimda iste`dodni ko‘ra bilish, iste`dodni avaylay bilish san`ati bor. Shu boisdan ham sakson yashar oqsoqoldan tortib yigirma yashar talabagacha domlaga suyangisi keladi. Negaki, domla ularni turli sovuq shabadalardan, g‘arazgo‘ylik bilan otilgan toshlardan, tushunar-tushunmas o‘qtalingan kaltaklardan asraydi, o‘zbekchasiga aytganda, “to‘nini yechib, maydonga tushib ketadi” [3.: 91.]. Bundan tashqari, maqolada olimning yuksak ma’naviy fazilatlaridan biri uning insonparvarligi, mehrparvarligi alohida

ta'kidlanadi: "Domlaning bir fazilatini hamma o'rgansa arziydi. Qayerga bormasin, eski qadrdonlarini yo'qlaydi. Basharti ular betob bo'lsa, albatta borib ziyorat qiladi!" [3.: 91.].

Ko'rinadiki, O'tkir Hoshimov Ozod Sharafiddinov qiyofasida bugungi o'zbek ziyolisining yuksak ma'naviy-axloqiy dunyosini ko'rsatib beradi. Muallif, birinchidan, o'z qahramonining obrazini tasvirlashda ortiqcha hech narsa qo'shmaydi, faktlarni o'zicha idrok etadi va shaxsiy taassurotlari bilan o'rtoqlashadi, ikkinchidan, qahramoniga nisbatan o'zining hissiy munosabatini ifodalaydi, uchinchidan, mavjud ma'lumotlar asosida vaziyatning rivojlanish sur'atini ko'rsatib beradi. Maqolada Ozod Sharafiddinovning o'ziga xos odatlari, jumladan, uning sayohatni xush ko'rishi, kitob shaydosi, shaxmat fanati ekanligi publitsist shaxsan guvoh bo'lgan voqealar orqali bayon etilib, muallif nigohi orqali baholab beriladi. Demak, publitsist o'quvchi badiiy nigohining markazida turuvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Aynan muallif nigohi orqali o'quvchi maqoladagi voqeaning mohiyatiga chuqur kira oladi va u yoki bu hodisaning tavsifini mukammal o'zlashtiradi. O'tkir Hoshimov Ozod akaning kitobsevarligini obrazli hikoyasi bilan shunday xotirlaydi: "Domlaning yana bir odati bor: kitob shaydosi! Shaharlarni qo'ya turing, eng chekka qishloqning qaysi burchagida qanday kitob do'koni borligini besh qo'ldek biladi. Ayniqsa, safar chog'i sayr qilsak, mening mashinam pochtaachining eshagiga aylanadi. Pochtachi har eshik oldida "ishsh-sh" deb eshshagini to'xtatganidek, men ham har bir kitob do'koni oldida mashina tormozini bosishga majbur bo'laman. "Manavi yerdan o'ngga yuring", deydi Ozod aka. Yuramiz. "Endi chapga buriling", deydi. Burilamiz. "Ana endi to'xtang", deydi. To'xtaymiz. Do'konga kiramiz. Sotuvchi quvonib ketadi. (Domla bilan eski qadrdon-da!) Biz ikki-uch kitob olib chiqamiz. Mashinaga kelib o'tirib mutolaaga tushamiz. Yarim soat o'tar, bir soat o'tar, ikki soat o'tar; domladan darak yo'q? Bir mahal ikki kishi kattakon qopning ikki tomonidan ko'tarib inqillab chiqib keladi. "Bagajnikni oching", – deydi domla. Ochamiz. Kitob yukxonaga joylanadi. "Yopmay turing, – deydi domla, – yana bittagina qop bor". Yukxona to'ladi. Oxiri o'zi ham bir quchoq kitob ko'tarib chiqadi. "Bunisi tizzada ketaveradi, – deydi

domla, – mashinaga og‘irligi tushmaydi...” [3.: 92.] Ko‘rinadiki, Ozod Sharafiddinov qiyofasida bugungi ilm ahlining, ziyoli shaxsning ma‘naviy-intellektual salohiyati gavdalanadi. Ushbu publitsistik maqolada xotira detallari yaxlit holda oddiy inson va olim Ozod Sharafiddinov portretiga reallik bag‘ishlaydi, uning shaxsiyatini hayotiy gavdalantirishga, xulq-atvor motivlarini aniqlashga asos bo‘ladi. Maqolada har bir fakt va memuar detal izchil joylashtirilgan. Ular biri ikkinchisini taqozo etadi va zamondoshning hujjatli obrazini yaratish vazifasini bajaradi.

Kuzatishimizcha, O‘tkir Hoshimovni ziyoli shaxsi, uning ijtimoiy mavqeyi, burchi va vazifalari masalasi qiziqtiradi. Buning sababi shundaki, ziyolilar jamiyatdagi ma‘naviy-axloqiy muhit uchun hammadan-da mas‘uldirlar. Masalaga shu jihatdan yondashilsa, yozuvchining o‘qituvchi shaxsi, uning ijtimoiy mas‘uliyati va qadr-qimmatidan bahs etuvchi “Qalbning oppoq daftari” maqolasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Adibning ta‘kidlashicha, o‘qituvchilik kasbi g‘oyat olijanob, g‘oyat saxovatli kasb. Binobarin, bu kasb egalarining ijtimoiy nufuzi ham shunga muvofiq yuksak bo‘lishi lozim. Ammo keyingi vaqtlarda ularning odamlar orasidagi obro‘yi sezilarli darajada tushib ketganini nima bilan izohlash mumkin? Buning ularga bog‘liq bo‘lmagan obyektiv sabablari ham bir talay, deya ta‘kidlaydi publitsist.

Xususan, O‘tkir Hoshimov “Qalbning oppoq daftari” maqolasida o‘qituvchi shaxsining ichki olamini, uning jamiyatda tutgan o‘rni beqiyosligini, “avlodni shakllantirayotgan” qudratli kuch ekanligini real hayotiy faktlar orqali ko‘rsatib berar ekan, bu kasb mavqeyining kundan kunga tushib ketayotganlik sabablari to‘g‘risida ham to‘xtaladi.

Maqolada o‘qituvchi shaxsi, uning insoniy qiyofasi, turmushi hayotiy dalillar orqali obrazli bayon etiladi: “Shubhasiz, bizda har bir kasb o‘zicha sharafli. Har hunarning o‘z falsafasi bor. Pedagoglik kasbining falsafasi hammadan ko‘ra murakkabroq. Murg‘ak bolaning oppoq qalb daftariga insoniylik degan so‘zni o‘yib yozish huquqi faqat o‘qituvchiga berilgan” [2.: 645.]. Haqiqatan ham, ilk bor maktab ostonasiga qadam qo‘ygan bolakayning qalbi oq qog‘ozdek toza bo‘ladi,

murg‘ak ongi esa hayot ilmidan mutlaqo bexabar. O‘qituvchi degan buyuk zot ana shu murg‘ak qalbning “oppoq daftari”ga ezgulik urug‘ini qadaydi, ming mashaqqat bilan uning savodini chiqaradi.

Yozuvchi maqolada shahar va qishloq o‘qituvchisining hayoti, ularning kiyinish madaniyati, o‘qituvchining jamiyatda tutgan mavqeyi tushib ketishining obyektiv va subyektiv sabablarini atroflicha muhokama qiladi: “Nihoyat, o‘qituvchining o‘ziga bog‘liq bo‘lgan va hammaning oldida uning obro‘cini uch pul qiladigan yana bir jiddiy masala bor. Afsus, ming afsuslar bo‘lsinki, pedagoglar orasida bolaning ilmiga emas, uning ota-onasi tutgan mavqeyiga qarab baho qo‘yadiganlari bor” [2.: 645.]. Ko‘rinadiki, adib masalaga chuqur yondoshadi, o‘qituvchidan o‘quvchining ko‘ngil qolish sabablarini ham izlab topadi. Xususan, u o‘qituvchi shaxsi haqida fikr yurita turib, har kimda ham yaxshi yashashga intilish bo‘lishi tabiiyligini e‘tirof etadi. Biroq, deylik, pedagog o‘quvchiga uning bilimi emas, balki otasining mavqeyiga qarab baho qo‘ysa va yaxshi yashashga bo‘lgan intilishini ana shu yo‘l bilan ifodalasa-chi? O‘qituvchi bu nomaqbul ishi bilan bolalar qalbiga adolatsizlik urug‘ini sepadi, bu esa oxir-oqibatda ko‘plarning fojiasiga sabab bo‘lishi mumkin. Demak, jamiyatda o‘qituvchi obro‘yi pasayishida ularning o‘zi aybdor bo‘lgan subyektiv sabablarning ahamiyati ham ozmuncha emas ekan. Bunday sabablar esa shaxsning ma‘naviy-axloqiy tutumlari bilan chambarchas bog‘liqligi ma‘lum. Adib xulosasiga ko‘ra, o‘qituvchi eng og‘ir sharoitda ham o‘z vazifasini vijdonan va sidqidildan ado etishi zarur. Bundan boshqasi muallimlikdek oliyjanob kasb mohiyatiga aslo muvofiq emas.

Adabiyotshunos O.Tog‘ayev publitsist-yozuvchi shaxsiyati haqida shunday deydi: “Publitsistikada avtor shaxsiyati birinchi navbatda ijtimoiy shaxsdir. U xalq, millat taqdiri, xalqaro masalalar haqida fikr yuritadi, bu masalalarga o‘z munosabatini bildiradi” [1.: 27.]. Xuddi shu bahoni O‘tkir Hoshimov badiiy publitsistikasiga nisbatan ham aytish mumkin. Zero, “Alloma”, “Qalbning oppoq daftari” maqolalarida yozuvchining jo‘shqin ehtirosi va ilg‘or tafakkuri bo‘y

ko'rsatadi. Bu esa bugungi kun kishisining yuksak ma'naviy-intellektual qiyofasini ochib berishga xizmat etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Тоғаев О. Адиблар ва жанрлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1976.
2. Ҳошимов Ў. Умр савдоси. Сайланма: 2 жилдлик. 2 ж. – Тошкент: Шарқ, 1998.
3. Hoshimov O'. Alloma // Sharq yulduzi. – Toshkent, 1999. – № 2.

### **“KITOBI DADAM QO‘RQUT” ASARI SHOHOBCHASI VA XORAZM DOSTONLARI TAHLILI**

**Ataxanova Venera Radjapovna,**  
*f.f.f.d.(PhD), dotsent,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada “Kitobi dadam Qo‘rqut” asaridagi I shohobchasida “Buqachxon Dersaxon o‘g‘lining bayoni”ga oid tafsilotlar befarzand kishilarni kamsitish, Xudodan tilab farzandga ega bo‘lish voqealari tahlilga tortiladi.

**Аннотация.** В статье анализируются подробности истории сына Букачхана Дерсахона в I разделе произведения “Книга моего деда Коркута”.

**Abstract.** This article analyzes the details of the story of Bukachkhan's son Dersakhon in Section I of the work “Kitobi Dadam Korkut”.

**Kalit so‘zlar:** “Kitobi dadam Qo‘rqut”, epos, motiv, doston, o‘g‘uz, shohobcha.

**Ключевые слова:** “Книга моего деда Коркута”, эпос, мотив, эпос, огуз, ветвь.

**Keywords:** “Kitobi Dadam Korkut”, epic, motif, epic, Oghuz, branch.

“Kitobi dadam Qo‘rqut” asarida mo‘jizaviy tug‘ilish hodisasi bilan birgalikda befarzandlik, xudodan tilab farzandga ega bo‘lish, umuman, befarzandlikning qoralanishi kabi g‘oyalar ilgari suriladi.

O‘g‘uz mumtoz eposining I shoxobchasida “Buqachxon Dersaxon o‘g‘lining bayoni”ga oid tafsilotlar hikoya etiladi. Bu bo‘limda befarzand kishilarni kamsitish, xudodan tilab farzandga ega bo‘lish voqealari asosiy o‘rinni egallaydi.

Bayondurxon har yili bir marta sayl uyushtirib, o‘g‘uz beklarini ziyofatga chorlar ekan. Shu an‘anaga muvofiq, u bir kuni ziyofat tashkil etib, toychoq, bo‘taloq, qo‘ylar so‘ydirib, bir joyga oq bayroq, oq chodir, tikdirib, unga oqqo‘yning go‘ishtini, bir joyga qizil bayroq, qizil chodir tikdirib, qizil qo‘yning go‘ishtini, yana bir joyga qora bayroq, qora chodir tikdirib, qora qo‘yning go‘ishtini qo‘ydiradi. Ushbu ziyofatga kelganlardan qaysi bir bekning o‘g‘il farzandi bo‘lsa oq chodirga, qizi bo‘lsa, qizil chodirga kirgizing, kimning farzandi, bo‘lmasa, qora chodirga kiriting, chunki uni xudo qarg‘agan, biz ham qarg‘aymiz, deya farmon beradi.

Ushbu ziyofatga Dersaxon ham qirq yigiti bilan mehmonga keladi. U befarzand edi, qora chodirga taklif etishadi. Buning sababini anglagan Dersaxon juda qayg‘urib, uyiga kelgach, bu voqeani xotiniga so‘zlab beradi. Xotini unga elni yig‘ib, osh-non berishni va ular bilan birga xudodan farzand tilashni maslahat beradi. Dersaxon ich o‘g‘uz va desh o‘g‘uz xalqini mehmonga chorlab, osh – non berib, oxirida ular bilan birgalikda xudodan farzand berishni iltijo qilishadi. Sal o‘tmay, tilak ijobat bo‘lib, o‘g‘il farzand ko‘radi. [1.: 299.] Mana shu tafsilotlar ayrim o‘zgarishlar bilan “Ediga” dostonida takrorlanadi.

“Ediga” dostoni debochasida tasvirlanishicha, Xorazmning Qo‘ng‘irot shahrida To‘xtamishxon degan podsho bo‘lib, uning Tulumxo‘ja ismli amaldori bor edi. U befarzand edi. Bir kuni boshqa amaldorlar bu haqda podshohga arz qilib, uni eldan badarg‘a qilishni talab qilishadi:

Quloq soling Kenja mahram so‘zina,  
Boqib bo‘lmas befarzandning yuzina,  
Tulimbiy borgohda aslo turmasin,  
Bu borgohda anga davron bo‘lmasin. [2.: 431.]

Ushbu voqeadan keyin Tulumbiy o‘z elidan ko‘chib ketadi. Yo‘l bo‘yi xudoga nola qilib borishida, semurg‘ uyasiga tashlab ketilgan o‘g‘il bolani topib oladi. Bu bola yuqorida tug‘ilishi haqida gapirganimiz Ediga edi.

Ikkala lavhani qiyoslash shu narsani ko‘rsatadiki, qadimgi urf – odatga ko‘ra, farzandsiz kishiga nisbatan nafrat bilan qaralgan, xudo qarg‘agan kishi sifatida eldan badarg‘a qilishgan. Bu udumning ayrim izlari og‘zaki tarzda tarqalgan dostonlarda saqlanib qolgan. “Huriliqo va Hamro” dostonining boshlanmaqismida ham podsho bilan vazirning befarzandligi haqida so‘z boradi. Ular avliyo – anbiyolar qabrida tunab, xudodan farzand tilashadi. Vazirning tilagi ijobat bo‘lib, o‘g‘il farzand ko‘radi. O‘g‘il to‘yi tashkil etgan tantanaga podsho ham keladi. o‘sha paytda shu erda xizmatda yurgan kishilar “farzandsiz, zuryodsiz odamni to‘y – marakaga kelmaki qadag‘on turur, deb birisi kelib podshohning otini jilovladi, birisi otning uyog‘i, bu yog‘idan bir kadi suvni olib kelib sepdi, ot podshohni olib qochib ketdi” [3.: 240.].

Ushbu epizoddan ma‘lum bo‘ladiki, farzandsiz kishini, ijtimoiy mavqeidan qat‘iy nazar, eski udum qonuniyatlariga ko‘ra ayovsiz jazolashgan.

Shu narsani ta‘kidlash lozimki, “Og‘zaki epos aniq dalillarni o‘zida juda kam saqlab qoladi. Lekin unda boshqa bir muhim imkoniyat bor: “Epos keng ijtimoiy muhit ongida saqlanib qolgan voqealar mohiyatiga berilgan bahoni keskin o‘zgarishsiz asrlar bo‘yi saqlabqolishi mumkin” [4.: 36.].

Farzandsiz kishini la‘natlash udumining XV asrda ko‘chirilgan “Kitobi dadam Qo‘rqut”, XIX asrning I yarmida ko‘chirilgan “Ediga”, Hozirgacha og‘zaki kuylanib kelinayotgan “Huriliqo va Hamro” dostonlarida o‘zgarishsiz yashab kelishi bu fikrni tasdiqlaydi. Yana shunisi borki, ushbu udum Xorazmdagi marosimlarda hozir ham o‘z kuchini saqlab kelmoqda. Masalan, nikoh to‘ylaridagi sovchi bo‘lib borish, chimildiq tuzatish, ko‘rpa bichish kabi marosimlarda befarzand kishilar qatnashtirilmaydi.

Xudodan farzand tilab olish masalasida dostonlarda turlicha vaziyatlar kuzatiladi. Ko‘p hollarda ota – onaningiltijosidan so‘ng ulardan farzand tug‘iladi. Ayrim hollarda esa befarzand kishilarkutilmaganda tashlandiq farzandni topib

olishadi. Xalq nazdida topib olingan bola ham xudo bergan farzand hisoblanadi. “Ediga”, “SHahriyor” dostonlarida farzandli bo‘lishning mazkur shakli ko‘zga tashlanadi. Umuman olganda, xudodan, avliyo –anbiyolardan tilab farzandga ega bo‘lish “Asil va Karam”, “Xiromon pari” va boshqa dostonlarda ko‘p uchraydi.

“Kitobi dadam Qo‘rqut” asarining biz tahlil qilayotgan birinchi shoxobchasida farzandga ega bo‘lgandan keyin unga ism qo‘yish marosimi o‘tkaziladi. O‘g‘uz yodgorligida buni Qo‘rqut ota bajaradi. Masalan, Dersaxonning o‘g‘li tug‘ilgandan keyin tez o‘sadi, o‘n besh yoshida buqa bilan kurashib, uni engadi. O‘sha voqeadan keyin Qo‘rqut ota kelib, shu yoshda buqadan g‘olib kelganligi sababli unga Buqachxon ismini beradi.«Ediga» dostonida ham farzand topib olgandan keyin Tulumbiy el katxudolarini yig‘ib bolaga ism qo‘yish marosimini o‘tkazadi. “Menga farzandni xudo berdi, SHu sababli uning ismi Rahimberdi bo‘lsin”, degan istakni bayon qiladi. Katxudolar bu taklifni ma’qul ko‘rishadi. Ediga esa epik qahramonning laqabidir.

Ism qo‘yish marosimi “Xiromon pari” dostonida ham mavjud. Podsho bilan vazir ikkalasi befarzand bo‘lib, xudodan tilab farzandli bo‘lishadi. Ism qo‘yish marosimida: “Podsho aydi: befarzand odamning kuniqorong‘u bo‘lar erkan, Ollo taolo mani yoxtiliqqa chiqardi. Farzandimning oti Munavvarsulton bo‘lsin, dedi. Vazirning o‘g‘lining oti Zevarsulton bo‘lsin, dedi” [5.: 298.]. Dostonda an’anaga ko‘ra ism qo‘yish marosimida ulamo, katxudolar ishtirok qilishadi.

Ism qo‘yish epizodi “Go‘ro‘g‘li” eposida ham bor. Go‘ro‘g‘li go‘rda tug‘ilganidan keyin, bobosi oqsoqol, ulamolar bilan kengashib, qariganimda nevarali bo‘ldim, ko‘r ko‘zim ravshan bo‘ldi, deb unga Ravshan ismini qo‘yadi. Biroq bola go‘rda o‘z nomi bilan tug‘ildi, deb xalq uni Go‘ro‘g‘li, laqabi bilan deb atab boshlashadi [6.: 20-21.].

Binobarin, farzandga ism qo‘yishdagi eng qadimgi marosim dostonlarda barqaror saqlanib qolgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Kniga moego deda Korkuta. Izdanie podgotovili: V.M.Jirmunskiy, A.N.Kononov. – M.-L.: Nauka, 1962. – 299 c.

2. Oshiqnoma. II kitob. – Urganch: “Xorazm”, 2006. – 431 b.
3. Oshiqnoma. III kitob. – Urganch: “Xorazm”, 2008. – 240 b.
4. Azbelev S.N. Istorizm bylin i spetsifika folkloru. – 36 s.
5. Oshiqnoma. II kitob. – Urganch: “Xorazm”, 2006. – 298 b.

## **MUMTOZ SHE’RIYATDA ISTIXROJ SAN’ATINING QO‘LLANILISHI**

**Zebo Saidjanova,**

*f.f.f.d. (PhD), dotsent,*

**Rahimova Iroda**

*talaba,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Maqolada mumtoz shoirlarimiz asarlarida qo‘llanilgan istixroj san’ati namunalari tahlil qilinadi.

**Аннотация.** В статье анализируются примеры искусства извлечения, используемые в творчестве наших поэтов-классиков.

**Annotation.** The article analyzes examples of the art of extraction used in the works of our classical poets.

**Kalit so‘zlar:** yozuv, harf, ma’no, so‘z

**Ключевые слова:** письмо, буква, значение, слово

**Key words:** letter, meaning, word

Sharq xalqlari, jumladan, o‘zbek mumtoz adabiyotida, badiiy san’atlar muhim o‘rin tutadi. Mumtoz shoirlarimiz asarlarida qo‘llanilgan badiiy san’atlar majmui adabiyotshunosligimizda muayyan darajada tahlil etilgan va ularning xalq ma’naviy hamda estetik tafakkurining boyitishdagi ahamiyati katta ekanligini barchamiz bilamiz. Mumtoz she’riy asarlarda qo‘llanilgan harfiy san’atlar shoirning imlo asosida turli badiiyliklar yaratish mahoratini, harflarning yozuvdagi shakllaridan foydalanib yangi ma’no hosil qilish mahoratini yaqqol ko‘rsatib beradi.

Mumtoz badiiyatga oid asarlarda biror badiiy tafsilning arab harflariga o‘xshatib tasvirlanishi kitobat san’ati deyilgan bo‘lsa, baytda o‘xshatilgan harf va so‘zlarning yig‘ilib, biror yangi so‘z hosil qilishi istixroj san’ati deb atalgan.

Istixroj so‘zining lug‘aviy ma‘nosi “chiqarish”, “chiqarib olish”, “tanlab olish” hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, bu san’at tasvirga tortilgan harflardan biror so‘z chiqarilgani uchun shu nom bilan atalgan. Harfiy badiiy tasvir vositalari orasida jozibalisi va murakkabrog‘i istixroj san’atidir. Istixroj san’ati 2 turi mavjud: 1. Oddiy istixroj. Buni tasavvur etish uchun avval oddiy istixrojga Bobur ijodidan misol keltiraylik:

*Qadding alifu, qoshing erur yo,*

*Desam ne ajab agar seni oy?*

Oshiq sevgilisining qomatini *alif*ga, qoshini *yo* harfiga o‘xshatib, uni «oy» deb da‘vo qilmoqda. Zotan, *alif*, *yo* harflaridan *oy* so‘zi hosil bo‘ladi...

2. Murakkab istixroj. Bunda harf aytilmaydi. Buning uchun mumtoz adabiyotdagi arabiy harflar tamsili haqida bilimga ega bo‘lish lozim. Masalan, murakkab istixroj qatnashgan bayt namunasini ko‘raylik:

*Og‘ziyu ikki zulfu qadi bo‘lmasa manga,*

*Rayhonu sarvu g‘uncha ko‘rardin maloldur.*

Adabiy an’anaga ko‘ra og‘iz «mim» harfiga, zulf «lom» harfiga va qad-qomat — “alif” harfiga o‘xshaydi. Ana shuni nazarda tutgan holda harflarni tizsak, eski yozuvda matndagi «malol» so‘zi hosil bo‘ladi.

Ko‘pincha mutaxassislar ham istixrojning bu turini hadeganda ilg‘ayvermaydilar. Chunki hozirgi baytda tahlilchi diqqatini avvalo og‘izni g‘uncha, zulfni rayhon, qadning sarvga o‘xshashligi sistemasi o‘ziga tortadi va u beixtiyor baytdan laf va nashr san’atini kuzatadi.

Mumtoz adabiyotda harfiy shakllarga qiyos usuli bilan yondashib, ulardan muhim ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy-axloqiy g‘oyalarni ifodalashda mahorat bilan foydalanganlar. Alifbodagi to‘g‘ri, egri, yoysimon, doirasimon shaklli harflar turli o‘xshatishlar yaratishda asos bo‘lgan. Jumladan, ma’shuqaning tik qomati “alif” harfiga, egik qomati «dol» harfiga, qoshlari «yo» yoki «nun» harfiga, sunbul

sochlari «lom» yoki «jim» harfiga, tishlari «sin» harfiga, og‘zi «mim» harfiga, ko‘zlari esa «ayn» harfiga o‘xshatilgan. Bu harfiy o‘xshatishlar orqali oshiq yoki ma‘shuqaning ko‘rinishi aniqroq va ta‘sirchanroq tasvirlashga erishilgan.

Ey, *alif*dek qomating mayli buzulg‘on jon aro,

Ganji husnung javhari bu xotiri vayron aro. (1.: 81.)

Tavsifi: «Ey yor, *alif*dek qomating mening buzilgan jonimdadir, husning xazinasining gavhari esa mening vayrona xotiramdadir». Baytda yor qomati «*alif*» harfining shakliga o‘xshatish orqali namoyon bo‘lgan. Shoir *alif*ning “*jon*” so‘zi ichida joylashganiga ishora qiladi.

Malohat birla tuzdung sarv dardlar qomatin, ya‘ni

Ki mundoq zeb birla ul *alif*ni aylading zebo. (2.: 30.)

Tavsifi: «Sen (ya‘ni Olloh) go‘zallarning sarv kabi qomatlarini nafosat ila bezading. Bu bezak, ya‘ni «zeb» ularning qomatlari bilan zebo (chiroyli, go‘zal) qilibdi». Shoir «zeb» so‘ziga «*alif*» harfini qo‘shish orqali «zebo» so‘zi hosil bo‘lishini ko‘rsatadi. Bayt tavsifu ta‘rif xarakteriga ega. Ikkinchi misradagi “ul *alif*” ifodasi istioraviy tarzda ma‘shuqaga ishora qilmoqda.

Oy yuzung ustida ko‘z andoqki, oraz uzra ayn,

*Nun* bila ikki qoshing ichra tafovut baynu bayn.

Baytning birinchi misrasidagi ma‘noni izohlash ancha sodda. *Oraz* so‘zini yozganda boshda *ayn* harfi yoziladi. Arabchada *ayn* ko‘z ma‘nosida ifodalanadi. Ikkinchi misrani tushunish va talqin etish ancha murakkab, chunki bunda qiyos manbai bo‘lgan *bayn* so‘zi ko‘pchilik kitobxonga notanish. *Bayn* – Hindistonda mashhur bo‘lgan va ikki qorinli tanburga o‘xshash musiqa asbobi. Bu misrada ikki qosh *nun* ◌ harfiga, ayni paytda ikki qorinli tanburga o‘xshash musiqa asbobi *bayn*ga qiyoslangan.

Og‘iz birla qadu qoshu ko‘zing zuhdungga qo‘ymaslar,

Nechuk qilg‘ay kishi bir ishqi bo‘lgay bu qadar mone’.

Bayt mazmuni: «Og‘iz va qomating, qosh va ko‘zing bir-biriga juda mustahkam bog‘langan. Oshiq muayyan ishni bajarmoqchi bo‘lsa, ulardan biri unga mone‘lik qiladi». Shoir ushbu baytda *tashbehi sareh* (yashirin tashbeh)

san'atini yaratgan. Bu badiiy san'atda inson a'zolari nomlari tag zamirida ko'chma ma'nolar yashiringan. Ochiq tashbehda xilqatning tik qomati «alif» harfining yozuvdagi ko'rinishiga qiyoslansa, yashirin tashbehda esa harf nomi tilga olinmaydi, balki u asos (o'xshatiluvchi) orqali ifodalanadi. Og'iz – م «mim», qad – ا «alif», qosh – ن «nun» va ko'z – ع «ayn» harflariga qiyoslanadi. Mazkur harflarni ketma-ket joylashtirib chiqsak, o'xshatish (tashbehi sareh) asosida hosil bo'lgan «mone'» so'zi kelib chiqadi.

Ulkim soqol bo'yar havasi tushdi boshiga,

Bo'lmoq soqol qaro, ne osig', chun oqardi bosh. (Nsh, 143-b.)

Tavsifi: «U soqolini bo'yashni havas qildi. Ammo sochi oqargan bo'lsa, soqol bo'yashdan nima foyda?» Ikkinchi misradagi umumturkiy «qaro» va «oqar» so'zlarining o'zaro munosabati maqlubi ba'zni vujudga keltirgan.

Za'fdin qaddim «alif» bo'ldi, ul ikki «lom»i zulf

Har yonimdin jilvagar, vah, ne ajab gar lolmen.

Bu baytda ham yor zulfi “lom” harfiga, oshiqning qomati “alif” harfiga qiyos qilinyapti. Ma'shuqaning ikki zulfi, ya'ni yuzidagi ikki zulfi o'rtasida oshiq qomati - “alif” harfi joylashib, “lol” so'zini hosil qiladi. Oshiqning har ikki tomonida yorning zulfi jilva qilib, go'zalligi bilan lol qiladi.

Yor zulfi bilan bilan bog'liq quyidagi baytda esa chiroyli tashbeh yangi shoirona o'xshatish namunasini yuzaga keltirgan va “musalsal” so'zi Navoiyga xos bo'lgan tavsif, o'ziga xoslikda namoyon bo'lgan:

Tararda uqdalig' zulfin musalsal ayladi chinlar,

Girih «mim», ikki zulfi ikki «lom», iynak tarog' «sin»lar.

Quyidagi baytda esa hazrat Navoiy o'z taxallusi bilan bog'liq istixroj san'atining go'zal namunasini yaratishga muvaffaq bo'lgan:

Ko'rmasam qoshing bo'lurmen turg'anima birla fig'on,

Voyi erur, bas chu bo'lmasa «Navoiy» birla «nun».

Tavsif: “Ertalab turishim bilan sening muborak qoshlaringni ko'rmasam, Navoiyning holiga voy bo'ladi”. Bu baytda yorning qoshlari “nun” harfiga o'xshatilmoqda. Navoiy so'zida birinchi “nun” harfi yozilmasa, “voyi” holda

o‘qiladi. Shoir shunday go‘zal so‘z o‘yini orqali istixroj san‘atining mukammal namunasini yaratishga muvaffaq bo‘ladi.

Navoiy taxallusi bilan bog‘liq quyidagi baytda ham murakkab istixrojning original namunasini ko‘rishimiz mumkin:

Boshim uzra furqating toshini ko‘rsang bilgasen,

Nuqta zohir aylamish go‘yo Navoiy uzra nun.

Bunda Navoiy so‘zidagi birinchi “nun” harfi bosh harf sanalsa, uning nuqtasi oshiqning furqat toshiga tamsil qlinadi.

“Ishq” so‘zi kelib chiqadigan ushbu baytda esa yangi shoirona topildi har bir o‘quvchiga estetik zavq va hamdardlik ulashadi:

Mehr anglab oshiq o‘ldum so‘ngra yetsa ko‘hi g‘am,

Ne ajab ishq ibtidosi «ayn» erur, poyoni «qof».

“Sening ko‘zingga mahliyo bo‘lib, oshiqligim boshlangandi va oxir-oqibat bu boshlangan ishqdan menga to‘g‘day firoq g‘ami yetishdi”. “Ishq” so‘zi arab alifbosida “ayn” harfi bilan boshlanadi. Shoir “ayn” harfi vositasida yor ko‘zini tavsiflamoqda. Oxirgi harf “qof” esa afsonaviy Qof tog‘iga ishoradir.

Hazrat Alisher Navoiy buyuk so‘z san‘atkori ekanligining yana bir dalili shuki, u o‘z asarlarida nafaqat arabiy-forsiy so‘zlarning yozilish tartibidan, balki turkiy so‘zlar imlosidan ham keng va o‘rinli foydalanib, turfa jozibador badiiy san‘atlarni yuksak darajada ifodalashga mohirona erisha olgan. Bu o‘rinda mohir san‘atkor istixroj san‘ati imkoniyatlaridan unumli foydalangan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 5-том. – Тошкент: “Фан”.
2. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2002.
3. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983.

## TOHIR MALIKNING “AZALIY NASIBA” ASARI XUSUSIDA

**Yangiboyeva Sohiba Ruzmat qizi,**

*mustaqil tadqiqotchi,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Tohir Malikning “Azaliy nasiba” asaridagi islomiy g‘oyalarning hadislar bilan bog‘liq sintezi haqida so‘z yuritiladi. Islomiy g‘oyalar asosida yaratilgan badiiy asarlar ulkan masala, mas‘uliyat ekanligi borasida atroflicha mushohada qilinadi.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается синтез исламских идей в произведении Тахира Малика «Вечная судьба» во взаимосвязи с хадисами. Художественные произведения, основанные на исламских идеях, тщательно изучаются как огромная проблема и ответственность.

**Annotation.** This article discusses the synthesis of Islamic ideas in Tahir Malik's "Eternal Destiny" in relation to hadiths. It examines in detail the fact that works of art based on Islamic ideas are a huge issue and responsibility.

**Kalit so‘zlar:** diniy-ma‘rifiy, Qur‘oni Karim, hadis, islomiy g‘oyalar, rizq, nafs, insoniylik, tarbiya, “Azaliy nasiba”

**Ключевые слова:** религиозно-просветительская деятельность, Священный Коран, хадисы, исламские идеи, пропитание, душа, человечество, воспитание, «Вечная судьба»

**Key words:** religious-enlightenment, Holy Quran, hadith, Islamic ideas, sustenance, soul, humanity, upbringing, "Eternal Destiny"

Mustaqillik davrida yaratilgan diniy-ma‘rifiy mavzu takomili, umuminsoniy g‘oyalarni o‘zida mujassam etgan ijod namunalari o‘rganish, bugungi adabiyotshunoslik sohasining dolzarb masalalaridan biridir.

Diniy-ma‘rifiy talqinlar, Qur‘on va hadislardagi musulmonchilik qoidalarini she‘r orqali sharxlash, nasriy bayon qilish, ularning mohiyatini kishiga singdirish, targ‘ibot etish tajribasi qadimdan mavjud. Bunga Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Imom Yahyo bin sharafan – Navaviylarning “Arbain hadislari” kabi ko‘plab misollarni keltirish mumkin. Darhaqiqat, diniy-ma‘rifiy talqinlar aks etgan

“Arbain” (arabcha “qirq chilla” degani) nomi bilan mashhur bo‘lgan asarlar shakl va mazmun jihatdan bir-biridan farq qilgan, ajrab turgan. [1.: 35.] Bu haqida Ahmad Qobil, Mahmud Olloberdi kabi tadqiqotchilar quyidagi fikrni bildiradilar: “Ba’zi “Arbain” asarlari “Usul ud-din” (Islom dinining asoslari va tub qoidalari), “Jihad” (Islom yoxud Alloh yo‘lidagi muqaddas kurash), toat-ibodat yoki odob-axloq asoslarini qamrab oladi va targ‘ib qiladi.” [2.: 5.] Umuman olganda sharq adabiyotining badiiy negizida diniy-ma’rifiy talqinlar aks etgan asarlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Sharq xalqlari tafakkuri tarixida chuqur ildiz otgan diniy-ma’rifiy motivlar ta’limotini yaxshi bilmay turib, sharq adabiyotining asl durdonalarini, adabiy merosini barcha murakkabliklari, falsafiy teranligi bilan to‘liq holda to‘g‘ri, haqqoniy tushunib yetish mushkul vazifa.

Darhaqiqat, mustaqillikning dastlabki yillaridayoq o‘zbek adabiyotshunoslari tomonidan diniy-ma’rifiy asarlarga e’tibor qaratila boshlandi. Jumladan O.Sharafiddinov “Adabiyotda diniy ohanglar” maqolasida mustaqillik yillaridagi dinimizga bo‘lgan e’tiborning kuchayishi, respublikamizda amalga oshirilgan keng ko‘lamli ishlar, xususan, Qur’oni karim ma’nolari tarjimalari, buyuk muhaddis Imom Buxoriy to‘rt jildlik hadislarining chop etilgani, yana avvalgidek adabiyot bilan islom dinining integratsiyalashuvi yuz berganini ta’kidlaydi. Muqaddas dinimizning asosiy ustunlari – iymon va e’tiqod tushunchalari orqali insonlarning ko‘ngil munavvarligi, inson hayotining saodatmandligiga erishilayotganligini aytadi.

Adabiyot tarixida ko‘p yangilanishlar ro‘y berdi. Badiiy ijodda ma’naviy, estetik omillarning takomillashuvi yangicha qarashlarga zamin yaratdi. So‘z san’ati – badiiy adabiyotning barcha janrlarida olamu odamni tadqiq etish jarayoni teranlashdi. Iste’dodning qadrlanishi, ularga ijod uchun yetarli sharoit yaratilishi, muhimi, hurfikrlilik imkonining tug‘ilishi ijobiy samarasini bermoqda. Yurtboshimiz tomonidan san’at va adabiyotga ayricha e’tibor berilishi ijod ahlini yanada ilhomlantirmoqda. So‘z san’atkori badiiy adabiyotning qaysi turida asar yaratmasin, nigohini umumbashariy muammolar yechimi, azaliy qadryatlar talqiniga qaratadi. Xususan, Tohir Malik asarlarida ham voqelikni teran tahli

qilish, inson ruhiyatining tubsiz va qorong‘u puchmoqlariga nazar tashlash, hayot mohiyatini anglatishga e‘tibor kuchaydi. Adib asarlarini kuzatar ekanmiz, unda obrazlar ko‘p qirraligi, konflikt o‘tkirligi, psixologik tahlil chuqurligi, badiiy-tasviriy vositalarning xilma-xilligi, mavzular rang-barangligi ko‘zga tashlanadi. Ayniqsa, so‘nggi davrlarda yaratilgan asarlarida diniy-ma‘rifiy motivlarning kuchliligi adibning ijodida o‘zgacha burulishni shakllantirgan. Keyingi yillarda diniy-ma‘rifiy mavzu, tasavvufona talqinlarga havasmandlikni iste‘dodli adibning deyarli barcha asarlarida uchratish mumkin.

Darhaqiqat, adib asarlaridagi diniy motivlar haqida so‘z ketganda, avvalo “motiv” so‘zining lug‘aviy ma‘nosi diqqatimizni tortdi. “Motiv” – (lot – “moteo”, frans – “motif”) so‘zining lug‘aviy ma‘nosi “harakat qilmoq” ni anglatadi. “Motiv” tushunchasiga manbalarda uning qaysi sohada ishlatilishiga qarab turlicha ta‘rif beriladi. Talqinlar umumlashtirilganda motivning asosiy mazmuni “undash”ni anglatishi oydinlashadi. Shunga ko‘ra Tohir Malik asarlaridagi diniy motivlar deganda, din asoslari, diniy e‘tiqod, odob-ahloq, qonun qoida, tartiblar, urf-odatlar, turmush tarzi, tafakkur shakllarini muayyan voqealar bilan bog‘liq syujetlar vositasida hayotiy tasvirlash orqali insonga yo‘l ko‘rsatish mazmunini anglash mumkin bo‘ladi. Adibning “Azaliy nasiba” asari ham xuddi shunday, insondagi iymon tushunchasini, diniy e‘tiqod va turmush tarzini nasihatimiz shaklda bir-biriga bog‘lay olgan. Ushbu asar negizida har bir inson o‘z-o‘zini so‘roq qiladi. Asarda keltirilgan Qur‘oni karim oyatlari, sahih hadislar, rivoyatlar hayotning mohiyatini yanada chuqurroq anglashga xizmat qilgan. Donishmandlarning kitoblarida rizqiga qanoat qilmay yelib-yuguradigan odamni cho‘ldagi kiyikni quvib yurgan nodonga o‘xshatishadi. Chindan ham rizqni Alloh beradi va u quvib yurilmaydi. Aksincha, barakali rizq kelishi sabr bilan kutiladi. Mazkur asarda ham ana shu masalalar xususida fikr yuritiladi. “Yerda o‘rinalagan narsa borki, barchasining rizqi Allohning zimmasidadir.” (**Qur‘oni Karim ma‘nolarining tarjimasini, Xud surasi**). Tohir Malikning “Azaliy nasiba” asarining asl mohiyati ushbu sura orqali o‘z aksini topgan. Insoniyat butun umri davomida qanchalik yugurib-yelmasin Alloh buyurganidan ortig‘iga ega bo‘la

olmaydi. Bu azaliy haqiqat. Biroq inson bolasi borki, ko‘p hollarda rizqiga norozi bo‘ladi. Rizq deganda, faqat boylik, mol-mulk tushunilmaydi. Har bir olayotgan nafasimiz ham rizqning bir ko‘rinishi. Bu hayotda rizqimiz bor ekanki, biz bugun nafas olayapmiz. “Ey Odam farzandi! Albatta, rizq hammaga taqsimlanib, ajal ham belgilab qo‘yilgan. Kasal bo‘lgan odam dunyo lazzati va ne‘matlaridan mahrumdir. Baxillik hamma joyda yomondir va dunyo ne‘matlari cheksiz emasdir. Rizq izlab juda uzoq ketmoq zaharlidir va rizq Berguvchi doim tirik va qoimdir”. [3.: 5.] (Qudsiy hadisdan) Yozuvchi asarda keltirgan har bir hadis negizida chuqur ma’nolar aks etgan. Insonga rizq Allohdan ekanligi, har bir inson qo‘lida boriga qanoat qilishi, va asosiysi rizqni halol bo‘lmog‘i kerakligi haqidagi oyat va hadislar asar mohiyatini yanada teranlashtirgan. Allohning “rizq izlab juda uzoq ketmoq zaharlidir” deb ogohlantirishi bugungi kun uchun g‘oyat ahamiyatlidir. Chunki rizqqa qanot qilmay uzoq-uzoq yurtlarga boorish hollari uchrab turibdi. Hatto ayollar erlarini uyga tashlab o‘zlari uzoqlarga ketmoqdalar. Diqqat qilaylik, “zararli” emas, “zaharli” deyilmoqda. Ba’zan to‘kin hayot ilinji insonni juda og‘ir ahvollarga olib kelishi ushbu asardagi har bir hadis, rivoyat va oyatlarda isboti bilan kitobxonga yetkazilgan.

Har bir harakatimiz zamirida niyat yotgani kabi rizq umidida ham niyat mavjud. Ertangi rizqdan noumid bo‘lgan holda oziq-ovqat g‘amlab qo‘ysak, adashgan bo‘lamiz. Yana ehtiyot bo‘lmoq lozimkim, haddan tashqari g‘amlash oqibatida bu ne‘matlar isrof bo‘lsa, gunohi zimmamizda qoladi. “Ey Odam farzandi, men sendan ertaga qiladigan ibodatni bu kun talab qilmayman. Bas, sen ham ertaga kerak bo‘ladigan rizqni bugun talab qilmagin!” (Qudsiy hadisdan) [3.: 6.] Ba’zan mansab-martabaga, turli ne‘matlarga ega kishilarni g‘am-tashvishga chulg‘angan holda ko‘ramiz. Qimorboz qimorsiz hayotni tasavvur qila olmaydi. Garchi qimor uni boridan mahrum qilgan bo‘lsa ham. Nafs uzoq muddat botil, qabih narsalarga mayl etsa, bora-bora ularga ko‘nikadi, hatto bundan lazzat oladi. Demakki, inson eng avvalo, nafsini tarbiyalamog‘I kerak. Nafs tarbiyalansagina inson saodatga erishadi. “...Badandagi har bir a’zoning vazifasi bor. Qalbning vazifasi hikmat va ma’rifatni anglashdir. Inson yeyish, ichish, ko‘rish, eshitish va

boshqa sezgilar bilan emas, balki insoniy aqli bilan hayvondan farqlanadi. Shu afzalligi bilan inson narsalarning mohiyatini anglaydi.” [3.: 58.] Ma’lumki, g’oyaviy niyatni kitobxonga to’la va zavqbxash tarzda yetkazish bugungi adabiyotshunoslikda poetika, obrazlilik, badiiy mahorat kabi tushunchalar orqali ifoda qilinadi. Ko’rinadiki, g’oyaviy niyatni kitobxonga to’la va yorqin, zavqbxash qilib yetkazishning tagzaminini ham Qur’oni Karimda, hadisi-shariflarda mavjuddir. Buni anglamoq, ulardan o’z asarlarida foydalanmoq uchun yozuvchidan yuksak e’tiqod, bilim, tajriba talab etiladi. Tohir Malik aynan shu xususiyatlarga ega bo’lgan shaxs, mohir yozuvchi sifatida o’z asarlarida o’zligini namoyon qila olgan shaxs nazarimizda. Adib asarlaridagi iymon-e’tiqod tushunchalari har bir insonni o’z-o’zini tarbiyalashga zamin yaratgan. “Azaliy nasiba” asari ham insonni tafakkur qilishga, nafsini tarbiyalashga, shukr tuyg’usini his etishga, qalbdan faqat ezgulik bilan yashashga undaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Alisher Navoiy. “Arbain hadis” kitobiga muqaddima, – T.: Yozuvchi, 1991.
2. Tohir Malik. “Azaliy Nasiba”, – T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2018.

## **ESTETIK TAFAKKUR VA SHOIR POETIKASINING UYG’UNLIGI**

**Matnazarova Saida Satimbay qizi,**

*o’qituvchisi,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Omon Matjonning estetik tafakkuri va shoir poetikasining uyg’unligi chuqur tahlil etilgan. Unda shoirning estetik qarashlari xalq og’zaki ijodi, o’zbek mumtoz adabiyoti, jahon adabiy merosi va ma’naviy-ma’rifiy g’oyalar sintezida shakllangani ko’rsatilgan. Omon Matjonning poetikasida Navoiy, Bobur va Mashrab ijodiy merosining ta’siri tahlil qilinadi, shoirning ularning g’oya-estetik yo’nalishlarini zamonaviy ruhda davom ettirganligi asoslanadi. Shuningdek, maqolada Omon Matjonning jahon adabiyoti

vakillari – Pushkin, Bayron, Yevtushenko, Lorca, Neruda singari shoirlardan ilhomlangani, ularning poetik tajribasini o‘z poetikasiga singdirgani ham ta’kidlanadi.

**Аннотация.** В данной статье всесторонне проанализированы эстетическое мышление Омона Матжона и гармония его поэтики. Показано, что эстетические взгляды поэта сформировались в синтезе народного устного творчества, узбекской классической литературы, всемирного литературного наследия и духовно-просветительских идей. Проанализировано влияние творческого наследия Навои, Бабур и Машраба на поэтику Омона Матжона, обосновано, что поэт в современном духе продолжил их идейно-эстетические направления. Также подчёркивается, что Омон Матжон черпал вдохновение у представителей мировой литературы — таких поэтов, как Пушкин, Байрон, Евтушенко, Лорка, Неруда, и интегрировал их поэтический опыт в свою поэтику.

**Annotation.** This article provides an in-depth analysis of Omon Matjon’s aesthetic thinking and the harmony within his poetic style. It demonstrates how the poet’s aesthetic views were formed through a synthesis of folk oral traditions, classical Uzbek literature, world literary heritage, and spiritual-enlightenment ideas. The influence of the creative legacy of Navoi, Babur, and Mashrab on Omon Matjon’s poetics is explored, with evidence that he continued their ideological and aesthetic direction in a modern spirit. The article also highlights Omon Matjon’s inspiration from global literary figures such as Pushkin, Byron, Yevtushenko, Lorca, and Neruda, and how he skillfully integrated their poetic experiences into his own style.

**Kalit so‘zlar:** Omon Matchon, estetik tafakkur, poetika, xalq og‘zaki ijodi, o‘zbek mumtoz adabiyot, jahon adabiyoti, Navoiy, Bobur, Mashrab, Pushkin, Bayron, poetik tafakkur yangilanishi.

**Ключевые слова:** Омон Матжон, эстетическое мышление, поэтика, народное устное творчество, узбекская классическая литература, мировая

литература, Навои, Бабур, Машраб, Пушкин, Байрон, обновление поэтического мышления.

**Keywords:** Omon Matjon, aesthetic thinking, poetics, folk oral tradition, Uzbek classical literature, world literature, Navoi, Babur, Mashrab, Pushkin, Byron, renewal of poetic thought.

Omon Matjonning estetik dunyoqarashi bevosita ijtimoiy-tarixiy omillar, milliy ong, badiiy muhit, shaxsiy ijodiy izlanishlar bilan shakllanibgina qolmay, balki chuqur adabiy-ma'rifiy ildizlarga ham borib taqaladi. Shoir estetik konsepsiyasida o'zbek xalq og'zaki ijodi, mumtoz adabiyot an'analari, jahon adabiy merosi, ayniqsa, ma'naviy-ma'rifiy qarashlar asosiy tayanch nuqtalarni tashkil etadi. U o'zining poetik tafakkurini tarixiy xotira, milliy o'zlik, go'zallik va haqiqatni qadrlash orqali shakllantirgan ijodkordir.

Omon Matjon estetik tafakkurining asosiy qatlamlaridan biri xalq og'zaki ijodidir. Folklor – xalqning tarixiy xotirasi, estetik tafakkuri, ma'naviy ruhi, badiiy ifoda vositalarining manbai sifatida shoir uchun ilhom manbaiga aylangan. O'zbek xalq ertaklari, afsonalari, dostonlari, maqollar, qo'shiqlar – bularning barchasi shoir estetik dunyoqarashini boyitgan.

Shoir she'rlarida tez-tez xalqona obrazlar, timsollar, uslublar uchraydi. Masalan, **“Qaqnus”** obrazida qayta tug'ilish, yangilanish g'oyasi afsonaviy uslubda tasvirlangan. Bu esa xalq ijodining estetik-metaforik tabiatidan kelib chiqqan. Ayniqsa, shoirning obrazlar sistemasida “qush”, “daryo”, “yulduz”, “quyosh” singari xalq timsollarining chuqur ma'noli talqini mavjud.

Omon Matjonning obrazlar olami – bu o'zbek xalqining tarixiy estetik tasavvurlari bilan zamonaviy falsafiy tafakkurning sintezidir. Uning har bir timsoli o'zbekning ko'nglidan, xalq ruhidan tug'ilgan. Shoir o'z she'riyatida folklor estetikasini zamonaviy g'oyalar bilan uyg'unlashtirgan holda, xalq donishmandligini badiiy-falsafiy pog'onaga olib chiqadi.

Omon Matjonning estetik qarashlari shakllanishida o'zbek mumtoz adabiyotining chuqur ta'siri mavjud. U Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy, Furqat kabi mumtoz shoirlarning badiiy-falsafiy merosini o'rgangan, ularning

g'oya-estetik yo'nalishlarini o'z ijodida zamonaviy ruhda davom ettirgan. Xususan, Alisher Navoiy ijodidagi insonparvarlik, komil inson g'oyasi, ma'naviy poklik, vatanparvarlik, ilm-fan, adolat kabi tamoyillar Omon Matjon she'riyatida yangi badiiy shakllarda aks etadi. Uning "Ona tilim", "Mening Vatanim", "Sukunat kuylari" singari she'rlarida mumtoz lirikaning ichki fe'l-atvori seziladi.

Shoir o'z intervyularida ham Navoiyga ehtirom bildirib, shunday degan:

"Navoiy qalblarimizning madaniyatini yaratgan. Uning she'riyati bilan yuragimiz uyg'ondi. Har bir she'rimda Navoiy ma'naviyati aks etmasdan qolmaydi." [1.: 21.] O'zbek adabiyotining poydevorini tashkil etgan mumtoz ijodkorlar – Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mashrab kabi allomalar nafaqat o'z davrining, balki butun musulmon-sharq ma'naviyatining estetik qarashlarini belgilab bergan. Bu adabiy meros nafaqat shakl va uslub darajasida, balki g'oya, tafakkur, badiiy falsafa darajasida ham zamonaviy ijodkorlar, jumladan, Omon Matjon uchun chuqur ilhom manbai bo'lib xizmat qilgan. Shoir estetik dunyoqarashining shakllanishida ushbu mumtoz adabiyotning g'oyaviy, badiiy va ruhiy unsurlari muhim ro'l o'ynaydi.

Omon Matjon ijodi bu ma'noda adabiy an'anani davom ettirish bilan birga, uni zamonaviylik ruhida yangilashga, xalq va vaqt orasidagi ruhiy ko'prikn yaratishga qaratilgandir. Shoirning she'riyatida Navoiyning tasavvufiy ma'naviyati, Boburning falsafiy lirizmi va Mashrabning isyonkor ruhiyati o'z aksini topadi.

Alisher Navoiy – o'zbek adabiyotining eng buyuk siymolaridan biri sifatida o'z she'riyatida nafaqat go'zallikni, balki ma'naviy kamolot, axloqiy yetuklik, haqiqatni izlash kabi yuksak g'oyalarni ilgari surgan. Omon Matjon o'z ijodida ushbu merosga istinad qiladi.

Navoiy tasavvurida inson – bu kamolot sari harakat qiluvchi mavjudot. Omon Matjon ham bu fikrni davom ettirib, zamonaviy shoir sifatida insonning ichki kechinmalari, ijtimoiy mas'uliyati, or-nomusi orqali kamolot yo'lini badiiy ifodalaydi. Navoiyda mavjud bo'lgan ilohiy muhabbat (ishq) tushunchasi Omon Matjon she'rlarida milliy ruh va insoniy sha'n bilan uyg'unlashadi:

“Ishqim yo‘lida tuproq bo‘lay desam, O‘zimni topdim o‘zligim ichra.” Bu yerda Navoiyona tasavvufiy ohang seziladi – ishq bu yerda nafaqat shaxsiy tuyg‘u, balki ruhiy yuksalish manbai sifatida talqin qilinadi. Omon Matjon, shuningdek, Navoiydek tazarru ruhini, samimiy e‘tirof uslubini va insoniyat taqdiriga befarq bo‘lmaslik pozitsiyasini ham davom ettiradi. Bu uning poetikasida ijtimoiy mas‘uliyat, adolat, inson sha‘ni kabi tushunchalar orqali aniqlashadi.

Bobur – nafaqat hukmdor va tarixchi, balki chinakam lirik shoir sifatida o‘zining “Boburnoma”, g‘azallari, ruboiylari orqali o‘zbek adabiyotiga falsafiy yondashuv, tabiat va inson uyg‘unligini olib kirgan. Omon Matjon Boburga xos lirizm, falsafiy mulohaza, tabiiy obrazlarning samimiyligidan mahorat bilan foydalanadi.

Bobur tabiat manzaralari orqali ruhiy holatni ifodalashda betakror mahorat ko‘rsatgan. Omon Matjon esa bu uslubni zamonaviy kontekstda davom ettiradi. Masalan, shoir tabiat manzaralarini inson ruhining ramzi sifatida ifodalaydi:

Bir daraxtga qiyos qilsam yuragim,  
Har bargimda kechmishim yozilgan.

Bu yerda Bobur ijodiga xos lirizm va obrazli tafakkur Omon Matjon uslubida yangi ruhda qayta tiklanadi. Boburdagi g‘amginlik, fano hissi, muhabbatga sadoqat, fojiali quvonchlar zamonaviy ijodda ham davom etadi, lekin bu holatda shoir o‘z ruhiy holatini milliylik va ijtimoiy ong bilan uyg‘unlashtiradi. Boburning o‘zbek adabiyotida yaratgan o‘zlikni izlash, g‘urur va qayg‘u sintezidan iborat ruhiy portreti Omon Matjonning estetik tafakkuriga g‘oyaviy poydevor bo‘lib xizmat qilgan.

Shu bilan birga, Mashrabning erkin ruhi, falsafiy qarashlari, xalqona ifoda uslubi ham Omon Matjon ijodida seziladi. Ayniqsa, shoirning falsafiy she‘rlari Mashrabona ohangdorlik bilan to‘yingan.

Mashrab o‘zining tasavvufiy falsafasi, erkinlikka intilishi, din va jamiyatdagi sun‘iy me‘yorlarga qarshi isyonkorligi bilan ajralib turadi. Uning she‘riyati o‘zbek xalqining ozodlik ruhi, hayotga muhabbat, haqiqatga sadoqat bilan yo‘g‘rilgan.

Omon Matjon esa Mashrabga xos isyonkor ruhni zamonaviy ijtimoiy adolatsizlik, ma'naviy bo'shshish, yolg'on qadriyatlarga qarshi poetik qurol sifatida ishlatadi.

“Yolg'on g'olib bo'lsa yuzing bur, ey yurak, Shonli dard bilan yur — ammo egilma!” Bu satrlarda Mashrabning erkin fikrlovchi, haqiqat so'zlovchi ruhi seziladi. Shoir zamonaviy “huzurdagi g'am”ni ifodalab, haqiqat izlovchi shoir mas'uliyatini Mashrabona tutumda namoyon etadi.

Mashrabda ko'p uchraydigan ruhiy paradokslar, metaforik ishoralar va qoralovchi ohang Omon Matjon she'riyatida zamonaviy ifoda vositalari bilan uyg'unlashtirilgan. U poetik tilni allegoriyalarga, ko'p qatlamli ramzlarga boyitadi.

Omon Matjon mumtoz adabiyotdan nafaqat g'oyaviy ta'sir, balki poetik uslubiy ta'sirni ham olib, uni modern adabiy shakllar bilan sintez qiladi.

Masalan:

**1. G'azal janriga** xos so'z boyligi, ohangdorchilik — uning erkin she'rlarida seziladi;

**2. Tasavvufiy timsollar** (ma'bud, ishq, fano, kamol) — zamonaviy tushunchalar (inson huquqi, o'zlik, milliy g'urur) bilan bog'langan;

**3. Ruboiy** shaklidagi siqiq, lekin mazmunan chuqur fikrlar — ko'plab she'rlarida uchraydi.

Shoir mumtoz badiiy tafakkurga sadoqat bilan yondashadi, lekin uni to'g'ridan-to'g'ri takrorlamaydi. Aksincha, Omon Matjon bu merosni ruhiy ustunlik darajasiga ko'tarib, zamon muammolarini mumtoz ruhda ifodalaydi.

Omon Matjon estetik qarashlarining shakllanishida jahon adabiyotining buyuk vakillari ham muhim rol o'ynagan. U Puşkin, Bayron, Yevtushenko, Lorca, Neruda kabi shoirlarning asarlarini o'rganib, ularning obraz yaratish, poetik shakllar, ritmika va estetik mazmunga e'tiborini o'z poetikasiga singdirgan.

Yevropacha romantizm, rus she'riyati an'analari va Lotin Amerikasi lirikasidagi tuyg'u kuchi Omon Matjon she'riyatining estetik qamrovini kengaytirgan. Bu jihat ayniqsa, “Men – Ona tiliman” dostonida teran seziladi. Bu

asarda jamiyatdagi ruhiy tanazzul, milliy o'zlikni yo'qotish, til masalasi jahon adabiy tajribasidagi milliylik g'oyasi bilan uyg'unlashtirib tasvirlanadi.

Omon Matjon estetik qarashlarida ma'rifiy ruh muhim o'rinni egallaydi. Shoir ma'rifatni – insonni anglash, jamiyatni yuksaltirish, milliy o'zlikni shakllantirish vositasi sifatida talqin qiladi. Bu jihat, ayniqsa, uning Vatan, til, tarix va haqiqat haqidagi she'rlarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Shoir nazarida, estetik go'zallik inson ma'naviy komilligida mujassam. Bu – mumtoz va zamonaviy adabiyotda ustuvor bo'lgan g'oyadir. Omon Matjon har bir asarida nafaqat san'atgo'y badiiyatni, balki ma'naviy mazmun, ruhiy go'zallikni ilgari suradi.

Yuqorida keltirilgan omillar Omon Matjon estetik konsepsiyasining asosini tashkil etadi. Uning poetik tafakkuri xalq ijodi, mumtoz meros, zamonaviy g'oya, jahon adabiyoti, milliy ruh, ma'naviy tarbiya elementlarini bir butun sintezda aks ettiradi.

Shoir she'riyatidagi "ichki tovush", "ramziy ohang", "qolipga sig'maydigan fikr"lar bularning barchasi ko'p qatlamli estetik olam yaratganining dalilidir. U go'zallikni nafaqat tashqi manzara sifatida, balki fikrda, ruhda, til ifodasida izlaydi. Bu esa uning estetik qarashlarida adabiy-ma'rifiy asoslarning chuqurligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Omon Matjon estetik qarashlarining shakllanishida o'zbek mumtoz adabiyotining ta'siri chuqur va tizimli tarzda namoyon bo'ladi. Navoiy, Bobur va Mashrab siymolari shoir poetikasida: ma'naviy yuksalishda Navoiyga, hayotga falsafiy nazar bobida Bobur ijodiga va isyonkorlik, haqiqatparastlikda Mashrab ijodiga ergashgani o'z aksini topgan.

Shoir mumtoz adabiy merosni shunchaki takrorlamaydi, balki uni zamonaviy tafakkur bilan uyg'unlashtirib, yangi poetik-estetik tizim yaratadi. Bu tizimda xalq ruhiyati, tarixiy xotira, shaxsiy falsafa va estetik nafosat mujassam. Omon Matjon o'zbek mumtoz adabiyotiga tayanib, zamonaviy milliy adabiyotning ulug'vor, chuqur, o'ziga xos badiiy makonini barpo etishga muvaffaq bo'lgan.

Omon Matjonning estetik qarashlari xalq og‘zaki ijodi, mumtoz adabiyot, jahon adabiyoti va ma’naviy-ma’rifiy g‘oyalar sintezidan tarkib topgan. U badiiy-estetik fikrlashda o‘zbek xalqining tarixiy xotirasini, badiiy estetik tasavvurini zamonaviy shakllarda aks ettira olgan. Shoirning bunday estetik yondashuvi uni XX asr o‘zbek she’riyati rivojida o‘ziga xos maktab egasiga sifatida tanitgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Nazarov B. Hayotiylik – bezavol mezon. –Toshkent. “Yosh gvardiya” nashriyoti, 1985. – 199 b.
2. Omon Matjon. Iymon yog‘dusi. – Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1995.
3. Omon Matjon. Seni yaxshi ko‘raman. – Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti,1981.
4. Omon Matjon.Tanlangan asarlar. – Toshkent. “Adabiyot” nashriyoti, 2023.
5. Sarimsoqov B.I. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent. 2004.
6. Qayumov L. Zulfiya. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1975.

### **XOSIYAT RUSTAMOVA SHE’RIYATIDA FALSAFIY QARASHLAR IFODASI**

**Otamuratova Muyiba O‘ktamovna,**

*o‘qituvchi,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek she’riyatining yorqin vakillaridan biri Xosiyat Rustamova ijodiga xos falsafiy qarashlar aks etgan. Shoir she’riyatida qalamga olingan mavzular, ulardagi inson kechinmalari tasviriga alohida diqqat qaratilgan.

**Абстрактный.** В данной статье отражены философские взгляды, присущие творчеству Хосият Рустамовой, одной из ярких представительниц современной узбекской поэзии. Особое внимание уделяется темам,

затронутым в поэзии поэта, и изображению в них человеческих переживаний.

**Abstract.** This article reflects the philosophical views inherent in the work of Khosiyat Rustamova, one of the brightest representatives of modern Uzbek poetry. Special attention is paid to the themes captured in the poetess's poetry and the depiction of human experiences in them.

**Kalit so‘zlar:** she’riyat, tasvir, peyzaj, badiiyat, tafakkur, yondashuv.

**Ключевые слова:** поэзия, образ, пейзаж, искусство, мысль, подход.

**Keywords:** poetry, image, landscape, art, thought, approach.

Taniqli shoira Xosiyat Rustamova ijodi zamonaviy o‘zbek adabiyotida alohida o‘rin tutadi. Uning she’rlari nafaqat badiiy ifodaviylik, balki chuqur falsafiy mazmunga ega bo‘lib, bu ijod namunalarida inson va borliq munosabati, muhabbat, haqiqat kabi mavzular qalamga olinadi. Har bir so‘z, har bir misra o‘quvchini o‘ylashga, chuqur mulohaza yuritishga undaydi.

Xosiyat Rustamova she’riyatida inson ruhiyati va tabiat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik yorqin aks ettiriladi. Shoira tabiat manzaralarini insonning ruhiy holatini ifodalovchi, uning ichki dunyosini ochib beruvchi vosita sifatida ishlatadi. Muallifning tabiatga bo‘lgan yondashuvi, uning inson bilan uyg‘unligini tasvirlashda yuksak falsafiy mazmun kasb etadi. Bu tasvirlarni quyidagi she’rda aniq ko‘rishimiz mumkin:

*Bir hamla qilsam, bas –  
Olaman ko‘kni,  
Hali quvvatimni Xudo olmagan.  
Yerning ostida ham biror joy yo‘qki,  
Mening ildizlarim kirib bormagan.*

Bu misralarda “**ildizlar**” va “**ko‘k**” tasvirlari shoiraaning borliq va inson o‘rtasidagi muvozanatni ifodalashdagi asosiy vositalaridir. **Ildizlar** – bu insonning o‘zligini anglatadi, **ko‘k** esa insonning ezgu orzulari, yuksak maqsadlari va ruhiy quvvatini bildiradi. Shoira o‘zining ichki kuchini butun borliq bilan uyg‘unlashtirgan holda, insonning imkoniyatlarini cheksiz deb tasvirlaydi. Shoira

she'riyati zamirida tevarak-atrofdagi kechayotgan voqea-hodisalarga yondashuvda xolislik va kuchli hissiy quvvat sezilib turadi. Ijodkor yuqoridagi to'rtlikda ham shu jihatga ishora qiladi. U o'ziga Xudo ato etgan iste'dod tufayli qonida jo'shurgan kuchga ishonadi. Shu bois, *“Hali quvvatimni Xudo olmagan” deya baralla aytadi. Bu holat esa shoira shaxsiyatidagi yana bir qirrani ochib berishga xizmat qiladi. Uning she'riyatini millionlab yuraklarga tomir otgan ildizga qiyoslash mumkin.*

Ijodkor insonning o'zligi, yashash mazmuni haqidagi fikrlarini nazmga solar ekan, bu o'rinda uning tiriklik mohiyati haqidagi falsafiy qarashlari bo'y ko'rsatadi. Masalan:

*Nima ham ko'rdim men bu dun ichinda,  
Yashab ham bo'ldimmi?  
O, naqadar oz  
Ont ichishim mumkin. Bari behuda —  
Faqat muhabbatim muhabbat, xolos!*

Bu misralarda shoira hayot haqidagi qarashlari o'ziga xos tarzda ifodalangan. Shoira uchun yashamoq faqat tashqi dunyodagi faoliyat bilan cheklanmaydi. Insonning ichki dunyosi, uning **ruhiy holati** va **ma'naviy olami** yashashning haqiqiy ma'nosini belgilaydi. **“Yashab ham bo'ldimmi? O, naqadar oz”** degan jumla orqali shoira insonning o'zligini anglash yo'lidagi izlanishini, bu izlanishlar yo'lida qo'ldan ketgan oltinga teng umr o'kinchlarini ifodalaydi. Bu misrada, shuningdek, **muhabbat** tushunchasi inson hayotining asl ma'nosi sifatida aks etadi. Shoira dunyoda mavjudlik va hayotni **muhabbat** orqali anglash mumkinligini ta'kidlaydi. **Muhabbat** uning she'riyatida nafaqat insonning ichki dunyosini tasvirlovchi, balki hayotning abadiy ma'nosini topishga yordam beruvchi asosiy qudrat sifatida ko'rsatiladi.

*Hayot, hali bisyormi sho'rim,  
Yetmay qolar ba'zida jur'at.  
Menga juda chiroyli ko'rin,  
Ketmoqlikka qolmasin xojat.*

Bu misralarda shoiraning hayotga bo‘lgan qarashi va ichki kurashi aks etadi. **“Hayot, hali bisyormi sho‘rim”** degan ifoda orqali shoira hayot yo‘lining noaniqligi, uning sirli va doimiy o‘zgaruvchanligini ifodalaydi. Mazkur she’rda inson nigohida hayotning chiroyli aks etishi, **yashab qolmoq va tark etmoq** tushunchalari o‘zaro ziddiyatli holda birlashtirilgan. Shoira o‘z ruhiyatidagi ichki qarama-qarshiliklarini va hayotdagi ikkilanishlarini shu zaylda g‘oyat ta’sirli tasvirlaydi. She’r shoiraning kelajakka bo‘lgan ishonchi va umidsiz his-tuyg‘ulari orasidagi nozik muvozanatni aks ettiradi. “Chin shoirlikka‘ngildagi sokinlig-u g‘alayonlarni, qaynab-sovishlarni boricha, aslicha ifodalay olish iqtidoridir” [4.: 39.]. Xosiyat Rustamova esa ana shunday yuksak iqtidor egalaridan biri sifatida e’tirof etishga munosib ijodkor. Xulosa qilib aytganda, Xosiyat Rustamova she’riyati zamonaviy o‘zbek adabiyotida o‘zining go‘zal poetik ifodalarga boyligi, inson ruhiyatiga nisbatan teran yondashuvi va borliq bilan uyg‘unlikni aks ettirishdagi chuqur falsafiy mazmundorligi bilan ajralib turadi. Shoira ijodini o‘rganish, nafaqat zamonaviy o‘zbek adabiyotiga chizgilar berishda, balki inson ruhiyatini anglashda ham muhim qadamlardan biridir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Hakimjon Karimov. Istiqlol davri adabiyoti. – Toshkent: “Yangi nashr”, 2010. 364 b.
2. Jumaboyeva J. XX asr o‘zbek she’riyatida psixologik tasvir mahorati. – Toshkent: “Fan”, 2004. 334 b.
3. Qozoqboy Yo‘ldoshev. Ochqich so‘z. – Toshkent: “Tafakkur”, 2019. 688 b.
4. Qozoqboy Yo‘ldoshev. So‘z yolqini. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. 504 b.

# OGAHIIY G‘AZALLARIDAGI XAVF MAQOMI HAQIDA BA‘ZI MULOHAZALAR

**Qo‘ziyeva Dilorom To‘rabayevna,**

*o‘qituvchi,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Muhammad Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy g‘azallaridagi xavf maqomining o‘rni va ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Xavf maqomiga oid g‘azallar tahlilga tortilgan.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается роль и значение статуса опасности в газелях Мухаммада Эрниеубека, сына Огахи. Анализируются газели о статусе опасности.

**Abstract.** This article discusses the role and importance of the status of danger in the ghazals of Muhammad Erniyozbek's son Ogahi. Ghazals about the status of danger are analyzed.

**Kalit so‘zlar:** Xavf, xatar, xavotir, qo‘rquv, dunyoviy, uxroviy.

**Ключевые слова:** Опасность, риск, тревога, страх, мирское, потустороннее.

**Key words:** Danger, risk, anxiety, fear, worldly, otherworldly.

O‘zbek mumtoz adabiyotida, xususan, Xorazm adabiy muhitida Ogahiyning o‘rni va roli beqiyosdir. Shoir g‘azallarining serqirraligi, mavzu ko‘lamining kengligi diqqatga sazovordir. Jumladan, shoir g‘azallarida tariqat maqomlari o‘zining yuksak badiiy ifodasini topgan. G‘azallarda keltirilgan maqomlar orqali shoirning tariqatga bo‘lgan hurmat va ehtiromini, sevgisini ko‘rishimiz mumkin. Bu o‘rinda xavf maqomining badiiy talqinlariga berilgan ifodalar orqali yuqoridagi fikrlarimiz isbotini ko‘rishimiz mumkin. Avvalo, “xavf” istilohiga to‘xtaladigan bo‘lsak, “xavf” arabcha so‘z bo‘lib, “qo‘rqish”, “cho‘chish” ma’nolarini anglatadi” [5.:109.]. Xavf Alloh taolo farz qilgan amallarni bajarayotganda, ruh va nafsni tarbiyalamoq yo‘lida qalbning tahlikalardan xavfsirashidir. Ya’ni, nafsning aldovlarga berilib imoni va taqvoli sustlashib qolishidan qo‘rqishidir. Binobarin, haqiqiy solik har lahzada xavfda bo‘lishi

lozim. Chunki xavf qilishlik amallarga ogohlikni talab qiladi. Bu borada ulamolarimiz xavf maqomini turlicha talqin qilganlar: Jumladan Rog‘ib: “Xavf gumon qilingan yoki ma’lum belgidan yoqmagan narsaning voqe’ bo‘lishini kutishdir. U omonlikning teskarisidir. Bu narsa dunyoviy va uxroviy narsalarda bir xil” [5.: 109.], – deb aytgan. Shunday ekan, bandalarning bu dunyodagi xavfini ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Dunyoviy narsalarda xavf.

2. Uxroviy uxroviy xavf.

Dunyoviy narsalarda xavf – bu dunyoda biror xavf-xatarga ega voqea-hodisa sodir bo‘lishi, shuningdek, mavjudot olami yoki ne’matlarga zarar va ofat yetishidan xavfsirash hisoblanadi. Bu mo‘min va musulmon bandalarga xos xavf bo‘lib, bunda ummatning toat-ibodatlarda shaytoniy makrning aralashib qolishidan o‘zini muhofaza qilishi, gunohlarning takrorlanishidan hazar qilishi, nafs qutqulariga sergak turish xavfi hisoblanadi.

Uxroviy narsalarda xavf – tariqat yo‘lidagi solikning sulukka berilish davomida uchraydigan xavfidir. Bu orif zotlarning xavfi bo‘lib, bunda solik qilayotgan har bir ishini amal tarozisida o‘lchaydi. Oriflar olayotgan va chiqarayotgan har bir nafasida xavfda bo‘ladi. Rasuli Akram Hazratlari aytadilar: “Sizlarning eng aqli komilingiz Alloh taolaga xavfi qattiqrog‘ingiz, uning buyruq va qaytariqlariga tafakkuri go‘zalrog‘ingizdir. Garchi bunda ixtiyoriy amalingiz kam bo‘lsa ham”[1.: 98.]. Xavf komillikka yetishdagi oliy maqomlardan bo‘lib, u mustahkam iymon va go‘zal taqvo uchun lozim bo‘lgan narsalardandir. Allohning g‘azabidan qo‘rqib, gunoh kelganda uni tark etishlik go‘zal va solih amallardan biri hisoblanadi. Bu amallardan xavfsirashda ixlosning darajasi yuksakdir. Aytadilarki: “Ilmining hammasi dunyodir. Oxirat esa, unga amal qilishdir. Ixloslidan boshqa amalning hammasi behuda”[1,98]. Sahl roziyallohu anhu aytadilar: “Olimlardan tashqari hamma o‘likdir. Ilmiga amal qiluvchilardan boshqa barcha olimlar sarxushdir. Ixloslilardan tashqari barcha amal qiluvchilar aldagandir. Ixlosli kishi esa oqibati nima bilan tugashini bilguncha xavfdadir” [1.: 98.]. Sharqning buyuk so‘fiylaridan Hotam Asim aytadi: “Ixlosning nishonasi uch

nimarsadir: Avval ulkim kishining yaxshi va yomon degani aning oldida barobar bo'lg'ay, ikkinchi ulkim qilgan toatini faromush qilmagay, uchinchi ulkim qilg'on ibodatiga qiyomat kuni savobini vojib va mushaxxas bilmag'ay" [5.: 111.]. Shunday ekan, haqiqiy xavf amallarni Alloh uchun, Uning roziligi yo'lida ixlos ila bajarishdir. Imom Hasan Basriy roziyallohu anhu: "Olim Allohdan g'oyibona qo'rqqan odamdir. Alloh qiziqtirgan narsaga qiziqqan, Alloh yomon ko'rgan narsadan qochgan odamdir", deya turib "Allohdan bandalari ichidan faqat olimlarigina qo'rqarlar", oyatini tilovat qilar ekanlar" [5.: 111.]. Hazrat Ogahiy g'azallarida tasvirlangan xavf maqomida ham dunyoviy narsalarga hamda uxroviy narsalarga bo'lgan xavf to'g'risida so'z boradi. Jumladan, shoirning quyidagi g'azalini dunyoviy narsalarga xavf sifatida ko'rish mumkin:

*Jahon bir xavfliq' manzildur usru,*

*Xiradmand ersang onda bo'lma mokis [4,80].*

Mazkur baytda shoir jahonni nihoyatda ko'p xavf-u xatar manzili sifatida tasvirleydi. Donishmand va dono bo'lsang, bir joyda qotib qolma, deya xushyorlikka da'vat etadi. Shoir nima uchun dunyoni xavf-u xatar manziliga o'xshatdi? Bu qanday xavf bo'lishi mumkin? Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Hazratlari "Xavfni Alloh taologa nisbat berilganda, ya'ni, "Allohdan xavfi bor" deyilganda, xuddi arslon yoki boshqa shunga o'xshash narsadan dahshatga tushish anglanmaydi. Balki, ma'siyatlardan o'zini tortish va toatlarni ixtiyor qilish tushuniladi. Shuning uchun ham "Kim gunohlarni tark qilmasa, xavf qiluvchi emasdir" [5.: 109.], deya ta'rif beradi. Shunday ekan, nafs rohatini o'ylab foniy dunyoning o'tkinchi matohlariga berilish, nafs istaklarini bajarish orqali kishining xavfi sustlashib boraveradi.

Hazrat Ogahiy g'azallarida ifodalangan solikning sulukka berilishdagi xavfi faqat Haqning o'ziga qaratilgan bo'lib, Yaratuvchisidangina xavf qiladi.

Shoirning g'azallari jamlangan "Taviz ul-oshiqin" devonidagi hamd va na't g'azallar tasavvufiy masalalarga yo'l ochadi. Alloh va payg'ambar sifatleri aks ettirilgan talqinlar haqiqiy ishqni anglashga va idrok etishga katta yordam beradi. Ogahiy devonidagi "Zihi jonlarg'a vasling shavqidin aysh-u tarab paydo" deb

boshlanuvchi g‘azali orqali ham shoirning so‘fiyona qarashlari ayon bo‘ladi. Mazkur g‘azalning matla’si Allohga hamd bilan boshlangan va ushbu bayt orqali uxroviy xavfning namunasini kuzatish mumkin:

*Zihi jonlarg‘a vasling shavqidin aysh-u tarab paydo*

*Gahi dard-u firoqing xavfidin ranju ta‘b paydo [4.: 26.].*

Mazkur baytda lirik qahramon Yaratuvchisiga murojaat qilib, sening go‘zal vasling shavqi qalblarga shodlik, aysh, xursandchilik kabi ko‘ngilga matlub va yoqimli tuyg‘ularni solsa, gohida dard-u firoqing xavfidan dilda ranj-u sitamlar paydo bo‘ladi, deydi. Biz mazkur bayt orqali xavf maqomi bilan birgalikda rajo maqomini ham ko‘rishimiz mumkin. Chunki oshiq Yaratganning ko‘ngilga shodlik ulashtiruvchi vaslidan umidvor. Oshiq uchun visol shavqqa to‘lish onlaridir. Ba’zida esa oshiqning ko‘nglida Uning xavfida dard va firoq paydo bo‘ladi. G‘azallarda xavf va rajo maqomlarining baytda yonma-yon kelishi, yoki mazmunidan anglanishi tabiiy holdir. Chunki bu ikki maqom bir-birini to‘ldirguvchi, hammaslak maqomlardir. Bu borada Abu Homid G‘azzoliy: “Rajo va xavf muqarrablar barcha maqomlarga uchib boradigan ikki qanotdir. Ikkisi oxirat yo‘lidagi qiyin dovonlarni oshib o‘tishdagi ulovdir”[5, 128], - degan Shoirning quyidagi bayti ham sayri sulukka qadam qo‘ygan solikning uxroviy xavfi bayonidadir:

*Tariqi ishq aro har kim qadam qo‘ysa agar gustox,*

*Ko‘rar, albatta, ul yo‘l sayrida turluk xatar gustox [4.: 90.].*

Ishq yo‘liga har kim, ya’ni, adabsizlar qadam qo‘ysa, u yo‘lning sayrida turli xatarlarga duch kelishi mumkinligi aytiladi. Bu bilan shoir tariqat yo‘lining ham o‘ziga xos odob-ikromi mavjud ekanligi, bu yo‘ldagi xavf-xatarga ogoh bo‘lish lozimligini ta’kidlaydi. Bu yo‘ldagi xavf-u xatar, albatta, nafs xatari hisoblandi. Shoir tariqatga yo‘l olgan solik nafsi yo‘lidagi xatarini jilovlashi lozimligini, aks holda u gustoh ya’ni, adabsiz hisoblanishini aytadi. Misralardan yana ayon bo‘ladiki, solikning ishq yo‘lidagi bardoshi kuchli bo‘lmasa, Allohga amini ham, qo‘rquvi ham sustlashib qalbi qorayib boraveradi. Bag‘dod mashoyixlaridan Abulxayr Nassoj: “Xavf – Allohning qamchisidir. Agar bandalari odobsizlik,

yomon xulqni o‘zlariga odat qilsalar, u orqali odobli bo‘ladilar. Xavfning nishoni shuki, amal g‘oyatiga yetsa, uning ichida nuqsondan va zorlikdan boshqa hech narsa ko‘rinmaydi” [2.: 422.]. Mazkur g‘azalning keyingi baytida ham ishq vodiysiga qadam qo‘ygan solik undagi nihoyatda ko‘p xatarlarga bardoshli bo‘lmog‘i lozimligi, aks holda bu makonda sherlar ham gustoxga aylanishini uqtiradi. Ya’ni, Haq vaslini orzu qilgan har qanday oshiq o‘zini xavf-u xatarda deb bilishi lozim:

*Oningdek havlnok-u pur xatardur ishq vodiysi,*

*Ki onda kira bo‘lmas bo‘lmag‘uncha sheri nar gustox [4.: 90.].*

Xulosa qilib aytganda, Ogahiy g‘azallarida dunyoviy va uxrovij narsalarda xavf haqida so‘z borib, xavf maqomi uqubat xavfi hamda makr xavfi tarzida talqin qilinadi. Xavf qiluvchilarning har doim Allohga muhtoj ekanligi badiiy libosda o‘ziga xos tarzda zikr qilinadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Abu Homid al-G‘azzoliy. Ihyou ulumid-din. Ilm kitobi. – T.: Movarounnahr, 2007.
2. Фаридиддин Аттор. Тазкират ул авлиё. Т.: Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2013.
3. Нажмиддин Комилов. Тасаввуф. – Т.: Мовароуннахр, 2009.
4. Муҳаммад Ернийезбек ўғли Огаҳий. Таъвизу-л-ошиқин. – Тошкент. Мумтоз сўз, 2014.
5. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Руҳий тарбия. II Жуз. – Т.: Шарқ, 2008.

# AHMAD YASSAVIY TASAVVUFIIY QARASHLARINING TASAVVUF ADABIYOTI RIVOJIDAGI O‘RNI XUSUSIDA BA‘ZI MULOHAZALAR

**Xudoyberganov Abdulla,**

*o‘qituvchi,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada biz Sulaymon Boqirg‘oniy ijodining horijda bo‘rganilishi, Qozog‘iston va Turkiyalik bir qancha olimlarning Sulaymon Boqirg‘oniy hayoti va ijodi haqidagi bir qancha ilmiy yangiliklari haqida bilib olishimiz mumki.

**Аннотация.** В данной статье мы можем узнать об изучении творчества Сулеймана Бакыргани за рубежом, а также некоторые научные новости о жизни и творчестве Сулеймана Бакыргани несколькими учеными из Казахстана и Турции.

**Annotation.** This article we can learn about the study of Suleiman Bakirgani's work abroad, as well as some scientific news about the life and work of Suleiman Bakirgani by several scholars from Kazakhstan and Turkey.

**Kalit so‘zlar:** mutasavvif, vahdat, ibtido, hukmatnavislik, riyozat.

**Ключевые слова:** суфизм, единство, эмансипация, государственная письменность и математика.

**Keywords:** sufism, unity, emancipation, government writing, and mathematics.

Adabiyotning rivoji bir qancha unsurlar bilan hamohang tarzda kechuvchi voqeylik bo‘lib uning turfaligi to‘g‘ridan-tog‘ri ijtimoiy hayot bilan birga kechadi. Turkiy adabiyotda ham shunday o‘ziga xoslik bilan XII asrlarga kelib turkiy tasavvuf maslagi vujudga kela boshladi. Bu maslak asoschisi Ahmad Yassaviydir. Mutassavvif olimning irfoniy ilmni tarqatish, uni tub aholiga Yaratgan ilmini tarqatish kabi sa’y-harakatlari natijasida bizgacha takomillashib, oshiqlik darajasidan oriflik darajasigacha rivoj topgan tasavvuf maslagi yetib keldi.

Turkiy xalqlar adabiyoti va tarixini o‘rganish turli davrlarda turlicha kechdi. Tabiiyki turkiy xalqlarning ijtimoiy-siyosiy turmush tarzi ulardagi ilmiy izlanishlar va yangi bilimlarning ma’lumotlarning ochiqlanishiga xizmat qildi. Ahmad Yassaviy ijodining ham o‘rganilishi va tadbiq qilinishi yuqoridagi fikr isbotidir. Turkiy tasavvuf maslagi ulug‘ mutasavvif olimning bir qancha qarashlari orqali hskillanganligi va undan keyingi tasavvuf olimlari Yassaviydan tasavvuf maslagini u kabi davom ettirgani ham e’tiborga molik jihatdir. *Bu xususida qozog‘istonlik olim Kenzhetay Dossay “Ahmet Yesevî düşüncesinde Vahdet-I Vücut” [41.: 28.] nomli maqolasida shunday yozadi: “Ahmad Yassaviy o‘zining “Mirot ul qulub” risolasida vahdat ul vujudga erishish yo‘llari va ma’nosini ko‘satgan bir dasturulamaldir. Unda muhabbat, suv va g‘ayrat uchligi haqida va ular vahdat ul vujud ta’limotining asosi ekanligi haqida yozadi. Yuqorida berilgan muhabbat bu bandaning Robbisiga, Robbisining bandaga bo‘lgan muhabbatidir. Suv esa, bir vaqtning o‘zida suv va olovning mazmunini o‘zida biriktiradi. Bu degani, solikda ma’naviy tajriba, o‘limdan oldin o‘lish, nafsini mahv qilish demakdir. Bu yerdagi uchinchi butunlik shavqdir. Shavq arabcha “sog‘inch” ma’nosini bildirib, Alloh taolo bilan uchrashishni orzu qilgan mutasavvufning eng oliy maqsadidir. Tasavvufning vahdat ul-vujud ta’limoti bu Yaratgan va odam o‘rtasidagi uzviylik, Tangrini tanish va unga bandalik (qullik) qilishni targ‘ib qiluvchi ta’limotdir. Yassaviyning bu masalada ham oldingilardan bo‘lib Yaratganga erishish yo‘lining eng oliy ko‘rinishlaridan bo‘lmish vahdat ul-vujud ta’limoti haqida o‘zining “Mirot ul qulub” risolasida keltirganligini va bu orqali o‘ziga ergashuvchi muridlariga to‘g‘ri va ishonchli yo‘lini ko‘rsatganligidadir. Olimning izlanishlari va Yassaviy haqida bergan ma’lumotlarining barchasida Yassaviydan keyingi vahdat ul-vujud ta’limotiga uzviy qaysidir jihatini ko‘rishimiz mumkin. Ahmad Yassaviy ijodini faqat tasavvuf olimlarigina emas, balki falsafa fani ixlosmandlari ham o‘rgangan. Turkiyalik falsafa fanlari nomzodi, dotsent Salih Açikgözning “Felsefe anabilim dali” nomli kitobida Yassaviyning falsafiy qarashlari haqida shunday ma’lumotlar keltiradi: “Yassaviyning turk xalqi, millati, she’riyati uchun qilgan xizmatini unutib*

bo‘lmaydi. Qaysidir yo‘ldan birinchi yurib yo‘l boshlagan odam hamisha eslanadi. Yassaviy turkiy xalqlar ijodkor va mutasavvufi orasida ilk bor tasavvuf va turkiy she‘riyatning hamohangligini o‘z *she‘rlarida ifodaladi*”, [25.: 33.] – deb ta’rif bergan. Shu o‘rinda Salih Açıkgözning fikrlarining dalilini yuqoridagi har bir turkiy tariqatning boshlanish ibtidosi Yassaviyga borib taqalishi, ba’zi manbalarda Najmiddin Kubro ham o‘zi tariqat peshvosi bo‘lishidan oldin Yassaviy muridlaridan Sulaymon Boqirg‘oniydan ta’lim olganligi haqida ma’lumotlarni uchratishimiz mumkin. Yassaviy — Islomga kirishning oxirgi va islomiyatning ilk shoiri-ideologi ediki, xuddi shu ma’noda buyuk Sharq Renessansining yuzaga chiqishida Dantega o‘xshab ish ko‘rmak uning qismatiga tushdi”, [3.: 44.] – deydi professor Yashar Qorayev.

Abdurauf Fitratning “O‘tgan shoirlar, adiblar, so‘fiylar orasida Yassaviy qadar ta’sirini kengaytirgan bir kishini uchratib bo‘lmaydi”, degan fikrining dalilini Yassaviy va uning izdoshlari haqidagi har izlanishning yakunlovchi qismidan olinadigan xulosasida ko‘rishimiz mumkin. Tasavvuf allomalarining barchasini birlashtirib turuvchi umumiy maqsad bu komil insonni tarbiya qilishdir. Turkiy tasavvuf boshchisi Ahmad Yassaviy haqidagi Huseyin Vassafning quyidagi mulohazasi fikrimizni quvvatlaydi. “Na buyuk azm, na ulug‘ muhabbat, na shiddatli muhabbat va riyozatdir. U, Ahmad Yassaviy erishgan hol dunyoda hech bir shaxs yetishmagan. Ahmad Yassaviy niyat qilgan komil inson tarbiyasini o‘zida mujassam qiluvchi omillar sifatida biz ma’naviy axloqni tushunishimiz mumkin. Yassaviyning yuqoridagi ezgu g‘oyasining ro‘yobi jihatdan biz Yassaviya tariqatining turkiy xalqlar hayotida tutgan o‘rnini Nodirxon Hasan izlanishidagi Yassaviyning turkiy xalqlar ma’naviy hayotiga kiritgan o‘zgarishlari haqidagi fikridan bilib olishimiz mumkin. Nodirxon Hasan o‘zining “Yassaviylikka doir manbalar va “Devoni hikmat” asarida bunga quyidagicha tartib beradi:

- ma’naviy, axloqiy, diniy-tasavvufiy ta’siri: bunda Hakim ota, Zangi ota, Qusam ota, Halil ota kabi ko‘plab yassaviya darveshlari jahriya silsilasi, tariqat

odob-u arkoni, darveshlik qoidalari, pir-murid munosabati orqali xalqqa o‘z ta’sirini ko‘rsatgan.

Adabiy-estetik ta’siri: Ahmad Yassaviy o‘z fikir-qarashlarini she’riy tarzda ifodalsh bilan turkiy tasavvuf adabiyotiga asos solgan. [84.: 56.]

Yuqoridagi misollar va ularni dalillovchi asoslardagi ma’lumotlardan kelib chiqib shuni ta’kidlash kerakki, Yassaviy boshlab bergan turkiy tariqat undan keyin xalifalari, muridlari tomonidan ayni shu tartibda davom ettirildi. Yassaviy boshlab bergan hikmatnavislik an’anasi undan keyin bir necha asrlar davomida davom ettirildi. Yassaviydan keyin ijod qilgan ko‘plab ijodkorlar uning qilgan xizmatlarini o‘z asarlarida alohida-alohida bir-biriga o‘xshamagan tarzda tarif-tavsif qilishdi.

Fikrimiz xulosasi sifatida shuni aytish mumkinki, Ahmad Yassaviy o‘zidan qoldirgan adabiy merosi bilan tasavvuf adabiyotining turkiy adabiyotga kirib kelishiga katta ta’sir o‘tkazgan olimdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Kenzhetay, DossayT. Aralık 2010, Lefke ss.
2. Salih Açikgöz. Felsefe anabilim dali. yüksek lisans tezi Ankara. 2020.
3. Ibrohim Haqqul. “Oldingdan oqqan suvning qadri” nomli maqolasi. <https://n.ziyouz.com/> (2004)
4. Nodirxon Hasan. Yassaviylikka doir manbalar va “Devoni hikmat”. – N.: “Akademik”, 2012. – 301 b

# “DARYOSINI YO‘QOTGAN QIRG‘OQ” ROMANIDA INSON VA TABIAT MUNOSABATLARINING IJTIMOIIY-FALSAFIY ASOSLARI TALQINI

**Xajiboyev Kishin Alisher o‘g‘li,**

*o‘qituvchi,*

*Urganch innovatsion universiteti*

**Annotatsiya.** Maqolada Erkin Samandarning “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” romaniga asoslanib, inson va tabiat munosabatlarining ijtimoiy-falsafiy asoslari haqida fikr yuritilgan.

**Аннотация.** В статье рассматриваются социально-философские основы взаимоотношений человека и природы на основе романа Эркина Самандара “Берег, потерявший свою реку”.

**Abstract.** The article reflects on the socio-philosophical foundations of the relationship between man and nature based on Erkin Samandar's novel “The Shore That lost its River”.

**Kalit so‘zlar:** tabiat, inson, to‘g‘on, Amudaryo, Jayhun, Qirtepa, Mazdubat tuz koni.

**Ключевые слова:** природа, человек, дамба, Амударья, Джейхун, Киртепа, соляной карьер Маздубат.

**Key words:** nature, man, dam, Amudarya, Jayhun, Qirtepa, Mazdubat salt mine.

70-80-yillarda adabiyot mamlakat va xalq hayoti bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlandi. Jumladan, o‘zbek nasri ham taraqqiy topib, adabiyotning yetakchi janriga aylandi. Bu davr o‘zbek nasri sohasida Oybek, Abdulla Qahhor, Sharof Rashidov, Mirzakalon Ismoilov, Said Ahmad, Asqad Muxtor, Pirmqul Qodirov, Odil Yoqubov va Erkin Samandar singari tajribali yozuvchilar ijod etdilar. Ushbu iodkorlarning romanlari quyidagicha baholandi: “Bu davrda o‘zbek romanchiligida hozirjavoblik kuchaydi. Qisqa vaqt ichida zamonaviy mavzularda o‘nlab romanlar yozildi. 80-yillarning ikkinchi yarmida yuzaga kelgan “Jimjitlik”

(Said Ahmad), “Oq qushlar, oppoq qushlar” (O. Yoqubov), “Lolazor” (Murod Muhammad Do‘st), “Ilon o‘chi” (Mirmuhsin), “Mungli ko‘zlar” (X.To‘xtaboyev). “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” (E.Samandar), “Egilgan bosh” (O.Muxtor) romanlari nasrimizda o‘ziga xos yangilik bo‘ldi” [1.: 66.].

Erkin Samandarning “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” romanida ona tabiatga nisbatan insonlar munosabatining salbiy tus olishi insonning tabiat ustidan hokimligi borasidagi g‘ayriinsoniy falsafaga ergashishi natijasi sifatida talqin qilinadi. Asardagi “Zarbdor” qurilishi boshlig‘i G‘ani Aminov, tuz g‘ori ustidan damba qurmoqchi bo‘lgan mayor Rahmonov, nozir Nazarovlar shunday insonlardan edi.

Inson va tabiat uyg‘unligining o‘zagi milliy qadriyatlarga qaytish, tabiatga nisbatan axloqiy normalarni o‘tmish mezonlari asosida tuzishdir. Bu haqida Umida Rasulova shunday deydi: “Boshqaruvchi odamzod borliqning tirik ekanini doim his qilmog‘i lozim; hayvon, qurt-qumursqa – bari harakatda. Ona zamin bag‘riga yaratilarni sig‘diraveradi, yaratilganlar o‘z navbatida almashinib turaveradi (hayot va o‘lim). Yashash, xayrli umr kechirish oliy maqsad sanaladi. Inson nabotot-u jamodotga habib tutinib, uni ardoqlamog‘i kerak. Ota-bobolarimiz bu axloqiy aqidani dasturilamal etganlar” [3.: 22.].

“Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” romanida to‘g‘on va GES qurilayotgan maydonda Amudaryoning biqinida joylashgan oxirgi do‘nglik Qirtepa qolgan edi. Uzoq asrlik tarixga ega bu tepalikning portlatilishi, uning ayanchli natijasi o‘quvchini ma‘yus torttiradi. Asarda Qirtepaning qudrati shunday tasvirlangan: *“Necha asarlardan beri to‘lqinlar zarbiga dosh berib keladi. Hatto qoyalarni yemirgan daryoning tishi shu Qirtepa o‘tmaydi. Tinimsiz unga kalla uradi. Qirtepa pinagini ham buzmaydi. Daryodan zo‘r kelayotgan tepani odamlar bir kunda portlatmoqchi bo‘lishdi”* [2.: 52.]. Uni qo‘porib tashlash Ganja uchastkasiga topshirildi. Qancha ekskavatorlar, buldozerlar, skreperlar, samosvallar birvarakayiga hujum boshladi. Ammo bu ishlar samarasiz ketdi. Hattoki, Qirtepaning bir hovuchini ham joyidan qo‘zg‘ata olmadi. Mexanizmlar Qirtepaning uch tomonidan 30 metr uzoqlikdan turib qaziy boshladi. Shunda mo‘jiza sodir bo‘ldi. Bir-birining ustiga mingashtirilgan xumlar va ko‘zalar koni

ochildi. Ajabo, oddiy bir Qirtepada bu xumlar, ko‘zalar qanday paydo bo‘ldi? Ularni kimlar nima maqsadda ishlagan? Yoki bu yer bir zamonlar ko‘zachi ustalar shahri bo‘lganmi? Qurbon akaning tarixchiligi tutib, ko‘zlarida shavq uyg‘ondi: *“Arxeolog olimlarni taklif qilish kerak. Bu juda katta topilma. Ilmda yangilik bo‘ladi. Tariximizning ko‘p qorong‘u tomonlari oydinlashsa ehtimol”* [2.: 54.] deydi. Aminov bunga e‘tibor ham bermasdan tepalikni portlatishni taklif qildi. Ganja va tarix o‘qituvchisi Qurbonboy bunga qattiq qarshilik qildi: *“Duldulsoy qurilishi uchun kelgan hasharchilarning yotoqxonasi qurilish maydonining ichida joylashgan, ularning ichida talabalar ham bor. Bundan tashqari Duldulsaoyning bir a‘zosi hisoblangan Qirtepani portlatib yo‘qotsak, ona zamin xafa bo‘lmaydimi? Daryo suvini to‘siq Sulton yaxshilikka erishmagan, biz nimaga ham erishardik”* [2.: 53.] deyishdi ular.

Aminov ularga quloq solmadi. Ganja va uning odamlarini boshqa uchastkaga o‘tkazishdi. Qirtepani portlatish uchun buyruq berdi. *“Взруенпом”* mutaxassislari zonani o‘rab oldilar. Xum va ko‘zalarga turli-tuman simlar tortildi. Birozdan so‘ng yer-u osmon baravariga gumburladi, chang-to‘zon ko‘tarildi. Qadimiy ko‘zalar va xumlar chirpirak bo‘lib osmonga otildi. Duldulsoyni oh-u voyga ko‘mib tashladi. Shu payt quloqni teshgudek chinqiriq eshitildi. Yashin tezligida uchgan katta tosh Kamolning naq peshonasiga kelib tegdi. Koptokka o‘xshab boshi dumalab ketdi. Kamol G‘ani Aminovning o‘g‘li edi” [2.: 58.]. Ana sizga haqiqiy hayot falsafasi. Insoniyat tabiatning bir bo‘lagini yulib olib tashlaydi-yu, tabiat indamay qarab turadimi? Bu tabiatning olgan o‘chidir balki?

Muallif romanni yaratishda asar ichida asar keltirish usulini qo‘llaydi. Bu orqali Qirtepaning paydo bo‘lish tarixini kitobxonga anglatadi. Emishki, qadim zamonlarda Qirtepa Qarluq hokimi Sulton tomonidan bunyod etilgan. U Bog‘istonni ko‘pdan beri zabt etish orzusida bo‘lib, bunga Bog‘iston podshosining qizi To‘rabekxon orqali erishmoqchi bo‘ladi. Aqlli qiz uning niyatini bilib sovchilarni qaytaradi. Sulton bundan jahli chiqib, Bog‘istonga boradigan ayqirib turgan Jayhun daryosini to‘smoqchi bo‘ldi. Buning uchun *“donishmandlar bilan kengashib, mutaxassislarni chaqirib, xumbuzlar qurildi, ulardan xum va ko‘zalar tayyorlanib, ichi chagalar bilan to‘ldirildi. Bilakday zanjirlar bilan bir-biriga ulandi”* [2.: 56.]. Shu tarzda ularni daryoga tashlab qotirdi. Bog‘iston suvsizlikdan

qiynalib ketdi. Bunga chiday olmagan To‘raxon Sultonning oldiga borib daryoni ochishini so‘radi. Buning uchun menga turmushga chiqasan, – dedi Sul-ton. To‘rabekxon unga poyga shartini qo‘yadi. Poygada To‘rabekxondan Sul-ton yengiladi. Suvni ochishdan boshqa chorasi qolmay, daryo bo‘yidagi zanjirni bo‘shatib xum va ko‘zalarni qirg‘oqqa chiqarib, tepa qilib uydilar. Qirtepa hosil bo‘ldi...

Romandagi bu hodisa orqali inson va tabiat iztiroblari uyg‘unlashib ketadi. Qirtepedek bir bo‘lagidan ayrilgan ona tabiat va o‘g‘li Kamoldan judo bo‘lgan Aminov. Bunda ijtimoiy odam tabiatni bo‘ysundirayotgan, u berishni xohlamagan ne‘matlarni tortib olayotgan inson obrazi, ijtimoiy hayot masalalariga e‘tibor qaratilgan. Tabiatning bu ko‘rguliklari, bitta-bitta o‘z a‘zolaridan ajralayotgani, tushkun ahvoli, o‘ch olish jarayonlari falsafiy jihatdan inson hayoti bilan o‘xshashlik kasb etadi. Zero, tabiat kelajak uchun ham asralmog‘i darkor. Inson ham xuddi shunday. Hayotda faqat o‘zi uchun emas, avlodlari uchun ham javobgar. Bunday mas‘uliyatni unutish, o‘zini mahv etish demakdir.

Xulosa qilib aytganda, ushbu roman XX asr o‘zbek nasrining tabiat va inson munosabatlari uyg‘unligiga be‘etibor bo‘lmaganligidan nishonadir. Erkin Samandarning “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” romani falsafasi shundan iboratki, inson tabiat himoyasi uchun doimo shay tursin, tabiat qiyofasida kuchsiz, madad va e‘tiborga muhtoj yaqinini ko‘rsin. Inson uni aqlli, sezgir sohib, mehrli himoyachi kabi o‘rgansin. Bu ijtimoiy-falsafiy asoslar Ganja, Buva, Qurbon obrazlari orqali kitobxonlar ongiga singdirilgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Мирзаев С. XX аср ўзбек адабиёти. Дарслик. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005.
2. Erkin Samandar. G‘ayb qushlari. – Toshkent: Sharq, 2009.
3. Расулова У. “XX аср ўзбек қиссачилиги (поэтик изланишлар ва тараққиёт тамойиллари)”. Филол. фанл. докт. (DSc) дисс. автореф. – Тошкент, 2020.

## NAJMIDDIN KUBRO OBRAZI — JAHONIY IBRAT TIMSOLI

**Ozoda Ochilova,**

*tayanch doktorant,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Maqolada millat uchun jonini fido qilgan vatanparvar tarixiy shaxslar talqiniga adabiy-tarixiy yondashuvda muallifning nuqtai nazari, adabiy qahramon xarakteri va bu xarakterga ijtimoiy muhit va an'analar ta'siri kabi omillarning o'rni, istiqlol davri o'zbek adabiyotida Shayx Najmiddin Kubro obrazining yangilangan badiiy talqinlari haqida so'z yuritiladi.

**Аннотация.** В литературно-историческом подходе к интерпретации патриотических исторических деятелей, отдавших свою жизнь за нацию, обсуждается авторская точка зрения, роль таких факторов, как характер литературного героя и влияние социальной среды и традиций на этого персонажа, а также обновленные художественные интерпретации образа шейха Наджмиддина Кубро в узбекской литературе периода независимости.

**Abstract.** The article discusses the author's point of view in the literary-historical approach to the interpretation of patriotic historical figures who sacrificed their lives for the nation, the role of factors such as the character of the literary hero and the influence of social environment and traditions on this character, and the updated artistic interpretations of the image of Sheikh Najmiddin Kubro in Uzbek literature of the independence period.

**Kalit so'zlar:** tarixiy qahramon obrazi, qissa, dramatik asar, prototip, xronologik syujet, Shayx Najmiddin Kubro, tarixiy ilg'am.

**Ключевые слова:** образ исторического героя, новелла, драматическое произведение, прототип, хронологический сюжет, шейх Наджмуддин Кубро, историческая легенда.

**Keywords:** the image of a historical hero, story, dramatic work, prototype, chronological plot, Sheikh Najmiddin Kubro, historical precedent.

Barcha zamonlarda ham tarixiy mavzuga murojaat qilish, har bir davrning va har bir avlodning eng zarur ehtiyoji sanalgan. Chunki xalq tarixini chuqur

o'rganish, ma'naviy qadriyatlarni tiklash, xalqni milliy an'analarga hurmat va ehtirom, Ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash jamiyatni buyuk istiqbolga eltuvchi omillardan biridir. Yurtimiz istiqbolga erishgandan keyingi yillarda yaratilgan tarixiy asarlarda tasvirlanayotgan davr voqeliklarini ifodalashda tarixiy haqiqatga mumkin qadar tobora ko'proq darajada yaqinlashishga harakatlar seziladi. Shuningdek, tarixiy qahramon obrazini gavdalantirishda ham qanchalik yuksak shaxsiyat bo'lmasin, ortiqcha ideallashtirib yubormasdan, uni ham Olloh yaratgan ojiz banda ekanligini real tasvirlash xususiyatlari teranroq ko'rinmoqda. Adabiyotshunos A.Alimbekov "Tarixiy siymolarga bir inson sifatida qarash, ularning ko'ngil evrilishlarini berishga harakat qilish" [1.: 23.] bugungi tarixiy asarlarga xos jihat ekanligini qayd qiladi. Bu sifatlar dramatik turdagi asarlarga ham xos bo'lib, mustaqillik yillarida yaratilgan qator asarlarda tarixiy shaxslar tasvirida real haqiqatga tayanish, qahramonni butun murakkabliklari bilan badiiy aks ettirish kuzatilmoqda.

Ma'lumki, istiqloldan oldin yaratilgan ko'pchilik tarixiy asarlarda, tarixga bir tomonlama yondashish, dalillar yetishmasligi kabi kamchiliklar uchrar edi. Albatta, bu borada ijod erkinligining cheklanganligi, senzura ta'siri borligini ham ta'kidlash joiz. Mustaqillik yillarida esa, ayniqsa, tarixga, uning buyuk siymolariga munosabat tubdan o'zgardi. Tarixiy mavzudagi asarlarga ehtiyoj ham ancha ortdi. Jumladan, istiqlol yillarida Imom Buxoriy, Amir Temur, Najmiddin Kubro, Beruniy, Ibn Sino, Pahlavon Mahmud, Ulug'bek, Navoiy, Bobur, Mashrab kabi alloma va adiblar to'g'risida turli janrlarda vujudga kelgan asarlar buning dalilidir. Bu asarlarda tarixiy shaxslarning hayot haqiqatiga mos, xolis va haqqoniy tasvirlanishi mustaqillik davri adabiyotining yutug'i bo'ldi.

Tarixiy fakt va badiiy to'qima munosabati adabiy talqinning o'zak muammolaridan biridir. Obraz yaratish jarayonining bu ikki qirradi o'zaro bir-birini taqozo etib, umumiy yaxlitlik vujudga keltirsagina asar mohiyati va adabiy xarakter yorqin ifodalanadi. Xususan, tarixiy shaxsni badiiy obrazga aylantirish xayolot unsurisiz bo'lmaydi. Chunki mavjud faktlar tarixiy shaxs faoliyatidagi tadrijiylikni, turli vaziyatlar bilan bog'liq evrilish va o'zgarishlarni doimo ham

aniq ifodalamasligi mumkin. Shu sababli chinakam tarixiy asarlarda “tarixiy shaxslar o‘z davrida tutgan sotsial mavqei, hayotdagi roli, tarixiy haqiqatga mos ravishda buzmasdan saqlanadi va to‘qima yo‘li bilan yaratilgan xarakterlarga bog‘langan holda haqqoniy tasvir etiladi” [5.: 194.]. Yuqoridagi xususiyatlarni dunyoga mashhur tarixiy shaxs, XII – XIII asr tasavvufining eng yorqin va eng ulug‘ namoyandalaridan biri bo‘lmish mutafakkir olim Najmiddin Kubro (1145-1221) badiiy obrazi gavdalantirilgan asarlarda ham kuzatamiz. E.Bertels Najmiddin Kubroni XII-XIII asr so‘fiylar orasidagi eng yorqin shaxslardan biri deb baholaydi. Haqiqatan ham, “Shayx Najmiddin Kubro din va tariqatning, millat va ma’naviyatning eng porloq yulduzi erur” [2.: 73.]. Abdurahmon Jomiyning “Nafahotul uns” asarida yozilishicha: “Ahmad yoshligidan ilmga qiziqib, islom asoslari shariat ilmlarini juda tez o‘zlashtirib o‘zidagi qobiliyati asosida Xorazmning manaman degan ulamolaridan o‘zib ketadi va ilmiy bahslarda barchani olqishiga sazovor bo‘ladi. Shu bois u “Tammatul Kubaro”, ya’ni ulamolarning yetugi, ulug‘vori va ilm balosi degan laqabni oladi. Buning yoniga “Najmiddin” – “dinning yulduzi” degan martabali unvon qo‘shilib, Ahmad ibn Umar shundan keyin Najmiddin Kubro nomi bilan mashhur bo‘ladi” - deyilgan. U madrasani tugatgach, o‘n olti yoshlarida ilm istab o‘sha davrda ilm-ma’rifat markaziga aylangan Arab xalifaligi, Misr va Eronda hadis va fiqh bilimdonlari suhbatida bo‘ladi. Bag‘dod, Tabriz, Nishopur, Tus, Dizful shaharlarida o‘z davrining allomalaridan shariat ilmi, hadis va tafsirni chuqur o‘zlashtiradi. U shariat ilmlarini o‘rganish barobarida tariqatdan xabardor bo‘lishga intilib yashaydi va tasavvufga ishtiyoqi balandligidan qator shayx, darveshlar suhbatidan o‘tadi. Zamira Is’hoqovanning “Najmiddin Kubro” asarida yozilishicha: “Najmiddin Kubroga ustozlik qilgan uch piri komil — Ruzbehon Misriy, Ammor Yosir va Ismoil Qasriy qalb saxovati bilan birga murid tarbiyasida qattiqqo‘l bo‘lish, botiniy ko‘z bilan muridning xayollari, ruhiyatini o‘qib olish va ruhiy ta’sir o‘tkazishga qobiliyatli ilmi hol egalari bo‘lganlar”. Darhaqiqat, insonning kamoloti uchun ustozlarning o‘rni beqiyos. Najmiddin Kubro Misr, Saudiya, Eron, Turkiya kabi mamlakatlarda bo‘lib, donishmand kishilar Shayx Ismoil Qasriy,

Ammor Yosir, Shayx Ro‘zbehon singlarlardan zohiriy va botiniy ilmlarni o‘rgangan. Xorazmga qaytib kelgach esa murid to‘plab, pir sifatida faoliyat ko‘rsatgan. “Najmiddin Kubro falsafa va adabiyotga, Sharq tafakkuriga samarali ta’sir ko‘rsatgan buyuk tafakkur sohibidir. U hamisha o‘z bilimlaridan qoniqmaslik hissi bilan yashagan, ularni takomillashtirib borgan. Yuksak olam – “olami kabir” va quyi olam – “olami sag‘ir” munosabatlarini talqin etishga teran bilimlarini bag‘ishlagan” [4.: 302.]. Tarixiy asarlarda Najmiddin Kubroning Vatan mudofaasi yo‘lida kurashib, g‘animlar qo‘lida shahid bo‘lganligi haqida ma’lumotlar keltiriladiki, bu voqea bugungi avlodlar uchun ulkan ibratdir.

“Najmiddin Kubro shaxsiyatidek munavvar, ma’rifatli vatansevar va jasur shaxsiyatning dunyoga kelishi, umuman, insoniyat tarixida siyrak uchraydigan hodisalardan. Najmiddin Kubro din va tariqatning, millat va ma’naviyatning eng porloq yulduzi erur. Bunday siymolar borlig‘idan porlagan nur ular jisman mahv etilganda so‘nmaydi” [3.: 169.]. Shu bois ham Najmiddin Kubro haqida qator tarixiy, ma’rifiy va badiiy asarlar yaratilgan. Najmiddin Kubro tarixda buyuk allomagina emas, balki o‘z vatanining ozodligi uchun mislsiz mardlik namunalarini ko‘rsatgan milliy qahramon sifatida ham nom qoldirgandir. Uning mo‘g‘ullar bosqini paytida qilgan qahramonligi, mard vatanparvar ekanligi qator manbalarda yozilgan. Xususan, Abdurahmon Jomiyning “Nafohat ul-uns” asarida Najmiddin Kubroning oltmish nafar hamrohini yoniga to‘plab, mo‘g‘ul bosqinchilari shaharga kirgan paytda vatan himoyasiga jon-jahdlari bilan kirishganligi ta’rif etiladi. Quyundek yopirilib kelgan dushmanni ko‘rib, yonidagi hamrohlari darhol qocha boshlaydilar, ammo Najmiddin Kubro qo‘yniga tosh to‘ldirib, qo‘liga hanjar olib jangga kiradi va mardlarcha jon beradi.

Najmiddin Kubro badiiy siymosi yaratilgan asarlarda tarixiy materiallar, shuningdek, allomaning o‘z asarlari orqali bizgacha yetib kelgan ma’lumotlarning badiiy adabiyotdagi in’ikosidan kelib chiqqan holda davr va tarixiy shaxs konsepsiyasi, ijodkor individualligi masalalarini yoritish adabiyotshunoslikning muhim masalalariga oydinlik kiritadi. Bundan tashqari buyuk mutasavvuf siymoni xalqqa yana ham yaqinashtirib, uning shonli hayot yo‘li zamonlar uchun ibrat

namunasi ekanligi ko'rsatadi. "Najmiddin Kubro ana shunday ulug' ehtirom va e'tiborga to'la loyiq valiy zotdir. Biz bularni bilardik. Biroq istiqloлга erishgungacha din va tariqat olamida dovrug' taratgan Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro kabi allomalarimizning ulug'liklariga yarasha fikr va munosabatimizni ochiq-oydin izhor etish imkoniyatidan mahrum edik. Mustaqillik bunday adolatsizlik va imkonsizliklarga chek qo'ydi. Olimlar, shoirlar Najmiddin Kubro hayoti, tariqati va asarlarini o'rganishga kirishdilar" [2.: 73.].

O'zbek adabiyotida bu tarixiy siymo haqida qator badiiy asarlar yaratilgan. Najmiddin Kubro haqidagi asarlarning hammasi uchun realistik uslub xarakterli bo'lgani holda, romantik uslub unsurlari Omon Matjon asarlarida yorqinroq aks etadi, X.Davron asarlarida esa tarixiy hujjatlilik ustuvorlik qiladi. Bundan tashqari, adabiy qahramonning monologik nutqi, dialoglar, xronologik syujet, folklor an'analaridan foydalanish, personajlar individualligi kabi kompozitsion qismlar tasvirida ham bir tomondan, xalq poetik ijodiga, ikkinchi tomondan yozma adabiyotga xos uslubiy o'ziga xoslik mavjudki, ular Najmiddin Kubroning ko'lamdor faoliyatining turli vaziyatlardagi xarakter qirralarining to'laqonli chiqishiga qaratilgan.

Tarixiy asarlar uchun xos bo'lgan yana bir asosiy jihat – asar voqealari yuz bergan davrning keng ijtimoiy xarakteristikasini bera olish, voqealar ichidan eng zarurlarini tanlay bilish va ularni badiiy talqin qilishda ko'rinadi. Bu jihatlar Najmiddin Kubro badiiy siymosi yaratilgan Omon Matjonning "Dravaxonim" ("To'rabekaxonim") qissasi, "Najmiddin Kubro" fojiasi, Xurshid Davronning "Shahidlar shohi" qissalariga ham taalluqlidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Алимбеков А. Тарих жозибаси // Моҳият, 2005. 30 декабрь.
2. Иброҳим Ҳаққул. Шайхлар ва шаҳидлар Куброси // Тақдир ва тафаккур. – Тошкент. "Шарқ", 2007. – Б.73.
3. Иброҳим Ҳаққул. Мушоҳада ёғдуси. – Тошкент. "Фан" нашриёти. 2009. – Б.169.
4. Ёқубов И. Бадий-эстетик сўз сеҳри. – Тошкент. 2011. – Б. 302.

## **SIROJIDDIN SAYYIDNING ESSE VA XOTIRALARIDA BADIY-PUBLITSISTIK TALQIN USTUVORLIGI**

**Quranbayeva Gulianbar,**

*tayanch doktorant,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotining yorqin vakili Sirojiddin Sayyid ijodi, jumladan, ijodkorning esselari tahlilga tortildi. Xususan, “Jevachining o‘g‘li” essesi misolida o‘zbek xalqining boshidan o‘tkazgan mashaqqatli va og‘ir kunlari muhokama qilindi.

**Аннотация.** В данной статье проанализировано творчество Сироджиддина Сайида, видного представителя узбекской литературы, в том числе его очерки. В частности, на примере очерка «Джевачи оглы» были рассмотрены трудные и трудные дни узбекского народа.

**Annotation.** In this article, the work of Sirojiddin Sayyid, a prominent representative of Uzbek literature, including his essays, was analyzed. In particular, the difficult and difficult days of the Uzbek people were discussed on the example of the essay "Jevachi Ogli".

**Kalit so‘zlar:** ijodkor uslubi, individuallik, nasr, esse, tarixiy haqiqat, mavzular xilma-xilligi.

**Ключевые слова:** творческий стиль, индивидуальность, проза, очерк, исторический факт, разнообразие тем.

**Key words:** creative style, individuality, prose, essay, historical fact, variety of topics.

Hozirgi davrda o‘zbek adabiyotshunosligida adabiy, falsafiy, ijtimoiy, publitsistik, tarixiy va boshqa yoziladigan muammolar ilmiy shaklda emas, erkin shaklda talqin qilinadigan esse janriga oid bo‘lgan asarlarning qamrov doirasi kengayib, shaklan takomillashuvi, mazmunan teranlashuvi, yangidan yangi

qarash-lar bilan boyib borayotganligini kuzatish mumkin. Ma'lumki, Sirojiddin Sayyid publitsistikasida adabiy, falsafiy, ijtimoiy, siyosiy va shu kabi turfa xil mavzudagi esselarga duch kelamiz. Ijodkor ba'zi esselarida "tirik kitoblar" haqida mushohada yuritsa, ba'zilarida nomi abadiyatga daxldor adabiyot vakillarining yorqin siymosini ko'z oldimizda yaxlit gavdalantiradi.

Sirojiddin Sayyidning "Jevachining o'g'li" nomli hajmi ixcham, ammo mohiyatan nihoyatda teran, o'zbek xalqining "qon yutib" yashagan o'tmishidan, ro'shnolik neligini bilmagan zalvarli tarixidan saboq beruvchi essesi ham kitobxon tasavvurida jiddiy mulohazakorlik uyg'otishi, bugungi kundan diliga shukronalik jo qilishi, shubhasiz. Esse "jevachi", "jibachi" so'zlarining "Navoiy asarlari lug'ati"da berilgan istilohiy ma'nosini keltirish bilan boshlanib (mazkur so'zga lug'atda shunday izoh beriladi:

1. Xon saroyidagi mansabdorlardan biri, jevachi.

2. Yarog'-aslaha omborining boshlig'i.

3. Jiba yasovchi) mutolaa davomida Nusratullo jevachining Hisor tog'larining Sariosiyo tizimidagi eng tepada joylashgan qishloqlardan birida tug'ilganidan boxabar qilinadi. Jevachining o'g'li Sa'dullo mergan otasining 37-yil qatag'oniga giriftor bo'lganini alam bilan, ruhiy og'riq bilan eslab o'tadi. Tarixdan yaxshi ma'lumki, bu davrda mamlakatda Lenin tomonidan asos solingan totalitar boshqaruv tizimi Stalin tomonidan yana-da alanga oldirilib, hukmron partiyaning zo'ravonligi misli ko'rilmagan yo'qotishlarni boshimizga yog'diradi. Jevachining o'g'li Sa'dullo merganni ham "boyning o'g'li" deb surgun qilib yuborishadi. Yo'lda poezddan ayoli bilan tushib qolgan merganning yillar davomida qilmagan tutumi, ko'rmagan kuni qolmaydi. Eng achinarlisi, sho'ro hukumatining nafaqat shaxs erkiga, balki, or-nomusiga ham tajovuz qilganligida edi:"...Olti oy aravakashlik qildim. Keyin Regardagi Karoni degan qishloqda sakkiz yil yurdim. Ayolni Kishto'dga jo'natdim. Bir kuni xabar keldi. Niyoz Bobo degan zevarlik sho'ro mening xotinimni jiyaniga ob beribdi..."[1.: 493.]

Suhbat davomida esse muallifi Sa'dulla bovidan hayoti davomida Valibek ismli shaxsni ko'rgan-ko'rmaganligi borasida so'raydi. Shunda bova chaqmoq

chaqqan kabi guldirab ketadi. Eshniyoz kofir laqabini olgan militsionerning o‘zbek nomiga, musulmon sha’niga noloyiq qotilliklaridan so‘z ochadi, Shu o‘rinda esseda qalamga olinayotgan davr, muhit va shu muhitga taalluqli tuzum istibdodlarini yana-da ochiqlash uchun tarixga murojaat qilsak, maqbullik hosil bo‘ladi. Butun insoniyat tarixida o‘zbek xalqining sabridek sarhadsiz matonat egalarini boshqa biror xalqda uchratish amri mahol. Mustabid tuzumning qatag‘on siyosatidan o‘nglanmas zarbalarni olgan xalq boshiga “Paxta ishi”, “O‘zbek ishi” nomli ichdan to‘qib chiqarilgan jinoiy ishlar ham qora quzg‘unday yopirilib keladi. Ma’lumki, 1983-yildan 1989-yilgacha – olti yil mobaynida SSSR prokraturasining Telman Gdlyan boshchilik qilgan tergov guruhi O‘zbekistonda bo‘lib, o‘zbek xalqini qaytadan qatag‘on qilish siyosatini avj oldirib yuboradi. Atoqli shoir Shavkat Rahmonning mazkur davrga, ya’ni 80-yillarning ijtimoiy-siyosiy faktlariga qaratilgan, qolaversa, O‘sh, Farg‘ona voqealarini ham qamrab olgan barchaga tanish deb hisoblangan real siyosiy, maishiy, tarixiy yoki adabiy faktga ishora qiluvchi, stilistik usul sanaluvchi allyuziya badiiy vositasida zohir etilgan “Tuhmat” she’rida o‘zbekning boshiga qora quzg‘unday yopirilgan bu balolar nihoyatda teranlik bilan ifoda etilgan:

Kecha o‘g‘ri bo‘ldi,

Bugun vahshiydir

Endi butun dunyo bilar bu haqda.

Qanday mo‘min edi,

Qanday yaxshiydi

Anqayib jimgina terganda paxta [2.: 27.].

Mazkur esse garchi real shaxs hayoti asosiga qurilgan bo‘lsa-da, juda katta umumlashmalikka ega. Jevachining o‘g‘li hayoti-faoliyatida XX asrning dahshatga to‘la ma’lum bir pallasi, “O‘zbek ishi” deya nom qozongan davrning butun qiyofasi – totalitar tuzumning olib borgan siyosati, mafkurasi, nayranglari tufayli xalq, millat boshiga tushgan turfa ayanchli savdolar, adolatsizliklar, shafqatsiz zulm ostida qaror topgan hayotiylik; insoniylik, odamgarchilik

xislatlaridan butkul uzoq bo‘lgan e’tiqod, buning oqibatida yuzaga kelgan shaxs fojiasi o‘zining yorqin ifodasini topgan.

Millat dardida yongan, g‘ururi ko‘klarga o‘rlagan er yigitlarga bosmachi tamg‘asi ila ayblarni taqab, gunohlarni yog‘dirib, yaxshi kunlariga deb ming mashaqqat bilan biroz mulk yiqqanlarni poraxo‘rlikda ayblagan bu guruhning kirdikorlarini aytishga til-da ojiz, yozishga qalam-da noqis. Eng dahshatlisi, o‘zimizdan chiqqan kofirlar qamoqxonalarda noqonuniy o‘tirgan fuqarolarning hech bir aybi bo‘lmagan rafiqalarini ham hibsga oladilar: ”Qishloqlarni talagan, birovlarini oilasi – kelinlarni g‘orat qilgan ham shu otrad bo‘ladi. Eshniyozning otradi-da. Keyin o‘zlarini ham o‘zlari sig‘ingan sho‘rolari otib tashladi-ku! Kofirning musulmon bo‘lishi oson, ammo musulmondan chiqqan kofir yomon bo‘ladi” [1.: 494. ]. Essedan ayon bo‘ladiki, mazkur jamiyat o‘z maqsadi yo‘lida jadallik bilan ot surgan, buyurilgan har ishda sidqidildan jonbozlik ko‘rsatgan, astoydil mehnat qilganlarning aqalli birortasini ham peshonasini silamadi. Juda ko‘pchiligini xalq dushmaniga chiqarib otib tashladi, ayrimlarini Sibirga surgun qilib yubordi. To‘g‘ri, bu jonbozlar orasida omon qolganlari ham bo‘ldi, ammo ular bir umr qo‘rquvda, ayanchli ahvolda yashashga mahkum bo‘ldi. Demak, bu davr siyosati o‘z manfaati yo‘lida hech kimni ayamadi, hatto ularga el bo‘lganlarni ham murodi hosil bo‘lgach “ko‘chaga uloqtirdi”. Har nima bo‘lganda ham, bor jabr-u sitam, jamiki razilliklar xalqqa bo‘ldi.

“Jevachining o‘g‘li” essesi mazkur haqiqatni kitobxonga ham hayotiy faktlar, ya’ni ijtimoiy hayotning haqiqiy yuzini ko‘zguda namoyon qilish orqali, ham badiiylik mezonlari orqali anglatadi. Esseni mutolaa qilish davomida Nusratulla jevachining o‘g‘li tomonidan bayon qilingan o‘tmish voqealari sof adabiy tilda emas, balki umumxalq tilidagi shevalar orqali sodda va ravon tarzda bayon qilinishi asarning ishonarli bo‘lishini ta’minlagan. Qolaversa, esse nihoyasida mergan boboning baytlar o‘qishi va bu baytning essenavis asarida bayon etilishi asarning badiiyatini oshirgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Сирожиддин Саййид. Асарлар. II жилд. – Тошкент: Sharq, 2018.

2. Куронов Д. Мамажонов З. Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013.

**ZAMONAVIY ADABIY JARAYON HAQIDA FIKRLAR MUNAQQID  
IBROHIM G‘OFUROV TALQINIDA. (“AQL VA YURAK MA’NOSINI  
IZLAYMAN” NOMLI SUHBATI MISOLIDA)**

**Bekchanova Sevara,**

*mustaqil izlanuvchi,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Maqolada adabiyotshunos olim Ibrohim G‘ofurovning yangi adabiy jarayon haqidagi o‘ylari va mulohazalari yuqorida nomi keltirilgan suhbat misolida so‘z yuritiladi.

**Аннотация.** В статье приводятся мысли и размышления литературовед Ибрагима Гафурова о новом литературном процессе на примере вышеупомянутой беседы.

**Annotation.** The article presents the thoughts and reflections of the literary scholar Ibrahim Gafurov about the new literary process using the example of the above mentioned conversation.

**Kalit so‘zlar:** Adabiy tanqid, adabiy jarayon, adabiy tanqidchi, adabiyot va san’at.

**Ключевые слова:** Литературная критика, литературный процесс, литературный критик, литература и искусство.

**Keywords:** Literary criticism, literary process, literary critic, literature and art.

Adabiy tanqid hayotning badiiy o‘zlashtirish jarayonini o‘rganuvchi va shu jarayonda faol ishtirok etuvchi, undagi oqimlarga ta’sir etuvchi ilm, o‘ziga xos ijod turidir. Bu esa uning o‘ziga xos talablari, xususiyatlari, qonuniyatlari hamda ma’naviyatga, badiiyatga, hayotga ta’sir etuvchi kuchi borligidan dalolat beradi. Adabiy tanqid mohiyatidagi ana shu xolisliklarni aniqlamay turib, badiiy asar haqida chuqur ilmiy-estetik fikr yuritish mumkin emas. Adabiy jarayonda

tanqidning roli haqida V.Belinskiyning quyidagi fikri e'tiborga molik: "Adabiyot va san'at tanqid bilan qo'l ushlab boradi va bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatadi". Darhaqiqat, biron bir xalq va muayyan bir davrning adabiy-tarixiy jarayonini, adabiy tanqidning ishtirokisiztasavvur etish mumkin emas. Hatto adabiy tanqidda yangi fikrlar aytish, yangi xulosalar chiqarish uchun unga, aslida badiiy asarlar asos bo'lsa-da, ba'zi xalqlarda ayrim tarixiy davrlarda, adabiy tanqidning yutuqlari adabiyot va san'atning yutuqlaridan ham salmoqliroq bo'lib, umumiy jarayondan bir qadar ilgariylan va hatto adabiyot va san'atning yangi-yangi yutuqlari uchun nazariy zamin hozirlashga xizmat qilgan. Adabiy tanqidchi asarni ham tafsilotlarda, ham qismlarda yaxlit ko'ra bilish qobiliyatiga ega bo'lmog'i darkor. Bu qobiliyat tanqidchidan ilmiy teranlik qatorida hayotni ma'lum darajada obrazli anglashni talab qiladi. Tanqidchi *I.G'ofurov haqida ham aynan shu gapni ayta olishimiz mumkin. I.G'ofurov "Go'zallikning olmos qirralari" (1964) "Unutilmagan bog'" (1965), "Joziba" (1970), "Yonar so'z" (1973), "Yam-yashil daraxt" (1976), "Yurak – alanga" (1980). "Lirikaning yuragi" (1982), "She'riyat–izlanish demak" (1984), "O'ttiz yil izhori" (1987), "Til erkinligi" (1998) singari adabiy tanqidiy, badiya kitoblar muallifi. U "Darvoza", "Humo qushim", "Qaldirg'ochim" singari she'riy nasrlar yohud mansuralari bilan e'tibor qozondi. Munaqqidning "Aql va yurak ma'nosini izlayman" nomli suhbatida hozirgi adabiy jarayon haqida fikrlari keltirib o'tilgan. Xususan, zamonaviy adabiyot haqida: "...Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Halima Xudoyberdiyeva, Oydin Hojiyeva, Usmon Azim, Sirojiddin Sayyid, Iqbol Mirzo, Azim Suyun, Sa'dulla Hakim, Xosiyat Rustamova, Halima Ahmedova, Mahmud Toir, Ibodat Rajabova, Bahrom Ro'zimhammad va yana qator-qator iqtidori zamon sinovlarida yarqiragan shoirlarning ovozlari adabiyotda Dante, Nizomiy, Navoiy, Boburning nafosat bazmlari davom etayotganligini bildirmaydimi? Nasrdagi Erkin A'zam, Ahmad A'zam, Xurshid Do'stmuhammad, Nodir Normat, Nazar Eshonqul, Sobir O'nar, Ulug'bek Hamdam, Luqmon Bo'rixon, Abduqayum Yo'ldosh, Isajon Sulton, Zulfiya Qurolboy qizi kabi faol adiblarning paydar-pay chiqib turgan asarlari adabiyot zo'r berib yo'l-yo'riq, shakl-shamoyil*

qidirayotganini ko'rsatmaydimi? Yoki qator-qator tarixiy romanlar, qissalar, hikoyalar... garchi saviya, konseptuallik, universallik, psixologizm kabi mezonlar bilan o'lganda bir xil bo'lmasa-da, lekin tarixiy tafakkur, tarixiy savodxonlik sari qadam qo'yilayotganligi xayrli va nomlar ham xayrli" [1.: 4.].

Istiqlol yillarida munaqqid tilga olgan yuqoridagi ijodkorlarning nomlari va ular yaratgan turli xil mavzudagi asarlar adabiyotimiz maydoniga kirib keldi. Nazm bobida mohirona ijod qilgan Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Halima Xudoyberdiyeva, Oydin Hojiyeva, Usmon Azim, Sirojiddin Sayyid, Iqbol Mirzo, Azim Suyun ijod namunalari, nasrda Xurshid Do'stmuhammadning "Panoh", "Oromkursi", "So'roq", "Bozor", Ulug'bek Hamdamning "Yolg'izlik", "Muvozanat", "Isyon va itoat", "Sabo va Samandar", "Uzoqdagi Dilnura", Luqmon Bo'rixonning "Jaziramadagi odamlar", "Xizr ko'rgan yigit", "Temiryo'l" Isajon Sultonning "Oydinbuloq", "Suvdagi kosa", "Boqiy darbadar" kabi asarlar adabiyotimizda chinakam yangilik bo'ldi.

Adabiyotni, san'atni va umuman olganda har qanday sohaning o'sib rivojlanmog'i uchun, shu soha vakili o'sishni o'zidan, o'z ichki dunyosidan va ruhiyatidan boshlamog'i lozim. Adabiyotni san'atga qiyoslagan olim, ham aynan shu mantiqqa asoslangan holda fikr yuritadi: "San'at, adabiyot, ilm, ixtiro bitta odamning ichida rivojlanadi. Adabiyot-san'at. Ilm yolg'iz o'zi rivojlanmaydi. Ularning o'sishi ijtimoiy taraqqiyot, ong taraqqiyotining ajralmas uzvi va hammasi birgalikda, o'zaro aloqadorlikda o'sadi. Ammo o'sish har qachon bir shaxsing ichida kechadi" [1.: 4.]. Shu o'rinda adabiyotshunos olim o'zining "*Lirikaning yuragi*" asarida she'riyatimizga rang-barang mavzular kirib kelib ular shoirlar ijodida tarannum etilayotganini hamda bu ma'lum ma'noda adabiyotimizda o'sish ekanligini keltirib o'tadi: "Yosh shoirlarda tabiat orqali o'zini anglash, o'zining hayotiy qarashlarini tasdiqlash, yashashning ma'no va mazmunini topishga harakat borayotgani seziladi. Bu psixologik jarayon ularda o'xshash holatlarni yuzaga olib chiqmoqda, ularni bir avlod sifatida shakllantirmoqda. Ular tabiatni uning behad rang-barangligida sevadilar. Shu sevgi ularga boshqacha so'zlash va boshqacha anglash huquqini beradi" [2.: 117].

**Ijtimoiy burilishlar hamisha adabiyotga yangi havo, kata to‘lqin olib kirgan. Tarixni olib qarasak, deylik Napoleon yurishlari Yevropani ag‘dar-to‘ntar qilib yubordi...Masalan zamon qahramoni obrazi namunasini beradigan, o‘quvchini o‘ziga maftun etadigan biror asarni eslolasizmi, – deya suhbatdoshining savoliga javoban munaqqid haqiqiy asrlar silsilasidan sog‘ - omon o‘ta oladigan asarlarni yaratish ijodkordan chinakamiga xalq dardini dildan his qilib qalam tebratishni talab qilishini ta’kidlaydi.**

Tarix o‘zgarishlarsiz, bir tekisda kechadagin voqelik emas. Har qanday davr adabiyotiga tarixni, tuzumni, jamiyatni undagi ro‘y berayotgan jarayonlarni o‘rni va roli kuzatilmasdan va singmasdan qolmaydi, albatta. Bu xususida suhbat jarayonida olim: “Bir tuzumdan tamomila boshqa tuzumga o‘tish oson emas. Biz bugun tarixan, butkul yangi davr va muhitda yashayapmiz. Bu yangi jamiyat, yangi dunyoqarash, yangi ideallar, yangi dunyoqarashdagi odamlar dunyosi...Bir-biridan ajoyib hikoyalar, dramalar ham yaratilgani bor gap. Ammo ijodkorlarimizdan zamon qahramonining butun qiyofasi aks etgan yirik romanlarni kutyapmiz” [1.: 4.]. Xullas, adabiyotshunos olim yosh qalamkashlarga katta umid bog‘lab, ulardan chinakamiga adabiyotimizning nodir durdonalarini yaratishlarini kutib qolmoqda va ma’lum ma’noda bu kelajak avlodga munaqqid Ibrohim G‘ofurovning tilaklari desak, ham mubolag‘a bo‘lmaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. G‘ofurov I. Aql va yurak ma’nosini izlayman// O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – Toshkent, 2013. – №38. – 4 b.
2. G‘ofurov I. Lirikaning yuragi – T.: “Yosh gvardiya”, 1982. – 117 b.

# TOHIR MALIKNING “SHAYTANAT” ROMANI VA UNDAGI AYRIM QAHRAMONLAR XARAKTERI TAHLILI

**Tillayev Bahodir Batirovich,**

*mustaqil tadqiqotchi,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Tohir Malikning “Shaytanat” romani va unda insonlarni kurashishga majbur qiladigan omillar, qahramonlar xarakterlari, egilgan va turli to‘siqlarga uchragan haqiqat va bu holatning inson hayotining keyingi davrlaridagi ta’siri haqida so‘z boradi.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается роман Тахира Малика “Шайтанат” и факторы, заставляющие людей сражаться в нем, характеры персонажей, реальность, которая искривлена и сталкивается с различными препятствиями, а также влияние этой ситуации на последующие этапы жизни человека.

**Abstract.** This article discusses Tahir Malik's novel Shaitanat and the factors that make people fight in it, the characters' personalities, the reality that is twisted and faces various obstacles, and the impact of this situation on the subsequent stages of a person's life.

**Kalit so‘zlar:** Qabohat, ezgulik, jinoyat, jinoyatchi, guruh, qasos, haqiqat, zo‘rlik, hayotga to‘siqlar.

**Ключевые слова:** Зло, добро, преступление, преступник, группа, месть, правда, насилие, препятствия на пути к жизни.

**Keywords:** Evil, goodness, crime, criminal, group, revenge, truth, violence, obstacles to life.

*“...Yorug‘ kunda barcha yaxshi narsalarni ko‘rib turamiz. Qorong‘ida esa ko‘rmaymiz. Urilib, suqilib, qoqilib yuramiz. Alqissa, yorug‘ kunning qadriga yetmoq uchun qorong‘ulikni ham ko‘rish lozim emasmi?” [1.: 5.]*

Insoniyat paydo bo‘libdiki, turli va turfa xil janglar girdobida yashaydi. Hislar to‘qnashuvi, tuyg‘ular, fe‘llar, xarakterlar... shu bois lug‘atimizda inson qalbini azoblaydigan, umrini egovlaydigan razolat, qabohat, xiyonat, olchoqlik

kabi soʻzlar paydo boʻldi. Bu soʻzlarning taʼrifi ayrim kimsalarning qilmishlari ila xarakterlanadi. Qilmishlar jazoga mustahiq boʻlsa-da, undan barcha bir xilda xulosa chiqara olmaydi. Yana qaydadir, qaylardadir yomonliklar urchiyveradi, ularga esa yaxshiliklar qarshi chiqaveradi. Nazarimizda bu kurash sira tamom boʻlmaydigandek tuyuladi. Haqiqatda shundaymikan? Ushbu adadsiz savollarga biz javobni Tohir Malikning “Shaytanat” asari qahramonlarining xarakterlari tahlilidan izlaymiz.

Atoqli yozuvchi Tohir Malikning “Shaytanat” romani qabohat bilan ezgulik oʻrtasidagi kurashni aks ettiruvchi asar hisoblanadi. Asarning muqaddimasida yozuvchi *“Alloh subhanahu va taolo bandalariga “shayton yoʻldan yurmanglar, degan. Nadomatkim, haq yoʻl turganida shayton yoʻli bizga durustroq koʻrinib, u tomon ogʻamiz. Oyoqlarimiz yaxshilik emas, zulm sari yurishni maʼqul koʻradi. Peshonamiz devorga urilganda esa, “Shayton yoʻldan ozdirdi, deb koʻksimizni dogʻlaymiz”[1.: 4.],- deya kitobxonlarga asar gʻoyasi haqida biroz tushuncha berganday boʻladi.*

Yozuvchi eʼtirof etganidek, yon atrofimizda shaytonni yenga olganlar koʻp. Biroq shayton yoʻlidagilar koʻzimizga koʻpdek koʻrinadi. Chunki ular ekan yomonlik daraxti tez shoxlaydi, moʻl meva beradi.

Inson qachon shayton izmiga kirib boshlaydi? Bu savolning javobi uzun. Unga javob berish uchun qabihlik yoʻliga kirgan insonni bolalik davridan boshlab taftish qilish mumkin. Barchaga birdek ayonki, kim qaysi sharoitda va muhitda dunyoga kelmasin, u farishtadek begʻubor boʻlib tugʻiladi. “Boladek begʻubor” iborasi behuda aytilmagan.

“Shaytanat”ning qabohat botqogʻiga botgan qahramonlari ham bundan mosuvo emas. Ular ham farishtadek begunoh, begʻubor boʻlib dunyoga kelishgan. Biroq turli sabablar bois bolalik chogʻlaridanoq hayotning achchiq qismatini tatib koʻrishgan. Ushbu qahramonlarning hayotini oʻrganib chiqqan, toʻgʻrirogʻi, asar orqali tanishgan har bir oʻquvchi nazarimizda bitta xulosaga kelgandek tuyuladi: yaʼni, taqdir taqozosi bilan koʻchaga uloqtirilgan, qalbi bolaligidan zaha yegan

odam borki, ulardan ezgulik kutib bo‘lmaydi. U alamzada bo‘lib qoladi, qo‘llari musht bo‘lib tugilganча “hap senimi” deb yomonlik qilishga chog‘lanadi.

Romanning birinchi kitobi “Qasos” deb nomlanadi. Qasoskorlar yuqorida aytganimizdek alamzadalardir. Alamzadaliklari shu darajadagi, ular qabohatning ulkan girdobiga o‘ralib olishgan. Ezgu amallar bilan shug‘ullanish, inson bo‘lib dunyoga keldimi, yaxshilar safidan o‘rin olish degan tushunchalar ular uchun begona bo‘lib qolgan.

Ezgulik va yovuzlik tushunchalari asrlar davomida insonlarning fe‘l-atvori va hayot tarzini ifodalashda, oddiy insonlardan tortib o‘z davrining va keyingi davrlarning ham mashhur insonlarini baholashda qo‘llanib kelinayotgan vositadir. Ayniqsa, ezgulik ahloqshunoslikdagi eng muhim kategoriyalardan sanaladi. U inson faoliyatining asl mohiyatini anglatadi.

“Ezgu o‘y, ezgu so‘z, ezgu amal” uchligi “Avesto” dan tortib barcha muqaddas kitoblarda yetakchi o‘rinni egallashi ham shundan, albatta. Chunki, ezgulik - insonga eng kuchli ma‘naviy lazzat bag‘ishlaydigan, uni ijtimoiy shaxsga aylantirib, haqiqiy baxtga olib boruvchi fazilat, shaxsni komillikka, jamiyatni esa yuksak taraqqiyotga yetkazuvchi yuksak qadriyat. Ezgulik va unga qarama-qarshi kuch bo‘lgan yovuzlik odatiy, kundalik hayot mezonlari bilan o‘lchanmaydi, bu ikki tushuncha bir-birini tamomila inkor etadi. Nafaqat inkor etadi, balki ular orasida hayot-mamot kurashi ketadi va bu kurash abadiy kurash sifatida, olamni harakatga keltiruvchi kuch tarzida namoyon bo‘ladi. Ezgulik va yovuzlikning yana bir o‘ziga xos tomoni shundaki, bu juftlik tushuncha inson faoliyatini baholash xususiyatiga ega. Uni odam bolasining ulug‘ligi va tubanligini o‘lchaydigan muqaddas taroziga o‘xshatish mumkin.

Bu ikki juftlikning farqli tomoni shundaki, sodir qilingan ezgulik hech qachon yovuzlikka aylanmaydi, yovuzlik esa har qanday zamonda, har qanday sharoitda ham yovuzlik bo‘lib qolaveradi.

Bugun biz ezgulik va yovuzlikning o‘zaro kurashiga bag‘ishlab yozilgan asar haqida fikr yuritar ekanmiz, avvalambor bu g‘oyani paydo bo‘lish sababi haqida muallifning o‘zi aytgan sharhlarga to‘xtalib o‘tishni joiz deb bildik.

Jamiyatdagi barcha insonlarni ogohlikka chorlovchi ushbu asarning birinchi kitobida ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi o‘zaro kurash tasviridan oldin asar qahramonlari, ularning xarakter xususiyatlari bilan tanishamiz. Tanishish jarayonida ularning o‘tmishi va hozirgi hayotlarida uchragan turli voqealarga, nohaqlik va haqiqatlarga guvoh bo‘lamiz, hayotning turli ko‘chalariga qanday kirib qolganligining asl sabablariga ham oydinlik kiritib boramiz.

Tanishtirish jarayoni asarning asosiy qahramoni Asadbek bilan emas, balki bizning fikrimizcha asarda keyingi o‘rinlarda turishi lozim bo‘lgan Elchin bilan boshlanadi va hofizning hayotidagi eng ayanchli va eng dahshatli voqea – sevimli jufti halolining ko‘ksiga pichoq sanchilib yotgan holati tasvirlanadi. Bu holatni ko‘rishdan oldin Elchin tush ko‘radi. Tushida u oldin momiq bulut parchasida rohatlanib suzib borayotgan bo‘ladi va **“birdan bulut choki so‘kilib”** shiddat bilan pastga qulaydi. Elchin ko‘rgan mana shu dahshatli tushning o‘zi o‘tgan davrdagi hayoti va kelgusida ro‘y beradigan voqealar haqida boshlang‘ich ma‘lumotni beradi desak yanglishmaymiz.

Ayniqsa, Noilaning holatini ko‘rib, *“shoshilib borib ko‘krakdagi pichoqni sug‘urib olishi”* voqealar rivoji uchun turtki bo‘ladi. *“Kim Noilaning ko‘kragiga sanchdi?”*[1.: 6.] degan o‘z-o‘ziga berilgan savol esa Elchin qalbida qasos olish tuyg‘usini paydo bo‘lishi uchun zamin bo‘lganligini zukko kitobxon anglab oladi, albatta.

Biz asarning boshlanishidagi Elchinga bag‘ishlangan kichik lavha bilan tanishar ekanmiz, bunday holatda o‘zini inson deb bilgan, qalbida imoni va vijdoni bo‘lgan har qanday insonda o‘ch olish va haqiqatni bilish istagi paydo bo‘lishini his qilamiz.

Tohir Malikning ushbu asaridagi qahramonlar xarakterlari naqadar murakkabligini asosiy qahramonlardan biri Elchin obrazining tahlili orqali ham talqin qilishimiz mumkin. Cunki deyarli barcha qahramonlar ham yaxshi, ham

yomon xarakterlarga ega bo‘lib, kurash ham aynan shu ikki xarakter o‘rtasida kechadi. Asar syujeti shu kurashlar asnosida davom qiladi. Demak, inson ham yaxshi, ham yomon bo‘lishi mumkin emas ekan. Uning xarakteridagi bi ikkiliklar uni qabohatga eltadi. Buni asosiy qahramonlardan biri Elchin xakteri tahlili isbotlab turibdi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Tohir Malik. “Shaytanat” romanining birinchi kitobi. – Toshkent.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2018. – 5 b.
2. Tohir Malik. “Shaytanat” romanining birinchi kitobi. – Toshkent.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2018-yil. – 4 b.
3. Tohir Malik. “Shaytanat” romanining birinchi kitobi. – Toshkent.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2018-yil. – 6 b.

## **TURK ADABIYOTIDA YANGI BIR “YUNUS”...**

**Dilshoda Haqqul,**

*mustaqil tadqiqotchi,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Xalq og‘zaki ijodi, fors va arab adabiyoti an‘analariga tayangan, din va hadisdan oziqlangan mumtoz adabiyotni o‘rganishning o‘ziga xos vazifa va talablari mavjud. Maqolada Abdurahmon Go‘zalning Qayg‘usiz Abdol haqidagi izlanishlar orqali bu masalar ochib berishga harakat qilindi.

**Аннотация.** Изучение классической литературы, опирающееся на традиции устного народного творчества, персидской и арабской литературы, питаемое религией и хадисами, имеет свои специфические задачи и требования. В статье предпринята попытка пролить свет на эти вопросы посредством исследования книги Абдурахмона Гозала «Абдол, свободный от печали».

**Abstract.** The study of classical literature, which is based on the traditions of folk oral art, Persian and Arabic literature, and nourished by religion and hadith,

has its own tasks and requirements. The article attempts to reveal these issues through research on Abdurahman Gozal's "Abdol Without Sorrow."

**Kalit so'zlar:** *adabiyotshunoslik, Guliston, tasavvuf, din, tariqat, manaqib, tazkira, matn.*

**Ключевые слова:** *литературоведение, Гулистан, суфизм, религия, орден, манакиб, тазкира, текст.*

**Keywords:** *literary studies, Gulistan, Sufism, religion, order, manaqib, tazkira, text.*

Abdurahmon Go'zal serqirra olim. Uning har bir izlanishlari va zahmatli mehnati natijasida ilm olami, keng kitobxonlarga yangi bir ma'lumot yetkazish asosiy maqsad qilingan. Mana shunday tadqiqotlaridan biri turk adabiyoti tarixida muhim ahamiyatga ega, asl ismi Alouddin G'aybi bo'lib, Sanjak begi Hisomiddin Mahmud bekning o'g'li Xuroson donishmandlaridan bo'lgan Abdol Musoga murid bo'lib, qirq yil shayxning xizmatida bo'lgan Qayg'usiz Abdol hayoti va ijodiyotiga bag'ishlangan. Olim o'z tadqiqot usuliga sodiq holda, avvalo, barcha ma'lumotlarni sinchkovlik bilan, erinmasdan o'rganib chiqadi. Qayg'usiz Abdol hayoti va ijodiga oid izlanishlarini olim 1974-yildan boshlagan. Abdurahmon Go'zal har bir tadqiqotida o'za xos katta vazifalarni zimmasiga oladi. Uning amalga oshishi uchun hatto yillarini sarf etadi. Ammo bu yo'qotishlar samarasida turk dunyosi, turk tafakkuriga xizmat qiladigan ma'naviy kashfiyotlar yuzaga chiqadi. Qayg'usiz Abdolni o'rganishdagi olimning asosiy maqsadi ishni to'laligicha o'rganib poyoniga yetkazish va kitob holda nashr qilish bo'lgan. Olim asar ustida 48 yil izlanishlar borganligini shunday e'tirof etadi: "Xususan, 48 yil davomida yurtimda va xorijda Qayg'usiz Abdolning 250 ga yaqin qo'lyozma asari ustida ishladim. Jismoniy jihatdan charchagan bo'lsam ham, ruhiy jihatdan hech toliqmadim. Izlanishni davom ettirdim va hali ettiraman. Bugunga qadar uning bir qancha asarini nashr ettirdim"[1.: 10.]. Darhaqiqat, Abdurahmon Go'zal tahlil va talqinlarining yuraklarga yetib borishining ilk sababi matn bilan bog'langanligi bilan asoslanadi, ya'ni asossiz tahlillarni uning ijodida hech uchratmaysiz. U, avvalo, kitobxonga ishonarli nusxalarga ega badiiy matn taqdim

etadi, so'ngra matnni mohiyatini qomusiy bilimlariga tayangan holda atroflicha izohlashga, tushuntirishga harakat qiladi. Qayg'usiz Abdol haqidagi yirik tadqiqoti jahon adabiyotini hayratga soldi. Olimning ko'p yillik zahmatli mehnati yuksak e'tirofga sazovor bo'ldi. Ayniqsa, professor Shukru Elchin va Mehmet Kaplan olimning turk adabiyotida yangi Yunus yaratganligini e'tirof etishib, buni yuksak baholash kerakligini ta'kidlashgan. Haqiqatan, Abdurahmon Go'zalning mavzu tanlash mahoratini alohida e'tirof etish lozim. Olim har doim adabiyotshunoslikning dolzarb muammolariga qo'l uradi. Hali o'rganilmagan shoirlar ijodini o'rganishdan olim hech cho'chimaydi. Zero, Abdurahmon Go'zal mumtoz adabiyotni o'rganishning o'ziga xos tomonlaridan birinchisi bo'lgan arab yozuvidagi qo'lyozma manbalarni bemalol o'qish va solishtirish imkoniga ega. Shuningdek, arab va fors adabiyoti an'alaridan oziqlangan turkiy adabiyotni lisoniy jihatdan qiynalmasdan o'qiydi. Uning zabardast tilshunosligi barobarida arab va fors tillarini puxta bilishi ham noyob adabiyotshunoslardan ekanligini dalillaydi. Turkiy tilni fonetik, leksik, grammatik jihatdan nafaqat yaxshi bilgan, balki darslik, qo'llanmalar yaratgan olim uchun mumtoz adabiyotning til xususiyatlarini anglashda muammo bo'lmagan.

Abdurahmon Go'zal Qayg'usiz Abdolning turk adabiyotida yaratilgan ilk mukammal to'plam, 3700 baytdan iborat bo'lgan "Guliston" asarini nashr ettirdi. Olimning "Alouddin G'aybi Qayg'usiz Abdal Guliston" kitobining so'zboshida quyidagi fikrlarni ko'rish mumkin: "Bugungi kungacha "Guliston" deyilganda, ko'z o'ngimizda birinchi navbatda Sa'diy Sheroziyning "Guliston" asari keladi. Chunki Sa'diy She'roziy fors adabiyotining uch buyuklaridan Firdavsiy va Hofizlar bilan birga tilga olinadi. Shuni ta'kidlash mumkinki, Sa'diy ilm va irfonning gulistoni, Hofiz bu gulistonning bulbuli, Sa'diyning "Guliston" asari ta'sirida turkiy adabiyotda ham bir qancha asarlar yaratildi. Sayfi Saroyi Sa'diyning "Guliston" asarini 1391 -yilda qipchoq turkchasiga o'girdi. Men Qayg'usiz Abdolning asarlarini "Dalili Budala", "Dilgushayi Bobo Qayg'usiz", "Devoni Qayg'usiz Abdol" nomlari bilan ko'rdim. Ammo bu qo'lyozmalar turli davrlarda yozilgan bo'lib, majmualar, mustaqil asarlarda uning boshqa asarlari

ham mavjudligini aniqladik. Keyingi davrlarda Qayg‘usiz ustidagi izlanishlarda alohida bir asarga duch keldim. Asar mazmunining boyligi va Hazrati Odam Ato haqida keng ma’lumot mavjud bo‘lgan Qayg‘usiz Abdolning “Odamnoma” nomli asarini aniqladik deb, “Turk kulturi” jurnalida maqola yozgandim. Keyingi davrlardagi izlanishlarda Marburg nusxasi so‘ngida va Anqara nusxasining boshi va oxirida “Guliston”ni uchratib, uning to‘rt nusxasini solishtirdik. Qayg‘usiz Abdolning yangi asarini “Odamnoma” emas, “Guliston” deb o‘zgartirdik”[1.: 10.].

Abdurahmon Go‘zal nashridagi Alouddin G‘aybi Qayg‘usiz Abdalning “Guliston” kitobi kirish, besh bo‘lim, lug‘at va bibliografiyadan iboratdir. Birinchi bo‘limda Qayg‘usizning manqabaviy va tarixiy hayoti haqida qisqacha ma’lumotlar berilgan.

Ikkinchi bo‘limda Qayg‘usizning asarlarida diniy-tasavvufiy turk adabiyotiga oid nazm turlaridan keltiradi.

Uchinchi bo‘limda Qayg‘usizning turkcha – Tangrining tili, Jannat tili, Qalb tili kabi fikrlari keltirilgan.

To‘rtinchi bo‘limda Gulistonning nusxalari va xulosalari berilgan.

Beshinchi bo‘limda turk adabiyotida Marburg nusxasi va boshqa uch nusxa bilan qiyoslab “Guliston” asari mohiyati yoritib berilgan.

Lug‘atda Qayg‘usiz asarlaridagi lug‘atlar kiritilgan.

Bibliografiyada esa “Guliston”ga oid qo‘lyozmalar va bosma manbalar berilgan. Asar mundariyasiyoq, ishning fundamental tadqiqot ekanligini belgilaydi. Bu tizimlilik, aniqlik olimning barcha asarlarining muvaffaqiyatini ta’minlagan. Abdurahmon Go‘zal “Alouddin G‘aybi Qayg‘usiz Abdal Guliston” kitobining kirish qismida shahzoda Alouddin G‘aybiga Qayg‘usiz Abdal nomining berilish tarixi xususida ma’lumotlarini keltiradi. Bunda Antalya haqida fikr yuritib, Anado‘lining Janubida Antalya va Alanya orasida joylashgan bo‘lib, XIV asrning ikkinchi yarmida Teke eli deb yuritilgan. “Bu nom Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida ham keltirilgan” [1.: 22.], - kabi ma’lumotlarni uchratish mumkin. Ijodkorlarning hayot yo‘li tug‘ilgan joyi, vaqti, o‘sha davrning ijtimoy,

siyosiy, madaniy ahvoli singari ma'lumotlar bilan mushtaraklikda ochib beriladi. Zero, har bir ijodkor o'z davri va o'sha davr muhiti tomonidan kamol topadi. Ijodkorni, hatto abadiyatga daxldor asarlarini ham yashagan zamoni va makonidan ayri holda o'rganish mumkin emas. Bu kabi to'g'ri va xolis tadqiq usuli Abdurahmon Go'zal izlanishlari orqali yana bir bor turk adabiyotshunosligida tajribadan o'tdi, desak hech mubolag'a bo'lmaydi. Olim o'sha davrda Teke elining ikki jihatini o'rganadi. Birinchi jihati bu hududning madaniyati va ikkinchi jihati uning tarixi. Keyinchalik Turkistonda Ahmad Yassaviy boshlagan tasavvuf ta'limoti Anado'liga keng yoyilib, she'r va adabiyotda ham bu tasavvuf ta'limoti kirib kelganligi, yassaviylik ta'limotidan so'ng bektoshiylik, naqshbandiylik ta'limoti vujudga kelganligi haqida fikrlar ham beriladi.

Shuningdek, Abdurahmon Go'zal Teke elini boshqargan hukmdorlar va ular yashagan davr haqida ham alohida to'xtalib o'tadi. Shahzoda Alouddin G'aybi Alaiya begining o'g'li bo'lib, tasavvuf yo'lini tutgan zotlardan bo'lganligini ta'kidlaydi. U otasining saroyini tark etib, Elmalida Abdol Musoga murid bo'lgan.

Kitobning birinchi bo'limida Qayg'usiz Abdolning tarixiy hayoti haqida ma'lumotlarini ko'rish mumkin. Olim Qayg'usiz Abdolning hayoti bilan bog'liq ma'lumotlar Fuod Ko'pruli, Muxtor Yahyo Dag'li, Vohid Lutfi Salji, Rizo Nur, Sadididdin Nuzhat, Rudolf Tshudi va Jakob Hallauer tomonidan to'plab nashr etilgan bo'lib, nashrlar bir-biridan farqli emasligini ta'kidlab o'tadi. Olimning kutubxonasidagi "Manoqibnoma" Fuod Ko'pruli, Muxtor Yahyo Dag'li va Tshudi xulosalaridan tamoman farqlanishini ta'kidlaydi. Bu xulosalarda Qayg'usizning Misrga borib u yerdan qaytib kelmaganligi xususida ma'lumot mavjudligiga diqqatini qaratadi. Olimning nusxasida esa Qayg'usizning Hajdan qaytib Abdol Muso bilan uchrashgani haqida ma'lumot mavjudligini ta'kidlaydi. Shuningdek, olim qo'lidagi mavjud nusxa bilan Rizo Nur va Vohid Lutfi Salji tayangan nusxalar orasida tafovut yo'qligini ta'kidlaydi. Shu bois olim Qayg'usizning hayot yo'li haqidagi ma'lumotni berishda o'zidagi nusxaga tayanganligini aytib o'tadi.

Olim Manoqibnomada Qayg'usiz Abdolning oilasi, tug'ilishi va bolalik haqida ma'lumot yo'qligini ta'kidlaydi. Manoqibnomada esa quyidagi

ma'lumotlarni keltirib o'tadi. "Tariqat ahli orasida mashhur dilgo'sha sohibi Qayg'usiz Ota Sulton Alaiya begining o'g'li edi. Otini G'aybi der edilar. Bundan kelib chiqib, uning Alaiya Sanjak begining o'g'li va asl ismi G'aybi ekanligini bilish mumkin. Uning bolaligi haqida ma'lumot kam bo'lib, g'oyat oqil va orif, komil va bilimdon bo'lib, o'n sakkiz yoshida hech kim u bilan bahslasha olmaganligi xususida aytib o'tadi. Olim Qayg'usizning ham ilm sohasida, ham qurol-yarog' ishlatishda, o'q otishda, ham chavandozlikda mohir ekanligiga e'tibor qaratadi. Bundan bilish mumkinki, Qayg'usizning bolaligida yuksak e'tibor qaratilgan va u turli sohalarni chuqur egallagan.

Olim kutubxonasiidagi "Manoqibnoma"ga tayanib, G'aybining qay tarzda Abdol Muso bilan uchrashishi xususida ikki xil ma'lumotni keltirib o'tadi:

Birinchsi, "G'aybibek ov maqsadida Alanyadan Antalyada Duzler jomiga yo'l oladi. Sanjak begining o'g'li G'aybibek o'n sakkiz yoshga yetguncha kundan kunga rangi sarg'ayib so'lib boradi. Otasi o'g'lining bu holatini ko'rib ko'ngli vayron bo'ladi. Do'stlaridan o'g'lining nega bunday holatga tushganini so'rattiradi. Do'stlari undan holini, nega bu ahvolga tushganini yoki birovga muhabbat qo'yganini so'rashadi. Shunda Qayg'usiz do'stlariga hech kimni sevmaganini, ammo ichida bir ishq bor bo'lib, ne holga tushayotganini anglay olmayotganini aytadi. Bir kun G'aybibek otasidan ruxsat olib, otiga minib mahramlari bilan Alanyaga yo'l olib, keyin yo'lni davom ettiradi. Yo'lda ohuga duch keladi. Men izlagan ov shudir deb, ohuning izidan quvib nishonga olib o'q otadi. O'q ohuga tegadi. Ohu bir yaqinlashib, bir uzoqlashib shu holda ko'zdan g'oyib bo'ladi" [1.: 22.].

Keyingi ma'lumotni olim o'sha davrda yashagan Abdal Musoning xalifasi Xalil Zeybekdan olgan bo'lib, bu qismda esa G'aybibekning ohuning izidan yo'l olib, ohu tomon ot surishi va kiyik bir dargohga kirib ketishi haqida ma'lumot uchraydi. G'aybibek bu dargohdagilardan kiyik haqida so'raganda [1.: 22.], bu kiyik Sayid Abdol Musoga tegishliligi aytilgan. Shuningdek, bu dargohda bir qancha muridlar bo'lib, barchasi Abdal Musoning muridlari ekanligi haqida xabar beriladi. G'aybibek ulardan ohuni so'raganda ular hech qanday ohudan xabari

yoʻqligini aytishadi. Shunda ichkarida Sayid Abdol Muso huzuriga kirib, muridlar bilan koʻrishib ohuni soʻraganda Abdol Muso oʻq tekkan qoʻltigʻini koʻrsatadi va Gʻaybibekning oʻqini olib beradi. Maʼlum boʻlishicha, bu ohu siyosida hozir boʻlgan Sayid Abdol Muso ekanligini bilib qoladi va koʻp pushaymon boʻladi. Keyin Abdol Musoning xizmatiga olishni soʻrab iltijo qiladi. Shunda Sayid Abdol Muso bu yoʻlga kirish nihoyatda mushkulligi anglatadi. Ammo Gʻaybibek oʻz soʻzida turib oladi va Abdol Muso uni muridlikka qabul qiladi. Gʻaybibekning otasi buni eshitib qarshi boʻladi. Sayid Abdol Musoning karomatlaridan xabar topib, oʻgʻlining muridlik yoʻliga kirganligiga rozi boʻladi. Olim baʼzi rivoyatlarda Gʻaybibekning ustozini Abdol Muso huzurida 40 yil sadoqat bilan xizmat qilganligi mavjudligini taʼkidlaydi. Shunindek, keyinchalik Abdol Muso tomonidan Gʻaybibekka Qaygusiz Abdol nomi berilganligi xususida aytib oʻtadi. Gʻaybibek Abdol Musoning eng sodiq muridlaridan biri boʻladi.

Abdurahmon Goʻzal mumtoz adabiyotning butun sir-asrorini, ham shakliy, ham mazmuniy jihatdan chuqur bilgan olimlardan. Uning har bir tadqiqoti turk adabiyotshunosligida yangilik sifatida qabul qilingan. Qaygʻusiz Abdol haqidagi uzoq yillik izlanishlari ham, ilm ahli tan olganidek, turk adabiyotida yana bir Yunusni taqdim etgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Prof.Dr. Abdurrahman Güzel. Alaeddin Gaybi Kaygusuz Abdal Gülistan. Ankara: 2022. – 10 s.
2. Abdurrahman Güzel. Alaeddin Gaybi Kaygusuz Abdal Gülistan. Ankara, 2022. – 10 s.
3. Tekinoğlu. Ş.Teke-ili maddesi, – 124 s.
4. Abdurrahman Güzel. Alaeddin Gaybi Kaygusuz Abdal Gülistan. Ankara, 2022. – 22 s.
5. Abdurrahman Güzel. Alaeddin Gaybi Kaygusuz Abdal Gülistan. Ankara, 2022. – 22 s.

## O‘TKIR HOSHIMOVNING BADIY SO‘Z QO‘LLASH MAHORATI (ROMANLARI MISOLIDA)

**Yuldasheva Moxira,**  
*mustaqil izlanuvchisi,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Maqolada O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov nasrining o‘ziga xos xususiyatlari, adib romanlari, ulardagi mavzu va g‘oya, obraz yaratishdagi yozuvchi mahorati va badiiyati masalalari tahlilga tortiladi. Yozuvchining “Nur borki, soya bor”, “Tushda kechgan umrlar” asarlaridagi folklorizmlardan foydalanish mahorati haqida ham fikr yuritiladi.

**Аннотация.** В статье анализируются специфические особенности прозы народного писателя Узбекистана Откира Гашимова, литературных романов, тема и идея в них, мастерство и художественность писателя в создании образа, также обсуждается мастерство писателя в использовании фольклоризмов в произведениях «Есть свет, есть тень» и «Жизни, проведенные во сне».

**Annotation.** The article analyzes the specific features of the prose of the people's writer of Uzbekistan, Utkir Hoshimov, his novels, the themes and ideas in them, the writer's skill and artistry in creating images. The author's skill in using folklorisms in his works "There is light, there is shadow" and "Life in a dream" is also discussed.

**Kalit so‘zlar:** yozuvchi, badiyat, mahorat, an’ana, o‘ziga xoslik, roman, mavzu, uslub, qahramon, xarakter.

**Ключевые слова:** писатель, искусство, мастерство, традиция, оригинальность, роман, тема, стиль, герой, персонаж.

**Keywords:** writer, art, skill, tradition, originality, novel, theme, style, hero, character.

O‘zbek adabiyoti nodir iste’dod sohiblariga, favqulodda talant egalariga boy adabiyotdir. Shunday yozuvchilar borki, ular qanday mavzuda qalam tebratmasinlar, barchaga birday manzur asarlar yarata oladilar. Ana shunday

yoʻzuvchilarning asarlarida xalq ichki hayotining tasviri bor murakkabligi bilan ifodalanadi. Demak ular yaratgan asarlar boqiy yashaydi va kishi ongiga taʼsir qilib, jamiyatdagi illatlarga qarshi kurashishga chorlayveradi. Oʻtkir Hoshimov oʻzbek adabiyotining ana shunday koʻp qirrali, noziktaʼb adibi edi. Adabiyotimizga “Vaqti kelib kitobxon oʻsha kitobni yana qoʻliga olganida qaytadan hayajonga tushsa...”. Yoʻzuvchining “Ikki eshik orasi”, “Nur borki, soya bor”, “Dunyoning ishlari”, “Tushda kechgan umrlar” kabi qator asarlari hayajon va qalb titrogʻi bilan oʻqiladigan asarlar sanalib, kitobxonlar yuragidan chuqur joy olgan. Oʻ.Hoshimov umumiy gʻoyaga bogʻlangan voqealar tizimini rivojlantiradigan manzara, holat, situatsiya, tafsilotlarning xarakterli jihatlarini tanlaydi hamda hayotiy materialga

Yoʻzuvchi “Tushda kechgan umrlar” romanida oʻzgacha davr, oʻzgacha vaziyat, muammolarni mahorat bilan tasvirladi.

Qahramon hayoti va jamiyat evrilishlari negizida yuzaga kelgan maʼnaviy dunyo tahlili “Tushda kechgan umrlar”romani asosini tashkil etadi. Asarda muallif oʻz uslubiga xos xususiyat - kecha, bugun va erta ruhi butunligini badiiy toʻqimalarga yoyib yuboradi. Tirik maʼnaviy muhit mahsuli – Komissar hayoti va fojiasi butun jamiyat takomiliga qarama-qarshi qoʻyiladi. Aslida qahramon tiynati ortida davrning umumlashgan ziddiyatlari oʻz ifodasini topadi. Romanda Qurbonoy xola qiyofasi tadrijiy oʻsish-oʻzgarishlarda beriladi. Ayolning jamiyatda tutgan oʻrni muayyan maʼnoda faollik bilan bogʻliq jarayon hisoblanadi. Biroq, Qurbonoy xolada ruhiy poklik, halollik mavjud boʻlsa-da, uning koʻngil dunyosi ijtimoiy adolatsizliklardan zada boʻlgan. Shunga qaramasdan ayolda bagʻrikenglik va ezgulikka ishonch tuygʻusi saqlangan. Bu xislatlar uning nutqi, faoliyatida aks etadi. Asardagi “Kuz oʻlim toʻshagida yotgan bemorga oʻxshaydi” jumlasini faqat qahramon qismatidagina emas, asarda aks etgan davr, muhit, jamiyatga ham daxldor - darhaqiqat, oʻsha yillari jamiyat bamisoli oʻlim toʻshagida yotgan bemordek talvasada. Oʻzbek adabiyotida bu qadar maʼyus, mungli romanni hozirgacha oʻqimagamadik” [1.: 208.]. Adabiyotshunos va munaqqid U.Normatov mazkur asar ilk jumlasini bilanoq kitobxon qalbini asir etishini alohida eʼtirof etadi.

Adibning badiiy mahorati shundaki, u jonli insonlarni tasvirlaydi, o‘zi bilgan va mohiyatini chuqur anglagan mavzularni qalamga oladi. “Qaysi asarda xalq ichki hayotining tasviri butun murakkabligi bilan o‘z ifodasini topsa, u asar yashaydi va kishi shuuriga ta’sir qilib, jamiyat illatlariga qarshi kurashga da’vat etadi, faoliyatini ezgulik sari yo‘naltiradi. O‘tkir Hoshimov asarlari ana shunday xususiyatga ega. Buni “Nur borki, soya bor” romanida yaqqol ko‘ramiz” [2.: 287.].

O‘tkir Hoshimovning “Nur borki, soya bor” romanida insonlarning o‘zaro munosabarlari va bu munosabatlarda yuzaga keladigan chigalliklar, jamiyatdagi illatlarni faqatgina insonlarning o‘zlari yuzaga keltirishi haqqoniy bo‘yoqlarda chiziladi. Romanda qo‘llanilgan maqol, muallif tomonidan ishlatilgan aforizmlar asarning kitobxonga ulashadigan zavqini yanada oshirgan.

“Nur borki, soya bor” romanida muallif asosan urush yillaridagi qiyinchiliklarni, muhabbat va nafrat, jamiyatdagi nohaqliklarni adolat tarozisiga solib tortib ko‘radi va haqiqatni kitobxonga to‘laligicha ko‘rsatishga muvaffaq bo‘ladi. Muallif asardagi voqealarni kichkina bola nigohidan tortib to qari insonlar dunyoqarashigacha har birining “men”iga kirishib yozadi. Bola tilidan so‘zlaganda kichkina Zulayhoning dunyosiga, ayol his-tuyg‘ularini tasvirlaganda Zuhra, Shoira Elmira kelinlarning dunyosiga aylanadi.

Munaqqid A.Rasulov ta’kidlaganidek, “Nur borki, soya bor” asari adib ijodining yutug‘idir, asarda muallifning holati Sherzodga – bosh qahramonga ko‘chgan. “Sherzod ko‘p jihatdan O‘tkir Hoshimovning o‘zi edi: gazetada ishlaydi, xizmat safariga bot-bot chiqadi. Yuragi hasta. Eng muhimi, Sherzod kasalxonaga tushishdan burun Badaxshonga xizmat safariga borgan, Murg‘obda qurilayotgan Nurxon haqida yozgandi... Yangi qahramonlar, yangicha talqinlar paydo bo‘lgan” [3.: 287.].

Asar qahramonlari ruhiyatini yanada yorqinroq aks ettirishda folklorning hamda muallif qalami bilan dunyoga kelgan aforizmlarning o‘rni juda katta. Muallif Sherzod obrazi orqali o‘zining hayotiy xulosalarini kitobxonga

yetkazishni maqsad qiladi. Jumladan, Sherzod salomatligi yomonlashgani uchun shifoxonada yotadi va shunga amin bo‘ladi:

“Umuman, odamning aqli doimo kechikib kiradi, - deb o‘yladi u chuqur xo‘rsinib. - Biz hamma narsaning qadrini o‘zi yo‘qolganidan keyin bilamiz. Hatto bir- birimizning qadrimizning qadrimizni ham” [4.: 16.].

Yoki Sherzodning o‘zi bilan bir palatada yotgan bemor Sayfi Soqiyevich haqidagi taassurotlari to‘g‘risidagi mulohazalarini ko‘radigan bo‘lsak, bu fikrlar ham insonlar orasida ko‘p uchraydi, biroq bu haqiqat asar davomida o‘zini oqlamaydi. Negaki, Sayfi Soqiyevich Sherzod xulosalagandek, haromdan hazar qilmaydigan hamma narsani pul bilan, hatto insoniylikni ham puliga qarab baholaydigan “odam” ekanligi ayonlashadi. Hamma narsadan yaxshilik axtaradigan halol yigit Sherzod esa bu safar ham Sayfi Soqiyevichni “inson” deyish an‘anasida qoldi: “Donishmandlar tog‘ri aytgan. Birinchi taassurot uzoq esda qoladi-yu , ammo ko‘pincha xato bo‘ladi”.

Yoki, shifokor Rauf Abdullayevich tilidan ifodalangan fikrlarni nafaqat shifokorlarga, balki insoniyatga aytilgan o‘git sifatida ham e‘tirof etish o‘rinli bo‘ladi: “Operatsiya paytida jarroh eng yaqin odamini ham begona hisoblaydi. Tibbiyotda ikkilanish- mag‘lubiyat degan so‘z”. [4.:18.]

Asarda muallif o‘z qahramoni Sherzod timsolida bu hayotda yashashdan maqsad ezgu nom qoldirish ekanini har qadamda ta‘kidlaydi. Jumladan:

“Vaqti soati yetganda odamning tug‘ilishi oddiy bir narsa ko‘rinadi-yu, o‘lim har doim g‘ayritabiiy hodisa bo‘lib tuyuladi. Aslida odamning o‘lishi ham hech gap emas”. [4.:26.]

Bosh qahramon Sherzod “men”ida o‘zi ham inkor qila olmaydigan halollik tuyg‘usi kuchli edi, balki bunga yoshligidan otasining “Ko‘pchilikning haqi yetim haqidan yomon” deb uqtirgani sabab bo‘lgandir. Muallif qahramonlari tilidan hayotiy xulosalarni keltirar ekan, bu fikrlar faylasuf yozuvchining o‘z hikmatlari sifatida hayotni anglashni istagan har bir insonga to‘g‘ri yashashni o‘rgatayongan, nazarimizda.

Sherzod tilidan ifodalangan quyidagi fikr orqali inson bu hayotda mustaqil yashashni bilishi kerak, mustaqil yashash uchun esa odam o‘z shaxsiy fikriga ega bo‘lishi zarurligi ta’kidlangan: “Tobelik bor joyda ijod o‘ladi”. [4.: 101.]

Hayotga yengil-yelpi qaraydigan Shoirra obrazi orqali u “to‘g‘ri “deb tanlagan yo‘l, aksincha, qahramonni har ko‘yga solganini, o‘sha o‘zi ishongan, o‘zi ixlos qo‘ygan rejissor ham oxir-oqibat oyoqosti qilganini, halol turmush o‘rtog‘ining qadrini anglamaganlarga taqdirning turli zarbalari qarshilab turishi bor haqiqati bilan yoritilgan. Ya’ni: “Odatda, kishi o‘zgalarning nuqsonlarini darrov ko‘radi-yu o‘z aybini hadeganda payqay qolmaydi”. [4.:174] Shoirra ham xuddi shunday edi. Unga o‘z nuqsonlarini Sherzod anglata oldi.

Asarning mazmuniga singib ketgan folklor namunalari bo‘lmish maqollar ham asarga o‘zgacha ruh bag‘ishlagan. Qahramonlar ruhiyatini ifodalashda maqollardan unumli foydalanilgan:

“Ilm –ninada quduq qazish bilan teng” (44- bet); “Hisobli do‘st ayrilmas” (107-bet); “Tez yongan bot soviydi” (139-bet); “Ko‘rmaganning ko‘rgani qursin” (40-bet); “Ot topadi, eshak yeydi” (140-bet); “Qo‘ling sinsa, yeng ichiga yashir” (148-bet); “Odamning boshi – Ollohning toshi” (228-bet); “Palakat qosh bilan qovoqning o‘rtasida” (246-bet ).

Xullas, mohir yozuvchi O‘tkir Hoshimov voqea-hodisalarni shunchaki hikoya qilib bermaydi, inson hayotidagi turli jarayonlarni, tuyg‘ularning ajib sehrini mahorat bilan kitobxon qalbiga olib kiradi. Adib nasrida millat ma’naviyatining, ruhiyatining haqqoniy chizgilari bo‘y ko‘rsatadi. Zamonaviy o‘zbek adabiyotining ravnaqi va shuhratini jahonga tanitishda adib asarlarining xizmati beqiyosdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Normatov U. Ijod sehri. –Toshkent, “Sharq”, 2007. – 208 b.
2. Karimov H. Adabiy portretlar. – Toshkent: Yangi nashr. 2017. – 287 b.
3. Rasulov A. Badiiylik bezavol yangilik. – Toshkent: Sharq. 2007. – 287 b.
4. Hoshimov O‘. Nur borki, soya bor. – Toshkent: Sharq, 2017.

5. Bundan keyingi ko‘chirmalar shu asardan olinib, sahifasi qavs ichida beriladi.

## **O‘TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA USLUB VA BADIY TIL**

**Yuldasheva Moxira,**  
*mustaqil izlanuvchisi,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Anotatsiya.** Ushbu maqolada yozuvchi uslubi va badiiy til masalalari haqida fikr yuritiladi. O‘tkir Hoshimov asarlari misolida tahlil qilinadi.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы стиля письма и художественного языка. Анализируется на примере произведений Уткира Хашимова

**Annotation.** This article discusses issues of writing style and artistic language. It is analyzed using the example of the works of Utkir Hoshimov.

**Kalit so‘zlar:** Uslub, metod, janr, “milliy uslub”, “davr uslubi”, “badiiy til”, metod.

**Ключевые слова:** Стиль, метод, жанр, «национальный стиль», «стиль эпохи», «художественный язык», метод.

**Keywords:** Style, method, genre, “national style”, “period style”, “artistic language”, method.

Bugungi yangilanayotgan davr hamda inson ma’naviy olami badiiy ijodning ayrim masalalariga yondashuvni yanada chuqurroq tahlil qilish va bugungi adabiy jarayon va qator nazariy xulosalarni yangicha idrok etishni taqozo qilmoqda. Bu masalalar qatorida ijodiy metod, uslub va janr munosabatlari salmoqli o‘rin tutadi. Zero, bulardan hech biri o‘zaro bir-biri bilan aloqalarsiz taraqqiy eta olmaydi. Albatta, bu tushunchalar badiiy ijodning eng muhim masalalaridan bo‘lib, ularning tarixiy va ijodiy xarakteri, davr va inson ma’naviyatdagi o‘zgarishlarga bog‘liqligi muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Ta’kidlash joizki, “uslub” tushunchasi bilan bog‘liq holda uslub va metod, uslub va shakl, uslub va janr munosabatlari, shuningdek, uslubiy yo‘nalishlar va

uslublar muqoyasasi (tipologiyasi) kabi xilma-xil muammolar tug‘ilganki, adabiyotshunoslik ilmining tabiati ham, badiiy takomili rivoji ham bu chalkashliklarga aniqlik kiritishni talab qiladi”[ 1.: 3.].

Chunki, adib uslubi qanchalik xususiy, rang- barang, o‘ziga xos bo‘lsa ham badiiy ijod qonuniyatlari hamda metod va janr rivojida kechayotgan o‘zgarish va yetakchi xususiyatlar ta’siridan xoli bo‘la olmaydi. Demak, “uslub –yozuvchining adabiyotdagi betakror qiyofasi, o‘zligi.Uslub –yozuvchi falsafasi in’ikosi”[2.: 70.]. Shu bois, adib uslubi asarga o‘ziga xos pafos baxsh eta olsa, asar o‘zi mansub janrni mukammallashtirishga, janr esa metodni rivojlantirishga xizmat qiladi. Har bir yozuvchining dunyoni ijodiy o‘rganish davomida orttirgan hissiyotlar, olamni o‘ziga xos ko‘rish, anglash, tushinish hamda tushintirish yo‘li bo‘lib, yozuvchining mahorati, tasvirlash san’ati haqida gap ketganda ham, asosan, shu belgilar badiiylik mezoni sifatida talqin qilinadi.Bu jarayonni teran kuzatgan adabiyotshunos H.Boltaboyev bu borada yaratilgan tadqiqotlardan chiqargan xulosalariga asoslanib, quyidagi fikrlarni bildiradi: “Adib uslubi konkret badiiy asarlar yaratish usullarining arifmetik yig‘indisi emas, balki har bir asarda ma’lum darajada namoyon bo‘lgan adibning muayyan o‘zligi deb anglamoq lozim”[3.: 6.].

Uslubiy o‘ziga xoslik, yani individual talqin va uslubiy yo‘nalishlar adabiy, etetik tafakkur takomilidagi hodisalardan biri hisoblanadi. Qolaversa, ular ma’lum bir davr badiiy ijodi va asarlarga xos yetakchi jihatlarni aniqlash uchun ham muhim vosita hisoblanadi.

Istiqlol davri nasridagi inson badiiy tadqiqiga yangicha yondashuvlarining bir jihati uslubiy rang-baranglikda zohir bo‘ladi. Bu rang-baranglik badiiy asarlarning g‘oya, mavzu, obrazlar tizimi, syujeti, badiiyati, badiiy tili kabi tushunchalarda aks etuvchi ijodkor o‘ziga xosligining umumlashmasi bo‘lib, adabiy jarayondagi uslubiy yo‘nalishlardan oziqlanadi. Yozuvchi uslubi qanchalik serqirra va betakror bo‘lsa, uning milliy shakllanish negizi ham shunchalar chuqur va o‘sha xalq madaniyati uchun ham ahamiyati katta hisoblanadi. Demak, “uslubning shakllanish jarayonida yoki shakllangan uslubning zohir bo‘lishida o‘z milliy adabiyoti tajribasi, xalq ijod an’analari, urf- odatlar, til xususiyatlari, mahalliy ruh

kabi ko‘p jihatlarga e‘tibor qilishga to‘g‘ri keladiki, bularning barchasi “milliy uslub” tushunchasi “davr uslubi”ga nisbatan ancha yorqin, o‘ziga xos sifatlari bilan ajralib turadigan hodisa ekanini, uni uslubshunoslikda ilmiy muomalaga kiritish, har davr adabiyotining o‘ziga xos jihatlardan kelib chiqqan holda uning boyib boorish tadrijini kuzatish va bu borada nazariy umumlashmalarga kelish o‘zbek uslubshunosligi zimmasidagi vazifalardan biridir degan umumlashma qilishga asos beradi”[4.: 10.].

Shunday asarlar borki, ularda epiklikka, liriklikka moyillik ko‘zga tashlanadi, ba’zi asarlar tilida esa kinoyalar, kesatiqlar, qochiriqlarni ko‘p uchratish mumkin. Turli davrlardagi, jumladan bugungi kundagi ilmiy nashrlarda ham xususan “Adabiyot nazariyasi”ning ikki tomligida I.Sulton, T.Boboyev, P.Qodirov, X.Umarov, E.Xudoyberdiyev, F.Salayev va boshqalarning tadqiqotlarida “badiiy til” atamasi saqlangan. Bu fikrlar nisbatan mukammal bo‘lgan “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da ham shunday izohlangan: “Badiiy til –badiiy asar tili, so‘z san‘atining asosiy quroli, badiiy adabiyotning obraz yaratish vositasi; poetik til, badiiy adabiyot tili kabi shakllarda ham ishlatiladi. Ya’ni badiiy adabiyot birlamchi belgilar sistemasi sanaluvchi til vositasida, ikkilamchi belgilar sistemasini–badiiy voqelikni tashkil qiluvchi obrazlar tizimini yaratadi” [5.: 52.]. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, adabiyot tili garchi “badiiy til” va “til badiiyati” nomlari bilan turlicha atalsa ham, ularning mohiyati bitta: adabiy asar badiiyligining mezonlaridan biri ekanligi! Binobarin, badiiy tilni tashkil qiluvchi elementlar (unsurlar)ning olimlar tomonidan har xil atalish ibuni inkor etmaydi. Jumladan, professor B.Sarimsoqov bu unsurlarni “imkoniyat”, filologiya fanlari doktori U.To‘ychiyev “marom” deb nomlaydi. Adabiyotshunos B.Sarimsoqov monografiyasida “badiiy til atalmish maxsus til yo‘q” deya uni o‘rniga “til badiiyati” atamasini ishlatadi va uning shakllari (imkoniyatlari)ni izohlab bergan.

Demak, uslub har bir badiiy asar ijodkor shaxsiyati va o‘ziga xosligini ko‘rsatuvchi vositadir. Yaratilgan asar orqali yozuvchi o‘z uslubini namoyon etadi. O‘tkir Hoshimov ham o‘ziga xos uslubga ega yozuvchilardan biridir. Bu xusiyatni uning romanlari misolida ko‘rishimiz mumkin.Asarlarning dunyoga

kelishi, davr va kitobxon chig'irig'idan "eson-omon" o'tishi uchun yozuvchidan juda katta mashaqqat talab etiladi. Bu to'g'risida O'tkir Hoshimovning o'zi ham shunday degan: "Olim do'stlarimiz xafa bo'lmasin-u, roman yozish, nazarimda doktorlik ishi qilishday gap. Roman nihoyatda og'ir mehnatni talab qiladi. Gap uning hajmidamas. Menimcha, roman yozadigan qalamkashda avvalo roman tafakkuri bo'lishi kerak. Qalamkash hikoyaning kuchi bilan qissa, qissaning kuchi bilan roman yozsa adashadi. Menimcha, teskarisi bo'lishi zarur. Roman kuchi bilan qissa, qissaning kuchi bilan hikoya yozish kerak. Roman tafakkuri deganda avvalo adibning o'quvchiga to'kib solmoqchi bo'lgan dardi nihoyatda katta bo'lishini nazarda tutaman. Bu bittasi. Ikkinchidan, roman – juda murakkab qurilma. Uning poydevori ham, yerto'lasini ham bir emas, bir necha qavat bo'ladi. Bunday binoni "qurish" uchun tafakkurdan tashqari ijodiy tajriba ham bo'lishi kerak..."[6.: 60.].

Yozuvchining asar yaralishi haqidagi fikrlariga asoslanib ijodini tahlil etar ekanmiz, haqiqatdan ham asarda obrazlar til orqali qo'llanilgan xalq donoligi namunalari, peyzaj va portretlar, adib bayoni orqali berilgan aforizmlar adib uslubining betakrorligini ta'minlashga xizmat qilganini ko'rsatadi. Yozuvchining "Nur borki, soya bor" va "Tushda kechgan umrlar" romanlarining boshlanalari o'ziga xos adib uslubida yozilgan. Ya'ni yozuvchi qisqa hayotiy xulosalarini keltiradi, ayni paytda esa o'sha xulosalar butun roman mazmunini ochib berishga ham xizmat qilgan. Jumladan, "Nur borki, soya bor" romani "Dunyoning ishlari qiziq ekan. Eng oqil mavjudod inson deymiz-u ba'zan odamning arzimagan narsaga aqli yetmay qoladi. Bir paqirga qimmat, o'tkinchi ikir- chikirlari uchun jon kuydiradi-yu, eng bebaho xazinasidan – salomatligidan judo bo'layotganini o'ylab o'tirmaydi... -Umuman, odamning aqli doimo kechikib kiradi, - deb o'yladi u chuqur xo'rsinib. -Biz hamma narsaning qadrini o'zi yo'qolganidan keyin bilamiz. Hatto bir-birimizning qadrimizni ham"[7.: 3.] kabi fikrlar bilan boshlanadi. O'tkir Hoshimov ana shu hayotiy xulosalar tubzamidiga butun roman syujetini yashiradi. Jamiyatdagi adolatsizliklardan zada bo'lgan jurnalist yigit Sherzodning salomatligi yaxshi emasligi, insoniylikdan pulni ustun qo'yuvchi

Sayfi Soqiyevich kabi shaxslarning, afsuski, borligi romanda ham shular haqida gap ketishiga aynan asar boshlanmasi orqali ishora qilinadi. Ya'ni romanning bosh qahramoni o'z sog'lig'iga e'tiborsizligi uchun uning qadrini yo'qotganidan so'ng tushinib yetadi. Sherzod xarakteriga qarama-qarshi qo'yilgan Sayfi Soqiyevich va uning o'g'li Sirojiddin esa hamma narsani "pul kuchi" bilan hal qilganliklari uchun oxir-oqibatda soyaga aylanib qolishganini juda kech tushinishadi.

Asarning g'oyasi kitobxon albini asir etadigan yaxlit o'ziga xos sirli tasvir uslubi orqaligina haqiqiy pafos darajasiga yetishi mumkin. Yozuvchining "Tushda kechgan umrlar" romani "Kuz o'lim to'shagida yotgan bemorga o'xshadi" so'zlari bilan boshlanadi. Ilk jumladagi mana shu so'zlar asar davomida qulog'ingiz ostida jaranglab, goh sokin, goh shiddatli tus kitobxonni chuqur mushohadaga chorlaydi. Chunki bu jumla faqat qahramon taqdiridagina emas, romanda aks etgan davr, muhit, jamiyat uchun ham daxldordir. Sababi o'sha paytda jamiyat o'lim to'shagidagi bemorday edi. Adib bayonida "Donolar hayotni kuzaturlar jim..." aforizmlari, "Ilonning bolasi-ilon, chayonning bolasi-chayon", "Bolalik subhidamga o'xshaydi", "Birovning turmushiga aralashish- shaytonning ishi..." kabi o'xshatishlardan o'rinli foydalanilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Boltaboyev H. Nasr va uslub. – Toshkent: Fan, 1992,–3 b.
2. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – Toshkent: Sharq, 2007, – 70 b.
3. Boltaboyev H. Nasr va uslub. – Toshkent: Fan, 1992. – 6 b.
4. Quronov D, Mamajonov.Z, Sheraliyva. M.“Adabiyotshunoslik lug‘ati”. – T.: Akademnashr, 2010. – 52 b.
5. Qurbonova S. “Yozuvchi publitsistikasining taraqqiyot tamoyillari” . –T.: Muharrir, 2012. – 60 b.
6. Hoshimov O‘. Nur borki, soya bor. – T.: Qaldirg‘och, 2018. 3 b.

# BADIIY ADABIYOTDA FOLKLOR AN'ANALARI VA NAZAR ESHONQUL IJODI

**Ahmedova Muxlisa Ulug'bek qizi,**  
*magistrant,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada folklorizm – xalq an'analari , urf- odatlari va og'zaki ijod elementlarining badiiy asarlarga singdirilishi jarayoni haqida so'z yuritiladi. Tadqiqotda folklorizmning zamonaviy badiiy asarlardagi ifodalari, ularning estetik qiymati va badiiy muhitga ta'siri ko'rib chiqiladi. Ushbu tadqiqot orqali folklor elementlarining badiiy jarayonda qanday jonlantirilishi va uning ta'siri haqida Nazar Eshonqul hikoyalari misolida ko'rib chiqamiz.

**Аннотация.** В данной статье говорится о фольклоризме – процессе включения в художественные произведения элементов народных традиций, обычаев и устного творчества. В исследовании рассматриваются проявления фольклоризма в современных произведениях искусства, их эстетическая ценность и влияние на художественную среду. В рамках данного исследования мы рассмотрим, как элементы фольклора возрождаются в художественном процессе и его влияние на примере рассказов Назара Ишанкула

**Abstract.** This article talks about folklorism - the process of incorporating elements of folk traditions, customs and oral creativity into artistic works. The research examines expressions of folklorism in modern works of art, their aesthetic value and influence on the artistic environment. Through this research, we will consider how elements of folklore are revived in the artistic process and its impact on the example of Nazar Eshanqul's stories

**Kalit so'zlar:** Folklorizm, xalq og'zaki ijodi, estetik qiymat, Nazar Eshonqul ijodi, "Qultoy" hikoyasi, motiv, milliylik

**Ключевые слова:** фольклоризм, фольклор, эстетическая ценность, творчество Назара Ишанкула, рассказ «Култой», мотив, национальность.

**Key words:** Folklorism, folklore, aesthetic value, creation of Nazar Eshanqul, "Kultoy" story, motive, nationality

Adabiyot — xalq mulki. U inson hayotida alohida ahamiyatga ega. Inson bor ekan, adabiyot ham bo‘ladi. Adabiyotning o‘lmasligini ta’minlovchi ikkita qudratli omil bor. Ularning biri adabiyotning g‘oyat buyuk tarbiyaviy - ma’rifiy ahamiyati bo‘lsa, ikkinchisi, uning insonlarga zavq-shavq berish xususiyatiga egaligidir. Zero, inson har qanday davrda, har qanday sharoitda ham busiz yasholmaydi: u — doimo tarbiyaga, doimo ma’rifatga va badiiy zavq olishga muhtoj. Ana shunga ko‘ra, tarbiyaviy-estetik ahamiyatga ega bo‘lgan yetuk asarlarga aslo zavol yo‘q. Bunga qarama-qarshi holda quruq zamonasozlik ruhida yozilgan hamda hukmron mafkura va siyosatning istagi bilan maydonga kelgan, badiiyati bo‘sh asarlarning umri qisqa bo‘ladi. Bunday asarlar davr sinovlariga bardosh berolmay, tezda unutiladi. Badiiy asarlarda folklorizm – bu xalq og‘zaki ijodining, an’anaviy qoidalar va motivlarining badiiy asarlarga ko‘chirilishi jarayonidir. Folklorizm, odatda, xalqning madaniyati, tarixi va urf-odatlar bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, u badiiy asarlarning mazmuni va shaklida aks etishi mumkin.

Shu ma’noda badiiy asarlarda xalq og‘zaki ijodidan foydalanish adabiyotshunoslik oldidagi muhim vazifalardan biri bo‘lib kelmoqda. Chunki, har bir davr adabiyoti folklorida o‘z aksini topadi, badiiy sayqallanadi. Mumtoz adabiyotimizdan tortib, to bugungi kungacha yaratilayotgan asarlarda xalq og‘zaki badiiy ijodining ta’siri sezilib turadi. Badiiy adabiyotning eng qadimiy shakli xalq og‘zaki poetik ijodi (folklor) hisoblanadi.

Nazar Eshonqul ijodi va faoliyati ulug‘ bir ummondir. Uning tubiga yetish yoxud bu hikoyachilikni o‘rganish, baholash necha-necha avlodlarning ham umriga tatigulikdir. Kitobxon bezagi uchungina emas, balki aniq g‘oyaviy-badiiy maqsadlari uchun, kelajak avlod uchun, davr ruhini singdirishga xizmat qildirmoqda. Nazar Eshonqulning “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasidagi Bayna momo obraziga ijodiy yondashuvi o‘ziga xos: uningcha, adib yaratgan timsol milliy iftixorimiz, g‘urur va sharaf-shonimizdir. Bu asar o‘ziga qadar yaratilgan

o‘zbek hikoyalaridan bir necha jihatlari bilan ajralib turadi. Avvalo, hikoyalarining kompozitsion tuzilishi, asar voqea-hodisalarining tartib bilan, mantiq chegarasida joylashuvi boshqa asarlardan keskin farq qiladi. Unda go‘yo bir-biri bilan bog‘lanmaydigan qator hikoyalar, rivoyatlar, hatto qissalar bo‘lsa-da, ular mantiqan bir-birini to‘ldiradi. Yozuvchining keyingi yillarda yaratgan “Qultoy” hikoyasida ham insonning butun umr azoblangan va shunga duchor mavjudot sifatidagi manzarasi chiziladi. Hikoya qahramonining nomi Uljon. Yana bir bechoragina, mushtipar ayol obraziga duch kelamiz ushbu hikoyada. U mol izidan tayoq sudrab, umri qir-u adirlarda o‘tayotgan bir barzangi yigit. Bu hikoyaga “Alpomish” dostonidagi Alpomishning so‘zlari epigraf sifatida olingan. Bu orqali biz yozuvchining xalq og‘zaki ijodiga mansub dostonlardan ta’sirlanib yozganini bilishimiz mumkin. Shuningdek, hikoyada farzandsizlik motivi haqida ham so‘z yuritiladi. Bundan tashqari, shuni e‘tirof etish kerakki, Nazar Eshonqul hikoyalari tili o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Unda asar qahramonlarining ijobiy yoki salbiy qahramon ekanligi yozuvchi tilidan e‘tirof etilmaydi. Aksincha, bu yumushni o‘quvchining o‘ziga qoldiradi, uni mushohadaga chorlaydi. Umuman olganda, asarda kimlar ulug‘lanayotgani, qoralanayotgani ko‘pincha bevosita emas, bivosita ifodalanadi. Majoziy, ko‘chma ma’noli tasvirlar ta’rif-u tavsiflarga tez-tez murojaat etilib, ularning ustuvorligi ta’minlanadi. Eng muhimi, tasvirlardagi majozlar ko‘chma ma’noli vositalar qahramonlarning betakror ruhiy dunyosini yoritishga xizmat qiladi.

Badiiy adabiyotning asosiy maqsadi asar markazidagi inson hamda uning ichki dunyosini tadrijiylik asosida badiiy tasvirlash bo‘lar ekan, Nazar Eshonqulning aksariyat asarlari inson va uning ko‘ngil olami, ruhiy kechinmalari badiiy talqin etishga qaratilgani bilan e‘tiborga sazovor bo‘lib, yozuvchining adabiyot haqidagi kuzatishlari asosida o‘z adabiy-estetik pozitsiya ijod laboratoriyasi va ijod psixologiyasini o‘rganishda muhim manba bo‘ladi. Nazar Eshonqul asarlarini o‘qib turib yozuvchi ijodidagi ko‘zga tashlanadigan jihatlar, asosan, xalq mifologiyasi asosida, uning o‘zagidan ruh olib yaratilganligiga amin bo‘lasan

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Hamroyev M.A. “Folklor va Folklorizm”.
2. Matyoqubov A.S. “O‘zbek folklori: nazariya va amaliyot”.
3. Matyoqubov. S . Nazar Eshonqul hikoyalarida ijodiy individuallik. – Toshkent.: O‘zbek tili va adabiyoti . 2011.
4. Nazar Eshonqul. Qissalar va hikoyalar. – Toshkent:..Sharq, 2008.

## **OYDIN HOJIYEVA SHE’RLARIDA TARIXIY SHAXSLAR TALQINI**

**Asatjanova Iroda Maqsudbek qizi,**

*magistrant,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ajdodlar hurmatini o‘z joyiga qo‘ygan, ularga cheksiz ehtirom ko‘rsatgan, avlodlar qalbiga ajdodlar kuch-qudratini singdirgan shoira Oydin Hojiyeva she’rlari haqida gap ketadi. Uning badiiy tafakkur mahsuli bo‘lgan she’rlarida tarixiy shaxslar nomlari, ularning ko‘rsatgan jasoratlari tilga olinadi. Talmeh asosida yaratilgan baytlarda shoiraning badiiy mahorati o‘z aksini topgan.

**Аннотация.** В данной статье рассказывается о стихах поэтессы Айдын Ходжиевой, которая поставила на место почитание предков, проявила к ним безграничное почтение, вселила в сердца поколений силу предков. В его стихах, являющихся продуктом художественного мышления, упоминаются имена исторических деятелей и их отвага. Художественное мастерство поэта отражено в стихах, созданных на основе Талме.

**Annotation.** This article talks about the poems of the poetess Aydin Khojievva, who put the honor of ancestors in their place, showed them unlimited respect, and instilled the power of ancestors in the hearts of generations. His poems, which are the product of artistic thinking, mention the names of historical figures and their bravery. The artistic skills of the poetess are reflected in the verses created on the basis of Talmeh.

**Kalit soʻzlar:** badiiy asarlar, tarixiylik, ichki kechinma, poetik mahorat, talmeh, tashbeh.

**Ключевые слова:** художественные произведения, историчность, внутреннее переживание, поэтическое мастерство, талме, аллюзия.

**Keywords:** artistic works, historicity, inner experience, poetic skill, talmeh, allusion.

Mustaqillik oʻzbek xalqiga oʻzligini anglash hamda anglatish, tarixi, madaniyati, xalqona urf-odatlarini va qadriyatlarini qayta tiklash, milliy oʻziga xos xususiyatlarini namoyon etish uchun shart-sharoitlar yaratdi. Har tomonlama barkamol yangi avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish davlatimizning bugungi kundagi eng muhim vazifalaridan biridir. “Agar mendan sizni nima qiynaydi? deb soʻrangiz, farzandlarimizning taʼlim va tarbiyasi deb javob beraman”, – deydi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Pirovardida, oʻz nutqida yana shuni alohida qayd qiladilarki: “Tarbiya qancha mukammal boʻlsa, xalq shuncha baxtli yashaydi. Tarbiya mukammal boʻlishi uchun esa bu masalada boʻshliq paydo boʻlishiga mutlaqo yoʻl qoʻyib boʻlmaydi”. [1.: 142.]

Hammamiz yaxshi tushunamizki, adabiyotda tarixiy haqiqatni tiklash bilan birga, xalqimiz tarixini, uni oʻtmishi, madaniyatini, qadriyatlarini, urf-odatlarini, tarixiy shaxslarimizning koʻrsatagan jasoratlarini yoshlarimiz ongiga singdirish bugungi kunda eng birlamchi vazifaga chiqdi. “Shoiralar xalqimiz tarixi sahifalarini varaqlashga intilib, undagi har bir hodisadan zamon buguni uchun foydali tomonlarni izladilar.” [2.:117.] Bunday ulkan vazifani chin dildan ado etgan shoira bu – Oydin Hojiyevadir. U oʻz sheʼrlarida xalqimiz tarixi, oʻtmishini, ajdodlarimiz qahramonliklarini betakror misralar bilan ifodalagan. Xususan, shoira “Nodira imtihoni” sheʼrida adabiyotimizning yetuk dargʻasi boʻlgan Nodirayi davron ulugʻlanadi. Bilamizki, Nodira sheʼriyatining asosini lirika tashkil etadi. Nodira muhabbat, sadoqat va vafo kuychisidir. U goʻzallik va sadoqatni, Sharq xotin-qizlarining dard-alamlari, oh-u figʻonlarini kuyladi. Shoira oʻzini ishq oynasi deb atar ekan, bu oynada insonning hayotga umid bilan qarashi, ezgu istaklari va

orzusi aks etgan. She'rdamana ham mana shu xususiyatlar o'z aksini topgan desak hech adashmagan bo'lamiz.

Badiiy tafakkur tabiatidagi sifat o'zgarishlarini o'ziga xos badiiy shakllar va ifoda usullari xilma-xilligi asosida taqozo etgan Oydin Hojiyeva she'rdamobrazlar tizimini bir-biriga o'xshatmasdan so'z san'atkorisingari bayonetadi, joriy holat har bir ijodkor avlodi badiiyat tarixidagi o'zlik qiyofasini belgilab berish barobarida, ta'riflanayotgan shoirlar individual dunyosini ham tayin etadi.

She'rdamalmeh san'ati asosida Nodirayi davron ishq namozidan bizga saboq ber, jami olam inja sozindan hayron qolsin, muhabbat sajdagohida sening mohirohing adashdi, bahoring yozidan ayrildi deyilgan. Qaro sochlaringga qaro motam libosi, xazin baytlaringda ham huddi shunday, bir dardi ming bo'lgan go'zal, Mohlaroyim navosida. Ishq namozi ham oqibatda qazo bo'ldi, bu voqeadan Turon yurti aza tutdi, el esa bu qismat xatosidan umr-umr izo yeb yurdi:

Bu elni imtihon ayla,  
Bir tan-u bitta jon ayla,  
Oy yuzingni ayon ayla,  
Nodira, imtihon ayla,

Chiqib hurlar arosindan! [3.: 242.]

Shoiraning "Hamid G'ulom vidosi" she'rida haqiqiy vatanparvar yurt o'g'lonlari kuylanadi. Hamid G'ulom hayoti, ijodi, qoldirgan merosi bugungi avlod vakillari uchun o'rnak vazifasini bajaradi, ularni ezguliklar, yaxshiliklar qilishga undaydi. "Do'st-yoronlar hush endi, issiq diydorimiz tush endi, davrada bitta o'rin bo'sh endi, bir kun sizga, albatta, qaytaman",- deydi yozuvchi. G'afur G'ulom na'rasidek, Oybekning faxridek, qadim toshkentliklarning martabasi, qadridek, binafshaning atridek eliga viqor ila yana qaytadigan ijodkor sifatida ta'rif qiladi. Shoh Mashrabning ohidan ilhom olgan yozuvchi bo'lgan Hamid G'ulom Lolako'lning mavjida baytlari oqib ketganini aytadi. Shoira yoshlar toqqa intilsa men so'qmoq yo'l, madadkor ko'l, himmati mo'l, vafoning uzun yo'li bo'lamen deydi:

Ko‘zlarimga joylabon,  
Yurtim jannat jamolin,  
G‘oyibdan mujda bo‘lib,  
Tilab Vatan kamolin,  
Hamidman, G‘ulomdirman –  
Sahovatdir a‘molim,  
Har kun sizga qaytaman,  
Men elimga qaytaman...

Barcha ijodkorlar ham lirik qahramonning ichki tuyg‘ulari poetik talqinini ifoda qilishda, ulardan falsafiy umumlashmalar chiqarishda, o‘quvchini qahramonning ichki dunyosiga olib kirib, taqdiriga “hamdard” bo‘lishga muyassar bo‘lavermaydi. Bu o‘rinda Oydin Hojiyevaning Hamid G‘ulom ruhiyatini, uning ichki kechinmalarini ochib berishi keng imkoniyatlarga ega ekanligidan dalolatdir.

E‘tibor bersak, shoiraning yuqoridagi satrlarida yaxlit mujassamlashtiruvchi, odamlar qalbini sehrlab, tortib turadigan bir kuch bor. Negaki, shoiraning bunday qayg‘uli hayot ko‘rinishlarini badiiy ifoda qilishi, yaratuvchanligi, og‘ir ruhiy holatlarini real va haqiqiy, aynan tabiiy ko‘rinishda badiiy bayon qilishiga tan berasiz.

Asrlar qa‘ridan minnatdor boqqan  
Navoiyning hayrat ko‘zidir Oybek,  
Sahroda daryoday guldirab oqqan  
Qudratli xalqiming o‘zidir Oybek! [4.: 59.]

Bunday misralarni vatandoshlariga ruhdosh, ular qalbini nihoyatda anglagan shoirgina yaratishi mumkin. Shoira asrlar qa‘ridan minnatdor boqib, sahrolar aro kezayotgan lirik qahramon – Oybek ruhiyatida umidsizlik belgisini emas, balki, Vatan uchun najot izlab, umid bilan yuz ko‘rishishga intilish nishonasini nozik lirik chizgilar orqali tasvirlagan.

She‘rda tarixiy shaxslar obrazlari bilan birga zamonamizning ko‘zga ko‘ringan ijodkor shoir va shoiralari nomlari ham tilga olingan:

Kelsa Jizzahdan Sharofatxonimiz,  
Kamsuqum Veneradek mehmonimiz,  
Kelsa Surxondan Jamila Ergashim.  
Shoira Gulnora Rahmonim yana,  
Ra'no Rahmonday qadrdonim yana,  
Vaqt topib kelsa Salomatxon Vafo,  
Qutibjon birla Farog'at kamnamo.

Ushbu she'rda Oydin Hojiyeva o'tmishdagi ma'naviy qadriyatlarimizning voqelik tomirlarini bugungi hayotimizda uyg'unlashtirib tasvirlar ekan, uni hozirgi istiqloq davri milliy g'oyalari, manfaatlari bilan "sug'oradi", bu g'oyalarni insonning ma'naviy boyishiga "xizmat" ettiradi. Bu qisman shoiraning o'z yuragiga – mangu haqiqatlarga qaytishi bilan izohlanadi. "O'tmishdagi buyuk bbolar haqida yozilgan, ular alqinib yoki istiqloq, Vatan, milliy g'urur madh etib bitilgan she'rlar talaygina. Biroq, baribir, 90-va 2000-yillar she'riyati o'z dominant xususiyatiga ko'ra ko'ngil lirikasidir." [5]

Shoiraning tarixiy shaxslar ulug'langan she'rlarida ham ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy, milliy va tarixiy qadriyatlarimizga boy merosimiz, ijodkor shaxsiy tarixiy shaxslar obrazlariga badiiy javob izlashi ko'ngil deb atalgan bekaron mamlakatda kechayotgan sir-sinoatlarni tadqiq etishga qaratilgan sa'y-harakatlari bilan e'tiborli.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Sh.M.Mirziyoyev. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. Hojiyeva Oydin. "Nazokat. She'rlar, badilalar, dostonlar. – T.: "Sharq";, 2010.
3. Jumaboyeva J. XX asr o'zbek she'riyatida psixologik tasvir mahorati. – T.: "Fan" nashriyoti. 2004.
4. Hojiyeva O. Shom shu'lalari: Saylanma. She'rlar, dostonlar, qasidalar. – T.: "Sharq", 2010.
5. Ulug'bek Hamdam. Yangi o'zbek she'riyati: Ilmiy maqolalar. – T: "Adib" nashriyoti. 2012.

**SHE'RIYATDA BADIY TASVIR VA TALQIN MUTANOSIBLIGI  
(GULJAMOL ASQAROVA BA XOSIYAT RUSTAMOVA IJODI  
MISOLIDA)**

**Berdirasulova Nargiza,**

*magistrant,*

*Nukus davlat pedagogika instituti*

**Annotatsiya.** Tasvir uslubining lirik kechinmalar bilan ifodalanish xususiyati hamda she'r shakllarining ifodaviyligi har bir ijodkor faoliyatida yetakchilikni tashkil etadi. Ushbu maqolada Guljamol Asqarova, Xosiyat Rustamova she'rlarining tasvir uslubi, ohang ko'lami va uslubiy o'ziga xosliklari tahlil qilinadi.

**Аннотация.** Характеристика стиля изображения, выраженного лирическими переживаниями, и выразительность поэтических форм являются ведущими в деятельности каждого художника. В данной статье анализируются образный стиль, тоновой диапазон и стилистические особенности стихотворений Гулжамол Аскаровой и Хосият Рустамовой.

**Annotation.** The characteristics of the style of the image, expressed by lyrical experiences, and the expressiveness of poetic forms are leading in the work of each artist. This article analyzes the figurative style, tonal range and stylistic features of the poems of Guljamol Askarova and Khosiyat Rustamova.

**Kalit so'zlar:** Badiiy talqin, ramziy ifoda, psixologik tasvir, badiiy san'atlar.

**Ключевые слова:** Художественная интерпретация, символическое выражение, психологический образ, художественное искусство.

**Keywords:** Artistic interpretation, symbolic expression, psychological image, artistic art.

She'riyat inson ruhiyatining eng nozik va kechinmalarining chuqur ma'noviy qirralarini ifoda etishda o'ziga xos vositadir. Unda inson qalbining iztiroblari, quvonchlari, orzulari va intilishlari ma'lum bir tasvir uslublari orqali aks ettiriladi. Albatta, bunda adabiyotning estetik asoslari ijodkorning tasvir uslubida namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra, o'zbek she'riyatida Guljamol Asqarova va Xosiyat

Rustamovalar ijodiyoti o‘ziga xosligi bilan yuksak ahamiyat kasb etadi. Tasvir uslubining lirik kechinmalar bilan ifodalanish xususiyati hamda she’r shakllarining ifodaviyligi har ikkala ijodkor faoliyatida yetakchilikni tashkil etadi.

Ijodkor she’r yaratar ekan, unda davr, zamon, tabiat, qalb kechinmalari yoki muayyan bir timsol mavzusini yoritishni o‘ziga maqsad qilib oladi. Zotan, she’riyatning asl negizi bu inson qalbining badiiy adabiyotda aks etmish in’ikosi demakdir. So‘z sehri orqali olamni teran his qilish, uni anglash, yangi badiiy qiyofalarda gavdalantirish she’riyatning asosiy vazifalaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Umuman olganda, “She’riyat – bu olam hayotining tirik tomiri, uning qoni, uning olovi, uning shu’lasi va quyoshidir”. [2.: 84.]. Chunki she’riyat inson qalbini ta’sirlantiradigan, qalbini shodlikka to‘ldiradigan, ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatadigan san’at turlaridan biridir. She’r orqali inson o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etadi, qalb kechinmalarini tasvir bayonotiga yo‘naltiradi.

Qaro sochlar oqarib borar,

Jism-u jonim o, qarib borar.

Borgan sari umrim rangida,

Qaro ortar, oq arib borar. [3.: 244.].

She’rlari inson qalbining nozik qirralarini o‘zida aks ettirishi bilan alohida diqqatga sazovor bo‘lgan shoira Guljamol Asqarova yuqoridagi to‘rtligida tajnis san’atining go‘zal namunasini yaratadi. Ya’ni bunda shoira inson umrining o‘tkinchiligi, vaqtning shafqatsiz o‘tishi haqida falsafiy mushohadalar yuritadi. Sochlarning oqarishi, jism-u jonning qarishi orqali umrning doimiy harakatda ekanligini namoyon qiladi. Birinchi misrada avji yoshlik pallasidagi qaro sochlarining oqarishi umrning tezoqar suv misol o‘tayotganligini anglatga, ikkinchi misrada ya’ni “jism-u jonim o, qarib borar” misrasida esa ruhida va jismonan ham keksayish pallasiga kirib borayotganligi xususida so‘z ochadi. Uchinchi misrasida vaqt o‘tishi bilan inson hayotining ranglari o‘zgarishi, yoshlikning quvonchli damlari o‘rnini hayotiy tajriba, ichki kechinmalar egallashiga ishora qiladi. “Qaro ortar, oq arib borar” – she’rning eng falsafiy misralaridan biridir. Bu yerda “qaro” qayg‘u va g‘am ramzi hisoblanadi, ya’ni

yosh o‘tib, keksalik pallasiga qadam qo‘yilar ekan, tashvishlar ham ortib boradi. “Oq arib borar” esa yoshlikdagi umid va beg‘uborlikning sekin-asta kamayib borishiga ishora. Berilgan she‘riy parchada badiiy yondashuv, badiiy san‘atlar va ramziy ma‘nolarning mohirona tarzda aks etishi uni yanada ta‘sirchan bo‘lishiga hissa qo‘shgan.

Tungi mashinalar ko‘tarar shovqin,

Daraxtlar chekkaga oladi o‘zin.

Endi anglaganda yashashning shavqin –

O, nega yumilib borasan ko‘zim?! [4.: 135.]

Xosiyat Rustamova qalamiga mansub bo‘lmish ushbu she‘rda lirik qahramon o‘tayotgan umrini sarhisob qilishga urinadi. Kechaning sukunati fonida mashinalarning shovqini, hayotning tinimsiz davom etayotganini ko‘rsatadi. Bu yerda mashinalar – vaqtning o‘tishi, shovqin esa hayotning qizg‘in jarayonlari ramzi bo‘lib kelgan. Daraxtlarning jim turishi yoki o‘zini chetga olishi ham alohida ma‘no kasb etadi. She‘rda lirik qahramon hayotining asl mohiyatini tushunishi, uni taftish qilishga urinayotganigini ko‘rish mumkin. She‘rning so‘nggi baytidagi “O, nega yumilib boradi ko‘zim” ritorik so‘roq ifodasida berilgan misrasi orqali insonning hayot haqidagi o‘ylarini, ichki iztiroblarini ifodalashga xizmat qilgan. Bu she‘r inson hayotining muqarrarligi, vaqtning shafqatsizligi va hayot mazmunini kech anglash fojiasini ifodalaydi. U o‘quvchini chuqur falsafiy mushohadaga undaydi, o‘z hayotini mazmunli yashashga chorlaydi. “She‘riyat muttasil ravishda inson idrok tuyg‘usini tahlil qilishga intiladi. Chunki ushbu holat sabab va oqibat o‘rtasida munosabat hosil qiladi, his-tuyg‘uni ma‘no tarangligiga yo‘naltiradi. Unda tasvir ruhiyati teranligi, bilsih va anglash darajasi tadriji, falsafiy fikr yangilanishi his qilinadi” [1.: 35.] .

Ko‘rinadiki, she‘rda inson kechinmalari, tuyg‘ulari va shu bilan bir qatorda, shu she‘rni o‘qib turgan inson ruhiyatidagi tasvir bayonoti ham o‘z aksini topadi. Umuman, she‘riyat bu inson, inson ruhiyatining fikran qaralganda, olamning bir ko‘zgusi demakdir.

Qish keldimi –

Keldimi bahor,  
Bu yerlarda noma'lum fasl.  
Daraxtlardan tortib  
Yomg'ir, qor –  
Quyoshgacha olingan asir. [4.: 135.].

“Qish keldimi – keldimi bahor” misrasidagi “qish” va “bahor” so‘zlari bu yerda antitezani yuzaga keltirmoqda. Shoira daraxtlar, yomg'ir, qor va quyosh – tabiatdagi tabiiy unsurlar vositasida o‘zining holi bayonotini bermoqchi bo‘ladi. Tabiat unsurlarining “asir” sifatida tasvirlanishi hayotning cheklanganligini, insonning o‘z qismati ustidan nazorat qila olmasligiga ishora bo‘lib xizmat qilgan. Uning keyingi misrasi shunday davom etadi:

Hech qayerga bo‘lmaydi ketib,  
Tun beorom.  
Ingrab otar tong.  
Qayerdandir kuz kelar yetib,  
O‘z holingcha o‘sa boshlasang.

She’r kechinmalar, iztirob, o‘zgarish va ruhiy o‘sish jarayoni haqida davom qilib boradi. Ushbu she’r namunasida Xosiyat Rustamova tabiat va inson holatining uyg‘unligini tasvirlagan. “Tun beorom” – bu inson ruhiyatidagi, uning ichki dunyosidagi notinchlik, xavotir, bezovtaliklarni bildiradi. “Kuz kelar yetib” esa inson o‘z holicha o‘zgarishni boshlaganidagi kutilmaganda yuz beradigan o‘zgarishlarni anglatadi.

Meni asrab qoling, sovuq kunlardan,  
G‘amlarning qahridan asrangiz meni.  
Men sha’nsiz va shonsiz ketmagaydirman,  
Nechun qo‘shiqlarim jim, rangsiz mening. [5.: 50.].

“Sovuq kunlar” deb nomlangan bu she’rda shoira hissiyotlarni, tuyg‘ularni metaforik obrazlar vositasida aks ettiradi. Ya’ni bu yerda “sovuq kun” deyilganda, g‘amli, qayg‘uli kunlar nazarda turiladi. “Fikr she’rning guli; tuyg‘ular daraxti, kechinmalar bog‘i”. [6.: 130.]. Shoira o‘z fikri bayonida metafora (“Sovuq

kunlar”, “g‘amlarning qahri”, “jim qo‘shiq”)lardan unumli foydalanadi. Bunda lirik qahramon faqat qayg‘uli kunlar bilan, hayot qiyinchiliklari bilan qolishni istamasligini, dunyodan sha‘nsiz va shonsiz ketmaslikni namoyon qiladi.

Har ikkala ijodkor she‘riyatida tasvir uslubi o‘ziga xos poetik mahorat va individual badiiy tamoyillarga asoslanadi. Guljamol Asqarova she‘riyatida realistik va psixologik tasvirlar, inson kechinmalari, tabiat tasviri aniq, sodda va ixcham tarzda akslantirilsa, Xosiyat Rustamova she‘riyatida abstrakt tasvirlar uchraydi. She‘rlarida tasvirlar ko‘pincha ramziy ma‘nolarga ega bo‘ladi, epitet va metaforalardan mohirlik bilan foydalanadi. Umuman olganda, ikkala shoira ijodiyotida tasvir uslubi o‘ziga xos. Ularning she‘rlarida aks etgan yorqin va ta‘sirli tasvirotlar o‘quvchi tasavvuriga singdiriladi, tahlil va talqin jarayonida yuzaga keladigan muammolarga barham beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Matyakupov S. Hozirgi o‘zbek she‘riyatida dialog va ritorik munosabat sintezi. – Toshkent: Firdavs shoh, 2023. – 35 b.
2. Жамол Камол. Шеър санъати. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. –84 b.
3. Асқарова Г. Эркалик имтиёзи. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги нашриёт ижодий уйи, 2012. – 244 b.
4. Рустамова Х. Бебош булутлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – 135 b.
5. Асқарова Г. Ошиқлар тумори. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги нашриёт ижодий уйи, 2012. – 50 b.
6. Рахимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърляти. – Тошкент: Фан нашриёти, 2007. – 130 b.

# ISAJON SULTON ASARLARI BADIYATI MUKAMMALLIGINI TA'MINLASHDA FOLKLOR NAMUNALARIDAN FOYDALANISHI

**Erkinboyeva Lobarxon Otanazar qizi**

*magistrant,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyot munosabati, folklorga xos unsurlarning zamonaviy hikoyachilikda qo‘llanilishi, ayniqsa, tush motivi, miflarning poetik jozibasi mahoratli yozuvchi Isajon Sulton hikoyalari asosida ilmiy tahlil qilindi.

**Аннотация.** В статье научно анализируется взаимосвязь устного фольклора и письменной литературы, использование элементов фольклора в современном повествовании, особенно мотива сновидений, а также поэтическое очарование мифов на основе рассказов талантливого писателя Исайона Султана

**Abstract.** This article scientifically analyzes the relationship between oral folk art and written literature, the use of elements characteristic of folklore in modern storytelling, especially the dream motif, the poetic charm of myths, based on the stories of the talented writer Isajon Sultan.

**Kalit so‘zlar:** folklorizm, folklor, motiv, uslub, syujet, tush motivi, mif, safar motivi, tog' timsoli, qahramon, obraz, badiiy psixologizm , poetika, badiiyat.

**Ключевые слова:** фольклоризм, фольклор, мотив, стиль, сюжет, мотив сна, миф, мотив путешествия, символ горы, герой, образ, художественный психологизм, поэтика, художественность.

**Keywords:** folklorism, folklore, motif, style, plot, dream motif, myth, travel motif, mountain symbol, hero, image, artistic psychologism, poetics, art.

Badiiy adabiyotda milliy xarakterlar va milliy urf-odatlar aks etgan asarlar juda ko‘p o‘rin egallaydi. So‘nggi davr o‘zbek nasrida asar yaratishda xalq og‘zaki ijodi motivlariga murojaat qilish kuchaydi. Ular asar syujeti, mohiyatiga singib ketib, ijodkor fikr yuritishida asosiy vositaga aylanib boryapti. Xalq og‘zaki ijodi namunalarini qo‘llash asarda badiiy tasvirning mukammalligini, uning ta’sir kuchi

oshishini ta'minlashga xizmat qiladi. Folklor asarlari o'zining hayotiyliigi, ijtimoiy tabiati, g'oyaviy mohiyati hamda o'ziga xos badiiy xususiyatlari bilan adabiyotimizda alohida o'ringa ega. Xalq mehnati, urf-odati, turmush sharoiti, orzu-istagi, kurash va g'alabalari uning mavzusi va mazmunida aks etadi. O'zbek adabiyotshunosligida olib borilayotgan tadqiqotlardan ma'lumki, ijodkorlar badiiy idrok etilgan voqelikni tasvirlash usulida folklor unsurlaridan samarali foydalanmoqda. Folklorizmlar badiiy mukammal asarlar yaratishda, chinakam adabiyot maydonga kelishida ham asosiy o'rinni egallaydi. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: "Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyati ko'zgusi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak"[1.:116.] O'zligini anglagan har qanday xalq milliy ma'naviy sarchashmalarini ko'z qorachig'iday asraydi, uni keyingi avlodga meros qilib qoldiradi. O'zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sulton ijodida milliy ma'naviy merosimizni aks ettirish, folklor unsurlaridan foydalanish, folklor motivlari vositasida qiziqarli syujetlar tanlash adibning uslubiy o'ziga xosliklarini belgilaydi. Yozuvchi va adabiyotshunos Isajon Sulton ijodida ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan, necha zamonlar chig'irig'idan o'tgan, ko'pchilikning xotirasidan ko'tarilayotgan ko'plab betakror og'zaki ijod namunalarini ko'rishimiz mumkin.

Isajon Sulton hikoyalarining uslubi u qadar murakkab emas. Ifoda yo'sinida milliylik, an'anaviylik, tasvir aniqligi va metaforiklik, shuningdek, holat tasvirining birinchi planga chiqarilishi kabi jihatlar yaqqol sezilib turadi; ijodkor uslubining o'ziga xosligi oddiy, analitik va sintezlashgan folklorizmlardan foydalanishda, folklorizmlarning asar syujetida ochiq va yopiq holda qo'llashda, peyzajdan o'rinli foydalanishida ko'rinadi. Yozuvchi hikoyalarida folklor va mumtoz adabiyotga xos badiiy usullarning sintezini ko'rish mumkin. Ayniqsa, adibning "Yog'och kovush", "Shamolli kecha", "Manzil", "Bog'i Eram", "Otamga nimadir bo'ldi", "Avliyo", "Xazinabon" kabi hikoyalarida folklor stilizatsiyasi bo'rtib ko'rinadi. Folklor stilizatsiyasi jarayoni folklorning mifning zamonaviy voqelik tasviriga singdirilishida, zamon kishisi obrazini yaratilishida,

zamondoshlar obrazining tipiklashtirilishida qo'llanganligini kuzatamiz. Yuqorida nomi keltirilgan hikoyalarida sinov, safar, xatar, o'lim, tush, xotirlash, ziyorat, o'gay ona va o'gay bolalar kabi motivlar mavjud. "Xalq og'zaki ijodida safar motivi eng ko'p tarqalgan desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Chunki aksariyat sehrli ertak va doston qahramonlari turli maqsad (yoki sabab) bilan safarga o'tlanadilar: Alpomish Barchinni keltirish uchun, Kuntug'mish Holbekani izlab, kenja shahzoda Bulbuligo'yoni tutib kelmoq qasdidagi Husanboy Oyparidan tushining ta'birini so'ragani, Isajon Sultonning "Manzil" hikoyasida safar motivi yaqqol namoyon bo'ladi. "Manzil" hikoyasidagi qahramonlar: katta og'a, hikoya qiluvchi roviy, Muslim, Muhammad va Abdullalar uzoq manzilni ko'zlab yo'lga chiqishadi, maqsadlari o'zlariga tegishli xazinani topish. Manzil sari ketishar ekan, xuddi xalq ertak va dostonlaridagi kabi hikoya qahramonlari ham tog'lar, vohalar, sahrolarni bosib o'tishadi. Safarga chiqqan ko'plab hamrohlar Ko'hiqof tog'iga ham yetib kelishadi. Ko'pchiligi shu yerlarda qolib ketishadi. Hikoyaning asosiy qahramonlari besh og'a-inigina manzilga, Tilsim tog'iga, yetib borishadi. Hikoyada tog' kulti bilan bog'liq mifologik qarashlarning transformatsiyasi kuzatiladi. Xuddi folklor janrlaridagi kabi mazkur hikoyada ham tog' "inson oyog'i yetmaydigan, faqat tanlangan shaxslar yoki mifologik personajlar yordamida borish mumkin bo'lgan epik makon" sifatida talqin qilinadi. Hikoyada inson umrining qisqaligi, ushalmagan, bajarilmagan yumushlarning, g'oyalarning amaliy ifodasi avlodlar tomonidan bajarilishiga ramziy ishoralar beriladi. Chunki hikoya so'nggida faqat eng kichik uka Abdullagina ortga qaytadi. Hikoyada Polbos nomli jinning o'z sohibiga sodiq xizmat qilishi, sehrli qobiliyati va unga qahramonlarning duch kelishi qadimgi qarashlar asosida kelib chiqqan mifologik motivlarning ifodalanilishidir. Yozuvchi mifologik motiv aks etishida asar badiiy g'oyasini ochish, asar syujetini shakllantirishda ustalik bilan foydalangan. "Manzil" boshdan oyoq ramz asosiga qurilgan. Bunda safar go'yo inson umrining qanchalik murakkab ekanligiga urg'u beriladi. Go'yoki yo'lda uchragan gulzor-ucholarning uning shodlig-u g'amiga o'xshaydi. Manzil-orzulardan bino etilgan bino-sarob sifatida aks ettiriladi. Hikoyani o'qib bitirganimizdan so'ng o'zimizda

qolgan xulosani quyidagicha sharhlash mumkin: “Ey dil, o‘tayotgan har bir lahzadan o‘zligingga, o‘zligingdan esa har bir lahzangga nazar sol. Sen chir aylanib qidirayotganing, aytaylik, tilsim tog‘i, ajab emaski, shu oraliqdan topilsa!”. Voqealarni bu kabi xalqona ohangda, xalq uslubida xalqchil tasvirlay olish yozuvchining individual ijodiy uslubi sifatida shakllangan.

Bundan tashqari uning “Qismat” hikoyasida ham tush motivini uchratamiz. “Qismat” hikoyasida xalq og'zaki ijodiga aloqador bo‘lgan tush motivi, qadimgi mifologik motiv baliq obrazi, qarg'ish kabi folklorizmlarni ko‘rishimiz mumkun. “Qismat” hikoyasi o‘z epigrafi bilan ham diqqatni tortadi. Hikoyada "Otangga cho‘p otsang, kun o‘tib bir kun farzanding senga tosh otmog'i mumkin" degan hikmatli gap keltiradi. Epigrafdan ham ma'lumki asarda ota va bola munosabatlari yoritiladi va aynan voqealar tush motivi orqali ochib beriladi. Bu hikoyada qadimgi mifologik motiv – inson ruhining baliqqa aylanishi qahramonning ichki dunyosini ochib berishda asosiy vazifani bajargan. Otasi vafotidan keyin uning ruhi baliqqa aylanishi, baliqning qozonda jizillab qovrilishini qahramon do‘zax azobi sifatida qabul qiladi. Bu orqali u zulmkor otasini do‘zax olovida qovrilayotganini tasavvur qiladi. Ruhning baliq bo‘lib qozonda qovrilishi hikoya mazmunini kuchaytiradi. Hikoyada ona obrazining achchiq qismati, umr yo‘ldoshidan biror marta ham yaxshilik ko‘rmasada, undan ta'na-yu dashnomlar eshitsada, erini “rahmatiga olgan bo‘lsin” deb eslaydi. Bu orqali biz sharq ayolining eriga bo‘lgan sadoqatining go‘zal ifodasini ko‘rishimiz mumkin. Hikoyada adib asosiy e'tiborini insonning qilmishi tasviriga qaratgan. Haqiqatdan ham, biz hikoya oxirida otaga cho‘p otsang, kun o‘tib farzanding senga tosh otmog'i mumkin ekanligini bilib olishimiz mumkin.

Yozuvchinning “Avliyo”, “Otamga nimadir bo‘ldi”, “Turmush”, “Qismat” kabi bir qator hikoyalarida tush motivi yetakchilik qiladi. O‘zbek folklorida tush motivini alohida tadqiq qilgan olim Jabbor Eshonqul tushlarning asar strukturasi tutgan o‘rniga qarab ikki guruhga ajratadi: “1) syujet o‘zagini tashkil etuvchi namunalar; 2) syujetning ma’lum halqalarini bog‘lovchi namunalar”. Isajon Sulon hikoyalarida esa tush motivi syujetning ma’lum halqalarini bog‘lovchi vosita

sifatida keladi va, asosan, inson taqdiri hamda kelajagi to'g'risida sirli xabarlar haqidagi tasavvurlarni o'ziga xos ravishda badiiy ifoda etishga xizmat qiladi. Yozuvchining "Avliyo" hikoyasidagi tush motivi taqdirning amalga oshuvi insonning o'z xatti-harakatlari va intilishlariga bog'liq, degan qarashlarni ifodalash uchun qo'l kelgan. Yozuvchi tushga badiiy-estetik vazifa yuklagan. Hikoya qahramoni Abdulqodir bolalik chog'ida firdavs jannatini tush ko'radi, keyinchalik uch-to'rt marta bir xil tush ko'radi: "Har safar to'rt tarafi qorong'ilik bo'lgan tushunarsiz bir makon ichida, yashil nur og'ushida tovlanib ko'rinardi". Abdulqodirning avval jannatni, umr shomida do'zaxni ko'rishi – bu uning dunyoda o'tkazgan umrining natijasi, u qilgan amallarning samarasi. Inson ruhiyatida ongli hislardan ko'ra, anglanmagan hislar ko'lam jihatdan cheksizdir. "Avliyo" hikoyasidagi Abdulqodir qayta-qayta ko'rgan tush ham ongga qalqib chiqmagan hislar bo'lib, bu tushlar risoladagidek o'tmayotgan umrga ishora edi aslida. Hikoyada insonga bir marta beriladigan umr, u vaqti kelsa tugashi, hech narsani orqaga qaytarib bo'lmasligi, hammasi uchun hisob-kitob qilinishi ramzlar, majozlar, tabiat tasviri, xotiralar yordamida ochib berilgan. Hikoya syujetida tush motivi halqasining joylashuv o'zni voqea boshi va oxiriga to'g'ri keladi. Inson umrining ibtidosi va intihosidan darak beruvchi mazkur tushlar ayni chog'da uning umriga berilgan haqqoniy baho, deyish mumkin. Isajon Sulton o'z hikoyalarida qahramonning ichki kechinmalarini, xarakterini ochib berishda ajdodlarimiz tafakkurida mavjud bo'lgan mifologik tasavvurdan, xalqona tasvir usulidan keng foydalanadi. Yozuvchi hikoyalarida mif mohiyatan o'zining shaklan vazifasini kengaytirib, mifopoetik vazifani ado eta boshlaydi. Hikoya syujetida ikkilamchi mazmun doirasiga ko'chadi, ya'ni biror hodisaning mohiyatini teranlashtirish, qaysidir personaj xarakterini ochish, qaysidir badiiy niyatni amalga oshirishda vosita vazifasini o'taydi. Ijodkor jahon va o'zbek folklori asosidagi badiiy mifologizmlarning betakror namunalarini yaratdi. Yozuvchi hikoyalarida folklorga xos motiv va syujetlar stilizatsiyasi, mifologik obrazlar transformatsiyasi, diniy-e'tiqodiy qarashlarga asoslangan mifologizmlar yaqqol namoyon bo'lgan. Hikoyada folklor unsurlaridan foydalanish muallif

dunyoqarashi, estetik idealini gavdalantiruvchi vosita sifatida ko‘rinadi. Ayni paytda yozuvchining ijodiy individualligini ham belgilaydi.

Xulosa qilib aytganda, yozuvchining asosiy yutug‘i shundaki, qahramonlar ruhiy holatini tasvirlashda ortiqcha tafsilotlarga berilmaydi va voqealarni hayotiy tasvirlaydi. Hikoyada har bir detal, har bir so‘z asar g‘oyasini, mazmun-mohiyatini ochish uchun xizmat qiladi. Adib asar tafsilotlarini shundayligicha emas, badiiyat talablari doirasida tasvirlashga harakat qiladi. Badiiy asarning qiymatini belgilashda undagi har bir katta-kichik tasvirda yozuvchining dalillash mahorati ham juda muhim ahamiyat kasb etadi. Isajon Sulton hikoyadagi har bir detalga ijodiy yondashadi va sayqal beradi. Isajon Sulton o‘z asarlari orqali milliy o‘zlikni ifoda etish bilan birga, insonning tirikligi, hayoti va bu dunyoga kelishidan maqsad ne ekanligini anglash inson uchun g‘oyatda muhim vazifa ekanini uqtiradi. Aytish mumkinki, folklor unsurlari Isajon Sultonga o‘z yo‘li, uslubi, o‘zligi va o‘q ildizini topishga yordam bergan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Qurbonova F. Isajon Sulton hikoyalarida sharqona rivoyatlar talqini // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent: 2023. – №3. – 91-95 b.

2. Умуров Х. Адабиётшунослик назарияси. – Тошкент: Шарқ, 2002. – 236 б.

3. Qurbonova F.A. Isajon Sulton hikoyalarida folklor an‘analari // So‘z san‘ati xalqaro jurnali. – Toshkent: 2021.4 jild, 3- son. – 120-126 б.

4. Qurbonova F. “Asarlar zo‘rmi-zo‘rmasmi, deyaverib charchadik, adabiyot nima bo‘lsa ham yashamoqda”. Isajon Sulton // O‘zbekiston milliy axborot agentligi –UzA. Ilm-fan bo‘limi. – Toshkent: B.1-8.

5. Sarimsoqov B. "Badiiylik asoslari va mezonlari". Toshkent: Fan. 2004

6. Qurbonova F.A. Isajon Sulton hikoyalarida mifologik obrazlarning qo‘llanilishi // “Usmon Nosir adabiy merosi va uning ahamiyati” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.- Qo‘qon: 2022-yil, – B.183-189.

7. Qurbonova F.A. Isajon Sulton hikoyalarida mumtoz an'analar va folklor motivlari// "Izlanish samaralari" mavzusidagi yosh tilshunos va adabiyotshunoslarning xalqaro ilmiy amaliy anjumani. – Toshkent: 2021. –B. 204-208.

8. Isajon Sulton Avliyo/ Asarlar . Hikoyalar 1- jild – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2017. 186 b.

## **MIRZO KENJABEK IJODIDA INDIVIDUALLIK**

**Gulimova Rixsiya,**

*magistrant,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatida ijodiy individuallik va poetik ifoda masalalari Mirzo Kenjabek ijodi misolida tahlil etiladi. Shoirning asarlaridagi o'ziga xoslik, badiiy uslub va mavzular ko'lami o'rganilib, bugungi o'zbek adabiyotidagi o'rni va ahamiyati yoritiladi.

**Аннотация.** В данной статье на примере творчества Мирзо Кенджабека анализируются вопросы творческой индивидуальности и поэтического выражения в современной узбекской поэзии. Изучены своеобразие, художественный стиль и тематика произведений поэта, подчеркнуты их место и значение в современной узбекской литературе.

**Annotation.** In this article, the issues of creative individuality and poetic expression in modern Uzbek poetry are analyzed on the example of Mirzo Kenjabek's work. The originality, artistic style and range of themes in the poet's works are studied, and their place and importance in today's Uzbek literature is highlighted.

**Kalit so'zlar:** Mirzo Kenjabek, individuallik, uslub, an'ana, mahorat, poetik ifoda

**Ключевые слова:** Мирзо Кенджабек, индивидуальность, стиль, традиция, мастерство, поэтическое выражение.

**Key words:** Mirzo Kenjabek, individuality, style, tradition, skill, poetic expression

O‘zbek she‘riyati boy adabiy, tarixiy merosga ega bo‘lib, har bir davrda o‘ziga xos ijodiy yo‘nalishlar va uslublar bilan bardavom tarzda boyib kelgan. Bugungi kunda ham o‘zbek she‘riyati hamin qadar yangi avlod shoirlari tomonidan rivojlantirilmoqda. Ushbu maqolamizda esa serqirra ijodkor Mirzo Kenjabek ijodi misolida ijodiy individuallik tahlil etiladi.[1.:56.]

Mirzo Kenjabek zamonaviy o‘zbek she‘riyatining serqirra vakillaridan biri bo‘lib, uning asarlarida o‘ziga xos ijodiy individuallik yaqqol ko‘rinib turadi. Shoirning she‘rlarida milliy qadriyatlar, insoniy tuyg‘ular va zamonaviy muammolar o‘ziga xos uslubda ifoda etilganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Uning ijodida an‘anaviy va zamonaviy unsurlar uyg‘unlashib, o‘quvchiga chuqur ta‘sir ko‘rsatadi. Shoirning bir qancha she‘rlari qo‘shiq bo‘lib qulog‘imizga chalingan bo‘lsa ajabmas. Aynan shoir ijodidagi an‘anaviylik va zamonaviylik unsurlarining namoyon bo‘lishini “Atirgulim” she‘ri misolida ko‘rishimiz mumkin:

*Gullar oqshom chog‘ida*

*O‘yga tolar emishlar,*

*Quyosh botgan tarafga*

*Qarab qolar emishlar*

She‘rda adabiyotdagi eng qadimiy va an‘anaviy obrazlardan biri bo‘lgan gul haqida so‘z boradi. U bilan birgalikda esa Quyosh obrazini ham uchratamiz. She‘rning quyidagi misralarida esa barcha gullar ichidan alohida atirgulni ajratib ta‘rif etadi:

*Faqatgina atirgul,*

*Sog‘inch dog‘lab ko‘ksini,*

*Quyoshi ketgan yo‘ldan*

*Olmash emish ko‘zini.[3.:89]*

Gullar orasida faqatgina atirgul Quyosh ketgan joydan ko‘zini uzmasligini aytar ekan, atirgulning ko‘zini yo‘ldan uzmasligi bevosita jonlantirish san‘atining

chiroyli namunasi desak yanglishmagan bo‘lamiz. Bilamizki, bu yerda aynan atirgul besabab tanlangan emas. Atirgullar tabiatan chiroyli bo‘lishiga qaramay, ancha chidamli gul hisoblanadi. Kech kuzning izg‘irin sovug‘iga qadar gulini ochishni qo‘ymaydigan, sovuq tushib, qor yog‘ib g‘unchalari sovuqda qolishini bilsa ham Quyoshning salgina iliq nuridan o‘z hissasini olib qolishga, so‘nggi lahzaga qadar kurashuvchi bu gul she’rda sadoqat, vafo, sabr kabi tushunchalarning ramziy timsoli sifatida kelgan bo‘lishi mumkin.

Mirzo Kenjabekning poetik ifodasi boy va rang-barang bo‘lib, u turli badiiy vositalardan mohirona foydalanadi. Shoirning she’rlarida metafora, tashbeh, ramz va boshqa badiiy usullar orqali chuqur ma’nolar ifoda etiladi. Uning asarlarida tilning boyligi va ifoda imkoniyatlari keng qo‘llanilib, o‘quvchida estetik zavq uyg‘otadi. Shoirning asarlari o‘ziga xos badiiy uslub va chuqur mazmun bilan ajralib turadi. Mirzo Kenjabekning ko‘plab she’rlarida diniy va falsafiy mavzular yetakchi o‘rin tutadi. Masalan, “Ibodat” she’rida ibodatning turli ko‘rinishlari va uning inson hayotidagi ahamiyati haqida so‘z yuritiladi:

Ibodat ne? Yaratuvchiga itoat ham ibodatdir,

Haqiqiy bandalik bilan sadoqat ham ibodatdir.

Bu misralarda shoir ibodatning nafaqat diniy amallar, balki ilm olish, san’at bilan shug‘ullanish va halol mehnat qilish kabi faoliyatlarda ham namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi. Shoirning bunday yondashuvi ibodat tushunchasini kengroq talqin etishga undaydi.

Shoirning ijodida milliy va ma’naviy qadriyatlar alohida o‘rin tutadi. Uning “Vatan, ko‘zlardasen, qaroqlardasen” kabi she’rlarida Vatanga bo‘lgan muhabbat va sadoqat ifodalanadi. Bu asarlar orqali shoir o‘quvchilarni milliy qadriyatlarni qadrlashga va ularga sodiq bo‘lishga chorlaydi:

*Vatan, qalblardasen, qaroqlarda sen,*

*Qodiriylar bilan qamoqlardasen.*

*Vatan, dillardasen, iymonlardasen,*

*Shahidlar bilan maydonlardasen. [6.: 57.]*

Ushbu she’rda Vatanning inson hayotidagi ahamiyati, insonning Vatani qayerda bo’lishligi batafsil bayon etilgan. Vatanning shahid ketgan mard o’g’lonlari mana shu vatan uchun, uning porloq kelajagi uchun kurashganligini e’tirof etib etar ekan, aslida vatan har bir insonning qalbida, dilida va o’sha dilidagi iymonida bo’lishi aytiladi. Bu she’rda insoniy qadriyatlar bilan birga diniy-falsafiy tushunchalar ham uyg’un holda bir-biriga mujassamlashib ketgan. Umuman, shoirning deyarli barcha she’rlarida bu kabi tushunchalar bevosita o’ringa ega desak xato bo’lmaydi.

Shoirning ilmiy faoliyatiga, ijod to’lqinlariga nazar solar ekanmiz, uning tarjimonlik sohasidagi faoliyatini ham qisqacha eslab o’tish joizdir. Mirzo Kenjabek nafaqat shoir, balki mohir tarjimon sifatida ham tanilgan. U Aleksandr Pushkinning “Yevgeniy Onegin” asarini o’zbek tiliga tarjima qilib, o’zbek adabiyoti xazinasini yana bir durdona asar bilan boyitgan. Shuningdek, u fors-tojik mumtoz adabiyotining ko’plab asarlarini o’zbek tiliga o’g’irgan, bu esa o’zbek kitobxonlariga jahon adabiyoti durdonalarini o’z ona tilida o’qish imkonini bergan. Ayniqsa Farididdin Attorning “Tazkirat ul-avliyo” asarini mahorat bilan tilimizga o’g’irgan. Turkman adabiyotidan esa Maxtumqulining “Saylanma”sini, “Oshiqlar Haq ishqinda” nomli she’riy to’plamlarni ham ona tilimizga tarjima qilgan. [2.: 49.]

Umuman olib qaraganda Mirzo Kenjabek Alloh nazari tushgan bir inson. Shoirlik ham, olimlik ham unga Allohning go’zal inoyatidir. Ijodidagi rang-baranglik va sermazmunlik esa so’zimizning isbotidir. Xulosa qiladigan bo’lsak, Mirzo Kenjabek ijodi zamonaviy o’zbek she’riyatida ijodiy individuallik va poetik ifodaning yorqin namunasidir. Uning asarlari orqali o’zbek adabiyoti yangi mavzu va uslublar bilan boyib, o’quvchilarga estetik zavq va ma’naviy ozuqa beradi. Fikrlashiga, hayotga bo’lgan munosabatiga ta’sir o’tkazmay qolmaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Karimov A. Zamonaviy o’zbek she’riyati: yangi tendensiyalar. – Toshkent: Adabiyot, 2023.
2. Kenjabek M. Yoshlarga dil so’zlarim. – Toshkent: Adabiyot, 2022.

3. Kenjabek M. Munojot. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1986.
4. Saidov B. Mirzo Kenjabek: hayot va ijod. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2024.
5. Xudoyberdiyeva D. “O‘zbek she’riyatida ijodiy individuallik masalalari”. Adabiyotshunoslik jurnali, 5(3), 45-58, 2022.
6. <https://uz.wikipedia.org>

## **ASQAD MUXTOR IJODIDA BOG‘ TIMSOLI**

**Hayitbayeva Maftuna**

*magistrant,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Maqolada Asqad Muxtor she’rlarida tabiat tasviri, xususan, bog‘ bilan bog‘liq tasvirlarning ramz sifatidagi ahamiyati izohlab o‘tilgan. Shoir she’riyatidan olingan misollar yordamida fikrlar bildirilgan va izohlangan. Bog‘ timsolining she’r umumiy g‘oyasi va shoir fikrlarini ochib berishdagi ahamiyati o‘rganilgan.

**Аннотация.** В статье объясняется значение образа природы, особенно образов, связанных с садом, как символа в стихах Аскада Мухтара. Идеи выражаются и поясняются на примерах из поэзии поэта. Исследуется значение образа сада в раскрытии общей идеи стихотворения и мысли поэта.

**Abstract.** The article explains the meaning of the image of nature, especially images associated with the garden, as a symbol in the poems of Askad Mukhtar. Ideas are expressed and explained using examples from the poet's poetry. The significance of the image of the garden in revealing the general idea of the poem and the poet's thoughts is explored.

**Kalit so‘zlar:** lirika, peyzaj, timsol, ramz, g‘oya, ramziy ma’no, detal, mulohazakorlik, falsafiy lirika, she’riyat.

**Ключевые слова:** лирика, пейзаж, символ, символ, идея, символика, деталь, размышление, философская лирика, поэзия.

**Key words:** lyrics, landscape, symbol, symbol, idea, symbolism, detail, reflection, philosophical lyrics, poetry.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi, shoir, dramaturg, publitsist, tarjimon Asqad Muxtor o‘zining xilma-xil janrlardagi nasriy, lirik asarlari, jahon adabiyotidan tarjimalari bilan XX asr o‘zbek adabiyotining rivojiga salmoqli ulush qo‘shdi. Garchi yozuvchi sifatida tanilgan bo‘lsa-da, uning original lirikasi hali-hanuz o‘zining sehru jozibasini ko‘z-ko‘z etib kelmoqda. Shoir ijodining eng ko‘zga tashlangan xususiyatlaridan biri sifatida e’tirof etiladigan falsafiy intellektuallik uning har bir she’rida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Hayot falsafasini teran anglagan ijodkorning xulosalari quyma satrlarda ketma-ket kelar ekan, o‘quvchini o‘yga toldiradi, nafas rostlab, mulohaza qilishga, satrlar qatidagi fikrlarni anglashga undaydi.

She’rni shoir qalbining tarjimai holi deydilar. Bu tarjimai hol sanalar, raqamlar, fakt va ma’lumotlardan emas, qalbning tepinish va talpinishlaridan, iztirob-u quvonchlaridan, ayrilig‘u armonlaridan, undagi tuyg‘u-kechinmalarning parvozi va poetik mazmun kasb etishidan tarkib topadi. Asqad Muxtor qalbining tarjimasi o‘laroq paydo bo‘lgan she’rlar esa ramzlarga boyligi bilan ajralib turadi. Xususan, bizning diqqatimizni tortgan va tahlilga undagan jihat bu shoir ijodida nafaqat peyzaj lirikasi, balki bog‘ va uning tasviri bilan bog‘liq o‘rinlar juda ko‘pligi bo‘ldi. Ushbu maqolamizda ayni shu bog‘ timsolining qanday ramziy ma’nolarni o‘zida jamlaganini tahlil qilishni maqsad qildik.

Dilmurod Quronov va boshqa adabiyotshunoslar “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da peyzaj lirikasining mazmun mohiyati, maqsad vazifalari haqida: “Peyzaj lirikasida tasvirlangan tabiat manzarasida lirik subyekt qalbi suratlanadi. Lirik subyekt qalbidan o‘tkazib berilgan manzara oniy kayfiyatning obraziga aylanadi. Shu ma’noda peyzaj lirikasida tabiatni tasvirlash maqsad emas, balki bir vositadir... Ko‘p hollarda she’rda tasvirlangan manzara ramziy obrazga aylanadi. Va mavjudlikning mangu muammolari, ijtimoiy hayot, inson fe’l-atvori, hayotning mazmuni va shakllar mohiyatini obrazli tarzda ochib berishga qaratiladi”, -deb

ta'kidlasalar, Izzat Sulton: "Badiiy asardagi tabiat tasviri peyzaj (manzara) deb ataladi. Tabiat tasviri syujetning tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, asarning g'oyaviy-estetik quvvatini oshiradi", — deb yozadi. Mazkur fikrlar nasriy asarlarga nisbatan aytilgan bo'lsa-da, Asqad Muxtorning ijtimoiylikka asoslangan tabiat lirikasiga ham begona emas. Xususan, bog' va uning tasviri bilan bog'liq bir qancha o'rinlar borki, ulardan shoir o'z badiiy niyatini ochib berishdagi bir vosita sifatida foydalangan.

Asqad Muxtor ijodidagi bog' bilan bog'liq o'rinlarda bog' tushunchasi ham peyzaj vositasi sifatida, ham ramziy ma'noda qo'llanilgan. Dastlab diqqatimizni peyzaj elementi sifatidagi "bog'"ga qaratsak:

*Bizning bog'da oqshom paytlari,  
Yig'ib olganida kun shu'lasini,  
O'tlar orasida yashil chigirtka  
Boshlaydi tinimsiz ashulasini. [7.:15.]*

"Tun o'y surar" she'ridan olingan ushbu parchada ham bog' peyzajning bir qismi sifatida ishtirok etgan. Dunyo tuzilishida, inson hayotida har bir narsaning, tabiatning har parchasining alohida o'rni borligini tunlari chirillaydigan chigirtka misolida aytishni istagan shoir bog' elementini ham tasvirni boyitish maqsadida qistirib o'tgan. Sarlavha qo'yilmagan yana bir qisqa she'r:

*Bizning bog'da chiqsang oqshom sayriga,  
Yo oralab yursang sen ishkomlarni,  
Cho'chitmagil sevishtganlarni,  
Osmonlarda sezsis o'zni, mayliga.*

*Bu lahzalar bir umrga tatir,  
Bu lahzalar sinar yoshlik sabrini.  
Biz shularni ko'rib, bilamiz axir  
Tungi yulduzlarning qadrini. [7.: 16.]*

Ko'ringanidek, ushbu she'rda bog'— sevgan ko'ngillarning visll maskani, ularning baxtli onlariga guvoh bo'ladigan joy sifatida tasvirlangan.

Navbatdagi misolda ham **bog'**ning faqat bir detal o'rnida kelganini ko'ramiz, xolos:

*Bizning bog 'da shifobaxsh o 't bor,  
Xalq uning otini bargizo 'b demish.  
Chunki o 'sha o 'tni tunlari bedor  
Yulduzlar nur bilan sug 'orar emish. [7.:18.]*

Asqad Muxtorning boshqa ko'plab she'rlarida **bog'** dunyo ramzi sifatida istifoda etilgan. Xususan, «Olma to'kildi» she'rida bog'-dunyoga qiyoslanar ekan, undagi olma daraxtidan har bitta omonat turgan mevaning to'kilishi xuddi onalarning bitta farzandidan judo bo'lishiga qiyoslanadi:

*Meva to 'kiladi. Bog 'lar dimiqqan.  
Tunlari "top" etib olma tushadi.  
Tonggi o 'ylarimday tinib, tiniqqan  
Og 'ir sukunatning bag 'rin teshadi...  
... "Top-top" degan sari yo 'qotganday har gal  
Ona ayriladi bir farzandidan... [7.:16.]*

**Bog'ni** shoir hatto insonlar qalbiga ham mengzaganini ko'rishimiz mumkin. Shoirning «Shamol» she'rida ramzlar va ma'no zalvori ancha kuchli bo'lib, undagi shamol yengiltabiat insonlar ramzi bo'lib kelsa, bog'– insonlarning pok hislarga, umidlarga to'la qalbini o'zida mujassamlashtiradi:

*Tunlari intizor kutasan xabar,  
Eshik g 'irchillasa, uyqung qochadi.  
Bilmasmiding axir shu paytga qadar:  
Ba 'zida eshikni shamol ochadi.  
Bilmasmiding shamol yengil, daydi,  
Unga muhabbat ham, taqdir ham arzon.  
Bugun sochlaringni silab, erkalaydi,  
Ertaga bog 'larni etadi xazon. [7.:32.]*

Yoki yana bir she'rda shunday misralar bor:  
*Shabboda ovulni oralab o 'tdi,*

*So 'nggi rutubatni bog 'lardan quvlar.*

*Yana gurkiratar qalbdagi o 'tni*

*Oq yo 'l sizga, ey toshqin suvlar! [7.: 19.]*

Ushbu misralarda bahor kelishi bilan bo'lgan o'zgarishlar: shabbodaning bog' oralab yurishi, qishloqdan uzun qishdan qolgan rutubatni yuvishini, qalbdan g'amni ketkazib, qalb olovini gurilkatib yuborisha parallel qo'yadi. Shu o'rinda shoir rutubat so'zining shakldoshligidan juda o'rinli foydalanganini ko'ramiz: ya'ni bu so'zning namlik va g'am-musibat ma'nolari yordamida mumtoz she'riy san'atlardan biri – iyhom(shubhaga solish) paydo bo'lgan. Aniqroq aytadigan bo'lsak, bahor kelib, shabboda bog'lardagi qishning yomg'ir-qorlaridan qolgan namlikni yuvdimi yoki ko'ngillardagi g'amni ketkazdimi– o'quvchini o'ylantirib qo'yadi. Bu borada Asqad Muxtorning badiiy mahoratiga tan bermasdan ilojimiz yo'q.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, Asqad Muxtorning lirikasi chin ma'noda murakkab. Shoirning badiiy falsafasi sodda misralarga chuqur hayotiy to'xtamlarini jo qilishida yaqqol ko'rinadi. Xususan, biz tahlilga tortganimiz bog' bilan bog'liq o'rinlar ham shunchaki qo'llanmagan. Ba'zi o'rinlarda peyzaj bilan bog'liq element vazifasini bajarsa, ko'pincha biror ijtimoiy g'oya yoki shoirning badiiy maqsadini ro'yobga chiqarish yo'lidagi ramz bo'lib keladi. Bunday o'rinlarni faqat bog' tasvirida emas, balki boshqa har qanday she'ridagi timsollarda ham ko'rishimiz mumkin. Demak, Asqad Muxtor faqat mohir nosirgina bo'lib qolmay, lirikaning katta namoyondasi sifatida ham e'tirof etilishga loyiq shoir hamdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. N. Rahimjonov. Asqad Muxtor poetikasi. –Toshkent: "G'afur G'ulom", 2003.
2. Saylanma. Turkiy adabiyot durdonalari: Asqad Muxtor, 21-jild. – Toshkent: "O'zbekiston", 2022.
3. Dilmurod Qur'onov. Mamajonov M., Sheralieva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. T. Akademnashr. 2013. – 222 b.

4. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. T. O'qituvchi. 2005. – 116 b.
5. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.
6. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: "O'qituvchi", 1980.
7. Asqad Muxtor. Sizga aytar so'zim. – Toshkent: "G'afur G'ulom", 1978.

## MAXTUMQULI IJODIDA FOLKLOR STILIZATSIYASI

**Ishmuratova Muhayyo,**

*magistrant,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Maxtumquli ijodida xalq og'zaki ijodining ta'siri va uning badiiy stilizatsiya uslublari tahlil qilinadi. Shoirning asarlarida xalq qo'shiqlari, dostonlar va maqollar bilan bog'liq obrazlar, iboralar va poetik uslublarning qanday aks etgani ilmiy-nazariy asosda yoritiladi.

**Аннотация.** В данной статье анализируется влияние фольклора и методов его художественной стилизации в творчестве Махтумкули. В произведениях поэта на научной и теоретической основе отражены образы, фразы и поэтические стили, относящиеся к народным песням, былинам и пословицам.

**Abstract.** This article analyzes the influence of folk oral literature and its artistic stylization methods on Makhtumkuli's work. It sheds light on the scientific and theoretical basis on how the poet's works reflect images, expressions, and poetic styles associated with folk songs, epics, and proverbs.

**Kalit so'zlar:** xalq og'zaki ijodi, turkman adabiyoti, folklor stilizatsiyasi, an'anaviy she'riyat .

**Ключевые слова:** устное народное творчество, туркменская литература, фольклорная стилизация, традиционная поэзия.

**Keywords:** folk oral literature, Turkmen literature, folklore stylization, traditional poetry.

Maxtumquli – XVIII asr turkman adabiyotining eng yirik vakillaridan biri bo'lib, uning ijodi xalq og'zaki ijodi bilan bevosita bog'liq. Uning she'rlarida xalq

qo‘shiqlari, maqollar, rivoyatlar va dostonlardan foydalanish, ulardan ijodiy stilizatsiya qilish jarayoni o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Shoir o‘z asarlarida xalqona iboralar va turlik janrlardan unumli foydalangan. Maxtumquli Firog‘iy turkman adabiyotining ulkan namoyandasi bo‘lib, uning ijodida xalq og‘zaki ijodi an‘analari muhim o‘rin tutadi. Shoir o‘z asarlarida turkman xalqining urf-odatlarini, afsona va rivoyatlarini badiiy uslubda qayta ishlagan holda, ularni yangi mazmun va shaklda taqdim etgan. XVIII asr oxiri, XIX asr boshlarida yashab ijod etgan turkman shoirlari Saidiy, Kotibiy, Miskin Qilich va Zeliliy Maxtumquli ijodining davomchilari sanalishadi.

Turkman mumtoz shoirlarining yana bir namoyandasi Mullo Napasdir. Adabiyot tarixida Mullo Napas o‘zining bizgacha yetib kelgan ikkita mazmundor dostoni – “Gelmisham” va “Zo‘hro va Tohir” dostonlari bilan mashhur.

Qardosh o‘zbek, tojik va qirg‘iz adabiyotlarida bo‘lgani kabi, turkman adabiyoti taraqqiyotining birinchi davrida ham (1905–1929) poeziya yetakchi janr bo‘lib qoldi. Bu vaqtlarda xalq shoiri Ko‘rmulloning “Bolshevik” dostoni, Durdi Qilichning “Zolimlar”, “Kambag‘allar”, Mullo Murtning “Turkmaniston uchun azizsan”, “Ozodlik” singari she‘riy asarlari davrning dolzarb masalalariga bag‘ishlangan edi.

G‘ayratiy ta‘biri bilan muxtasar aytganda, o‘zbek – turkman xalqlarining do‘stlik va qardoshlik tarixi Amuday uzun. Bu qardoshlik ularning adabiyoti va og‘zaki ijodiyotida ham chuqur iz qoldirgan. Go‘ro‘g‘li bir qancha turkman xalq eposlarining bosh qahramoni bo‘lganiday, qirqdan ortiq o‘zbek xalq dostonlari ham uning mardlik, oliyjanoblik xislatlarini tasvirlashga bag‘ishlangan. Tohir va Zuhra, Oshiq va G‘arib singari pok sevgi timsollari har ikki xalqda ham zo‘r muhabbat va samimiyat bilan ulug‘lanadi. Zero, o‘zbek va turkmanning tili, urf-odatlarini, madaniyati uyg‘un, adabiyoti va san‘ati umumiydir. Maxtumqulining she‘rlari xalqona ruhda bo‘lib, unda xalq maqollari, matallar va iboralari keng qo‘llanilgan. Bu usul shoirning asarlariga samimiylik va ta‘sirchanlik bag‘ishlab, o‘quvchiga yaqinlashtiradi.[3.: 63.] Masalan, uning she‘rlarida xalq og‘zaki ijodiga xos bo‘lgan obrazlar va timsollar orqali insoniy fazilatlar, axloqiy

qadriyatlar tarannum etiladi. Shoirning ijodida folklor stilizatsiyasi, ya'ni xalq og'zaki ijodi unsurlarini badiiy asarlarga moslashtirish orqali yangi mazmun yaratish jarayoni yaqqol namoyon bo'ladi. Bu usul orqali Maxtumulini xalqning boy madaniy merosini saqlab qolish va kelajak avlodlarga yetkazishga intilgan.

Maxtumulining asarlari turkman xalqining tarixi, madaniyati va an'analarini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Uning ijodi orqali xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni kuzatish mumkin. Tadqiqotchilar Maxtumulining poetikasini xalq ruhiga yaqinligi, murakkab badiiy tasvir usullaridan foydalangani bilan alohida ajratib ko'rsatishadi. Xalq og'zaki ijodi barcha turkiy xalqlar adabiyotida muhim o'rin tutadi. Turkman xalqi orasida dostonchilik, qo'shiqlar va maqollar keng tarqalgan bo'lib, bu an'ana Maxtumulini ijodida ham o'z aksini topgan. Shoirning ko'plab she'rlarida xalqona iboralar, hikmatli so'zlar va ritmik tuzilish folklor an'analariga mos keladi. Uning she'riyati xalq qo'shiqlari kabi kuy bilan aytilishga mos kelgani bilan ham ajralib turadi. Adabiyotshunos A. Bekmurodovning fikriga ko'ra, Maxtumulini she'rlarida xalq ijodining nafaqat syujet jihatidan, balki poetik tuzilma va ifoda vositalari jihatidan ham aks etishi uning ijodini o'ziga xos tarzda xalqchil qiladi. [1.: 93.]

Folklor stilizatsiyasi shoir tomonidan xalq og'zaki ijodi elementlarini ongli ravishda qayta yaratish va adabiy asarga singdirish jarayonidir. Maxtumulining she'riyati turli maqollar va hikmatli so'zlarga boy. Masalan "Dunyo bir ko'prikdir, o'tar insonlar". Ushbu ibora xalq falsafasi bilan hamohang bo'lib, dunyo va hayot haqidagi xalqona qarashlarning aksidir. Shoir o'z she'rlarida xalq dostonlaridan syujet va obrazlarni olib, ularni yangicha talqin qiladi. Masalan, uning she'rlarida turkiy dostonlardagi qahramonlar obrazlari kuzatiladi. Maxtumulini she'rlarining badiiy ohanglari xalq qo'shiqlari bilan mushtarakdir. Ularning oson yodda qolishi va kuyga mos kelishi ham aynan shu bilan bog'liq. Maxtumulining she'riyati ko'p jihatdan xalq ruhiyatini aks ettirgani bilan e'tiborlidir. Uning qator asarlarida xalq og'zaki ijodidagi ma'naviy va estetik qadriyatlar ifodalangan. Masalan, quyidagi misralar badiiy xalqona uslub bilan ajralib turadi:

"Men pirimdan oldim peshonam chizig',"

“G‘am yuki ustimdan bosib turadi”.

Bu misralar nafaqat xalqona obrazlar, balki xalq qo‘shiqlariga xos melodik tuzilishga ega bo‘lib, she‘rning kuy bilan aytilishiga mos kelishini ko‘rsatadi. [2.:123.]

Xulosa qilib aytganda, Maxtumquli ijodida folklor stilizatsiyasi muhim badiiy unsur bo‘lib, u xalq og‘zaki ijodi bilan adabiy ijodning uyg‘unlashuvi natijasida shakllangan. Shoir xalq dostonlari, maqollar, hikmatli so‘zlar va xalq qo‘shiqlari uslubidan ijodiy foydalangan holda, ularni o‘ziga xos adabiy uslubga aylantirgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Bekmurodov A. Turkman adabiyoti va xalq ijodi. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2001.
2. Qayumov A. Maxtumquli she‘riyati va an‘anaviylik. – Toshkent: O‘zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1983.
3. Muhammedov A., O‘rozov S. Turkman xalq og‘zaki ijodi va Maxtumquli poetikasi. – Ashxobod: Turkman davlat nashriyoti, 2010.
4. Ismoilov Sh. Sharq she‘riyati va folklor poetikasi. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2017.

#### **ALISHER NAVOIY G‘AZALLARIDA PEYZAJ**

**Karimova Dilnoza,**

*magistrant,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada So‘z mulkinging sultoni Mir Alisher Navoiy g‘azallarida peyzaj, ya‘ni tabiat tasviri qaysi o‘rinda qo‘llanilganligi tahlil qilingan. Bundan tashqari peyzajning mohiyati, she‘riy san‘atlar qaysi o‘rinlarda keltirilganligi ochib berilgan.

**Аннотация.** В данной статье в газелях султана Соза Мир Алишера Навои анализируется пейзаж, то есть образ природы. Кроме того,

раскрывается характер ландшафта и места, где представлено поэтическое искусство.

**Annotation.** In this article, it is analyzed where landscape, i.e., the image of nature is used in the ghazals of Mir Alisher Navoi.

Аннотация: В данной статье анализируется, где пейзаж, то есть образ природы, используется в газелях Мир Алишера Навои.

**Kalit so‘zlar:** lirika, peyzaj, g‘azal, ishq, tong, quyosh, fano, yulduz, tashxis.

**Ключевые слова:** лирика, пейзаж, газель, любовь, утро, солнце, смерть, звезда, диагноз.

**Key words:** lyrics, landscape, ghazal, love, morning, sun, death, star, diagnosis.

Alisher Navoiy jahon adabiyotining eng buyuk namoyandalaridan biridir. Navoiy yaratib qoldirgan boy adabiy merosning katta qismini lirika tashkil etadi. Hassos shoir insonning murakkab his-tuyg‘usi va ruhiy kechinmalarini, uning fikr-o‘yi va orzu-intilishlarini, hayot va tabiat lavhalarini g‘oyat yuksak san’atkorlik bilan badiiy mujassamlantirdi. “Xazoyin ul maoniy” kulliyoti Navoiy bog‘idan bir guldastadir. N.Mallayev tahriri ostida 1992-yil “O‘qituvchi” nashriyoti tomonidan chop etilgan mazkur kulliyotda 60 ta g‘azal, 1 ta muxammas, 27 ta qit‘a, 7 ta ruboiy, 10 ta tuyuq, 2 ta fard va 1ta muammo berilgan. Unda insoniy ishq 11 ta, zohidona ishq 29 ta, orifona ishq 21 nafar g‘azalni tashkil etadi. Ushbu guldastadagi lirik poeziya qahramoni shoirning o‘zi bo‘lib, izlanishlarimiz ayni to‘plamdagi g‘azallar yuzasidandir.

Badiiy asarlarda berilgan tabiat manzaralari tasviri ijodkor badiiy mahoratini namoyon etadigan omillardan biri sanaladi. Chunki tabiat manzaralari tasvirida ijodkorning o‘zi qalamga olayotgan makonga munosabati, u joyni qanchalik bilishi, qahramonlari dunyosi va ular yashayotgan muhitni nechog‘lik chuqur his qilishi bilinadi. Shu bois tabiat manzaralari tasviri badiiy asarning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tabiat tasviri ijodkor badiiy mahoratini namoyon etuvchi muhim omillardan sanaladi. Chunki manzaralar tasvirida ijodkorning so‘z qo‘llash mahorati, qalamga olingan makonga munosabati yuzaga chiqadi. Badiiy asarlarda tabiat tasvirlari ijodkorning badiiy mahoratini, uning ijtimoiy falsafiy qarashlarini ko‘rsatib beradi.

Tabiat manzaralari ko‘rinishi kitobxonlarning qahramonlar характери, holatini his qilishga imkon berishi jihatidan ham juda muhim ahamiyat kasb etadi. Qahramonlar yashaydigan joy ham ularning hayoti haqida aniq tasavvurlar uyg‘ota oladi. Peyzaj yaratish yozuvchidan mahorat talab qilganidek, uning tarjimai ham tarjimondan alohida yondashishni talab qiladi.

Alisher Navoiy o‘z asarlarida doimo insonni eng aziz zot sifatida tasvirlab kelgan. Shuningdek, atrofimizni o‘rab turgan, unga xizmat qilayotgan tabiat tasviriga ham alohida e‘tibor bilan qaraydi. Peyzaj badiiy asar shaklining tarkibiy qismi bo‘lib, u g‘oyaviy maqsadni ifodalashda u bilan uyg‘unlashadi. Alisher Navoiy asarlarida tabiat tasviri rang-barangdir. Shoir asarlarida kishi hissiyotining turli holatlari tabiat hodisalariga qiyoslangan holda yoritiladi.

Ey Navoiy, ul quyoshning mujdai vaslin berib,

Qilsa netkay shomi hashrim mehnatni ko‘toh subh.

G‘azalniig boshidan boshlab davom etib kelgan shom — tong badiiy zidlanishi maqta‘ga kelib yakunlanayapti. Subhdan keyin quyosh chiqishi va tunning chekinishi muqarrar. Lekin Alisher Navoiy nazarda tutgan tong ilohiy tajalli safosi bo‘lganligi sababli quyosh ham piri murshid qalbi yoki Mutlaq ruhning manbai timsolidir. Tong esa shu manba’ – nur chashmasining darakchisi. Oshiq yo‘lovchi hijron tuni, ya‘ni dunyoviy talablar, ilohiyotdan uzoqlashtiruvchi ishlar-zulmlar zulumoti qiynog‘idan keyin nihoyat vasl shodmonligi imkonini topadi, ko‘ngil darichasi yor jamoliga qarab ochila boshlaydi. Maqta‘ning zohiri ma‘nosi: “Ey Navoiy, ul quyosh, ya‘ni yor vaslining daragini yetkazib, hijron shomi azobini (mehnat — azob degani) qisqartirsa koshkiydi”. Baytning orifona botiniy ma‘nosi esa bunday: “Ey Navoiy, vahdat nuri jilvasi — tong Zoti mutlaq (yoki komil inson qalbi) manbaiga yetishish xushxabarini yetkazib, iloh yodidan

begonalashuv qiynog‘i, kasrat zulumoti ichra chekayotgan ruhiy iztirobu azoblarimni qisqartirsa nima bo‘lar ekan”. Mazkur g‘azalda Navoiy ilohiy ishq kechinmalarini real insoniy kechinmalar tarzida ana shunday tasviru talqin etadi. Zotan, oriflarning tariqat darajalarini egallash yo‘lidagi intilish — yonishlari nega real bo‘lmasin, axir bu oddiy odamlarning emas, o‘zlarini ruhan tayyorlagan, juda katta vazifani bo‘yinga olib, faqat ma’naviy ma’rifat sari o‘tli shavq bilan intilish odamlarning har qanday dunyoviy tushunchadan xoli pokiza ishq. Shuning uchun ularning qalb kechinmalari yuksak va oliyanobdir. Shu shavq va intilishni tor ma’noda tushunmasligimiz kerak. Bu Navoiy kabi buyuk insonlarning dunyo va iloh orasida, dunyoni sevish va dunyo kishilaridan zadalik, dunyo ishlaridan ko‘ngil uzolmaslik va dunyoda bo‘lmagan idealga boglanish, uni sevish hislari orasidagi talpinish-izlanishlari, ruhiy sargardonlik va qiynoqlarning ramziy she’riy izhoridir.

Alisher Navoiyning ulug‘vorligi shundaki, unda zohiriy va botiniy ma’nolar, ya’ni ishq ilohiy va ishq ma’juziy ifodalari bir-biriga xalaqit bermaydi, balki bir-birini to‘ldirib, quvvatlab turadi. Boshqacha aytganda, ishq haqiqiy tasviridan ishq majuziy tasviriga yoki aksincha holatga oson o‘tiladi, kitobxon goh bu ma’nodan, goh u ma’nodan, goh har ikkisidan zavqlana oladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tahlil doirasiga tortilgan baytlar jonlantirish — tashxis san’atlari orqali yaratilgan peyzajning go‘zal namunalaridir. Bu baytlar g‘azalda o‘ziga xos lirik voqeabandlikni tashkil etgan. G‘azallar ulkan badiiy mahorat mahsuli sifatida Navoiy ijodida, umuman, o‘zbek g‘azaliyotida muhim o‘rin tutadi va hamisha ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatini saqlab qoladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. I.Haqqul Navoiyga qaytish. 2-kitob. – Toshkent, 2011
2. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy. Manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. – T: Akademiya nashri, 2011
3. Komilov N. Ma’nolar olamiga safar. – T: Tamaddun, 2016
4. Alisher Navoiy: qomusiy lug‘at . 1-2-jildlar./ Ma’sul muharrir Sh.Sirojiddinov. – T.: Sharq, 2016

## SHOIRA SHAMS LIRIKASIDA QO‘LLANILGAN BADIY SAN’ATLAR

**Komiljonova Moxidil Oybek qizi,**

*magistrant,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek she‘riyatining iste‘dodli vakili Shoira Shams lirikasida badiiy san‘atlarning o‘rni mavzusi yoritilgan.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается тема художественного в стихах Шоиры Шамс талантливой представительницы современной узбекской литературы.

**Annotation:** This article discusses the artistic techniques used in the poems of the talented representative of modern Uzbek poetry, Shoira Shams.

**Kalit so‘zlar:** badiiy san‘atlar, mubolag‘a, tashbeh, talmeh, husni ta‘lil, tajnis, tazod, laff va nashr.

**Ключивые слова:** художественное искусство, преувеличение,

Тальмих, ташбих, хусни талиль, тажнись, тазод, лафф и наshr.

**Keywords:** artistic arts, an exaggeration, talmeh, tashbeh, husni ta‘lil, tajnis, tazod, laff and nashr.

Mustaqillik davri o‘zbek she‘riyati janrlar xilma xilligi, vazn erkinligi, mavzu xilma-xilligi, tilining zamonaviyligi jihatidan boshqa davr she‘riyatidan tubdan farq qiladi. Lirikada munosib ijod qilayotgan, kitobxonlar qalbidan joy olgan shoir va shoirlar talaygina. Ular orasida ming yillik tarixga ega mumtoz adabiyotimiz an‘analarini davom ettirib, bu an‘analarga zamonaviylik baxsh eta olgan Shoira Shams ijodi alohida e‘tiborga loyiq. Uning she‘rlari sodda, lekin kuchli til bilan bitilgan. Shu boisdan shoira lirikasi kitobxonlar uchun tushunarli va yaqindir. Shoira lirikasida ishq-muhabbat, tabiat tasviri, ijtimoiy mavzular betakror va nafis o‘xshatishlar bilan qalamga olingan. U yoki bu ijodkor salohiyati haqida so‘z borganda, uning nimalarni tasvirlagani emas asosan, qanday tasvirlaganiga e‘tibor qaratilgan.[1.: 4.] Ming yillik tarixga ega bo‘lgan adabiyotimizda badiiyat masalasi oldingi o‘rinda turadi. Shu jihatdan Shoira Shams lirikasida qo‘llanilgan badiiy san‘atlar ijodkor salohiyatini ochib berishga, bayt yoki misralarda

ifodalangan g‘oyaning ta’sirchanligini, yorqinligini anglashga ko‘mak-lashuvchi asosiy unsur hisoblanadi. Shoira Shamsning aruz vaznidagi she’rlarida mumtoz adabiyotga xos ramziy-majoziy obrazlar, tasavvufiy ishq ohanglari, o‘ziga xos tilidan mohirona foydalansa, barmoq vaznidagi she’rlarida ham soddalik, o‘ziga xos tasvir, ichki kechinmalar va sof insoniy tuyg‘ular, manzaralar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shu tariqa shoira har ikkala vaznga murojaat etib, o‘z qobiliyat va iqtidorini namoyish eta olgan.

Shoira o‘zbek mumtoz adabiyotining an’anaviy vazni bo‘lmish aruz vaznida bir necha janrlarda ijod qilib, vazn talablaridan chetga chiqmagan holda o‘zining sodda va ta’sirchan lirikasi bilan zamonamiz she’riyatiga o‘zining munosib hissasini qo‘shmoqda. Ma’lumki, g‘azal janri mumtoz adabiyotda eng keng tarqalgan bo‘lib, ishq va muhabbatni kuylash, izhor etish maqsadida yaratilgan. Keyinchalik janr takomillashib ijtimoiy mavzularni ham o‘z ichiga ola boshlagan. Shoira Shams ijodida ham g‘azal janri ishq va muhabbat, insoniy kechinmalarni ifodalashda asosiy vosita bo‘lib xizmat qilgan. Shoira g‘azallarida har bir mavzu janr talablariga muvofiq vazn tartibi, qofiyalanish tartibi va qurilishi, matla’ va maqta’ning o‘z o‘rnida kelgani, qolgan baytlarda mavzu ketma-ketligi jihatdan mohirona qalamga olingan. G‘azallarda badiiy tasviriy vositalardan ham unumli foydalangan. She’riy san’atlardan qanchalik mohirona foydalanganligi haqida so‘z yuritilganda ta’kidlash joizki, ular ifodalanayotgan fikr ta’sirchanligini va jozibadorligini, hayotiyeligini ta’minlagan.

Tashbeh – Sharq she’riyatida eng ko‘p uchraydigan she’riy san’at bo‘lib, o‘xshatish degan ma’noni anglatadi. Bunda ijodkor tasvirlamoqchi bo‘lgan shaxs yoki narsani mavjud bo‘lgan narsa yoki mavhum tushunchaga o‘xshatadi. Shoiraning “Bizga ham” radifli g‘azalida tashbeh san’atining go‘zal namunalariga guvoh bo‘lamiz :

Tun yorib ul xurshidi raxshon ko‘rinsun bizga ham,  
Yuz ochib bir g‘unchai handon ko‘rinsun bizga ham.  
Vasfida nolon o‘lubmiz kechalar ko‘z yummayin,  
Yoshimiz artib sahar cho‘lpon ko‘rinsun bizga ham.

Bayt an'anaviy ishq muhabbat mavzusida yor vasfi, uning ishqida ozor chekkan ma'shuqa holati tasviriga bag'ishlangan. Bunda yor xurshidi raxshon ya'ni porloq, nurli ma'nosida, g'unchai handon ya'ni kulib turuvchi ma'nosida, cho'lpon ya'ni yorug' yulduz ma'nosida madh etishda shunday o'xshatishlardan foydalangan.

Mubolag'a – kattalashtirish, kuchaytirish demakdir. Bunda ma'lum bir holat yoki harakat bo'rttirib, kuchaytirib tasvirlanadi. Misol uchun:

Mani ishqing bila ovvora qilding

Ko'zim yoshini ham favvora qilding

misralarida yor ishqida kuygan oshiq ma'shuqaga murojaat qilmoqda, uning muhabbat ko'yida to'kkan yoshlari favvoraga qiyoslanmoqda. Mubolag'aning bu turi ig'roq deb atalib, ishonish mumkin bo'lsa ham hayotda yuz berishi mumkin bo'lmagan mubo-lag'adir.

Talmeh – nazar solmoq degan ma'noni bildirib, she'rdan mashhur tarixiy voqealar, joy nomlari, adabiy asarlar yoxud ularning qahramonlari nomlariga ishora qilish deganidir. Yuqoridagi g'azalning keyingi:

Hajrini kam chekmadik necha Zulayho ishqidan,

Ul Yusuf qilsun imo, imkon ko'rinsun bizga ham

baytida ham talmeh san'atidan foydalanilgan. Ya'ni Zulayho, Yusuf kabi tarixiy shaxslar, qissa va rivoyat qahramonlari nomlarini keltirish orqali fikr yuzaga chiqadi. Bunga quyidagi bayt ham misol bo'la oladi:

Sen- Rabg'uziy, sen- Yugnakiy, sen- Yassaviy,

Xoqoniyam, ham Koshg'arim- turkiy tilim

Bu baytda Rabg'uziy, Yugnakiy, Yassaviy kabi turkiy tilda yozilgan asarlari turkiy tillar va adabiyotshunoslik fanlari, bir qancha ijtimoiy fanlar rivojiga katta hissa qo'shgan ulug' siymolar va Xoqoniya, Koshg'ar kabi joy nomlari talmeh san'atidan o'rinli foydalanilganligining dalilidir.

Husni ta'lil – chiroyli dalillash deganidir. Bunda biror tasvirlanayotgan hodisaga shoirona biron sabab ko'rsatish san'ati shu nom bilan ataladi. Shoironing "Payvand" radifli g'azalidagi ushbu bayt bu she'riy san'at mavjud:

Yanog‘ing rangidin rang oldi ra‘no,  
Qiyosi sen mahi tobong‘a payvand

Bayt ishqiy mavzuda yor tasvirini ifodalab, baytning birinchi misrasida hatto ra‘no guli ham yorning ya‘nog‘ining qizilligidan rang olgani ifodalangan. Ko‘rinib turibdiki, bu xil ta‘lil fikrning kuchaytirilishiga xizmat qilgan.

Laff va nashr –yig‘ish va yoyish ma‘nosini anglatuvchi she‘riy san‘at bayt yoki misrada bir necha narsa yoki tushuncha nomini keltirib, so‘ng ularga hukm kelti-rishdir. Bundan maqsad tushunchalar tasvirini kuchaytirib, bo‘rttirib tasvirlashdir:

Tishing durru, labing kulguchi firuz,  
Bo‘libtur g‘unchai handing‘a payvand

baytda ma‘shuqaning tishi durga, kulib turgan lablar firuzga qiyoslanmoqda.

Shoiraning bir necha janrlarda barakali ijod qilib, ularda ham she‘riy san‘atlar betakror misralar orqali qo‘llanilganini ko‘ramiz.

Dildan ishqin izlar erdim, bo‘sh edi  
Balki bizning rishta tori bo‘sh edi.  
Qalbi toshga bilmam aylandi qachon,  
Bir zamonlar yor ko‘ngli bo‘sh edi.

Tuyuq janrida yaratilgan bu misralarda tajnis san‘ati namunalari mavjud. Tajnis –she‘riy san‘ati jinsdosh, shakldosh so‘zlarni turli ma‘nolarda qo‘llashdir. Jumladan, birinchi misradagi bo‘sh edi so‘zi topolmadim ma‘nosida; ikkinchi misradagi bo‘sh edi so‘zi mustahkam emas edi ma‘nosida; oxirgi misradagi bo‘sh edi so‘zi qalbi yumshoq, mehribon ma‘nosida kelgan. Yana quyidagi baytda ham tajnis she‘riy san‘atini qo‘llash orqali yaratilgan go‘zal tasvir uslubining guvohi bo‘lamiz:

Shoira, ul yor uchun ko‘ksungni yor,  
Ishq aro pargola dilga zor sho‘x

Baytdagi birinchi yor so‘zi ma‘shuqani, ikkinchi yor so‘zi esa tilmoq, kesmoq ma‘nolarini ifodalagan.

Ruboiy janrida yozilgan quyidagi misralarda esa tazod she'riy san'atining go'zal namunasini uchratishimiz mumkin:

Bir telba qalam birla bayon tuzgayman,  
Har baytini yuz bora qurib buzgayman.  
Ne faslki, tobora sovub borgay dil,  
Ol bag'ringa otashgahida qizgayman.

Tazod–she'riy san'ati bir- biriga zid ya'ni qarama- qarshi ma'noli so'zlarni qo'llash deganidir. Bunda qurmoq va buzmoq so'zlar, sovimoq va qizmoq so'zlari qarama -qarshi ma'noda qo'llanilgan.

Shoira Shams ijodi mazmunan chuqur va takrorlanmas, shaklan mukammal namunalar bilan to'lib toshgan. Bu kabi serjilo lirikasi bilan Shoira Shams zamonaviy o'zbek she'riyatida mumtoz adabiyotimiz an'alariga sodiq va uning munosib davomchisi hamdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – Toshkent: “Sharq”, 1999.
2. Shoira Shams. Samandar. –Urganch: Quvanchbek – Mashhura, 2019.
3. t.me/Shoira\_ Shams\_ijodi

## **ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA DAVR MUAMMOLARI**

**Khajiboyeva Farida**

*magistrant,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning “Anor” va “O'g'ri” hikoyalari tahlil qilinib, ularda yoritilgan davr muammolari obrazlar va hikoyalardagi sujetlar asosida tahlil qilinadi.

**Annotation.** In this article the stories “Anor” and “O'g'ri” by Abdulla Qahhor are analyzed and the problems of the period covered in them are analyzed on the basis of images and plots.

**Аннотация.** В данной статье анализируются рассказы Абдуллы Каххора “Anor” и “O‘g‘ri”, а также на основе образов и сюжетов рассказов анализируются проблемы освещаемого в них периода.

**Kalit so‘zlar:** hikoya, o‘g‘ri, davr, muammo, obraz, sujet, mahorat.

**Keywords:** story, pomegranate, era, problem, image, subject, skill.

**Ключевые слова:** история, вор, эпоха, проблема, образ, предмет, мастерство.

Abulla Qahhor – kamdan kam yozuvchiga nasib bo‘ladigan baxt sohibi. U allaqachonlar xalq qalbining to‘ridan joy olgan. Adabiyot nima? Uning mohiyati qanday? Yozuvchi nega yozadi? Yozuvchi kim uchun yozadi? Har bir iste’dodli yozuvchi adabiyot dargohiga qadam qo‘yishi bilan ana shunday savollarga duch keladi. Ijodkor shu savollarga javob topmay turib, bir qadam ham oldinga siljiy olmaydi, samarali ijod qilolmaydi. K.Fedin aytganidek, bular adabiyotning “mangu” muammolaridir.[1.: 76.] Bu savollarni yozuvchi o‘ziga o‘zi bermaydi, unga butun adabiyot, jamiyki o‘quvchilar beradi. Bu mangu muammolarning ikki xil mangu javobi bor: adabiyot jamiyatga xizmat qilishi kerak, yoxud adabiyot o‘z-o‘zi uchun xizmat qiladi. “Adabiyot – hayotning muhim bir parchasi”, – derdi. Xususan, hayotning muqaddas parchasidir. Qalbakilik, nopokliklarga adabiyotda aslo o‘rin bo‘lmasligi kerak”, – deb hisoblardi.[3.:121.]

Abdulla Qahhor ijodining boshlanishidayoq bu savollarga “adabiyot xalq uchun yashaydi, jamiyatga xizmat qiladi” degan javobni tanladi. Abdulla Qahhor ijodidagi zamonaviylik va g‘oyaviylik haqqoniylikdan tug‘iladi. Yozuvchi hayot hodisalarini qalamga olar ekan, ularning mohiyatiga chuqur kirib borishga, shu orqali hayot haqida salmoqli fikr aytishga, katta umumlashmalar chiqarishga harakat qiladi. Abdulla Qahhor “O‘g‘ri” hikoyasi benihoya ixchamligi, soddaligi, psixologik xarakteristikalarining aniqligi, detallarning yorqinligi, umumlashmalarining kuchi bilan bu hikoya kichik epik formalarda realizmni ifodaladi. Abdulla Qahhor qalami o‘tkir ijodkor, hikoyadagi voqealarni shu qadar jonli tasvirlaganki, dehqon boshiga urilayotgan kaltaklar o‘quvchi qulog‘i ostida eshitilayotgandek bo‘ladi. Hikoya keskin dramatic vaziyatdan Qobil boboning

ho‘kizi o‘g‘irlangani xabaridan boshlanadi. Shundan keyin muallif dehqon uchun ho‘kizning qanchalik ahamiyatli ekanini ko‘rsatish uchun “dehqonning uyi kuysa kuysin, lekin sigiri yo‘qolmasin” deydi. Albatta, bu Abdulla Qahhorga xos ijodiy uslub. Ya’ni oz so‘z qo‘llab, ko‘p ma’noni uqtirish. Yozuvchi ho‘kiz yo‘qolishi qanchalik katta musibat ekanini o‘quvchi ongiga yetib borishi uchun Qobil boboning ruhiy holatini “yalangbosh, yalangoyoq, tizzalari bukilib ketgan, ko‘zlari har tomonga javdiraydi, lekin hech kimni ko‘rmaydi” deb tasvirlaydi. Kutilmaganda eng kerakli, aziz va qimmatbaho narsasi, ro‘zg‘orini tebratishda asosiy yordamchisidan ajralgan va bu fojining asl mohiyatini to‘liq anglab ulgurmagan Qobil boboning ruhiy holatini ochib beradi. Yozuvchi hikoya voqeasining tabiiy oqimini susaytirmaydi, vaziyat talab qilgan eng hayotiy detallarni kiritadi. Voqeaga burunsiz ellikboshi aralashadi. Uning birinchi qadamlaridanoq ellikboshining qanday odam ekanini payqash mumkin. Uning harakatlarida, ayniqsa og‘ildagi ustunni qimirlatib qo‘yishida Qobil bobo taqdiriga befarqlikni ko‘rishimiz mumkin. Aminning esa Qobil boboga yig‘lab-siqtab, umidvor bo‘lib qarab turganiga qaramay, garchi voqeadan xabardor bo‘lsa ham, “Sigiring yo‘qoldimi?”, “yo‘qolmasdan oldin bormidi, yaxshi sigir birov yetaklasa ketaberadimi?” deb masxaromuz savollar beradi. Qobil boboga bunday savollar berilishi ostida kambag‘al fuqaroni mensimaslik, oddiy dehqon taqdiriga befarq qarash va undan nafratlanish hissi yotadi. Hikoyaning boshida “Otning o‘limi–itning bayrami” degan maqol keltirilgan. Hikoyaning so‘nggida biz bu maqolning ma’nosini aniq bilib olamiz. Qobil bobo og‘ir fojiani boshdan kechirdi, biroq bu fojia ho‘kizning o‘g‘irlanishi emas. Qobil boboni haqiqiy fojiaga duchor qilganlar – ellikboshi, amin, tilmoch, pristavlar. Ular Qobil boboning ustiga quzg‘undek yopirilib, so‘nggi tomchi qonigacha so‘rib olishadi. Ular bu ojiz, notavon, mushtipar odamni mazax qilishadi, xo‘rlashadi, tuproqqa qorishadi, uning insonlik qadr-qimmatini tahqirlashadi. Qobil bobo esa buni tushunmaydi. Fojia aynan shunda edi. Qobil boboning ayanchli taqdirida o‘tmishdagi yuz minglab oddiy odamlarning og‘ir ahvoli umumlashtirilgan.

“O‘g‘ri” hikoyasining tuyg‘ularga kuchli ta‘sir qilishining asosiy sababi, hikoya qahramonlarining: Qobil bobo, ellikboshi, amin benihoya jonli tasvirlanishidir. Yozuvchi bunga psixologik analiz orqali, ularning ahvoli, ruhiyatini tabiiy va hayotiy tasvirlash orqali erishgan. Abdulla Qahhor faqat “O‘g‘ri” dagina emas, deyarli hamma hikoyalarida qahramonning ichki dunyosini ochar ekan, uning qalbidagi o‘zgarishlarni mikroskopga solib ko‘rayotganday hamma tafsiloti bilan tasvirlamaydi. Uni birinchi navbatda hayotda ko‘p uchraydigan oddiy vaziyatlarning odam ruhiga ta‘siri va shu ta‘sir tufayli tug‘iladigan xatti-harakatlar qiziqtiradi. Yozuvchi iste‘dodining qudrati shundaki, u ba‘zi rassomlar kabi xarakterni konturlar yordamida chizadi, bu konturlarda esa uning eng muhim tomonlari aks etgan bo‘ladi.

Abdulla Qahhor har bir asarida, hattoki, hajmi kichik mitti hikoyalarida ham katta umumlashmalarga intiladi. Yirik rus adabiyotshunosi V.V Smirnova Abdulla Qahhorning “Anor” hikoyasi bilan Amerika yozuvchisi O.Genrining “Shaftoli” hikoyasi o‘rtasida o‘xshashlik borligini birinchi bo‘lib qayd qilgan edi.[1.:56] Bu hikoya sujet va obrazlar jihatidan bir-biriga juda yaqin bo‘lsa ham, hikoyadan olinadigan xulosa ikki xil. Ya‘ni “Shaftoli” hikoyasidagi bosh qahramon Mak-Garrining xotini shaftoliga boshqorong‘i bo‘ladi. Yarim kechasi barcha do‘kon va restoranlar yopiq bo‘lsa ham, u bir amallab do‘stining uyidagi mehmondorchilikdan qolgan bittagina shaftolini xotiniga olib boradi. Buni ko‘rgan xotini esa shaftoli yemayman, endi apelsin yegim kelyapti deydi. O.Genri hikoyasi bir qarashda maqsadsiz yozilgan va bema‘ni hikoyadek tuyulsa-da, aslida unday emas. Yozuvchi Mak-Garridek yigitning kuchi va shijoati arziyas, behuda narsaga sarf bo‘layotganini va bunday hayotning ma‘nosizligini qoralaydi.

“Anor” hikoyasida esa butunlay boshqacha. Abdulla Qahhor bu hikoyasi, undagi er-xotin o‘rtasidagi holat va bir ayolning boshqorong‘iligi bilan o‘sha davrdagi xalq ahvolini, aholining tabaqalanishi va inson mehnati juda arzon sotilishini ko‘rsatib bergan. Turobjon xotini anor istashi injiqlik emas, tabiiy zaruriyat. Ammo bir qadoq anorning narxi falon pul, Turobjon esa saharmandondan suv tashib, o‘tin yorib, o‘t yoqib tirikchilik qiladi. Xotini anor

uchun umrining yarmini beradi. Shuning uchun Turobjon anor o‘rniga asal keltiradi. Er va xotin o‘rtasida gap qochadi. Bu mojaro azbaroyi “gapni kovlasa, gap qochadi” qabilida emas, qo‘li qisqalikdan, muhtojlikdan, nochorlikdan tug‘ilgan doimiy alam tug‘yoni. Jahl ustida eri ayoliga qattiq gaplar gapiradi, ayoli ham ko‘ngil og‘rig‘i ta‘sirida hali tug‘ilmagan bolasiga o‘lim tilaydi. Shu tariqa, yozuvchi bizni sekin-asta bir haqiqatga – Turobjon va xotini fojeasi, baxtsizligi sababi – ijtimoiy tengsizlikdir degan haqiqatga boshlaydi.

“Anor” hikoyasini san’at asari qilgan narsa undagi ana shu chuqur haqqoniy xulosagina emas. Eng muhimi, yozuvchi hikoya g‘oyasini yalang‘och tarzda, qahramonlarning nutqi orqali ifodalamaydi, balki uning badiiy to‘qimasiga singdirib yuboradi. Hikoyada, nafaqat “Anor”, balki boshqa hikoyalarda ham yozuvchi shunday detallar topadiki, ular hikoyalar zamirida yotgan g‘oyani, yuksak haqiqatni ochishga xizmat qiladi. Masalan, er va xotin o‘rtasida janjal ko‘tarilgan paytni olaylik. O‘sha paytda osmonda Mullajon qozining uyidan mushaklar otiladi. Shu payti Turobjon xayolan murakkab hisob-kitob qilishga kirishadi. Bitta mushakning puli hatto uning bir oy zahmat chekib qilgan mehnatlari haqqidan ham qimmatligini, buyoqda u xotiniga bitta anor olib kelolmayotgan paytda, odamlar shuncha pulga mushakbozlik qilishini tasvirlash orqali o‘sha davrdagi insonlar tabaqalanishini va oddiy xalq nochor hayotini ochib beradi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qahhor tengi yo‘q ijodkor edi. Tajribali va qalami o‘tkir yozuvchi hayotlik chog‘idayoq butun umr tirik qolishni va hech qachon o‘lmaslikni tanlagan edi. Ya’ni u doim o‘zidan keyin yozgan asarlari bilan o‘quvchilar qalbida doim barhayot yashaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Abdulla Qahhor. Asarlar. 6- jild. – Toshkent, 1967.
2. Ozod Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti. – Toshkent, 2004.
3. Adabiyotimiz faxri. – Toshkent, 2007.
4. [www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)
5. [www.google.uz](http://www.google.uz)

## TARIXIY ROMANDA YOZUVCHI USLUBINING AKS ETISHI

(Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romani misolida)

**Muxanova Maftuna,**

*magistrant,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada uslub nima ekanligi, yozuvchi uslubidagi yetakchi omillar haqida qisqacha bayon qilinadi. Shuningdek, Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romani misolida tarixiy romanlardagi uslub borasida fikr-mulohazalar bildiriladi. Yozuvchining badiiy mahorati va yutuqlari qisman yoritilgan.

**Аннотация:** В этой статье кратко объясняется, что такое стиль и какие факторы определяют стиль писателя. Также на примере романа Исажона Султана “Алишер Навои” высказываются мнения о стиле исторических романов. Частично освещены художественные способности и достижения писателя.

**Abstract:** This article briefly describes what style is, the leading factors in the style of a writer. Also, using the example of Isajon Sultan's novel “Alisher Navoi”, opinions are expressed about style in historical novels. The writer's artistic skills and achievements are partially covered.

**Kalit so‘zlar:** uslub, yozuvchi mahorati, tarixiy roman, Isajon Sulton, “Alisher Navoiy” romani.

**Ключевые слова:** стиль, писательское мастерство, исторический роман, Исажон Султан, роман “Алишер Навои”.

**Keywords:** style, writing skills, historical novel, Isajon Sultan, novel “Alisher Navoi”.

Uslub – har bir yozuvchi ijodining faqat o‘zigagina xos, takrorlanmas jihatlarini o‘z ichiga oluvchi, uning iste’dodini, badiiy tafakkur darajasini, dunyoqarashini, hayotga qay rakursdan boqishini ko‘rsatib turuvchi asosiy xususiyatdir. “Uslub, adabiyotshunos S.Mamajonov aytganidek, “idrok qilish” va “ifoda qilish”ning birligida ko‘rinadigan yozuvchining individualligidir” [1.:78.]

Biror-bir ijodkorning uslubi uning badiiy asar yozishda boshqalarga o'xshamaydigan jihatlari, obraz yaratish mahorati, ijodida qay darajada badiiy san'atlar qo'llay olishi, badiiy tasvir vositalaridan, tur va janrning imkoniyatlaridan o'rinli foydalana olishida namoyon bo'ladi. Asarning shaklidan tortib to mazmunigacha bo'lgan turli unsurlar – syujet, kompozitsiya, mavzu, g'oya, konflikt, ijodkorning qahramonlarni qanday tasvirlashi, xarakterlarini ochib berish yo'sini, dialog va monologlar, badiiy asar tili kabi jihatlar uslubning ichiga singib ketadi.

“...Individual uslub, — deb yozadi adabiyotshunos N.Shukurov, — ...ijodkorning voqelikni o'zicha idrok etishi, voqea-hodisalarni o'ziga xos obrazlar va ifoda-tasvir vositalari bilan aks ettirishi...”[1.:87.] Boshqacha aytganda, uslub – har bir yozuvchining o'zligini namoyon qiluvchi asosiy detaldir. Yozuvchi qanchalar iste'dodli bo'lsa, uning uslubi ham shunchalar yorqin va yaqqol namoyon bo'ladi.

Bir xil miqdordagi masalliqdan turli oshpazlar tomonidan pishirilgan osh bir-biridan farqli qilganidek, bir davrda, bir xil jamiyatda yashab ijod qilayotgan ikki yozuvchining yaratgan asari ham o'zaro farq qiladi. Ana shu taqqoslash jarayonida ularni bir-biridan ajratib turuvchi “sirli masalliq” – uslubdir. Ya'ni u yozuvchining originalligini belgilab beruvchi asosiy mezondir. Uslubi to'la shakllangan ijodkorning asarini o'qiy boshlashingiz bilan bu asarning muallifi falonchi deb bemalol ayta olasiz. Masalan, haqiqiy ziyrak kitobxon bir davrda yaratilgan bo'lishiga qaramasdan, “O'tkan kunlar” va “Kecha va kunduz”ni bir qarashdayoq ajratib oladi. Qodiriy va Cho'lponning o'zaro mushtarak jihatlari ko'p bo'lishi bilan birgalikda, o'sha ziyrak kitobxon farqlay olishiga xizmat qiladigan “sirli masallig'i” har ikkala ijodkorning boshqalarga o'xshamagan, original uslubi bor.

Ana shunday o'z uslubiga ega, mahoratli yozuvchilardan biri Isajon Sultondir. Adib keying yillarda bir qator tarixiy asarlari bilan o'z o'quvchilari qalbini zabt etdi. Xususan, “Alisher Navoiy” va “Bilga xoqon” romanlari shular jumlasidandir. Ijodkor bu asarlarda haqiqiy iste'dod sohibi, adabiyot va tarixning chuqur bilimdoni, o'z yurtini jondan sevuvchi farzand, o'tmishga haqqoniy

yondasha oladigan va uni jonli tasvirlay oladigan yozuvchi sifatida namoyon bo‘ladi. Albatta, tarixiy roman yaratish kishidan buyuk bir jasoratni va juda katta manbaga ega bilimni talab qiladi. Mazkur asarlarni o‘qir ekanmiz, Isajon Sultonda ana shunday bilim va teran tafakkur borligiga guvoh bo‘lamiz. Muallifning o‘zi ham bir qancha suhbatlarida tarixiy roman yozish talablari haqida to‘xtalar ekan, “Alisher Navoiy” romanini yozish jarayoni haqida alohida qiziqarli ma’lumotlarni aytib o‘tadi:

“Davr o‘tgan sayin xuddi ashyolarga o‘xshab asarlar ham eskirib boradi. Shuning uchun asarlarni baholashda uning yaratilgan davriga qarab baholanadi. Masalan, Oybekning “Navoiy” romani o‘sha paytda tom ma’nodagi jasorat, qahramonlik edi. Chunki 1937-yildan 4 yildan keyin bu asar yozilyapti. Hali Cho‘lpon otilgan o‘qning sadosi tingani yo‘q... Alisher Navoiyning fazilatlarini, diniy qarashlari haqida bir asar bundan 20 yil oldin yozilgandayam nashr qilinmasdi. Lekin tarixiy asar yaratishning bitta jihati bor va bu yozuvchini juda chuqur o‘ylantirgan, hatto tarixiy asar yozaman deganda to‘xtatib qolgan jihat bor: tarixiy asar xuddi siz-u bizday tirik odam haqida. Faqat dunyoda yashab o‘tib ketgan kishi haqida. Bir tomondan qiziqarli bo‘lgan, o‘rnak bo‘ladigan voqeani asarga aylantirish mumkin deb o‘ylaysiz. Ikkinchi tomondan go‘yoki erta bir kun shu odam bilan ro‘baro‘ kelgan taqdirimizda sen men aytmagan gaplarni nega aytdi deb yozding, - deya yoqadan olish ehtimoli bor. Javobgarlik bor. Chunki bilamizki, bularning ruhlari tirik, ruhlari mangu.

“Alisher Navoiy” romanida Majididdin obrazi bor. Asli bu yerda adabiy hiyla bor. Bu kishining ismi haqiqatda Majididdinmas, Majididdin. Ataylab Majididdin deylikki, mabodo malomat bo‘lsa, unga taalluqli bo‘lmasin. Undan tashqari xayolimizni ishga solaylik va o‘ylaylikki, bu kishining dunyodan o‘tganigayam 600 yildan o‘tdi. Juda xunuk tarzda o‘lim topgan kishi. Hajga ketayotganda o‘ldirib ketiladi. Va shu odam mangu oromida yotgan bir mahalda nido qilsaki, men abadiyat sokinligida yotgan paytim dunyodan menga la’nat kela boshladi. Ajabo bu la’nat kim tufayli?! Bo‘lmasam, shu asar yozilganda Majididdinning yelkasiga rosa ayblar qo‘ysa bo‘lardi. Alisher Navoiyga raqib bo‘lishga juda mos

kishi. Boylikni yaxshi ko‘radi, Sulton Husaynning xazinasidan qancha boyliklarni o‘margan kishi. Bu aniq faktlar. Lekin boyagi mulohaza ikki qo‘lingizni shunday bog‘lab qo‘yadi. O‘tganlar haqida yomon gapirmanglar, - deydi. O‘tganlar tiriklardir, deydi. Badiiy asarga bungay nigoh bilan qaragandan keyin yozish-yozmaslik haqidayam ancha o‘ylanib qolasiz”.

Ha, adib bir asarni yozar ekan, unga shunday mas’uliyat bilan yondashadi. Shu sababdan ham har qanday qahramonni yomonlashdan, obrazlarni “ijobiy” va “salbiy”ga ajratishdan o‘zini tiyadi. Kim bo‘lishidan qat’i nazar o‘z qahramonlarini xuddi aslidagiday va haqqoniy tasvirlashga harakat qiladi.

Umuman olganda, adabiyotshunos Yo‘ldosh Solijonov Isajon Sulton asarlari haqida ta’kidlaganiday: “Yozuvchining har bir asari katta-kichikligidan qat’iy nazar, o‘quvchini chuqur o‘yga toldiradi, dunyoni anglash, Yer sharida yuz berayotgan voqea-hodisalarga daxldorlik tuyg‘usini his qilish, ona tabiatdagi har bir unurning qadriga yetish, ularni tushunish, avaylab-asrab yashash sirlarini o‘rgatadi. Chunki uning nazarida tabiatning har bir bo‘lagi, hodisasi hayot falsafasi bilan to‘la bo‘lib, ular orqali bu murakkab hayotning qandayligini turli ramziy timsollar vositasida teran anglashga undaydi”. [2.: 55.]

Xususan, biz tahlilga tortmoqchi bo‘lgan “Alisher Navoiy” romanida ham inson nima uchun yaratilgani, uning bu dunyodagi eng aqlli jonzot ekanligi, shuning uchun ham o‘zining Yaratuvchisiga doim sajda qilib yashashi kerakligi, bu dunyoda yashashdan maqsad – yaxshilik qilish va yaxshi nom qoldirib, koinot gultoji degan nomga loyiq bo‘lish uchun harakat qilish lozimligi haqida so‘z boradi. Yozuvchi buyuk bobokalonimiz hayoti va ijodi misolida bizni komil inson ega bo‘lishi kerak bo‘lgan xislatlar sohibi bo‘lishga undaydi. Asarda ijodkor shunchaki tarixni, yoki Alisher Navoiyning hayoti va ijodini oddiygina tasvirlab qolmaydi, balki asrlar davomida bir-biri bilan kurashib kelgan ikki buyuk kuch – Ezgulik va Yovuzlik, inson qalbini qamrab olishi mumkin bo‘lgan eng chirkin illat – Kibr, insonni bu dunyo boyliklariga muhabbat qo‘yib, tubanlashishga undaydigan – Nafs, odamzotga ikki dunyo saodatini nasib qiluvchi – Ilm, otani bolaga, bolani otaga dushman qiluvchi – Toj-u taxt haqida so‘z yuritadi. Bosh

qahramon – Navoiy timsolida barchamizga o‘rnak bo‘la oladigan komil inson g‘oyasi ilgari suriladi. Romanda insonning mohiyati aynan fikr yuritishda ekanligi turli rakurslarda yoritilgan. Inson – koinot gultoji, sababki, barcha yaratilqlar ichida faqat ungagina aql, fikr yuritish, yaxshi va yomonni, halol va haromni farqlash, tanlash imkoni berilgan. Ana shu aqldan oqilona foydalana olgan inson tobora farishtaga aylanib, aksincha, nafsiga tobe odam hayvonga yaqinlashib boradi. Insonlik darajasini ko‘rsatuvchi ustuvor mezonlardan biri sog‘lom aql-idrok va unga nechog‘li amal qilishida. Alisher Navoiy siymosida ana shu xislatlar mujassamlashgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Boboyev T. – Adabiyotshunoslik asoslari. / - Toshkent: O‘zbekiston, 2002. – 549 b.
2. Solijanov Y. Niyati qutlug‘ adib. . Isajon Sulton nasri badiiyati [ Matn] : ilmiy maqolalar, taqriz, adabiy suhbatlar, maktublar / to‘plab nashrga tayyorlovchilar: Sattorova G., Qo‘chqorova M. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017. – 55 b.
3. Rasulov A. Akslar falsafasi. Isajon Sulton nasri badiiyati [ Matn] : ilmiy maqolalar, taqriz, adabiy suhbatlar, maktublar / to‘plab nashrga tayyorlovchilar: Sattorova G., Qo‘chqorova M. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017. – 52 b.
4. Isajon Sulton. Alisher Navoiy (roman). – (Matn) / - T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2022. – 192 b.
5. Shermuhammedov P. Tarixchi va ijodkor nigohi // Sharq yulduzi. – Toshkent. 1977. – 25 b

# OMON MATJONNING “NEGA MEN?” DOSTONI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

**Nazarova Nafisa Matnazarovna,**

*magistrant,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqola Omon Matjonning “Nega men?” dostonining badiiy xususiyatlarini tahlil qiladi. Maqolada shoiring dostonida tasviriy san’at, badiiy uslub kabi muhim jihatlar ko’rib chiqiladi. Omon Matjonning asarlaridagi inson va tabiat, vaqt va o’tgan davr, qahramonlik va sevgi kabi mavzularning falsafiy chuqurligi tahlil etiladi. Shoirning dostonlari adabiyotimizda alohida o’rin tutib, xalqimizning ma’naviy va madaniy merosini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega.

**Аннотация:** Данная научная статья анализирует художественные особенности эпосов Омона Матжана. В статье рассматриваются ключевые аспекты, такие как художественные образы, художественный произведениях поэта. Анализируется философская глубина и народное выражение таких тем, как человек и природа, время и прошлое, героизм и любовь. Эпосы Матжана занимают особое место в нашей литературе и играют важную роль в поднятии духовного и культурного наследия нашего народа.

**Annotation:** This scientific article analyzes the artistic features of Omon Matchon's epics. The article examines key aspects such as artistic imagery, artistic style, poet's works. The philosophical depth and folk expression of themes like human and nature, heroism, and love are discussed in his works. Matchon's epics hold a special place in our literature, playing a significant role in elevating the spiritual and cultural heritage of our people.

**Kalit so‘zlar:** Omon Matchon, doston, badiiy uslub, poetik tasvir, ritmik tuzilma, qahramonlik, inson va tabiat, adabiyot.

**Ключевые слова:** Омон Матжан, эпос, художественный стиль, поэтические образы, ритмическая структура, героизм, человек и природа, литература.

**Keywords:** Omon Matchon, epic, artistic style, poetic imagery, rhythmic structure, heroism, human and nature, literature.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “...biz xalqimizning ma’naviy kamol topishida madaniyat namoyandalarining ulkan xizmatlari borligini doimo minnatdorlik bilan e’tirof etamiz”, - degan so‘zlari, nazarimizda to‘laligicha qalam ahliga ham daxldordir. Shu bois XX asr o‘zbek she’riyatining vakillari ichida Omon Matjon ijodi yuzasidan yangidan yangi talqinlarning maydonga kelishini, ularning tasdiqlanishi yoki inkor etilishini, ular ustida bahs-munozaralarning avj olinishi ilm olamidagi tabiiy hodisa sifatida qabul etmoq joiz. Omon Matjon dostonlarida tasvirlar, simvollarning boyligi, betakror tasviriy vositalarining ishlatilishi e’tiborga molikdir. U dastlabki yillarda o‘zining qalamiga mansub bo‘lgan she’riy va badiiy tasvirlar bilan ko‘plab o‘quvchilarning diqqatini tortgan. Shoir ayniqsa, tabiatni tasvirlashda o‘ziga xos yondoshuvni tanlagan. Tabiatni inson ruhiyatining aks-sadosi sifatida tasvirlab, uning xususiyatlarini insonning ichki kechinmalari bilan birlashtiradi. Misol uchun, “To‘lib o‘sgan daraxt” dostonida, daraxtning o‘sish jarayoni orqali insonning hayotdagi maqsad va orzulari haqida chuqur fikrlar ifodalangan.

Omon Matjonning dostonlaridagi badiiy uslub ham alohida ahamiyatga ega. Uning uslubi o‘zining oddiyligi va tushunarli bo‘lishi bilan birga, chuqur falsafiy mazmunga ega. Shoir poetik tilda oddiy va tabiiy bir uslubni tanlagan, lekin bu oddiylilik uning asarlarini yanada samimiy va insoniy qiladi. Adibning ijodida tarixga murojaat qilish ustuvorlik qiladi. Bu haqida uni ijodini o‘rgangan adabiyotshunos olim J.Jumaboyeva: “Shoir asarlarida tarixga suyanish barobarida uchta muhim g‘oyaviy maqsadni ko‘zlaydi. Bularning birinchisi - millat, vatan tarixga murojaat va zamondoshiga tengsiz ma’naviy xazinalarni bunyod etib ketgan ajdodlarini tanitish; ikkinchisi – ularqonida bobo-momolari qoldirgan bebaho meros, an’analar ruhini uyg‘otish; uchinchisi , kelajakka ana shu ma’naviy xazinalardan qolgan durdonalarni avaylab yetkazishga da’vatdan iboratdir. Bularga shoir ishonchli umumlashmalar yaratish, lirik qahramon ruhiy

dunyosida kechayotgan jarayonlarning milliy rangdorligini yanada yorqinroq tasvirlash orqali musharraf bo'ladi. Uning lirik qahramoni zamon va kelajak haqidagi fikrlarini aksar holatlarda tarixga suyanmasdan aytishga shoshilmaydi. Chunki u har bir xalq unib, o'sgan milliy zaminidan vaqtincha uzilsa-da, abadul - abad uzilib ketmasligini juda yaxshi tushunadi. Milliy ruh, milliy tuyg'uning hech qachon izsiz yo'qolmaslik fazilatini e'zozlaydi. Shuning uchun ham Omon Matjonning tarixga tayangan qanday asari bo'lmasin, uni har bir inson aql va tuyg'usiga uyg'unlashib ketadigan rang va ohanglarni doimo o'zining ustuvorligini ko'rsatib turadi",- deya ta'rif beradi. Bu fikrlar naqadar to'g'ri ekanligini uni ijodi bilan yaqinda tanishganimizda shohidi bo'lamiz.

“Nega men?!” dostoni shunday asarlar sirasiga kiradi. Dostonda turg'unlik yillari davri haqida so'z yurtgan shoir, yurakdan chiqayotgan so'zlarini rangin satrlarda ifodalaydi:

Yetmish yil el yashab qur'on, tavrotsiz,  
Erlar nochor qoldi, ayol avratsiz,  
Zamon duradgori, asbob-yaroqsiz,  
Ilma-teshik tomni yamashga tushdi .

Ko'rinib turibdiki, dostonda lirik qahramon o'z hayot yo'liga sinchiklab nazar solar ekan, ko'zlari mushkul bir holatni ko'rib lol qoladi? O'zini aldanganini, tanlagan yo'li “ayqash - uyqash” ekanligini anglaydi. Shu sababli el Qur'onni yetmish yil yashab o'qimagani, zamon zayli tufayli faqat foniy dunyo g'amiga tushib, o'z hayot tashvishlari bilan bo'lib qolganlarini, shoir iztirob bilan qalamga oladi. Barchamizga yaxshi ma'lumki, XX asrda bir necha marta yurtning sara o'g'lonlari, ziyolilari nohaq zarbalarga duch kelishdi.

Ayniqsa, 1937-yil, 1950- yillarda xalqimizning sevimli shoir-u yozuvchilariga tuhmat toshlari otilib, ularni vatan xoinligida ayblab qatl qildirib, surgun qilishlari, 1980-yillar “o'zbeklar ishi” tufayli ko'pgina xalqimizni aziz farzandlari jabr ko'rganligini, shoir alam hasratlar ila aytar ekan, bunga asosiy sabab, ba'zi kimsalarni Allohdan qo'rqmagani, chunki Qur'onni o'qimagani tufayli iymon e'tiqodsiz bo'lganliklarida deb o'ylaydi:

Qor qora yog‘moqda, yomg‘ir za‘faron,  
Daryolar o‘rnida oqmoqda armon,  
Har podsho o‘zicha chiqarib farmon,  
Qolganlar bir-birin bulg‘ashga tushdi.

Yuqoridagi satrlardan ko‘rinib turibdiki, shoir bu hodisalarni tasvirlashda o‘ziga xos yo‘ldan boradi. Ya‘ni kim tabiat mavzuyining badiiy talqin ma‘nolari orqali poetik obrazlar zimmasiga yuklanayotgan mazmun teranligini ko‘rishimiz mumkin. Aslida qor oppoq, yomg‘ir esa mayin beg‘ubor yog‘ishi, daryo esa mavj urib oqishi kerak va ularni harakati yer yuzini yashnatishi, ko‘kartirishi lozim. Lekin shoir “qora qor”, “za‘faron yomg‘ir” so‘zlarini qo‘llash bilan, ular timsolida xalqimiz boshiga tushgan ko‘rgulliklarni, ularni azobga solgan farmonlarni, natijada yuraklarida armon qolgan, deb ko‘rsatadi. Nazarimizda, bu she‘riy asar falsafiy lirika namunasi bo‘lishi uchun u, avvalo, ezgulik va yovuzlik, erk-hurriyat va zulm-istibdod, hayot va o‘lim, va boqiylik, yaxshilik va yomonlik, nur va zulmat, muhabbat va xiyonat, tabiat va jamiyat singari boqiy mavzularda bitilgan bo‘lishi lozim. Va lekin xalq hayotining, jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy-siyosiy bosqichlarida davr-zamon nafasi, millatning ma‘naviy-intellektual madaniyati darajasi, shoirning ongidunyoqarashi mazkur boqiy mavzularning badiiy-estetik talqinlariga sifat o‘zgarishlari olib kiradi. Ushbu o‘zgarishlar ramziy poetik obrazlar zimmasiga yuklangan ijtimoiy-falsafiy umumlashma xulosalarda, hikmatli ma‘nolarda zohir bo‘ladi. O‘zligini namoyon qiladi.

Qani elni yaktan etgan donolar,  
Qani uy fayzini tutgan momolar,  
Qani “Birlash! Tiklan!” degan nidolar,  
G‘aflat og‘usimi yo oshga tushdi?!

Ushbu misralarni o‘qir ekanmiz, ko‘z o‘ngimizda qatag‘on qurbonlari Cho‘lpon, Qodiriy, Fitratlar siymosi gavdalanadi. Ularni boshini eganlar endi butun boyliklarimizni yer osti ganjlarimizdan tortib, durdona kitoblarimizni hech tortinmay o‘zlashtirib olayayotganligini, shu bois ko‘kda Ulug‘bek ochgan yulduzlar charaqlamayotganini kuyinib so‘zlaydi:

Ko‘kda yo‘q Ulug‘bek ochgan yulduzlar,  
Ko‘hna Urganchingni yemoqda tuzlar.  
Yerostiganjlaringbegonako‘zlar  
Izlab, kovlab, tashib, gizlashga tushdi.

Davr devorida Qodiriy qoni,  
Shimolga quladi janub Cho‘lponi,  
Zahr ichdi billur jom tutgan Usmoning,  
Qonli bazm soqiyni so‘rashga tushdi.

Xullas, Omon Matjonning “Nega men?” dostonida davrning muhim muammolari qalamga olinadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mirziyoyev Sh. M. Adabiyot va san‘at madaniyatning rivojlanish – xalqimiz ma‘naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. Xalq so‘zi 2017. 4-avgust
2. Jumaboyeva. J. XX asr o‘zbek shariyatida psixologik tasvir mahorati. Fan, 2004. – 178 b.
3. Omon Matjon. “Nega men?” dostoni. 1989.
4. Omon Matjon. “Haqqush qichqirig‘i”. 1979.

## **OGAHIIY FARDLARIDA MA‘NAVIY SAN‘ATLAR ISTIFODASI**

**Normetova Lobar**

*magistrant,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya:** Maqolada Ogahiyning tarixiy asarlaridagi fardlarida qo‘llanilgan ma‘naviy san‘atlar tahlil etilgan. Har bir ma‘naviy san‘at nazariy jihatdan izohlangan va topilgan misollar bilan dalillangan. Ogahiyning badiiy mahoratiga uning fardlari misolida baho berilgan.

**Аннотация:** В статье анализируются духовные искусства, использованные в стихах Огахи в фардовом жанре исторических произведений. Каждое духовное искусство теоретически объясняется и

доказывается найденными поэтическими примерами. Художественное мастерство Огахи оценивается на примере его персонажей.

**Abstract:** The article analyzes the spiritual arts used in Ogaha's poems in the fard genre of historical works. Each spiritual art is theoretically explained and proven by found poetic examples. Ogaha's artistic skill is judged through his poems.

**Kalit so‘zlar:** fard, bayt, ruju’, mubolag‘a, takror, badiiy san’at, o‘xshatish, zidlantirish.

**Ключевые слова:** фард, стих, преувеличение, повтор, искусство, сравнение, противопоставление.

**Key words:** fard, verse, exaggeration, repetition, art, comparison, contrast.

O‘zbek mumtoz adabiyotida azal-azaldan badiiyat masalasiga alohida e‘tibor berib kelingan. Ijodkorning iste‘dodiga baho berishda uning she‘riy san’atlardan foydalanish mahorati asosiy mezonlardan biri sifatida qaralgan. Chunki she‘riy san’atlar misralar, baytlar va bandlarning jarangdorligi va musiqiylikiga, ma‘naviy va lafziy nazokatga ega bo‘lishiga xizmat qilgan. Xiva adabiy muhitining eng ko‘zga ko‘ringan va kuchli shoirlaridan biri, 20 dan ortiq janrda ijod qilgan, o‘zidan boy adabiy meros qoldirgan Muhammadrizo Ogahiy ham nafaqat o‘zining devonidan joy olgan lirik janrlarida, balki tarixiy asarlariga ilova qilingan fardlarida ham badiiyat masalasiga jiddiy e‘tibor qaratgan. O‘z asarlarida ilmlar uchligi: ilmi bade‘, ilmi aruz va ilmi qofiyani qat‘iy mezon qilib olgan va ularning mukammal bo‘lishiga harakat qilgan. Biz ushbu maqolamizda Ogahiyning tarixiy asarlaridagi fardlarda qo‘llanilgan ma‘naviy san’atlarni tadqiq etishni maqsad qildik.

She‘riy san’atlar asrlar davomida nazariy jihatdan chuqur o‘rganilgan bo‘lib, nisbatan dastlabki tadqiqotlar sifatida Atoulloh Husayniyning “Badoye us sanoye”, keyinchalik Ahmad Taroziyning “Funun ul balog‘a” asarlarini ko‘rsatishimiz mumkin. She‘riy san’atlar ikkiga bo‘linadi: lafziy va ma‘naviy. Bu bo‘linish she‘riy san’atning nima asosiga hosil bo‘lgani bilan belgilanadi, shaklanmi yoki ma‘no jihatidanmi aniqlanib, ikki guruhga ajratiladi. Lekin ba’zi

manbalarda uchinchi tur sifatida lafziyi-ma'naviy (yoxud mushtarak san'atlar) ham ko'rsatilgan. Biz birinchi tasnifni to'g'ri hisoblab, shundan ma'naviy san'atlarning Ogahiy ijodida qo'llanilishiga diqqat qaratdik.

“Ilmlar uchligi”ning tarkibiy qismi bo‘lmish ilmi bade’da she’r yoki nasrda zid ma’noli narsa va tushunchalarni (xatti-harakat, fe’llarni) ifoda etuvchi so‘zlarni ma’lum maqsadda bir-biriga bog‘lab ishlatish usuli **tazod** hisoblanadi. Bu san’atni fors adabiyotshunosi Atoulloh Husayniy “**mutobaqa**” deb nomlaydi va u haqida quyidagicha fikr bildiradi: “*Ani tiboq, tatbiq, tazod va takofu ham derlar. Arab fusahosi qoshinda kalomda ma’nolari orasinda taqobulu tanofiy bo’lg’an ikki lafzni jam’ qilmoqtin iboratdir*“[7.:225]. **Tazod** mumtoz adabiyotimizning eng qadimiy she’riy san’atlaridan biridir. Chunki, dunyo yaralibdiki, har narsaning ziddi mavjuddir. Mavlono Rumi aytganlariday: “*Axir “ashyo” qiymati ziddi bilan ayon bo’ladi. Ziddi bo’lmagan narsani ta’rif etmoqlik imkonsizdir*” (Rumiyan). Borliqda mavjud tushunchalarni ziddi orqali ta’rif-u tavsiflashdan mumtoz adabiyotda badiiy maqsadni amalga oshirishda, fikrni ta’sirchan ifodalashda foydalaniladi. Ogahiy hazratlari ham fardlarida tazod san’atidan keng foydalanganlar. Masalan:

*Bir damda oningdek o’ldi nobud,*

*Go’yoki burun yo’q erdi mavjud.*[1.:1041.<sup>b</sup>]

Yoki:

*Kinga ko’p bo’lsa naf’idin zarari*

*Yaxshiroq, borsa yurtidin asari.* [4.:33.]

Birinchi misolda **nobud bo’lmoq** va **mavjud bo’lmoq** so‘zlari bir-biriga zid qo‘llangan va baytdan shunday ma’no chiqadi: “Bir lahzada shundah yo‘q bo‘lib ketdiki, go‘yo hech qachon mavjud bo‘lmaganday edi”

Ikkinchi fardda esa **naf**-foyda va **zarar** so‘zlari zidlantirilgan: “Kimning o‘z yurti uchun foydasidan zarari ko‘p bo‘lsa, undan ko‘ra vatanidan chiqib ketgani yaxshiroq”. Ogahiy tazod san’ati yordamida o‘z fikrining o‘tkir va ta’sirli bo‘lishiga erishgan.

**Talmih** san'ati haqida fors adabiyotshunosi Atulloh Husayniy shunday fikr bildirgan: “*Talmih lug'atta bir nimaga nazar solmoqtur va bu san'atta she'r va andin o'zga nimalarga ishorat etilgani uchun ani talmih deb atapturlar*”[7.:135.]. Keyingi davr nazariy kitoblarida ham talmih haqida xuddi shu ma'nodagi fikrlar keltirilgan. Aniqroq aytadigan bo'lsak, ushbu san'at baytda tarixiy shaxslar, narsalar va voqealar bilan bog'liq so'zlar qo'llanilib, ularga ishora qilinishini ifodalaydi. Ogahiy fardlarida ham bu san'at o'rinli qo'llanilgan:

*Kishikim, zotida bo'lsa zalolat,*

*Ne osig', Xizr anga qilsa dalolat.*[4.:48.]

Baytga sharh: “Zotida zalolat—adashish bo'lgan bandaning Xizrga taqaladigan joyi bo'lishidan foyda yo'q”. Bu o'rinda **Xizr** so'zi qay sababdan talmih bo'lib kelganini izohlaymiz: Ko'pgina manbalarda Xizr payg'ambar, ba'zi o'rinlarda avliyo, ba'zan esa mifik obraz tarzida talqin etiladi. Mumtoz adabiyotda Xizr bilan bog'liq o'rinlar ko'pincha “tiriklik suvi” tushunchasi bilan keladi. Emishki, zulmatdagi ushbu suv abadiy hayot baxsh etarmish, bu suvni Xizr, Ilyos va Iskandar izlagani haqidagi tafsilotlar “Xamsa” dostonlarida ham ko'p va suvga hammadan oldin Xizr yetib borib, erishgan. Umumiy ma'noda qaralsa, zotning Xizrga dalolat qilishi ajdodlari Xizr singari yaxshilarga, pok insonlarga borib taqalishini anglatadi. Shoir birinchi misradagi fikrini ikkinchi misrada Xizr obrazini talmih qilish bilan dalillaydi.

**Tajohuli orif** san'ati mumtoz adabiyotda keng qo'llaniladigan ma'naviy san'atlardan biri hisoblanadi. Adabiyotshunos Yoqubjon Is'hoqovning fikricha, bu san'at nomi arabcha bo'lib, “biluvchining bilmagan bo'lib ko'rinishi” deya izohlanadi. “Bu haqda “Aruzi Humoyun”da shunday deyiladi: “Bu san'at shundayki, so'zlovchi mavzuni o'zi biladi, ammo so'raydi; gapning borishidan anglashilib turgan mazmundan go'yo bexabardek, o'zini bilmaslikka oladi”. “Jam'i muxtasar”da esa: “bu yerda tajohil ul orif shuki, shoir nima ekanini biladi, ammo o'zini bilmaganga oladi va sen umisan yo bumisan, deb savol beradi”, deyiladi” [6.:188]. Tajohuli orif qo'llangan baytlarda ko'pincha mahbuba qiyofasi qiyosiy holda tasvirlanadi, bir yoki bir necha narsaga o'xshatiladi, lekin uzil-kesil

fikr bildirilmaydi. Shoirning o‘zini bilib bilmaslikka solishi shartli bo‘lib, asl maqsad ta’rif yoki tavsifdan, yor qiyofasini mubolag‘ali tarzda gavdalantirishdan iborat bo‘ladi. Ammo Ogahiy fardlarida ushbu san‘at tarixiy mavzu doirasida aynan shohlarni ta’riflashda qo‘llanilganligi bilan ajralib turadi:

*Shohi olammu qilur zavraqda Jayhun sayrini,  
Yo hilol ichra quyosh aylarmu gardun sayrini.[5.:79]*

Sharh: “Bu–qayiqda Jayhunni sayr etayotgan olamlar shohimi yoki hilol ustiga minib olgan quyosh dunyoni sayr etmoqdami?” Ogahiy dahosi nafaqat shohni quyoshga, zavraq–qayiqni hilol oyga o‘xshatadi, balki ularni o‘zaro o‘xshatish yordamida tajohuli orif san‘atidan ham o‘rinli foydalanadi. Bu kabi misolni boshqa o‘rinda ham uchratish mumkin:

*Shahriyorimdurmi zavraqda qilur Jayhunni sayr,  
Yo quyosh qavsi farah ichra qilur gardunni sayr. [3.:149.]*

Ma’naviy san‘atlardan yana bir latifi **ruju’** san‘atidir. Bu san‘atning mohiyati shundan iboratki, “shoir o‘z fikr va kechinmalarini bayon etish maqsadida turli obraz yoki iboralardan foydalanar ekan, tasvir jarayonida o‘zining oldingi fikrlari (iboralar, obrazlar)dan voz kechib, ularni rad etadi va o‘rniga yangi obraz va iboralarni keltiradi. Go‘yo o‘z maqsadini to‘liq ifodalash uchun ojizlik qilgan ibora va obrazlar o‘rniga yangi, mukammalrog‘ini qo‘yib, fikr va kechinmalarni yanada kuchliroq shaklda bayon etadi”.[6.:155] Ogahiy fardlarida bu san‘at yangicha uslub kasb etish bilan birga, estetik go‘zallikni oshirishga ham xizmat qilgan:

*Zulmat ahlig‘a yetti obi hayvon mujdasi,  
Yo‘q esa yetti o‘luk ajsomg‘a jon mujdasi.[2,106.]*

Sharh: “Zulmat ahliga obi hayvon xabari keldi, yo‘q, yo‘q, o‘lgan jismlarga jon xushxabari keldi”. Birinchi misradagi fikr shoir tomonidan ikkinchi misrada inkor etiladi va yanada kuchliroq fikr beriladi. Shu o‘rinda “obi hayvon” haqida savollar tug‘ilishi tabiiy. Yuqorida qayd etganimizdek, bu “tiriklik suvi” zulmatda saqlangan bo‘lib, uni Xizr olib ketgan. Ogahiy esa bir holatni tavsif etar ekan, zulmat ahliga tiriklik suvi haqida xushxabar aytishday yaxshi, yo‘q, o‘liklarga

jon–hayot, imkon xabarini berishday sevinchli deya ta’riflaydi. Fikrimizcha, bu o’rinda ruju’ning go’zal namunasi fikrni yanada tugal va obrazli ifodalashga xizmat qilgan.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, Ogahiy daho shoir va lirik she’rlarmi yoki tarixiy asarlarmi, bundan qat’i nazar uning badiiy iste’dodi birday ko’zga tashlanadi. Xususan, shoir “Firdavs ul-iqbol”, “Riyoz ud-davla”, “Zubdat ut-tavorix”, “Gulshani davlat” va “Shohidi iqbol” tarixiy asarlarida ham badiiy maqsadini ro’yobga chiqarish uchun she’riy parchalar(fard)dan foydalangan, bunda, ayniqsa, ruju’, tazod, talmih, tajohuli orif kabi she’riy san’atlar yordam bergan. Shoir badiiy san’atlar yordamida estetik ta’sirni ro’yobga chiqargan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Ogahiy. Munis. Firdavs ul-iqbol. – T.: Sharq, 2019.
2. Ogahiy. Riyoz ud-davla. – T.: Sharq, 2020.
3. Ogahiy. Zubdat ut-tavorix. – T: Sharq, 2019.
4. Ogahiy. Gulshani davlat. – T: Sharq, 2019.
5. Ogahiy. Shohidi iqbol. – T: Sharq, 2019.
6. Y.Is’hoqov. So’z san’ati so’zligi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014.
7. A. Husayniy. Badoye us-sano’ye. –Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1981.
8. A. Hojiahmedov. Mumtoz badiiyat malohati. – Toshkent: Sharq, 1999.

### **ALISHER NAVOIYNING “MAHBUB UL – QULUB” ASARIDAGI IJTIMOIY FALSAFIY QIT’ALAR TAHLILI**

**Oqmuratova Hurmatoy,**  
*magistrant,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annontatsiya.** Ushbu maqolada Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asaridagi ijtimoiy falsafiy qit’alar tahlilga tortiladi.

**Аннотация.** В статье анализируются социально-философские темы в произведении Навои «Махбуб ул-кулуб».

**Abstract.** This article analyzes the socio-philosophical continents in Navoi's work "Mahbub ul – qulub".

**Kalit so'zlar:** qit'a, Navoiy, Jomiy, Sheroziy, Hofiz Xorazmiy, "Mahbub ul –qulub"

**Ключевые слова:** континент, Навои, Джамии, Ширази, Хафиз Хорезм, «Махбуб ул-кулуб».

**Keywords:** continent, Navoi, Jami, Shirozi, Hafiz Khorezm, "Mahbub ul – qulub".

Alisher Navoiy mumtoz adabiyotimizda qit'a janrini takomiliga alohida hissa qo'shgan. Navoiygacha bo'lgan davrda ham mumtoz adabiyotimizda Jomiy, Sheroziy, Hofiz Xorazmiy ijodida ham qit'a janri namunalari bor. Jomiyning "Bahoriston" asarida ham qit'alar ma'lum bir hikoyadan kelib chiqib, xulosa tarzida qissadan xissa bo'lib keladi.

Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida ham Navoiy qit'alarida mavzu ko'lami rang barangdir, ammo olimlar shartli ravishda qit'alarni ikki guruhga ajratadi:

1. Muayyan davr voqealari hamda u yoki bu guruh vakillari faoliyati haqidagi qit'alar. Bu mavzudagi qit'alar asosan zamonasining tez tez takrorlanadigan ko'ngilbuzar holatlar ba'zi kishilarning o'z faoliyatida yo'l qo'ygan xatolar haqidagi qit'alar.

2. Qit'alarining ikkinchi guruhiga esa ijtimoiy hayot masalalari aks etgan falsafiy axloqiy mazmundagi qit'alar kiradi. Bu qit'alarda Navoiy ijtimoiy hayot qiyinchiliklarini, kishilarning axloq fazilatlariga falsafiy qarashdagi kamchiliklarni yoritib o'tadi.

"Mahbub ul-qulub"ning ikkinchi qism avvalgi bob "Tavba zikri"da tavba qilish va uning uchun, uni yorituvchi ko'zgu ekanligi aytilgan. Bu bobda aytilganidek, Alloh taolo tavba qilishni har kimga ham munosib aylamaydi. Bu bobda hidoyat yo'lida yoki pok hilqatlig' bo'lib turib yo'ldan adashganda tavba qilish kerak deydi. Istig'for aytish zarurligini ta'kidlaydi. Bu bobda Shayx Abdulloh Muborak qaddosollohi sirrahuning tavbasining bidoyati va tuz yo'lig'a

kirarning hidoyati haqida aytiladi. Bu bob Haq taoloning barcha yo‘ldin ozg‘onlarni ogohliq bila arjumand qilg‘ay deb quyidagi qit‘a bilan yakunlaydi:

Tavbayekim, aning saodatidin

Bir qul o‘g‘li bu poya kasb etgay.

Kim anga, shohlar qul o‘lg‘aylar

Munga o‘zluk bila nechuk yetgay.

Darhaqiqat, bu qit‘ada tavba qilib, tavba qilgan inson saodati haqida fikr yuritilgan.

“Mahbub ul – qulub”da o‘ttizinchi tanbihda inson o‘ziga ravo ko‘rmagan narsani yoriga ham ravo ko‘rmagay, agar u mashaqqat bo‘lsa ham uni o‘ziga yengib o‘tsa va agar yorigada ravo ko‘rishni taxayyul qilsa (ya‘ni hayoliga keltirsa) vahshatidan hayoti qolmas deyiladi va quyidagi qit‘ani keltiradi:

Yor uldurki har nechakim o‘ziga

Istamas yorig‘a ham istamagay

O‘zi istarki, yor uchun o‘lg‘ay

Ani munda sharik aylamagay.

“Mahbub ul-qulub”da sakkizinchi tanbihda keltirilgan qit‘ada gavhar garchi balchiqqa tushsada gavharligini yo‘qotmas, bahosini darajasi yo‘qotmaydi, agarda eshak munchog‘ini (ko‘chma ma‘noda eshak tezagi nazarda tutilgan) shohning tojiga qadab qo‘yilsada, firuza yoki gavhar o‘rnini bosa olmaydi. Uni bahosi past ekanini xalq unutmaydi, biladi deydi va quyidagi qit‘ani keltiradi:

Zevar bila shakli ho‘b bo‘lmas ,

Har qizki, erur yomon liqolig‘.

Har necha qorong‘u bo‘lsa hujra

Sham’ anda bo‘lur fuzun ziyolig‘

Xulosa qilib aytganda, Navoiy qit‘alarida mavzular, rang-baranglik, axloqiy falsafiylik, juda yuqori cho‘qqiga ko‘tarilgan. “Mahbub ul-qulub”da har bir tanbih, har bir bobda hikoyat va unga mos tarzda qit‘a masnaviylar keltirilgan. Bu hikoyatlar qit‘alarni o‘qish orqali insonlar ma‘naviyati va madaniyati o‘zgaradi, tafakkuri o‘sadi .

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. “Navoiyshunoslik”. Shuhrat Sirojiddinov , Dilnavoz Yusupova , Olimjon Davlatov Toshkent . Akademnashr. 2020
2. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. -T. 2015
3. Abduqldir Hayitmetov. “Navoiy lirikasi” T .2015
4. Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. To‘rt jildlik T. 1983- 1985.

### **ESHQOBIL SHUKURNING “IBTIDO XATOSI” DOSTONIDAGI EZGULIK VA YOVUZLIK TIMSOLLARI**

**Otaboyeva Muhayyo**

*magistrant,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Eshqobil Shukurning “Ibtido xatosi” dostonida ezgulik va yovuzlik tushunchalari misolida tavsiflangan. Doston she’riy yo‘lda yozilgan bo‘lib, unda insoniyatga xos oliyanob xislatlar ulug‘langan.

**Аннотация:** В данной статье на примере описываются понятия добра и зла в эпосе Эшкabila Шукура “Ошибка Бытия”. Эпос написан в поэтической форме, прославляя благородные качества человечества.

**Abstract:** This article describes the concepts of goodness and evil in Eshkabil Shukur's epic “The Error of Genesis” as an example. The epic is written in a poetic way, glorifying the noble qualities of humanity.

**Kalit so‘zlar:** ezgulik, yovuzlik, Xurmuz, Ahraman, iblis, qora farishta

**Ключевые слова:** добро, зло, Хормуз, Ахраман, дьявол, черный ангел

**Keywords:** goodness, evil, Hormuz, Ahraman, devil, black angel

Har narsaning ziddi bo‘lganidek, yaxshilik yomonlik bilan, sadoqat va vafo xiyonat bilan, oq qora bilan qarshilanganidek, ezgulik ham yovuzlik bilan yonma-yon keladi. Bu to‘qnashuvlar azal-azaldan insoniyatga yaxshi tanishdir. Bu kabi hayotiy tushunchalar adabiyotda ham o‘z aksini topgan. Bunga dalil sifatida bir qancha go‘zal adabiy namunalarni keltirib o‘tishimiz mumkin. Xususan, Hazrat Alisher Navoiy umri mobaynida yaratgan barcha asarlarida ezgulikka yovuzlik

qarama-qarshi qo'yilib, doim ezgulikning g'alaba qozonishi ta'kidlangan. Nafaqat mumtoz adabiyot namunalarida, balki zamonaviy adiblarimiz ijodida ham uchraydi.

Shu o'rinda Surxon vohasining asl farzandi, qalami o'tkir ijodkor Eshqobil Shukur ham o'zining "Ibtido xatosi" dostonida bu qarama-qarshi ziddiyatga alohida to'xtalib o'tgan. Uning bu dostonida ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi mangu kurash tasvirlangan. Axura Mazda (Xurmuz) – ezgulik timsoli bo'lsa, Ahraman – yovuzlik ramzi sifatida berilgan.

Oltin taxtda o'ltirguvchi Axura Mazda,  
Olam ruhini boshqarguvchi Axura Mazda.

Ming yilda

To'rt unsur zuvalasidan

Hayot homilasi – odam vujudini

yaratdi Yaratgan...

So'ng bu vujud uzra

Uyum-uyum jannati ranglarni to'kib

O'z ijodini yana mukarram etdi

Ulug' yaratuvchi [1.: 487.].

Bu she'riy parcha zardushtiylik dinining asosiy ilohi – Axura Mazdaning olamni yaratishi va insoniyatga hayot ato etishini madh etuvchi falsafiy-mifologik mazmunga ega. She'r boshida Axura Mazda "oltin taxtda o'tirguvchi" va "olam ruhini boshqarguvchi" sifatida ta'riflanadi. Bu - uning ilohiy qudratini va olamning mutlaq hukmdori ekanligini ifodalaydi. Zardushtiylikda Axura Mazda ezgulik, nur va haqiqat timsoli bo'lib, uning asosiy vazifasi olamni adolat bilan boshqarishdir.

She'rda Axura Mazda to'rt unsurdan (odatda, tuproq, suv, havo va olov) hayot homilasi – odamni yaratgani ta'kidlanadi. Bu qadimgi Sharq falsafasida keng tarqalgan tushuncha bo'lib, inson tabiat bilan bog'liqligini anglatadi. Yaratuvchi o'z ijodidan mamnun bo'lib, bu vujudni jannat ranglari bilan bezaydi.

Bu esa odamzodning yaratilishida ilohiy go‘zallik va mukammallik mujassam ekanini ko‘rsatadi.

Bu she‘riy dostonni tarixiy va mifologik nuqtayi nazardan chuqurroq anglab yetish uchun “Avesto” va zardushtiylik ta‘limotini o‘rganish foydali bo‘ladi.

Gullarning qonidan to‘ygan Ahraman,

Yulib ariqlarning ulushlaridan

O‘ziga to‘n bichib kiygan Ahraman

Bulbullarning qora qarg‘ishlaridan

Toqat qilolmadi

Qalbga, Odamga

Toqat qilolmadi:

olaning eng so‘nggi kashfiyotiga [1.: 488.].

Bu she‘riy parcha chuqur falsafiy va ma'noli satrlarga ega. Unda zulm va adolatsizlik timsoli bo‘lgan “Ahraman” obrazi orqali insoniyatga nisbatan tahdid, yovuzlik va zulmning tasviri berilgan. Ayniqsa, “Gullarning qonidan to‘ygan Ahraman” misrasi tabiat va hayot go‘zalligining zo‘ravonlik bilan toptalganini bildiradi.

She‘rning asosiy g‘oyasi — yovuzlikning haqiqat, adolat va inson qalbiga qarshi kurashi. “Bulbullarning qora qarg‘ishlari” esa ezgulikning yovuzlik ustidan g‘azabi va nolasi sifatida tasvirlangan. Nihoyat, Ahraman inson qalbiga va olamning “eng so‘nggi kashfiyoti”ga (bu yerda inson qalbini yoki ma‘naviy kamolotini tushunish mumkin) toqat qilolmasligi bilan yakunlanadi.

Asarda insoniyatning yaratilishi, qalbning ikkiga bo‘linishi va erkak hamda ayolning paydo bo‘lishi tasvirlangan. Axura Mazda va Ahraman o‘rtasidagi kelishuv shartlari aniq: odamlar yashaydi, lekin umrlarining chegarasi bo‘ladi. Shu bilan birga, Axura Mazda qalbni ikkiga bo‘lib, yarmini erkakka, yarmini ayolga ato etadi.

Bu dramatik kelishuvda hayot, o‘lim, abadiylik va insoniyatning taqdiri haqida chuqur falsafiy mushohada yotadi. Ahraman inson qalbini butunlay yo‘q qilishga intilsa-da, Xurmuz unga imkon bermaydi.

Asarda erkak va ayol yaratilishi, ularning ilk bor olam bilan tanishuvi poetik tasvirlangan. Dunyoning go‘zalligi, yomg‘irdan tozalangan osmon, suvlar va tabiat – bularning bari yangi insoniyatning ilk tajribasi sifatida beriladi.

Oltin taxtda o‘ltiruvchi Axura Mazda  
Ikki tanga jo qildi bo‘lingan qalbni  
Olam ruhini boshqarguvchi Axura Mazda  
ibtido tongida  
shu taxlit  
Erkak ila Ayolni  
Yaratdi... yaratuvchi...

Ushbu asar ezgulik va yovuzlikning kurashi ustiga qurilgan bo‘lib, erkak va ayol – insoniyatning pokligi, muhabbati va birlik orqali mukammallikka erishishini ifodalaydi. Ular bir-biridan hiron sabab uzoq yillar ayriliqda yashashadi. Muhabbat – eng yuksak ezgulik sifatida ko‘rsatiladi. Muhabbat abadiyatga yo‘l ochib, yangi avlodni yaratadi. Farzandlar esa umid va yangi hayot ramzi sifatida tasvirlanadi. Ular ezgulikning davomchisi bo‘lishi mumkin. Ilohiy ovoz – haqiqat va adolatni ifodalovchi timsol bo‘lib, insonlarni yovuzlikdan ogohlantiradi.

Yovuzlik Tangrisi – Ahraman zulmat, yovuzlik va hiylakorlik timsoli bo‘lib, insoniyatga zarar yetkazishga harakat qiladi. U Xurmuz yaratgan Odam va Qalbga qasdma-qasd, xuddi shu to‘rt ming yil mobaynida tuman-tuman jinlarni, sonsiz sanoqsiz vahshiy morlaru chayonlar va o‘rgimchaklarni yasab dunyoga qo‘yib yubordi. U baribir bu jonzotlarning Xurmuz yaratgan mavjudot qoshida ojiz ekanligini bilardi. Shuning uchun ham u to‘rtinchi ming yillikning oxirgi asrlarida Odam taniga mengzab bir vujud yaratdi va uni Qora Farishta deb atadi.

Ahraman bilan Qora Farishta olmani yeb qovushgach, oradan to‘qqiz oy o‘tdi. To‘qqiz kun o‘tdi... To‘qqiz daqiqa... Va Qora Farishta Odam farzandlari shaklidagi egizak iblisvachchalarni tug‘di. Bu iblisvachchalar uchta edi. Ularni Odam bolasidan farqlab bo‘lmas edi. Ahramanning so‘nggi imkon a‘moli ana shu iblis bolalarda edi [1.: 496.].

Qora Farishta iblsvachchalarning onasi bo‘lib, yovuzlikning davom etishiga sababchi bo‘ladi. Qora olma - insoniyatni shahvat, nafs va yovuzlik yo‘liga boshlovchi la‘natlangan meva. U zulmatning ramzi bo‘lib, odamlarga fitna va buzuqlik olib keladi. Iblsvachchalar inson qiyofasidagi yovuzlikning davomchilari. Ular qullik va zo‘ravonlikni targ‘ib qiladi.

Ahraman so‘nggi umid sifatida zulmatning olmasini yetishtirib, undan tug‘ilgan iblis bolalar orqali insoniyatga ta’sir o‘tkazmoqchi bo‘ladi. Ularni Odam yeriga tashlab, o‘zining yovuzlik urug‘ini ekadi.

Biroq, erkak va ayol bu bolalarni o‘z farzandlaridek qabul qilib, mehr bilan tarbiyalaydi. Ilohiy ovoz ularni ogohlantiradi: bu bolalar yovuzlik, qullik va zulmni ulug‘laydi, ularni yo‘q qilish kerak. Lekin Erkak va Ayol insoniylik tamoyilidan voz kechmaydi – ular bolalarni asrab oladi, mehr bilan ezgulik sari yo‘naltirishga harakat qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, ezgulik va yovuzlik kurashi insoniyat tarixidagi eng asosiy bahsdir. Bu parcha insoniyatning azaliy ma’naviy kurashi, mehr va yovuzlik, muhabbat va hijron, ezgulik va zulmat o‘rtasidagi ziddiyatni yoritadi. Bu doston orqali muallif insonning tanlovi qanchalik muhim ekanini ko‘rsatadi: agar inson mehr va adolat yo‘lini tanlasa, u mukammallikka erishadi; agar yovuzlikka berilsa, halokat sari boradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Rahimjonov N. Quvvatova D. O‘roqova N. – Zamonaviy doston xrestomatiyasi, – Buxoro, 2021.
2. Eshqobil Sh. – Ibtido xatosi, - She’riy doston. – Buxoro. 2021
3. Eshqobil Sh. – Hamal ayvoni. She’rlar va doston. – Toshkent, “Sharq” nashriyoti. 2002.

## AZIZ SAIDNING “TURG‘UNLIK BOLALARI” DOSTONIDA TRAGIZM

**Otaxonova Zubayda,**

*magistrant,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Maqolada Aziz Saidning “Turg‘unlik bolalari” dostonidagi tragizm masalasi tadqiq etilgan. Asardagi davr tragizmi misollar vositasida tahlil qilingan.

**Аннотация.** В статье рассматривается проблема трагедии в эпической поэме Азиза Саида «Дети застоя». Трагизм периода в произведении анализируется на примерах

**Abstract.** The article examines the issue of tragedy in Aziz Said’s epic poem “Children of Stagnation”. The tragedy of the era in the work is analyzed using examples.

**Kalit so‘zlar:** turg‘unlik, davr fojiasi, qahramon fojiasi, muallif fojiasi, davr va qahramon.

**Ключевые слова:** застой, эпохальная трагедия, героическая трагедия, авторская трагедия, эпоха и герой.

**Keywords:** stagnation, epochal tragedy, heroic tragedy, author’s tragedy, era and hero.

O‘zbek adabiyotida bugun ham XX asr voqealari shoir-yozuvchilar tomonidan ko‘p murojaat qilinadigan mavzulardan bo‘lib qolmoqda. Xo‘sh, nega hamon zamondosh ijodkorlar o‘tgan asr voqealariga qayta-qayta murojaat qiladi, bu davr nimasi bilan hamon kitobxon uchun qiziq? Ulug‘bek Hamdamning quyidagi fikrlari buning sababini anglashga yordam beradi: “XX asrda vatandosh inson juda ko‘p voqealar, evrilishlarni boshidan o‘tkazdi: oz emas, ko‘p emas, naqd uchta ijtimoiy tuzumni ko‘rdi; ikkita jahon urushi, inqilob taloto‘plari, fuqarolik urushi va ularning dahshatli oqibatlariga guvoh bo‘ldi; inqilobiy shiorlar-u porloq kelajakka beshak ishonadimi yo shubhalanadimi, qat’i nazar, insonlikka zid zulm ostida o‘zi anglab yo anglamay erkka tashnalik hissi bilan yashadi” [3.: 4.]. XX asr chindan ham butun dunyoda murakkab va ziddiyatlarga

boy davr bo'ldi. Davr inson taqdiriga o'z ta'sirini o'tkazganidek, davr kishisi ruhiyati, o'y-fikrlari adabiyotga ko'chdi, unda o'z aksini topdi. Bugungi kitobxon hali hanuz o'tmish og'riqlaridan forig' bo'lolgani yo'q. Hali aytilmagan gaplar, ochilmagan sir-u sinoatlar bisyor. Xususan, Aziz Saidning "Turg'unlik bolalari" dostoni ham bizga "turg'unlik davri" deb nomlangan 60-yillar fojealaridan so'zlaydi.

Lirikadagi fojeliq xususida adabiyotshunos olim Suvon Meli shunday degan edi: "Lirik fojeliq mungli hissiyotning she'rdagi ifodasi sifatida tabiiy asosga ega" [1.: 23]. Lirik asarlarda ham ayni hayot yashaladi, biroq his-tuyg'uni ifoda qilish yo'sini nasr va nazmda farq qilishi tabiiy.

"Turg'unlik bolalari" dostoni mavzusi sobiq sho'ro tuzumi olib borgan paxta siyosati, uning insonlar hayotiga ta'siri va ayanchli oqibatlarini o'z ichiga olsa-da, g'oyaviy jihatdan erk uchun kurash, til va qadriyatlarning toptalishi kabi og'riqli masalalar ham qalamga olinadi. Qisqa hajmli dostonda qator obrazlar ishtirok etgan bo'lsa-da asosiy urg'u sarlavhadayoq bolalarga beriladi. Doston "Dars", "Darsdan so'ng", "Uyda", "Uydan tashqari", "Kommunist" va "Yana dars" deb nomlangan 6 qismdan iborat. Ahamiyatlisi shundaki, dostonda ishtirok etgan kattalar, xususan, muallimlar obrazi orqali mavjud tuzum dahshatini his qilgan, uning chirkin hiylalarini yaxshi anglagan insonlarni ko'ramiz. Dostonda tragizm ham har bir bo'limda o'sib boradi va "Uydan tashqari" qismiga kelganda shu qadar cho'qqisiga yetadiki, beixtiyor kitobxon doston sarlavhasida nega turg'unlik so'zining yolg'iz o'zi emas, balki "bolalar" so'zi bilan ishlatilganini tushunadi. Shunga ko'ra, dostonning haqiqiy kulminatsiyasi "Uydan tashqari" bo'limi deyish mumkin. "Hissiyotning turli-tumanligi, so'z san'atining cheksiz imkoniyati hamda badiiy asarning tinimsiz tovlanishi lirik fojeliq rang-barangligini tayin etadi",- ta'kidlaydi Suvon Meli. Aziz Said ham asarda tilga olingan davr va siyosat mohiyatini turli daraja va yoshdagi insonlar hayoti misolida ochib beradi.

Dostonga kiritilgan birorta obraz yo'qki, hayotini "turg'unlik" muvozanatdan chiqarib yubormagan bo'lsa. Ana shu o'rinda davr, qahramon va muallif tragizmi masalasi o'rta chiqadi. Adabiyotshunos Y. Karimova tragizm tasnifi haqida

Suvon Melining yuqoridagi tasnifini keltirib unga “Suvon Meli tarafidan taqdim etilgan bo‘linishga to‘rtinchi bo‘lib tragik idrok ham qo‘shilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi deb o‘ylaymiz”,- deydi [4.: 307.]. Biroq nazarimizda, taklif qilingan tragik idrok badiiy idrok masalasi doirasida o‘rganilishi maqsadga muvofiq.

Dostonda muallif va qahramon tragizmi bevosita davr tragizmi bilan bog‘liq. Demak, qahramonlar bevosita davr qurboni. Asar dars bilan boshlanib dars bilan tugaydi. Birinchi “Dars” tarix mualliminiki. Shoir muallimni ta’riflar ekan, uning bir paytlar umr qog‘ozlariga xayolidagi ilohiy ranglardan qushlar sayrog‘ini chizmoqchi bo‘lganini aytadi va:

*So‘ng esa*

*Hayotning beshafqat dastgohlarida*

*Kunlarini randalab, tunlarini qirqib,*

*Kaflari qavargan, tirnog‘i singan*

*Bahaybat qo‘llarin solib cho‘ntakka*

*(G‘ilofga solingan boltami deysiz)*

*Tarix muallimi kirar sinfga. [2.: 39.]*

O‘z-o‘zidan savol tug‘iladi: nega aynan tarix muallimi? Shu o‘rinda XX asr boshlariga qaytgan holda jadidlarning til va din birligi, tarixni asrash va kelajakka yetkazish haqidagi qarashlarini eslash savollarimizga javob bo‘ladi. Chunki har qanday mustamlakachi davlat biror mamlakatga kirib kelar ekan, eng avval uning tarixi, madaniyati, qadriyati, dini va tilini yo‘q qilishga, o‘zgartirishga tirishadi. Shoir ham bu o‘rinda ana shu ochiq haqiqatga ishora qiladi.

Darsda “r” ni aytolmaydigan Turg‘un savolga tutiladi. Bir narsa diqqatimizni tortadi: demak, Turg‘un o‘z ismini ham to‘g‘ri aytolmaydi. Chunki u nutqida “r” harfi o‘rnida “y”ni qo‘llaydi. So‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilolmaydigan obrazni Muhammad Yusufning “Qora quyosh” dostonida ham uchratamiz. Muhammad Yusuf qahramoni tug‘ma soqov bo‘lib, “U dohiy otini To‘g‘ri aytolmay, Hammaning oldida “Ishtalin” dedi!” Biroq noto‘g‘ri talaffuzdan Muhammad Yusuf va Aziz Said ko‘zlagan maqsad boshqa. Muhammad Yusuf o‘z asarida tug‘ma soqov obrazini kitritib, shaxsga sig‘inishning, adolatsiz va shafqsiz

tuzumning jirkanch ko‘rinishlarini ochib bergan bo‘lsa, Aziz Said dostonida “r” ni aytolmaydigan obraz kiritilishi yana bir muhim ma’no kasb etadi. U bolaga odamlar nazarida “buzilgan” lekin juda to‘g‘ri ism beradi– Tuyg‘un! Tuyg‘un so‘zi etimologik lug‘atlarda “tez fahmlaydigan”, “sezgir” deya izohlanadi (O‘zbek tilining etimologik lug‘ati 1-jild). Demak, muallif qahramonga faqat o‘zi “xato qilib” aytishi mumkin bo‘lgan asl ismni qo‘yadi. Shunday ekan, Tuyg‘un beradigan javoblar ham o‘z-o‘zidan tasodif bo‘lmaydi:

*–Koptazm degan yeyda*

*Qoya tan tug‘ilgan hay bola*

*Hay kuni och qolay, ishlay*

*Sahaydan to shomga qaday*

*Ya’ni ekspaxta bo‘lay. [2.: 40.]*

Bola “ekspluatatsiya” so‘zini ekspaxta sifatida ishlatadi. Kapitalizm illati sifatida qoralanayotgan qora tanlilarning ekspluatatsiya qilinishi, aslida, paxta siyosati natijasida bizga ham qo‘llandi degan gapni ana shu birgina so‘z bilan ifodalaydi.

“Dars” boshidanoq asarga kirib kelgan muallim tabiati keyingi o‘rinlarda yanada ochiladi:

*Yurakday yorilar toqat bo‘g‘zida*

*Muallim qalamni olar pichoqday*

*Va kesar ro‘yxatni yarim belidan:*

*–O‘tir! Bahong uch, aytganing to‘g‘ri.*

*Muallim to‘rt qo‘ya olmaydi,*

*Chunki Turg‘un o‘zining o‘g‘li. [2.: 40.]*

Muallim darsni yakunlar ekan “Kommunizm degan sirli shaharga” tomon suzishayotganini aytib, pichirlaydi: “Havasim kelmaydi sizlarga lekin...” Biz yuqorida asardagi muallimlar obrazi orqali siyosiy hiylalarga aldanmagan haqiqiy ziyoli kishilar tasvirlanganini aytgan edik. Ko‘rib turganimizdek, bu o‘rinlarda kommunizmning aslida ro‘yo ekanini va bolalar shu shirin ro‘yolar ortidan butun

umr sarson bo‘lishini anglagan va ana shu tufayli ham ularga achinish bilan qaragan muallimni ko‘ramiz.

“Darsdan so‘ng” qismida maktabdan kelgan o‘quvchi kitobxaltasini ayvonga bo‘shatar ekan, uni “Zamonlar to‘kilar shaldirab” deya ta’riflaydi. Kitoblar ochilib varaqlari bir-biriga kirib ketar ekan, holat quyidagicha tasvirlanadi:

*So‘ng o‘qiy boshlaydi o‘zbek tilini*

*Rim gladiatorlari...*

*Pyotr I esa Sahroi Kabirda sarson*

*O‘rganar*

*Sut emizuvchilar oilasini. [2.: 41.]*

Tarix, Ona tili, Biologiya, Fizika kabi kitoblarning bir-biriga aralashib yotishi shoir tasavvurida reallikka ko‘chadi. Xo‘sha, kitoblar nega uloqtirildi? Chunki kitobxaltaning “Darsdan so‘ng”gi vazifasi boshqa... Chunki darsdan so‘ng bolalarning vazifasi dars qilish emas, balki jang qilish!

Yuqorida tasvirlangan holatni davr fojeasining inson qismatiga ko‘chishi sifatida qabul qilish to‘g‘riroq bo‘ladi. Aslida o‘qib-ilm olishi kerak bo‘lgan bolalar vaziyat taqozosiga ko‘ra tirikchilik deb atalmish katta mas’uliyatni kattalar kabi his etishadi.

Uchinchi– “Uy” qismi ham ana shu ochlik mavzusi bilan boshlanadi. Qahramonimiz oilasi 9 kishilik faqat otasi maosh olishi hisobidan kun ko‘ruvchi oila. Biroq ana shu maosh olishga 4 kun qolganda pul tugaydi. Bola nigohidagi bu nochorlik agar har bir oilaning madhiyasi bo‘lganida ular oilasining madhiyasi ham shunday bo‘lard:

*Tong otadi,*

*Non-choy,*

*Jan-jal.*

*Tush bo‘ladi,*

*Non-choy,*

*Jan-jal.*

*Kun botadi,*

*Non-choy,*

*Jan-jal. [2.: 45.]*

Va oilaning bayrog‘i ham tayin– 9 odam to‘ymay bo‘shab qolgan dasturxon! Diqqat qilsak, asar eng boshidan voqealarga munosabatda faqat muallif va qahramon bola qarashi bayon qilinadi. Bola xayoloti juda tez va u aldash, riyokorlik bilmaydi. Buni bola agar otasi qamalsa va onasi tugun ko‘tarib borishi kerak bo‘lsa unga nima soladi, degan savoldan ham bilsak bo‘ladi. Bola har qanday jiddiy holatni ham oson tasavvur qila oladi. Uning dahshatini bolalarcha qarichlaydi. Shuning uchun onasi ajrashish haqida gap ochsa, u qaysi biri bilan qolish haqida o‘ylaydi. Qahramonimiz muammoga yana bolalarcha yechim topadi:

*Men yolg‘on “e‘lon”ni e‘lon qilaman:*

*“Maktabga boringlar, majlis bor bugun”.*

*Va yaxshi bilaman u yerda*

*Yechilib ketar har qanday tugun. [2.: 47.]*

Yuqorida ta‘kidlanganidek, har bir qahramon qismati alohida fojea. Va bularning asosida davr masalasi turadi. Shoir buni juda yaxshi anglaydi va kitobxonga davr tragizmini juda ishonarli tarzda yetkazib beradi.

Xulosa o‘rnida aytganda, dostonda ramz, kinoya, konflikt, tragizm kuchli bayon etiladi. Yuqorida tahlillar orqali ko‘ramizki, shoir o‘zi ifodalamoqchi bo‘lgan fikrni shunchaki aytib qo‘ymaydi, balki o‘ziga xos ramzlar, holatlar orqali obrazli tarzda bayon qiladi. Chirkin siyosat va uning oqibat-natijalarini, davr muammosining insonlar hayotidagi fojiiyaviy ko‘lamini misollar bilan ochiqalaydi. Bo‘limlarni bog‘lab turuvchi ip ham bolalar. Ularning mislsiz fojeasi doston davomida kitobxonni mushohada yuritishga, o‘z tanida his qilib ko‘rishga undaydi. Biroq muallif ilk o‘rindayoq bizga bir umidni yashiradi– Tuyg‘un! Ya‘ni turg‘unlik bolalari qancha aldov va adolatsizliklar ichida bo‘lmasin, ularda bir umid, ishonch qoladi. Muallima aytganidek, qo‘ng‘iroqdan uyg‘onish sergak tortish kerak bo‘ladi. Bu vazifa ham ana shu –tuyg‘unlar zimmasida qoladi!

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Meli Suvon, So‘z-u so‘z: “Adabiyot falsafasi”ga chizgilar. – Toshkent, Sharq, 2020. 528 b.
2. Aziz Said. Vaqt manzili. –Toshkent: Akademnashr, 2012. 218 b.
3. Hamdamov Ulug‘bek. Yangi o‘zbek she‘riyati. Monografiya. –Toshkent, 2012. 250 b.
4. O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy offline-online anjuman materiallari.

### **SHUHRAT MATKARIMNING “YAXSHILIK” VA “SAXOVAT” HIKOYALARIDA INSONIYLIK G‘OYALARI TALQINI**

**Qo‘ziyeva Shahrizoda,**  
*magistrant,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya:** Maqolada Xorazm adabiy muhitida barakali ijod qilayotgan, o‘z uslubiga ega bo‘lgan Shuhrat Matkarimning “Yaxshilik”, “Saxovat” hikoyalaridagi bosh g‘oya – insoniylik timsoli haqida fikr yuritiladi. Yozuvchi mahorati va o‘ziga xosliklar haqida so‘z boradi.

**Аннотация:** В статье рассматривается основная идея — символ человечности – в рассказах «Добро» и «Щедрость» Шухрата Маткарима, который плодотворно творит в литературной среде Хорезма. Исследуются мастерство писателя и его своеобразие.

**Abstract:** The article discusses the main idea of the embodiment of humanity in the stories "Kindness" and "Generosity" by Shukhrat Matkarim, who is actively working in the literary environment of Khorezm and has his own style. The writer's skill and unique features have been studied

**Kalit so‘zlar:** urf-odat, o‘zbekona lutf, sof qalb, iymon, insof, yaxshilik, odamiylik, mehr-oqibat.

**Ключевые слова:** традиция, узбекская благодать, чистое сердце, вера, совесть, добро, человечность, милосердие.

**Keywords:** tradition, Uzbek kindness, pure heart, faith, honesty, goodness, humanity, kindness.

O‘zbek adabiyotida hikoyachilik juda keng tarqalgan janr bo‘lib, hozirgi adabiy jarayonda ham qator qalamkashlarning bu borada barakali ijod qilayotgani hajman qisqa janrning qanchalik ahamiyatli ekanidan darak beradi.

Hikoyada boshqa janrlardan farqli o‘laroq, yozuvchining his-tuyg‘u, kechinma, qahramonlar ruhiyati, davrning ijtimoiy muhiti, zamon koloriti ixchamlashtirib bayon etiladi. Xuddi shu ixchamlik, so‘zga tejamkorlik nasrnavislardan katta va yuksak mahorat talab etadi. Bahodir Karim aytganidek, “hayotni, odamlar ruhiyatini, poetik tafakkur tabiati va ayniqsa, san‘at qonuniyatlarini bilmay turib, insoniyat uchun zarur, foydali, umriboqiy asarlar yozib bo‘lmaydi” [1.: 5.]. Mana shunday, inson ruhiyati, odamiylik me‘zonlarini chuqur anglab, oddiy va ravon usulda hikoyalariga ko‘chirgan, o‘z uslubiga ega yozuvchilardan biri Shuhrat Matkarimdir. Yozuvchi tabiatan so‘zlarni “quruq” qo‘llaydigan ijodkor hisoblanadi. Ya’ni, ortiqcha tashbeh-u mubolag‘alarsiz, quruqqina, tasvir etajak asar voqealarini boricha bayon etadi. Ijodkor xarakteriga “bezash” yot tushuncha. Quyida yozuvchining “Yaxshilik” va “Saxovat” hikoyalarini tahlilga tortamiz.

“Yoshi ulug‘ bo‘lishiga qaramay, u kishi yana menga birinchi bo‘lib salom berdi” [2.: 184.]. Yozuvchi “Yaxshilik” deb nomlagan juda qisqa bu hikoyasini nima uchun aynan salom berish voqeasi bilan boshladi? Sababi, o‘zbek xalqi azal-azaldan o‘zining ulug‘, mustahkam e‘tiqodi, pok iymoni va urf-odatlarini bus-butunligicha saqlab kelmoqda. Shunday ekan, har bir o‘zbek, Avvalo, so‘zini “Assalomu alaykum” “Sizga sog‘lik, omonlik tilayman” degan ibora bilan boshlaydi. Negaki, Salom berish orqali, inson o‘zida odob-axloq qoidalarining mavjudligi, o‘zbekona fazilatlar umumlashmasiga egaligini ko‘rsatadi. Darvoqe, hech bir gap salomsiz boshlanmaydi. Shuning uchun ham, ota-bobolarimiz “Salom Xudoning nomi”, tarbiyaning belgisi, odoblar majmuasi deya talqin etadilar. Hatto, Payg‘ambarimiz Muhammad s.a.v “Albatta, Salom Allohning ismlaridan biridir. U Zot uni yer yuziga qo‘ygandir. Uni orangizda yoyinglar. Bir kishi bir

qavmga salom bersa, ular alik olsa, ulardan bir daraja ustun bo‘ladi. Chunki, u ularga salomni eslatgan bo‘ladi”,- deya aytganlar [5.: 3]. Bu bilan salomning naqadar muhim va qimmatli jumla ekani ta’kidlanadi. Demak, insoniylikning boshlanmasi salom o‘laroq yuzaga chiqar ekan.

Shu o‘rinda, Hikoya prologidagi alohidalikni kasb etgan yana bir o‘ringa e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, “yoshi ulug‘” so‘ziga urg‘u berilganining guvohi bo‘lamiz. Faqat o‘zbek xalqiga xos fazilat emasmi, o‘zidan kichiklarni izzat qilib, sizlab murojaat qiladigan. Nosir ham yoshi ulug‘ kishi tomonidan salom berish o‘rnini qo‘llash orqali o‘zbekona lutf, zamon talato‘plarida ham o‘chmaydigan hurmat belgisini tasvirlamoqda. Hikoya qahramoni insoniylik xususiyatlarini to‘la mujassamlashtirib, o‘zgacha, ulug‘likka xos viqor bilan “yana jilmayib xol-ahvol so‘rashdi. Sog‘lik, omonlik tiladi” [2.: 184.]. Ajdodlarimizning qon-qoniga singib ketgan, tanigan-tanimagan, katta-yu kichikka birday “omonliq-somonliq” tilab, qo‘llarini duoga ochishi ham asl o‘zbek kishisining yuksak qadriyatlar ummonidan sug‘orilgan pok qalbgga ega ekanligi, ruhini sof insoniy fazilatlar bilan chayganidan darak beradi. O‘qirman yuqoridagi suhbatdan hikoya qahramonlari o‘zaro qadrdon deya o‘ylashi, tabiiy. Ammo, keyingi o‘rinlarda mutlaqo bir-biriga yot kishi tomonidan bunday hurmat ko‘rsatilayotganining guvohi bo‘lamiz.

“Bunday qaraganda, uni tuzukroq bilmayman ham. Bu kishini atigi bir marta uyiga mashinamda eltib qo‘yganman. Faqat bir marta. Tasodifan” [2.: 185.]. Bundan ko‘rinadiki, hatto tanimagan, tasodifan yaxshilik qilgan kishiga yaxshilik ko‘rgan inson tomonidan hurmat ko‘rsatilmoqda. Anglashiladiki, pok, samimiy qalbgga egalik, insoniy xislatlarga to‘la shaxs tanish-notanish tanlamaydi. Shaxs, balki, e’tiqod, vijdon, botiniy olam uyi zamon tanlamaydi, makon tanlamaydi, millat tanlamaydi. Bilaks, insoniylik o‘z egasini tanlaydi. Shuhrat Matkarim hajman qisqalikka asoslangan bu hikoyaga ulkan yuk orta olgani bilan ham butun bir insoniyatni bir-biridan farqlab turadigan yuksak tuyg‘u- insoniylikni bosh planda tasvirlagan. Yozuvchi bu kabi fazilatlardan ilhomlandi, chog‘i, “Saxovat” deb nomlangan, mavzu jihatidan o‘xshash ikkinchi hikoyaga qo‘l uradi. Hikoyada

bosh qahramon notanish qishloq bo‘ylab ketayotgani tasviri bilan boshlanadi. Ushbu tasvir orqali ham ijodkor aytmoqchi bo‘lgan haqiqat anglashilgandek, nazarimizda.

“ – Xoy uka, non yeb keting!

Ikki notanish juvon non yopmoqda ekan. Qarayman, kiyib olgan “Tandir choponlari” issiqligidanmi va yo tandirning xovuridanmi har ikkalasi, ayniqsa, tandirdan non uzayotganining yonoqlari o‘t-olov bo‘lib qizargan, manglayida reza-reza ter qalqqan” [2.: 185.]. Yozuvchi butun maqsadini hikoya boshlanmasida aytib bo‘lgan edi: “Notanish qishloq bo‘ylab ketyapman...”

Sujet chizgisi ohistalik bilan keyingi jumlagi mantiqiy bog‘lanib, hikoya mazmuni ochiladi. Ya’ni, notanish ikki ayol “Non yeb keting”, - deya murojaat qiladi. Bu birgina murojaat orqali ijodkor yana o‘zbek xalqiga xos lutfni umumlashtirib, ayollar tilidan bayon etadi. Demak, yozuvchi eng ulug‘ fazilat – saxovat qadriyat va insoniylik mezonlari asosida shakllanadi deya ta’kidlamoqda.

“Yaqin borib salom berdim va yoqimli hid taratayotgan so‘lqildoqqina nondan bo‘lib yedim – “tuz totdim” [2.: 185.]. Yozuvchi keyingi o‘rinda tasvirlangan nondan yegani, “tuz totgani” orqali asl o‘zbekona urf-odatlarining ilk ko‘rinishini bayon etadi. Sababi, mehmonga borganda, mehmon kutilayotganda, albatta, dasturxonga birinchi bo‘lib non tortiladi. Bu qadriyat asrlar mobaynida unutilmasdan, zarracha ahamiyati yo‘qolmasdan saqlanib kelinmoqda. Ushbu an’ana va qadriyatni millat koloriti o‘laroq amalga oshirgani esa, yozuvchi mahoratidasn darak beradi. Millat koloriti bir necha o‘rinlarda ochiqqlangan esada, eng original tashbeh – “Tandir choponlari” iborasida o‘z aksini topgan. Bilamizki, o‘zbek ayollari tandirga non yopayotganda qo‘llari, yuz-ko‘zi, umuman tanasi kuyib qolmasligi uchun eski, paxtali chopon kiyib olishadi. Uning yenggida, odatda, qizarib pishgan nonlar qo‘yilib, nonning yuzi yaltillashi uchun suv sepiladi. Shu o‘rinda, yozuvchi Shuhrat Matkarimning xorazmlik ekanini bilib olish qiyinchilik tug‘dirmay qoladi. Sababi, Xorazmda boshqa viloyatlardan farqli o‘laroq, “aylanma tandir”dan foydalaniladi. “Yarim tandir”dan emas. Tabiiyki, non yopayotganda, yoinki non uzayotganda, tandirga suyanib non uziladi. Demak,

Xorazmda “Tandir chopon” juda ahamiyatli. Bu ko‘rinish hozirgi kungacha saqlanib kelmoqda. Har hududning ham belgi beradigan shu kabi qadriyatlari mavjud. Qadriyat haqida gapira turib, nosir o‘qiguvchini biroz chalg‘itishni niyat qiladi va keyingi o‘rinlarda kitobxonning yuragini jimirlatib yuboradigan bir jumla bilan hikoyani yakunlaydi:

“Ulardan uzoqlashar ekanman, xoh tanish, xoh notanish bo‘lsin barchaga yaxshi niyatlar tilab, tuz-nasiba tottirmoqdalar, bundan ham buyukroq saxovat bormikan dunyoda”, - deya fikr kechdi xayolimdan...[2.: 185.]. Ijodkor yuqoridagi fikrlari orqali insondan faqat shirin so‘z, savobli amal va yaxshilik qolishini uqtirmoqda. Haqiqatda, non yopayotgan ikki ayol misolida har bir shaxs o‘ziga oyna tuta bilishi kerak degan g‘oya yotadi. Agar xohlasang, sen ham, men ham, u ham – barcha yaxshilik qila oladi. Dunyo razolatga to‘la. Sen, o‘zing yaxshi bo‘l deyilmoqda, nazarimizda. Insoniylik tushunchasini keng ma‘noda anglay olgan, chuqur idrok etgan shaxsgina haqiqiy “Inson” degan nomga to‘la loyiq hisoblanadi. Shuhrat Matkarim o‘zi ta’kidlaganidek, “Yaxshilik, insoniylikdan ham buyuk saxovat yo‘q”.

Xulosa qilib aytganda, “Yaxshilik” hamda “Saxovat” hikoyalarini bugungi kun kishisi uchun ibratomuz tarzda yaratilgan ijod mahsuli desak, ayni muddao bo‘ladi, nazarimizda. Shuhrat Matkarim quyidagi hikoyalarida, asosan, o‘zbeklarga xos milliy koloritni aks ettirgan. Buni o‘qigan kitobxon o‘zida milliylik, odob-axloq qoidalari, hurmat, insoniylik, o‘z qadriyatlariga sodiq qolish, urf-odat va an‘analariga hurmat ruhida tarbiyalanadi. Har bir inson yetuklik sari odimlar ekan, unda, avvalo, kuchli iroda, kibrdan holi qalb va ruhiy tetiklik mujassamligi asosiga qurilgan – Insoniylik bo‘lmog‘i darkor. Mana shu tushuncha barcha boshlanma va yakunlanmalarning mezonini saqlab turadi. Shuhrat Matkarim asarlari esa, ayni shu mezonlar ustiga qurilganligi bilan ahamiyatlidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Karimov B. Ruhiyat alifbosi. – Toshkent, 2018.
2. Shuhrat Matkarim. Kun shunday boshlanadi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2017.

3. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. – Toshkent, 2006.
4. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: “O‘zbekiston, 2002.
5. Baxriyev O. Salomni yoying, salomat bo‘lasiz.

<https://www.bukhari.uz/?p=30903&lang=oz>

## **OZOD SHARAFIDDINOV SUHBATLARIDA TANQIDCHILIK MASALALARI**

**Rahimbayeva Sojida,**

*magistrant,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Ozod Sharafiddinovning suhbatlarida adabiy tanqidning o‘rni, vazifalari va tamoyillari yoritiladi. Adabiy tanqidning badiiy asarlar tahlilidagi roli, tanqidchi mas‘uliyati va badiiylik mezonlari haqida olimning qarashlari tahlil qilinadi. Shuningdek, uning o‘zbek adabiy tanqidchiligiga qo‘shgan hissasi va bu sohadagi muammolarga munosabati ochib beriladi.

**Аннотация.** В статье рассматриваются роль, задачи и принципы литературной критики в беседах с Озодом Шарафиддиновым. Анализируются взгляды ученого на роль литературной критики в анализе произведений искусства, ответственность критика, критерии художественности. Раскрывается также его вклад в узбекскую литературную критику и его отношение к проблемам в этой области.

**Abstract.** This article discusses the role, tasks and principles of literary criticism in Ozod Sharafiddinov's interviews. The scientist's views on the role of literary criticism in the analysis of works of art, the responsibility of the critic and the criteria of artistry are analyzed. His contribution to Uzbek literary criticism and his attitude to the problems in this field are also revealed.

**Kalit soʻzlar:** Adabiy tanqid, Ozod Sharafiddinov, tanqidiy qarashlar, badiiylik, tahlil, estetik tafakkur, adabiyotshunoslik, tanqid usullari, adabiy jarayon.

**Ключевые слова:** Литературная критика, Озод Шарафиддинов, критические взгляды, художественность, анализ, эстетическое мышление, литературоведение, методы критики, литературный процесс.

**Keywords:** Literary criticism, Ozod Sharafiddinov, critical views, artistry, analysis, aesthetic thinking, literary studies, methods of criticism, literary process.

Adabiy tanqid adabiyotning ajralmas qismi boʻlib, uning rivojlanishi va tahliliy yondashuvini shakllantirishda muhim oʻrin tutadi. Oʻzbek adabiy tanqidchiligida alohida oʻringa ega boʻlgan munaqqid va adabiyotshunoslardan biri Ozod Sharafiddinovdir. U oʻzining ilmiy-tanqidiy qarashlari bilan nafaqat zamonaviy adabiyotga, balki yosh avlodning estetik didi va badiiy tafakkurining rivojlanishiga ham katta taʼsir koʻrsatgan. Uning suhbatlari ham adabiy tanqidning dolzarb masalalarini qamrab olib, tanqidning mohiyati, vazifasi, uslubi va jamiyatdagi oʻrnini chuqur tahlil qiladi. Mazkur maqolada Ozod Sharafiddinov suhbatlarida tanqidchilik masalalarining yoritilishi tahlil qilinib, uning adabiy tanqidchilik rivojiga qoʻshgan hissasi oʻrganiladi. “Tanqidchining kuchi, tanqidchining qadri uning adabiy jarayonga taʼsiri bilan belgilanadi, - deb yozadi O. Sharafiddinov “Tanqidchilik kasbi haqida” maqolasida, - Adabiy jarayonga taʼsir koʻrsatish uchun tanqidchi gʻoyat chuqur, gʻoyat salmoqli, dalilli fikrlar, muammolar, mulohazalarni oʻrtaga tashlashi kerak. Fikr esa gʻoyibdan hosil boʻlmaydi. Fikr bilimning hosilasi”. Ozod Sharafiddinov tanqidchilik muammolariga ham koʻp toʻxtalib oʻtganlar. Tanqid – bu adabiyotdagi goʻzallikni kashf etish, adabiyotning badiiyligini aniqlash, insonga taʼsir qiladigan estetik omillarini belgilovchi sanʼat. U oʻzbek adabiy tanqidchiligiga munosabat bildirib, uning rivojlanishi uchun toʻsiq boʻlayotgan bir qator illatlar xususida soʻz yuritganlar. Masalan, eng katta kamchilik – vulgar sotsiologizm usuliga keragidan ortiq mahliyo boʻlish. “Sotsiologik tahlil oson - uni amalga oshirish uchun unchalik jon kuydirmasdan - asarning mavzusini, mazmunining asosiy nuqtalarini

aytasanda, o‘shanga yaqin hayot voqealariga solishtirasan, so‘ng o‘zingning bir-ikkita “dono” xulosalarini aytasan, muallifga qayerni tuzatish, qayerni kuchaytirish, qayerni olib tashlash to‘g‘risida “qimmatli maslahatlar” berasan, tamom-vassalom. Lekin bunaqa “tanqid”dan na kitobxonga, na ijodkorga foyda bor”. Shu bilan birga, “tanqidning bu shakliga murojaat qilishga majbur etadigan sabab - bilimning sayozligi, saviyaning pastligi”, deya kuyinib yozadi adabiyotshunos. Ozod Sharafiddinov o‘z ijodida tanqidchilarni ogohlantirib, tahlilda bir yoqlamalik, bir xillikdan, sxematizmdan qochishga undardi. Masalan: “... ayrim o‘rinlarda muhabbat zo‘rayib ketib (Cho‘lponcha), obyektivlikka putur yetkazib qo‘yayotganga ham o‘xshaydi. Biz ba‘zan... Cho‘lponni ideallashtirishga, o‘zi yashagan zamindan olib, zamonaviylashtirishga harakat qilyapmiz... avvalari Cho‘lpon faqat qoralanib kelgan bo‘lsa, endilikda uni salkam farishta sifatida ko‘rsatishga intilmoqdalar”. Vaholanki, buyuk Cho‘lpon haqida ham faqat bir tomonlama fikr yuritish katta xatolikka yo‘l qo‘yish bo‘ladi. Ozod Sharafiddinov aytganlaridek, “haqiqiy iste‘dod egasi hech qachon jo‘ngina formulaga tushadigan yuzaki odam bo‘lmaydi”. Olim qaysi ijodkor asarini tahlil qilmasin (xoh yosh yozuvchi bo‘lsin, xoh tajribali)- bu ijodkorning asarlarini go‘yo o‘z laboratoriyasi obyektiga aylantirar, o‘zi ham har biridan saboq, ma‘naviy ozuqa olishga harakat qilar edilar. Tanqidchilikning vazifasini ijodkorga faqat aql o‘rgatishda, faqat ko‘kka ko‘tarib yoki yerga urishda emas, asarlardan badiiylikni axtarishda deb bilar edilar. Ana shunday jarayonlar ichida Ozod Sharafiddinov tafakkurining diapazoni ham kengayib, tushunchasi rivojlanib borgan. Zero, umri davomida son-sanoqsiz asarlarga munosabat bildirgan bo‘lsalar, ularning hech qaysisi tasodifiy asarlar bo‘lmagan. Qaysi ijodkor xususida to‘xtalmasinlar - Cho‘lpon, Abdulla Qahhor, G‘afur G‘ulom, Zulfiya, Said Ahmad har bir yozgan maqolalarida ularning nafasi sezilib turar edi. Har bir adabiy turning yetakchi janri bo‘lganiday, adabiy-badiiy tanqidning ham mashhur qadimiy janri bor. Bu – adabiy-tanqidiy portret bo‘lib, uyushtiruvchi, qoliplovchi xususiyatga ega. Mukammal adabiy portret tarkibida taqriz, sharh, badia, bahs singari shakllarni farqlash qiyinmas. Tanqidchi adabiy jarayonga ta‘sir etish - taqrizlar, sharhlar, maqola yozish, bahsga

kirishish, suhbatlar qurish bilan birga yirik janrdagi asarning poydevorini qurib, materiallarini yig'ib boradi. Ozod Sharafiddinov umri davomida yuzlab maqolalar, taqrizlar, sharhlar yozdi. O'zbek adabiyotining o'sishida iste'dodli shoir yozuvchilarning kashf qilinishida, ijodkorlar mahoratining o'sib borishida, to'laqonli xarakterining vujudga kelishida, tanqidiy asarlarning hissasi ulkan. Olim o'z maqola, taqrizlarini umumlashtirish - yirik ilmiy nazariy tadqiqotlar va mukammal adabiy portretlar yaratish yo'lini tanladi, hamda yetuk ijodkorlar portretini yaratishda uning maqola-portretlari o'ziga xos o'rin egallaydi. Munaqqid yaratgan portretlar o'zining takrorlanmas jozibador, shirali tili bilan ajralib turadi. "Ijodni anglash baxti" kitobidagi adabiy suhbatlar turli mavzularga bag'ishlangan bo'lsa-da, ularda tanqidchilik talqinlari ustuvorlik qilganligini kuzatamiz. Suhbatlarda biror adibning ijodi to'g'risida so'z ochilar ekan, uning bosib o'tgan yo'li uchun har jihatdan xarakterli asarlari tanlab olinadi, shu asosda san'atkorning ijodiy yo'li, taqdiri o'ziga xos yozuvchilik dunyosi, qaytarilmas uslubi, qisqasi, betakror qiyofasi, adabiyot taraqqiyotida tutgan o'rni ko'rsatib beriladi. Munaqqidning Elbek Holiqov bilan suhbatini "Istiqlol adabiyoti eng ilg'or adabiyotdir" deb nomlanadi. Suhbatda adabiyotshunoslik va adabiy tanqidning ilg'or vazifalari, mustaqillik yillaridagi o'zgarishlar qayd etiladi. Istiqlol adabiyotining ijodkorlarni yetmish yillik tanazzulni yengib o'tishlarini talab etishi, yangi adabiyot yaratish uchun ijodkorning tafakkuri ham o'zgarishi, yangilanishi lozimli xususida fikrlashiladi. Suhbatdoshning: "Davrimiz qahramoni badiiy siyomosini yaratishda nimaga alohida e'tibor bermoq lozim, deb o'ylaysiz?", degan savoliga munaqqid Ozod Sharafiddinov shunday javob beradi: "Istiqlolimizning o'zi davr qahramonlarini yuzaga chiqardi. Ular ishchilar o'rtasida ham, dehqonlar ichida ham, ziyolilar orsida ham serob. Yoshlarimiz ulardan ibrat olsin. Binobarin ularning yorqin obrazlarini yaratish adabiyotimizning dolzarb vazifasidir. Muhtaram Prezidentimiz yozuvchilar e'tiborini shu masalaga qaratar ekan, bundan adabiyotimiz zamonning ilg'or talablari darajasida turishini istagani, g'amxo'rliqi yaqqol sezilib turibdi. Men bu dono va hikmatli da'vatni to'la-to'kis quvvatlayman". Munaqqid adabiyotshunos va tanqidchilarning masalaga

yondashishlari, fikrlarini yoritir ekan, ba'zilar bu davr qahramoni "tadbirkor" bo'lishi kerak, degan fikrda ekanligiga to'xtalib aytadiki, adabiyot qahramonni kasb-koriga qarab emas, balki hayotiylik mezonlariga qarab talqin etishi kerak. Zero, bunday tarzda kasb-koriga qarab tasnif qilish tanqidchilikni, munaqqidlarni ancha-muncha chalkash, boshi berk, qing'ir-qiyshiq ko'chalarga olib kirib qo'yishi mumkin. Adiblar oldiga qahramonlarni emas, balki ularning badiiy siymosini yaratish vazifasi qo'yilgan. Munaqqidning "Hurriyat" gazetasining muxbiri bilan suhbatlarida ham adabiyotshunoslik va tanqidchilikning muammoli masalalariga e'tibor qaratiladi. Ozod Sharafiddinov tanqidga ta'rif berar ekan: "Tanqid – bu adabiyotdagi go'zallikni kashf etish san'atidir", deydi. O'zbek adabiy tanqidchiligining tamoyillari, tahlil va talqin masalalari xususida o'z fikrlarini bayon qiladi. Adabiy tanqidning ijtimoiy-axloqiy vazifasi yuksak san'at uchun kurash olib borish va shuning vositasida komil insonni tarbiyalashga xizmat etishdan iborat ekanligini chuqur anglagan munaqqid o'z maqolalarida xolislik tamoyiliga tayandi. Adabiy tanqidning maqsadi badiiy ijodning hamma masalalarini jamiyatning hayoti uning moddiy va ma'naviy boyliklarini yaratish yo'lidagi kurash bilan bog'lab o'rganish va tushuntirishdan iborat. "Adabiy tanqid va yangi tafakkur" deb nomlangan suhbat ayni tanqidchilik masalalariga bag'ishlanadi. Ahmad Otaboyev bilan bo'lgan mazkur suhbatda tanqidchilik va adabiyot munosabati masalalari yoritiladi. Suhbatda o'zbek adabiy tanqidchiligining tadqiqot usullari, tanqidchilik va adabiyotshunoslik masalalari, bugungi kun qahramonini yaratish muammolari haqida fikr yuritiladi. Suhbat mazmunidan Ozod Sharafiddinovning adabiy tanqid va uning muammolari haqida astoydil qayg'uradigan olim ekanligi anglashiladi. Ma'lumki, ba'zida adabiy tanqidning badiiylik mezonlariga qat'iy va odilona baho bera olmasligi sababli, badiiy jihatdan mukammal bo'lmagan ba'zi bir asarlar, ayniqsa ular taniqli yozuvchilar qalamiga mansub bo'lsa, vaqtinchalik shuhrat pillapoyalariga chiqarib qo'yiladi. Bu esa eng avvalo tanqidchining estetik didi, saviyasi, qolaversa uning qanchalik haqqoniyligiga borib taqaladi. Shuning uchun ham Ozod Sharafiddinov badiiylik va tanqidchi mas'uliyati haqida bahs yuritarkan, eng avvalo hayot

haqidagi badiiy in'ikosning estetik va ijtimoiy mohiyatini, qolaversa haqiqiy hayot nafosatini chuqur tushunishlikni talab qiladi. Tanqidchining tadqiqotlari yozuvchining estetik mazmuni qay darajada mohirona, badiiy tasvirlay olganligiga qaratishi lozimligini alohida uqtiradi. Ozod Sharafiddinov o'zining badiiylik haqidagi qarashlarida san'atning obyektiv qonun-qoidalariga asoslanadi, tanqidagi xushomadgo'ylik, e'tiqodsizlik qattiq qoralanadi. Ozod Sharafiddinov badiiylik haqida bahs yuritarkan mashhur yozuvchilar asarlarini va endigina adabiyot maydoniga kirib kelayotgan yosh iste'dodli ijodkorlar asarlarini bir-biriga taqqoslab, ularni bir qatorga qo'yib tahlil qilishi natijasida noyob talantlarni o'z vaqtida ilg'ay oladi. Ozod Sharafiddinovning tanqidchilik uslubidagi bu odilona yo'nalish uning adabiy-tanqidiy qarashlarini bezaydigan, eng tosh bosadigan mezonlardan biri ekanligini aytish mumkin. Masalan, Ozod Sharafiddinov Oybek, Hamid Olimjon, Shayxzoda, Mirtemir poeziyasi haqida fikr yuritarkan, 70-yillarda adabiyotga dadil qadamlar bilan kirib kelayotgan Usmon Azim, Xurshid Davron, Shavkat Rahmon kabi yosh shoirlarning chinakam poeziya namunalarini tahlil qilib ularning iste'dodi bilan o'quvini keng tanishtiriladi. Ozod Sharafiddinov ular ijodini badiiy ta'sir kuchi zaif bo'lgan asarlar yozishi natijasida, poeziya olamini o'rtamiyona she'rlar bilan to'ldirib yuborayotgan ijodkorlarga ibrat qilib ko'rsatadi, ular oldiga yuksak talablar qo'yadi. Ozod Sharafiddinovning badiiylik haqidagi qarashlarida yozuvchining hayot hodisasini takrorlanmas, o'ziga xos tashbehlar orqali aks ettirishi badiiylik va obrazlilikning eng muhim sharti ekanligi qayd etiladi. Ozod Sharafiddinov tanqidiy qarashlarining asosiy sifat yo'nalishlaridan yana biri poeziya olami sirlarini yetuklik bilan nazariy jihatdan tahlil qilishi va shu bilan XX asr o'zbek poezisining ijobiy tendensiyalarini, nafosati va kamchiliklarini odilona ko'rsatib bera olganligidadir. Umuman, Ozod Sharafiddinovning yoshlar poezidagi ijodiy faollikni katta umid bilan tahlil qilib, nazm cho'qqilarini egallash borasidagi ularning ijodiy muvafaqiyatlari o'tkinchi bir narsa emasligiga qaratilgan salmoqli adabiy-tanqidiy fikrlari 60-70-yillar adabiy-tanqidchiligining rivojiga munosib hissa bo'lib qo'shilgan edi. Ozod Sharafiddinov o'zining ilmiy va tanqidiy faoliyati

davomida adabiy tanqidning mohiyati va ahamiyatini yuksak baholab, uning asosiy tamoyillarini aniqlab berdi. U adabiy tanqidni faqatgina asarni baholash vositasi emas, balki san'atning go'zalligini anglash, badiiyligni targ'ib qilish, ijodkorning estetik qarashlarini shakllantirishning muhim vositasi sifatida talqin etdi. Uning suhbatlarida tanqidning maqsadi va uslubi bo'yicha ilgari surilgan fikrlar bugungi kun adabiyotshunosligi uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Olimning yondashuvi, xolis va dalillarga asoslangan tanqidiy fikrlari, yangi asarlarni tahlil qilishdagi obyektivligi o'zbek adabiy tanqidchiligida muhim o'rin tutadi. Uning ilmiy merosi bugungi kunda ham yosh adabiyotshunos va munaqqidlar uchun ibrat bo'lib xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Toshkent: Sharq, 2004.
2. Sharafiddinov O. Adabiy etyudlar. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1968.
3. Otaboyev A. Hurriyat gazetasi “Adabiy tanqid va yangi tafakkur”.
4. Holiqov E. “Istiqlol adabiyoti eng ilg'or adabiyotdir” suhbatlari.
5. Sharafiddinov O. Tanqidchilik kasbi haqida maqolasi.
6. [www.adabiyot.uz](http://www.adabiyot.uz)
7. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
8. [www.google.uz](http://www.google.uz)

### **YOZMA ADABIYOTDA MAQOL JANRINING TARIXIY TARAQQIYOTI (“DEVONU LUG‘OTIT TURK”, “QUTADG‘U BILIG”, “HIBAT UL- HAQOYIQ” ASARLARI MISOLIDA)**

**Raximov Ruslan Quvondiqivich,**

*magistrant,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yozma adabiyotda maqol janrining shakllanishi va taraqqiyoti tahlil qilinadi. Xususan, qadimgi turkiy yozma yodgorliklar – Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug‘otit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” hamda Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq”

asarlarida uchraydigan maqollar tadqiq etiladi. Ushbu manbalarda keltirilgan maqollar mazmun-mohiyati, badiiy va falsafiy jihatlari hamda ularning turkiy xalqlar tafakkurida tutgan oʻrni tahlil qilinadi. Maqol janrining tarixiy taraqqiyoti, uning ijtimoiy-madaniy ahamiyati va keyingi davrlardagi rivoji haqida fikr yuritiladi.

**Аннотация.** В данной статье анализируется формирование и развитие жанра пословиц в письменной литературе. В частности, рассматриваются пословицы, встречающиеся в древнетюркских письменных памятниках — Махмуда Кошгарий *“Девону луготит турк”*, Юсуфа Хос Хожиба *“Қутадғу билиг”*, Ахмада Югнаки *“Ҳибат ул-ҳақойиқ”*. Анализируется смысловое содержание этих пословиц, их художественные и философские аспекты, а также их значение в мировоззрении тюркских народов. Рассматривается историческое развитие жанра пословиц, его социально-культурное значение и дальнейшая эволюция в последующие периоды.

**Abstract.** This article analyzes the formation and development of the proverb genre in written literature. In particular, proverbs found in ancient Turkic written monuments – Mahmud Koshgariy's *“Devonu Lugotit Turk”*, Yusuf Khos Hojib's *“Qutadgu Bilig”*, and Ahmad Yugnaki's *“Hibat ul-Haqoyiq”* – are studied. The meaning, artistic and philosophical aspects, and the significance of the proverbs in these sources within the intellectual heritage of the Turkic peoples are examined. The historical development of the proverb genre, its socio-cultural significance, and its further evolution in later periods are discussed.

**Kalit soʻzlar:** yozma adabiyot, maqol janri, turkiy yodgorliklar, *“Devonu lugʻotit turk”*, *“Qutadgʻu bilig”*, *“Hibat ul-haqoyiq”*, tarixiy taraqqiyot, badiiy tafakkur, xalq donoligi.

**Ключевые слова:** письменная литература, жанр пословиц, тюркские памятники, *“Девону луготит турк”*, *“Қутадғу билиг”*, *“Ҳибат ул-ҳақойиқ”*, историческое развитие, художественное мышление, народная мудрость.

**Keywords:** written literature, proverb genre, Turkic monuments, "*Devonu Lugotit Turk*", "*Qutadgu Bilig*", "*Hibat ul-Haqoyiq*", historical development, artistic thinking, folk wisdom.

### **Kirish.**

Har bir xalqning tafakkuri, hayotiy tajribasi va madaniy merosi uning ogʻzaki va yozma adabiyotida oʻz aksini topadi. Maqollar xalq donoligining mujassam ifodasi boʻlib, asrlar davomida avlodan-avlodga yetib kelgan. Ular insoniyatning hayot tajribasi, axloqiy qarashlari va maʼnaviy qadriyatlarini oʻzida aks ettirib, badiiy tafakkurning muhim janrlaridan biri sifatida shakllangan. Turkiy xalqlarning ilk yozma adabiy yodgorliklari hisoblangan "Devonu lugʻotit turk", "Qutadgʻu bilig" va "Hibat ul-haqoyiq" asarlarida maqollarning keng qoʻllanilishi ularning oʻsha davrdagi ijtimoiy hayot, maʼnaviy qadriyatlar va badiiy tafakkurdagi oʻrnini belgilab beradi. Ushbu asarlardagi maqollar inson hayoti, davlat boshqaruvi, adolat, axloq, ilm va tarbiya kabi muhim masalalar bilan bogʻliq boʻlib, bugungi kunda ham oʻz dolzarbligini saqlab qolgan. Mazkur maqolada maqol janrining tarixiy taraqqiyoti tahlil qilinib, yuqoridagi uchta muhim manbada uchraydigan maqollar mazmun-mohiyati, badiiy-estetik xususiyatlari va ularning turkiy xalqlar madaniyatidagi oʻrni koʻrib chiqiladi. Shuningdek, maqollar orqali oʻsha davr kishilarining dunyoqarashi va hayot haqidagi falsafiy qarashlari yoritiladi.

Mahmud Koshgʻariy tomonidan yaratilgan "Devonu lugʻotit turk" asari nafaqat turkiy tillarning ilk lugʻati, balki xalq hayoti, dunyoqarashi va tajribalarini aks ettirgan bebaho manbadir. Ushbu asarda turkiy xalqning ogʻzaki ijodi namunalaridan boʻlgan maqollar, hikmatli soʻzlar va sheʼriy parchalar koʻp uchraydi. Ayniqsa, maqollar xalqning turmush tajribasi natijasida shakllangan donishmandlik namunasi boʻlib, oʻsha davrning ijtimoiy hayotini aks ettiradi. Masalan, quyidagi sheʼr maqolga aylanib ketgan hikmatli xulosa bilan yakunlanadi:

*Kichik bolub jaġini jêrgü êmäs,*

*Êzgürmâzib kuzsa anî êlni qunar. [3.: 37.]*

Bu she'r mazmuni bugungi kunda ham mashhur bo'lgan "Dushmaning xas bo'lsa ham qo'rq" maqoliga mos keladi. Unda dushmanni kichik deb mensimaslik xavfli oqibatlariga olib kelishi mumkinligi haqida ogohlantiriladi. Bu esa xalqning hayotiy tajribasi va real voqelikni idrok etish tarzini aks ettiradi.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari davlat boshqaruvi, axloq-odob, adolat va taqdirga doir falsafiy qarashlarni yorituvchi pandnoma xarakteridagi yirik asardir. Unda ko'plab maqollar, aforizmlar va hikmatli fikrlar mavjud bo'lib, ular xalq og'zaki ijodidagi maqollar bilan uzviy bog'liqdir. Masalan, asarda quyidagi fikr bayon etiladi: *"Yaxshi qiliq oq sut bilan kirsa, O'lim kelib tutmaguncha o'z tarzini o'zgartirmaydi."*[4.: 35.]

Bu fikr xalq orasida keng tarqalgan "Yaxshi odat – umrboqiy" yoki "Yaxshi xulq – insonning asl boyligi" kabi maqollar bilan bog'liqdir. Ushbu aforizmda "yaxshi odat" tushunchasi "yaxshi qiliq" va "oq sut" birikmalari orqali yoritilgan bo'lib, ayniqsa, turkiy xalqlar madaniyatida "oq sut" halollik va poklikning ramzi sifatida qabul qilingan. Bu esa axloqiy qadriyatlarning o'ziga xos tarzda ifodalanganini ko'rsatadi.

Shuningdek, "Qutadg'u bilig" asarida keltirilgan quyidagi maqol diqqatga sazovordir: *"Rizqli, mard kishi uchun mol-dunyo kamaymaydi, Tug'ilgan oqqush uchun don kamaymaydi."*[4.: 2020-bayt] Bu maqol insonning halol mehnati, saxovatpeshaligi va taqdirga bo'lgan ishonchi bilan bog'liq falsafiy tushunchalarni aks ettiradi. U nafaqat rizqning tugamasligi, balki mardlik, iymon va birovning nasibasiga ko'z olaytirmaslik tushunchalarini o'z ichiga oladi.

Mazkur mazmun Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridagi "Og'ilxonada buzoq tug'lsa, ariq bo'yida o't unadi" maqolida ham o'z ifodasini topgan. Ushbu maqollar turkiy xalqlarning hayotiy tajribasi va dunyoqarashidan kelib chiqib, rizq Alloh tomonidan ato etilishi, har bir jon egasining o'z nasibasiga ega ekani haqidagi chuqur falsafiy tushunchani tasdiqlaydi.

Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asari ham didaktik ruhdagi asarlardan biri bo'lib, unda axloqiy va ijtimoiy masalalar hikmatli so'zlar

vositasida yoritilgan. Ushbu asarda ham xalq maqollariga monand fikrlar ko‘plab uchraydi. Asarda donishmandlik va axloqiy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi maqollar turkiy xalq tafakkurining shakllanishiga xizmat qilgan. Maqol janrining ushbu yodgorliklardagi aks etishi shuni ko‘rsatadiki, maqollar xalq tajribasi, hayotiy kuzatishlari va ma‘naviy qadriyatlarining in‘ikosi sifatida uzoq tarixga ega bo‘lib, keyinchalik ham yozma va og‘zaki adabiyotda o‘z ahamiyatini saqlab qolgan. Ular nafaqat xalq donoligining ifodasi, balki badiiy-estetik hodisa sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, maqollarni o‘rganish turkiy xalqlarning madaniy merosi va tafakkuri haqida chuqurroq tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

### **Xulosa.**

Maqola janri o‘zbek adabiyotida qadimdan shakllanib, turkiy xalqlar yozma merosida muhim o‘rin egallagan. “Devonu Lug‘otit Turk”, “Qutadg‘u Bilig” va “Hibat ul-haqoyiq” asarlarida maqol janrining ibratli, nasihatombuz va didaktik xususiyatlari yaqqol namoyon bo‘ladi. Ushbu asarlar tarkibidagi maqollar turkiy xalqlarning hayotiy tajribasi, dunyoqarashi va axloqiy qadriyatlarini aks ettirgan bo‘lib, ularning jamiyatdagi tarbiyaviy va ma‘naviy ahamiyati yuqori bo‘lgan. Maqollar ushbu asarlarda hikmatli fikr, o‘g‘it va donishmandlik namunasi sifatida xizmat qilib, turkiy adabiy tafakkur rivojida muhim rol o‘ynagan. Ular nafaqat ma‘naviy-ma‘rifiy ahamiyatga ega, balki badiiy-estetik jihatdan ham o‘ziga xos uslubiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu yodgorliklardagi maqollar keyingi davrlardagi turkiy adabiyot rivojiga ham katta ta‘sir ko‘rsatib, xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyotning uyg‘unligini ta‘minlagan. Shunday qilib, maqol janri turkiy yozma manbalarda hayotiy tajribaning mujassam ifodasi sifatida shakllangan bo‘lib, uning bugungi adabiy jarayonda ham dolzarbligicha qolayotgani muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Абдуллаев. Х. “Кутадғу билиг”даги халқ мақолларининг бадий-эстетик вазифалари // “Кутадғу билиг” – буюк маънавий мерос. Илмий конференция материаллари. – Т., 2010.

2. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк (ДЛТ). I. – Тошкент: ФАН, 1960. – 500 б.

3. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк (ДЛТ). II. – Тошкент: ФАН, 1960. – 428 б.

4. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг (Ҳозирги ўзбек тилига ўгирувчи Ф.Равшанов). – Т.: Академнашр, 2015.

## **OSHIQ ERKINNING XALQ OG‘ZAKI IJODI TA‘SIRIDA YARATILGAN SHE‘RLARI BADIYYATI**

**Ro‘zibayeva Maftuna,**

*magistrant,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Oshiq Erkin she‘rlarida xalqona ruh ustuvor ekanligi, she‘rlaridagi badiiy tasvir vositalari yoritilgan.

**Аннотация:** В данной статье в свободном стихе любовника преобладает народный дух, а также выделены средства художественной образности в стихотворениях.

**Annotation:** This article highlights the primacy of folk spirit in Ashiq Erkin’s poems and means of artistic imagery in his poems.

**Kalit so‘zlar:** folklor, she‘riyat, tashbeh, talmeh, humo qushi, hikmatlar, ibora.

**Ключевые слова:** фольклор, поэзия, ташбе, талме, птица-хумо, словосочетание, пословица.

**Key words:** folklore, poetry, allusion, talmeh, humo bird, proverbs, phrase.

Hozirgi o‘zbek adabiyoti tarixiga nazar tashlar ekanmiz, bevosita Oshiq Erkin o‘ziga xos ahamiyatga ega ijodkor ekanligi bilan ajralib turadi. Oshiq Erkin so‘zning ta‘sir kuchini anglagani holda, so‘zlardan samarali foydalana olgan serqirra ijod sohibidir.

Bilamizki, xoh shoir bo‘lsin, xoh yozuvchi bo‘lsin, u biron-bir asar yozar ekan, unga, albatta, biron narsa turtki bo‘ladi. Buni ko‘pincha xalq og‘zaki ijodi

namunalari orqali izohlashimiz mumkin, chunki ko'pgina asarlarda folklor, ya'ni xalq og'zaki ijodi unsurlari, elementlari sezilib turadi. Shu jumladan Oshiq Erkin she'riyatini olsak, shoirning deyarli barcha she'rlari xalqona uslubda, xalq tiliga yaqin. Shuningdek, she'rlarida iboralar, hikmatlar, shevaga oid so'zlardan unumli foydalangan:

Tiqmag'il og'zingga birdan ikkala panjangni ham,

Do'st-u yoring zumda yoningdan quyon bo'lg'ay sening [1.: 29.]

Agar xotam bo'lmoqchi bo'lsang, ikkala panjangni ham og'zingga tiqmagil (xalq iborasi bilan), aks holda do'st-u yorlaring yoningdan quyon kabi qochadi (xalq iborasi bilan). Bilamizki, panja iborasi qo'lga nisbatan ishlatiladi va inson ovqat yeyayotganda ham, asosan, o'ng qo'lda ovqatlanadi, ikkala qo'lni esa birdek og'izga tiqib bo'lmaydi. Xalq orasida esa ochko'z, nafsi och, hamma narsaga bir vaqtda erishishga harakat qiladigan kimsalarga nisbatan "ikkala panjani ham og'ziga tiqmoq" iborasi ishlatiladi. Shuningdek, do'st-u birodarlaring seni tark etishi, "quyon bo'lmoq", "quyon bo'lib qochmoq" iborasi bilan izohlangan. Qochish, qo'rqqoqlik xususiyatlari, asosan, quyonga xos va buni biz ertaklarda ham ko'rishimiz mumkin. Oshiq Erkin bularni yaxshi bilgani holda go'zal tashbehtar, o'xshatishlar vositasida chiroyli qilib ifodalagan. Yoki:

Topganing yurtning ila xotam bo'lib ko'rgil baham,

El aro odamliging shunda ayon bo'lg'ay sening [2.: 29.]

Insonning qanday inson ekanligi uning qilgan amallari, saxovatpeshaligida, topganlarini boshqalar bilan baham ko'rishida namoyon bo'ladi. She'rning oxirgi baytini olsak:

Bo'lmag'il qul, Oshiq Erkin, zarra dunyo moliga,

O'yla, umring so'ngida yo'ling qayon bo'lg'ay sening [3.: 29.]

Ya'ni, ijodkor she'rni oxirida o'ziga murojaat qilgani holda, dunyo moliga, dunyoviy narsalarga qul bo'lib qolma, o'ylaki, umring oxiri qanday tugaydi. Kishi bu dunyoda qilgan yaxshi amallari ila umrboqiy bo'lishini ta'kidlaydi. Shoirning bu she'ri (xotam ersang) boshidan to oxirigacha hikmatlardan iborat desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu jumladan, "Yurtboshimiz omon bo'lsin" she'rini tahlil

qiladigan bo‘lsak, tashbeh, talmeh, takrirlarning go‘zal namunalari uchratishimiz mumkin:

Olloh yor ekan o‘zbeqim, taxting bor ekan, o‘zbeqim.

Boshginangga qo‘ndi humoy, baxting bor ekan o‘zbeqim.

Baxsh aylagan erkin zamon, yurtboshimiz bo‘lsin omon [4.: 3.].

She‘rdagi ”boshga humo qo‘nishi” iborasi tarixiga nazar tashlasak, azaldan humo qushi baxt,omad keltiruvchi qush sifatida tasvirlanadi va davlatqush deb ham yuritiladi. Ertak va dostonlarda ham agar yurtda podshoh vafot etib qolsa, o‘rniga biror kimsani qo‘yish uchun humo qushi uchirilgan, agar qush kimning boshiga qo‘nsa, o‘sha yurtga podsho qilib tayinladi. Buni hattoki “Kuntug‘mish” dostonida ham ko‘rishimiz mumkin:

Bachchalarning borganiga besh oy-olti oy bo‘lib edi, shu shaharning podshosi Buvraxon podsho o‘ldi. U vaqtida podsholarga rasm shu edi: davlatqush degan qushini uchirar edi, kimning boshiga qo‘nsa, podsho qilar edi. Shu davlatqushni uchirganiga uch kun bo‘lib edi. Zangar shahrining jamiy katta-kichik odami dalada edi. Qush goh daraxtga, goh devorga qo‘nib yurib edi. Banogoh shu vaqtda Kuntug‘mish to‘raning ham guzari shu yerga tushib qolgan ekan. Kuntug‘mish to‘ra katta bir chilimni beliga boylab olibdi, o‘zini hech odamga o‘xshatmay, yomon jandalarni kiyib, o‘zini shaylab olibdi. Hech kim bilan ishi yo‘q, odam bilan hushi yo‘q, o‘zidan boshqa kishi yo‘q; chekadi bang, aytadi vadavang. Bir qurib qolgan daraxtning ostiga borib, ko‘mir qilmoqchi bo‘lib, olov yoqib, nashaning taraddudida edi, davlatqushi borib to‘raning boshiga qo‘ndi. Shahri Zangarning odamlari qushni quvalab borsa, qush bir devonaning boshiga qo‘nib turibdi. Qush adashdi deb uch marta olib uchirishadi va uchalasida ham qush shu devonaning boshiga qo‘nadi. So‘ngra to‘rani olib borib podshoh qilib saylashadi [5.: 23.].

Oshiq Erkin esa yurtboshimiz davlat tepasiga kelishi bilan yurtimiz mustaqillik, istiqloлга erishdi va u boshimiz ustida parvona bo‘lgan humo bo‘ldi. U zot tufayli mamlakatimizda baxtli, ozod va obod zamon hukmron bo‘ldi, deya yurtboshimizni boshga qo‘ngan humo qushiga qiyoslagan.

Millatni sen jon-u tani, Manguberdilar chamani,  
Olam aro dong taratgan Amir Temurning vatani,  
Baxsh aylagan yangi davron, yurtboshimiz bo‘lsin omon.

She’rning keyingi satrlarida bizning ona diyorumizda Jaloliddin Manguberdi, Amir Temurlardek buyuk zotlar yashab o‘tgani, bir paytlar dunyoni lol qoldirgan yurt ekanligini ta’kidlab o‘tmoqda va bularning tepasida turgan sarbonimiz doimo sog‘-omon bo‘lishini niyat qilmoqda. She’rdagi bu so‘zlar vositasida talmeh (arabcha nazar tashlamoq, baytda tarixiy shaxslar, shuningdek voqea-hodisalarga ishora qilishdir) san’ati yuzaga kelgan. Shuningdek, keyingi satrlarda ham talmehning go‘zal na’munasi aks etgan:

Qizlari Shirin-u, yigitlari – Farhod,

Muhammaddek yurtga fidoiy bu avlod [6.: 93.].

Yoki: Jamoling ro‘baro etgan Ollohimga tasadduq jon,

Tasadduq jon, seningdek shakarxoyimni [7.: 56.].

Bu baytlar orqali qaytarish, takrir san’atini kuzatishimiz mumkin, ya’ni tasbe –birinchi misra oxiridagi so‘z ikkinchi misra boshida keladi (tasadduq jon kabi).

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Oshiq Erkin ijodida xalq og‘zaki ijodi ustuvorlik qiladi va buning yorqin namunalarini yuqoridagi misollar orqali izohlashga harakat qildik. Shoir folklordan asar shaklini yaratish uchun emas, balki asar mazmunini yanada boyitishda ustalik bilan foydalanadi. Ijodkor haqida sira ikkilanmay shuni aytish mumkinki, Oshiq Erkin asarlarining yutug‘ini ta’minlovchi omillardan biri uning xalq og‘zaki ijodiga yaqinligi, xalqona uslubning kuchliligidadir. Shuningdek, shoir folklordan mahorat bilan foydalanish orqali kitobxonga badiiy-estetik zavq bag‘ishlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Oshiq Erkin. O‘lguncha sizni derman. – Toshkent G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot–matbaa ijodiy uyi. 2007. 110 b.

2. Oshiq Erkin. Bir hikmat bor muhabbatda. – Urganch: “Xorazm” nashriyoti 1994. 9 b.

3. Oshiq Erkin. Jayhun jilovdori. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.

4. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Kuntug‘mish dostoni. – Toshkent, 1975.

## SAYYORA SAMANDAROVA IJODIDA VATAN MOTIVI

**Ro‘zimova Saboxon,**

*magistrant,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada qalami o‘tkir, iste’dodli shoira Sayyora Samandarovaning ijod gulshanidan o‘rin egallagan, Vatan madhini tarannum etgan bir qancha she’rlari tahlilga tortiladi. She’rlarning o‘ziga xos badiiy ifodasi xususida so‘z yuritiladi.

**Аннотация.** В данной статье будет проанализирован ряд стихотворений талантливой поэтессы Сайёры Самандаровой, занявших место в гульшане творчества, прославивших государственный гимн. Обсуждается специфика художественной выразительности стихотворений.

**Abstract.** This article analyzes several poems of the talented and gifted poet Sayyora Samandarova, which are part of the flower of creativity and glorify the motherland. The specific artistic expression of the poems is discussed.

**Kalit so‘zlar:** she’r, motiv, misra, lirika, Vatan madhi, ichki sezim

**Ключевые слова:** стихотворение, мотив, стих, текст песни, национальный гимн, внутреннее чувство.

**Key words:** poem, motif, verse, lyrics, national anthem, inner feeling

Adabiyot yaralibdiki, inson qalbi hamisha she’riyatga oshnodir. Boisi she’riyat inson qalbiga bitmas-tuganmas ma’naviy ozuqa baxshida etadi. Har bir inson o‘ziga xos his-tuyg‘u sohibidir. Ana shu hissiyotlarni esa she’riyat gulshanida yaralmish turfa ijod namunalari adabiyotga oshufta qalblarning dil torlarini mayin ohangga soladi, ularning ichki sezimlarini junbushga keltiradi. Bu kabi holatlarni, ayniqsa, lirikaning Vatan madhiga bag‘ishlangan jihatlarida to‘laqonli ko‘rishimiz mumkin desak, hech ham yanglishmagan bo‘lamiz. Chunki Vatan madhiga bag‘ishlangan har bir she’rni o‘qir yoki tinglar ekanmiz o‘zimizda beixtiyor g‘urur, erk, faxr, sadoqat, yurtga nisbatan iliq mehr tuyamiz. Ma'lumki, o‘zbek she’riyatida Vatan mavzusida qanchadan qancha qalam ahli barakali ijod qilishgan hamda bu an'ana zamonamiz shoirlarining asosiy mavzu doirasida hali-

hanuz o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. Shulardan biri sifatida iste‘dodli shoira, ko‘plab adabiyot ixlosmandlari qalbidan chuqur o‘rin egallagan Xorazm farzandi Sayyora Samandarovani bemalol aytishimiz mumkin.

Sayyora Samandarovanning mohirona, so‘z qo‘llashdagi uslubi boshqalarnikidan tubdan farq qiladi. Shoira she‘r yozish jarayonida qanday mavzuni qalamga olmasin, uni ortiqcha jimjimador, bo‘yoqlarsiz holatda oddiy, go‘zal tashbehlar asnosida yaratishi alohida e‘tirofqa loyiqdir. Shuningdek, Vatan madhiga bag‘ishlab yozgan qator she‘rlari, shubhasiz, o‘z muxlislarini topib ulgurgan. Yana shuni aytish darkorki, shoira o‘z ijodida bir she‘r zamiriga Vatan ichida kichik Vatan tamoyili asosida yondashadi. Ya‘ni ona zaminimiz O‘zbekiston qalamga olinar ekan, go‘zal voha hisoblanmish Xorazm nomi ham birgalikda uyg‘un tarzda keltiriladi. Bu esa, o‘z navbatida, she‘rning jozibadorligini yanada oshirgan, badiiy jihatdan sayqallanishiga, mazmuniy tugalligiga o‘z hissasini qo‘shgan:

Ey, meni tug‘ib, voyaga yetkazgan ona Xorazm!

Ey, meni bag‘riga bosib turgan O‘zbekistonim!

Vatanim!

Tingla, yurak amrim farmon bo‘ladi,

O‘ylasam, o‘ylarim osmon bo‘ladi [3.: 46.].

Ushbu misralarni o‘qir ekanmiz, shoiraning yurak qa‘ridan chiqayotgan sof undov, murojaatiga bevosita guvoh bo‘lamiz. U shunchalar to‘lib-toshyaptiki, Vatanning ertasi haqidagi o‘ylari, hattoki, samolarga ham yetishini ta‘kidlaydi. Yana bir she‘rida shoiraning o‘zi ta‘kidlaganidek: “Jonimizday bitta O‘zbekistondir bu!” [2.: 14.].

Chindan ham, bundayin kuch hamma-hammaning ham qo‘lidan kelavermaydi, bir so‘z bilan aytganda, bu ayol jasoratidir. Keyingi misralarda shoira o‘z fikrini izchil shaklda davom ettiradi. Endi shoira insonlarga to‘g‘ridan to‘g‘ri murojaat etadi hamda xitob tarzida shunday misralarni keltiradi:

Kimki ko‘zin tiksa bu azim yurtga,

Topgani, yetgani armon bo‘ladi.

Ogoh bo'lsak agar har lahza, har on,  
Yurtning har mushkuli oson bo'ladi.

Shoira Vatanni, Vatan tushunchasini shunchalar ardoqlaydiki, o'zining shirin jonini ham baxshida etishga tayyordir. Inson uchun bu hayotda jonidan bo'lak omonati yo'q, biroq shoira yurt yo'lida jonini ham qurbon qilishga tayyor.

Bag'rimda gul ochar yangi niyatlar,  
So'zlasam, so'zlarim doston bo'ladi.  
Elning dardlariga bir malham bo'lib,  
Har so'zim gul ochib, bo'ston bo'ladi.

Ona xalqim, derlar shirin erur jon,.

So'rasang, shu jonim qurbon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Sayyora Samandarova ijodida Vatan mavzusi alohida ahamiyatga molikdir. Shoira Vatan haqidagi o'z tushunchalarini faqatgina hudud doirasi bilan chegaralanib qolmasdan o'zbekona milliy qadriyatlar, urf-odat va an'analar bilan mazmunan boyitadi, ularga sharqona ruh bag'ishlaydi. Sayyora Samandarovanning har bitta she'ri alohida olamdir. Uning she'rlari, shaksiz, she'riyatdan o'zini yiroq hisoblagan har qanday insonning e'tiborini jalb qila oladi. Shunday ekan, shoiraning ijodiga tahsinlar aytmasdan ilojimiz yo'qdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Erkin Samandar, Sayyora Samandar. .... Va yana bahor: she'rlar va qo'shiqlar. – Toshkent, 2010.
2. Sayyora Samandarova. Faqat ishq. – Toshkent, 2024.
3. Sayyora Samandarova. Mening haqiqatlarim. – Buxoro: Durдона, 2024.

# MAHMUD TOIR IJODIDA KICHIK SHE'RIY SHAKLLARNING TUTGAN O'RNI

**Ro'zmetova Maxfuza,**

*magistrant,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada istiqlol davrida vujudga kelgan kichik she'riy shakllar, xususan, Mahmud Toir ijodidagi ikkilik, to'rtliklarning rivojlanish va shakllanish jarayoni, qisqacha mazmuni, badiiy xususiyatlari to'g'risida fikr yuritilgan. Shuningdek, ijodkorning ayrim ikkiliklariga alohida sharh yozilgan.

**Аннотация:** В статье рассматриваются процесс развития и становления, краткое содержание и художественные особенности малых поэтических форм, возникших в период независимости, в частности двустишия и четверостишия в творчестве Махмуда Тоира. Отдельные комментарии были написаны также к некоторым из двух стихотворений художника.

**Annotation:** This article discusses the development and formation process, brief content, and artistic features of small poetic forms that emerged during the independence period, in particular, the development of couplets and quatrains in the work of Mahmud Toir. A separate commentary is also written on some of the creator's couplets.

**Kalit so'zlar:** kichik she'riy shakllar, qayirma, firqa, ikkilik, to'rtlik, masnaviy, fard.

**Ключевые слова:** малые поэтические формы, стих, куплет, двустишие, четверостишие, маснави, фард.

**Keywords:** small poetic forms, kyirma, firqa, couplet, quatrain, masnavi, fard.

Har bir davr adabiyotida bo'lganidek, istiqlol davri o'zbek she'riyati ham mazmun va shakliy jihatdan taraqqiy etib bormoqda. Misol tariqasida shaxsiy ijodiy tadqiqot tarzida vujudga kelgan A. Suyunning "qayirma", F.Afro'zning "firqa" larini sanab o'tushimiz mumkin. Bunday she'riy janrlarda yozilgan lirika namunalarida donishmandlik, falsafiy yondashuv va didaktik ruh ustunlik qiladi.

Bundan tashqari, hozirgi o'zbek she'riyatida ham an'anaviy bayt- ikki misrali she'r shakllari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Mumtoz she'riyatimizdagi masnaviy va fard shaklan asos bo'lgan bunday baytning mazmuniy, shakliy, uslubiy xususiyatlari tobora kengayib bormoqda. Bu turdagi she'riyatda shoirlarimizning falsafiy mushohada yuritib, hikmatli fikrlarini, olam va odam haqidagi qarashlarini ixcham tarzda ifodalaydilar. Shaklan ikkilik tarzida yaratilgan bunday she'r namunalari ijodkorlar turlicha nomlaydilar. Erkin Vohidov "sochilgan baytlar" desa, Go'zal Begim "sachratqilar" tarzida, shoir Mahmud Toir esa shakliy jihatni ustun qo'ygan holda "ikkiliklar" deb nomlaydi. Bunday nomlar bilan atalishi zamirida ushbu ikkiliklarda mazmunan har xillik mavjudligini bilish mumkin. Ayniqsa, Mahmud Toir ijodida kichik she'riy shakllardagi ijod namunalari muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, uning ikkilik tarzida yozilgan she'rlarida pand-nasihat uxroviy mazmun yetakchilik qiladi.

O'tgan kun umrdan uzilgan tomchi,

Qo'lingdan kelsa gar , bir ushlab qolchi.

Shoirning ushbu ikkiligi barmoq vazni qoidalariga asoslangan, 11 bo'g'inli - 6+5 tarzida turoqlangan. Misralar oxiridagi tomchi va qolchi so'zlari qofiyadoshlikni hosil qilib, she'rdagi ta'sirchanlikni oshirgan. Umr va vaqt haqida juda ko'p yozuvchi va shoirlar tomonidan turli fikrlar bildirilgan, asarlar yaratilgan. Albatta, ularning har biri o'zicha original, ohoriylikni kasb etadi. Mahmud Toir ham umrni o'zicha tavsiflaydi. Vaqtni uzilib tushayotgan qomchiga qiyoslaydi, uni hech kim qo'li bilan tutib qololmasligini alohida ta'kidlaydi. Adabiyotimizda vaqtni daraxt umriga, fasllarga qiyoslashganini juda ko'p kuzatganmiz, lekin o'tayotgan lahzalarni oqib tushayotgan tomchiga qiyoslash yangicha fikr, yangicha qarash.

Havasning yuzlari yorug' hamisha,

Hasadning yuzlari-yorilgan shisha.

Inson yuragida ikki qarama-qarshi his – hasad va havas yonma-yon bo'ladi. Odam haqiqiy odamiyligini yo'qotmasligi uchun mana shu oq-qora grafikaga monand xususiyatlarning hasad qismini emas, havas, ya'ni oq qismini qalbiga

singdirish insonning o‘z qo‘lida. Alaloqibat, havasga ergashgan kishining yuzi hamisha yorug‘, hasadning so‘ziga kirgan odamning yuzi esa yorilgan shisha misoli parcha-parcha qiyofa kasb etadi, - deya izohlaydi ijodkor.

Olam go‘zalligi gulning rangida,  
Tilning go‘zalligi dilning rangida.

Inson zoti borki, hamisha go‘zallikka intilib yashaydi, chor-atrofdan go‘zallik qidiradi. Ana shu go‘zallik olamda gulda namoyon bo‘lganiday, tilning, nutqning go‘zalligi dilning, qalbning chiroyida bo‘y ko‘rsatadi. Chunki faqatgina qalbi toza, pok insongina tilida ham ana shu poklikni, chiroyini atrofga tarata oladi. Mumtoz adabiyotimizda azal-azaldan qalb pokligi eng muhim xislat sifatida targ‘ib qilinadi. Qalbni Olloh yaratganiga, unda Ollohning jilvasi namoyon bo‘lishiga ishoniladi. Mahmud Toir ham xuddi ana shu jihatlarni bor-yo‘g‘i ikki misradan iborat bu she‘rning bag‘riga jo qiladi.

Haqiqat Xudoning yerdagi yuzi,  
Uni sindirganning singaydir o‘zi.

Xalqimizda mingyilliklar qa‘ridan kelayotgan bir maqol bor: “Haqiqat egiladi, bukiladi, lekin sinmaydi”. Ijodkor mana shu ikkilik orqali biz bilgan ana shu maqolni qayta misralarga to‘kkanday tuyiladi go‘yo. Va ayni paytda ilk misradayoq shoir o‘zining hech kim aytmagan, aytoilmagan gapini aytadi: Haqiqatni Xudoning yerdagi yuziga qiyoslaydi. Muallifning nazdida xudoning yuzi bo‘lganligi uchun ham haqiqatni hech kim sindirmaydi, sindirolmaydi.

Xulosa qilib aytganda, individual janrlar muayyan ijodkorning uslubi bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan janrlardir. Ulardagi mazmun chegara bilmaydi, ularning shakli esa aruz vaznidagi fard kabi bo‘lsa-da, zamonaviy o‘zbek she‘riyatidagi barmoq vaznida yozilgan. Bu hodisa o‘zbek adabiyotida janrlarning turg‘un emasligi va doim rivojlanib borayotganidan dalolatdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Hayitov A. H. 90-yillar o‘zbek lirikasida an‘ana va shakliy izlanishlar. Fil.fan.nom.dis.avtoreferati. – Toshkent, 2004.
2. Mahmud Toir. E. Ikkiliklar. O‘zbek adabiyoti va san‘ati. – Toshkent, 2009.
3. Mahmud Toir. Saylanma. Sharq nashriyot-matbaa uyi, 2002.

## “MASHAQQATLAR GIRDOBI” ROMANIDA BADIY PSIXOLOGIZM TALQINI (DAVRON OBRAZI MISOLIDA)

Sa’dullayeva Darmonjon

*magistrant,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Zulfiya Qurolboy qizining “Mashaqqatlar girdobi” romanidagi Davron obrazi, uning psixologizmi, ushbu obrazni gavdalantirishda adiba mahorati va iste’dodi haqida so‘z boradi. Ushbu obrazning xarakter va tipik belgilari, portreti tasviri borasida fikr-mulohazalar beriladi.

**Аннотация.** В статье рассматривается образ Даврон в романе Зульфии Куролбой дочь «Машаккатлар гирдоби», ее психологизм, а также мастерство и талант писательницы в воплощении этого образа. Даны комментарии к характеру и типичным чертам этого персонажа, а также к изображению его портрета.

**Abstract.** This article discusses the image of Davron in Zulfiya Kuroilboy kizi's novel "Mashaqqatlar girdobi", her psychologism, the writer's skill and talent in embodying this image. Comments are given on the character and typical features of this image, as well as the depiction of her portrait.

**Kalit so‘zlar:** obraz, ruhiyat, badiiy psixologizm, mahorat, iste’dod, xarakter, qahramon, psixologik qiyofa.

**Ключевые слова:** образ, психика, художественная психология, мастерство, талант, характер, герой, психологический образ.

**Keywords:** image, psyche, artistic psychologism, skill, talent, character, hero, psychological image.

Barchamizga ma’lumki, adabiyotning o‘rganish obyektini badiiy asar hisonlanib, uning markazida esa inson obrazi turadi. Yozuvchi ushbu obrazni yaratishda hayotiy voqea-hodisalarga tayanadi. Adabiyot janrlari orasida inson taqdiri, hayotini tasvirlash, asarda estetik idealni yaratishda roman janrining o‘ziga xos ahamiyati mavjud. Xususan, To‘xta Boboyev ta’kidlaganidek, “Romanda individual tasvir prizmalari orqali ijtimoiy hayotning, xalq turmushining u yoxud

bu jihatlari badiiy tadqiq qilinadi.” [1.: 465.] Ko‘rinadiki, jamiyatdagi voqealarni to‘la bayon etish, illatlarni ko‘rsatish va voqea-hodisalarga yozuvchi yaratgan obraz ruhiyati orqali baho berish ham ushbu janrga xosdir. Romanda inson obrazi gavdalantirilar ekan, unda badiiy psixologizmning yorqin ifodasi asar mavzu va mavqeyini baholashda muhim o‘rin tutadi.

Badiiy asarda badiiy psixologizm asar ta‘sirchanligini ta‘minlovchi, retseptga ruhiyatiga va ongiga ta‘sir o‘tkazuvchi muhim omil hisoblanadi. “Badiiy psixologizm”, “psixologik tahlil”, “qalb dialektikasi” [2.: 16.] kabi atamalar bilan ham yuritiluvchi ushbu unsur obraz ruhiyatini ochish hamda ushbu ruhiy holatni kitobxonning ham ruhiyatiga singdira olgani uchun nasrda uning o‘rni juda sezilarli bo‘ladi va asar qiymatini belgilab beradi. Zulfiya Qurolboy qizining “Mashaqqatlar girdobi” romanida ham asarning badiiy ta‘sirchanligini oshiruvchi, obraz portretini yaratuvchi, adiba xarakteri va iste‘dodini ko‘rsatuvchi badiiy psixologizmning yorqin ifodasini ko‘rishimiz mumkin.

Asarda chet elga ishlash maqsadida ketgan, ammo shaxsini tasdiqlovchi hujjat hamda pullarini o‘g‘irlatishganligi sababli notanish kimsalarning qo‘lida kam maosh evaziga ishlashga majbur bo‘lgan insonlar taqdiri, ularning boshdan kechirganlari qalamga olingan. Asar bosh qahramoni Davron ham chet elga ishlash uchun ketib hujjatlari va pulini yo‘qotib qo‘ygach, quyuq o‘rmonlar orasida joylashgan qurilishga kelib qoladi. Bu yerdagi ish beruvchilar ularga ma‘lum miqdorda maosh berilishi, qolgan pullar ularning oila a‘zolariga jo‘natilishini aytib, ularni mehnatidan foydalanishadi. Bir qarasa qamoqxona, bir qarasa kimsasiz orolday tuyulayotgan bu joy Gulruh kelgandan so‘ng Davronning hissiyotlariga qo‘shilib o‘zgara boshlaydi: “Barakda allaqanday jonlanish yuz berdi. Pala-partish, janjalkash, so‘kong‘ich-u juldurvoqi erkaklar galasi favqulodda hodisa yuz bergandek kutilmaganda to‘satdan o‘zgarib qolishdi. Ustara nimaligini unutib yuborgan yanoqlarga ustara tegdi. O‘rin-to‘shak har kuni ertalab yig‘ilib, kechasi yoziladigan bo‘ldi” [3.: 32.]. Asl kasbi hamshiralik bo‘lgan Gulruh bu yerdagi odamlarni davolashni boshlaydi. Davronning qo‘li yiringlab ketgani sababli Gulruh unga tibbiy yordam ko‘rsatadi. Ish

boshqaruvchilar orasida qattiqqo‘lligi, ishchilarga nisbatan shafqatsizligi bilan ajralib turadigan obraz – Po‘lat Damirovich ham bu ayolga nisbatan o‘zgacha muomalada bo‘ladi. Davron esa ayolni bu erkakdan rashk qila boshlaydi. Vazifasi Gulruhni qo‘riqlash bo‘lgan Davron medpunktga Po‘lat Damirovich kelgan paytda ayolning yonidan ketmaslikka, uni ko‘proq qo‘riqlashga urinardi. Garchi Po‘lat Damirovich Davronga pisandsizlik nazari bilan qarasa-da, erkak bunga parvo qilmaslikka harakat qilardi: “Yuzidagi kishining jig‘iga tegadigan, qadr-qimmatini yerga uradigan ifoda va kulgisi shu qadar tahqiromuz ediki, bazor o‘zimni bosib, go‘yo uni pisand qilmagandek to xonadan chiqib ketguncha surbetlarcha tikilib turaverdim.” [3.: 43.]

Ba‘zi o‘rinlarda qahramon ruhiyati, yashayotgan joyi haqidagi xulosalar atrof-muhitda bo‘lib o‘tayotgan voqealar orqali ochib berilganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Xususan, Davronning barakka ilk kelgan kunlarida atrofda chalinayotgan musiqa ajalning jodusiday tuyulsa, qorong‘u osmonning qoq bag‘rida turib zim-ziyo osmonni yoriyatitgan oy ham uning ko‘ziga o‘zgacha ko‘rinadi: “Biznikiga o‘xshamaydigan begona, sovuq va hissiz oying xira yog‘dusi ichkariga poyonoz bo‘lib tushib turardi...” [3.: 27.] Quyosh tikka kelgan paytda xayol og‘ushiga cho‘mgan Davron tilidan bayon etilgan jummalarga nazar tashlasak: “Ha, bu yerning o‘zi bir olam. Nafaqat tartib-qoidalari, balki bu yerning quyoshi ham, oyi ham o‘zgacha. Charaqlab turadi-yu, tafti yo‘q.” [3.: 44.]. Bu jumlar orqali adiba inson uchun tug‘ilib-o‘sgan tuprog‘ining qadri yuksakligi, ona yurtning har bir ne‘mati o‘zgacha va betakror ekanligiga ishora qilayotgandek, nazarimizda. Bularni esa atrof-muhit peyzajini chizish orqali ochib berishga harakat qilgan.

Barakdagi hayot Davronni tamomila o‘zgartirib yuboradi. Davron o‘qimishli, dunyoqarashi keng inson edi. Ammo u mana shu yerda kelib inson hayotining qadrsizlanishi, turli xil tubanliklar-u mashaqqatlarning guvohi bo‘ldi. Shu voqealar uning “Bir vaqtlar tamaki tutuniga ko‘ngli ayniydigan odam g‘irt kashandaga, aroqni ko‘rsa ko‘chaning narigi tomoniga o‘tib ketadigan banda spirtni suv qo‘shmasdan ichadigan piyonistaga, birovga ozor berishdan cho‘chib

yuradigan o‘ta kamsuqum zot sal gapga pov etib yonib ketadigan mushtumzo‘rga” [2.: 125.] aylanib qolishiga sabab bo‘ladi. Ammo shunday bo‘lsa-da, uning qalbida alanga olayotgan muhabbat Davronning mehr-muhabbatini asrab qolayotgan edi. Uning muhabbati qalbida yashirgan siri bo‘lishini xohladi. Hatto eng yaqin do‘sti Safaralining ko‘rgilik tufayli barakka kelib qolgan paytda bu yerdagilar bilan uni tanishtirish jarayonida faqatgina 1 inson haqida og‘iz juftlashni xohlamaydi. Bu esa Davronning Gulruhga bo‘lgan pinhona muhabbati va rashkini ko‘rsatadi. “Gulruhga qarab turib yuragim tubiga cho‘kkan g‘ussa allaqanday umid bilan qorishib, butun vujudimni qaytadan zabt etayotganini, qayg‘u, ishonch, sovuq, yuzimga tegayotgan mayin sochlar, shaftoli hidi – bari ayqash-uyqash bo‘lib ketayotganini his qildim, ehtimol hayot, chinakam hayot shudir!” [3.: 140.] ko‘nglidagi hislarini Gulruhga oshkor qilib ulgurmagan Davronning qalbini g‘ussa egallashi tabiiy holat. Ammo ayolning ham unga befarq emasligini his qilgan Davronning ko‘nglida umid uchqunlari paydo bo‘ladi. Bu yerda boshidan qancha qiyinchiliklar o‘tmasin, uning ko‘nglidan “Chinakam hayot shudir!” degan o‘y o‘tadi. Bu uning haqiqiy muhabbatini uchratgani, bu muhabbat unga o‘zgacha, oldingidan tamomila boshqa hayot baxsh etganini ko‘rsatayotgandek, nazdimizda.

Davron va Gulruh o‘z uyiga qaytgach ularning hayoti o‘nglana boshlaydi. Garchi Davronning ayoli Saodat erini kutmasdan boshqa insonga turmushga chiqqan bo‘lsa-da, Davron hayotida Gulruhning borligi sababli bu voqealarda dili xira bo‘lmaydi. “Men baxtiyor edim. Gulruh ham xursand edi: menga nigohi tushganida ko‘zlari quvonchdan porlab ketardi” [3.: 148.]. Ayolning ko‘zlarida porlayotgan quvonchda Davronga nisbatan ko‘nglidagi samimiy hislar, mehr-muhabbat tuyg‘larini ilg‘ab olish qiyin emas edi. Shunday baxtiyor kunlarning birida Hakim Nazarich Davronga topshirgan “Yolg‘iz otinchi, omonati”ni izlab keladi. Ular Gulruhning ishxonasiga borib, ayolning ishdan chiqishini kutib turishadi. Ishdan chiqqan Gulruh Hakim Nazarichni ko‘rib xursand bo‘lgani Davronning g‘azabini keltirar, un qayg‘uga solardi. Bu paytda u o‘z sevgisidan ayrilib qolishidan, “omomat”ni egasiga topshirishga majbur bo‘lishidan, baxtli

kunlari yakunlanishidan xavotirlanayotgan edi. Gulruhning yerga qarab turishi hamda Hakim Nazarichning kuyib-pishib nimalarnidir ayolga tushuntirayotgani uni battar xavotirga qo'yardi. Ammo bir mahal barchasi Davronning o'y-firki, xayolidagidan o'zgacha tus oladi: "Ko'zlarimga ishonmasdim! Bu qachin ro'y berganiga aqlim bovar qilmasdi! Gulruh, nozik-nihol malagim, suv yuzida suzib yurgan nilufarim men tomon shamoldek yelib kelardi!...

Men Gulruh tomon otildim..."[3.: 150.]

Romanning shunday yakuni kitobxonni hayajonlantrib yuboradi. Sababi ikki sevishtan qalbning nihoyat birga bo'lishi, sevgisini tan olishi mashaqqat va uzoq vaqt talab qilgan edi. Bu sevgi ularga ancha dars berdi, qiyinchiliklarni ko'rsatdi va shu qiyinchiliklar orqali ularning matonatini ham sinadi. Odam oyog'idan uzoq joyga borish, bir-birini uchratish ularning peshonasiga bekor yozilmagan, ularni o'z taqdirilar uchrastirgan edi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, "Mashaqqatlar girdobi" romanida bosh obraz hisoblangan Davron obrazi ruhiyati, obraz va tashqi muhit konflikti, boshidan mashaqqatli kunlar o'tayotgan chog'da uning mardonavor harakatlari, aql-u zakovati yaxshi ochib berilgan. Musofirlikning qiyinchiliklari, mashaqqati, ayniqsa, XXI asrdagi odam savdosining ayrim insonlar boshiga tushgan ko'rgiliklarni tasvirlash, bu jarayondagi psixologik tasvir orqali voqealarni kitobxon ko'z o'ngida gavdalantish va yanada aniqroq tasavvur yaratishda bu obrazning o'rni kattadir. Roman haqida fikr bildirgan adabiyotshunos Umarali Normatov ham o'z mulohazalarida shunday deydi: "Asarning eng muhim, benihoya ibratli, yorqin jihati shundaki, ana shu girdob zulmati iskanjasida ham o'zligini, asl insoniy fazilatlarini yo'qotmagan, zulmatni yoritishga, uning temir qafaslarini yorib chiqishga, yonib, tutqunlik azoblariga ko'nikkan g'aflat bandalarini uyg'otishga qodir asl insonlar ham bor". [4.: 120.] Davron ham mana shunday obrazlar qatorida edi. Bu obraz orqali adiba inson qo'lidagilarga qanoat qilishi, ko'proq boylik orttirish maqsadida o'zga yurtlarda ishlash orzusi har doim ham oson va mashaqqatsiz kechmasligini ko'rsatib bergan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: “O‘zbekiston”, 2002.
2. Boboxonov M. “Hozirgi o‘zbek qissachiligida psixologizm”. dissertatsiyasi.
3. Zulfiya Qurolboy qizi. Mashaqqatlar girdobi. Ziyouz.com
4. Umarali Normatov. “Qalbdagi Benazir ziyo”. // ”Yoshlik” jurnali, – Toshkent, 2010-yil, 9-son
5. Ruhiiy tahlil metodi xususida// O‘zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 1997.

## **USMON AZIM SHE’RLARIDA LIRIK QAHRAMON TALQINI XUSUSIDA**

**Urinboyeva Surayyo**

*magistrant,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Usmon Azim she’riyatining ajralib turadigan qirralari xususida mulohazalar berilgan. Usmon Azim she’riyatida lirik qahramon ifodasiga alohida e’tibor qaratilgan. Lirik qahramon talqini, uning ifodalanishi xususida qarashlar ilgari surilgan.

**Аннотация.** В данной статье даются комментарии об отдельных аспектах поэзии Усмана Азима. В поэзии Усмана Азима особое внимание уделяется экспрессии лирического героя. Высказываются мнения об интерпретации лирического героя и его экспрессии.

**Annotation.** In this article, comments are given about the distinct aspects of Usman Azim's poetry. In the poetry of Usman Azim, special attention is paid to the expression of the lyrical hero. Opinions about the interpretation of the lyrical hero and his expression have been put forward.

**Kalit so‘zlar:** lirik qahramon, ichki talqin, lirik kechinma, turli unsurlar, lirikaning o‘rganilishi, lirikadagi tadqiqotlar

**Ключевые слова:** лирический характер, внутренняя интерпретация, лирический опыт, разные элементы, изучение лирики, исследования лирики.

**Key words:** lyrical character, internal interpretation, lyrical experience, different elements, study of lyrics, studies in lyrics

Lirik she'riyat "subyektiv poeziya" bo'lish barobarida, shaxsiy kechinma va qarashlardan tashqari, muayyan shoir yashagan zamon ruhi va yetakchi tendensiyalarini ham ifoda etadi. She'ning lirik qahramoni ijodkor g'oyaviy-estetik ideali va badiiy mahorati bilan uzviy bog'liqdir. Usmon Azimning "buyuk ijodkor"ga aylanishi shoirning o'z "men"ini xalqqa, ommaga tushuntirishi bilan izohlanadi. Ijodkor uchun lirik qahramon she'rda yaratilgan obrazlilik orqali yaralgan ijobiy qahramondir. Usmon Azim ijodiy prinsiplarida har bir obrazning ijodiy voqelik asosida dunyoga kelinishi xususida mulohazalar yotadi, ijodkor bunday tadbiqu bevosita o'z ishtirokida amalga oshiradi. Darhaqiqat, Usmon Azim noyob aql, kuchli lirik hissiyot sohibi sifatida hayotiy va ma'naviy-ruhiy tajribasi orqali o'z amaliy faoliyati qanday oqibatlariga olib kelishini qalban tuyib, ularni boshqarish qobiliyatiga ega edi. Shunga qaramasdan, shoir o'z hayotining har bir bosqichida ijtimoiy-tarixiy jarayonlarni individual talqin qilish asnosida davrga moslasha bordi. U o'z she'rlarida induviduallik, aniqlik, lirik qahramonni oldindan bilish tamoyillariga tayandi va shunga qarab ish tutti. Ma'lumki, adabiyotshunoslikda lirik qahramon 1921-yil Y.Tinyanov adabiyotga shu termini tadbiqu etganidan boshlab asosiy tadqiqot obyektlaridan biriga aylandi. Lirik qahramon she'riyatda muallif maqsadlarini badiiy aks ettirishda xizmati katta. Shoirning ruhiy dunyosi lirik qahramon yordamida tasvirlanadi. Lirik qahramon bilan muallif o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, ularning bir butunligi yoki ikkisining ham alohida etirof etilishi adabiyotshunoslikdagi muommolardan biridir. Biz bu maqolamizda lirik qahramon va muallif, ularning lirik asardagi xizmatini o'rganib, lirik qahramon haqida adabiyotshunoslarning fikrlarini tahlil qilishni maqsad qildik. Lirik qahramon va muallifning o'zaro bog'liqligi, lirik subyekt va obyekt masalalari haqida ilk fikrlarni rus adabiyotshunoslari bildirdilar. Lirik qahramon haqida Boris Tomashevskiy: "Lirik qahramon – (shoir obrazi, lirik "men") adabiy termin bo'lib, u shoir tarafidan yaratilgan butun lirik asarlarda tasvirlanadi. Uning yordamida shoir ijodi haqida dunyoqarash takomillashadi. Lirik qahramonning

ichki dunyosi harakat va voqealarni emas, aksincha belgili bir hayotiy hodisalarni muallifning ko'ngil kechinmalari yordamida tasvirlaydi".[1.: 12.]

Yuqoridagi fikrlarga diqqat qaratadigan bo'lsa, lirik qahramon shoir obrazi bo'lib, hayotiy hodisalar tasirida yuzaga chiqqan muallifning ruhiy istiroblarini, ko'ngil kechinmalarini tasvirlab, shoir ijodin, uning xarakterin keng ma'noda anglashga yordam beradi. Demak lirik qahramon shoirning lirik "men"i, obrazi bo'lsa, u sherda shoirning o'zini tasvirlaydimi yoki muallifning g'oyasini, badiiy fikrini yuzaga chiqarish maqsadida qo'llanilgan shoirning o'zidan mustaqil badiiy detalmi kabi savollar tug'ilishi tabiiy. Bu savolga javob topish uchun boshqa fikrlarga ham diqqat qaratmoqchimiz. Taniqli rus shoiri va tanqidchisi I. Annenskiy lirik qahramon haqida: "Lirik qahramon – she'riyatda muallif fikri-xayoli yordamida yaratilgan shoir obrazi. Lirik qahramon shoirning badiiy-adabiy egizagi (художественный двойник), u lirik kompozitsiya matnida (tsikl, lirik kitoblar, lirik sher, lirikaning hamma turi) aniq bir shaxsning taqdirini, ichki dunyosining o'ziga xosligini va ba'zida plastik (haqiqiy inson) shaxs ko'rinishiga ega bo'lgan shakl yoki hayotiy obraz sifatida namoyon bo'ladi (epik va dramatik turlardagi kabi to'liq plastik badiiy obrazga aylana olmasa ham)" – deya fikr bildirsa, M. Prishvin uning fikrini davom ettirib, bu kategoriyaga: "Odatda shoirning biografik shaxsi va uning lirik qahramoni bilan o'zaro bog'liqligi hayotiy prototip va badiiy tip sifatida: ya'ni empirik faktlar yangi adabiy xarakterni yaratish uchun estetik tasvirlash bilan almashadi va umumlashadi. Lirik qahramon – bu yaratilgan obraz." – deya fikr keltiradi. [2.: 187.]

Usmon Azim muhabbat haqida ko'p va xo'p yozgan. Agar uning avvalgi she'rlarida lirik qahramonning sevgi-tuyg'ulari ifodasida ravshanlik va hatto porloqlik ustuvorlik qilgan bo'lsa, so'nggi she'rlarida porlab yongan mushaklarining kullari tasvirga tortilgandek tuyuladi. Ammo bu so'ngan sevgi kullari emas. Lirik qahramon sevgisi (binobarin, shoir sevgisi) olovlangan bo'lsa olovlanganki, aslo so'nmagani. Faqat shoir endi sevgi haqida minbar oldida turgan olomonga emas, balki eng yaqin kishisining, sirdoshining qulog'iga shivirlab aytadi. Usmon Azimning muhabbat lirikasi so'nggi yillarda shunday qiyofani

olgan: u soʻzga xasis, lirik qahramon qalbini oʻrtovchi iztirob yolqinini shoir bir-ikki obraz, bir-ikki chizma bilan ifodalaydi, xolos. U shunday usul bilan soʻzning sheʼriy matndagi vaznini, salmogʻini oshiradi va ayni paytda sheʼrxonni sheʼrni chuqur his etishga, har bir soʻz va har bir poetik obrazning magʻzini chaqishga daʼvat qilgandek boʻladi:

Har narsani istmasdim...

Devona taqdir,

Kuyganingmi, suyganingmi — nima qilganing?

Qizil, yashil nurlar aro tongday oqarib,

Oq koʻylakda oqqush kabi oʻtdi bir malak...

Birdan (yana “birdan” deyman, meni kechiring,

Tuygʻularning eng buyugi tugʻilgan nogoh,

Oʻlchab-kesib oʻtirmoqqa fursat topilmas)...[3.: 24.]

Biz Usmon Azim sheʼriyatiga nazar tashlar ekanmiz, hayotni butun ziddiyatlari bilan his etadigan lirik qahramonning gʻoyat rang-barang kechinmalari ifodasini koʻramiz. Maʼlumki, sheʼriyatda lirik qahramon kechinmalarida “men” – shoir shaxsiyati va uning hayot haqidagi qarashlari umumlashadi. Shoir yaratgan lirik qahramon oʻtmishni, oʻzi yashayotgan davrni chuqur his etadi. Shu bilan birga, u kelajak haqida ezgu niyatlar qiladigan davr kishisining murakkab timsoliga aylanadi.

Qaytaman. Ammo dasht sezib ulgurar...

Dosh berib tezlikning shamollariga,

Ortimdan halloslab, shoshib yugurar,

Qoqilib temir yoʻl shpallariga.

Uyimga gezarib kirib kelaman,

Meni asra endi, inglizcha qulf!

Muhimi, Usmon Azim anglangan hodisalarga hissiy munosabat bildirgan va milliy manfaatlar asosida baholagan. Bu hol shoir hayotiy tajribasi davomida shu kabi haqiqatlarni qalban tasdiqlab, fikran rivojlantirib borganini koʻrsatadi. Toʻgʻri, u hamisha ham ijtimoiy taʼsirlarga qarshi hissiy reaksiya bildira olmagan.

Obyektiv reallik shoir subyektiv dunyosida qayta ishlangan. Chunki inson ongi nafaqat voqelik obyektlariga, balki o‘z-o‘ziga munosabatni, o‘zlikni anglashni ham qamrab oladi. Qush baland uchardi, Juda ham baland. Qanoti bor edi qushchani, yohu! Ammo koinotga boqib bepisand, Yerda bir yurmoqni qilardi orzu. Yuksaklikning so‘nggi chegarasida, Zaminga termulib uchar edi qush. Sovuq yulduzchalar tegarasida To‘zg‘ib qolishardi muallaq, behush. Usmon Azimning yuqoridagi she‘ri faqat ta’sirlanish natijasidagina yozilmagan. She‘r dunyoga kelmasidan avvalgi ta’sirlanish bir bahona. She‘rni yaratadigan dard shoir qalbida ko‘pdan beri yetilib kelayotgan bo‘ladi. Kechinma ana shunday yetilishning mevasidir. Kechinmaning salmog‘i va uning darajasi shoir nazdida ulg‘ayib borar ekan, til va tafakkur uyg‘unligi yuzaga keladi. Va bu holat endi uslubiy mahoratga aylanib boradi. Adabiyotshunos D.Quronov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “Oniy kechinmani tasvirlovchi lirikaning badiiy vaqti hamisha – “hozir”: u ayni hozir ko‘ngilda kechayotgan his tuyg‘ularni tasvirleydi, she‘r qachon yozilganidan qat’iy nazar, she‘rxon uni hozir ko‘ngilda kechayotgan tuyg‘u kabi qabul qiladi”. [4.: 135.] Bu fikrlar bevosita Usmon Azim she‘riyatiga ham taalluqlidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Словарь литературоведческих терминов. – Москва, “Просвещение”, 1974, – 177 с.
2. Литературная энциклопедия терминов и понятий. Москва. НПК “Интелвак”, 2001, – 452 с.
3. Usmon Azim. Kuz she‘rlari. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 2001.
4. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр., 2010. – 397 б.

## NASRIY ASARLARDA YOZUVCHI BADIY MAHORATI

**Xajikurbanova Nilufar,**

*magistrant,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Xurshid Do‘stmuhammadning “Ibn Mug‘anniy”, “Kiova quyoshi” hikoyalari tahlilga tortilib, ijodkor uslubi, badiiy mahorati misollar vositasida yoritib berilgan.

**Аннотация.** В данной статье анализируются рассказы Хуршида Дустмухаммада «Ibn Mug‘anniy» и «Kiova quyoshi», освещающая стиль автора и его художественное мастерство на примерах.

**Annotation.** In this article, Khurshid Dustmuhammad’s short stories “Ibn Mug‘anniy” and “Kiova Quyoshi” are analyzed, highlighting the author’s style and artistic mastery through examples.

**Kalit so‘zlar:** hikoya, badiiylik, mug‘anniy, kiova quyoshi.

**Ключевые слова:** рассказ, художественность, муганни, киевское солнце.

**Key words:** story, artistic quality, muganniy, kiova’s sun.

Badiiylik san‘atning barcha turlarida o‘ziga xos vosita bo‘lib xizmat qiladi. San‘at asarlarida badiiylik voqelikni obrazlar vositasida betakror gavdalantiruvchi, estetik mohiyat beruvchi unsur sifatida qaraladi. Badiiylik iborasi nafislik, go‘zallik degani. Ma‘lumki, adabiyot badiiylik, ya‘ni go‘zallik qonuniyatlari haqida bahs yuritadi. Kitobxon badiiy asarni ana shu nafislik, go‘zallik uchun o‘qiydi, doimo go‘zallikka intilib yashaydi. Undan ko‘ngliga taskin topishni istaydi. Badiiyat adabiyotda so‘zlarning go‘zalligi, uslubning yuksakligi va tasvirlarning chuqurligi bilan bog‘liq hodisadir. U asarlarning estetik qadriyatini, muallifning ijodiy yondashuvini, tilning go‘zalligini anglatadi. Bu, shuningdek, chuqur ma‘nolarni va hissiy kechinmalarni uyg‘otish uchun ishlatiladigan uslublarni o‘z ichiga oladi. “Badiiylik” istilohi fors-tojik shoiri Abdurahmon Jomiyning asarlarida ham uchraydi. U Salmon Sovajiy haqida shunday yozadi: “Uning ikkita masnaviy kitobi bor, biri “Jamshidi Xurshid” bo‘lib, uning uslubi

sertakallufigidan badiiyat chegarasidan chiqib ketgan. Ikkinchisi “Firoqnoma” deb ataladigani badiiyatda yuksak va nazmiyotda latif” [1.: 10.]. Undan ko‘ngliga taskin topishni istaydi. Har bir san‘at turining yaratuvchi o‘z quroli bo‘lib, badiiy adabiyotning quroli so‘z hisoblanadi. So‘z orqali insonning o‘y-kechinmalari, his-tuyg‘ulari gavdalanadi. Badiiy asarda ishlatilgan har bir so‘z uni o‘qigan kitobxoniga ta’sir qilarli darajada bo‘lmog‘i lozim. So‘z san‘atida voqelikni aks ettirish obrazlar va obrazlilik orqali amalga oshiriladi. Barcha san‘at turlaridagi badiiylikni umumlashtiruvchi jihat ham obraz hisoblanadi. Badiiylik borliqni, insonning olamga bo‘lgan munosabatlarini ifodalashning o‘ziga xos shakli, voqelikni anglash va idrok etish, tasvirlash usuli hisoblanadi. Shunday ekan, badiiy asarda yangilik bo‘lishi kerak, qaytariq, takrorlardan iborat bo‘lgan asar uzoq yashamaydi. Badiiy asar yangi yondashuv, o‘zgacha qarash va original fikrlarni aks ettirishi kerak. Unga yaratish jarayonida ijodiy yondashuvning yangiligi, yangi texnikalar va uslublar qo‘llanilishi muhim. Asardagi estetik mohiyat, kutilmagan jarayonlar kitobxonlarni o‘ziga jalb qilib, badiiy asarning o‘qishlilikini ta’minlaydi. “Badiiylikning mohiyati badiiy asarning mazmuniy jihatida yashiringan bo‘lib, uning ifodalanish yoki tasvirlanish tarzi va darajasi asarning shaklida mujassamlashgandir. Badiiy asarning mazmuni hamda shakli badiiylikning ikki qanotidir” [2.: 6.]. Badiiy tahlil jarayonida bu ikki jihatga birdek to‘xtalgan ma’qul. Asarda shakl va mazmun biri ikkinchisini taqozo etadi. Badiiy asarning mazmunida shakllanmagan badiiyati shakl tomonida namoyon bo‘lishi mumkin. Adabiy tahlil jarayonida gapni mazmundan boshlab, mazmunning qanday tasvirlanganligini ham e’tiborga olish lozim. Badiiy asarda tilning go‘zalligi va uning ifodalovchanligi juda muhim hisoblanadi. Asardagi so‘zlar, tasvirlar, frazalar, metaforalar undagi hissiyot va ma’nolarni to‘liq ifodalashi kerak. Badiiy asarning uslubi uning ijodiy xususiyatini ochib berish uchun asosiy vosita bo‘lib, uslub adabiy yoki san‘at asarining o‘ziga xosligini ta’kidlaydi, shu bilan birga, asarning estetik kuchini oshiradi. G‘oya yoki mavzu esa badiiy asarning asosi bo‘lib, uning qiymatini belgilaydi. Yuksak g‘oya hayotga nisbatan yangi qarashlarni, insoniyat uchun muhim bo‘lgan qarashlarni o‘z ichiga oladi.

Badiiyat ko‘p hollarda o‘z davrining ijtimoiy, siyosiy va madaniy muammolarini yoritadi. Agar asar ijtimoiy nuqtayi nazardan ahamiyatli hisoblansa, bu uning badiiy qimmatini oshadi. Badiiy asar insonning hissiy holatini o‘zgartirib unga emotsional ta‘sir qilishi kerak hamda insonni o‘zining fikrlari va his-tuyg‘ulari bilan bog‘lash, unga chuqur ta‘sir qilishi orqali uni o‘ylashga, mulohaza qilishga undasa bu holat ham asarning qadr-qimmatini oshirishga xizmat qiladi.

Xurshid Do‘stmuhammad ijodiga to‘xtaladigan bo‘lsak, unda hikoyalarning o‘rni beqiyos. Chunki hikoyalardagi qahramonlar real voqelikda harakatlanayotgan va ayni damda biz bilan yashayotgan insonlardir. Biz tahlilga tortmoqchi bo‘lgan hikoyalardan biri “Ibn Mug‘anniy”dir. Dastlab asar nomlanishiga to‘xtaladigan bo‘lsak, “Ibn” so‘zi arabcha o‘g‘li degan ma‘noni anglatadi, “Mug‘anniy” esa nag‘ma choluvchi sozanda, nag‘ma bilan qo‘shiq aytuvchi xonanda[3] degan ma‘nolarni bildiradi. Xurshid Do‘stmuhammadning ushbu hikoyasida qor shu qadar ko‘p yog‘diki, odamlar bir-birinikiga borolmay qolishdi. Hovlilarga qorning tinmay yog‘ib, qatlam-qatlam bo‘lib to‘shalishi ramziy ma‘noda jamiyatdagi ijtimoiy muammolarga ishora qiladi. Qor turmush tashvishlari ramzi deb oladigan bo‘lsak, Ibn Mug‘anniy qishlog‘idagi odamlar qor sababli ko‘chaga chiqisholmaydi, bir-birinikiga borishga vaqt topisholmaydi. Jamiyatdagi kishilar esa o‘zlarining kundalik yumushlari ya‘ni moddiy sababli shu qadar mashg‘ulki, hikoyadagi odamlardek bandi, tutqunlikda. “Oila a‘zolari uchun na kun, na tunning farqi qoldi - kattalaru bolalar molixuliyo kunlarni boshdan kechirayotgan edilar. Ularning uxlayotganini ham, uyg‘oqligini ham bilib bo‘lmas, hammalari shivirlab, hatto imo-ishora bilan gaplashadigan bo‘lib qolayotgan, bundan xavotirga tushayotgan Ibn Mug‘anniy razm solib tursaki, bu ham holva – uyida gurung, javob-muomala qahatga uchrayotganini payqadi” [4.: 207.].

“Bolalar Ibn Mug‘anniyni galma-galdan savolga tutadi:

- Kitob nima, ota?

- Kitob - o‘qiydigan narsa... Bobolaring ko‘-o‘p kitobxon o‘tgan.

- O‘qish nima, otajon? - qo‘yarda-qo‘ymay suraydi qizi.

Ibn Mug‘anniy harchand tushuntirmasin, kitob qanday narsaligini uqtirolmay xunobi oshadi” [4.: 209.]. Natijada u bolalariga kitob nimaligini ko‘rsatish uchun qorga qaramay yo‘lga otlanadi. Qorni o‘yib etakdagi uydan kitob olib kelishni maqsad qilib qo‘ydi. Uni qor bosib yoki sovuq olib o‘lish xavfi ko‘p bor taqib etadi. Ota-bobolardan qolgan kitoblar saqlanadigan uy sari olg‘a boraveradi. Ushbu safar mashaqqatli kechadi, tanasi muzlab qolsa ham ortga chekinmaydi.

“Ibn Mug‘anniyning yelkasi qattiq narsaga tegar- tegmas mo‘jaz eshik g‘ichirlab ochilib ketdi, u o‘zini tutib qololmadi, yonboshigacha chordog‘ ichiga quladi...Qor bosgan vodiya ko‘hna soz nolasi taraldi... Dunyoni sel qiluvchi u nolani Ibn Mug‘anniy eshitdimi-yo‘qmi – yolg‘iz Allohga ayon edi” [4.: 217.], degan satrlar bilan hikoya yakunlanadi. Ushbu hikoya orqali Xurshid Do‘stmuhammad kitoblarni, san‘at(musiqani)ni tubanlikdan qutulishning yechimi sifatida talqin etadi.

Xurshid Do‘stmuhammadning “Kiova quyoshi” hikoyasida kiova nomli qabilaning taqdiri, undagi kishilarning hayotida bizonlarning o‘rni haqida aytiladi. Asar qahramoni Sinteyyut bizonlar nega qabila uchun muhim hisoblanishi haqida xalq orasida tarqalgan afsonani eshitadi. Ushbu qabila vakillari bizonlar orqali shu sovuq o‘lkada yashayaptilar, bizonlar ularning qornini to‘ydiradi, egniga kiyim bo‘ladi. Ular qirilib ketar ekan, kiova quyoshi ham so‘nib boraveradi.

“Bir zamonlar yer yuzida odam zoti bo‘lmagan, - deya salmoq bilan gap boshladi chol (Sinteyyutning bobosi). – Ana o‘shanda Ulug‘ ruh daryo yoqasiga uchlari osmonga qadalgan Buyuk yo‘l daraxtini o‘tqazgan. Barcha jonzot bu tuproqqa o‘sha daraxt shoxlaridan tushgan. Ular orasida erkak va ayol kiova ham bo‘lgan. Er-ayol kun bo‘yi yurib, quyosh botayotgan pallada daraxtga yetishgan, yetishganu u yerda bir qancha bizonlarni ko‘rishgan. Shu payt bulutlar orasidan Ulug‘ ruh tushib kelgan-da, er-ayolga xitob qilgan: Mana shu bizonlarni sizlarga hadya qildim. Sizlarni to‘ydiradigan ham, kiyintiradigan ham mana shular. Lekin, unutmanglarki, yer yuzida bizon zoti qirilib bitsa – kiova quyoshining so‘ngani shu!” [5.: 504.] Chol bizonlarning qirilib borayotgani haqida xavotirga tushadi. Bir zamonlar bizonlar o‘rmondagi daraxt yaproqlaridek ko‘p bo‘lganini eslaydi va afsus bilan ular qishloq odamlari sababli yo‘q bo‘lib ketayotganiga achinadi.

Chunki shu davrgacha kiova, siu, shayen qabilalari bizonlarni insof bilan ovlab, ular orqali hayot kechirayotgan edi. Katta suvning naryog‘idan odamlar kelib bizonlar qirg‘inga uchradi, mahalliy aholi orasidagi “gumroh”lar ham ularga ko‘maklashdi. Sinteyyutning bobosi bizon oviga yuborishni istamaganining sababi ov bahona ko‘pchilik yigitlar nobud bo‘lgan. Shu uchun Martindan ham xavfsiraydi.

Ijodkor mahorati shundaki, u ramzlardan ham o‘rinli foydalana olgan. Har bir so‘zni asarlarida to‘g‘ri qo‘llagan. Yozuvchi qahramonlar taqdirini, hayotdagi muammolarni shunchaki aytib ketmaydi, balki uni yechishga harakat qiladi. Ba‘zi hollarda hikoya yakunidagi xulosani o‘quvchining o‘ziga qo‘yib berish holatlari ham uchraydi. Bu jihat kitobxonlar yana-da qiziqishini oshirish imkonini beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Rustamova I., Maxsudov A. Badiiy asar va unda “badiiylik” tushunchasining mohiyati. International scientific journal of Biruni, 2022.
2. Internet: Ziyoz.uz sayti
3. Do‘stmuhammad X. Hikoya (to‘plam). Yangi asr avlodi. – Toshkent. 2021.204-217-betlar.
4. Do‘stmuhammad X. Hikoya (to‘plam). Yangi asr avlodi. – Toshkent. 2021. 503-511-betlar.

## **ULUG‘BEK HAMDAM NASRDAGI BADIY MAHORAT**

**Xudarganova Dildora,**

*magistrant,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Hozirgi o‘zbek nasrida Ulug‘bek Hamdam o‘rni. Yozuvchining nasriy asarlari “Muvozanat”, “Sabo va Samandar” romanlari misolida davr muammolari, ijtimoiy hayot masalalari haqida fikr yuritilgan.

**Аннотация.** В статье рассматривается место Улугбека Хамдама в современной узбекской прозе. Прозаические произведения писателя, такие как романы «Равновесие» и «Сабо и Самандар», отражают проблемы эпохи и вопросы общественной жизни.

**Abstract.** in this article, the role of Ulugbek Hamdam in contemporary Uzbek prose. The writer's prose works, such as the novels "Muvozanat" "Sabo va Samandar", "Isyon va Itoat" reflected on the problems of the time and issues of social life.

**Kalit so'zlar:** Nasr, Obraz, uslub, absurd "Muvozanat", "Isyon va Itoat", "Sabo va Samandar".

**Ключевые слова:** Проза, Образ, стиль, абсурд «Равновесие», «Бунт и Послушание», «Сабо и Самандар».

**Keywords:** Prose, Image, style, absurd.

Istiqlol davri o'zbek nasri g'oyaviy-badiiy yangilanishlar, o'zgarishlar bilan xarakterlanadi. Inson ruhiyatini taftish qilish, davrning dolzarb ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarga hozirjavoblik bugungi kun adabiyotning eng muhim xususiyatidir. Bu davr nasrida Xurshid Do'stmuhammad, Nazar Eshonqul, Zulfiya Qurolboy qizi, Salomat Vafo kabi o'ziga xos uslubiga ega bo'lgan ijodkorlar qatorida Ulug'bek Hamdam ijodining ham muayyan o'rni bor. Zamonaviy o'zbek nasrida o'zbek romanchiligi taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan, badiiy ijodga o'z ovozi, o'z yo'nalishi bilan kirib kelgan Ulug'bek Hamdam ijodi ham boshqa iste'dodli o'zbek nosirlari ijodi qatorida adabiyotshunoslar, tanqidchilarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Ulug'bek Hamdam nasriy asarlariga munosabat, avvalo, adabiy-tanqidiy maqolalarda ko'zga tashlanmoqda. Yozuvchi ilk romani "Muvozanat"ning nashr etilishi bilan Dilmurod Qur'onov unga so'nggi so'z yozib, roman xususida ilk fikrlarini bildiradi [3.: 28.]. "Muvozanat" romani adabiy hayotimizda o'ziga xos voqea bo'ldi. Asar kecha va kunduzda yashab mehnat qilayotgan zamondoshlarimiz va ularning qalb tovlanishlari haqida. "Muvozanat" mustaqillik yillarining qaynoq kayfiyatini aks ettirgan realistlik asar sifatida yuksak baholanadi. Mazkur roman syujeti, asosan, bosh qahramoni Yusuf taqdirini ko'rsatgandek tuyuladi. Yozuvchi Istiqlol davridagi yangi shaxs muammosini shu obrazda umumlashtirgandek. Ammo adib Yusufning intilishlarini, undagi muvozanatga kelish jarayonlarini yorqin ko'rsatish uchun uning paralleliga yana uchta Mirazim, Said va Amir obrazlari qo'yadi. Ulug'bek Hamdam to'rt

qahramon fonida, ularning birortasi tutgan yo'lni ma'qullamaydi, balki insonga xos bo'lgan mana shu to'rt holat muvozanatga kelishi, shundagina insonning ma'naviy-axloqiy qiyofasi mukammal bo'ladi deb hisoblaydi.

Ulug'bek Hamdam "Isyon va itoat" romani e'tiqod va imon masalalariga bag'ishlangan bo'lib, asar qahramonlari tiriklik mantig'i va ruh halovatini har ikki dunyo to'g'risidagi mushohadalar yordamida idrok etishga urindi. Romanda voqealar muallif tilidan hikoya qilinadi. Asar markazida Akbar obrazi turadi. Tadqiqotchi L.Rahimova asardagi Akbar obraziga quyidagicha ta'rif beradi: "Akbar o'z olamidagi ziddiyatlar bilan kurashar ekan, hayotga teranroq nazar tashlashga urinadi, hayotning o'tkinchi ekanligiga, inson umri azizroq ekaniga yana bir bor ishonch hosil qiladi" [6.: 260.]. Adabiyotshunos Bahodir Sarimsoqov qayd qilganidek, "Real borliqdagi, inson ruhiyatidagi turli-tuman o'zgarishlar va kechinmalarni ijodkor o'z ongi, dunyoqarashi, estetik ideal, g'oyaviy maqsadi orqali sintez qilish oqibatida badiiy obraz shakllandi. Shu sababli ijodkor yaratgan har bir yangi obraz yangi bir xilqat, yangi bir kashfiyotdir". Yozuvchining "Isyon va Itoat" romanidagi Tursunboy, Jontalash, Larisa xola, Diana kabilar ana shunday obrazlardir. Bu asarda ham to'rtta obraz muammo markazida turadi. Larisa xola – yaratganga qarshi isyonkor, Tursunboy – itoatning yorqin timsoli, Ustoz va Akbar isyon orqali itoatga kelganlar. Dilmurod Quronov ushbu romanda G'arbda keng tarqalgan absurdizm-hayotning o'z ma'nosini yo'qotishi g'oyalarini ko'radi. Absurd bu ko'hna dunyo, hayot yashashning ma'nosi haqidagi o'ziga xos mushohadalar majmuasidir. Absurd asar odat tusiga kirgan hayotiy hodisa jarayonlarni yangicha idrok etishga, bahsga undashi bilan qimmatlidir, Absurd asar aslo befarqlik loqayd munosabat emas, balki fikrdagi, qalbdagi tug'yon – isyon mahsulidir. [2.: 111.]

Muallifning "Sabo va Samandar" romani ishq mavzusida bitilgan asar bo'lib, unda pok va yuksak muhabbat tuyg'usi zamondoshlarimiz qismati orqali sharaflanadi. Hamidulla Boltaboyev aytganidek, "inson doim o'zligini axtarib yashaydi. Mana shu axtarishlar, izlanishlar jarayonida har bir narsaga – gulga yulduzga zaminga yuzlanadi. Ko'zlardan dalillardan ranglardan o'zini izlaydi.

Nimanidir kimnidir topganday bo‘ladi. Topganiga topinib yashaydi. [1.: 40.] Bu e’tirof xuddi Samandar uchun aytilganday go‘yo. Chunki Samandar ham hayolidagi malikani izladi. Va topdi.

“Uslub – yozuvchining adabiyotdagi betakror qiyofasi, bezagi, o‘zligi. Uslub – yozuvchi falsafasi in’ikosi”– degan edi adabiyotshunos A.Rasulov. Ulug‘bek Hamdamning asar qahramonlaridan tortib, voqealar tizimi, xullas, asarning boshdan-oxir kompozitsiyasida aynan shunday o‘ziga xos va mos uslubni ko‘ramiz. Romanda nohaq qamalgan haqiqatgo‘y Akbarni hurmat qilamiz unga hamdard bo‘lamiz. Tabibning ishdan haydalishi qamalishini qoralaymiz, haqsizlikka norozilik bildiramiz. Tursunboyning mehnatkashligini oqlab, ma’naviy qashshoqligiga g‘ashimiz keladi, uning o‘limiga achinamiz. Roman e’tiqod va iymon masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, asar qaharmonlari tiriklik mantig‘i va ruh halovatini har ikki dunyo to‘g‘risida mushohadalar yordamida idrok etishga urinadi.

Ulug‘bek Hamdam asarlari bugungi kunda allaqachon o‘z o‘quvchilarini topgan. Uning asarlari o‘z o‘quvchilarini tanlaydigan asarlardir. Ijodidan bahramand bo‘lmoqchi bo‘lgan o‘quvchidan ma’lum intellektual tayyorgarlik bo‘lishi kerak. Chunki “Ulug‘bek Hamdam asarlaridagi murakkab ramzlar unchamuncha o‘quvchiga og‘ir tuyulishi hech gap emas. Eng muhimi shuki, Ulug‘bek Hamdam o‘quvchini faqat o‘zigagina xos bo‘lgan ruhiy olami bilan tanishtiradi. Ulug‘bek Hamdam mavzu va uslub tanlashda, bayon va asar tuzilishida hech kimga taqlid qilmaydi. Hatto unda kimdandir ijodiy ta’sirlanish degan taqlidning nozik shaklini ham payqamaysiz”. [5.: 13.] Ulug‘bek Hamdam asarlarini mutolaa qilgan o‘quvchi o‘zbek adabiyotida shakl va ma’nodagi yangilanishlardan yaxshi xabardor bo‘ladi. Chunki uning asarlarida hozirgi nasrimizda kechayotgan tub o‘zgarishlarning barcha qirralari o‘z aksini topgan. “Ulug‘bek Hamdam asar shakli va ma’nosini o‘z ichidan izlab topadi. Uning yozganlarini o‘qiyotganda jahonga mashhur qaysidir yozuvchining qandaydir asari yodingizga tushmaydi. Asar yaratish uslubi, ramzlari, iztirob va ruhiy izlanishlari o‘zinikidir”. [5.: 12.] Ulug‘bek Hamdam o‘zbek adabiyotida bayon uslubi, obraz yaratish mahorati, asar

kompozitsiyasi va asar poetikasi yuzasidan adabiy an'analarni munosib davom ettirdi. Shitob bilan yangilanib borayotgan adabiyotda adabiyot ahlini befarq qoldirmaydigan asar yaratish mumkinligini "Muvozanat" romani misolida isbotladi. Yozuvchining "Isyon va itoat" romani novatorona izlanishlar samarasidir. Unda modernizmga xos bayon uslublarini ham, asar syujetining xos qurilishini ham, asar tilidagi ayrichalikni ham kuzatish mumkin. Eng asosiysi, insonni anglash yo'lidan, o'zlikni anglash sari boriladigan talqinlar adabiyot uchun yangi topilmadir. Shuningdek, adibning "Sabo va Samandar" romanida ham bunday yangicha yondashuvlar salmoqli o'rin tutadi.

Ulug'bek Hamdam yaratgan obrazlar bugungi kunning kishilari bo'lib, ulardagi ko'ngil tovlanishlari, xarakterlardagi nozik qirralarini berilganligi diqqatga sazavordir. Ulug'bek Hamdamning romanlari alohida mavqeda turishi, ulardagi mavzu va g'oya uyg'unligi, o'ziga xos uslub va mahorati, obrazlarning yangicha talqinda berilishi, xarakterlarning hayotiyiligi bilan ajralib turadi. Adibning romanlarida muvozanat tushunchasi keng va ta'sirli ifodalanadi. Jumladan, har narsada me'yor bo'lganidek, botiniy va zohiriy muvozanat, moddiy va ma'naviy muvozanat kabi. Muallif olamda muvozanat bilan muvozanatsizlik o'zaro almashinib turishi qonuniyat maqomidagi hodisa, shunga qaramay, inson dunyoning mavjudligini mohiyatiga muvofiqlashtirishga intilib yashashi zarur, bu insonlik vazifa, inson hayotining mazmuni ekanligini aks ettirgan. Asardan shunday xulosaga kelish mumkinki, butun olam muvozanat qonuni asosida turgan bo'lsa, jamiyat ham, uning asosini tashkil qilgan insonlar ham ayni muvozanat tufayli barqarordir. Muvozanat buzilgan zahoti hayotda, demak, uning a'zolari orasida har xil kutilmagan o'zgarishlar, hatto izdan chiqishlar boshlanadi [7.: 18.].

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Ulug'bek Hamdam ijodi XX asr o'zbek adabiyotida ijodiy izlanishlarga boyligi jihatidan salmoqli o'rin tutadi. Uning ijodidagi shakliy va mazmuniy yangilanishlar o'zbek nasrining imkoniyatlari kengligini isbotladi va uni yana bir pog'ona yuqori ko'tara oldi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Boltaboyev H. So‘z sehri. – Toshkent, 2006.
2. Normatov.U Ijod sehri . – Toshkent, 2007.
3. Quronov D. So‘nggi so‘z o‘rnida- <http://ulug‘bek.hamdam.uz>
4. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – Toshkent, 2006.
5. Rahmat R. “Vatan haqida qo‘shiq”ni tinglab... Kitob dunyosi gazetasi.
6. Rahimova L. Badiiy konflikt talqini.// Yoshlik, 2014.
7. Tuychiyeva Ravshanoy. Ulug‘bek Hamdam ijodida an‘ana va novatorlik. – Toshkent, 2016.

### **IXLOS – NAJOT KALITI**

**Yangiboyeva Rayhonoy,**  
*magistrant,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Navoiy hazratlarining “Navodir ush shabob” devonidan o‘rin olgan orifona g‘azali tahlilga tortilgan. Shoirning chuqur falsafiy mazmuni hayotiy voqea asosida aks ettirib, tasavvufiy ohang bilan muzayyan qila olish mahorati ochib berilgan. Izoh talab so‘zlar ma‘nosi sharh asnosida yotirib berishga harakat qilingan.

**Аннотация.** В данной статье анализируется газель орифона из дивана «Наводир уш шабаб» Его Святейшества Навои. Раскрывается способность поэта отражать глубокое философское содержание, основанное на жизненном событии, и выражать его мистическим тоном. Сделана попытка объяснить значение требуемых слов в комментарии.

**Abstract.** In this article, the orifona ghazal from the "Navodir ush shabab" divan of His Holiness Navoi is analyzed. The poet's ability to reflect the deep philosophical content based on a life event and to express it with a mystical tone is revealed. An attempt was made to explain the meaning of the required words in the commentary.

**Kalit so‘zlar:** ixlos, dayr, xonaqoh, xalos, vajd, botin ishi, ishq shahidi.

**Ключевые слова:** ихлос, дайр, ханака, ваджд, внутренний труд, мученик любви.

**Key words:** hope, dayr, khanaqah, zadhar, vajd, inner work, martyr of love.

Barchamizga ma'lumki, bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda adabiyot atalmish mayoq inson qalbi uchun taskin beruvchi malhamga aylandi. Bu borada jahon adabiyotidan o'girilib, "dunyo asli bir rabot", - deya mumtoz maxzanlar sari yuzlanishga ehtiyoj seziladi. Hazrati Navoiyning g'azallarda dil g'amlarini arituvchi, Cho'lpon ta'biri bilan aytganda, "yurak kirlarini yuvadurg'on ma'rifat suvi" mavjudki, undan zarra tilagan kimki bor, matlabi qadar nasiba oladi. Quyida tahlilga tortilgan baytlar fikrimizning dalilidir. "Navodir ush shabob" devonida 271-o'rinni egallagan mazkur g'azal aruzning hazaji musammani mahzuf vaznida bitilgan bo'lib, o'ziga xos tasavvufiy ohang bilan boshlanadi. Navoiy g'azallarida ruhiy kayfiyat baytdan-baytga ko'chib, sayqallanib borar ekan, ushbu misralarda ham bu an'ana davom etgan.

**Birovki dayr sori zohir ayladi ixlos,**

**Burung'i naf'i bukim xonaqahdin o'ldi xalos.**

Kimki dayrni ixlos qilsa, unga keladigan ilk naf xonaqohdan xalos bo'lishidir. Bu yerda dayr va xonaqoh so'zlarini izohlab o'tish joiz. Xonaqoh-so'fiylar yig'iladigan joy, dayr esa zohidlar ibodatxonasi sanaladi. Alisher Navoiy qomusiy lug'atida xonaqoh-darveshlar va faqirlarning to'planadigan joyi, dastlab kambag'allar uchun xayriya tarzida qurilgan mehmonxona tarzida izohlangan. [2.: 147.]. Maqriziyning "Xitat-ul Maqriziya" asarida keltirilishicha, sayyoh va darveshlar uchun qo'ningoh vazifasini o'taydi. Navoiy ijodida bu istiloh ijobiy va salbiy ma'noda ishlatiladi. Salbiy ifoda sifatida soxta so'fiy va ta'magir darveshlar qoralanib, tekinxo'r ulamolar tanqidga olinadi. Matlada ham aynan, shu mazmuni sezish mumkin. Ya'ni inson ruhiy barkamollikka intilar ekan, oldingi holatidan tobora yuksalib boraveradi. Dayr esa yuqoridagi lug'atning 2-jildida irfoniy ma'noda orif, avliyolar majlisi, inson ilohiy olamini ko'zda tutadi. [1.: 28.]. Nafs va jism ozuqasidan ko'ngil ozig'i g'amiga tushgan solik holati tasviri shunday: ko'ngliga dayr orzusi tushgan xonaqohdan qo'l yuvadi.

### **Xalos istasang andin ayon qil ixlosing**

#### **Ki, yo‘q kishiga xalos etmayin ayon ixlos.**

Xonaqohdan ozod bo‘lishni istasang, ixlosingni ayon qil, chunki jidd-u jahd qilmagan kishiga najot berilmaydi. Bu bayt ixlosning inson hayotida nechog‘lik muhim ekanligini ko‘rsatadi. Xalqimiz orasida, "Ixlos-xalos",- degan naql uchraydi. Demak, buning ma‘nosi, ixlos (harakat)-najot ekan.

#### **Avom zohiridek qilmag‘ang‘a zohirini**

#### **Muyassar o‘lmadi botin ishi nechukki xavos.**

Mazkur misralarda tazod san‘ati qo‘llangan bo‘lib, bundan murod zidlik asnosida tanbeh berish, tushuntirishdir. Xilvat dar anjuman jumlasini orqali tahlil qilinsa, bayt mazmuni yana-da oydinlashadi. Xoslar botin ishini bilur, lekin shaklan avom xalqdan ularni ajratib bo‘lmaydi. Agar kimki, o‘z ulug‘ligi bilan boshqadan ustun bo‘lishga urinsa, bilki, unga hali asl ulug‘lik ato qilinmagan. Xavos-xoslar, avom-xalq.

#### **Birovga xos inoyat bu yo‘lda om o‘ldi**

#### **Ki, om suvrati birla o‘zini ayladi xos.**

Inoyat - ilohiy tortiq, g‘ayb sirlarini bilish qudrati. Ommadan o‘zini ajratmagan xos kishi uchun bu yo‘lda inoyat berildi. Bu yerda om – oddiy odamlar, xos esa maxsus bilimga ega kishilar degan ma‘noda ishlatilgan.

#### **Simo‘ vajd ila gar bo‘lmasa muassir emas**

#### **Ki, kulgu boisidur qilsa fil o‘zin raqqos.**

Agar musiqa (simo‘) ruhiy holat (vajd) bilan mutanosib bo‘lmasa, uning ta‘siri bo‘lmaydi, chunki fil o‘zini raqqos sanab, o‘yinga tushsa faqat kulgu va mazaxga qoladi. Bu yerda simo‘ deganda tasavvufdagi ma‘naviy holatni kuchaytiradigan musiqa va raqs tushuniladi. Shoir, agar bu jarayon jism va qalb uyg‘unligi bilan bo‘lmasa, xuddi filning raqs etishi kabi kulguli holatga aylanib qolishini ta‘kidlaydi. Zero, filning vazifasi yuk tashishdir. Og‘ir harakat uchun yaratilgan xilqatning o‘zini yengil tutishi qandayam gumrohlik.

#### **Baqo durin tilabon terga g‘arqaliq ne osig‘,**

#### **Budur toparg‘a fano bahri ichra bo‘l g‘avvos.**

Agar boqiylikni (abadiylikni) istasang, unga yetishish oson emas; uni topish uchun fano (yo‘qolish, taslim bo‘lish) dengiziga sho‘ng‘ib, g‘avvos (sho‘ng‘uvchi) bo‘lishing kerak. Tasavvufda "fano" – insonning o‘z nafsidan voz kechib, butunlay Allohga taslim bo‘lishi, "baqo" esa abadiylikka erishishdir. Navoiy, baqo uchun bu dunyodan yashab o‘tishdan boshqa chorang yo‘q ekan, oxiratda baland nasiba-durga ega bo‘lmoq uchun quruq ibodat-u uzlat bilan terga g‘arq bo‘lib o‘tirishdan ma‘no yo‘q. Zero, dur terdan emas, yomg‘ir tomchilaridan paydo bo‘ladi. Shunday ekan, dunyo bilan hamnafas bo‘lib, fano dengiziga sho‘ng‘i, asl durni topasan.

**Navoiy, istasa qatling habib, sen yana o‘l**

**Ki, ishq tig‘i shahidig‘a buyla keldi qasos.**

Ey Navoiy, agar sevgiling (habibing) sening o‘limingni istasa, yana jon ber, chunki ishq tig‘i bilan shahid bo‘lgan kishiga qasos budir. Ya‘ni, sen qasos olmoqchi bo‘lsang o‘ldirma, balki yana o‘l. Shundagina asl mohiyatni kashf etasan. O‘lmasdan burun o‘lmoq-nafsni o‘ldirish, Haq o‘limingni buyurdi, yana o‘l (jisman) . Bu bilan nafsing qasosini olgan bo‘lasan. Ya‘ni, ajr olasan.

Maqtani tahlil qilish o‘quvchidan ham maxsus tayyorgarlik, ham irfoniy tafakkur hamda mufassal diniy bilim talab qiladi. Ma‘noni anglash insonga hayotiy muvozanat yaratishda ma‘naviy ko‘mak beradi.

Xulosa qilib aytganda, bu g‘azalda ixlos, najot, haqiqatni anglash, baqo yo‘lida maxsus maqomga erishish shartlari yoritilgan bo‘lib, Navoiy tasavvufiy falsafani ifoda qilib, insonning o‘z nafsi bilan kurashi va haqiqiy ma‘naviy yuksalishga erishish jarayonini bayon qiladi. Hamma zamon ham o‘zida shoir dahosiga ehtiyoj sezadi. Bu ehtiyojni qondirish yo‘lida tinimsiz izlanish, Navoiy asarlarini xalqqa yoyish, sharhlash adabiyotshunoslar oldida turgan zaruriy vazifadir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Alisher Navoiy. Navodir ush shabob. 4-jild // To‘la asarlar to‘plami, 10 jildlik, – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiyot uyi. 2013. bet.

2. Navoiy asarlari lug'ati. (Nashrga tayyorlovchilar: P.Shamsiyev, S.Ibrohimov). – Toshkent: 1972.
3. Shayx Muqammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. 4-juz. – Toshkent: Hilol Nashr, 2019.
4. Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. – Toshkent: “Fan”, 2007. 18 b.
5. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent.: Movarounnahr.
6. Mantiqut-tayr (nasriy bayon) Farididdin Attor, [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi

## **SHOIRNING DINIY-MA'RIFIY MAVZUDAGI SHE'RLARI XUSUSIDAGI QARASHLAR**

**Sharipova Lobar Umrbek qizi,**  
*magistrant,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Abdulla Oripovning “Xaj daftari” asari haqida adabiyotshunoslar fikri tahlil qilindi. Adabiyotshunoslarning maqolalaridagi diniy mavzudagi she'rlarning tahlili va talqini ko'rib chiqildi.

**Аннотация.** В статье анализируются мнения литературоведов о произведении Абдуллы Орипова «Хадж Дафтари». Рассмотрен анализ и интерпретация религиозных стихотворений в статьях литературоведов.

**Abstract.** This article analyzes the opinions of literary critics about Abdulla Oripov's work "Hajj Daftari". The analysis and interpretation of religious poems in the articles of literary critics are considered.

**Kalit so'zlar:** “Xaj daftari”, diniy-ma'rifiy she'rlar, axloq, inson, hadis, rivoyat, payg'ambar, ruhiy izlanish, diniy g'oya, milliy qadriyat, she'riyat

**Ключевые слова:** «Хадж Дафтари», религиозно-просветительские поэмы, нравственность, человек, хадис, повествование, пророк, духовный поиск, религиозная идея, национальная ценность, поэзия

**Keywords:** "Hajj Daftari", religious-enlightenment poems, morality, man, hadith, narration, prophet, spiritual search, religious idea, national value, poetry

Abdulla Oripovning diniy-ma'rifiy mavzudagi she'rlari, uning badiiy ijodida muhim o'rin tutadi. Shoirning ushbu mavzudagi asarlari, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, insonning ichki dunyosi va uning diniy anglash jarayonini yoritishda muhim ahamiyatga ega. Abdulla Oripov diniy-ma'rifiy masalalarni "Haj daftari" asarida ko'rsatgan, uning asaridagi diniy g'oyalar ko'plab adabiyotshunoslar va tanqidchilar tomonidan chuqur o'rganilgan. Masalan, Oybarchin Abdulhakimova, No'mon Rahimjonov, Nurboy Jabborov va hokazo. Shoirning diniy-ma'rifiy she'rlari, birinchi navbatda, insonning ruhiy izlanishlari, hayotdagi maqsadi va Allohga bo'lgan ishonchni tasvirlashga qaratilgan. Nurboy Jabborov o'z maqolasida asar haqida shunday fikrlarni bildiradi. "Shoir hadis va rivoyatlarga tayanib, payg'ambar siymosini aks ettirar ekan, kitobxonni qadamma qadam O'ziga-Yaratganga ergashtiradi. O'quvchisini ham shunchaki Rasululloh sifatleri, sunnatlari bilan tanishtiribgina qo'ymay, ularga amal qilishga chorlaydi, nabiyini yanada ko'ngillar tubiga joylashga urinadi" [2.: 11.]. Abdulla Oripov bu mavzuni an'anaviy diniy she'riyatdan farq qilgan holda o'ziga xos, zamonaviy yondashuv bilan ifodalagan. Uning she'rlarida diniy qadriyatlarning zamonaviy dunyo bilan uyg'unlashishi, insonning diniy tafakkuri va axloqiy qiyofasining badiiy jihatdan yoritilishi ko'zga tashlanadi. A.Oripovning diniy mavzuda yozgan she'rlari ko'pincha insonning ma'naviy olamidagi izlanishlarni, axloqiy sa'y-harakatlarini aks ettiradi. Shoir o'z asarlarida insonni axloqiy ta'limga, Allohga bo'lgan muhabbatga chaqiradi. Shu bilan birga uning she'rlari ko'plab o'quvchilarda diniy tafakkurga, ma'naviyatga, hayotning maqsadini anglashga bo'lgan qiziqishni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Abdulla Oripovning diniy she'rlari milliy qadriyatlar bilan chambarchas bog'langan. Shoir o'z she'riyati orqali xalqning tarixiy va diniy qadriyatlarini tasvirlab, ularni zamonaviy dunyoqarash bilan uyg'unlashtirishga harakat qiladi. Uning she'rlaridagi diniy-ma'rifiy g'oyalar, xalqning o'zaro hurmat, mehr-oqibat va yaxshilikka bo'lgan intilishlarini aks ettiradi. Adabiyotshunoslar Abdulla Oripovning diniy-ma'rifiy she'rlari orqali shoirning diniy va ma'naviy qadriyatlarga nisbatan yuksak hurmatini, insonning diniy anglash jarayonini

tasvirlashdagi ustaligini ta'kidlaydilar. Shoir diniy-ma'rifiy mavzularda yozgan asarlari bilan o'zbek she'riyatiga yangilik olib kirgan va bu jihat uning ijodini zamonaviy adabiyotda alohida o'rin tutgan. Abdulla Oripovning she'riyatida diniy-axloqiy g'oyalar samimiy tarzda ifodalangan, bu esa uning she'rlari yuksak qadriyatga ega ekanligini ko'rsatadi. No'mon Rahimjonov asarida shunday deya yozadi: "Bashariy qadriyatlarning mohiyatini anglash – bu o'zlikni bilish sari qo'yilgan sobit qadam. [3.: 41.] Abdulla Oripovning diniy-ma'rifiy mavzularda yozgan she'rlari, o'zining badiiy jihatlari bilan birga, ma'naviyat va axloqiy qadriyatlarning yuksalishi hamda jamiyatdagi diniy g'oyalar bilan bog'liq muhim masalalarni ko'rsatishda katta ahamiyatga ega. Shoirning diniy-ma'rifiy mavzularda yozgan she'rlari, uni faqatgina shoir sifatida emas, balki xalqni diniy va ma'naviy qadriyatlarni anglashga chaqirgan ijtimoiy arbob sifatida ham tanitadi.

Abdulla Oripovning diniy-ma'rifiy she'rlari ko'plab o'quvchilar va adabiyotshunoslar tomonidan, ularning hayotdagi mazmuni va zamonaviy dunyoqarash bilan qanday uyg'unlashishi nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Shoir o'z she'rlari orqali insonning ma'naviy izlanishlari, uning axloqiy ta'lim jarayoni va diniy ishonchga bo'lgan ehtiyoji haqida chuqur fikrlar yuritadi. Abdulla Oripovning she'rlari faqatgina diniy mavzuda yozilgan asarlar bo'lib qolmay, balki, ular insoniyatning ichki dunyosini, uning ma'naviy baxtga erishish yo'llarini va hayotining maqsadini tasvirlashga harakat qiladi.

Shoirning diniy-ma'rifiy she'rlari insonning ichki izlanishlari va ma'naviy ehtiyojlarini eng yuqori badiiy darajada aks ettirishga intiladi. Uning she'rlari orqali diniy haqiqatga bo'lgan ishonch, Allohga bo'lgan muhabbat, odamlar o'rtasidagi rahm-shafqat va mehr-oqibat kabi qadriyatlar chuqur tasvirlanadi. Bu qadriyatlar, shuningdek, Abdulla Oripovning she'riyatida insonning ijtimoiy va axloqiy masalalarni tushunishga intilishi bilan ham bog'liq. Shoirning dindan va ma'naviyatdan ilhomlanib yozgan she'rlari, o'zbek xalqining tarixiy tajribasiga, madaniyatiga va diniy an'analariga chuqur hurmat bilan qaraydi.

Abdulla Oripovning diniy-ma'rifiy mavzularda yozgan asarlaridagi yana bir muhim jihat, bu uning she'riyatida diniy tasavvurlarni badiiy va zamonaviy shakllarda ifodalashidir. Shoir o'zining she'riyatini yangicha yondashuvlar bilan boyitib, diniy g'oyalarni she'riy shaklda yoritishda o'ziga xos yondashuvni namoyish etadi. Shu bilan birga Abdulla Oripovning she'rlarida diniy va ma'naviy g'oyalar ko'plab poetik vositalar orqali – ramzlar, metaforalar, obrazlar yordamida taqdim etiladi. Shoir diniy haqiqatlarga bo'lgan ishonchini va samimiy fikrlarini she'riyatga kiritishda, ularni estetik jihatdan mukammal va o'ziga xos tarzda aks ettirgan. A. Oripovning diniy-ma'rifiy mavzularda yozgan asarlarini o'rganishda, adabiyotshunoslar uning ijtimoiy adolat, hayotning maqsadi va insonning ichki izlanishlari haqidagi fikrlarini alohida ta'kidlaydilar. Shoir diniy-ma'rifiy g'oyalarni tushunishda va ularni keng jamoatchilikka yetkazishda katta ahamiyat kasb etadi. Uning she'rlari insonni ma'naviyatga, yaxshilikka va adolatga da'vat etuvchi chuqur g'oyalar bilan to'ldirilgan. Abdulla Oripovning diniy-ma'rifiy mavzudagi she'rlari, shuningdek, uning xalqning madaniy va diniy qadriyatlarini yashatishga bo'lgan intilishining natijasidir.

Shoirning diniy-ma'rifiy mavzulardagi asarlari, faqatgina diniy yoki axloqiy jihatlarga oid masalalarni yoritib qolmaydi. Abdulla Oripov she'riyatini ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy masalalar bilan bog'lab, zamonaviy jamiyatning diniy va axloqiy holatini tahlil qiladi. Uning she'rlari orqali o'quvchilar, jamiyatdagi adolatni, xolislikni, mehr-oqibatni va insoniyatning yaxshilikka bo'lgan intilishini anglashga harakat qilishadi. Shoir ma'naviyatni, diniy qadriyatlarni jamiyatdagi har bir insonning ichki dunyosiga joylashtirishga qaratgan. Ularning o'rganilishi adabiyotshunoslar tomonidan jamiyatdagi o'zgarishlarni diniy-ma'rifiy qarashlar nuqtai nazaridan ko'rib chiqish imkonini yaratadi. Abdulla Oripovning diniy-ma'rifiy she'rlari, shuningdek, uning xalqning diniy an'analari bilan birgalikda, zamonaviy dunyoda o'z o'rnini topishga intilishining natijasidir. Shoir o'z asarlarida, xalqning diniy-axloqiy qadriyatlarini va ma'naviy o'sishini, insoniyatning ruhiy taraqqiyotiga bo'lgan ehtiyojni yuksak badiiy darajada

tasvirlagan. Uning she'rlari o'quvchilarga diniy haqiqatlarga bo'lgan ishonchni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Abdulla Oripovning diniy-ma'rifiy she'rlari orqali jamiyatda ma'naviyatni va axloqiy qadriyatlarni qayta tiklashga bo'lgan intilishdir.

Shoirning she'riyati diniy-ma'rifiy mavzularda yozilgan asarlari, asosan, odamlarning ruhiy va axloqiy izlanishlarini aks ettiradi. Abdulla Oripov she'riyatida diniy g'oyalarni badiiy va zamonaviy shaklda keltirish orqali o'z vaqtida yangi g'oyalarni yaratdi. Bu uning asarlarini zamonaviy adabiyotdagi alohida o'rin tutgan asarlarga aylantirdi. Shoirning diniy-ma'rifiy she'rlari o'zining badiiy qiymati, ijtimoiy mazmuni va ma'naviy tasviri bilan o'zbek adabiyotining yirik namunalari sifatida e'tirof etiladi. Abdulla Oripov o'zbek adabiyotining yetakchi vakillaridan biri sifatida nafaqat badiiy asarlari, balki diniy-ma'rifiy mavzulardagi she'rlari bilan ham keng tanilgan. Shoirning ijodida diniy va ma'rifiy mavzular katta o'rin tutadi, chunki u o'z asarlarida insonning ma'naviy yuksalishi, axloqiy kamoloti, iymon va ma'rifatning o'rni haqida chuqur fikrlar bildiradi. Buni No'mon Rahimjonov ham o'z asarida quyidagicha ta'kidlab o'tadi. "Inson umri, tirikligi bu – Haq jamoliga yetishish yo'li. Faqat u bandai mo'min uchun sinov safari. Fanodan baqo safari olis yo'lga otlangan ezgu umidlari, ko'ngil mayli, iroda-maslagi".[3.: 34.] Abdulla Oripovning diniy-ma'rifiy mavzudagi she'rlari, shubhasiz, uning adabiyotdagi o'rnini mustahkamlashga yordam beradi va shu bilan birga, o'zbek xalqining ruhiy-ma'naviy hayotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Abdulla Oripovning diniy-ma'rifiy mavzulardagi she'rlari asosan islom dini qadriyatlariga, insoniyatning ma'naviy yuksalishiga va axloqiy ideallariga qaratilgan. U o'z asarlarida faqatgina diniy ramz va tushunchalarni talqin qilibgina qolmay, balki ularga badiiy yondashuvni ham kiritgan. Shoir diniy tasavvurlarni zamonaviy adabiyotga moslashtirgan holda, ulardan insonni o'ylashga, o'zini rivojlantirishga undovchi ma'naviy kuch sifatida foydalanadi. Masalan, uning ko'plab she'rlari sabr-toqat, halollik, adolat va rahm-shafqat kabi islom dinining asosiy qadriyatlarini yuksaltirishga qaratilgan. Abdulla Oripov she'rlari orqali adolatni ulug'laydi, uni faqatgina din

nuqtai nazaridan emas, balki insoniyatning umumiy ma'naviy talabiga aylantiradi. Uning she'rlarida haqiqatni izlash, to'g'ri yo'lni tanlash, jahon va axloqiy yuksalishning insoniyat uchun muhimligi ta'kidlanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. A. Oripov. Xaj daftari. Hikmat sadolari. – T., 1992.
2. N. Jabborov, N. Ikromova “Abdulla Oripovning “Hikmat sadolari” turkum she'rlarida Payg'ambar obrazining ifodalanishi”, – T., 2021.
3. N. Rahimjonov. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati. – Toshkent: Fan, 2007
4. A. Oripov. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 2001

### **“OYDINDA YURGAN ODAMLAR” QISSASIDA MILLIY QADRIYATLAR TALQINI**

**Abdullayeva Elnura,**  
*talaba,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston Xalq Yozuvchisi Tog'ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” qissasidagi milliy an'ana va qadriyatlarning badiiy talqinlari tahlilga tortiladi.

**Аннотация.** В статье анализируются литературные интерпретации национальных традиций и ценностей в рассказе народного писателя Узбекистана Тогая Мурода «Люди, идущие по луне».

**Annotation.** This article analyzes the literary interpretations of national traditions and values in the story "People Walking in Moon" by the People's Writer of Uzbekistan Togay Murod.

**Kalit so'zlar:** qissa, badiiyat, obraz, voqea rivoji, qadriyatlar tasviri, syujet, tahlil.

**Ключевые слова:** история, художественная литература, образ, развитие сюжета, образ ценностей, сюжет, анализ.

**Keywords:** story, fiction, obraz, story development, image of values, plot, analysis.

Millat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq qadriyatlar milliy qadriyatlar hisoblanadi. Milliy qadriyatlar millat tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati shuningdek, madaniyati bilan chambarchas bog'liq holda namoyon b'oladi. Milliy qadriyatlar o'sha millatga mansub har bir kishi tomonidan yaratilgan, insoniylikka xos fazilatlar, xosiyatlarni milliy-madaniy meros xazinasiga qo'shgan hissasini ifodalovchi buyuk k'orsatkichdir. Milliy qadriyatlarning negizini urf-odatlar, bayram-u sayllar, rasm-rusumlar tashkil etadi. Chunki, milliy qadriyatlar har bir millatning o'zligini ifodalovchi, boshqa millatlardan ajralib turuvchi belgisidir.

Bilamizki, o'zbek milliy qadriyatlari mazmunida insonparvarlik g'oyalari yotadi. Uzoq tarix davomida o'zbeklarning o'zaro munosabatlarida, kundalik turmush tarzida o'zaro g'amkorlik va hamdardlik, vafodorlik va o'zaro hurmat, biri-biriga suyanish va yaxshi qo'shnicilik, bolajonlik va ota-onaga hurmat, mehr-oqibat va sadoqat har tomonlama e'zozlanib kelinadi. Milliy qadriyatlarimizni rassomlar, shoirlar va yozuvchilar o'z asarlarida judda ajoyib tarzda tasvirlashgan. Shulardan biri, Tog'ay Murod bo'lib, u o'zbek millatining so'nmas urf-odatlarini, to'y marosimlari, rasm-rusumlarini o'quvchining ko'z oldida yaqqol gavdalantirgan. Tog'ay Murodning asrlarini o'qir ekanmiz, asar qahramonlari hayotida bo'lib turgan har bir voqea, huddi bizning hayotimizda bo'lib turgandek tuyuladi. Yozuvchining "Oydinda yurgan odamlar" qissasidagi milliy qadriyatlarimizning badiiy talqinini qo'rib chiqsak. Qissa uch bobdan iborat bo'lib, ilk boblarida Qoplonbek va Oymomoning to'y marosimlar juda mahorat bilan tasvirlanadi. O'zbek to'ylari judayam ko'p urf-odat, turli-timan marosimlarga boy. Keling, ushbu o'rinda qissadan bir parchaga etiborimizni qaratsak: "Oyna ko'rsatar baridan-da zavqli bo'ldi, baridan-da gashtli bo'ldi! Kayvoni ayol kelin-kuyovga oyna tutdi. Kelin-kuyov yuzlarini oynadan olib qochdi. Kelin qarasa kuyov qaramadi, kuyov qarasa, kelin qaramadi! Kayvoni ayol kelin-kuyov boshini yonma-yon ushladi. Yuzlarini oynaga qaratib turdi. Bir-birlari bilan aytishmaganlariga-da qo'ymadi! Kuyov kelin aksi bilan, kelin kuyov aksi bilan pichirlashib aytishdi: – Bizni voyaga yetkazmish ota-onamizga ming

bor qulluqlar bo'lsin. – Akamiz bilan yangamizga undan-da ko'p. — Bir-birimizga o'la-o'lgunimizcha sodiq bo'laylik. — Undan keyin-da shunday bo'laylik. – O'g'il-qizlarimiz... – Bir etak bo'lsin!” bir qarashda oddiy voqe ko'z aldimizda gavdalanadi, aslida esa bu parchada milliy urf-odatlarimizdan biri bo'lgan oyna ko'rsatar marosimi o'ta mohirlik bilan tasvirlangan (1.: 10.). Bu marosimda ikki yosh bir-birining aksi bilan aytishishadi, ya'ni, ulani voyaga yetkazgan insonlarga qulluq aytishadi, farzandlari ko'p bo'lishini tilashadi. Shubhasiz, o'zbek xalqi qadim-qadimdan juda bolajon xalqdir. Bolani e'zozlash, erkalashda o'zbek xalqiga yetadigan xalq yo'qdir dunyoda. Shu tufayli, asarda farzand mavzusi keng talqin qilingan. Qissa qahramonlari bo'lmish Qoplonbek va Oymomo farzand orzu-ilinjida kun, oy, yillarni bir-biriga ulab umr ko'rishadi. Hali dunyoga kelmagan bolaning bobosi, momosi bo'lib, zuriyotini, bir-birlarini ardoqlashadi. Farzandli bo'lish uchun hatto folbin, tabib, kata-katta shifokorlarga murojat qilishadi. Afsuski ular farzandli bo'la olishmaydi, umrining oxirigacha tirmoqa zor bo'lishadi. Biroq qissada Qoplonbek o'zbek folklorida an'anaviy obrazlardan biri bo'lmish Xizr alayhissalomga uch marotaba duch kelishi va undan farzand so'raganda, sening farzanding bor deyish va qissa oxirida Qoplonbekning bizning farzandlarimiz, nevaralarimiz deyishi, o'quvchining biroz o'ylantirib qo'yadi. Bu yerda o'zbeklarning “Bir bolaga yetti mahalla ota-onadir!” maqoli to'g'ri keladi. Chunki tepada tilga olingan farzandlar, Qoplonbekning hamsoyasi Mengto'raning qizi va Oymomoning akasining o'g'li edi. Qoplonbek ularni ko'rib o'z navqironlik paytlarini eslaydi va beixtiyor bizning farzandlarimiz deydi. Garchi, ular farzand ko'rishmagan bo'lsa ham umrining oxirigacha bir-biriga mehrlil, sadoqatli bo'lib qolishgan. Shu boisdan, O'zbekiston Qahramoni Said Ahmad: “Tog'ay Murodning kuyib, yonib, o'rtanib bitgan, ba'zan faryod urib bitgan "Oydinda yurgan odamlar" qissasini "Muhabbat qo'shig'i", deb atagim keldi”, degan edi [1.: 1.].

Tog'ay Murod “Oydinda yurgan odamlar” qissasida milliy liboslar tasviri orqali qadriyatlariga urg'u berib, ularni mohirona tasvirlaydi. Fikrimizni dalillash maqsadida, qissadan ushbu parchani ko'rsak: “Elimiz kamalakni matoga

ko'chirdi. Oti atlas bo'ldi. Ana, atlas onalarimiz, opa-singillarimiz, qizlarimiz egnida tovlandi. Atlasda o'ziga loyiq rangi bo'ldi, rangiga loyiq nomi bo'ldi: Sakkiztepkilik, Marg'ilon xonatlasi, Samarqand oqshomi, Marg'ilon mash'ali, Farg'ona yo'llari, Layli, Guli, Shirin, Mahliqo, Shotikapak, Shodiqara, Qo'chqorshohi, Tiri kamon, Oltin kalit...". Ko'rinib turibdiki, bu yerda yozuvchi milliy matomiz atlasga ajoyib ta'riflar bergan (1.: 9.). O'zbekiston Qahramoni Said Ahmad: "U ona yurtining kamalakdek yetti rangi aks etgan xonatlas suvratini chizib ketdi, Tog'ay surxonning mungli va shu bilan birga sho'x, jo'shqin qo'shiqlarini kuylab o'tdi. Bu qo'shiq o'lmaydi, manguga ketadi." Haqiqatdan ham yozuvchining nafaqat "Oydinda yurgan odamlar" qissasida, balki boshqa asarlarida ham surxon elining so'nmas, milliy qadriyatlari bilan bir qatorda xalqimizning bag'rikengligi, bolajonligi, samimiyligini Tog'ay Murod tomonidan yaratilgan obrazlarda ko'ramiz.

Darhaqiqat, har bir yozuvchining o'ziga xos uslubi bo'ladi. Tog'ay Murod ham bundan mustasno emas, u barcha asrlarida o'tkir emotsional ta'siri kuchliligi tufayli kitobxonni hayojonga solib, uni to'lqinlantiradi. Atoqli adib Said Ahmad "Tog'ay Murod qo'shiqlari" maqolasida: "Tog'ay Murod qissa bitmaydi, nazarimda, bor ovoz bilan qo'shiq aytadi. Bu qo'shiqda avj pardalar bor, nolishlar bor, savt bor" ,deb yozgan edi [2.: 529.]. Bir so'z bilan aytadiganda, Tog'ay Murod hech bir ijodkorda uchramaydigan uslubda ijod qilib, adabiyotimizga o'z nomini o'chmas qilib muhrlab ketgan yozuvchilardan biridir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. N.Karimov, S.Mamajonov, B.Nazarov, U.Normatov, O.Sharafiddinov "XX asr o'zbek adabiyoti tarixi". – T.: O'qituvchi, 1999. 529 b.
2. S. Ahmad. Tog'ay Murod qo'shiqlari. – Toshkent, 1994.
3. T. Murod. Oydinda yurgan odamlar. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985. 10 b.

# 5- SHO‘BA: TILSHUNOSLIKNING NAZARIY VA AMALIY MASALALARI

## TARIXIY GEORTONIMLARNING ETNOLINGVISTIK VA LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYARLARI

**Uluqov Nosirjon Muxammadaliyevich,**

*filologiya fanlari doktori, professor,*

*Namangan davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Maqolada turkiy, xususan, o‘zbek geortonimiyasining tarixiy manbalari, tarixiy geortonimlar – bayram nomlarining etnolingvistik, lingvokulturologik xususiyatlari yoritilgan.

**Abstract.** The article discusses the historical sources of Turkic, in particular Uzbek, geortonymy, ethnolinguistic, linguocultural characteristics of historical geortonyms - holiday names.

**Абстрактный.** В статье рассматриваются исторические истоки тюркской, в частности узбекской, геортонимии, этнолингвистические и лингвокультурологические особенности исторических геортонимов - названий праздников.

**Kalit so‘zlar:** *geortonimiya, tarixiy geortonim, bayram, diniy bayram, mavsumiy bayram, motiv, lug‘aviy asos (leksik asos), teonim, transonimizatsiya.*

**Keywords:** *geortonymy, historical geortonym, holiday, religious holiday, seasonal holiday, motif, lexical basis (lexical basis), theonym, transonymization.*

**Ключевые слова:** *геортонимия, исторический геортоним, праздник, религиозный праздник, сезонный праздник, мотив, лексическая основа (лексическая основа), теоним, трансонимизация.*

Har bir xalqning tarixiy tarixiy geortonimiyasi o‘z manbalari va tarixiga ega. Markaziy Osiyo xalqlarining asosiy odat, marosim va bayramlari koinot, tabiat, fasllar va mehnat faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan. Ajdodlarimiz borliqdagi muhim to‘rt narsa (quyosh, havo, yer, suv)ni aniqlash bilan bir qatorda, shular bilan bog‘liq to‘rt ulug‘ kunni ham belgilab, nishonlashga odatlanishgan. Masalan,

tabiat uygʻonishi, kun-tun tengligi, dala ishlarining boshlanishi pallasida – *Navroʻz*; yozda – quyosh tik boʻlib, tun qisqa, kun uzun davom etganida, havo harorati yuqori darajaga koʻtarilib, suvga ehtiyoj kuchayganida suvga bagʻishlangan tadbir *Angom (Vaxshangom)*; kuzda – kun-tun tenglashib, yilning ikkinchi yarmi boshlanganida, dehqonlar daladagi hosilni yigʻib olgan vaqtda *Mehrjon (Chiri-ruji, Nimsarda)*; qishda – tun eng uzoq va kun qisqa boʻlib, sovuq avjiga chiqqani (qishki chilla)da isinishga ehtiyoj kuchaygan paytda *Sada – Olov bayrami* (gulxanlarda isinish) kabi tadbirlarni uyushtirishgan. Miloddan avval paydo boʻlgan bu bayramlarning barchasi kishilarning tabiiy ehtiyojlari asosida qaror topgan.

Oʻrta Osiyo, jumladan, Oʻzbekiston hududida yashovchi xalqlarning qadimiy bayramlarini oʻrganishda X-XI asrlarda yashagan buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” (“Osor ul-boqiya”) asari muhim ahamiyatga ega.

Beruniy bu asarida qadimiy eroniylar, xorazmiylar, sugʻdiylar, rumliklar, yahudiylar, suriyaliklar, xristianlar, hindlar va boshqa xalqlarning taqvimlaridagi mashhur kunlar, hayitlar va odatlar haqida tarixiy-madaniy ahamiyatga ega boʻlgan bebaho fikrlar qoldirgan. Biz uchun muhimi shundaki, u Oʻrta Osiyo, jumladan, Xorazm va Sugʻd xalqlarining islomgacha boʻlgan yillik taqvimiy bayramlari haqida qiziqarli maʼlumotlar beradi [7.: 12.].

Beruniyning yozishicha, sugʻdlarda Navsard oyining birinchi kuni – *Navroʻz* va 28-kuni – *Romush Ogʻom* (otashxonalarda toʻplanish bayrami); Niysan oyining 12-kuni – *Mohirj*; Basok oyining 7-kuni – *Nakah Ogʻom*; 15-kuni – *Sama Xvora* (olov tegmagan narsalarni yeyish bayrami); Ashnoxanda oyining 18-kuni *Baba Xvara* yoki *Bomi Xvora* (uzumdan siqib olingan toza sharbat ichish bayrami); Fagʻakon oyining 1-kuni – *Nim Sarda* (yil yarmi); Obonj oyining 9-kuni – *Garm Xvora*; Jimda oyining 24-kuni – *Bad amkom* bayramlari oʻtkazilgan [4.: 263-264.].

Beruniy xorazmliklarning bayrami haqida ham alohida toʻxtalib, ular quyidagi bayramlarni oʻtkazishga odatlanishganini taʼkidlaydi: Navsarji oyida *Yilboshi* (Navroʻz); Hrvdad oyining 1-kuni *Arijosuvon* (issiq kiyimdan chiqish,

yechinish va xalos bo‘lish bayrami); Jiri oyining 15-kuni – *Ajg‘ar* (kuz oxirida olovda isinish bayrami); Axshrvari oyining 1-kuni – *Fag‘abarix* yoki *Fag‘oruba* (sovuq kelishi bilan Xorazm podsholarining shahar chetiga chiqib, uni yovdan himoya qilish kuni); Avmri oyining 1-kuni – *Azdokand Xvar* (sovuq tushishi bilan olov yoqilgan uylarda o‘choqlar atrofiga yig‘ilib, yog‘liq non yeyish kuni); 13-kuni – *Chiri Ruch*; Rimjd oyining 15-kuni – Namxab (*Mina kechasi* – erta bahorda kechasi sovuqda qolib o‘lgan ayol xotirasi munosabati bilan o‘tkaziladigan marosim); Ispandormaji oyining 4-kuni – *Hej*, 10-kuni – *Vaxsh Angom* (*suvga e‘tiqod qilish kuni*); 20-kuni – *Incha* (*bir-biriga yaqin uylar qurish kuni*) bayrami kabilar [4.: 265-266.].

Beruniy xorazmliklarning bayramlarini ikki turga bo‘lgan:

1. Tabiat hodisalariga bag‘ishlangan: *Yilboshi bayrami* (*Navro‘z*), *ochilish bayrami*, *gulxanda isinish bayrami*, *yog‘liq non yopish kuni*, *Mina kechasi* va boshqalar.

2. Diniy marosimlar (islomgacha bo‘lgan davrda): *arvohlar uchun qabrlarga ovqat qo‘yiladigan kun* va boshqalar.

Geortonimlar, ya‘ni davr, vaqt, xususan, kunlarning atoqli nomlari bayramlar bilan bog‘liq. Masalan, *Aridibehisht bayrami* – Aridibehisht oyining o‘ninchi kuni o‘tkaziladigan bayram [5.: 51-52.]. Demak, teonim, ya‘ni iloh nomi transonimizatsiya asosida xrononimga, o‘z navbatida, xrononim geortonimga, ya‘ni bayram nomiga o‘tgan: *Aridibehisht* (Ashha deb ham ataluvchi iloh nomi – teonim), *Aridibehisht kuni* (xrononim), *Aridibehisht bayrami* (diniy bayram nomi – geortonim) kabi.

Keltirilgan dalillardan ko‘rinadiki, o‘tmishda ham bayramlar ko‘p bo‘lib, ular, asosan, tabiat va undagi, xususan, fasliy o‘zgarishlar, ob-havo bilan bog‘liq tarzda nishonlangan.

Abu Rayhon Beruniyning guvohlik berishicha, qadimgi xorazmliklarning mukammal yil hisobi bo‘lgan, ular quyosh va oy harakatini, yulduz burjlarining holatini arablardan ko‘ra yaxshiroq bilishgan. Shu bois, ajdodlarimiz kalendar – taqvim yaratish uchun samoviy jismlar harakatini asos qilib olganlar. Juda qadim

zamonlarda yaratilgan xalq taqvimi bobolarimizning tabiat hodisalarini uzoq vaqt davomida muttasil kuzatib borishi, katta hayotiy tajribalari va turmush ko'nikmalari mahsulidir [6.: 16.]. Bundan tashqari, boshqa xalqlardagi hayitlar, marosimlar haqida Beruniy ko'p to'xtaydi. Masalan, "*Pop hayiti*", "*Navro'z hayiti*" va boshqalar [1.: 29.].

Zardushtiylik tomonidan o'tkazilgan yil fasllari bilan bog'liq bayramlar, Navro'z va Mehrjon bayramlari, turli duolarni aytish va poklanish marosimlari, o'smirlarni zardushtiylikka qabul qilish (ya'ni "sidrapo'shlik" – oq libos kiyib, belbog' bog'lash) va boshqa qator tantanalar zardushtiylikda muhim rol o'ynagan [3.: 6.].

Zardushtiylikka aloqador bayramlar, marosimlarni o'tkazilish xususiyatiga ko'ra ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. Oilada o'tkaziladigan bayramlar, urf-odatlar, marosimlar.
2. Ommaviy katta maydonlarda o'tkaziladigan bayramlar, urf-odatlar, marosimlar.

Zardushtning izdoshlariga qoldirgan zaruriy majburiyatlardan biri – har yili Axuramazda bilan uning yetti yaratuvchisiga bag'ishlab bayram qilish edi. Ularning oltitasi "gahanaborlar" nomi bilan mashhur bo'lib, ularning an'analari, yaratilish tarixi va ta'kidlanishi Zardusht nomi bilan bog'liq. Ushbu bayramlar o'zining kelib chiqishiga ko'ra chorvador va dehqonlar bayrami bo'lib, keyinchalik Zardusht tomonidan zardushtiylikka kiritilgan [3.: 10].

Asarning "Ibtido" qismida: "Kun, gohlar, oy, gahanbor va yilga olqish, hamd-sano, xushnudlik maqtovlar bo'lsin!" – deyiladi [2.: 34.].

*Gahinbar* // *gahanbor* so'zi asarda, asosan, *gahanbor*, pahlaviy tilida *gostonbor* variantida uchraydi. So'zga manbalarda "*olti xilqat (yaratilish) bayramlarining nomi*" deb izoh beriladi. Mazdaparastlar e'tiqodiga ko'ra, Ahura maxluqlarini yoki o'z mavjudotlarini bir yil davomida olti galda yaratgan emish. Bu yaratilishning har biri o'zining alohida nomiga ega bo'lib, ular quyidagilar:

1. Birinchi gahanbor: "*Maydyuzarim*" – osmonning yaralishi.
2. Ikkinchi gahanbor: "*Miydyusham*" – suvning yaralishi.

3. Uchinchi gahanbor: "*Pati Shhim*" – zaminning yaralishi.
4. To'rtinchi gahanbor: "*Ayosrim*" – giyohlarning yaralishi.
5. Beshinchi gahanbor: "*Miydyorim*" – jonivorlarning yaralishi.
6. Oltinchi gahanbor: "*Hamaspamdam*" – insonlarning yaralishi.

Asarning "Ibtido" qismida Zardush gahnaborlar, ya'ni bayramlar haqida quyidagicha xabar beradi va olqishlaydi:

*Mujda beraman va olqishlayman.*

*Madh etaman ashavan **Maydyuzarim** va rad ashavanni.*

*Madh etaman ashavan **Maydyushamni** va rad ashavanni.*

*Mujda beraman va olqishlayman.*

*Madh etaman ashavan **Patya Shhimni** va rad ashavanni.*

*Mujda beraman va olqishlayman.*

*Madh etaman ashavan **Ayasrim**, rad ashavan, ashavan **Maydyarim**, rad ashavan va ashavan **Hamaspamdam**, rad ashavann [2.: 36].*

Avestoshunos olimi Meri Boysning yozishicha, zardushtiylarning quyidagi yettita bayrami mavjud bo'lgan:

1. *Maydyuyi zarimaya* – Bahorning o'rtasi (yilning 41–45-kunlari). Olti qismdan iborat gahanborning ibtidosi. Yil boshidan ushbu gahanborga qadar o'rtada qirq kun bor. Demishlarki, bu gahanborda Ahura Mazda osmonni yaratdi.

2. *Mayzyuyi shema* – Yozning o'rtasi (yilning 101-105-kunlari). Bu davrda Ahura Mazda suvni yaratdi.

3. *Paytyash hahya* – G'alla o'rini bayrami (yilning 176 – 180-kunlari). Bu iboraning ma'nosi "*urug' keltiruvchi*" yoxud "*g'allani yig'ib olish*".

4. *Ayasrim*. "Avesto"da Ayasrima – chorvani otarlarga qaytish bayrami (yilning 206–210-kunlari). "Ayasrim"ning ma'nosi "uyga qaytmoq". Bu bayram cho'pon-cho'liqlarning uyga qaytishi munosabati bilan o'tkazilgan.

5. *Maydyarim*. "Avesto"da Mayzyayrah – Yil o'rtasi (yilning 285 – 290-kunlari).

6. *Hamaspamdam*. "Avesto"da Hamaspasmasidayah – Fravshi – ruhlar sharafiga ziyofat berish (yilning 360 – 365-kunlari) [2.: 315-316].

Bu bayramlar diniy marosim shaklida nishonlanib, ular odatda Axuramazda sharafiga bag‘ishlangan toat-ibodatlar bilan boshlangan. Ibodatdan so‘ng esa xursandchilik, o‘yin-kulgi asosiy o‘rin tutadigan ziyofat dasturxoni yozilgan. Bayram o‘tkaziladigan kun iltifotlilik davri bo‘lgan: urush-janjallar to‘xtagan, nizolarga barham berilib, do‘stlik munosabatlari mustahkamlangan.

Navro‘z, Mehrjon bayramlarida ona zamin, dehqonchilik, chorvachilik va vatanga bo‘lgan muhabbat ruhi, ayniqsa, ulkan qudrat bilan yaqqol ko‘rinadi. Navro‘zning kelib chiqishi haqida ko‘plab rivoyatlar va afsonalar mavjud. Jumladan, zardushtiylik davridagi ba’zi bir tushunchalarga qaraganda, ezgulik ilohi Axuramazda bahor-yozda, yomonlik ilohi Ahriman kuzda va qishda hukmdorlik qilar emish. Bahorning birinchi kunini yaxshilik xudosi yomonlik xudosi ustidan g‘alaba qozongan muqaddas sana sifatida bayram qilishgan” [3.: 12.].

“Avesto” asarida keltirilgan geortonimlar tahlili yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Zardushtiylikdagi gahanborlar, bayramlar tabiat, xususan, yil fasllari va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayot tarzi: chorvachilik, dehqonchilik bilan bog‘liq tarzda nomlangan.

Zardushtiylik davri geortonimlariga xudo, ilohlarning nomlari – teonimlar lug‘aviy asos bo‘lgan. Ilohlarning nomlari – teonimlar transonimizatsiya asosida geortonimlarga o‘tgan.

Zardushtiylik bayramlari diniy motivlar, ya’ni muayyan iloh bilan bog‘liq tarzda nishonlanishiga ko‘ra nomlangan.

Zardushtiylik bayramlari o‘zbek xalqining tabiat, fasliy bayramlarining madaniy, ma’naviy takomili uchun asos bo‘lgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. – Тошкент: Фан, 1968.
2. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. – Тошкент: Шарқ, 2001.

3. Аширов А. “Авесто”дан мерос маросимлар. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2001.
4. Беруний, Абу Райхон. Танланган асарлар. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар (Осор ал-боқия). – Тошкент: O‘zbekiston, 2020. – I ж.
5. Дўсимов З.Д., Тиллаева М.Б. Хоразм ономастикасининг шаклланиши ва “Авесто”. – Тошкент: Фан, 2010.
6. Жўраев М. Наврўз байрами.–Тошкент: Фан, 2009.
7. Қорабоев У. Ўзбекистон байрамлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991.

## **XI-XII ASRLAR TURKIY YODGORLIKLARNING FUNKSIONAL MORFOLOGIYASI PROFESSOR H.NE’MATOV TALQINIDA<sup>41</sup>**

**Mirzayev Ibodulla Kamolovich,**  
*professor, Samarqand davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Maqolada marhum faylasuf-tilshunos, professor Hamid G‘ulomovich Ne‘matovning “XI-XII asrlar turkiy yodgorliklarining funksional morfologiyasi” nomli fundamental monografiyasi mazmun-mundarijasi qisqacha bayon qilingan.

**Аннотация.** В статье кратко излагается содержание фундаментального труда выдающегося философа-тюрколога, профессора Х.Г.Нигматова Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв.

**Abstract.** The article briefly outlines the content of the fundamental work of the outstanding philosopher and Turkologist, Professor H.G.Nigmatov, Functional Morphology of Turkic-Language Monuments of the 11th-12th Centuries.

**Kalit so‘zlar:** *funksional morfologiya, turkiy yodgorliklar, shakliy-tavsifiy tahlil, mazmuniy-vazifaviy tahlil, mikrotizim, til tizimi.*

**Ключевые слова:** *функциональная морфология, тюркские письменные памятники, формально-описательный анализ, семантико-функциональный анализ, микросистема, языковая система.*

---

<sup>41</sup> Keyingi yillarda turkiy tillarning ayniqsa, tarixiy grammatikasi tadqiqiga e‘tibor keskin pasaygani kuzatilmoqda. Holbuki, mazkur sohada ham ming yillardan buyon o‘z yechimini topolmay kelayotgan muammolar haddan tashqari ko‘p. Ushbu maqola tadqiqotchilarga tarixiy va zamonaviy grammatika tadqiqiga da‘vat o‘laroq yozildi.

**Keywords:** *functional morphology, Turkic written monuments, formal-descriptive analysis, semantic-functional analysis, microsystem, language system.*

Biz ushbu maqola doirasida munosabat bildirmoqchi bo‘lganimiz monografiya kirish, besh bob, xulosa va adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

“Kirish”da grammatik hodisalarning mazmuniy-vazifaviy tahliliga qiziqish morfologiyaning turkiy tillarda ham faqat tashqi tomondan o‘rganib kelinganligi bilan bog‘liqligi, grammatik shakllarni mikrotizim elementlarining ichki o‘zaro munosabatlarini dialektik mantiq metodlaridan foydalangandagina chuqur va izchil o‘rganish mumkinligi, shundan kelib chiqib, til tizimi va birliklarining o‘zaro munosabatlarini falsafaning umumiylik, xususiylik, yakkalik kategoriyasi asosida o‘rganish maqsad qilib qo‘yilganligi ta’kidlangan.

“Kirish”da, shuningdek, variantlilik va invariantlik, tizimlilik va o‘zgaruvchanlik, til tizimining ochiqligi va uzluksizligi haqida ham so‘z boradi, yozma yodgorliklarni o‘rganishning tamoyillari ishlab o‘tiladi:

1) til tizimi pog‘onali joylashgan mikrotizimlar (tagtizimlar)ning o‘zaro munosabati sifatida o‘rganiladi;

2) tizim (mikrotizim) va uning unsuri umumiylik va xususiylik, butun va qismlarning dialektik munosabatlari bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi;

3) tizim unsuri (til birligi) substantsiya (materiya, butun borliqning birlamchi asosi, tub mohiyat – *I.M.*), ya’ni borliqning real birligi sifatida tahlil qilinadi;

4) til mikrotizimi har bir unurning boshqa unsurlar bilan munosabatlari turli-tuman, serqirra va dialektik qarama-qarshi hodisalar sifatida ko‘rsatib beriladi;

5) grammatik shakl (kategoriya) ning mohiyati turg‘un xarakterda bo‘lgan qarama-qarshi ikkiyoqlamalikka borib taqaladi;

6) grammatik shakllar mohiyati mazkur shakl, kam deganda, oppozitsiyalar (mikrotizimlarning) ikki qatori asosida ochib berilishi mumkin;

7) tilning har bir mikrotizimi ichki taraqqiyot manbai bo‘lgan qarama-qarshiliklar majmui sifatida o‘rganiladi;

8) qarama-qarshi qo'yilgan ikki til birligi orasida ularni bog'lab turuvchi umumiy halqa bo'ladi. Shu halqa mazkur zidlanishda uchinchi unsur<sup>42</sup> sifatida qo'llanadi va qarama-qarshiliklarning yaxlitligini ta'minlaydi;

9) til mikrotizimi unsuri tashqi (formal) va ichki (funktional) tomonlarning dialektik birligi sifatida namoyon bo'ladi;

10) til tizimi (mikrotizim) doimo ochiq bo'ladi va botinan o'zaro ta'sir, o'zgarish va rivojlanishni taqozo etadi"[11:9-b.].

Anjuman maqolasi doirasida prof. H.G'.Ne'matovning, afsuski, aksariyat (balki) barcha tadqiqotchilarga noma'lum bo'lib qolayotgan mazkur fundamental asarining mazmuni bilan qisqacha bayon qilish imkonsizligi tufayli, asosan, uning mundarijasini keltirish bilan chegaralanamiz.

*Birinchi* bobda so'z turkumlari (ot, sifat, ravish, fe'l, undov, taqlid so'zlar, yordamchi so'zlar, ko'makchi (so'ng ko'makchi), bog'lovchi, yuklama) tasnif qilingan va ularning o'zaro munosabati dialektik mantiq tamoyillari asosida ochib berilgan va bu o'ychil tadqiqotchini befarq qoldirmaydi.

*Ikkinchi* bob ism so'z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh) tizimida so'z o'zgarish (turlash, tushlash) masalasi tahliliga bag'ishlangan. Unda son kategoriyasi, XI-XII asrlar bitiklari tilida kelishik kategoriyasi tahlilga tortilgan.

"Fe'l tizimida so'z o'zgarishi" deb nomlangan *uchinchi* bobda XI-XII asrlar yodgorliklari tilida nisbat kategoriyasi, fe'lning predikativ, nopredikativ shakllari o'rganilgan [11:9-b.].

*To'rtinchi* bobda yodgorliklar tili grammatik kategoriyalarining tasnifi ishlab chiqilgan.

O'rganilayotgan davr yozma yodgorliklarida affiksial so'z yasalishi (otlarning yasalishi, fe'ldan ot yasalishi va fe'l tizimida so'z yasalishi) masalalari beshinchi bobda tahlil qilingan.

Qariyb olti sahifadan iborat "Xulosa"da olingan natijalar dialektik bilish nazariyasi va dialektik mantiq tamoyillari asosida izchil yoritilgan.

---

<sup>42</sup> H.G'.Ne'matov bu umumiy halqani "kiritilgan uchinchi" termini bilan nomlaydi.

Umuman, prof. Hamid Ne'matovning mazkur monografiyasi nafaqat turkiy (xususan, o'zbek), balki jahon tilshunosligining ham bebaho namunasidir. Binobarin, uni o'qish tadqiqotchini o'tmish bitiklarning xos morfologik xususiyatlari bilan tanishtirish barobarida, uning asl ilmga bo'lgan tasavvurini boyitadi.

Ma'lumki, kechmish davrlar bitiklari ko'plab olimlar, chunonchi, F.A.Abdullayev, G'.Abdurahmonov, A.G'ulomov, M.Z.Zakiyev, S.N.Ivanov, B.Karimov, A.N.Kononov, H.G'.Ne'matov va boshqalarning tadqiqotlarida o'rganilgan. Mazkur tadqiqotlarning mavzulari bir-biriga yaqin. Shu tadqiqotlarni umumlashtirish, bir tomondan, O'zbekistonda lingvistik ta'limotlar tarixi bo'yicha fundamental asarning yuzaga kelishida muhim nazariy asos bo'lsa, ikkinchidan, muborak nomlari yuqorida zikr etilgan ustozlarning ilmiy salohiyati, har birining sohaga qo'shgan hissasi aniqlangan, faktlarning quruq (empirik) qayd etilishi emas, balki ularning ichki o'zaro munosabatlarini dialektik mantiq tamoyillariga ko'ra o'rganish tilshunoslikning asosi ekanligini yana bir bor ko'rsatgan bo'lardi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Абдурахманов Г.А. Исследование по старотюркскому синтаксису (XI век). М. 1967.
2. Абдурахманов Г.А., Шукуров Ш.Ш. Грамматический очерк старотюркского языка XI века//Девону луғотит турк. Индекс-луғат. - Ташкент, 1967.
3. Азнабаев А., Псянчин В. К проблеме исторического развития аффикса множественного числа *lar* в тюркских языках//СТ. 1971. № 5.
4. Закиев М.З. Классификация частей речи и аффиксов в тюркских языках//СТ. 1973. № 6.
5. Зияева М.Т. Исследование памятника XIV в. «Китаб аттух-фа-туз-закия...». Автореф. канд. дис. ...филол. наук. Ташкент. 1972.
6. Иванов С.Н. О соотношении грамматического и лексического в узбекских залогах//Ученые записки Ленинградского ГУ, № 294. Серия востоковедческих наук. Вып. 12. Л. 1961.

7. Иванов С.Н. Родословное древо тюрок Абу-л-Гази-Хана. Грамматический очерк (Имя и глагол. Грамматические категории). Ташкент. 1969.
8. Иванов С.Н. К истолкованию многозначности грамматических форм //ВЯ. 1973. № 6.
9. Иванов С.Н. Курс турецкой грамматики. Ч. 1. Л. 1975.
10. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. М.: Л. 1951.
11. Ne'matov H. XI asr turkiy tillarining M.Qoshg'ariy tomonidan qilingan tasnifi//UTA. 1969. № 4.
12. Нигматов Х.Г. Принципы описания морфологии восточно-тюркского языка XI-XII вв.//СТ. 1973. № 6.
13. Санжеев Г.Д. Спорные вопросы в изучении грамматического строя узбекского языка//Вопросы узбекского языкознания. Ташкент. 1954.
14. Севортян Э.В. Несколько замечаний к тюркологическим исследованиям по грамматике//СТ. 1970. № 3.
15. Тенишев. Э.Р. Грамматический очерк древнеуйгурского сочинения "Золотой юлеск". Автореф. канд. дис. ...филол. наук. М., 1954.
16. Щербак А.М. Грамматика староузбекского языка. М.: Л. 1962.

## **XORAZM SHEVALARI LEKSIKASI TADQIQIDA "DEVONU LUG'OTIT TURK" ASARINING O'RNI**

**Norbayeva Shukurjon Hayitbayevna,**

*f.f.d. (DSc), professor v.b., Abu Rayhon Beruniy nomidagi*

*Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada "Devonu lug'otit turk" asarining Xorazm shevalari leksikasi tadqiqida tutgan o'rni masalasi tahlilga tortilgan bo'lib, unda mazkur shevaga xos so'zlarning ma'noviy xususiyatlari ochib berilgan.

**Аннотация:** В данной статье анализируется роль произведения «Девону лугатит турк» в изучении лексики хорезмских диалектов, выявляются семантические особенности слов, характерные для данного диалекта.

**Abstract:** This article analyzes the role of the work "Devonu lug‘otit turk" in the study of the lexicon of Khorezm dialects, revealing the semantic features of words specific to this dialect.

**Kalit so‘zlar:** *sheva, turkiy qabilalar, o‘g‘uz, qipchoq, dialektal birliklar.*

**Ключевые слова:** *диалект, тюркские племена, огузы, кыпчаки, диалектные единицы.*

**Keywords:** *dialect, Turkic tribes, Oghuz, Kipchak, dialectal units.*

O‘zbek shevalari, xususan, Xorazm shevalarini o‘rganish qadimgi davrlarga borib taqaladi. Xorazm shevalari leksikasi tadqiqining ilk davri XX asrgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Ilk davr o‘zbek ilm-fanida shevashunoslik alohida fan sifatida shakllanmagan, lekin shevalar tadqiqi uchun muhim turli manbalar mavjud bo‘lganligi bilan xarakterlanadi.

Turkiyshunoslikda shevalarni qiyoslash va chog‘ishtirish masalalari Mahmud Koshg‘ariy, Mahmud Zamaxshariy, Alisher Navoiy kabi ajdodlarimiz ishlarida o‘z aksini topgan bo‘lib, bularda Xorazm shevalariga xos bo‘lgan muhim jihatlar ham ko‘zga tashlanadi.

Buyuk qomusiy olim Mahmud Koshg‘ariy o‘zining “Devonu lug‘otit turk” asarida jumladan quyidagilarni e’tirof etadi: “Men turklar, turkmanlar, o‘g‘uzlar, chigillar, yag‘molar, qirg‘izlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko‘p yillar kezib chiqdim, lug‘atlarini to‘pladim, turli xil so‘z xususiyatlarini o‘rganib, aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganligim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqlarni aniqlash uchun qildim. Ularga shuncha diqqat qildimki, turklar, turkmanlar, o‘g‘uzlar, chigillar, yag‘molar va qirg‘iz qabilalarining tillari butunlay dilimga jo bo‘ldi. Ularni har tomonlama puxta bir asosda tartibga soldim” [6.: 44.].

Shu tariqa olim turkiy qabilalar tillaridagi so‘zlarni to‘plab, ularga izoh beradi. Ayrim o‘rinlarda qabilalararo farqlanishlarni ham ko‘rsatib o‘tadi. Xususan, *ijäk* (sigir) so‘zi izohida o‘g‘uzlar toshbaqa urg‘ochisini ham shu nom bilan atashlarini qayd etadi [3.: 98.]. Yoki yag‘mo, tuxsi, ba’zi o‘g‘uz va qipchoqlarda *ebmäk* nonni ifodalashini yozadi [3.: 36.]. Shuningdek, Koshg‘ariy

24 ta o'g'uz qabilalari nomlarini keltiradi [9]. Bu bevosita Xorazm o'g'uz lahjasi tadqiqida ham muhim o'rin tutadi. "Devon"da "Turk"lar va "O'g'uzlar" tili tizimli ravishda qiyoslanib boriladi. Olim boshqa turkiy qavmlarning tillariga xos xususiyatlarni "Devon"ning ayrim o'rinlarida keltiradi. "Bunda Mahmud Koshg'ariy ko'p holatlarda qavmlar tilini bajanak, suvoriylar, uyg'urlarda yoki yashash joylariga ko'ra, masalan: tibetlarda deb ko'rsatadi" [2.: 82.].

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida Xorazm shevalariga xos bo'lgan ko'plab so'zlarni uchratish mumkin. Jumladan, asarda *ičmāk* – qo'zi terisidan qilingan po'stin [5.: 54.]. so'zi qo'llanilgan bo'lib, Xorazm o'g'uz sheva vakillari nutqida ham aynan shu so'z iste'molda ekanligini kuzatishimiz mumkin. Xorazm shevalarida uning boshqa ma'nolari ham mavjud bo'lib, *ičmāk* – ichdan kiyiladigan issiq kiyim [13.: 118.]. ma'nosida ham ishlatiladi.

Xorazm shevalarida mavjud *baq'ir* so'zi pul birligi ma'nosida qo'llanadi va "Devon" tilida ham kuzatiladi.

Mahmud Koshg'ariy yozishicha, *baq'ir I* – mis (I, 341; ar. 301, 7), *baq'ir II* – Chin o'lkasidagi chaqa (pul) (I, 342). Bu so'z "*bar baqir yoq altun*" (I, 341), "bor (narsa) – baqir (qadrsiz), yo'q (narsa) – oltin (kabi qadrli)" maqolida ham ishlatilgan. Demak, Xorazm shevalarida uning ikkinchi ma'nosi iste'molda bo'lgan.

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida qayd etilgan *aran* [6:106-b] so'zi Saribiy qishlog'i aholisi tilida ham mavjud.

"Devon"da Xorazm shevalari bilan umumiylik kasb etgan ba'zi turkiy so'zlar qarindoshlik leksikasiga oiddir.

*Baldiz* – erning qiz ukasi: *änäbyñ baldiz tashkänä oq'isha getämish* (Urg, 2) [1:25-b]. Hudud leksikasiga oid boshqa lug'atlarda esa *baldiz*: 1) qaynisingil (xotinning qiz ukasi); 2) xotinga qarindosh bo'lgan qiz [4.: 80.] ma'nosida izohlangan. Boshqa o'zbek shevalarida (Toshkent, Jizzax) ham "baldiz – qaynsingil, ya'ni xotinning singlisi" ma'nosida uchraydi [12.: 199.]. *Baldiz* so'zi "Devon"da ham keltirilgan bo'lib, "xotinning singlisi. Erning singlisiga baldiz deyilmaydi, singil deyiladi" tarzida qo'llanilgan [6.: 426.]. Boshqa turkiy tillarda

bu soʻz shunday mazmunda keng tarqalgan boʻlsa-da, qozoq tilining ayrim shevalarida “baldiz – qaynuka, qaynini” shaklida ham ishlatiladi.

Ushbu soʻz hozirgi Xorazm shevalarida farqlanmaydi, yaʼni umuman qaynsingil maʼnosida ishlatiladi.

“Devon”da Xorazm shevalari bilan umumiylik kasb etgan turkiy asosli dialektal birliklar yasama soʻzlar tarkibida ham mavjud.

*Masalan, bergi - qarz:* maʼna bergisi bardağın, algʻisi yoq (Gurl.) Bu soʻzning Shimoliy Xorazm shevalarida “bergü – qarz” tarzida ishlatilishi manbalarda qayd etilgan [13.: 50.]. Ushbu soʻz Qarshi shevasida ham mavjud boʻlib, “bergülik – oʻzga kishiga beriladigan narsa, haq” maʼnosida ishlatiladi [10.: 36.]. “Devon”da ham “bergü / bārgü – qarz” [6.: 403.] tarzida qoʻllanilgan boʻlib, uning turkiy asosli birlik ekanligidan dalolat beradi. *Bergi* soʻzi *ber* turkiy feʼliga *-gi* affiksini qoʻshish orqali hosil qilingan.

“Devon”da keltirilgan *kizizlik junj* birikmasi orqali yung xomashyo sifatida kiyim-kechak uchun qadimdan qoʻllanib kelayotgani maʼlum boʻladi. Chunki *kigiz* qadimda *ki(d)iz* shaklida ishlatilgan [8.: 394.]. “Devon”da bu soʻz *kiziz* – *kigiz*, *namat*, *kiwiz* – uyga solinadigan keng va enli palos [6.: 347.]. (“Qutadgʻu bilig”da bu maʼnoda *yadim* soʻzi ishlatilgan [11.: 301.]) maʼnolarida qayd etilgan. Xorazm shevalarida ham *kigiz* soʻzi yerga, uyga solinadigan palos maʼnosida qoʻllanadi.

“Devon”da “biçğuç – qaychi maʼnosini ifodalashi qayd qilingan. Bu bilan har narsa kesiladi”; “biçğu - narsalarni kesuvchi asbob” [6.: 421.; 9.: 67.]. Bu soʻz oʻzbek tili, xususan, Xorazm shevalarida “biçqi – qoʻl arra”, “riçqi – kichik arra” koʻrinishlarida uchraydi [13.: 53, 221.]. Ushbu soʻzlar bilan bogʻliq oʻlaroq oʻzbek shevalarida “biçkiç - bichuvchi, kiyim bichish bilan shugʻullanuvchi”, “biçimçi” atamaları kelib chiqqan [10.: 45.].

Oradan deyarli ming yil oʻtgan boʻlishiga qaramay, Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻati-t-turk” asarida uchrab, kundalik turmushda koʻp qoʻllaniladigan koʻplab soʻzlarning oʻzbek tilida, shu jumladan, Xorazm shevalarida deyarli qanday boʻlsa, shunday koʻrinishda saqlanib qolgani tahsinga loyiq. Toʻgʻri, ayrim soʻzlar bugun kundalik turmushda qoʻllanilmasligi yoki ularning oʻrnida yot

soʻzlarning ishlatilayotgani hollari koʻp. Shunga qaramay, “Devon”da keltirilgan bir necha minglab soʻzlar bugungacha yetib kelgani turkiy tillarning, ayniqsa, oʻzbek tilining qanchalik kuchga, teran ildizga ega til ekanini koʻrsatadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари.– Тошкент: Фан, 1961.
2. Бердиев Х. “Девону луғотит турк”даги ўтовсозлик атамалари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2015. – №6.
3. Девону луғотит турк. Индекс-луғат. – Тошкент, 1967.
4. Ишаев А. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1977.
5. Кошғарий Маҳмуд. Девону луғати-т-турк (Туркий сўзлар девони). Нашрга тайёрловчи Қ. Содиқов. –Тошкент: Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017.
6. Кошғарий Маҳмуд. Девону луғот ит-турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. Муталлибов. Т.І. – Тошкент: Фан, 1960.
7. Кошғарий Маҳмуд. Девону луғот ит-турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. Муталлибов. Т.ІІІ. – Тошкент: Фан, 1963.
8. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. – М.–Л., 1951.
9. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғоти-т-турк. 1- жилд. Нашрга тайёрловчилар: А.Рустамов, Ҳ. Болтабоев, Б.Исабеков. – Тошкент: Mumtoz soʻz, 2016.
10. Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ сўзлари луғати. – Тошкент: Мухаррир, 2011.
11. Содиқов Қ. “Қутадғу билик”нинг тил хусусиятлари// Ўлмас обидалар. – Тошкент: Фан, 1989.
12. Тўйчибоев Б., Қашқирли Қ. Зоминнинг тил қомуси. – Тошент: Akademnashr, 2012.
13. Ўзбек халқ шевалари. – Тошкент, 1971.

# XALQ DOSTONLARIDA KOLORONIMLAR BILAN BOG‘LIQ NOMLARNING QO‘LLANISHI

**Ro‘zimboyev Sarvar Saparbayevich,**

*f.f.n., dotsent, Abu Rayhon Beruniy nomidagi*

*Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Maqolada xalq dostonlarida uchraydigan onomastik birliklarning lingvokulturologik jihatlari tahlil qilinadi. Xususan, koloronimlarining antroponimlar, toponimlar va etnonimlardagi semantik hamda pragmatik xususiyatlari o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari ushbu birliklarning xalqning madaniyati, tarixi va ma’naviy hayotini aks ettirishini ko‘rsatadi.

**Аннотация.** В статье анализируются лингвокультурологические аспекты ономатических единиц, встречающихся в народных дастанах. В частности, изучаются семантические и прагматические особенности колоронимов в антропонимах, топонимах и этнонимах. Результаты исследования показывают, что эти единицы отражают культуру, историю и духовную жизнь народа.

**Annotation.** This article analyzes the linguocultural aspects of onomastic units found in folk epics. Specifically, it examines the semantic and pragmatic characteristics of coloronyms within anthroponyms, toponyms, and ethnonyms. The research findings demonstrate that these units reflect the culture, history, and spiritual life of the people.

**Kalit so‘zlar:** *xalq dostonlari, lingvokulturologiya, koloronimlar, onomastika, antroponimlar, toponimlar, etnonimlar.*

**Ключевые слова:** *народные дастаны, лингвокультурология, колоронимы, ономастика, антропонимы, топонимы, этнонимы.*

**Keywords:** *folk epics, linguoculturology, coloronyms, onomastics, anthroponyms, toponyms, ethnonyms.*

Xalq dostonlarida matnlarida qo‘llanilgan nomlar xalqimiz tarixi, madaniyati va ma’naviy hayotining o‘ziga xos ko‘zgusi, alohida estetik qimmat kasb etuvchi, shuningdek, cheksiz ifoda imkoniyatlarini saqlab keluvchi noyob xazina ekanligini

ko‘plagan tilshunos olimlarmiz qayd qilishmoqda. O‘zbek tilshunosligida bugungi kungacha onomastika sohasi ancha taraqqiyot jarayonlarini boshidan kechirgan bo‘lishiga qaramay, dostonlar onomastikasi materiallarini lingvomadaniy jihatlarini o‘rganish yo‘nalishida ishlar to‘liq amalga oshirilmagan. Nomlar, birinchi navbatda, aniqlovchi rolga ega bo‘lgan lingvistik elementlardir. Ya’ni, biror obyektga nom berish uning o‘ziga o‘xshash boshqa shunday obyektlardan farqlab, ajratib ko‘rsatish vazifasiga asoslanadi. Bunday funktsiya nom va u bilan ko‘rsatilgan obyekt haqidagi lingvistik va kontseptual bilimlarga asoslanadi.

Biroq, ayrim tipdagi nomlarning semantik tuzilishi va vazifasi ularning aniqlovchi, ajratib turuvchilik rovidan tashqari, boshqa muhim elementlarga ham ega ekanligini ko‘rsatadi. Xususan, ushbu ish doirasida nomlarning madaniy belgilari va shu bilan bog‘liq boshqa o‘ziga xoslik funksiyalari batafsilroq ko‘rib chiqiladi. Madaniy ma’no, madaniy funktsiya individlarning sotsializatsiya (sotsial-lingvistik) jarayonida madaniyatning bir qismi sifatida nomlar bilan tanishishidan kelib chiqadi. Buning natijasida nomlar haqidagi eng fundamental madaniy, pragmatik, semantik va morfologik bilimlarni o‘z ichiga olgan nom kompetensiyasi paydo bo‘ladi. Shunday qilib, atoqli otlar zamirida dunyo, jamiyat, boshqa odamlar va o‘zimiz haqimizda boy va xilma-xil bilimlar to‘planadi. Xalqimiz madaniyati haqida, uning madaniy unsurlarini aks ettiruvchi nomlar haqida gap ketganida, eng avval ko‘zga ko‘rinadigan onomastik tizim bu – antroponimik tizim hisoblanadi. Chunki, har qanday doston tilida, jumladan, Xorazm dostonlari tilida uchraydigan nomlar statistikasiga ko‘ra ham eng katta qismni kishi ismlari – antroponimlar tashkil etadi.

Lingvokulturologik xarakterdagi nomlar orasida bir toifa nomlar mavjudki, ular rang-tus bildiruvchi so‘zlar bilan aloqador. Odatda, barcha rang toifalari va ularning tuslarini ifodalash uchun biz asosiy atama sifatida **koloronim** terminini qo‘llaymiz. Lingvistikada **koloronim** – ranglarni ifodalovchi alohida leksik birlik bo‘lib, lotincha *color* – “rang” va yunoncha *onym* – “ism” so‘zlaridan kelib chiqqan.

Shu fakti e'tiborga olish lozimki, ranglar bilan bog'liq holda ifodalanuvchi nomlar toponimlar tizimida o'ziga xos semantikasiga ega. Buni toponimika tizimining yirik tadqiqotchilari ham qayd etib o'tishgan[5]. Jumladan, K.Shoniyozov *qora, qizil, ko'k, oq* kabi so'zlarning etnik nomlar tarkibida uchrashi tasodifiy holat emasligini qayd qiladi. Uning fikricha, qadimgi davrlarda Oltoy va Janubiy Sibirda yashagan turkiy qabilalar *Shimol, Janub, G'arb* va *Sharqni* ranglar nomi bilan ifodalagan. Qora rang shimolni, qizil rang janubni, ko'k rang sharqni, oq rang g'arbni, sariq rang esa markazni ifodalagan. Ma'lum bir qabila ittifoqida bo'lgan kishilarning tomonlarga qarab joylashishi odat tusiga kirib, vaqt o'tishi bilan tomon nomlari (rang nomlari) etnonim bo'lib qolgan[9.: 145.]. Rang bildiruvchi so'zlarning urug'-qabila nomlari tarkibida kelishi, ular o'tmishda qutb tomonlarini aniqlash uchun qo'llanganligi boshqa tadqiqotchilarning ishlarida ham uchraydi [6.: 38.].

N.A.Baskakov qirg'iz etnonimining etimologiyasini tadqiq qilar ekan, uni "qizil o'g'uzlar", ya'ni "janub o'g'uzlari" deb talqin qiladi[2.: 92-93.]. Bir faktga e'tibor qaratish kerak. Rang bildiruvchi so'zlar onomastik guruhlarining har birida o'ziga xos ma'no anglatadi. Masalan, *qora* so'zi antroponimlar tarkibida "kuchli, qudratli" ma'nosida, etnonimlar va toponimlar tarkibida "tomon" ma'nosida qo'llanishi olib borilgan tadqiqotlar orqali ma'lum bo'lgan hodisadir. Gidronimlar tarkibida ifodalangan qora elementi *katta, serob* ma'nosini (Qorasuv – kattasuv) anglatib keladi.

Umuman, koloronimlar atoqli otlar tarkibida turli ma'nolarni anglatgan. N.A.Aristovning qayd qilishicha, etnonimni ifodalovchi sariq rang Sharqda podsholar sulolasiga mansub, oqsuyak, yuqori tabaqa kishilariga nisbatan isshlatilgan [1].

Tizimida oq va qora elementli nomlar o'zining qo'llanish tamoyillari va nozikliklari bilan ajralib turadi. Dostonlari onomastik tizimida rang ma'nosini ifodalovchi so'zlar, xususan, *oq* va *qora* leksemalari qatnashgan antroponimlar ancha miqdorni tashkil qiladi. Ular onomastik birliklarning deyarli barcha turlariga (antroponim, toponim, etnonim, zoonim va boshqalarga) xosdir.

Masalan: *Oqcha, Oqdev, Oqrobot, Oqsuluv, Yortiboy oqsoqol, Qoradev, Qorajon, Qorabobo, Qoromon, Qoradali(kuy nomi), Qoraalam, Qoramalik, Qorabudoq, Qorako'z, Qoratulpor, Qoramang'it, Qorako'l, Vaysulqora, Ganji Qorabog'* va h.

Haqiqatan ham, *oq* va *qora* komponentlari onomastik tizimda ancha faoldir. Ularni xalq og'zaki ijodi va qadimgi yozma manbalarda ham kuzatish mumkin. Qiyos qiling: *Qoraxon* – Qoraxoniylar (O'rta Osiyoda 927-1212 yillar hukmronlik qilgan) sulola asoschisi; *Qora Arslon* – Kichik Osiyoda hukmronlik qilgan saljuqiy hukmdorlardan biri; *Qora Yusuf* – G'arbiy Eron yerlarini boshqargan (XIV asrda) turkiy xon, Tojikistondagi *Qorategin*; "Tohir va Zuhra" dostonidagi sarkarda – *Qorobotir* va boshqalarni keltirish mumkin.

Umuman, badiiylik nuqtayi nazaridan *qora* salbiylik bo'yog'iga ega deb qaraladi, ammo ushbu nomlarga e'tibor qaratilsa, "qora" so'zining faqat salbiylik ma'nosini ifodalashi to'g'ri emasligi ayon bo'ladi. Chunki, hukmdorlar (Qoraxoniylar), sarkardalar (*Qorobotir, Qoramalik*), avliyo kishilar (*Vaysulqora, Qora alam buva*) va boshqa mashhur shaxslar salbiy ma'noda o'z ismlarini saqlamagan bo'lar edi.

Turkiy xalqlarning fazodagi eng yorug' yulduz bo'lgan Yupiterni – Qoraqush deb atagani uning qora rangi uchun emasligi yanada ravshanroq namoyon bo'ladi. Qoraqush burgutning turkiy xalqlardagi nomidir. Mazkur nomning Yupiter sayyorasiga ko'chirilishi hech shubhasiz qora patlari bo'lganligi sababli emas, balki *kuchi, qudrati* va *mahobati* uchundir. Xalq og'zaki ijodida to'fonning *qora yel* deb nomlanishi ham bu fikrni tasdiqlaydi. Demak, *qora* so'zi rang bildirishidan tashqari, *kuchli, katta* ma'nolarini ham ifodalaydi. Shuning uchun *Qorobotir, Qoraxon* kabi ismlar kuchli, qudratli kabi ma'nolarni ifodalaydi. Qadimgi turkiy tillarda bu so'z rang ifodalash bilan bir qatorda boshqa ma'nolarni ham anglatganligi haqida ma'lumotlar berilgan[8.: 70.].

Quyida "qora" elementi ishtirok qilgan nomlarning Xorazm dostonlarida qo'llanilgan o'rinlariga diqqatni qaratamiz:

...*Madad bering, o'ttiz uch ming sahoba,*

*Madad bering, pirim, Qora alam buva...*

(“Oshiqnoma” turkumi, “Miskin va Gulqand” dostoni, 223-bet), yoki: ...*Qoraxonning lashkari birla andog‘ urushdilarkim, Rustam Mozandaronda, Afrosiyob Daryoi Nil va Zarafshonda andog‘ urush qilg‘on ermaslar...*

(“Go‘ro‘g‘li” turkumi, “Xirmondali” dostoni, 145-b.) va boshqalar.

“Oq” leksemasi yuzasidan ham shunday fikrlarni aytish mumkin. A.Gafurov *oq* so‘zi ismlar tarkibida “baxt, baxtli” kabi ma’nomlarni ifodalashini qayd qiladi[3]. Shunday nomlardan biri “*Oqcha*” nomidir. Bu nomning kelib chiqishini turkiy tillarga mansubligi darhol seziladi. Ilmiy adabiyotlarda turkiy so‘zlarning xususiyatlari haqida gapirilganda, qisqa bo‘g‘inli so‘zlarning turkiy bo‘lib chiqishi haqida aytilgan. Xususan, sifat turkumiga oid rang-tus bildiruvchi ko‘pgina so‘zlar, jumladan, *oq*, *sariq*, *ko‘k*, *qora* kabilar so‘zsiz turkiy qatlamga oid so‘zlardir. Shunday ekan, “*Oqcha*” nomini hech ikkilanmay turkiy tarkibli sodda nomlar qatoriga qo‘shishimiz mumkin. Mazkur nom tarkibida majud bo‘lgan yana bir element *-cha* affiksi bo‘lib, bu element nom tarkibiga singib ketgan deb hisoblash mumkin. Mazkur nom “*Aqcha*”, “*Aqchagul*” kabi variantlarda “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostonida qo‘llaniladi. Bu ism egasining asl ismi Gulnihol bo‘lib, “*Oqcha*” nomi uning laqabi hisoblanadi. Dostonlar matnidan o‘rin olgan quyidagi parchalarga diqqatni qarataylik: “...*Ammo Shohsanamning Gulnihol degan bir kanizi bor erdi, laqabini Aqcha der erdilar...* yoki: ... *Shohsanam Aqchaga qarab bir so‘z aytdi: Aqcha galin g‘amsiz boshim, G‘amxona bo‘ldi naylayin?*”

*Bir so‘z bilan oshno, yorim, Begona bo‘ldi naylayin?...*” kabi.

*Oqcha//Aqcha* laqabi uning *oq* yuzli ko‘rinishga ega bo‘lgaligi sababli qo‘yilgan bo‘lishi mumkin. Ma’lumki, “*oq*” leksemasi aslida sifat turkumiga taalluqli bo‘lib, u kichraytirish-erkalash affiksini olishi mumkin emas. Mabodo nom tarkibida bu element mavjud ekan, bu holatni bir necha lisoniy hodisalarning ma’lum ketma-ketlikda ro‘y berib o‘tganligi bilan izohlash mumkin. Birinchidan, sifatning atoqli otga o‘tishi uchun avval substantlashish jarayoni, keyin nomga aylanishi va undan keyin esa *-cha* elementini qabul qilganligini ko‘rish mumkin.

Ushbu element nomga yana bir ma'no nozikligini qo'shish uchun xizmat qilmoqda deb hisoblash, bizning nazarimizda, to'g'riroq bo'ladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, xalq dostonlarida qo'llanilgan onomastik birliklar xalqimizning tarixi, madaniyati va ma'naviy hayotini aks ettiruvchi muhim lingvokulturologik qatlamni tashkil etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, dostonlar onomastikasi, xususan, rang bildiruvchi koloronimlar, turli semantik va pragmatik xususiyatlarga ega bo'lib, ular o'zbek tilshunosligida lingvomadaniy yondashuv asosida yanada chuqurroq o'rganilishi zarur. O'zbek dostonlaridagi onomastik birliklarning lingvokulturologik tahlili til va madaniyat aloqalarini chuqurroq anglash, shuningdek, xalq ijodining semantik xususiyatlarini kengroq ochib berish imkonini yaratadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Аристов Н.А. Заметки об этническом составе тюркских племен и народностей и сведения об их численности, "Живая старина". СПб, 1896.
2. Баскаков Н.А. К вопросу о происхождения этнонима киргиз. "Советская этнография", 1964.
3. Гафуров А. "Лев и Кипарис: О восточных именах". «Наука». Москва, 1971.
4. Гўрўғли. Нашрга тайёрловчилар: Т.Мирзаев, З.Хусаинова. –Тошкент: Шарқ нашриёти, 2006.
5. Дўсимов З. "Шимолий Хоразм топонимлари" филол. фанл. номзод. дисс. Тошкент, 1970.
6. Отажонова А. Хоразм этнотопонимлари. Тошкент, "Фан", 1997.
7. Ошиқнома. 4-китоб. Нашрга тайёрловчилар: С.Р.Рўзимбоев, Х.С.Рўзимбоев, Н.Матёзова, Н.Раимова. –Урганч: "Хоразм", 2009.
8. Раҳмонов Н. Содиқов Қ. Ўзбек тили тарихи. Т. 2009.
9. Шанязов К. "Қанг давлати ва қангликлар", Тошкент, "Фан", 1990.

# TILSHUNOSLIK ILMIY MAKTABLARINI BELGILASH MEZONLARI

**Qodirova Xurshida Marselovna,**

*PhD, dotsent, Abu Rayhon Beruniy nomidagi*

*Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Maqolada ilmiy maktab tushunchasi, tilshunoslikda ilmiy maktablar shakllanishining omillari, mezonlari va ularning taraqqiyoti, takomili masalasi yoritilgan.

**Abstract.** This article discusses the concept of a scientific school, the criteria for the formation of scientific schools, and the attention paid to the activities of scientific schools and their development in our country.

**Абстрактный.** В статье рассматривается понятие научной школы, критерии формирования научных школ, а также внимание, уделяемое деятельности и развитию научных школ в нашей стране.

**Kalit soʻzlar:** *ilmiy maktab, ilmiy jamoa, ilmiy maktab mezonlari, ilmiy yoʻnalish, akademik harakatchanlik, ilmiy maktab asoschisi, tadqiqotchi.*

**Keywords:** *scientific school, scientific community, scientific school criteria, scientific direction, academic mobility, founder of scientific school, researcher.*

**Ключевые слова:** *научная школа, научное сообщество, критерии научной школы, научное направление, академическая мобильность, основатель научной школы, исследователь.*

Ilm-fan taraqqiyotida muayyan soha, yoʻnalish boʻyicha shakllangan ilmiy maktablar muhim oʻrin tutadi. Bunday maktablar ilmiy jarayonning davomiyligi, metodologik yondashuvlarning rivojlanishi va ilmiy kadrlar tayyorlash tizimining barqarorligi bilan belgilanadi. Shu boisdan Yangi Oʻzbekiston Respublikasining ilm-fanni rivojlantirish konsepsiyasida ham ilmiy maktablar faoliyatiga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning PF-6097-son Farmonida hududlarda ilmiy faoliyat bilan shugʻullanayotgan iqtidorli yoshlarni qoʻllab-quvvatlash, ilm-fanga keng jalb qilish, nufuzli ilmiy maktablarni

shakllantirish, ularning ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida 2021-yil 1-yanvardan boshlab “Akademik harakatchanlik” dasturi joriy qilinishi [1] belgilab qo‘yilgan.

Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi Prezident Farmonida ham ilmiy maktablarni shakllantirish va yanada rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi PF-6155-son Farmoni ijrosini ta‘minlash, hududlarda ilmiy va innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanib kelayotgan iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, nufuzli ilmiy maktablarni shakllantirish hamda ularning ilmiy salohiyatini yanada oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 222-son Qarori qabul qilingan [2].

Ilmiy maktab – ma‘lum yetakchi olim rahbarligida shakllangan, bir ilmiy yo‘nalishda izchil, bardavom faoliyat yurituvchi, ilmiy va amaliy yutuqlarga ega, o‘zining ilmiy yondashuvi, ustoz-shogirdlik tizimiga ega, ilmiy jamoatchilik tomonidan e‘tirob etilgan olimlar, tadqiqotchilar jamoasi faoliyati.

Demak, muayyan fan va uning soha yoki yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib boruvchi va yangi bilimlarni kashf etishga intiladigan, o‘z a‘zolariga ega, o‘ziga xos ilmiy uslub va metodologiya orqali yangi nazariyalar, tadqiqotlar yaratishga yo‘naltirilgan olimlar va tadqiqotchilar guruhiga nisbatan ilmiy maktab tushunchasini qo‘llash mumkin.

Har bir ilmiy maktab, o‘zining yondashuvi, tadqiqot metodlari va o‘ziga xos nazariy tamoyillari bilan ajralib turadi. Ilmiy maktablar ko‘pincha ma‘lum bir olim yoki tadqiqotchi nomi yoki joy (Shahar, viloyat) nomi bilan bog‘lanadi. Albatta, bu tilshunoslik fani uchun ham xos. Masalan, *Toshkent tilshunoslik maktabi*, *Samarqand tilshunoslik maktabi*, *Farg‘ona vodiysi tilshunoslik maktabi*, *Buxoro tilshunoslik maktabi* kabi.

Ilmiy jamoalar ilmiy maktab sifatida shakllanganligini ko‘rsatuvchi bir necha mezonlarni sanash mumkin:

1. Yetakchi olim rahbarligida va shogirdlar tizimining mavjudligi. Avvalo mavjud ilmiy soha bo‘yicha tadqiqotlarni boshlab bergan, yetakchilik qobiliyatiga

ega, ilmiy salohiyati yuqori, mamlakatda ushbu yo‘nalish, yoki soha olimlari tomonidan tan olingan olim bo‘lishi lozim. Maktabda bir nechta olimlar faoliyat yuritishi va ular o‘rtasida o‘zaro ilmiy hamkorlik bo‘lishi zarur. Bu hamkorlik maktabning rivojlanishiga va ilmiy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

2. Ilmiy yo‘nalish va izchil tadqiqotlar mavjudligi. Bunday maktab faoliyatining uzviyligi, tadqiqotlarning davomiyligi odatda yetakchi tomonidan boshlab berilganligi, ilmiy mavzuning shogirdlar faoliyatida davom ettirilishi, rivojlantirilishi, yangi qirralar bilan boyib borishi orqali tavsiflanadi. Bunda amalga oshiriladigan tadqiqotlarning ko‘pqirraliligi ham muhim. Ilmiy maktab faoliyatiga baho berishda himoya qilingan dissertatsiya ishlari, maktab a‘zolarining ilmiy ishlariga iqtiboslar berilishi inobatga olinadi.

3. Ilmiy maktab o‘z metodologiyasiga, yondashuvi va ish uslubiga ega bo‘lishi lozim. Metodologiya ilmiy ish, tajriba va tadqiqotlarni qanday o‘tkazishni belgilaydi. Ular ilmiy izlanishlarning asosiy qoidalariga tayanadi. Maktab a‘zolari amal qiladigan umumiy g‘oya va qadriyatlarning mavjud bo‘lishi e‘tiborga olinadi.

4. Ilmiy bazaning mavjudligi. Ilmiy maktab faoliyatini mustahkamlash uchun ilmiy maqola va tezislari, monografiya, kitob va boshqa ilmiy nashrlar chiqarilishi kerak. Bu nashrlar maktab g‘oyalarini ommalashtirishga, keng ilmiy jamoatchilikka taqdim etishga va yosh tadqiqotchilarni turli sohalarga yo‘naltirishga yordam beradi.

5. Ilmiy maktabning izlanishlari ilmiy nazariya yoki g‘oyalar amaliyotda qo‘llanilishi, yangiliklar yaratishi, texnologik yechimlar ishlab chiqilishi lozim. Bu maktabning samaradorligini va dolzarbligini oshiradi.

6. Ijtimoiy va ilmiy jamoatchilik tomonidan tan olinganlik. Sohaning yetakchi olimlari tomonidan maktab va uning faoliyati, uning rahbari haqidagi e‘tiroflar asosida aniqlanadi.

Ma‘lum bir ilmiy maktabning boshqalardan ajralib turadigan o‘ziga xos jihatlarni belgilashda miqdor ko‘rsatkichlardan foydalanish faqatgina umumiy

xulosa chiqarishga imkon beradi. Shu sababli uning o‘ziga xosligini baholash uchun keng qamrovli yondashuv talab etilishini [3.: 21.] unutmazlik lozim.

Ilmiy maktablar ilmiy meros uzviyligini ta’minlaydi, metodologik asoslarni takomillashtiradi va zamonaviy ilm-fanni rivojiga hissa qo‘shadi. Ilmiy maktablar faoliyatini yanada rivojlantirish uchun ularning reyting tizimini yaratish, maxsus grantlar ajratish, ta’lim muassasalarining reytingiga asosiy baholovchi mezon sifatida kiritish va albatta xalqaro hamkorlikni kengaytirish lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi PF-6097-son Farmoni. 29.10.2020. <https://lex.uz/ru/docs/-5073447>

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Ilmiy va innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanib kelayotgan iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 222-son Qarori. 19.04.2021. <https://lex.uz/docs/-5377538>

3. Шарипов Ш. Илмий мактаблар – кадриятлар узвийлигини ифодаловчи модел сифатида. // Ўзбекистонда олий таълим, 2023 йил, 4сон. – Б. 16-21.

## **XORAZM GIDRONIMIYASINING MOTIVLANISH ASOSLARIGA DOIR**

**Aqmanova Shahnoza Alimboyevna,**

PhD., dotsent, *Abu Rayhon Beruniy nomidagi*

*Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada gidronimlarning semantik tasniflari, atalish motivlari, ularning vujudga kelishidagi muhim omillar haqida so‘z boradi. Xorazm gidronimikasining asosiy motivatsion tiplari tahlilga tortiladi.

**Аннотация:** В статье рассматриваются семантические классификации гидронимов, мотивы наименования и важные факторы их возникновения. Анализируются основные мотивационные типы хорезмийской гидронимики.

**Annotation:** This article discusses the semantic classifications of hydronyms, the motives of naming, and the important factors in their emergence. The main motivational types of Khorezm hydronyms are analyzed.

**Kalit soʻzlar:** *toponim, gidronim, gidronimika, antroponim, etnonim, laqablar, nominatsiya, motiv, etnogidronimlar, antropogidronimlar.*

**Ключевые слова:** *топоним, гидроним, гидронимика, антропоним, этноним, прозвища, номинация, мотив, этногидронимы, антропогидронимы.*

**Key words:** *toponym, hydronym, hydronymics, anthroponym, ethnonym, nicknames, nomination, motif, ethnohydronyms, anthropohydronyms.*

**Kirish.** Gidronimlar jamiyatdagi turli xil oʻzgarishlar bilan bogʻliq holda vujudga keladi. Joy nomlarining yaratilishi maʼlum hududdagi kishilarning urf-odati, tili va ularning taraqqiyot tarixi, madaniy yuksalishi kabi ijtimoiy omillar bilan bogʻliqdir. N.Uluqovning fikriga koʻra, nomlovchi (nominator) suv obyektlari va inshootlariga nom (atoqli ot) berishda ularga xos biror xususiyatni, jihatni, motiv qilib oladi. Bu jarayonda suv obyektlari va inshootlarining joylashish oʻrni, tuzilishi, shakli, ularni bunyod etgan shaxslarning nomlari, mazkur hudud atrofida oʻsadigan oʻsimliklar, daraxtlar, yashaydigan hayvon, va jonzotlar yoki suvning belgi-xususiyatlari motiv vazifasini bajaradi [7.: 45.]. Shunga koʻra biz ushbu tadqiqotimizda gidronimlarning atalish motiviga koʻra ayrim atoqli otlar asosida shakllangan suv inshootlari nomlarini tahlilga tortishga harakat qildik.

**Adabiyotlar tahlili.** Jahon va oʻzbek tilshunosligida toponimlarning, maʼnaviy guruhlarini, semantik tasniflari, atalish motivlari boʻyicha qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Biroq bular ichida gidronimlar yuzasidan olib borilgan ishlar sanoqli. Turkiy gidronimlar tasnifiga oid ilk izlanishlar O.Molchanova tadqiqotida kuzatiladi. A.Kamolova gidronimlarni lugʻaviy-maʼnaviy jihatdan suv obyektining xarakterli belgilari, suvning xususiyatlari, suv obyektini bilan bogʻliq tabiiy-biologik jarayonlar asosida nomlanishini eʼtiborga olib, oʻn sakkiz mavzuiy guruhga boʻlib oʻrganadi. Turkman toponimisti

S.Ataniyazov esa gidronimlarni suvning rangi, ta'mi, hidi, oqish tezligi, yo'nalishi va shovqin darajasi, suvning harorati, suvning oz yoki ko'pligi, obyektning shakli kabi xususiyatlarini inobatga olib semantik guruhlarga ajratadi. Gidronimlarning leksik-semantik tasnifi borasida N.Oxunov, N.Begaliyev tadqiqotlari mukammalligi bilan alohida ahamiyatga molik [7.: 58.]. Ta'kidlash joizki, mazkur tadqiqotlar turli hududlar gidronimiyasi bo'yicha alohida olib borilgan izlanishlar hisoblanib, muayyan hududning ichki imkoniyat va qonun-qoidalari asosida paydo bo'lgan nomlar hisoblanadi. Shu qatorda Xorazm gidronimiyasi ham o'ziga xos individual tasniflarni talab qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Nomlarning vujudga kelishi xalq hayotining ma'lum bosqichidagi ehtiyoji, zarurati natijasidir. Gidronimlarning atalish motivlarini tekshirish nomlar etimologiyasini o'rganishning dastlabki bosqichi hisoblanadi. Gidronimlarni, ayniqsa, daryo nomlarini o'rganishning o'ziga xos qiyinchiliklari mavjud. Bu, avvalo, daryolarning juda uzoq masofadan oqib kelishi bilan izohlanadi. Bu daryo bo'ylarida til jihatdan bir biriga uzoq bo'lgan har xil xalqlar yashagan va ular mazkur suv obyektiga o'zgacha nom berganlar. Masalan, Xorazm hududidan oqib o'tuvchi Amudaryoning ham turlicha nomlari mavjud. Amudaryo Markaziy Osiyo va O'zbekistonning eng sersuv daryosi. Temuriylar davri yozma manbalarida Amudaryo ko'proq "Jayhun" va nisbatan kamroq "Obi Omuya", Xorazm hududida Gurganj shahri yaqinidagi qismi "Obi Gurlan" (Gurlan daryosi) va "Jo'yi Gurlan" (Gurlan arig'i), yuqori oqimida "Panjob" nomlari bilan uchraydi. Uning "Obi Vaxsh" (hozirgi Vaxsh daryosi), "Surxob", "G'und", "Hisor" va "Chag'onrud" (hozirgi Surxon daryosi) irmoqlari ham eslatib o'tilgan. Daryoni yunon va rimliklar Oksus yoki Oksos, arablar Jayxun, yerli xalqlar dastlab O'kuz, Vaxsh, so'ngra Amul deb ataganlar. "Avesto" va boshqa tarixiy manbalarda daryoning Arang, Raxa, Ranxa, Aranxa kabi tarixiy nomlari ham uchraydi. Ayrim mutaxassislar Amudaryoning hozirgi nomini o'rta asrlarda mavjud bo'lgan Amul shahri nomi bilan bog'liq deyishadi [3.: 18.].

Har qanday atoqli otning, shuningdek, turdosh otlarning ham motivatsiyasi dastlabki nominatsiya bosqichida obyektning ma'lum belgisiga, xususiyatiga

asoslanadi. Gidronimlar motivatsiyasida suv inshootining turli xarakterini aks ettiruvchi soʻzlar muhim ahamiyatga egadir.

**Tahlil va natijalar.** Xorazm gidronimlarining koʻpchiligi uzoq davrlardan beri mavjud boʻlib, xalq hayotida yuz bergan oʻzgarishlar, tarixiy jarayonlar, voqea-hodisalarning atamasi sifatida saqlanib kelmoqda. Xorazmda koʻplab urugʻ, qabila va xalq nomlari bilan ataluvchi gidronimlar uchraydi. Gidronimlarning aksariyati tarixiy shaxslarning nomlarini, shuningdek, kishilarning kasb-hunari, mashgʻuloti va hayot kechirish uslubiga oid terminlarni oʻzida saqlagan. Shuningdek, boshqa bir nomlar tabiatdagi hodisalar, hayvonot dunyosi bilan bogʻliq. Gidronimlar oʻz xarakteri va motivlariga koʻra boshqa xil nomlardan farq qiladi. Xorazm gidronimlari oʻzlarining motivlanish asoslariga koʻra har xil boʻlib, quyida etnogidronimik va antropogidronimik tiplarni koʻrib oʻtamiz.

Kishilarning maʼlum suv obyektini bilan bogʻliq etnografik xususiyatlarini bildiruvchi dalillar orasida vujudga kelgan nomlarni **etnogidronimlar** deb atash mumkin. Bunday tip gidronimlari eng qadimgi nomlar qatlamini tashkil qiladi. Xorazm hududi azaldan turli etnik guruhlarining toʻqnashish, aralashish joyi boʻlgan. U oʻzining boy va rang-barang tarixi davomida genetik jihatdan turli tillarda gaplashuvchi xalqlarning tarixiy izlari hozirgi Xorazm shevalari leksikasida, xususan, gidronimiyasida oʻz aksini topgan. Bunday gidronimlarga *Qirgʻizyop, Mangʻityop, Nayman oʻzak, Boshqird koʻl, Uygʻur kollektori, Kenagas kanali* kabilar misol boʻla oladi.

Etnik guruhlar nomlari bilan bogʻliq ayrim gidronimlar aynan biror urugʻ yoki tarixiy shakllangan xalq nomini anglatmasada, ularning Xorazmga keltirilishi bilan bogʻliq omillar taʼsirida etnogidronimlar vujudga kelgan. *Qullar, Jamshid* kabi gidronimlarni ana shunday nomlar deyish mumkin. Xorazm viloyati Yangiariq tumanida joylashgan *Qirqyop* gidronimi ham etnogidronim sanalib, bir qarashda unda etnonimlik xususiyati koʻzga tashlanmaydi. X.Donyorovning maʼlumot berishicha, bu nom “Qirq urugʻining arigʻi” hisoblanib, Qirq oʻzbek elatiga kiruvchi urugʻ va qabilalar ichida ming va yuzdan keyingi uchinchi katta qabila hisoblangan [6.: 154.].

Kishilarning suv obyektini bilan munosabati, unga egalik, yashashlik, barpo etganlik kabilar asosida motivlangan nomlar **antopogidronimlar** hisoblanadi. Kishi nomlarining geografik nomga aylanishi keng tarqalgan lingvistik hodisadir. Antropogidronimlar ham toponimlar singari faqatgina obyektlarni individuallashtiradigan, ularni bir-biridan ajratadigan ijtimoiy-lingvistik belgigina emas, ayni vaqtda ular kishilarning etnik belgisi, milliy xususiyati, ijtimoiy-siyosiy qarashlarini ham ko'rsatuvchi belgidir. Shu sababdan ular o'rtasidagi o'zaro munosabat juda qadimdan boshlangan. Ko'plab kishi nomlarining gidronimga aylangani xuddi ana shu omil bilan izohlanadi [5.: 9.]. Antropogidronimlar obyektini farqlovchi, boshqalardan ajratuvchi funksiyani bajaradi. Bunda shaxs va obyekt munosabati muhim rol o'ynaydi. Avvalo biror hududdagi kishilarning, yoki ayrim shaxsning jamiyatda tutgan o'rni muhim belgi bo'lib xizmat qiladi. Bu belgilar turlicha ifodalanishi mumkin. Kishilarning kasbi, mashg'uloti, mansabi, etnik tipi, laqabi kabi qator individual turlarda aks etadi. Bu xildagi belgilarning ko'pchiligi o'z-o'zidan suv obyektini nomiga aylanmaydi. Ular dastavval kishi nomi bilan birgalikda qo'llanadi. Vaqt o'tishi bilan turli faktorlar asosida gidronim hisoblanadi.

Kishi nomlarining suv inshooti nomiga aylanishi Xorazm gidronimiyasida ham o'z aksini topgan. Kishi ismlariga *arna* so'zini qo'shish orqali yasalgan nomlar: *Qilichboy arna*, *Qo'rako'z arna*. XIX asr Xorazm qishloq xo'jaligida katta ahamiyatga ega bo'lgan bu ikkala obyekt Muhammad Rahimxonning ikki lashkarboshisi Qilichniyozboy va Davlat Qorako'z tomonidan qurilgan [10.: 81.]. Xorazmcha *arna* so'zi haqida V.V.Bartold bunday degan: X asrda ham Xorazm xalqi boshqa eronliklar tushunmaydigan va hatto yozma hujjatlarda ishlatiladigan o'z ona tilida gaplashar edi [1.: 162.]. Aftidan bu tilni keyinchalik fors tili emas, balki turk tili (turkiy til) surib chiqargan. Sug'orish sohasidagi ba'zi bir terminlar (*arna* - "katta kanal", *yop* - "kichik kanal"), shubhasiz xorazmiy tilining qoldig'idir. *Arna* so'zi boshqa hududlarda ham ma'lum: Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida "jar", "quruq o'zan"; Shimoliy Qozog'istonda - "daryo", Janubiy O'zbekistonda - "dara", Shimoliy Kavkazda - "buloq" [2.:157.].

Kishi ismlariga *yop, solma, ko'l* soʻzlarini qoʻshish orqali yasalgan nomlar: *Bagnazarvoy yop, Shirin yop, Polvon yop, Zavra-Toyir yop, Obdol yop, Roʻzim yop; Jamshid solma, Marks solma; Berdining koʻli, Mullaboydoqning koʻli, Davlatbuvaning koʻli, Koʻklanning koʻli* kabi.

*Kishilarning laqablari bilan bogʻliq gidronimlar.* Laqab – shaxsning tashqi koʻrinishi yoki xarakteridagi maʼlum belgi-xususiyatiga koʻra, uning ijtimoiy ahvoli yoki nasl-nasabiga koʻra nomlanishidir [4.: 50.]. *Uzunning koʻli, Manqaning koʻli, Soqqol yop, Mallaning koʻli, Sopoqkoʻl kabilar* Xorazm hududidagi laqablarga asoslangan gidronimlar hisoblanadi. Viloyatdagi eng mashhur kanallardan biri Gʻazovot kanali haqida soʻz yuritgan Akademik Yaxyo Gʻulomovning fikricha Xorazmda biror kanalga nom berishda koʻpincha shu kanalni qurgan kishining nomi yoki laqabidan foydalanilgan. Shubhasiz Abulgʻozi Madra kanalini yoki Nosiriy kanalini (Gʻazovot kanalining oldingi nomlari) qayta tiklashda tashabbus koʻrsatgan. Kanalning asli nomi Gʻoziobod boʻlib, xalq tilida Gʻazovot tarzida qoʻllanadi [6.: 154.].

*Diniy tushunchalar bilan bogʻliq antropogidronimlar.* Joy nomlarining vujudga kelishida maʼlum hududda yashovchi aholining diniy eʼtiqodi ham muhim sanaladi. Antropogidronimlarning bunday turlari koʻpincha biror avliyoning nomi bilan bogʻliq boʻlib, uning shu suv obyektiga yaqin hududlarga dafn etilgani bilan ifodalanadi. Xorazm gidronimiyasida *Eshon yop, Obdol yop, Xoʻja solma, Siyit koʻl, Shiyx yop* kabilar shular jumlasidandir.

**Xulosa.** Gidronimlarning motivlanishi turli xil dalillarga asoslanadi. Bu dalillar obyektning boshqa shu xildagi obyektidan farqlash ehtiyoji natijasida vujudga keladi. Gidronimlarning motivlanishida maʼlum joyning shaxs bilan munosabati yoki shu hududdagi etnik guruhlar, ularning dunyoqarashi, etnografik belgilari yoki shu obyekt bilan bogʻliq hodisalar kabi turli omillar muhim rol oʻynaydi. Biz ushbu maqolada Xorazm gidronimlari atalish motivlarining ayrimlarigagina toʻxtaldik. Asosan, qishloq va suv xoʻjaligi rivojlangan bu hudud gidronimlarining yana oʻnlab motivatsion tiplari haqida tahlillar amalga oshirish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Matniyozov M., Sotliqov A. Jahon tarixi va madaniyatida Xorazm. – Xorazm, 1999.
2. Sobirov J. Xorazm toponimikasining semantik va etimologik xususiyatlari. // International scientific and technical conference “digital technologies: problems and solutions of practical implementation in the industry”. 2023. 4-son.
3. O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. 1-nashr – Toshkent, 2022. – B.18. (624 b).
4. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – 264 б.
5. Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985 – Б.9. (104)
6. Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1977. –Б.154. (176 б).
7. Улуқов Н. Ўзбек тили гидронимиясининг тарихий-лисоний тадқиқи. – Тошкент, 2008. – Б.45. (192)
8. Юлдашев М. Хива хонлигида феодал ер эгаллиги ва давлат тузилиши. – Тошкент, 1957.

### **O‘ZBEK SHEVALARINI O‘RGANISHDA YANGICHA YONDASHUVLAR**

**Alimova Shahnoza Maqsudovna,**

*PhD, dotsent, Abu Rayhon Beruniy nomidagi*

*Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy dialektologiyadagi muammolar hamda dialektologiya sohasida yangicha yondashuv va tamoyillar asosida tadqiqot olib borish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Аннотация.** В статье рассматриваются проблемы современной диалектологии и разрабатываются рекомендации по проведению

исследований в области диалектологии на основе новых подходов и принципов.

**Abstract.** This article discusses the problems of modern dialectology and develops recommendations for conducting research in the field of dialectology based on new approaches and principles.

**Kalit so‘zlar:** *dialekt, lahja, sheva, o‘zbek xalq shevalari, dialektizm, areal o‘rganish, til ittifoqi.*

**Ключевые слова:** *диалект, говор, наречие, узбекские народные говоры, диалектизм, ареальное изучение, языковой союз.*

**Keywords:** *dialect, dialect, dialect, Uzbek folk dialects, dialectism, areal study, language union.*

Bugungi globallashuv sharoitida tillarning ijtimoiy mavqe, vazifalari muammosi o‘zgarayotgan bir paytda o‘zbek xalq shevalari tadqiqi va ta’limini yangi bosqichga ko‘tarish ehtiyoji kuchaymoqda. Bugungi kunda jahon fanida dialektologiya sohasida yangicha yondashuv va tamoyillar asosida tadqiqot olib borilmoqda.

O‘zbek xalq shevalari tadqiqi doirasida an’anaviy yo‘sinda ko‘plab tadqiqot amalga oshirilgan, ayniqsa, shevalar leksikasi bo‘yicha yuzlab dissertatsiya himoya qilingan, ilmiy anjumanlar o‘tkazilgan, yillar davomida universitet va pedagogika institutlari talabalari dialektologik ekspeditsiyaga jalb qilib kelingan. Bu jarayonda o‘z davri fani, ta’limi holatiga mos maqsad va vazifalar asosida ish ko‘rib, konseptual faoliyat yo‘lga qo‘yilgan. Ammo har bir davr o‘z fani oldiga aniq talablarni qo‘yadi [2.: 41.].

Shu nuqtayi nazardan ham bugungi zamonaviy dialektologiya dunyodagi til vaziyatining o‘zgarishi bilan bog‘liq muammolarga duch kelmoqda. Xususan, *o‘zbek shevalari qo‘llanish doirasining torayishi, ko‘plab dialektizmlarning iste’moldan chiqishi* dolzarb muammolardan sanaladi. Vaholanki, aholi o‘zbek adabiy tilidan ham to‘liq foydalanayotgani yo‘q. Chet tilidan yangidan-yangi so‘zlarning kirib kelishi, xalq esa buni “quchoq ochib kutib olishi” ayanchli holat.

To'g'ri, zamon bilan hamnafas bo'lish zarur, lekin bu o'z ona tilingni unutish evaziga bo'lmasligi lozim.

***Migratsiya va aholi milliy tarkibining o'zgarishi*** shevalarning qo'llanishi va boshqa tillar bilan o'zaro ta'sirining o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Ma'lumki, bugungi kunda o'zbek xalqi ishlash maqsadida asosan, Rossiya, Turkiya, Koreya kabi bir qancha davlatlarga borib kelmoqda. Bu esa o'z-o'zidan xalq tilida ma'lum bir tillarning chatishuviga sabab bo'lmoqda. Bu demografik o'zgarishlar natijasida yuz bermoqda.

***Shaharlarning rivojlanishi va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning o'zgarishi*** ham shevalarning qo'llanilishi va adabiy tillarga ta'sirining qiyinlashishiga olib kelishi mumkin. Chunki bugungi zamonaviy dunyoda ko'pchilik yashash sharoitlarining qulayligi uchun shaharga intiladi. Bu esa shevalarning chatishuviga yoki yo'qolib borishiga sabab bo'ladi.

***Texnologiyaning rivojlanishi va muloqot usullarining o'zgarishi*** lahjalarning kommunikativ imkoniyatlarini chegaralamoqda. Ya'ni sohalar bo'yicha sohaviy leksikaning keng miqyosda qo'llanishi, chet tilidan texnologiyaga oid so'zlarning jadal kirib kelishi sheva imkoniyatlarini cheklab qo'ymoqda.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun zamonaviy dialektologiya turli yondashuv va usullardan foydalanishi hamda tegishli vazifalarni bajarishi lozim. Xususan, ***dialektlarni saqlash va o'rganishda zamonaviy texnologiyalaridan, jumladan, raqamli audio va video yozuvlar, ma'lumotlar bazalari va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish*** [1.: 62.] muhim ahamiyatga ega. To'plangan sheva materiallarini saqlashda bu jihat muhim hisoblanadi. Audio yozuvlar bundan bir necha asr keyin ham bugungi kun sheva materiallari bilan tanishish imkoniyatini beradi. Eng asosiy faoliyat ham asosan, sheva materiallarini yig'ishga qaratilishi lozim.

***Adabiy tilni shevalar hisobiga muttasil boyitib borish metodikasini kuchaytirish*** zarurati ham mavjud. Buning uchun o'zbek tili izohli lug'atini dialektizmlar boyitish zarur deb hisoblaymiz. Bu yo'nalishda bir qancha tadqiqot

olib borilishiga qaramasdan, buning amaliy ahamiyatini hali fanda sezganimiz yo‘q. Shuningdek, *tilning dialektal korpusini tuzish* ham dialektlarni amaliy jihatlarini yuzaga chiqaradi.

*Dialektlarni hududiy o‘rganish* masalasi ham bugungi kunda dolzarbdir. Chunki dialektologiyani areal, lingvoareal aspektida tadqiq qilish asnosida hududiy siljigan shevalar, o‘zaro chatishgan shevalar, shuningdek, tillar kontakti masalasi, yuzaga chiqadi [3.: 12.]. *Dialektologik xaritalarni yaratish* ham zamonaviy dialektologiyaning muhim masalalaridan hisoblanadi.

Xullas, bu kabi masalalar yangi dialektologik metodologiyani ishlab chiqishni kun tartibiga qo‘yadi. Dialektlarni zamonaviy hamda yangicha yondashuvlar asosida tadqiq qilish soha mutaxassislariga yana bir karra mas’uliyat yuklaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mengliyev B. “O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. – Toshkent. 2023. –B.62.

2. Mengliyev B. Dialektologiyaning yangi paradigmalari haqida. “Milliy qadriyatlar dialektologik atlasini o‘rganishda muhim manba” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. 1-kitob. – Navoiy. 2024. – B.41.

3. Гаджиева Н.З. Проблемы тюркской ареальной лингвистики: Среднеазиатский ареал. – Москва, 1975.

# ПРОБЛЕМЫ МЕДИЦИНСКОГО ПЕРЕВОДА И МЕТОДЫ ИХ РЕШЕНИЯ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ НЕЯЗЫКОВЫХ ВУЗОВ

Дзугаева Зарина Руслановна,

*преподаватель английского языка, PhD, доцент,*

*Ургенчский филиал Ташкентской медицинской академии*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola tibbiyotga oid matnlarni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularni nofilologik oliy ta'lim muassasalari talabalarini o'qitish jarayonida yengib o'tish usullarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda talabalar tibbiyotga oid hujjatlarni tarjima qilishdagi asosiy qiyinchiliklar — terminologiyaning murakkabligi, madaniy farqlar va tibbiyot sohasi bo'yicha maxsus bilimlarning yetishmasligi — ko'rib chiqiladi. Maqolada o'qitishdagi innovatsion yondashuvlarga, jumladan zamonaviy texnologiyalardan (avtomatlashtirilgan tarjima tizimlari, onlayn resurslar va moslanuvchan ta'lim platformalari) foydalanish, shuningdek, tarmoqlararo yondashuv va amaliy usullarga alohida e'tibor qaratilgan.

**Аннотация.** Статья посвящена анализу проблем медицинского перевода и методов их преодоления в процессе обучения студентов неязыковых вузов. Рассматриваются основные трудности, с которыми сталкиваются студенты при переводе медицинской документации, включая сложность терминологии, культурные различия и нехватку специализированных знаний в области медицины. В статье акцентируется внимание на инновационных подходах в обучении, таких как использование современных технологий (автоматизированных систем перевода, онлайн-ресурсов и адаптивных обучающих платформ), а также междисциплинарный подход и практические методы.

**Annotation.** The article is devoted to the analysis of the problems of medical translation and methods of overcoming them in the process of teaching students of non-linguistic universities. The main difficulties faced by students in translating medical documentation are considered, including the complexity of

terminology, cultural differences and the lack of specialized knowledge in the field of medicine. The article focuses on innovative approaches in teaching, such as the use of modern technologies (automated translation systems, online resources and adaptive learning platforms), as well as an interdisciplinary approach and practical methods.

**Kalit so‘zlar:** *tibbiy terminologiya, fanlararo yondashuv, ta’limda texnologiyalar, adaptiv o‘quv platformalari, tibbiy matnlarni tarjima qilish.*

**Ключевые слова:** *медицинская терминология, междисциплинарный подход, технологии в обучении, адаптивные обучающие платформы, перевод медицинских текстов.*

**Key words:** *medical terminology, interdisciplinary approach, technologies in teaching, adaptive learning platforms, translation of medical texts.*

**Введение.** Медицинский перевод играет ключевую роль в обеспечении качественного медицинского обслуживания и научного общения на международном уровне. Однако, при переводе медицинской документации возникает ряд специфических трудностей, связанных с точностью терминологии, культурными различиями и необходимостью глубоких знаний в обеих языковых и медицинских областях. Эти проблемы особенно актуальны для студентов неязыковых вузов, чья основная специальность не связана с лингвистикой, но которые должны владеть навыками перевода медицинской информации для успешной практики. В статье рассматриваются основные проблемы медицинского перевода и современные методы их преодоления в обучении студентов неязыковых вузов с акцентом на инновационные подходы в образовательном процессе.

**Методы:** для исследования проблемы использовались следующие методы:

**Анализ литературы:** Обзор научных статей, учебных пособий и современных исследований в области медицинского перевода, а также методов обучения студентов неязыковых вузов; **опрос студентов и преподавателей:** Сбор мнений о трудностях перевода медицинских текстов

и предпочтительных подходах к обучению в рамках образовательных программ: **практическое наблюдение:** Анализ работы студентов при выполнении заданий по медицинскому переводу и идентификация основных проблем и ошибок; **сравнительный анализ:** Сравнение традиционных методов обучения медицинскому переводу с инновационными подходами, такими как использование технологий и онлайн-ресурсов;

**Анализ и результаты:** основные проблемы, с которыми сталкиваются студенты неязыковых вузов при медицинском переводе:

1. **Сложность медицинской терминологии.** Медицинская терминология требует не только лексического знания, но и глубокого понимания концепций и процессов в медицине. Это затрудняет точный перевод, особенно если студент не обладает необходимыми знаниями в этой области.

2. **Культурные различия.** В разных странах могут существовать различные медицинские практики и термины, что усложняет адаптацию перевода к культурным особенностям.

3. **Недостаток навыков перевода.** Студенты, не обучающиеся в профильных лингвистических учреждениях, часто не имеют достаточно развиты навыки перевода, такие как интуиция по выбору правильных слов и фраз, а также использование контекста.

4. **Технологические барьеры.** Хотя современные технологии (например, CAT-инструменты и машинный перевод) играют важную роль в облегчении перевода, многие студенты не используют эти ресурсы на должном уровне.

Методы решения проблем:

1. **Интеграция инновационных технологий в обучение.** Современные образовательные технологии, такие как автоматизированные системы перевода, онлайн-словарь и ресурсы для анализа медицинских текстов, могут значительно упростить процесс обучения. Важно научить

студентов эффективно использовать эти инструменты для повышения точности перевода.

**2. Междисциплинарный подход.** Включение медицинских дисциплин в учебный процесс позволяет студентам глубже понять специфическую терминологию, что способствует точности перевода.

**3. Практические занятия и кейс-метод.** Практика на реальных примерах медицинских текстов помогает студентам не только улучшить навыки перевода, но и научиться работать с реальными проблемами, которые возникают при переводе медицинских текстов.

**4. Когнитивные и адаптивные обучающие платформы.** Использование адаптивных обучающих систем, которые подстраиваются под уровень знаний студента и предоставляют индивидуализированные задания, позволяет ускорить процесс освоения навыков медицинского перевода.

Проблемы медицинского перевода и методы их решения в процессе обучения студентов неязыковых специальностей — это важная тема, особенно с учетом глобализации и необходимости эффективной коммуникации в сфере здравоохранения. В данном контексте можно выделить несколько ключевых проблем и возможных путей их решения.

**Выводы:** Медицинский перевод — это область, требующая высокой квалификации, знаний в различных областях, а также внимания к деталям. Обучение студентов неязыковых специальностей должно быть ориентировано на развитие их профессиональных навыков в контексте перевода, включая как теоретические аспекты (медицинская терминология, культура), так и практическую подготовку. Важно применять комплексный подход, который включает учебные материалы, технологии и практику, чтобы студенты могли успешно решать проблемы медицинского перевода в своей будущей профессиональной деятельности.

Медицинский перевод представляет собой сложный и многогранный процесс, требующий от студентов неязыковых вузов высоких

лингвистических и медицинских знаний. Современные инновационные подходы в обучении, включая использование технологий, междисциплинарных курсов и практических методов, могут значительно улучшить качество подготовки специалистов в области медицинского перевода. Важно, чтобы образовательные учреждения активно внедряли такие методы в учебный процесс, чтобы студенты могли эффективно преодолевать трудности перевода и обеспечивать точность и достоверность медицинской информации.

#### **Список литературы:**

1. Румянцева Л.Н. Технология обучения иностранным языкам третьего тысячелетия с позиции акмеленгвистики/Л.Н. Румянцева Л.Н.-СПб.2003.

2. Леонтьев, А.А. Язык и речевая деятельность в общей и педагогической психологии: Избр. психологич. труды / А.А. Леонтьев; Моск. психол.-соц. ин-т. - М.; Воронеж: МПСИ: МОДЭК, 2001.

3. Акимова.О.Б. Акмелингвистика как понятие педагогической акмеологии.: Материалы 10-й Всероссийской научно-практической конференции 13 – 14 марта 2013 г., Екатеринбург.

4. Мурашов А.А. Культура речи: Учебное пособие. – 2-е изд., Москва-Воронеж: РАО МПСИ, 2004.

5. Лапкин М.М. Исследование психологических детерминант успешности обучения студентов медицинских вузов. – Москва, 2014.

# MAQOLLARDA OLAM LISONIY MANZARASINING IFODALANISHI

**Turdaliyeva Dilfuza Soloxidinovna,**  
PhD, Farg‘ona davlat universiteti.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada xalq maqollari xalqning lisoniy manzarasini, uning madaniy, tarixiy va ijtimoiy xususiyatlarini aks ettiruvchi kuchli vosita ekanligi, ular xalqning umumiy tajribasi, e‘tiqodlari va hayotiy donoliklarini avloddan-avlodga yetkazish imkonini berishi nazariy jihatdan yoritib berilgan.

**Абстрактный.** В этой статье на теоретических примерах показано, что пословицы являются мощным инструментом, отражающим языковой ландшафт народа, его культурные, исторические и социальные особенности, что они позволяют людям передавать из поколения в поколение свой общий опыт, верования и жизненную мудрость, и что пословицы можно использовать для выявления и оценки богатства и разнообразия национального языкового ландшафта.

**Abstrakt.** In this article reveals, using theoretical examples, that proverbs are a powerful tool that reflects the linguistic landscape of the people, their cultural, historical and social characteristics, that they allow the people to pass on their common experience, beliefs and life wisdom from generation to generation, and that proverbs can be used to discover and evaluate the richness and diversity of the national linguistic landscape.

**Kalit so‘zlar:** maqol, olam lisoniy manzarasi, urf-odatlar, kognitiv xususiyatlar, milliy mentalitet.

**Ключевые слова:** пословица, языковая картина мира, традиции, когнитивные особенности, национальный менталитет.

**Keywords:** proverb, linguistic worldview, traditions, cognitive characteristics, national mentality.

Maqollarda har bir xalqning turmush tarzi, madaniyati, dunyoqarashi, orzu-umidlari, hayotiy tajribasi va dono o‘g‘itlari aks etadi. Bu esa har bir millat tilda olamning lisoniy manzarasi va uning kognitiv xususiyatlari ifodasida xalq

maqollarining o'zni katta ekanligini ko'rsatadi. Buyuk faylasuf Suqrot "Men qadimgi donishmandlarning asarlaridagi aql durdonalarini ko'zdan kechiraman; agar men ularda yaxshi narsaga duch kelsam, uni o'zlashtirib olaman va juda katta foyda orttirgan hisoblanaman" deganda xalq donoligi namunalarining inson aqliy kamoloti va turmush tarzini to'g'ri yo'lga qo'yishda eng yaqin yordamchi va maslahatchi bo'lishini nazarda tutgan bo'lsa, ajab emas. Rus yozuvchisi L.N.Tolstoy ham "Har bir maqolda shu maqolni yaratgan xalqning siymosi ko'rinadi", – degan edi. Shu bois xalq maqollarining olamni ifodalashdagi ahamiyati yoki uning kognitiv xususiyatlari bir qator tadqiqotlarning obyektiga aylangan. Masalan, A.A.Krikman xalq maqollaridagi dunyoqarash va mazmun-munjarija muammosini yoritgan [1.:55.]. B.Jo'rayevaning "Maqollarning lisoniy mavqeyi va ma'noviy-uslubiy qo'llanishi" nomli dissertatsiyasida o'zbek xalq maqollarining ma'noviy xususiyatlari atroflicha tadqiq etilgan, maqol va iboralarni birlashtirib turuvchi yagona belgi – ularning ma'no jihatdan idiomatik xarakterda ekanligi dalillar asosida tahlil etilgan, etimologik jihatdan maqol va ibora orasidagi farq ochib berilgan [2.:136.]. M.Temirovaning "O'zbek va qirg'iz xalq maqollari tipologiyasi" nomli dissertatsiyasida o'zbek va qirg'iz xalq maqollarining yaratilish tarixi va vujudga kelish omillari, xalq falsafiy va badiiy-estetik qarashlarining shakllanishida ijtimoiy-tarixiy va geografik muhit o'zni, shuningdek, o'zbek va qirg'iz xalq maqollarining struktural, poetik tipologiyasi masalalari yoritilgan hamda folklordagi eng kichik janr tadqiqi orqali o'zbek va qirg'iz maqollarining genetik mushtarakligi, o'ziga xoslik va farqli xususiyatlari asoslab berilgan [3.:166.]. M.Jo'rayeva o'z tadqiqotlarida fransuz va o'zbek ertaklari misolida modallik kategoriyasining milliy-madaniy xususiyatlarini tahlil qilgan[4.:130-137.]. N.Aliyeva turli tizimli tillarda frazemalarning lingvopragmatik asrektini [5.:61.], G.Komilova o'zbek tilidagi maqollarning aksiolingvistik tahlilini[6.:50.] , D.M.Buzrukova kognitiv-lingvistik tadqiqotlarda kontseptual tahlil masalasini, N.Y.Abdunazarova xalq maqollari va matallarida milliy mentalitetning ifodalanishini, A.Yuldashev esa kognitiv model va interpretatsiyaning lisoniy tahliliga doir izlanishlarni olib borgan. Mazkur

ishlarning xulosalarini o‘rganar ekanmiz, ularni umumlashtiruvchi xulosa sifatida “xalq maqollari millatning ma’naviyati, xalq falsafiy va badiiy-estetik qarashlarining shakllanishida ijtimoiy-tarixiy va geografik muhit o‘rni beqiyos” degan bahoni berish o‘rinli bo‘ladi.

Turli tizimli tillarda ayni bir maqol o‘sha xalqning lisoniy olami manzarasidan kelib chiqib har xil ifodalanadi. Masalan, ingliz tilidagi *Don't count your chickens before they hatch* (so‘zma-so‘z tarjimasi: *Tovuqlaringizni tuxumdan chiqmaguncha hisoblamang*) maqoli qo‘llanadi. Bu maqol *oldindan xulosa chiqarmang* degan ma’noni ifodalashda qo‘llanadi. Bu yerda o‘zbek xalqining “*Jo‘jani kuzda sanaymiz*” maqoli bilan hamohanglik kuzatiladi.

Fransuz tilidagi *Chose promise, chose due* (so‘zma-so‘z tarjimasi: *Va‘da qilingan uch yil kutiladi*) maqoli va‘da qilingan ish albatta, bajarilishi kerak degan pand-nasihatni ifodalaydi. O‘zbek lisoniy olamida esa bu ma’no “*Va‘daga vafo mardning ishi*”, “*Yigit so‘zidan qaytmas, arslon – izidan*” kabi maqollar bilan ifodalanadi. Fransuz tilida maqoldagi badiiylik berilayotgan pand-nasihat va axborotning ko‘chma ma’no bilan ifodalanishi bilan cheklanadi, ya’ni aytilmoqchi bo‘lgan hikmat to‘g‘ridan-to‘g‘ri, faqat ko‘chma ma’noda ifodalash bilan chegaralanadi. Bu holatni yuqorida keltirilgan ingliz tilidagi maqolda ham kuzatish mumkin. Ammo o‘zbek tilida shu mazmundagi maqollar o‘z ma’nodagi pand-nasihat mazmunli gaplar yoki “*kosa tagida nimkosa*” usuli bilan yetkaziladi. Masalan, “*Yigit so‘zidan qaytmas, arslon – izidan*” maqolida va‘daga vafo qilish, aytilgan so‘zdan qaytmaslik haqidagi hikmat yigit va arslon obrazlari orqali ifodalanadi. Nemis tilidagi “*Aller Anang ist schwer*” (so‘zma-so‘z tarjimasi: *Boshda hammasi qiyin*) maqolida ham ko‘chma ma’no emas, o‘z ma’no ifodalangan. O‘zbek tilidagi “*Ko‘z qo‘rqoq, qo‘l botir*” maqolida ham boshidan qiyin ko‘ringani bilan har qanday ishni bajarish, uddalash, oxiriga yetkazish mumkin degan hikmat ko‘zning qo‘rqoqligi va qo‘lning botirligi asosida badiiy ifodalanadi.

Xitoy tilida “*授人以魚不如授人以漁*” (so‘zma-so‘z tarjimasi: *Insonga baliqni bergandan ko‘ra, uni tutishni o‘rgatish kerak*) degan maqol bor.

Ma'lumki, xitoylar dengiz mahsulotini ko'p iste'mol qiladi, kundalik turmushida baliq va undan tayyorlangan mahsulotlardan ko'p foydalanadi, hatto dengiz mahsulotlari savdosi ham keng tarqalgan. Shu sababli *“insonga hamma narsani muhayyo qilish, tayyor berishdan ko'ra, uni shu narsaga erishishga o'rgatish afzaldir”* degan pand-nasihat aynan baliq berish va baliqni tutishni o'rgatishga o'xshatiladi.

Ispan tilida *“Más vale tarde que nunca”* (so'zma-so'z tarjimasini: *yaxshisi kech bo'lsin, umuman bo'lmagandan ko'ra*) maqoli qo'llanadi. O'zbek tilida esa *“hechdan ko'ra kech yaxshi”* tarzida ifodalanadi. Ko'rinadiki, bu o'rinda o'zbek olam lisoniy manzarasida yaxshilikni tilash, istash, ezgulikka umid qilishga harakat mavjud. Ispanlar esa *“yaxshisi, kech qolsin, lekin baribir bo'lsin”* mazmunida ifodalashadi.

Maqollar o'zi paydo bo'lgan xalqning madaniy qadriyatlarini, urf-odatlarini va dunyoqarashini aks ettiradi. Ularda xalqning ko'p yillar davomida to'plagan tajribasi, donoligi, odamlar va tabiat o'rtasidagi munosabatlar, diniy qadriyatlar ifodalanadi. Maqollarda umume'tirof etilgan haqiqat va axloqiy saboqlar e'tirof etiladi. Shu sababli maqollar olamning lisoniy va madaniy manzarasining muhim qismi sanaladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Крикманн А.А. К проблематике исследования содержания и мировоззрения пословиц: Автореф. дис. канд. филол. наук. – Таллин, 1975.
2. Жўраева Б. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланиши: Филол. фанлари номзоди дисс. – Бухоро, 2002.
3. Темирова М. Ўзбек ва қирғиз халқ мақоллари типологияси. Филол. фанлари фалсафа д-ри дис. – Тошкент, 2018.
4. Жўраева М.М. Модаллик категориясининг ўзига хос миллий-маданий хусусиятлари (француз ва ўзбек ертақларида таҳлилида) // Сўз санъати халқаро журнали. №6 (2021).

5. Алиева Н. Турли тизимга мансуб тилларда фраземалар тадқиқининг лингвопрагматик аспекти: филол. фан. фалсафа докт. (PhD) диссер. автореф. – Фарғона, 2022.

6. Комилова Г.Р. Ўзбек тилидаги мақолларнинг аксиолингвистик таҳлили: филол. фан. фалсафа докт. (PhD) диссер. автореф. – Тошкент, 2022. – 50 б.

## **O‘ZBEK MUMTOZ ADIBLARI ASARLARINI RAQAMLASHTIRISH VA LEKSIK TAHLIL QILISH BOSQICHLARI**

**Raximbayev Musobek Komiljon o‘g‘li,**  
*PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mumtoz matnlarni raqamlashtirish va ularni lingvistik jihatdan tahlil qilishning ilmiy-uslubiy asoslari yoritiladi. Raqamlashtirish bosqichlarida, xususan, matnlarni tanlash va OCR texnologiyalari orqali elektron shaklga o‘tkazish jarayonlari muhokama qilinadi. Tadqiqotda tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalari, elektron lug‘atlar va korpus lingvistikasi yondashuvlarining o‘rni alohida ta’kidlanadi.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются научно-методологические основы оцифровки классических текстов и их лингвистического анализа. Обсуждаются этапы оцифровки, в частности, выбор текстов и процесс их перевода в электронный формат с использованием технологий OCR. В исследовании особое внимание уделяется роли технологий обработки естественного языка (NLP), электронных словарей и подходов корпусной лингвистики.

**Abstract.** This article explores the scientific and methodological foundations of digitizing classical texts and conducting their linguistic analysis. The stages of digitization are discussed, particularly the selection of texts and their conversion into electronic format using OCR technologies. The study emphasizes the role of

natural language processing (NLP) technologies, electronic dictionaries, and corpus linguistics approaches.

**Kalit soʻzlar:** *mumtoz matnlar, raqamlashtirish, lingvistik tahlil, OCR texnologiyalari, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), elektron lugʻatlar, korpus lingvistikasi.*

**Ключевые слова:** *классические тексты, оцифровка, лингвистический анализ, технологии OCR, обработка естественного языка (NLP), электронные словари, корпусная лингвистика.*

**Keywords:** *classical texts, digitization, linguistic analysis, OCR technologies, natural language processing (NLP), electronic dictionaries, corpus linguistics, morphological analysis, semantic analysis, frequency analysis.*

**Kirish.** Mamlakatimizda tilga eʼtibor maʼnaviyatga eʼtiborning ustuvor yoʻnalishlaridan biri darajasiga koʻtarildi[1]. Oʻzbek mumtoz adabiyoti oʻz davrining madaniy, ijtimoiy va lingvistik xususiyatlarini aks ettirgan bebaho manba hisoblanadi. Ushbu matnlarning raqamlashtirilishi va lingvistik jihatdan tahlil qilinishi ilmiy tadqiqotlar hamda taʼlim jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy axborot texnologiyalari tilning funksional imkoniyatlaridan foydalanish borasida benihoya imkoniyatlar eshigini ochdi[2]. Zamonaviy texnologiyalar, xususan, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) va korpus lingvistikasi yondashuvlari mumtoz matnlarning leksik va grammatik xususiyatlarini chuqur oʻrganish imkonini beradi. Ushbu maqolada mumtoz matnlarni raqamlashtirish hamda ularni lingvistik jihatdan tahlil qilish bosqichlari yoritiladi.

Mumtoz adiblar tomonidan yaratilgan qoʻlyozmalar va asarlarni lingvistik jihatdan tahlil qilish hamda oʻzbek mumtoz adabiyoti korpusini shakllantirish boʻyicha olib borilayotgan tadqiqotlar bugungi kunda kelajak avlod vakillari uchun muhim ilmiy va madaniy ahamiyat kasb etadi.

Mumtoz matnlarni ilmiy tahlil qilish va ularni raqamlashtirish jarayoni bir necha bosqichda amalga oshirilishi lozim. Ushbu jarayon quyidagi metodologik bosqichlarni oʻz ichiga oladi.

1. Mumtoz matnlarni raqamlashtirish bosqichlari.

2. Leksik tahlil bosqichlari.
3. Tabiiy tilni qayta ishlash va elektron lug‘atlar yaratish bosqichlari.
4. Mumtoz matnlarni raqamlashtirish va tahlil qilish jarayonidagi muammolar.

Yuqorida sanab o‘tilgan tadqiqot bosqichlari yuzasidan quyidagi mulohazalar va tahlillarni ko‘rib chiqamiz:

**1. Mumtoz matnlarni raqamlashtirish bosqichlari.** Mumtoz matnlarni raqamlashtirish va lingvistik tahlil qilish jarayonida manbalarni tanlash va tizimlashtirish muhim ilmiy bosqich hisoblanadi. Ushbu jarayon matnlarning ishonchliligini, ilmiy ahamiyatini va tadqiqot maqsadlariga muvofiqligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Jarayonda qo‘lyozmalar va matnlarning asl nusxalariga yaqinligi va ularning tarixiy manbalarga mosligi tekshiriladi. Tadqiqotning maqsadidan kelib chiqib, matnning leksik-semantik tarkibi, grammatik qurilishi va uslubiy xususiyatlari baholanadi. Bundan tashqari, qo‘lyozmalar va bosma nashrlarning sifati, saqlanish darajasi hamda ularning o‘zaro farqlari tahlil qilinadi. Mumtoz asarlarning janriga (she‘riy, nasriy, tarixiy, falsafiy) qarab tasniflash, ularning yozilgan davri, muallifi va lingvistik o‘ziga xosliklari ko‘rib chiqilishi lozim.

Jarayonni chuqurroq tushunish va tahlil qilishda mumtoz matnlarni raqamlashtirish jarayonida optik belgilarni aniqlash (OCR – Optical Character Recognition) va transkripsiya bosqichlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu bosqichlar qo‘lyozma va bosma matnlarni elektron shaklga o‘tkazish, ularning avtomatlashtirilgan tahlilini amalga oshirish va ilmiy tadqiqotlarda foydalanish imkoniyatini yaratadi. OCR texnologiyasi matnlardagi harflarni va so‘zlarni optik aniqlash orqali raqamli formatga o‘tkazish imkonini beradi. Qo‘lyozma yoki bosma matnlar yuqori aniqlikdagi skaner yoki suratga olish texnologiyalari yordamida raqamli formatga o‘tkaziladi. OCR algoritmlari harflarni ajratib, ularni ma‘lum bir yozuv tizimiga moslashtiradi. Mumtoz matnlarni raqamlashtirish jarayonida transkripsiya – matnlarni zamonaviy yozuvga o‘girish va tahlil qilish bosqichidir ham jarayonni tahlil qilishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. OCR

va transkripsiya jarayoni mumtoz matnlarning raqamli shaklda saqlanishi, ularning lingvistik tadqiqotlarda qo'llanilishi va elektron lug'atlar yaratish jarayonida muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu texnologiyalar kelajakda o'zbek mumtoz adabiyotining kengroq tadqiq qilinishiga xizmat qiladi.

**2. Leksik tahlil bosqichlari.** Mumtoz matnlarni lingvistik jihatdan tadqiq etish jarayonida leksik tahlil muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Ushbu tahlil matn tarkibidagi so'zlarning tuzilishi, ularning semantik va grammatik xususiyatlarini aniqlash, chastotaviy va stilistik xususiyatlarini o'rganishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, mumtoz asarlarda qo'llanilgan so'zlar va baytlarning nasriy izohlari hamda so'zning aynan o'zini izohlash kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bu borada asl matn va uning tahlil quyidagicha ifodalanishi mumkin:

Munchakim, ey dil, yetushti hajridin zahmat sanga,

Uzmading hargiz umiding vaslidin, rahmat sanga. (T.O, 48).

**Baytning nasriy izohi:** *Ey ko'ngil, yor hijronidan senga qanchalik ozor yetishiga qaramasdan, hech qachon umidingni uzmaganing uchun senga rahmatlar bo'lsin!*

**Iste'moldan chiqqan so'zlar izohi:**

*hajr – hijron; ayriliq*

*zahmat – ozor; mehnat*

*vasl – visol; yetishish*

Yor vaslin aylaram deding talab jon boricha,

Topg'asan kom-u muroding gar budur himmat sanga. (T.O, 48).

**Baytning nasriy izohi:** *Sen yor visolini tanimda jonim bor ekan talab qilaman deding, bu himmating bilan o'z murod-u maqsadingga yetgaysan.*

**Iste'moldan chiqqan so'zlar izohi:**

*vasl – visol; yetishish*

*talab – istash*

*kom – I. Maqsad. II. Tanglay.*

Tadqiqot doirasida o'zbek mumtoz asarlarida qo'llanilgan so'zlar ma'no jihatdan tahlil qilinishi va mumtoz matn korpusi uchun jamlanishi talab qilinadi.

### 3. Tabiiy tilni qayta ishlash va elektron lug‘atlar yaratish bosqichlari.

Mumtoz matnlarni raqamlashtirish va tahlil qilish jarayonida tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing – NLP) texnologiyalaridan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)dan maqsad kompyuterlarga strukturlangan matnni tushuntirish va mazmun olishni o‘rgatishdan iborat[3]. Ayniqsa, elektron lug‘atlar yaratish uchun NLP vositalari matnlarni avtomatik tahlil qilish, so‘z shakllarini aniqlash, semantik va grammatik xususiyatlarini belgilash imkonini beradi.

Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) – bu inson tilini kompyuter orqali avtomatik qayta ishlashga yo‘naltirilgan sun‘iy intellekt sohasi bo‘lib, lingvistik tahlil, ma‘no anglash, sintaktik va semantik jarayonlarni avtomatlashtirishga xizmat qiladi. NLP texnologiyalari turli tabiiy tillardagi matnlarni avtomatik tushunish, qayta ishlash, tarjima qilish va generatsiya qilish uchun keng qo‘llaniladi.

NLP orqali mumtoz matnlarni tahlil qilishda bir nechta jarayonlarni o‘rganib chiqishimiz kerak: **tokenizatsiya** – matnni alohida so‘z va gaplarga ajratish; **normalizatsiya** – matndagi ortiqcha belgi va xatolarni to‘g‘rilash, eski imloni zamonaviy imloga moslashtirish; **nomuhim so‘zlarni chiqarib tashlash** – “ey”, “ul”, “anga” kabi umumiy ishlatiladigan so‘zlarni filtrlash; **stemming va lemmizatsiya** – so‘zlarning ildiz shaklini aniqlash (masalan, “xunoba” → “xun”; “dilkashdur” → “dilkash”).

**4. Mumtoz matnlarni raqamlashtirish va tahlil qilish jarayonidagi muammolar.** Mumtoz matnlarni raqamlashtirish va lingvistik tahlil qilish jarayoni turli texnik, lingvistik va metodologik muammolar bilan bog‘liq. Bu muammolarni hal etish uchun maxsus algoritmlar, moslashtirilgan dasturiy ta‘minot va kompleks ilmiy yondashuvlar talab etiladi. Mumtoz matnlar ko‘pincha o‘ziga xos sahifalash va formatga ega bo‘ladi (masalan, ikki ustunli yozuv, chetlardagi sharhlar), bu esa matnni avtomatik ajratishda muammolar keltirib chiqaradi. Ba‘zan matnlardagi arabcha, forsha va eski o‘zbekcha so‘zlar birgalikda ishlatilgan bo‘lib, ularni avtomatik ajratish murakkab kechadi. Eski imlo qoidalari zamonaviy imlodan farq qiladi, masalan, arab yozuvi asosidagi eski o‘zbek tili va hozirgi kirill yoki lotin

yozuvi. Bundan tashqari, bir xil soʻz turli qoʻlyozmalarda turlicha yozilgan boʻlishi mumkin (masalan, “عشق” va “إشق” – “ishq”).

Mumtoz oʻzbek adabiyotining raqamli korpuslari hali yetarlicha toʻliq shakllanmagan, bu esa tadqiqotchilar uchun cheklovlar yaratadi. Korpuslar oʻz ichiga barcha turdagi matnlarni qamrab olmasligi (masalan, turli davrlarga oid matnlar, dialektlar, sheʼriy va nasriy asarlar) ilmiy tahlilning toʻliq boʻlishiga toʻsqinlik qiladi. Mumtoz matnlarni raqamlashtirish va tahlil qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolar ularning tarixiy va lingvistik oʻziga xosligi, texnologik cheklovlar hamda NLP algoritmlarining ushbu matnlarga moslashmaganligi bilan bogʻliq.

### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Maxammadiyeva, D. Til korpuslari muhim lingvistik manba sifatida // *Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.* – Toshkent: 2022. – B. 181.

2. Elov, B. B., Raupova, L., Abjalova, M. Oʻzbek tilining taʼlimiy korpusi va uning imkoniyatlari // *Oʻzbekiston til va madaniyat: Amaliy filologiya.* – 2021. – B. 61.

3. Sharipov, M. S., Adinayev, X. S., Raximov, R. R. Oʻzbek tili uchun tabiiy tilni qayta ishlashda (NLP) mashinali oʻrganishning (Machine Learning) oʻrni // *Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.* – 2023. – B. 45.

## MUNDARIJA:

<b>Sardor Xodjanियazov.</b> Xorazm adabiy muhitining sohirnafas ikki shoiri	4
<b><u>1-SHO‘BA: KOMIL XORAZMIY HAYOTI VA IJODINI O‘RGANISH MASALALARI</u></b>	
<b>Nurboy Jabborov.</b> Ijodiy tafakkur takomilining xiva adabiy muhitiga xos mezonlari	5
<b>Shahobiddin Nuriddinov.</b> Komil Xorazmiy lirik merosini o‘rganishda qo‘lyozma bayozlarning ahamiyati	19
<b>Primov Azamat Iskandarovich, Berdimuratova Ro‘za Raxmonovna.</b> Komil Xorazmiy she‘riyati tilida osmon jismlari nomlarining lingvostilistik xususiyatlariga doir	27
<b>Raximov Botir Matyakubovich.</b> Komil Xorazmiy davlat arbobi, shoir, bastakor, musiqashunos	33
<b>Ismailov Is‘haqjon Otabayevich.</b> Komil Xorazmiy lirikasining vazn ko‘rsatkichlari	36
<b>Saidjanova Zebo Kamilovna.</b> Komil Xorazmiy – kitobat ilmi fidoyisi	43
<b>Xudayarova Dilnoza Shavkatovna.</b> Komil Xorazmiy – mahoratli qasidanavis	48
<b>Yuldashev Elyor Muxammedovich.</b> Komil Xorazmiy devonidagi ayrim lug‘aviy birliklarning lingvopoetik imkoniyatlari	55
<b>Xabibullayeva Mavluda Adambayevna.</b> Komil Xorazmiy hayoti va ijodida o‘quvchilarning ma‘naviy-axloqiy tarbiyasidagi o‘rni	61
<b>Atadjanova Roziyaxon Xudaybergenovna.</b> Komil Xorazmiy g‘azallarida talmeh she‘riy san‘atining qo‘llanilishi	65
<b>Jumayeva Nozima Nurxon qizi.</b> Xorazmlik shoirlar ijodida Navoiy an‘analari	70
<b><u>2- SHO‘BA: FERUZ DAVRI XORAZM ADABIY MUHITI: AN‘ANA, MAHORAT, O‘ZIGA XOSLIK</u></b>	
<b>G‘ayipov Dilshod Qadambayevich.</b> Ogahiy adabiy an‘analarining Feruz ijodiga ta‘siri xususida ba‘zi mulohazalar	75
<b>Boltayev Rustam Kurbonboyevich.</b> Maqomi san‘atida unutilgan cholg‘u kuylari	81
<b>Baltayeva Gulbahor Igamovna.</b> Xorazm olti yarim maqomi chertim yo‘llari	87
<b>Atajanov Sarvar Samandarovich.</b> Shoh va shoir Feruz ijodida savol-u javob san‘atining qo‘llanilishi xususida	92
<b>Yusupov Hikmat Sultonovich.</b> Feruz davri xorazm adabiy muhitida musaddas janri	100
<b>Ro‘zagul Jumaniyazova.</b> Muhammad Rahimxon Feruz obrazining qissalardagi talqini bo‘yicha ba‘zi mulohazalar	107
<b>Allaberganova Adolat Otabek qizi, Allaberganova Dilbarjon Otabek qizi.</b> Feruz davri Xorazm adabiy muhitining Mutrib	112

Xonaxarobiy ijodi takomilidagi o‘rni	
<b>Matyakubova Umida G‘ayibayevna.</b> Xiva xonligi davrida musiqa san‘atining yuksalishi	117
<b>Berdimuratova Ro‘za Raxmonovna.</b> Muhammad Rahimxon Feruz she‘riyatida qo‘llangan ayrim kosmonimlarning stilistik xususiyatlariga doir	123
<b>Sanamjon Masharipova.</b> Xorazm mumtoz adabiyotida qasidanavislik	128
<b>Komiljonova Komila.</b> Feruz haqidagi bir ta‘rix izidan	133
<b><u>3-SHO‘BA: XORAZMLIK SHOIRLAR IJODIDA NAVOIY AN‘ANALARI</u></b>	
<b>Matkarimova Salomat.</b> Xorazm adabiy muhitida chiston janri rivojida Alisher Navoiy ta‘siri	138
<b>Do‘stova Surayyo Savronovna.</b> Tazkiranavislik an‘anasining xorazm adabiy muhitidagi davomiyligi	142
<b>Rahimova Musharraf.</b> Omon Matjon ijodida Navoiy an‘analari	150
<b>Atadjanova Saodat.</b> Xorazmda tarixnavislik. Ogahiy - buyuk tarixnavis	155
<b><u>4-SHO‘BA: O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGI: TALQIN VA TAHLIL MUAMMOLARI</u></b>	
<b>Abdurahman Guzel.</b> Baburlu Kuzey Hindistanında Ali Şîr Nevâyî tesiri	161
<b>Almaz Ulvi Binnatova.</b> Lirik – romantik hekayətlərin poetikası ( <i>Xarəzmlı yazıçı Məhəbbət Səfanın yaradıcılığına nəzər</i> )	169
<b>Kemal Yavuz Ataman.</b> Harezmden Anadolu‘ya, Anadolu‘dan dunyaya, Hz. Mevlânâ	178
<b>Ahmedov Hoshimjon.</b> Ibrohim G‘afurov mansuralarida vatan mavzusi	187
<b>Pirnazarova Manzura.</b> Badiiy tasvir vositalarining she‘rlarda qo‘llanilishi	191
<b>Rahimova Bekposhsha.</b> Matnazar Abdulhakim she‘riyatida tuyg‘ular tasviri	196
<b>Sayyora Samandar.</b> Davr sinovidan o‘tgan, abadiyatga yuz tutgan asar	200
<b>Kurbanova Saida, Bekturdiyeva Nilufar.</b> Badiiy publitsistikada zamondoshlarimiz ma‘naviy-intellektual qiyofasi (O‘. Hoshimov badiiy publitsistikasi misolida)	206
<b>Ataxanova Venera.</b> “Kitobi dadam qo‘rqut” asari shoxobchasi va Xorazm dostonlari tahlili	211
<b>Saidjanova Zebo, Rahimova Iroda.</b> Mumtoz she‘riyatda istixroj san‘atining qo‘llanilishi	215
<b>Yangiboyeva Sohiba.</b> Tohir Malikning “Azaliy nasiba” asari xususida	220
<b>Matnazarova Saida.</b> Estetik tafakkur va shoir poetikasining uyg‘unligi	224
<b>Otamuratova Muyiba O‘ktamovna.</b> Xosiyat rustamova she‘riyatida	231

falsafiy qarashlar ifodasi	
<b>Qo'ziyeva Dilorom.</b> Ogahiy g'azallaridagi xavf maqomı haqida ba'zi mulohazalar	235
<b>Xudoyberganov Abdulla.</b> Ahmad Yassaviy tasavvufiy qarashlarining tasavvuf adabiyoti rivojıdagi o'rni xususida ba'zi mulohazalar	240
<b>Xajiboyev Kishin.</b> "Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romanida inson va tabiat munosabatlarining ijtimoiy-falsafiy asoslari talqini	244
<b>Ochilova Ozoda.</b> Najmiddin Kubro obrazi — jahoniy ibrat timsoli	248
<b>Quranbayeva Gulianbar.</b> Sirojiddin Sayyidning esse va xotiralarida badiiy-publitsistik talqin ustuvorligi	253
<b>Bekchanova Sevara.</b> Zamonaviy adabiy jarayon haqida fikrlar munaqqid Ibrohim G'ofurov talqinida. ("Aql va yurak ma'nosini izlayman" nomli suhbatı misolida)	257
<b>Tillayev Bahodir.</b> Tohir Malikning "Shaytanat" romani va undagi ayrim qahramonlar xarakteri tahlili	261
<b>Xaqqulova Dilshoda.</b> Turk adabiyotida yangi bir "Yunus"	265
<b>Yuldasheva Mohira.</b> O'tkir Hoshimovning badiiy so'z qo'llash mahorati (romanlari misolida)	272
<b>Yuldasheva Mohira.</b> O'tkir Hoshimov asarlarida uslub va badiiy til	277
<b>Ahmedova Muhlisa.</b> Badiiy adabiyotda folklor an'analari va Nazar Eshonqul ijodi	282
<b>Asatjanova Iroda.</b> Oydin Hojiyeva she'rlarida tarixiy shaxslar talqini	285
<b>Berdirasulova Nargiza.</b> She'riyatda badiiy tasvir va talqin mutanosibligi (Guljamol Asqarova va Xosiyat Rustamova ijodi misolida)	290
<b>Erkinbayeva Lobar.</b> Isajon Sulton asarlari badiiyati mukammalligini ta'minlashda folklor namunalaridan foydalanishi	295
<b>Gulimova Rixsiya.</b> Mirzo Kenjabek ijodida individuallik	301
<b>Haytboyeva Maftuna.</b> Asqad Muxtor ijodida bog' timsoli	305
<b>Ishmuratova Muhayyo.</b> Maxtumquli ijodida folklor stilizatsiyasi	310
<b>Karimova Dilnoza.</b> Alisher Navoiy g'azallarida peyzaj	313
<b>Komiljanova Mohidil.</b> Shoira Shams lirikasida qo'llanilgan badiiy san'atlar	317
<b>Khadjiboyeva Farida.</b> Abdulla Qahhor hikoyalarida davr muammolari	321
<b>Muxanova Maftuna.</b> Tarixiy romanda yozuvchi uslubining aks etishi (Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romani misolida)	326
<b>Nazarova Nafisa.</b> Omon Matjonning "Nega men?" dostoniga mulohazalar	331
<b>Normetova Lobar.</b> Ogahiy fardlarida ma'naviy san'atlar istifodasi	335
<b>Oqmuratova Hurmatoy.</b> Alisher Navoiyning "Mahbub ul – qulub" asaridagi ijtimoiy falsafiy qit'alar tahlili	340
<b>Otaboyeva Muhayyo.</b> Eshqobil Shukurning "Ibtido xatosi" dostonidagi ezgulik va yovuzlik timsollari	343
<b>Otaxonova Zubayda.</b> Aziz Saidning "Turg'unlik bolalari" dostonida tragizm	348

<b>Qo'ziyeva Shahrizoda.</b> Shuhrat Matkarimning "Yaxshilik" va "Saxovat" hikoyalarida insoniylik g'oyalari talqini	354
<b>Raimboyeva Sojida.</b> Ozod Sharafiddinov suhbatlarida tanqidchilik masalalari	359
<b>Raximov Ruslan.</b> Yozma adabiyotda maqol janrining tarixiy taraqqiyoti ("Devonu lug'otit turk", "Qutadg'u bilig", "Hibat ul-haqoyiq" asarlari misolida)	365
<b>Ro'ziboyeva Maftuna.</b> Oshiq Erkinning xalq og'zaki ijodi ta'sirida yaratilgan she'rlari badiiyati	370
<b>Ro'zimova Saboxon.</b> Sayyora Samandarova ijodida vatan motivi	374
<b>Ro'zmetova Moxfuza.</b> Mahmud Toir ijodida kichik she'riy shakllarning tutgan o'rni	377
<b>Sa'dullayeva Darmonjon.</b> "Mashaqqatlar girdobi" romanida badiiy psixologizm talqini (Davron obrazi misolida)	380
<b>Urinboyeva Surayyo.</b> Usmon Azim she'rlarida lirik qahramon talqini xususida	385
<b>Xajikurbanova Nilufar.</b> Nasriy asarlarda yozuvchi badiiy mahorati	390
<b>Xudarganova Dildora.</b> Ulug'bek Hamdam nasridagi badiiy mahorat	394
<b>Yangiboyeva Rayhonoy.</b> Ixlos-najot kaliti	399
<b>Sharipova Lobar.</b> Shoirning diniy-ma'rifiy mavzudagi she'rlari xususidagi qarashlar	403
<b>Abdullayeva Elnura.</b> "Oydinda yurgan odamlar" qissasida milliy qadriyatlar talqini	408
<b><u>5- SHO'BA: TILSHUNOSLIKNING NAZARIY VA AMALIY MASALALARI</u></b>	
<b>Uluqov Nosirjon Muxammadaliyevich.</b> Tarixiy geortonimlarning etnolingvistik va lingvokulturologik xususiyatlari	412
<b>Mirzayev Ibodulla Kamolovich.</b> XI-XII asrlar turkiy yodgorliklarning funksional morfologiyasi professor H.Ne'matov talqinida	418
<b>Norbayeva Shukurjon Xayitbayevna.</b> Xorazm shevalari leksikasi tadqiqida "devonu lug'otit turk" asarining o'rni	422
<b>Ro'zimboyev Sarvar Sapparbayevich.</b> Xalq dostonlarida koloronimlar bilan bog'liq nomlarning qo'llanishi	427
<b>Qodirova Xurshida Marselovna.</b> Tilshunoslik ilmiy maktablarini belgilash mezonlari	433
<b>Aqmanova Shahnoza Alimboyevna.</b> Xorazm gidronimiyasining motivlanish asoslariga doir	436
<b>Alimova Shahnoza Maqsudovna.</b> O'zbek shevalarini o'rganishda yangicha yondashuvlar	442
<b>Дзугаева Зарина Руслановна.</b> Проблемы медицинского перевода и методы их решения в процессе обучения студентов неязыковых вузов	446
<b>Turdaliyeva Dilfuza Soloxidinovna.</b> Maqollarda olam lisoniy manzarasining ifodalanishi	451
<b>Raximbayev Musobek Komiljon o'g'li.</b> O'zbek mumtoz adiblari asarlarini raqamlashtirish va leksik tahlil qilish bosqichlari	455

**FILOLOGIYA VA SAN'ATSHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI**  
**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman**  
**MATERIALLARI**

**3/4-iyun, 2025-yil**

**I jild**

Nash.lits. №211573  
Bosishga ruxsat etiladi: 23.05.2025 yil  
Bichimi 60 x 84 <sup>1/16</sup>. "Times New Roman"  
garniturada raqqli bosma ustida chop etildi.  
Shartli bosma tabog'i 28. Adadi 100. Buyurtma № 29-05  
Tel: (33) 701 12 00, (99) 564 63 20  
"Khwarezm publication" MCHJ nashriyoti.  
220502, Urganch t. Zargarlar mahallasi Marvarid ko'chasi 8-yo'lak 4-uy.  
"Khwarezm travel" bosmaxonasida chop etildi.  
Urganch t. Zargarlar mahallasi Marvarid ko'chasi 8-yo'lak 4-uy.